E-ISSN 2181-1466
9 772181 146004

ISSN 2181-6875
9 772181 687004

@buxdu_uz @buxdu1 @buxdu1 www.buxdu.uz

Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University
10(3)/2026

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



10(3)/2026

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal
2026, № 10, oktabr

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo‘yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo‘yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo‘yicha, **tarix** fanlari bo‘yicha 2023-yil 29-avgustdan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruriy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan. Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti
Tahririyat manzili: 200117, O‘zbekiston Respublikasi,Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy.
Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY’ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bosh muharrir o‘rinbosari: Samiyev Kamoliddin A’zamovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mas’ul kotib: Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)
Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)
Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)
Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)
Bezdudnaya A. G., Sankt-Peterburg davlat iqtisodiyot universiteti professori, iqtisodiyot fanlari doktori
Razumovskiy V. M., Sankt-Peterburg davlat iqtisodiyot universiteti professori, iqtisodiyot fanlari doktori
Zahidov A. A., Texas universiteti professori, fizika-matematika fanlari doktori
Kovalev I. V., Sibir Federal universiteti professori, texnika fanlari doktori
Ibrayeva K. T., Tyumen davlat universiteti, Ekologiya va qishloq xo‘jaligi biologiyasi instituti, texnika fanlari nomzodi
Tursunjon M., Shinjon Uyg‘ur Avtonom Rayoni Qishloq xo‘jaligi fanlari akademiyasi, Paxta ilmiy-tadqiqot instituti professori, qishloq xo‘jalik fanlari doktori
Ai Syan Tao, Shinjon Universiteti Aqlli qishloq xo‘jaligi instituti direktori, qishloq xo‘jalik fanlari doktori, professor
Tursunov D.A., O‘sh davlat universiteti professori, fizika-matematika fanlari doktori
Zagdkhorol Bayasgalan, Mongolian University of Science and Technology professori, fizika-matematika fanlari doktori
Gumerov Renat, Qozon federal universiteti professori, fizika-matematika fanlari doktori
Babayeva F. Sh., Ozarbayjon milliy fanlar akademiyasi professori, falsafa fanlari doktori
Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)
Mo‘minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Rasulov To‘lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor
Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor
Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)
Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor
Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor
Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent
Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor
Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor
Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor
Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor
O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor
Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor
To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor
Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qahhorov Otabek Siddiqovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor
Axmedova Shoira Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor
Bekova Nazora Jo'rayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Hamroyeva Shahlo Mirjonovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Nigmatova Lola Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Jamilova Bashorat Sattorovna, filologiya fanlari doktori, professor
Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori
Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Xolliyev Askar Ergashovich, biologiya fanlari doktori, professor
Artikova Hafiza To'ymurodovna, biologiya fanlari doktori, professor
Norboyeva Umida Toshtemirovna, biologiya fanlari doktori, professor
Hayitov Shavkat Ahmadovich, filologiya fanlari doktori, professor
Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Ixtiyarova Gulnora Akmalovna, kimyo fanlari doktori, professor
Rasulov Zubaydullo Izomovich, filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, texnika fanlari doktori, professor
Yuldosheva Dilorom Nigmatovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Sharipov M. Z., fizika-matematika fanlari doktori, professor
Esanov Husniddin Qurbonovich, biologiya fanlari doktori, dotsent
Raupov Soyib Saidovich, tarix fanlari nomzodi, professor
Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, professor
Jumayev Jura, fizika-matematika fanlari nomzodi, professor
Qurbonova Manzila Bakiyevna, tarix fanlari nomzodi, professor
Ochilov Alisher To'lis o'g'li, tarix fanlari doktori, professor
Klichev Oybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori, dotsent
G'aybullayeva Nafisa Izattullayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'rinova Bozorgul Zokirovna, tarix fanlari doktori, dotsent

SERIYA: T I L SH U N O S L I K

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS		
TILSHUNOSLIK * LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ**		
Xodjayeva D.I.	Terminlarni tasniflashga doir ilmiy-nazariy qarashlar	3
Asadov T.H.	O‘zbek tilida modal so‘zlar tadqiqi, ular bilan bog‘liq morfologik oraliq so‘zlar	8
Сохибов A.P., Очилова H.M.	Язык, культура, народы и народности: взаимосвязь и роль в сохранении национальной идентичности	12
Aripova Sh.Sh.	Harbiy diplomatiyada ingliz tilining funksional-lingvistik asoslari	17
Xamidova M.A., Ro‘ziboyeva S.O‘.	Korpus lingvistikasining zamonaviy fan va kasb sohalaridagi amaliy ahamiyati	22
Abdinazarov Kh.Sh.	Frame interpretation in understanding terminology “drilling” of oil and gas industry	27
Axrorova J.A.	O‘zbek tilida metonimiyaning lingvomadaniy xususiyatlari va uning tadqiq tizimi	32
Begimqulova D.B.	Ingliz tilida o‘zlashma reduplikativ birliklarning etimologik va shakliy xususiyatlari tahlili	38
Bozorbekov A.S.	Logistika sohasidagi yangi terminlarning shakllanish xususiyatlari	45
Ergasheva G.B.	O‘zbek va ingliz tillarida davlat boshqaruvi terminlarining yasalishi: nazariy asoslar va qiyosiy tahlil	50
Khametov I.R.	Emotional and evaluative functions of climate neologisms in English digital communication	54
Kuryazova F.E.	O‘zbek milliy media makonida feyk axborot: tarqalish xususiyatlari va lingvo-texnik muammolar	59
Maxmudjonova G.U.	O‘zbek tili talaffuz lug‘atini G2P modeli asosida avtomatik shakllantirish	63
Navro‘zova A.A.	Realiyalarning ekvivalentsiz leksika tizimidagi o‘rni	68
Turdiyeva D.S.	Lingvokulturologiyada implikatura va presuppozitsiyaning milliy-madaniy xususiyatlari	73
Usmanaliyeva S.R.	Ingliz va o‘zbek frazeologizmlarida milliy-madaniy skriptlarning semantik strukturasi:qiyosiy-kognitiv tahlil	77
Xamidova M.A.	Bolalar adabiyoti tarjimasida sun’iy intellektdan foydalanish: inson va generativ sun’iy intellekt tarjima strategiyalarining qiyosiy tahlili	82
Yuldasheva D.N., Asadova Sh.A.	Frazeologizmlar olamni idrok etish usuli sifatida	88

Arolov X.T.	Nemis tilida o‘zlashtirma buyruq gaplarning struktur-semantik va pragmatik xususiyatlari	94
Бушуй Т.А.	Гастрономические образы в русской и английской фразеологии: лингвокультурологическая интерпретация	99
Фалеева А.В.	Когнитивно-семантические механизмы репрезентации юмора, иронии и сарказма в английской коллоквиальной лексике	108
Usmonova U.B.	Mediamatn ekspressivligini oshirishda leksik-semantik vositalarning o‘rni	115
Safarova O.M.	“Farmatsiya” konseptining leksikografik va kognitiv-pragmatik talqini	120
To‘xtasinova Z.Z.	The formation and social nature of professional lexicon in Uzbek online commerce discourse	125
Karimov Sh.D.	Navoiy viloyati toponimiyasi: lingvistik tasnif va etimologik tahlil	131
Ochilova M.R.	Ingliz va o‘zbek san’atshunoslik terminlarining korpusga asoslangan chastotaviy tahlili	135
Pirmatova X.Dj.	Ayollikni til va obraz orqali ifodalashning lingvopoetik mexanizmlari – nominatsiya, somatik detal va sukut poetikasi (Perl Bak romanlari misolida)	139
Yigitaliyeva Z.M.	O‘zbek va nemis matnlarida persuaziv vositalar va xushmuomalalik kategoriyasining qiyosiy tahlili	144
Davlatova A.A.	Ingliz va o‘zbek bolalar nutqidagi semiotik elementlarning o‘ziga xos xususiyatlari	148
Salimova M.A.	O‘zbek badiiy nasrida lisoniy vositalar modifikatsiyasi: “iblis devori” qissasidagi frazeologik transformatsiyalarning semiotik va estetik vazifalari	152
Raxmatulloyev E.I.	G‘afur G‘ulom va Mark Tven asarlarida idiomalarning lingvomadaniy xususiyatlari: qiyosiy tahlil	157
Mavlanova X.G.	Fonetik birliklarning badiiy-estetik vazifasi (Sh.Boshbekovning “Eshik qoqqan kim edi” asari misolida)	161
Qosimova Z.S.	Tarjimashunoslikda ekvivalentlik nazariyalari va lingvostilistik ekvivalentlik tushunchasi	166
G‘aniyeva D.X.	Raqamli ta’lim diskursining konseptual-nazariy asoslari: an’anaviy va virtual ta’limiy muloqotning farqli jihatlari	170
Alimbekova V.X.	Janubi-sharqiy Andijon shevalari leksikasining areal tadqiqi: ilmiy-nazariy asoslari va o‘rganilish metodologiyasi	174

UO‘K 81-2

TERMINLARNI TASNIFLASHGA DOIR ILMIY-NAZARIY QARASHLAR

Xodjayeva Dilafro‘z Izatilloyevna,
Buxoro davlat universiteti
Ingliz adabiyotshunsoligi va tarjimashunoslik
kafedrasi mudiri, DSc, dotsent
d.i.xodjaeva@buxdu.uz

Annotatsiya. *Mazkur maqolada terminlarni tasniflash masalasiga oid ilmiy-nazariy qarashlar tizimli ravishda ko‘rib chiqilgan. Unda terminlarni mavzuviy guruhlashning mohiyati, uning terminologik tizimni tavsiflashdagi o‘rni va ilmiy-amaliy ahamiyatini yoritishga alohida e’tibor qaratilgan. Xususan, mavzuviy guruhlashtirish terminlarni muayyan mavzu, tushuncha yoki g‘oya atrofida birlashtirish usuli sifatida izohlanib, uning terminologik tizimni yaxlit holda o‘rganish imkoniyatlarini ochib berishi ta’kidlangan. Mavzuviy tasnifning lingvosotsiologik ahamiyati ham asoslangan bo‘lib, terminlarning jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar bilan bog‘liqligiga e’tibor qaratilgan. Tadqiqot natijasida terminlarni tasniflash mezonlarining terminologik tizimni tavsiflash va maxsus lug‘atlar yaratishdagi ahamiyati asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *termin, terminologiya, terminlar tasnifi, mavzuviy guruh, leksik-semantik guruh, lingvodidaktik terminologiya, terminologik tizim, semantik tasnif, formal tasnif, morfologik tasnif.*

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ НА КЛАССИФИКАЦИЮ ТЕРМИНОВ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются научно-теоретические взгляды на проблему классификации терминов. Особое внимание уделено раскрытию сущности тематической группировки терминов, её роли в описании терминологической системы, а также её научно-практической значимости. В частности, тематическая группировка трактуется как способ объединения терминов вокруг определённой темы, понятия или идеи, при этом подчёркивается, что данный подход раскрывает возможности для целостного изучения терминологической системы. Обоснована также лингвосоциологическая значимость тематической классификации, с акцентом на связь терминов с социально-экономическими и культурными процессами, происходящими в обществе. В результате исследования обосновывается значение критериев классификации терминов для описания терминологической системы и создания специальных словарей.*

Ключевые слова: *термин, терминология, классификация терминов, тематическая классификация, лексико-семантическая группа, лингводидактическая терминология, терминологическая система, семантическая классификация, формальная классификация, морфологическая классификация.*

SCIENTIFIC AND THEORETICAL PERSPECTIVES ON THE CLASSIFICATION OF TERMS

Abstract. *This article deals with the scientific-theoretical views on the issue of classifying terms. Particular attention is devoted to elucidating the essence of the thematic grouping of terms, its role in characterizing the terminological system, and its scientific-practical significance. Specifically, thematic grouping is interpreted as a method of uniting terms around a particular topic, concept, or idea, and it is emphasized that this approach reveals opportunities for studying the terminological system as an integrated whole. The linguo-sociological significance of thematic classification is likewise substantiated, with attention drawn to the connection between terms and the socio-economic and cultural processes occurring in society. As a result of the study, the significance of term-classification criteria for characterizing the terminological system and for compiling specialized dictionaries is substantiated.*

Keywords: *term, terminology, term classification, thematic classification, lexical-semantic group, linguodidactic terminology, terminological system, semantic classification, formal classification, morphological classification.*

Kirish. Ayonki, muayyan tilning leksik boyligi yoki terminologik tizimini mavzuviy guruhlar bo‘yicha tasniflash lingvistikada keng va ko‘p qo‘llaniladigan tahlil usullaridan biri hisoblanadi. So‘z yoki terminlarni mavzuviy guruhlar bo‘yicha tasniflashda ularning ma’nosi va nominatsion vazifasi e’tiborga olinadi. Bunday tasniflashda so‘zlarning o‘z ma’nosiga ko‘ra qaysi turkumdagi predmetlarga aloqadorligi,

qaysi turkumdagi predmetning nomi ekanligi muhim hisoblanadi. Bir umumiy mavzu, tushuncha va g‘oya atrofiga uyg‘unlashgan so‘zlar yoki terminlar alohida mavzuviy guruhni tashkil etadi [1, 78].

Qayd etilganidek, tilshunoslikda muayyan til leksikasi yoki terminologiyasini tadqiq etish amaliyotining turli usul va yo‘llari mavjud bo‘lib, ular orasida mavzuviy guruhlar bo‘yicha tasnif etib o‘rganish nisbatan keng tarqalgan. Mavzuviy guruh tushunchasi bo‘yicha quyidagi xulosaviy fikrlarni ifodalash mumkin: 1) so‘z-teminlarni mavzuviy guruhlarga ajratish til leksikasi yoki terminologiyasini tizim sifatida tavsiflash va o‘rganish usullaridan biridir; 2) so‘z-terminlarni mavzuviy guruhlarga ajratishda asosiy o‘lchov predmetlilik va nominatsion xususiyatlar hisoblanadi.

Ayonki, har bir leksema tarkibida uch xil sema mavjud bo‘ladi: atash semasi, ifodalash semasi (konnotativ semalar) va vazifa semasidir. Leksik birliklarni mavzuviy guruhlar bo‘yicha tasniflashda ularning, asosan, atash va vazifa semalari hisobga olinadi. Leksemaning ifoda semasi esa leksik-semantik guruhda tahlil etiladi [12, 75]. Terminlar borasida ham mazkur fikrlarni aynan qo‘llash mumkin. Ularni mavzuviy guruh usuli asosida tasniflab o‘rganish quyidagilarga ko‘ra ilmiy-nazariy ahamiyatga ega:

1) ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy hayotning ma’lum sohalari, chunonchi, ilm-fan, madaniyat, ta’lim, iqtisod kabilar bo‘yicha aniq va yaqqol tushuncha hosil etish, ularning shakllanishi, rivoji va takomillashuvi xususidagi bilimlarni boyitishga asos bo‘ladi. Chunki mavzuviy guruhlarning miqdori muayyan xalqning ijtimoiy hayoti bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Xalqning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, ijtimoiy-madaniy turmushi va diniy qarashlariga oid ma’lumotlar so‘z-terminlarning mavzuviy guruhlarida aniq o‘z ifodasini topadi. So‘z-terminlarni mavzuviy guruhlar bo‘yicha tadqiq qilish tilning xalq hayoti bilan bog‘liq xususiyatlarini ham namoyish etishga keng imkon beradi. Bu jihatga ko‘ra mavzuviy tasnif usuli lingvosotsiologik ahamiyat kasb etadi;

2) muayyan xalq tilida so‘z-terminlarning tarkibi va miqdori xususida aniq tasavvur hosil etish uchun asos bo‘ladi, ularning qaysi sohada yoki yo‘nalishda keng qo‘llangani va uning asosiy sabablarini izohlashga keng imkoniyat yaratadi;

3) muayyan til terminlarida yuz bergan tarixiy o‘zgarishlarni hozirgi davr leksikologiyasi nuqtayi nazaridan aniq baholashga shart-sharoit yaratadi.

Tasnif so‘zi arabcha bo‘lib, uning lug‘aviy ma'nosi quyidagicha: narsa va hodisalarni ularning o‘ziga xos belgi, xususiyatlariga qarab tur, turkum va shu kabilarga ajratishdir. Tasnif insonning bilim faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi, u fikr yuritish jarayonlaridan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-texnikaviy kabi sohalarning jadal rivojlanishi ular uchun dolzarb bo‘lgan nazariyalarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Terminlar turli sohalardagi bilim natijalarini tilda yaqqol va aniq ifodalashiga ko‘ra alohida ajralib turadi. Ularning asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilarni aytib o‘tish mumkin: terminlar obyektni aks ettirgan tushunchaga to‘liq muvofiq keladi, ularda aniq ma'lumot ifodalanadi, uslubiy betaraflik va izchillikni kuzatish mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Terminlar turli aspektlarda tasniflangan. Bunga R.F.Proninaning morfologik tasnifini aytib o‘tish mumkin. Uning tasnifi quyidagicha: 1) oddiy (resistance, spin) terminlar; 2) murakkab (flyweight, earthometer) terminlar; 3) termin-iboralar // ko‘p komponentli terminlar (meter multiplier, computer assisted drafting machine) [10, 8].

V.M.Leychikning fikricha, termin konsepsiyasi ma’lum xususiyatlarga ega bo‘lgan ko‘p qirrali tushunchadir. Shunga ko‘ra u terminlarning ikki xil – umumiy va individual xususiyatlarini e'tiborga olib, o‘zining quyidagi tasnifini tavsiya etadi:

1) umumiy ilmiy va texnik terminlar, kategoriya terminlari, tarmoqlararo terminlar, maxsus terminlar;

2) rasmiy, funksional, til ichki va tashqi omillariga asoslangan terminlar [9, 17].

Anglashiladiki, olim terminlarning umumiy xususiyatlarini e'tiborga olib, ularni umumiy ilmiy va texnik terminlar, kategoriya terminlari, tarmoqlararo terminlar, maxsus terminlar tarzida tasniflash zarur deb hisoblaydi. Individual xususiyatlarni e'tiborga olib esa umumiy ilmiy va texnik terminlar, kategoriya terminlari, tarmoqlararo terminlar, maxsus terminlar sifatida tasniflaydi.

Lingvodidaktik terminologiyani mavzuviy guruhlar bo‘yicha tasniflash til leksikasini tizimlashtirishining muhim shakllaridan biridir. Mavzuviy guruhlarni ajratishda, eng avvalo, tuzilma unsurlari o‘rtasidagi lisoniy va nolisoniy shartlanganlik mezonlarini hisobga olish kerak. Chunki mavzuviy guruhlar uchun elementlararo munosabatlarning ekstralingvistik asosi muhim hisoblanadi.

Mavzuviy guruhlar va leksik-semantik guruhlar orasidagi differensiyalashgan belgilarni izlash ma'lum ma'noda qiyinchiliklarni yuzaga keltirishini L.Veysgerber alohida ta’kidlaydi. U lisoniy maydon va leksik-semantik guruh tushunchalari bir-biridan farqlanishi, biroq leksik-semantik guruh struktur va funksional jihatdan tilning semantik tizimiga to‘liq mos kelishi, mavzuviy guruhlar esa “tashqi dunyo bilan aloqa” asosida aniqlanishini ta'kidlaydi.

Mavzuviy guruhlarni boshqa sistem-struktur tuzilmalardan ajratishda muhim xususiyatlardan yana biri shuki, ularning unsurlari orasidagi mutlaqo farqli munosabatlarning mavjud bo‘lishidir. Ma'lum bir vaziyatda ularda ichki tuzilmaviy aloqalar bo‘lmaydi. Leksik-semantik birliklarning mavzuviy guruhlardan farqi shundaki, ular bir chiziqli tuzilma bilan emas, balki “ikki o‘qqa asosan qurilgan semantik maydon tamoyili”ga asoslangan tuzilma ekanligidir. Terminlarni tasniflashda ularning ma'no-mazmuni, lisoniy shakli, vazifasi, tilning ichki va tashqi belgilarini e'tiborga olish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

A.V.Superanskayaning ta’kidlashicha, terminologiya sohasida olib borilayotgan qator ilmiy izlanishlarga qaramay, terminlarni turli usullar asosida tasniflash masalasi hali ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Turli manbalarga tayangan holda, quyidagi tasniflash parametrlari muhim deb topilgan: qo‘llanish sohasi, til-manba, mazmun va shakliy tuzilishi, morfologiyasi va terminning tarkibi. Terminlar va termin tizimlarini ushbu aspektlarda tahlil qilish terminologiyaning zamonaviy holatini umumiy tavsiflash, eng yangi terminologiyalarni tasniflash, ayrim terminologik sohalarni qiyosiy tipologik tadqiq etish va maxsus lug‘atlar tuzish tamoyillarini bir xillashtirish imkonini beradi. Terminlar tasnifi, boshqa har qanday tasnif kabi, tushunchalarni uyushish yoki ajratilish prinsipiga asoslanadi [15, 34].

Natija va muhokama. Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqib, biz terminlarni tasniflashga oid asosiy yondashuvlarni quyidagicha sharhlaymiz:

1. **Qo‘llanish sohasi bo‘yicha tasniflash.** Terminlar qo‘llanish sohasi bo‘yicha ***til terminlari*** va ***nutq terminlari***ga ajratiladi. *Nutq terminlari* ba’zan qisqartirilgan shakllarni ham o‘z ichiga olishi mumkin (masalan, *AI – Artificial Intelligence*). Bu tasnif terminologik leksikaning me’yorlarga muvofiqligini ta’minlash masalalari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ayniqsa, professional jargonlarning nojo‘ya ishlatilishiga aloqador. Har qanday termin adabiy til me’yorlariga to‘liq javob berishi va undagi normativlik talablariga mos bo‘lishi lozim.

2. Til – manbaga ko‘ra tasniflash. Manbasiga ko‘ra terminlar quyidagi guruhlarga bo‘linadi: ***tub terminlar, o‘zlashma terminlar*** va ***gibrid terminlar***. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, qadimgi davrlarga oid leksik birliklarning aksariyati zamonaviy kasbiy terminologiyaga kirib kelgan bo‘lib, bu birliklar turli davrlarda tilning rivojlanish va shakllanish jarayonlarini aks ettiradi.

L.P.Krisin fikriga ko‘ra, “tilda sodir bo‘layotgan eng faol va ijtimoiy ahamiyatli jarayonlardan biri chet tillaridan o‘zlashgan so‘zlarning qo‘llanish faolligidir” [7, 143]. Ushbu jarayon yangi ilmiy yo‘nalishlar va tadqiqotlar rivojini aks ettiruvchi shakllanayotgan terminologiya uchun ham xosdir. Shu bilan birga, ayrim tilshunoslar o‘zlashma leksikaning tilga moslashish jarayoni yetarli darajada tez kechmayotgani sababli ona tilining lug‘aviy chegaralarini kengaytirishi, ba’zan esa uning yaxlitligiga tahdid solishi mumkinligi haqida fikr bildiradilar [13, 7]. Tilning o‘zlashmalar hisobiga yangilanib borishi jarayoni kuzatilmoqda. Shu o’rinda V.G.Kostomarovning rus tili haqidagi quyidagi fikrini keltiramiz: “Rus tili o‘zining ko‘p sonli suffiks, prefiks va qo‘shimchalari bilan o‘zlashma so‘zlarni qabul qilishga yuqori darajada moslashuvchan bo‘lib, ushbu so‘zlarni osonlik bilan integratsiya qila oladi” [6, 24].

Chet tillaridan kirgan terminlar til tizimiga to‘liq shaklda yoki ayrim termin elementlari sifatida o‘zlashtirilishi mumkin. Turli tillardagi terminologiyalar o‘zlashgan leksikasining asosiy qismini yunon-lotin morfemikasi asosida shakllangan xalqaro leksika tashkil etadi. Ushbu terminlar nafaqat alohida milliy tillarda, balki xalqaro terminologik tizimda ham keng qo‘llaniladi. V.V.Vinogradovning ta’kidlashicha, bunday terminlar dunyo sivilizatsiyasi umumiy lug‘aviy boyligining tarkibiy qismini tashkil qiladi. Ularning xalqaro maydonda keng tarqalishi ilmiy-texnik va madaniy aloqalarning rivojlanishi bilan uzviy bog‘liqdir. Shu bois, bunday terminologik birliklar nafaqat lingvistik, balki madaniy-falsafiy jihatdan ham alohida ahamiyat kasb etadi [2, 54].

Chet tillaridan o‘zlashgan terminlarning mahalliy tilda mavjud bo‘lgan terminlarga nisbatan bir qator afzalliklari mavjud. O‘zlashgan element, neytral xususiyatga ega bo‘lib, qo‘shimcha ma’no yoki ekspressiyaga ega emas va maksimal darajada monosignifikativ bo‘lish xususiyatiga ega.

A.A.Reformatskiyning fikriga ko‘ra, xalqaro elementlardan tashkil topgan terminlar turli til vakillari uchun oson tushunarli bo‘ladi. Ushbu terminlar aniqligi va qisqaligi bilan ajralib turadi, shuningdek, ularning semantik asoslari bir xil terminologik paradigmalarni shakllantirishga imkon yaratadi. Bu esa yangi terminlarni yaratish jarayonini yengillashtiradi va terminologiyaning barqarorligini ta’minlaydi [11, 125].

Chet tillardan o‘zlashgan terminlar mahalliy tilda mavjud bo‘lgan so‘zlarga xos turli assotsiatsiyalarni keltirib chiqaradigan semalarning yo‘qligi bilan ajralib turadi. Masalan, *"prefiks"* termini mahalliy tildagi *"pristavka"* so‘ziga nisbatan ko‘proq muvaffaqiyatli hisoblanadi. Chunki *“pristavit”* so‘zining semantikasi nuqtayi nazaridan, bu harakatni nafaqat so’zning old tomondan, balki orqa tomonidan ham amalga oshirish mumkinligi tushuniladi. Shu sababli, *“prefix”* termini aniqlik va neytrallik tamoyillariga ko‘proq mos keladi.

3. Terminlarning semantik tuzilishi bo‘yicha tasnifi. Terminlar mazmuniy (semantik) tuzilishi asosida *bir ma’noli* va *ko‘p ma’noli* terminlarga ajratiladi. Terminologiyada “ideal termin” tushunchasi bitta termin

tizimi doirasida faqat bitta ma’noda ishlatiladigan maxsus so‘zlarga nisbatan qo‘llaniladi. Y.V.Slojenikina "ideal termin"ning ma’nosi umumiy til semantikasiga zid bo‘lmasligi, termin ma’nosi maxsus terminni aniqlash va uni semantik jihatdan o‘xshash boshqa leksik birliklardan ajratish uchun yetarli miqdorda semantik komponentlarni o‘z ichiga olishi kerakligi haqida o‘z fikrlarini bildiradi. Bunday belgilar terminologiyaning aniqligini ta’minlash, ilmiy muloqotda chalkashliklarning oldini olish va termin tizimining barqarorligini saqlash uchun zarurdir [14, 27].

4. Formal tuzilma bo‘yicha tasniflash. B.N.Golovin terminlarni formal tuzilishiga ko‘ra tasniflashni taklif etadi. Ushbu tasnif doirasida terminlarni ikki asosiy turga ajratish maqsadga muvofiqdir: *so‘z-terminlar* va *so‘z birikmasidan iborat terminlar*. So‘z-terminlar morfem tuzilishi bo‘yicha quyidagicha tasniflanadi: oddiy (tub) terminlar – faqat bitta o‘zakdan tashkil topgan; yasama terminlar – o‘zak va affiksdan tashkil topgan; murakkab terminlar – ikki yoki undan ortiq so‘zdan tashkil topgan; qisqartmalar – qisqa shaklda ifodalangan leksik birliklar [3, 70].

S.V.Grinev so‘z-terminlarni ularning strukturaviy turlariga muvofiq tasniflashni taklif etadi. U quyidagi kategoriyalarni ajratib ko‘rsatadi:

Oddiy terminlar – faqat bitta o‘zakdan tashkil topgan;

Affiksal terminlar – o‘zak va affiks birikuvidan tashkil topgan;

Murakkab terminlar – ikki yoki undan ortiq so‘zning birikmasidan hosil bo‘lgan.

Ushbu tasnif terminlarning shakliy va strukturaviy xususiyatlarini chuqur o‘rganishga imkon beradi va termin tizimining tuzilish jihatlarini yaxshiroq anglashga xizmat qiladi [4, 125].

So‘z birikmalaridan iborat terminlarda asosiy so‘zning morfologik xususiyati birikmaning turini aniqlaydi: *substantiv* (asosiy so‘z sifatida ot ishlatilgan), *adyektiv* (asosiy so‘z sifatida sifat ishlatilgan), *fe’l birikmalari*. Semantik tuzilishiga ko‘ra, so‘z birikmalaridan iborat terminlar erkin, barqaror va frazeologik bog‘langan bo‘lishi mumkin.

Terminologik birikmalar turli grammatik modellarga asoslanib shakllanadi va yuqori darajadagi o‘zgaruvchanlikka ega. Olimlar termin shakliga bir qator talablarni qo‘yadilar: qisqalik, fonetik, sintaktik va boshqa variantlarning mavjud bo‘lmasligi.

5. Morfologik nuqtayi nazardan terminlar *ot, fe’l, sifat* va *ravish* shaklida bo‘lishi mumkin. Fe’l va ravishlar, odatda, umumilmiy terminologik ma’noga ega bo‘ladi. Sifatlar esa murakkab terminlarning zaruriy elementlari bo‘lib, aniqlovchi so‘z vazifasini bajaradi (masalan, *zamonaviy metodika*).

Mazkur tasnif yondashuvlari zamonaviy terminologiyani tadqiq qilish, ilmiy til rivojlanishini aniqlash va uni takomillashtirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, deskriptiv terminologiya doirasida maxsus so‘zlarni tasniflashga oid turli yondashuvlar shakllandi, jumladan: qo‘llanish sohasi, til-manba, mazmuniy va formal tuzilma, morfologiya va terminning tarkibi kabilar [8, 71].

Ko‘rsatilgan mezonlar terminologiya nazariyasiga kiradi va turli xususiy terminologiyalarni tasvirlash hamda o‘rganish maqsadlariga xizmat qiladi.

Mavzuviy guruhlar o‘rtasidagi bog‘lanishlar bir-birini to‘ldiruvchi va aniqlovchi bo‘lishi mumkin yoki bir guruhning barcha ma'no doirasining boshqa guruhlarning ma’no doirasi bilan bog‘lanishi yoki bir guruh a’zosining ushbu guruhga kirmagan so‘zlar guruhlari bilan turli semantik aloqalari orqali amalga oshirilishi mumkin.

Mavzuviy guruhlar uyushgan tizimni tashkil qiladi. Bunday tizimda umumiy xususiyatlarning ustuvorligi nafaqat tizimlilik, balki tiplashganlik bilan ham bilan bog‘liq bo‘ladi. Bunday tabaqalanish mutlaq xususiyatga ega emas, zero terminlar o‘z ma'nolariga ko‘ra (to‘liq yoki qisman) bir birlariga o‘zaro o‘tish, o‘zaro kesishish xususiyatiga ega, ular sinonimik parallelliklarni hosil qilishlari va birikmali terminlarning tarkibiy qismlari bo‘lishi mumkin.

Tilshunos H.Dadaboyev o‘zbek terminshunoslari oldida quyidagi muammolarni hal etish vazifasi turganligini yozadi:

- umumqo‘llanish xarakteridagi ayrim terminlarning mutanosib variantlarining mavjud emasligi;
- ilm-fan va texnika soha terminlarini tartibga solish hamda bir xillashtirishning qoniqarsizligi;
- terminlarni qo‘llash jarayonida imloviy chalkashliklarga yo‘l qo‘yish;
- terminografiya masalalariga bugungi talablardan kelib chiqib yondashilmayotganligi,
- turli terminologik lug‘atlar tuzish va nashr qilish jarayonini boshqarish hamda nazorat qilishning sustligi;
- turli sohalarda qo‘llanuvchi terminlar aynanligini ta'minlaydigan metodik qo‘llanma va davriy byulletenning mavjud emasligi;
- ilmiy-texnikaviy terminlar bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy-nazariy tadqiqotlarning qoniqarli emasligi;
- sohalar bo‘yicha terminlar mavzuviy guruhlar doirasida talab darajasida tasniflanmaganligi;

- terminologiya masalalari bilan maxsus shug‘ullanadigan boshqaruv hamda monitoring qiluvchi muassasaning yo‘qligi [5, 96].

Xulosa. Yuqoridagilardan anglashiladiki, olim sohalar bo‘yicha terminlar mavzuviy guruhlar doirasida talab darajasida tasniflanmaganligini ta'kidlamoqda. Hozirgi o‘zbek terminologiyasida G‘arb tillari, ayniqsa, ingliz tilidan ko‘plab terminlar o‘zlashmoqda. Bu tizimda xorijiy tillarga taalluqli tushunchalarni o‘z ichki imkoniyatlar asosida ifodalash tamoyili yetakchilik qilmoqda. Bu kabi jarayonda chetdan o‘zlashmalarning bir qismi o‘zbekcha mutanosiblari bilan almashtirilmoqda yoki tarjima (kalka) qilinmoqda. Mazkur usul yangi tushunchalarni nomlashda qulayligi va mahsuldorligi bilan alohida ajralib turadi. Masalan, *axborot texnologiyalari* (information technologies), *grammatik tarjima metodi* (grammar-translation method) va boshq.

Tilning terminologik tizimi kishilarning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy faoliyati bilan bevosita aloqador bo‘lganligi uchun uzluksiz o‘zgarishda bo‘ladi, fan-texnika taraqqiyoti natijasida muntazam boyib boradi. Bunda terminlarning kelib chiqishi emas, balki ko‘proq tashqi belgilari e'tiborga olinadi. Terminlarni mavzuviy guruhlarga ajratish ularning funksional xususiyatlarini ham aniqlaydi va shu boisdan ham ularni leksik-semantik guruhlarga bo‘lib o‘rganish usulidan farq qiladi.

Xalqning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayoti, madaniy turmushi, diniy qarashlariga oid ma'lumotlar so‘z va terminlarning mavzuviy guruhlarida o‘zining yaqqol ifodasini topadi. Terminlarni mavzuviy guruhlarga ajratish muayyan til lug‘at tarkibini tizimli o‘rganishning qulay usullaridan biridir. Muayyan xalq tiliga doir terminlarni mavzuviy guruhlarga ajratib tadqiq qilish terminlarning tarixiy taraqqiyoti va jamiyatning qaysi sohalariga oid terminlar ishlatilganligini, ularning qo‘llanish doirasini aniqlashga, tilning tarixiy va zamonaviy holatini baholashga, xalq tarixini atroflicha yoritishga imkon beradi. Mavzuviy guruhlar muayyan xalqning ma'naviyati va madaniyatini o‘zida to‘liq mujassam etadi, desak xato qilmagan bo‘lamiz.

Ingliz va o‘zbek tillaridagi lingvodidaktik terminlarning mavzuviy guruhlarni o‘rganish hamda tasnif etish natijalari shuni ko‘rsatdiki, ikkala tilda ham mazkur terminlar alohida tizim va qatlam sifatida shakllangan. Shunga ko‘ra, ularning mavzuviy guruhlari tarkibiga kiruvchi terminlar turli-tuman bo‘lib, ular tarbiya jarayonining barcha tomonlarini o‘zida to‘liq aks ettiradi.

ADABIYOTLAR:

1. Абдушукуров Б. “Қиссаси Рабғузий” лексикаси: Филол. фанл. докт. (DSc) ... диссер. – Т., 2017. – Б. 78.

2. Виноградов В.В. Русский язык: Грамматическое учение о слове. – М.: Высшая школа, 1986. – С. 54.

3. Головин Б.Н. Лингвистические основы учения о терминах. – М.: Высшая школа, 1987. – С. 70.

4. Гринёв С.В. Исторический систематизированный словарь терминов терминоведения: учебное пособие. – М.: Московский педагогический университет, 2000. – С. 125.

5. Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. – T.: Yoshlar uyi, 2019. – B. 96.

6. Костомаров В.Г. Языковой вкус эпохи. – М.: Педагогика-пресс, 1994. – С. 24.

7. Крысин Л.П. Иноязычное слово в контексте современной общественной жизни // Русский язык конца XX столетия (1985–1995). – М.: Языки русской культуры, 2000. – С. 143-161.

8. Кухно И.Ю. Подходы классификации терминов // Современные исследования социальных проблем. – М. – № 3-1 (27), 2016. – С. 71-82.

9. Лейчик В.М. Предмет, методы и структура терминоведения: Автореф. диссер ... докт. филол. наук. – М., 1989. – С. 17.

10. Пронина Р. Ф. Перевод английской научно-технической литературы. 3-е изд., пе-рераб. и доп. – М.: Высшая школа, 1986. – С. 8.

11. Реформатский А.А. Введение в языковедение. – М.: Аспект Пресс, 1997. – С. 125-126.

12. Сайидов Ё. Жадид бадиий асарлари лексикаси: Филол. фанл. докт. (DSc) ... диссер. – Т., 2018. – Б. 75.

13. Скляревская Г.Н. Толковый словарь русского языка конца XX века. Языковые изменения. – СПб.: Институт лингвистических исследований РАН, 1998. – С. 7.

14. Сложеникина Ю.В. Основы терминологии: лингвистические аспекты теории термина. – М.: URSS, 2013. – С. 27.

15. Суперанская А.В. Общая терминология: Вопросы теории. – М.: Наука, 1989. – С. 34.

UO‘K 81

O‘ZBEK TILIDA MODAL SO‘ZLAR TADQIQI, ULAR BILAN BOG‘LIQ MORFOLOGIK ORALIQ SO‘ZLAR

Asadov To‘lqin Hamroyevich,
Buxoro davlat universiteti
O‘zbek tilshunosligi va jurnalistika
kafedrasi dotsenti, f.f.n.
t.h.asadov@buxdu.uz

Annotatsiya*. Mazkur maqolada modal so‘zlarning o‘rganilishi, ular bilan bog‘liq tadqiqotlarning ayrim jihatlari tahlilga tortilgan. Modal so‘zlarga xos xususiyat – uning semantik-grammatik tabiati misollar orqali yoritilgan. Modal so‘zlar hamda modal so‘zga yaqinlashayotgan boshqa turkum so‘zlari tahlil etilgan, lug‘atlardagi ayrim modal so‘z hamda mustaqil so‘z vazifasidagi oraliq so‘zlar tahlilga tortilgan.*

Kalit so‘zlar: *modal so‘z, semantik-grammatik xususiyat, omonimiya, polifunksional so‘z, yordamchi so‘z, grammatikalizatsiya.*

ИССЛЕДОВАНИЕ МОДАЛЬНЫХ СЛОВ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ И МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ПЕРЕХОДНЫЕ ЕДИНИЦЫ, СВЯЗАННЫЕ С НИМИ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются вопросы изучения модальных слов и анализируются отдельные аспекты исследований, посвящённых данной категории языковых единиц. На конкретных примерах раскрывается семантико-грамматическая природа модальных слов как их специфическая характеристика. Анализируются модальные слова, а также слова других частей речи, приближающиеся к модальным словам; исследуются отдельные модальные слова, представленные в словарях, и переходные единицы, функционирующие в качестве самостоятельных слов.*

Ключевые слова: *модальное слово, семантико-грамматическая характеристика, омонимия, полифункциональное слово, служебное слово, грамматикализация.*

THE STUDY OF MODAL WORDS IN THE UZBEK LANGUAGE AND MORPHOLOGICAL TRANSITIONAL UNITS ASSOCIATED WITH THEM

Abstract. *This article examines the study of modal words and analyzes certain aspects of research related to this category of linguistic units. The semantic and grammatical nature of modal words, which constitutes their specific characteristic, is elucidated through relevant examples. Modal words, as well as words belonging to other parts of speech that are approaching the status of modal words, are analyzed. Particular attention is also paid to certain modal words represented in dictionaries and to transitional units that function as independent lexical items.*

Keywords: *modal word, semantic and grammatical characteristics, homonymy, polyfunctional word, function word, grammaticalization.*

Kirish. Har bir til lug‘at qatlamida undov, modal, taqlidlar umumiy jihatdan, semantik-grammatik tabiatiga ko‘ra umumiylik kasb etsa-da, shu til xarakteriga ko‘ra ular alohidalikka ega. O‘zbek tilida mazkur so‘zlarni o‘rganish, tahlil va tasnif qilish, baholash ko‘pgina tillarda kuzatiladiganidek til taraqqiyotining nisbatan keyingi davrlariga to‘g‘ri keladi. Aniqrog‘i, mazkur guruh birliklarining to‘laqonli nazariy asoslari XX asrda yuzaga keldi, desak bo‘ladi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Jahon tilshunosligida modal so‘zlar tadqiqi V.Vinogradov [12,54-87], T.Alisov [1], V.Gak [4], E.Kordi [6] tadqiqotlari bilan bog‘liq, o‘zbek tilshunosligida esa modal so‘zlar ilk bor R.Komiljonova tomonidan tadqiq etildi [5]. Tadqiqotchi o‘zbek tilidagi modal so‘zlarning o‘ziga xos xususiyatlari, xususan, bu kabi so‘zlarning morfologik xususiyatlari, semantik tasnifi, gapdagi sintaktik vazifasini yoritgan.

Modal so‘zlar tadqiqi bilan bog‘liq ishlar ko‘lami kengayib bormoqda. Bu borada J.Yoqubov [Yoqubov J.,2007], S.Boymirzayeva [3] va b. tadqiqochilarning ishlarini eslab o‘tish maqsadga muvofiq. Yana bir dalil ahamiyatliki, keyingi yillarda o‘zbek tilshunosligida modal so‘zlarning turkumlik nomlanishi

yuzasidan turli qarashlar shakllandi. R.Bobokalonov modal so‘zlarni semantik-funksional shakllangan “so‘z-gaplar” guruhiga [20], I.Madrahimov “munosabat bildiruvchi nomlovchi leksemalar” tarkibiga o‘rganishni ma’qul bildi [7,52]. Sh.Rahmatullayev modal so‘zlarni yordamchi so‘zlar sifatida baholadi. Uning fikricha, “Modal birliklar va undovlarni grammatik birlik turkumlari bo‘lgani uchun bog‘lovchi va yuklama turkumlari qatoriga qo‘shish mumkin” [8,247].

Modal so‘zlar ayrim zamonaviy darsliklarda so‘z-gaplar sifatida talqin etilib kelinmoqda (“modal so‘z-gaplar”). Ular o‘z tabiatiga ko‘ra mustaqil va yordamchi so‘zlardan farq qiladi. Bu farq ularning: a) o‘ziga xos ma’no ifodaga ega bo‘lishi; b) mustaqil holda gap bo‘lagi (kesim) bo‘la olishi; d) gap tarkibida boshqa bo‘laklar bilan sintaktik aloqaga kirisha olmasligi; e) bog‘lamalar, zamon, mayl, shaxs-son shakllariga ega bo‘lolmasligida ko‘rinadi [9,269].

“So‘z-gaplar” termin mohiyati, xususan, modal so‘zlarga muvofiq keladi. Ular o‘zga turkum so‘zlaridan grammatikalizatsiya mahsuli sifatida yuzaga keladi. Bu so‘z-gaplar bilan bog‘liq oraliq holatlarga sabab bo‘luvchi birinchi holat sanalsa, ikkinchidan, undov va modal so‘zlarning dastlabki hamda hozirgi holatidan kelib chiqib, ya’ni mazkur so‘zlarning tarixiy taraqqiyoti asosida ularni: a) modallashgan; b) modallashayotgan; d) modalsimon kabi turlarga bo‘lib talqin qilish ham ular bilan bog‘liq oraliq holatlar mavjudligiga ishora qiladi. Birinchi turga ko‘ra yuzaga kelgan so‘zlar (chamasi, ehtimol) o‘z aloqasini ona turkumdan butunlay uzmagan bo‘ladi. Ikkinchi turga ko‘ra so‘zlar (jumladan: aftidan, balki) “o‘tish yo‘lidagilar” sifatida baholanadi. Uchinchi turga mansub birliklar so‘z-gap vazifasida keluvchilar bo‘lib, o‘rni-o‘rni bilan nutqiy vaziyat talabi bilan modal so‘z pozitsiyasida keladi [9,271-272].

Umuman, sof modal so‘zlar semantik jihatdan: a) o‘zi mansub bo‘lgan tarixiy turkumidan batamom uzilgan bo‘ladi; b) nutqiy vaziyatda mustaqil turkum pozitsiyasida kelolmaydi; d) mustaqil so‘zlar guruhi sari siljimaydi.

Oraliq holatdagi modal so‘zlar: a) grammatikalizatsiyaning oraliq bosqichida bo‘ladi; b) mustaqil hamda yordamchi so‘zlar doirasida turadi; d) til taraqqiyoti natijasida sof modallar qatoridan o‘rin egallash imkoniyatiga to‘la ega bo‘ladi.

Til taraqqiyotining turli davrlarida bir guruh so‘zlarning turli sabablarga ko‘ra leksik-semantik, morfologik, sintaktik jihatdan modallik kasb eta borishi tez-tez kuzatiladi. Modal so‘zlar u yoki bu belgisi bilan mustaqil va yordamchi so‘zlar oralig‘ida turuvchi so‘zlar guruhidir. Ulardagi oraliq holat turli darajada bo‘ladi. So‘zning asl lug‘aviy ma’nosidan chekinib, modal ma’no kasb eta borishi asta-sekin sodir bo‘ladigan jarayon bo‘lib, “bir-ikki avlod ko‘z o‘ngida yuz beradigan hodisa” (J.Eltazarov) sanaladi.

O‘zbek tilida modal ma’nolar bir qancha yo‘llar bilan – ot,… fe’llarning ayrim shakllari, shuningdek, yuklama va modal so‘zlar bilan ifodalanadi. Modal so‘zlarning doirasi qat’iy to‘liq aniqlangan emas, bu esa mazkur turkum bilan bog‘liq ziddiyatli qarashlarga sabab ham bo‘lib kelmoqda.

Modallik nafaqat leksik, balki turlicha til sathlariga xos birliklar bilan ifodalanishi mumkin. Qolaversa, modallik ifodasining obyektiv va subyektiv jihatlari ham borki, bu borada tadqiqotlar amalga oshirilmoqda [11,14].

Ayrim manbalarda keltirilishicha, biror turkum birligi asosida modal birlik o‘sib chiqqan bo‘lsa, bunday hollarda omonimiya voqe bo‘ladi [10, 129]. Lekin bu holni barcha modallashgan so‘zlarga ko‘ra aytib b’lmaydi. Bunday modallar grammatikalizatsiyaning uchinchi bosqichiga kotarilsa hamda dastlabki ma’no tilda saqlansagina sodir bo‘ladi, aks holda ularga nisabatan “polifunksional so‘z” sifatida qarash to‘g‘riroq bo‘ladi. Masalan, *albatta* so‘zi manbalarda *albatta I (ravish), albatta II (modal so‘z)* shaklida omonimiya qatorini hosil qilishi aytiladi [10,129]. Biroq ularn yetarlicha izohlanmaydi. *Albatta* so‘zining turkumlik farqlanishi gapdagi (bog‘li qurshovdagi) o‘rni bilan belgilanadi. Ularning omonimik farqlanishi, nazarimizda, quyidagicha: *albatta* so‘zi qatnashgan gapning kesimi kelasi yoki hozirgi-kelasi zamon shaklida bo‘lganda (Masalan: *Farzandlarimiz bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo‘lishlari lozim*. I.Karimov) nominativ ma’no ifodalab, payt ma’nosini o‘zida tashiydi. Qolgan paytda modallik ifodasiga ega bo‘ladi. Bundan xulosa qilish mumkinki, *albatta* so‘zi faqatgina nutqiy omonimiya bo‘lib keladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Yuqorida eslatib o‘tganimizdek, modal mazmunning nominativ ma’no asosida shakllanishi ulardagi oraliq holatlarga sabab bo‘lib kelmoqda. Modal so‘zlarning aksariyati uch bosqichli grammatikalizatsiya hodisasining ikkinchi (oraliq) bosqichiga tegishli bo‘lganligi ham ularni omonimiyaga yaqinlashtirib turadi, bu esa ular bilan bog‘liq grammatik tavsif (turkumlik belgisi) ni mavhumlashishiga sabab bo‘ladi.

Modal so‘zlar guruhining tarixiy shakllanishi ham o‘ziga xos tarzda kechgan, deyish mumkin. Turkum sifatida eng yosh sanaladigan mazkur so‘zlar guruhi o‘zbek tili tarixiy grammatikasiga oid manbalar mundarijasidan o‘rin egallamaganligi ham mazkur turkum so‘zlari keyingi davr til taraqqiyoti mahsuli ekanligidan dalolat beradi. Masalan, nisbatan yangicha shakl hamda mazmunga ega bo‘lgan *ishqilib*

so‘zining modallik kasb etib (*har holda, har qalay* ma’nosida), gapda kirish so‘z sifatida qo‘llanishi XX asr davriga xos matnlaridan boshlab kuzatiladi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ning ilyustrativ misollari ham mazkur fikrimizni tasdiqlay oladi [15,597]. Modal so‘zlar sirasida sof modallardan ko‘ra vazifadoshlari keng o‘rin tutadi. Har ikkala tur modal so‘zlari morfologik o‘zgarmasligi, semantik jihatdan voqelikka munosabatni, ya’ni tasdiq, taxmin, ajablanish, ishonch va h.k. ma’nolarni ifodalashi, sintaktik jihatdan so‘z-gap, kirish so‘z vazifasida kelishi bilan xarakterlanadi. Modal so‘zlarning aksariyati lug‘aviy mustaqilligini saqlaganligi kuzatiladi. Aslida, tildagi yordamchilashish mana shu mustaqil lug‘aviy ma’nolarning yo‘qolishiga bog‘liq bo‘ladiki, buni keng izohlashga hojat yo‘q.

Izohli lug‘atlardagi bir qator so‘zlarga grammatik xarakteristika ham berilgan bo‘lib, bir so‘z va uning qo‘shimcha ma’nolariga ko‘ra turli so‘z turkumi sifatida qaralgani kuzatiladi. Masalan, ikki (aybdor – ham ot, ham sifat), uch (bo‘lg‘si – ham fe’l, ham sifat, ham ot), to‘rt (keyin – ham ravish, ham modal so‘z, ham ko‘makchi, ham bog‘lovchi) so‘z turkumi doirasida izohlangani kuzatiladi. So‘zlarga turkumlik nuqtayi nazardan yondashish borasida “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” ning Kirish (“Lug‘at tuzilishi va undan foydalanish”) qismida shunday izoh keltiriladi: “Grammatik xarakteristikani qayd etuvchi belgi zarur hollardagina berildi. Masalan, kitob, go‘zal, kelmoq so‘zlarining ot, sifat, fe’l ekani hech qanday belgisiz ham ma’lum. Shuning uchun bu so‘zlardan so‘ng ot, sft., fl. Belgilari qo‘yilmadi. Quyidagi hollarda… grammatik xarakteristika berildi: 1) bosh so‘z o‘zi mansub bo‘lgan (asosiy) so‘z turkumidan boshqa turkumga oid ma’noga ega bo‘lsa, qaysi ma’nosi (yoki ma’nolari) bilan qaysi turkumga oidligi qayd etiladi; 2) so‘zning muayyan shakli shu shaklga xos ma’no va vazifadan tashqari lug‘aviy ma’no ham kasb etgan bo‘lsa, har ikki holat grammatik belgi bilan qayd etildi” [14,18-19].

Olingan natijalar va ularning tahlili. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da modal so‘zlar bilan kesishadigan bir qator so‘zlar mavjud, ularga ko‘ra polifunksional birliklar, deyish mumkin. Mazkur so‘zlarni polifunksional deyilishiga sabab shuki, bu kabilar ham modal so‘z vazifasida, ham boshqa so‘z (mustaqil ma’noli so‘z) turkumi vazifasida kela oladi. Morfologik oraliq so‘z maqomidagi ushbu birliklarni kuzatish va tahlillash tadqiqotchidan alohida kuzatuvni talab etadi.

Izohli lug‘atda *aksincha* (ravish-modal-yuklama), *avvali/ avvalo* (ravish-modal), *balki* (bog‘lovchi-modal), *darhaqiqat* (ravish-modal), *bo‘lmasa* (fe’l-bog‘lovchi-modal), *e* (undov-modal), *esiz* (undov-modal), *keyin* (ravish-modal-ko‘makchi-bog‘lovchi), *mabodo* (yuklama-modal), *rostdan* (ravish-modal), *so‘zsiz* (sifat-ravish-modal), *chamasi* (ravish-modal) kabilar modal va o‘zga turkum bilan bog‘liq polifunksional so‘zlar sanaladi. Ayrimlarini kuzatamiz:

Aksincha *rvsh*. **1** Kutilganning aksicha, unga zid holda. *Hamma ish aksincha bo‘lib chiqdi.*

2 teskari, noto‘g‘ri ravishda. *U hamma narsani aksincha talqin qilgan.*

3 *krsh. s. vzf.* Aytilganga yoki kutilganga zid o‘laroq. *Aksincha, hamma narsa go‘zal va yoqimli bir shakl oldi.* Oybek, Tanlangan asarlar.

4 yukl. vzf. Zidlanishni ifodalaydi. *[Turg‘un Muhabbatga] Yo‘q. Aksincha, oqaribsiz. Jindek ozib, yana ham chiroyli bo‘libsiz.* N.Safarov, Hayot maktabi [14,74].

Izohlardagi ma’no ifodalarning uyg‘unligi aksincha so‘zining omonimiyaga aylanmaganligidan dalolat beradi. Faqatgina *aksincha* so‘zi nutqiy jarayonda turli turkum vazifasida kelyaptiki, bu holat ushbu so‘zni polifunksinollik hodisasi ostida o‘rganilishiga asos bo‘ladi.

Keyin so‘zi izohli lug‘atda to‘rt turkum doirasida izohlanadi. Lug‘atdagi ushbu sharhlarni qisqartirgan holda quyidagicha keltiramiz:

Keyin 1 *rvsh*. Shu yoki o‘sha tobda emas, ma’lum vaqt o‘tgach; so‘ng. *Shu kitobni keyinroq o‘qiyman.*

4 *krsh. s.* Bundan tashqari, shuning bilan birga, shuningdek; yana. *Agar [qovun] yaxshi bo‘lsa, xalq yeb, sizni duo qiladi, men o‘zim yemayman. Keyin, kim biladi, bir palakdan har xil qovun yetishadi…Uch so‘lkovoy beraman, xo‘p deng.* Oybek, Tanlangan asarlar.

5 *ko‘m vzf.* (ch.k. bilan) So‘ng, ketidan, tugagach, o‘tgach. *Hammadan keyin. Ishdan keyin…*

6. *bog‘l. vzf.* (ch.k.bilan) Sabab yoki payt ergash gapni bosh gapga bog‘lash uchun xizmat qiladi va sabab, payt munosabatini bildiradi. *Qo‘l kalta bo‘lgandan keyin, qayoqqa uzatasan?* Oybek, Tanlangan asarlar [15,823-824].

Davrlar osha muayyan bir so‘z ma’no va grammatik imkoniyatlarining oshishi uning polifunksional so‘zga ayalanishiga shart-sharoit yaratadi. Mazkur holatni oraliq so‘z sifatida izohlanadigan barcha birliklarda kuzatish mumkin.

Muhokama. Izohli lug‘atda *bo‘lmasa* so‘zi fe’l-bog‘lovchi-modal so‘z sifatida sharhlanadi. *Bo‘lmasa* so‘zining modallik kasb etishi uning semantik ma’no ifodalash-ifodalamasligi bilan bog‘liq. Albatta, mazkur so‘z yordamchi vazifasida, ya’ni modal so‘z bo‘lib kelgnda grammatik ma’no birlamchi mavqeda bo‘ladi. Semantik ma’no ifodasidagi *bo‘lmasa* so‘zi hamda grammatik ma’nodagi *bo‘lmasa* so‘zlari o‘zaro omonimiyaga o‘xshash hodisa (nutqiy omonimiya) ni yuzaga keltiradi, deyish mumkin.

Bo‘lmasa (soddalashgan birlik) bog‘lovchi bo‘lganda qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplarni zidlik asosida biriktiruvchi leksik-morfologik bog‘lovchi sifatida baholanadi. Bunda *bo‘lmasa* so‘zi *yo‘qsa* so‘zi bilan inkor ma’no ifodasi bilan sinonimlikka kirishadi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *bo‘lmasa* “zidlov bog‘lovchisi vazifasida kelishi, bunda aks holda, yo‘qsa” kabilar bilan umumiylik hosil qilishi bayon etiladi [14,689].

Ma’lum ma’noda grammatikalizatsiyalashgan *bo‘lmasa* so‘zshakli kiritma (vazifadosh modal so‘z) bo‘lib kelganda ham uning lug‘aviy ma’nosi (fe’llik ifodasi) sezilib turadi. Umuman, morfologik oraliq so‘z sanaladigan mazkur so‘z grammatik vazifa uchun qo‘llanganda ham lug‘aviy ma’no ma’lum bir darajada saqlanishi kuzatildi.

So‘z turkumlari va ularni farqlash bilan bog‘liq muammolarning yuzaga kela borishiga ba’zida tilning ijtimoiyligi ham sabab bo‘ladi. Umuman, tining ijtimoiyligi evazi o‘laroq ayrim so‘zlar polifunksionallik kasb eta boradi. Bu esa ularda ikki va undan ortiq paradigmada ham o‘rin topa olish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Lekin so‘zdagi polifunksionallik doim ham bir turkumdagi so‘zni boshqa turkumga o‘tib ketishiga yo‘l ochavermaydi. Bu holatni modal hamda modal bo‘lmagan so‘zlar doirasida ham kuzatish mumkin.

Xulosa. Xullas, modallashish jarayoni bugungi kunda ham davom etayotgan hodisa sanalib, qaysi so‘zning bu holatga tortilishi ma’lum bir qonuniyat bilan emas, balki tilning ijtimoiyligi bilan belgilanadi. Til birliklarining modallashishi nutqiy ehtiyoj natijasi o‘laroq yuz beradigan hodisa hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1.Алисов Т.Б. Дополнительные отношения модуса и диктума. 1971. – 136 с.

2.Бобокалонов Р.Р. Ўзбек тилида семантик-функционал шаклланган сўз-гаплар. Филол. фан. номз. ... дисс. – Т., 2000. – 135 б.

3.Боймирзаева С. Аксиологик модалликнинг матнда воқеланиши // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 2009. – Б. 85-88.

4.Гак В.Г. Теоретическая грамматика французского языка. Морфология. – Москва, 1986. – 312 с.

5.Камилджанова Р.А. Модальные слова в современном узбекском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1975. − 16 с.

6.Корди Е.Е. Модальные и каузативные глаголы в современном французском языке. – Л. 1988. – 165 с.

7.Мадраҳимов И. Сўз серқирралиги ва уни таснифлаш асослари. − Фарғона, 2005. – 131 b.

8.Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili (darslik). – T.: Universitet, 2006. – 283 b.

9.Sayfullayeva, R.va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. – T.: Fan va texnologiyalar. 2010. – 404 b.

10.Турсунов У., Мухторов А., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Олий ўқув юртлари филология факультетлари талабалари учун дарслик. –Т.: Ўзбекистон, 1992. – 399 б.

11.Umurzakova G.E. Undov, taqlid va modal so‘zlar pragmatikasi (turli tizimdagi tillar misolida): Filol. fan. bo‘yicha fal. dokt (Phd). – T., 2025. – 24 b.

12.Виноградов В.В. О категории модальности и модальных словах в русском языке. Избранные труды. – Москва: Наука, 1975. – 124 с.

13.Ёқубов Ж.А. Модаллик категориясининг мантиқ ва тилда ифодаланиш хусусиятлари: Филол. фан. докт. дисс. – Т., 2007. – 315 с.

14.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. Birinchi jild. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2023. – 964 b.

15.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. Ikkinchi jild. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2023. – 1036 b.

16.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. Uchinchi jild. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2023. – 844 b.

17.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. To‘rtinchi jild. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2023. – 824 b.

18.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. Beshinchi jild. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2023. – 720 b.

19.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. Oltinchi jild. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2023. – 864 b.

УДК 81

ЯЗЫК, КУЛЬТУРА, НАРОДЫ И НАРОДНОСТИ: ВЗАИМОСВЯЗЬ И РОЛЬ В СОХРАНЕНИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ

Сохибов Акрам Рустамович,
зав. кафедрой Педагогики Шахрисабзского государственного педагогического института, профессор
https://orcid.org/0009-0006-2839-471X,
akramsohibov59@gmail.com
Очилова Нигора Маллаевна,
профессор кафедры Педагогики Университета информационных технологий и менеджмента, к.п.н.
6099060b@gmail.com

Аннотация. *В статье рассматривается взаимосвязь языка, культуры, народов и народностей как важнейших компонентов общественного и исторического развития человечества. Особое внимание уделяется языку как средству сохранения культурной памяти, передачи традиций и формирования национальной идентичности. Анализируются особенности взаимодействия языка и культуры в условиях глобализации, миграции и развития цифрового пространства. Рассматривается значение этнокультурного многообразия для современного общества, а также необходимость сохранения языкового и культурного наследия народов и народностей. В работе использованы методы анализа научной литературы, сравнительного подхода и обобщения теоретических положений. Результаты исследования показывают, что исчезновение языка или ослабление традиционной культуры может привести к утрате значительной части исторической памяти народа. Поэтому поддержка языкового и культурного многообразия должна рассматриваться как важное направление образовательной, социальной и культурной политики.*

Ключевые слова: *язык, культура, народ, народность, этнос, национальная идентичность, традиции, культурное наследие, многоязычие, глобализация.*

TIL, MADANIYAT, XALQLAR VA ELATLAR: O‘ZARO BOG‘LIQLIK VA MILLIY O‘ZLIKNI SAQLASHDAGI O‘RNI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada insoniyat ijtimoiy va tarixiy rivojlanishining muhim tarkibiy qismlari sifatida til, madaniyat, xalqlar va etnik guruhlar o‘rtasidagi o‘zaro bog’liqlik o‘rganiladi. Madaniy xotirani saqlash, an’analarni uzatish va milliy o‘ziga xoslikni shakllantirish vositasi sifatida tilga alohida e’tibor qaratiladi. Til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlar globallashuv, migratsiya va raqamli makonning rivojlanishi kontekstida tahlil qilinadi. Zamonaviy jamiyat uchun etnik-madaniy xilma-xillikning ahamiyati va xalqlar va etnik guruhlarning lingvistik va madaniy merosini saqlab qolish zarurati ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda adabiyotlar sharhi, qiyosiy yondashuv va nazariy tamoyillarning qisqacha mazmuni qo‘llaniladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tilning yo‘q bo‘lib ketishi yoki an’anaviy madaniyatning zaiflashishi xalqning tarixiy xotirasining katta qismini yo‘qotishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun lingvistik va madaniy xilma-xillikni qo‘llab-quvvatlash ta’lim, ijtimoiy va madaniy siyosatning muhim sohasi deb hisoblanishi kerak.*

Kalit so‘zlar: *til, madaniyat, xalq, millat, etnik guruh, milliy o‘ziga xoslik, an’analar, madaniy meros, ko‘p tillilik, globalizatsiya.*

LANGUAGE, CULTURE, PEOPLES, AND ETHNICITIES: INTERCONNECTION AND ROLE IN PRESERVING NATIONAL IDENTITY

Abstract. *This article examines the interrelationship between language, culture, and various peoples and ethnic groups as crucial components of humanity's social and historical development. Particular attention is paid to language as a means of preserving cultural memory, transmitting traditions, and shaping national identity. The study analyzes the dynamics of the interaction between language and culture in the context of globalization, migration, and the expansion of the digital space. It also addresses the significance*

of ethnocultural diversity for modern society and the necessity of preserving the linguistic and cultural heritage of diverse peoples and ethnic groups. The research employs methods such as the analysis of scholarly literature, a comparative approach, and the synthesis of theoretical concepts. The findings indicate that the disappearance of a language or the erosion of traditional culture can lead to the loss of a significant portion of a people's historical memory. Therefore, supporting linguistic and cultural diversity should be regarded as a key priority in educational, social, and cultural policy.

Keywords: *language, culture, people, nationality, ethnos, national identity, traditions, cultural heritage, multilingualism, globalization.*

Введение. Язык и культура являются фундаментальными явлениями человеческого общества. С их помощью человек не только осуществляет коммуникацию, но и осмысливает окружающий мир, сохраняет историческую память, выражает ценности и передаёт накопленный опыт последующим поколениям. Каждый народ обладает определёнными культурными особенностями, которые формировались на протяжении длительного исторического периода под воздействием природных, социальных, экономических и политических условий.

Понятия «народ», «народность», «этнос», «язык» и «культура» тесно связаны между собой, однако не являются полностью тождественными. Народ представляет собой исторически сложившуюся общность людей, объединённых территорией, культурными особенностями, языком, историческим прошлым и осознанием собственной принадлежности. Народность в традиционном обществознании рассматривается как одна из исторических форм этнической общности, занимавшая промежуточное положение между племенем и нацией. В современном научном дискурсе термин «народность» используется осторожнее, поскольку этнические процессы значительно сложнее классических исторических схем.

Язык занимает особое место в этой системе. Он является не только инструментом общения, но и своеобразным хранилищем коллективного опыта. В словах, фразеологических оборотах, пословицах, поговорках, фольклоре и художественной литературе отражаются представления народа о добре и зле, семье, труде, природе, отношениях между людьми и обществом.

Актуальность данной темы определяется тем, что современный мир характеризуется интенсивными процессами глобализации. Люди разных культур всё чаще взаимодействуют друг с другом, распространяются международные языки, увеличивается мобильность населения, а цифровые технологии создают единое информационное пространство. Эти процессы открывают новые возможности для межкультурного общения, но одновременно создают определённые риски для малочисленных языков и локальных культур.

Цель настоящего исследования заключается в комплексном рассмотрении взаимосвязи языка и культуры народов и народностей, а также в определении значения этой взаимосвязи для сохранения национальной и этнокультурной идентичности.

Для достижения поставленной цели необходимо решить следующие задачи: определить теоретическое содержание понятий «язык», «культура», «народ» и «народность»; рассмотреть роль языка в формировании и сохранении культурной идентичности; проанализировать влияние глобализации на языковое и культурное многообразие; определить основные направления сохранения культурного и языкового наследия.

Материалы и методы. Теоретическую основу исследования составили научные труды по языкознанию, культурологии, этнологии, социологии и философии языка. При подготовке статьи были рассмотрены положения, посвящённые взаимосвязи языка и культуры, природе этнической идентичности и механизмам передачи культурного опыта.

В исследовании использованы следующие методы:

- **теоретический анализ** — для изучения научных подходов к понятиям языка, культуры, народа и народности;
- **сравнительный метод** — для выявления общих и отличительных особенностей различных языковых и культурных систем;
- **метод обобщения** — для систематизации результатов исследования;
- **описательный метод** — для характеристики роли языка в сохранении культурных традиций;
- **междисциплинарный подход** — для рассмотрения проблемы с позиций лингвистики, культурологии и этнологии.

Материалом исследования послужили научные публикации, монографические исследования, энциклопедические издания и международные документы, посвящённые языковому и культурному разнообразию.

При анализе проблемы особое значение придаётся принципу культурного плюрализма. Он предполагает, что различные культуры не следует оценивать исключительно по единому образцу. Каждая культура формируется в конкретных исторических обстоятельствах и обладает собственной системой символов, норм и ценностей.

Результаты.

1. Язык как основа культурной памяти

Одним из главных результатов исследования является подтверждение того, что язык представляет собой важнейший механизм сохранения и передачи культуры. Человек усваивает язык одновременно с основными нормами поведения и представлениями о мире. Поэтому языковая социализация фактически является частью культурной социализации.

Язык содержит огромное количество сведений о прошлом народа. Например, названия предметов традиционного быта, национальной одежды, блюд, видов хозяйственной деятельности и природных объектов позволяют реконструировать отдельные стороны исторической жизни общества. Даже исчезновение некоторых предметов не обязательно приводит к исчезновению связанных с ними слов: они могут сохраняться в фольклоре, литературе и устойчивых выражениях.

Особенно ярко культурная специфика проявляется во фразеологии. Пословицы и поговорки являются результатом многолетнего коллективного опыта. Они отражают отношение народа к труду, знаниям, дружбе, семье, гостеприимству и другим социальным ценностям. При переводе на другой язык смысл таких выражений иногда передаётся лишь приблизительно, поскольку их содержание связано с конкретным культурным контекстом.

Следовательно, язык можно рассматривать не только как систему знаков, но и как форму существования коллективной памяти.

2. Взаимосвязь языка и национальной идентичности

Национальная идентичность формируется под влиянием множества факторов: исторической памяти, территории, культуры, религиозных и социальных традиций, семейного воспитания и языка. При этом язык часто выступает одним из наиболее заметных символов принадлежности к определённой культурной общности.

Для многих народов родной язык является эмоционально значимой частью самоидентификации. Использование родного языка в семье, школе, литературе и общественной жизни способствует сохранению связи между поколениями.

Однако владение определённым языком не всегда автоматически означает принадлежность человека к определённому народу. В условиях многоязычия человек может использовать несколько языков и одновременно обладать сложной, многослойной идентичностью. Например, язык семьи может отличаться от языка образования или профессионального общения. Поэтому современная идентичность нередко имеет гибридный характер.

Многоязычие в этом смысле не следует рассматривать исключительно как проблему. Напротив, владение несколькими языками расширяет возможности межкультурной коммуникации и способствует развитию способности воспринимать различные культурные модели.

3. Культура как система ценностей и социальных норм

Культура представляет собой сложную систему материальных и духовных ценностей, созданных человеком в процессе исторического развития. К материальной культуре относятся жилище, одежда, предметы быта, орудия труда, архитектура и другие результаты практической деятельности. Духовная культура включает язык, литературу, искусство, обычаи, традиции, знания, нормы поведения и мировоззренческие представления.

Культура не передаётся человеку биологически. Она усваивается посредством воспитания, образования, общения и непосредственного участия в общественной жизни. Ребёнок знакомится с культурой, прежде всего, через семью и родной язык. Позднее на этот процесс начинают влиять школа, средства массовой информации, социальное окружение и цифровая среда.

Важной особенностью культуры является её способность изменяться. Традиция не является абсолютно неизменной системой. Каждое поколение переосмысливает культурное наследие и приспосабливает его к новым социальным условиям.

Таким образом, сохранение культуры не означает механическое воспроизведение всех элементов прошлого. Оно предполагает передачу ключевых ценностей и форм культурной памяти при возможности их современного переосмысления.

4. Народы и народности как историко-культурные общности

Народы и народности формировались в результате длительных исторических процессов. На их развитие влияли миграции, смешение населения, экономические связи, политические объединения и культурное взаимодействие.

Понятие «народность» традиционно применялось для обозначения исторически сложившейся этнической общности, которая обладала определёнными признаками общего происхождения, языка, территории и культуры. В классической формационной теории развитие человеческих общностей описывалось как переход от племени к народности и далее к нации.

Современная этнология рассматривает этнические процессы более динамично. Границы между этническими группами могут изменяться, а культурные особенности способны распространяться между соседними народами. Кроме того, один и тот же человек может одновременно принадлежать к нескольким культурным пространствам.

Важным фактором существования народа является коллективное осознание общности. Людей объединяет не только объективное сходство, но и представление о совместной истории, культуре и принадлежности к определённой группе.

5. Глобализация и языковое многообразие

Глобализация оказывает неоднозначное влияние на языки и культуры. С одной стороны, развитие транспорта, образования, интернета и международных коммуникаций облегчает взаимодействие между представителями разных народов. С другой стороны, распространение ограниченного числа наиболее востребованных языков может сокращать сферу использования языков малочисленных этнических групп.

Если язык перестаёт использоваться молодым поколением, он постепенно теряет свои естественные сферы функционирования. Сначала язык может исчезнуть из официальной сферы, затем из образования и публичного общения, а позднее — даже из семейной коммуникации.

Утрата языка означает не только исчезновение определённой системы грамматических правил и словарного состава. Вместе с языком могут ослабнуть традиционные формы фольклора, устной истории, народной терминологии и уникальные способы описания окружающего мира.

Поэтому современная языковая политика должна стремиться не к противопоставлению языков, а к созданию условий для их сосуществования.

6. Роль образования в сохранении культурного наследия

Образовательная система играет важную роль в сохранении языкового и культурного многообразия. Именно школа способна обеспечить систематическое изучение родного языка, литературы, истории и традиций.

Эффективным направлением является билингвальное и многоязычное образование, при котором учащиеся получают возможность сохранять родной язык и одновременно овладевать языками более широкого общения.

Особенно важно создавать современные учебные материалы. Традиционная культура должна быть представлена не только в виде набора исторических фактов, но и через живые тексты, аудиоматериалы, интервью со старшим поколением, фольклорные произведения и цифровые ресурсы.

Цифровизация предоставляет дополнительные возможности. Электронные словари, цифровые архивы, онлайн-курсы, электронные библиотеки и социальные сети могут использоваться для поддержки языков, имеющих ограниченное число носителей.

Полученные результаты позволяют утверждать, что язык и культура находятся в постоянном взаимном влиянии. Язык отражает культуру, но одновременно участвует в её формировании. Через языковые категории человек воспринимает и классифицирует окружающую действительность, а культурные изменения, в свою очередь, приводят к появлению новых слов, значений и форм коммуникации.

Особенно интересным является вопрос о том, можно ли сохранить культуру без сохранения языка. В определённых случаях культурные элементы действительно могут продолжать существовать после ослабления родного языка. Музыка, кухня, национальные праздники, декоративное искусство и семейные традиции способны сохраняться даже при переходе населения на другой язык. Однако при этом часть первоначальных смыслов может изменяться.

Поэтому язык является не единственным, но одним из наиболее глубоких носителей культурной информации.

Другой важный аспект связан с глобализацией. Нельзя считать, что развитие международного общения обязательно приводит к исчезновению всех локальных культур. Современные технологии позволяют создавать новые формы культурного самовыражения. Представители небольших

этнических групп могут публиковать книги, записывать песни, создавать видеоматериалы и обучающие программы на родном языке, получая доступ к аудитории далеко за пределами своей территории.

Таким образом, цифровая среда одновременно создаёт риск культурной унификации и предоставляет инструменты для культурного возрождения.

Важным условием сохранения многообразия является также уважение к другим культурам. Изучение языков и традиций других народов способствует развитию толерантности и снижает вероятность культурных стереотипов. Межкультурный диалог позволяет воспринимать различия не как препятствие, а как источник взаимного обогащения.

Для многонациональных государств данная проблема имеет особое значение. Стабильное общество должно создавать возможности для сохранения культурной самобытности различных групп при одновременном формировании общего гражданского пространства. В таком случае этнокультурное разнообразие не становится фактором разделения общества, а превращается в его культурный ресурс.

Заключение. Проведённое исследование показывает, что язык, культура, народы и народности образуют сложную взаимосвязанную систему. Язык является одним из главных средств коммуникации, но его значение значительно шире: он сохраняет историческую память, передаёт культурные ценности и способствует формированию идентичности.

Культура, в свою очередь, определяет содержание языкового общения, формирует систему символов и ценностей, которые передаются от поколения к поколению. Народы и народности существуют и развиваются в процессе постоянного взаимодействия с другими этническими и культурными общностями.

В условиях глобализации сохранение языкового и культурного многообразия становится важной социальной задачей. Для её решения необходимо развивать многоязычное образование, поддерживать изучение родных языков, создавать цифровые архивы, сохранять фольклор и стимулировать межкультурный диалог.

Особое значение имеет участие молодого поколения. Если молодые люди воспринимают родной язык и культуру исключительно как часть прошлого, их дальнейшее существование оказывается под угрозой. Поэтому традицию необходимо соединять с современными формами коммуникации. Использование социальных сетей, цифровых библиотек, подкастов, видеоплатформ и электронных образовательных ресурсов способно сделать культурное наследие более доступным и привлекательным для молодёжи.

Таким образом, сохранение языкового и культурного многообразия не означает отказ от международного общения или современных технологий. Напротив, задача заключается в достижении баланса между открытостью миру и сохранением культурной самобытности. Уважение к языкам и культурам разных народов является важным условием устойчивого развития современного общества.

ЛИТЕРАТУРА:

1. *Арутюнов С. А. Народы и культуры: развитие и взаимодействие. — М.: Наука, 1989.*
2. *Бенвенист Э. Общая лингвистика / пер. с франц. — М.: Прогресс, 1974.*
3. *Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание. — М.: Русские словари, 1996.*
4. *Гумбольдт В. фон. Избранные труды по языкознанию. — М.: Прогресс, 1984.*
5. *Крысин Л. П. Современный русский язык: Лексическая семантика. Паронимия. Стилистика. — М.: Академия, 2007.*
6. *Лурье С. В. Историческая этнология. — М.: Аспект Пресс, 1997.*
7. *Маслова В. А. Лингвокультурология. — М.: Академия, 2001.*
8. *Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. — М.: Прогресс, 1993.*
9. *Степанов Ю. С. Константы: Словарь русской культуры. — М.: Академический проект, 2004.*
10. *A.Soxibov. "Etnopedagogika". Darslik. Toshkent, - "Makon Savdo Print" X K -2024.*

UO‘K 81

HARBIY DIPLOMATIYADA INGLIZ TILINING FUNKSIONAL-LINGVISTIK ASOSLARI

Aripova Shahnoza Shoaxrarovna,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat Xavfsizligi Universiteti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. *Mazkur ishda harbiy diplomatiya milliy xavfsizlikni ta’minlash va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishning muhim vositasi sifatida tahlil qilinadi. Tadqiqotda harbiy-diplomatik muloqotda ingliz tilining tutgan o‘rni hamda uning funksional-lingvistik asoslariga alohida e’tibor qaratilgan. Ingliz tilining rasmiy hujjatlar, muzokaralar va strategik jarayonlarda qo‘llanilish xususiyatlari, terminologik tizimi va kommunikativ funksiyalari yoritib beriladi. Ishda globallashuv sharoitida va xalqaro harbiy hamkorlik kengayib borayotgan davrda harbiy xizmatchilar va mutaxassislar uchun ingliz tilini puxta egallash hamda kasbiy til kompetensiyasini shakllantirish muhimligi asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *kursant, muzokaralar, vosita, funksional-lingvistik, harbiy-diplomatik muloqot, protokol, kommunikativ funksiyalari.*

ФУНКЦИОНАЛЬНО-ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА В ВОЕННОЙ ДИПЛОМАТИИ

Аннотация. *В данной работе рассматриваются основные аспекты военной дипломатии как важного инструмента обеспечения национальной безопасности и международного сотрудничества. Особое внимание уделяется роли английского языка в военной дипломатической коммуникации, а также его функционально-лингвистическим основам. Анализируются особенности использования английского языка в официальных, переговорных и стратегических контекстах, его терминологическая система и коммуникативные функции. Работа подчёркивает значение владения английским языком для военнослужащих и специалистов в сфере международных военных отношений, а также необходимость формирования профессиональной языковой компетенции в условиях глобализации и расширения международного военного взаимодействия.*

Ключевые слова: *курсант, дипломатическое общение, инструмента обеспечения, коммуникативные навыки, терминологическая система, протокол, военнослужащие.*

FUNCTIONAL AND LINGUISTIC FOUNDATIONS OF THE ENGLISH LANGUAGE IN MILITARY DIPLOMACY

Abstract. *This paper examines the key aspects of military diplomacy as an essential instrument for ensuring national security and promoting international cooperation. Special attention is paid to the role of the English language in military diplomatic communication and its functional linguistic foundations. The study analyzes the specific features of English usage in official, negotiation, and strategic contexts, including its terminology and communicative functions. The paper emphasizes the importance of English language proficiency for military personnel and specialists in the field of international military relations, as well as the need to develop professional language competence in the context of globalization and expanding international military cooperation.*

Keywords: *cadet, diplomatic, international cooperation, promoting, intercultural thinking, protocol, linguistic, communicative functions.*

Kirish. XXI asr globallashuv jarayonlarining keskinlashuvi, mintaqaviy xavfsizlikka doir tahdidlarning murakkablashuvi hamda davlatlararo siyosiy muloqotning yangi bosqichga ko‘tarilgani sharoitida harbiy diplomatiya davlat tashqi siyosatining ajralmas mexanizmlaridan biriga aylandi [2: 3]. Harbiy diplomatiya zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida nafaqat qurolli kuchlarning tashqi aloqalarini yo‘lga qo‘yuvchi vosita, balki global xavfsizlik tamoyillarini shakllantiruvchi muhim strategik instrument sifatida namoyon bo‘lmoqda [6: 9]. Bu jarayonda harbiy attashelarning kasbiy tayyorgarligi, ularning lingvistik, diplomatik va analitik kompetensiyalari davlatning xalqaro maydondagi nufuzi va harbiy-siyosiy manfaatlarining ta’minlanishini belgilaydi [1: 8].

Harbiy attashe faoliyati diplomatik missiyaning tarkibiy qismi hisoblanib, mazkur lavozim egasidan yuqori darajadagi til kompetensiyasi, kommunikativ moslashuvchanlik, strategik fikrlash, muzokara olib

borish mahorati hamda xalqaro huquq me’yorlarini chuqur bilishni talab etadi. Bunday vazifalarni samarali bajarish uchun attashelarga, avvalo, ingliz tilida professional darajadagi nutqiy faoliyatni tashkil eta olish, siyosiy-harbiy matnlarni tahlil qilish, harbiy protokol normalarini puxta bilish va diplomatik yozishmalarni to‘g‘ri yuritish zarur bo‘ladi [5: 7]. Ingliz tili hozirgi global axborot-kommunikatsiya makonida harbiy diplomatiyaning asosiy ish tili sifatida mustahkam o‘rin egallab, xalqaro tashkilotlar, ko‘p tomonlama muzokaralar, xavfsizlik kengashlari, qo‘shma harbiy mashg‘ulotlar va harbiy-texnik hamkorlik jarayonlarida asosiy kommunikativ platforma vazifasini bajaradi.

Shu nuqtayi nazardan, harbiy attashelarni tayyorlash tizimida ingliz tili o‘qitishning nazariy va amaliy asoslarini ilmiy tadqiq etish dolzarb metodologik vazifa hisoblanadi. Bugungi kunda yetakchi davlatlar tajribasi harbiy diplomatlarni tayyorlashda integrativ yondashuv ustuvor ekanini ko‘rsatmoqda. Bunda til o‘qitish jarayoni diplomatik protokol, xalqaro huquq, siyosiy tahlil, harbiy strategiya, psixologik tayyorgarlik va madaniyatlararo muloqot bilan birgalikda olib boriladi. Mazkur integratsiya natijasida attashe nafaqat lingvistik kompetensiyani egallaydi, balki kommunikativ-retorik mahorat, diplomatik etikani qo‘llay olish, vaziyatga mos nutq strategiyalarini ishlab chiqish, qaror qabul qilish jarayonida tilning pragmatik imkoniyatlaridan foydalanish ko‘nikmalarini hosil qiladi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Xorijiy harbiy ta’lim tizimlarida attashelar uchun mo‘ljallangan maxsus ingliz tili kurslari alohida o‘quv-diastik kontentga ega bo‘lib, diplomatik yozishmalar, rasmiy nota va memorandumlar, siyosiy-harbiy hisobotlar, press-reliz va brifing matnlari, muzokara terminologiyasi, konfliktologik muloqot modellari kabi materiallar asosida shakllantiriladi. Bu jarayonning muvaffaqiyati lingvopragmatik yondashuv, ya’ni nutqning harbiy-siyosiy kontekstga mos qo‘llanishi bilan bevosita bog‘liqdir. Natijada attashe matn yaratish, matn tahlil qilish, siyosiy-harbiy diskursni baholash, ma’lumotlarni muvozanatli taqdim etish kabi kasbiy kompetensiyalarni puxta egallaydi.

Harbiy diplomatiyada ingliz tilining tutgan o‘rni O‘zbekiston uchun ham nihoyatda muhimdir. Respublikada amalga oshirilayotgan harbiy islohotlar, xalqaro harbiy hamkorlikning kengayishi, xalqaro tinchlikparvarlik operatsiyalarida ishtirok etish, qo‘shma harbiy mashg‘ulotlar sonining ortishi harbiy diplomatlarning yuqori darajadagi lingvistik kompetensiyasini talab qilmoqda [9]. Shu bois O‘zbekiston oliy harbiy ta’lim muassasalarida lingvistik tayyorgarlikni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, xorijiy tajribani mahalliy sharoitga moslashtirgan holda o‘quv jarayoniga integratsiya qilish dolzarb vazifaga aylanmoqda [1: 4].

Harbiy diplomatiya bugungi kunda xalqaro xavfsizlik va mudofaa boshqaruvi tizimining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida shakllanib bormoqda. Davlatlar o‘rtasidagi harbiy-siyosiy muloqot, qo‘shinlararo hamkorlik mexanizmlarini ishlab chiqish, tinchlikparvar missiyalarda ishtirok etish, hududiy xavfsizlik bo‘yicha jamoaviy qarorlar qabul qilish jarayonlarida, tabiiy ravishda, aniq va barqaror xalqaro kommunikatsiya vositasiga ehtiyoj tug‘iladi. Shu nuqtai nazardan, ingliz tili nafaqat xalqaro aloqa tili, balki harbiy diplomatiya uchun maxsus funksional-lingvistik tizimga ega bo‘lgan strategik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Harbiy diplomatik kommunikatsiya kundalik ingliz tilidan farqli ravishda aniqlik, neytrallik, normativlik, terminologik aniqlik, sintaktik ixchamlik va ikki tomonlama talqinga yo‘l qo‘ymaydigan tuzilishlarga tayanadi [8]. Chunki diplomatik hamda harbiy muloqotlarda har bir so‘z, ibora, hatto modallikning tanlanishi siyosiy oqibatlarga, muzokara natijasiga yoki harbiy operatsiyaning xavfsiz bajarilishiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Harbiy diplomatik jarayonlarda ingliz tili ko‘p qatlamli vazifalarni bajaradi. Bir tomondan, u informativ funksiya orqali aniq faktlar, pozitsiyalar, geografik ma’lumotlar, operativ vazifalar va protokol talablari haqida noaniqliksiz axborot yetkazadi. Masalan, “The unit is positioned 5 kilometers north-east of the demarcation line” kabi jumlalar harbiy diplomatiya uchun zarur bo‘lgan aniqlik va lokatsion ravshanlikni ta’minlaydi. Bunday axborotda badiiylik yoki hissiylik emas, balki aniq koordinatsiya ustuvor hisoblanadi. Boshqa tomondan, ingliz tili reglamentlovchi funksiya orqali muayyan protokollar, kelishuv bandlari, majburiyatlar va huquqiy jihatdan ahamiyatli bo‘lgan iboralarni ifodalaydi. Diplomatlar yoki harbiy vakillar tomonidan ko‘p qo‘llanadigan “must comply”, “shall submit”, “is required to” kabi strukturalar qat’iy majburiyatni bildiradi. Bu til birliklari xalqaro harbiy hujjatlarda normativ xarakterga ega bo‘lib, muzokaralarning huquqiy asosini mustahkamlaydi.

Shunday qilib, harbiy diplomatiyada ingliz tilining funksional-lingvistik asoslari faqat lingvistik belgilar tizimi emas, balki strategik muloqot vositasi, global xavfsizlik arxitekturasining kommunikativ poydevori sifatida namoyon bo‘ladi [6: 9]. Tilning informativ, reglamentlovchi, pragmatik va terminologik imkoniyatlari harbiy diplomatik jarayonlarning samarali kechishini ta’minlaydi, noto‘g‘ri talqinlarni kamaytiradi, ko‘p millatli operatsiyalarda o‘zaro moslikni oshiradi hamda davlatlar o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi.

1-jadval.

Funksional-lingvistik asos	Tavsif	Namunaviy iboralar	Izoh / qo‘llanish konteksti
1. Informativ funksiyasi	Harbiy diplomatiyada axborot aniq, qisqa va ikki xil talqinga yo‘l qo‘ymaydigan tarzda yetkazilishi shart. Informatsiya geografik joylashuv, kuchlar tarkibi, vazifa holati, xavfsizlik darajasi, operativ yangiliklar kabi faktlarga asoslanadi. Matnlar hissiy bo‘lmaydi, faqat faktlarni ifodalaydi.	“The unit is positioned 5 kilometers north-east of the demarcation line.” “No hostile activity has been detected in the area.”	Harbiy attashe hisobotlari, BMT missiyasi kuzatuvlari, davlatlararo harbiy axborot almashinuvi, qo‘shma mashg‘ulotlar bayonnomalari.
2. Reglamentlovchi (normativ) funksiyasi	Diplomatik-harbiy hujjatlarda buyruq, talab, majburiyatni belgilovchi formal va huquqiy kuchga ega bo‘lgan strukturalar qo‘llanadi. “Shall”, “must”, “is required to” kabi modallar ikki ma’noli talqinni yo‘q qiladi va aniq majburiyatni bildiradi.	“Each party shall ensure the protection of military personnel.” “The delegation must submit the report within 48 hours.”	Bitimlar, memorandumlar, protokollar, harbiy kelishuvlar, qoida va tartiblar (Rules of Engagement), qo‘shma harbiy qo‘llanmalar.
3. Pragmatik (diplomatik yumshatish) funksiyasi	Harbiy diplomatiyada til faqat axborot emas, balki politeness-strategiya, keskinlikni yumshatish, muzokara madaniyatini ta’minlash uchun ham ishlatiladi. Tanqid yoki rad javobi muloyim shaklda, yuzni saqlovchi konstruktsiyalar bilan ifodalanadi.	“We appreciate your efforts and would like to propose an alternative approach.” “It might be beneficial to reconsider this option.”	Diplomatik uchrashuvlar, muzokaralar, delegatsiyalar bayonotlari, norasmiy diplomatik yozishmalar, press-relizlar.
4. Terminologik-sintaktik asos	Harbiy diplomatik ingliz tili global standartlashgan, tarjimasiz ishlatiladigan terminlar, murakkab abbreviaturalar, passiv strukturalar va aniq modal tizim bilan xarakterlanadi. Sintaksis qisqa, aniq, neytral, subyektni emas harakatni markazga qo‘yadi.	“The agreement was signed by both parties.” “Confidence-Building Measures (CBMs) were implemented.” “Joint Military Committee (JMC) convened on 14 March.”	NATO, BMT, SHHT, MDH doirasidagi harbiy diplomatlar yozishmalari; protokol hujjatlar; ekspert hisobotlari; harbiy strategik tahlil matnlari.
5. Operativ-kommunikativ vazifasi	Harbiy operatsiyalar vaqtida delegatsiyalar, qo‘mondonlar, ko‘p millatli kuchlar o‘rtasida tezkor, aniq va standartlashtirilgan muloqot tizimini ta’minlaydi. Stil faktologik, murakkablikdan holi, buyruq mazmunini aniq beradi.	“Proceed to checkpoint Bravo immediately.” “Maintain communication with allied units.” “No engagement unless fired upon.”	Tinchlikparvar missiyalar, qo‘shma mashg‘ulotlar, harbiy protokol, favqulodda vaziyatlarda tezkor muloqot.
6. Diplomatik neytrallik funksiyasi	Til barcha bayonotlarda hissiylikdan xoli, ehtiyotkor va neytral bo‘lishi shart, chunki	“The situation remains sensitive.”	Mojaro hududlari bo‘yicha brifinglar; taraflar orasida

	biror salbiy so‘z siyosiy keskinlikni kuchaytirishi mumkin. Neytral fe’llar, formal leksika, “non-judgmental” iboralar ishlatiladi.	**“The parties expressed differing perspectives.”**	**keskinlik mavjud bo‘lgan muzokaralar; integratsion harbiy komissiyalar.**

Harbiy diplomatlar, attashelar va xalqaro harbiy mutaxassislar uchun ingliz tilining bunday jihatlarini chuqur o‘zlashtirish professional kompetensiyaning ajralmas elementi sanaladi [1: 10]. Mazkur sohada ingliz tilini o‘qitish esa nazariya bilan bir qatorda real diplomatik matnlar, operativ hisobotlar, muzokara nutqlari, protokol hujjatlari va muloqot strategiyalarini ham qamrab olgan holda kompleks yondashuvni talab etadi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Harbiy attashe faoliyati xalqaro munosabatlar, siyosiy-diplomatik muloqot va xavfsizlik bo‘yicha strategik mas’uliyatlarni o‘z ichiga olgani uchun lingvistik kompetensiyaning yetarli darajada bo‘lmasligi ko‘plab jiddiy salbiy oqibatlarga olib keladi. Til bilimi faqat grammatik ko‘nikma emas, balki diplomatik protokol, nutq madaniyati, siyosiy nutq uslubi, pragmatik strategiyalar va ijtimoiy-madaniy kontekstni to‘g‘ri talqin qilish qobiliyatini ham qamrab oladi. Shuning uchun harbiy attashelar o‘rtasida lingvistik bilim yetishmasligi davlatlararo hamkorlik sifatiga, muzokaralarning mazmuniga, xavfsizlik bo‘yicha qarorlar aniqligiga, hatto diplomatik barqarorlikka bevosita ta’sir qiluvchi omilga aylanadi.

Birinchi navbatda, lingvistik yetishmovchilik axborotni noto‘g‘ri talqin qilish xavfini kuchaytiradi. Harbiy diplomatiyada biror so‘zning notog‘ri tushunilishi o‘ta muhim strategik qarorlar, operativ buyruqlar yoki protokol bandlari noto‘g‘ri bajarilishiga olib kelishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi “should” bilan “shall” o‘rtasidagi farqni bilmaslik biror majburiyatning tavsiya yoki qat’iy majburiyat sifatida talqin qilinishiga sabab bo‘ladi, bu esa muzokaralarning huquqiy kuchiga putur yetkazishi mumkin. Yoki harbiy-siyosiy matnlarda “engagement”, “deployment”, “monitoring” kabi terminlarning kontekstual ma’nosini bilmaslik vaziyatni noto‘g‘ri talqin qilish va xato xulosa chiqarishga olib keladi. Attashe uchun bu nafaqat shaxsiy kamchilik, balki davlat pozitsiyasini noto‘g‘ri ifodalash kabi halokatli oqibatni tug‘dirishi mumkin.

O‘zbekiston armiyasi va harbiy ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar yuqoridagi jarayonlarning yangicha yo‘nalishda takomillashuviga zamin yaratmoqda. Harbiy xizmatchilarni, jumladan attashe lavozimiga nomzodlarni tayyorlash jarayonida ingliz tilining o‘rni izchil ravishda mustahkamlanib bormoqda. Davlatning xalqaro harbiy hamkorlikdagi faoliyati kengaygani sari ingliz tilida diplomatik muloqot olib borish ehtiyoji yanada ortmoqda. Shu bilan birga, O‘zbekiston oliy harbiy ta’lim muassasalarida ingliz tilini xalqaro standartlar asosida o‘qitish bo‘yicha ilmiy-metodik adabiyotlar, o‘quv dasturlari, simulyatsion mashg‘ulotlar va maxsus o‘quv qo‘llanmalariga talab ham oshib bormoqda.

Muhokama. Bunday sharoitda ingliz tili bo‘yicha kasbiy tayyorlovni harbiy diplomatiya talablariga mos ravishda tashkil etish O‘zbekistonning strategik manfaatlari bilan bevosita bog‘liqdir. Zero, attashelar davlatning xalqaro maydondagi rasmiy vakillari sifatida nafaqat axborot uzatuvchi, balki diplomatik aloqalarni rivojlantiruvchi, harbiy-siyosiy hamkorlikni mustahkamlaydigan, xalqaro muzokaralarda qatnashadigan va davlat xavfsizligi manfaatlarini himoya qiladigan shaxslardir. Ularning til kompetensiyasi esa ushbu mas’uliyatni bajarish samaradorligini belgilovchi asosiy omildir.

Harbiy diplomatiyada ingliz tilidan foydalanishning yana bir muhim jihati — bu axborotning diplomatik bosqichma-bosqich shakllantirilishi va uning rasmiy formatlarda ifodalanishidir. Diplomatik yozishmalar, nota, memorandum, ma’lumotnoma, analitik hisobot va brifing matnlarining lingvistik strukturasini o‘zlashtirish attashelar uchun zarur amaliy ko‘nikma hisoblanadi. Ushbu hujjatlar o‘zining rasmiy-uslubiy normalari, mazmuniy aniqligi va diplomatik etiketga mosligi bilan ajralib turadi. Masalan, analitik hisobotda axborotning neytrallik darajasi, daliliy asosning aniq ko‘rsatilishi, baholashning ehtiyotkorligi va siyosiy pozitsiyaning diplomatik tarzda yoritilishi talab etiladi. Memo va nota shaklidagi hujjatlarda esa nutqning diplomatik yumshoqligi, ijobiy-kompromissga yo‘naltirilgan iboralardan foydalanish, keskin mazmundagi fikrni ham muloyim shaklda ifodalash o‘ta muhim sanaladi. Bu jarayon tilning pragmatik va stilistik resurslarini puxta o‘zlashtirish orqali amalga oshiriladi. Siyosiy-harbiy matnlarning diskursiv tuzilishi murakkab bo‘lib, unda lingvopragmatik mexanizmlar hal qiluvchi o‘rin tutadi. Harbiy attashe xorijdagi davlatlarning harbiy-siyosiy jarayonlarini tahlil qilayotganda matnning semantik qatlamlari, konnotativ ma’nolari, strategik maqsadga yo‘naltirilgan semantik konstruktsiyalar va diskursning yashirin kommunikativ niyatlarini aniqlashi lozim. Bu kompetensiya xalqaro tahlilda muhim bo‘lib, attashe fikrning rasmiy, diplomatik va ehtiyotkor tarzda taqdim etilishini ta’minlaydi. Tilning diplomatik xususiyatlarini chuqur bilish attashega mazmunni real siyosiy vaziyatga mos tarzda modulyatsiya qilish, ya’ni vaziyatning nozikligini hisobga olgan holda nutqni yumshatish, kuchaytirish yoki

neytrallashtirish imkonini beradi. Shu sababli matn bilan ishlash bo‘yicha tayyorlov dasturlarida diskurs tahlili, diplomatik yozishmalar stilistikasi, siyosiy nutq pragmatikasi va rasmiy hujjatlar tilining funksional xususiyatlariga alohida e’tibor qaratiladi.

Bundan tashqari, ingliz tilida muloqotning audiovizual komponenti ham harbiy diplomatiya uchun muhim ahamiyatga ega. Xalqaro muzokaralar ko‘pincha rasmiy uchrashuvlar, press-konferensiyalar, qo‘shma bayonotlar, brifinglar va onlayn konsultatsiyalar shaklida o‘tadi. Ushbu jarayonlarda nutqning fonetik aniqligi, intonatsiyaning mosligi, nutq ohangining diplomatik talablar bilan uyg‘unligi, pauza va urg‘ularning to‘g‘ri qo‘llanishi kommunikativ samaradorlikni belgilaydi. Ba’zi vaziyatlarda harbiy attashe uchun noto‘g‘ri qo‘yilgan urg‘u yoki intonatsion xatolik diplomatik mazmundagi notog‘riliklarga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bois fonetik va orfoepik tayyorlov harbiy til o‘qitish jarayonining muhim komponentidir. Ayrim davlatlarda attashe nomzodlari uchun maxsus inglizcha nutq artikulyatsiyasi bo‘yicha alohida treninglar o‘tkaziladi. Bu esa diplomatik nutqning ravonligi va aniq kommunikativ signallarni yetkazish darajasini oshiradi.

Harbiy diplomatiyadagi kommunikatsiya ko‘pincha yuqori keskinlikdagi vaziyatlarda amalga oshiriladi. Shuning uchun attashelar ingliz tilida krizis kommunikatsiyasi strategiyalarini ham o‘zlashtirishi lozim. Bunday vaziyatlarda nutqning vaziyatga mos darajada qisqa, aniq va diplomatik talablarga mos bo‘lishi talab qilinadi. Masalan, favqulodda harbiy to‘qnashuvlar, keskin xalqaro harbiy insidentlar, xalqaro tashkilotlarda chaqiruv yig‘ilishlari, chegara nizolari yuzaga kelgan paytda attashe nutqining har bir iborasi muhim siyosiy ahamiyat kasb etadi. Shu sababli til o‘qitishda krizis nutq modellarini o‘rgatish, muqobil nutq variantlarini ishlab chiqish, diplomatik xavfsizlik strategiyalarini qo‘llash, nutqning keskin diplomatik reaksiyalarni oldini olishga yo‘naltirilgan shakllarini o‘zlashtirish kabi kompetensiyalar ham shakllantiriladi.

Xulosa. O‘zbekiston oliy harbiy ta’lim tizimida ingliz tili o‘qitish samaradorligini oshirish jarayonida mustaqil ta’lim alohida strategik ahamiyat kasb etadi, chunki zamonaviy harbiy xizmatchi axborot tez o‘zgaradigan, xalqaro hamkorlik kuchaygan, diplomatik va taktik kommunikatsiya doimiy talab etiladigan sharoitda faoliyat yuritadi. Ingliz tili harbiy attashe, qo‘mondon, ofitser va kursantlar uchun nafaqat akademik predmet, balki xavfsizlik, operativ boshqaruv, muzokara olib borish, harbiy diplomatiya va ko‘p millatli operatsiyalarning ajralmas qismidir. Shu bois mustaqil ta’limni to‘g‘ri tashkil etish, baholash, monitoring qilish va uni innovatsion texnologiyalar bilan integratsiya qilish butun tizim samaradorligining muhim ko‘rsatkichiga aylanadi.

Mustaqil ta’limning mazmuni faqat uyga topshiriq bajarish yoki darsdan tashqari mashg‘ulotlar bilan cheklanmaydi; aksincha, u kursantning o‘z bilim jarayonini rejalashtirish, nazorat qilish, baholash, tahlil qilish, refleksiya qilish kabi metako‘nikmalarini shakllantiradi. Bu jarayon harbiy mutaxassisning keyinchalik murakkab, noaniq va tezkor vaziyatlarda mustaqil ravishda qaror qabul qilishiga bevosita zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR:

1. Basturkmen, H. (2020). Developing Professional Competence in English for Specific Purposes. Routledge.

2. Ellison, J. (2021). Diplomatic Communication and Military Attachés. Palgrave Macmillan.

3. Ford, M. (2018). Strategic Thinking for Military Diplomats. Oxford University Press.

4. Goetz, K., va Harms, B. (2021). European Defence and Multinational Training. Springer.

5. Haines, D. (2017). Language Training for US Military Attachés. Defense Language Institute Press.

6. Köksal, M. (2018). Military Diplomacy in Turkey: Education and Training. Middle East Journal of Defense Studies.

7. Lee, S. (2016). English for Military Diplomacy in South Korea. Asian Journal of Military Education, 12(2): 45-61.

8. Morris, P. (2020). Functional Language Proficiency in Military Contexts. Cambridge University Press.

9. NATO Defence Education Enhancement Programme. (2022). Professional Military Education Guidelines. NATO Publications.

10.Park, J. (2021). Strategic Communication for Military Officers. Seoul National University Press.

UO‘K 81

KORPUS LINGVISTIKASINING ZAMONAVIY FAN VA KASB SOHALARIDAGI AMALIY AHAMIYATI

Xamidova Mohinaxon Alisherovna,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
“Ingliz tili amaliy tarjima” kafedrasi dotsenti v.b., f.f.f.d (PhD)
nw70182@gmail.com
Ro‘ziboyeva Sabina O‘ktamjon qizi,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
“O‘zbek tili va adabiyoti” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada til korpusining nafaqat lingvistika, balki boshqa fan va kasb sohalaridagi ahamiyati yoritilgan. Unda korpusning tilshunoslar bilan bir qatorda adabiyotshunoslar, tarixchilar, jurnalistlar, muharrirlar, o‘qituvchilar, tarjimonlar hamda dasturchilar faoliyatidagi o‘rni ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, korpusning tabiiy tilni o‘rganish, matnlarni avtomatik qayta ishlash, mashina tarjimasi, qidiruv tizimlari va sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirishdagi imkoniyatlari ochib berilgan. Maqola OAK talablariga muvofiq kirish, adabiyotlar tahlili, tadqiqot metodologiyasi, natijalar tahlili, muhokama va xulosa qismlaridan iborat holda tuzilgan.*

Kalit so‘zlar: *korpus lingvistikasi, til korpusi, milliy korpus, korpus texnologiyalari, lingvistik tahlil, tabiiy tilni qayta ishlash, korpus tadqiqotlari, elektron matnlar bazasi, kompyuter lingvistikasi, mashina tarjimasi, leksikografiya.*

THE PRACTICAL SIGNIFICANCE OF CORPUS LINGUISTICS IN MODERN SCIENCE AND PROFESSIONAL FIELDS

Abstract. *This article highlights the importance of language corpora not only in linguistics but also in other fields of science and profession. It analyzes the role of the corpus in the activities of linguists, literary critics, historians, journalists, editors, teachers, translators, and programmers, and reveals its potential in natural language learning, automatic text processing, machine translation, search engines, and artificial intelligence. In line with the requirements of the Higher Attestation Commission, the article is structured into introduction, literature review, methodology, results and analysis, discussion, and conclusion.*

Keywords: *corpus linguistics, language corpus, national corpus, corpus technologies, linguistic analysis, natural language processing, corpus research, electronic text database, computational linguistics, machine translation, lexicography.*

ПРАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ КОРПУСНОЙ ЛИНГВИСТИКИ В СОВРЕМЕННОЙ НАУКЕ И ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ СФЕРАХ

Аннотация. *В данной статье подчёркивается важность языковых корпусов не только в лингвистике, но и в других областях науки и профессии. Анализируется роль корпуса в деятельности лингвистов, литературоведов, историков, журналистов, редакторов, преподавателей, переводчиков и программистов, а также раскрывается его потенциал в развитии технологий естественного языка, машинного перевода и искусственного интеллекта. В соответствии с требованиями ВАК статья структурирована по разделам: введение, обзор литературы, методология, результаты и их анализ, обсуждение и заключение.*

Ключевые слова: *корпусная лингвистика, языковой корпус, национальный корпус, корпусные технологии, лингвистический анализ, обработка естественного языка, корпусные исследования, электронная текстовая база данных, вычислительная лингвистика, машинный перевод, лексикография.*

Kirish. Insoniyat taraqqiyotining bugungi bosqichi barcha sohalarni raqamlashtirish va axborotlashgan jamiyat barpo etish jarayonlari bilan xarakterlanadi. Ushbu global transformatsiya tilshunoslik fani oldiga ham yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Xususan, tabiiy tillarni kompyuter vositasida tahlil qilish va til birliklarini matematik modellashtirish masalalari zamonaviy lingvistikaning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Z.Xolmonovaning «Kompyuter lingvistikasi» o‘quv qo‘llanmasida qayd

etilganidek, til va texnologiya integratsiyasi tilni tadqiq etishning an'anaviy usullaridan avtomatlashtirilgan tizimlar sari o‘tishni ta’minladi [3]. Mazkur sohaning eng muhim va amaliy yo‘nalishlaridan biri, shubhasiz, korpus lingvistikasidir.

Korpus lingvistikasining predmeti — til korpusi hisoblanadi. U ingliz tilida linguistic corpus yoki text corpus kabi atamalar bilan qo‘llanilib, ilmiy adabiyotlarda turlicha ta’riflangan. Xususan, «korpus ma’lum maqsadda yig‘ilgan matnlar majmuini tashkil etuvchi til birliklarining yig‘indisi», «korpus alohida tilning yozib olingan og‘zaki hamda yozma matnlari asosidagi lingvistik ma’lumotlar majmuyi», «korpus istalgan tabiiy (real) tildagi elektron shaklda saqlanadigan yozma yoki og‘zaki, kompyuterlashtirilgan qidiruv tizimiga joylashtirilgan matnlar yig‘indisi» kabi tavsiflar sohaning ko‘p qirrali ekanligini ko‘rsatadi [2]. Demak, til korpusi ma’lum tilning belgilangan davrdagi, xilma-xil janr va uslubdagi matnlarining maxsus dasturiy ta’minot asosidagi elektron yig‘indisidir.

Bugungi kunda sun'iy intellekt, mashina tarjimasi va tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyalarining asosi korpus lingvistikasiga borib taqaladi. Til — shunchaki qoidalar yig‘indisi emas, balki doimiy harakatdagi tirik tizimdir, shu bois uni kompyuter xotirasiga joylash va tahlil qilish uchun millionlab so‘z shakllarini o‘z ichiga olgan elektron bazalar zarur. Mazkur maqolaning maqsadi — tilshunoslik va axborot texnologiyalari chorrahasida yuzaga kelgan korpus lingvistikasining nazariy asoslari, amaliy ahamiyati hamda uning lug‘atchilik, tarjima, ta’lim va sun'iy intellekt sohalaridagi o‘rnini ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: korpus lingvistikasiga oid mavjud ilmiy qarashlarni tizimlashtirish; korpusning asosiy belgi va vazifalarini aniqlash; korpusdan turli soha mutaxassislari (tilshunoslar, adabiyotshunoslar, tarixchilar, dasturchilar, jurnalistlar, o‘qituvchilar) tomonidan foydalanish imkoniyatlarini ochib berish; olingan natijalar asosida til korpusining zamonaviy raqamli davrdagi strategik ahamiyatini asoslash.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Korpus sohasidagi maqsadli tadqiqotlar XX asrning 40-yillarida boshlangan bo‘lsa-da, 50–60-yillarda Noam Xomskiyning generativ lingvistika konsepsiyasi ustunlik qila boshladi [1]. Bu yo‘nalish tilning ichki qonuniyatlarini o‘rganishni asosiy vazifa deb bilar, nutqiy qo‘llanishlarni tadqiq etishni esa ikkinchi darajali masala sifatida baholar edi. Natijada tilshunoslikda empirik yondashuvdan ratsionalizmga o‘tish kuzatildi. Shunday bo‘lsa-da, ayrim olimlar generativ lingvistika hukmronligi davrida ham korpus metodidan foydalanishni davom ettirdilar, bu esa sohaning keyingi taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratdi. Xorijiy tilshunoslikda J. Sinklerning korpusga asoslangan leksik tahlil metodologiyasi [5], T. Makenery va A. Uilsonning korpus lingvistikasi nazariy asoslariga bag‘ishlangan tadqiqotlari [6], D. Baybir va hammualliflarining til qurilishi va qo‘llanishini korpus orqali o‘rganishga oid ishlari [7], shuningdek G. Kennedining korpus lingvistikasiga kirish tadqiqoti [8] ushbu sohaning uslubiy negizini shakllantirgan asosiy manbalar sanaladi. Rus tilshunosligida V.P. Zaxarov va S.Yu. Bogdanovaning korpus lingvistikasi bo‘yicha darsligi [9], shuningdek M. Stabbsning matn va korpus tahliliga bag‘ishlangan tadqiqoti [10] korpus metodologiyasini kompyuter lingvistikasi bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi.

O‘zbek tilshunosligida Sh. Xamroyevaning tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. Uning fikricha, «ishonarli lingvistik ma’lumotlar katta massivli matnlar majmuasidangina olinishi mumkin», degan qarash tilshunoslikda korpus tadqiqotlarining ahamiyatini belgilab bergan muhim g‘oyalardan biri hisoblanadi [1]. Sh. Xamroyeva korpus lingvistikasi atamalarining izohli lug‘atini yaratib, sohaning tushunchaviy apparatini tizimlashtirgan [2]. Z. Xolmonova kompyuter lingvistikasi va til-texnologiya integratsiyasi masalalarini yoritgan [3]. V. Zaxarov, B. Mengliyev va Sh. Xamroyevaning hammuallifligidagi o‘quv qo‘llanmasida korpus lingvistikasining amaliy ahamiyati, jumladan, korpusdan nafaqat tor doiradagi tilshunoslar, balki turli fan va kasb vakillari ham samarali foydalanishi mumkinligi ta’kidlanadi [4]. Xususan, E.V. Nedoshivinaning leksikografik tadqiqotlarga bag‘ishlangan fikri diqqatga sazovor: «Korpusda u yoki bu lingvistik birlikning qurshovini kuzata turib, ushbu birlikni xarakterlovchi ma’lum semantik belgilarni aniqlash mumkin. So‘z bir paytning o‘zida bir necha semantik kategoriyaga mansub bo‘lishi mumkin, shuning uchun so‘zning u yoki bu kategoriyaga tegishlilik darajasiga qarab fikr yuritish lozim» [4].

Yuqorida ko‘rib chiqilgan manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar korpus lingvistikasini turlicha jihatdan — nazariy-tavsifiy, amaliy-texnologik hamda ta’lim metodologiyasi nuqtai nazaridan — o‘rganishgan. Biroq korpusning tilshunoslikdan tashqari kasb sohalari (dasturchilik, jurnalistika, tarix, ta’lim)dagi kompleks va tizimli ahamiyati alohida tadqiqot predmeti sifatida yetarlicha yoritilmagan, bu esa mazkur maqolaning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot nazariy-analitik xarakterga ega bo‘lib, unda tavsifiy-tahliliy, qiyosiy-tipologik hamda sintez metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida mahalliy (Sh. Xamroyeva, Z. Xolmonova, V. Zaxarov, B. Mengliyev) va xorijiy (J. Sinkler, T. Makenery, A. Uilson, D. Baybir, G. Kennedi, V.P. Zaxarov, M. Stabbs) tilshunoslarning korpus lingvistikasiga oid ilmiy manbalari tanlab olindi

va mavzu bo‘yicha tizimli kontent-tahlil o‘tkazildi. Manbalar korpusning: 1) nazariy-ta’rif jihatlari; 2) tarkibiy-tipologik belgilari (reprezentativlik, hajmdorlik, elektron shakl, lingvistik annotatsiya); 3) amaliy qo‘llanish sohalari (tilshunoslik, gumanitar fanlar, dasturlash, ommaviy axborot vositalari, ta’lim) bo‘yicha guruhlarga ajratildi va qiyosiy tahlil qilindi. Shuningdek, korpus lingvistikasining asosiy uslubiy tushunchalari — kollokatsiya, chastotalik va konkordans (KWIC) — tavsifiy metod asosida yoritildi. Olingan ma’lumotlar induktiv yo‘l bilan umumlashtirilib, korpus lingvistikasining fanlararo ahamiyatini asoslovchi xulosalar shakllantirildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Korpus — bu muayyan til qoidalariga ko‘ra jamlangan, elektron shaklga keltirilgan, strukturaviylashtirilgan hamda lingvistik belgilashlar (annotatsiyalar) bilan ta’minlangan matnlar to‘plamidir. Korpus lingvistikasining asosiy vazifasi faqat matnlarni yig‘ishdan emas, balki ularni maxsus avtomatlashtirilgan dasturlar (konkordanslar, taggerlar, parserlar) yordamida tahlil qilishdan iborat. Tahlil natijalariga ko‘ra korpusning asosiy belgilarini quyidagicha tizimlashtirish mumkin:

Reprezentativlik (vakillik) — korpus o‘zi vakillik qilayotgan til yoki stilistik qatlamning real holatini to‘liq va xolis aks ettirishi lozim.

Hajmdorlik — zamonaviy korpuslar millionlab, hattoki milliardlab so‘z qo‘llanishlaridan (tokenlardan) tashkil topadi.

Elektron shakl va ishlov berilganlik — matnlar avtomatik izlash, guruhlash va statistik tahlil qilish imkonini beruvchi formatda saqlanadi.

Lingvistik annotatsiya — matnga morfologik, sintaktik, semantik va pragma-stilistik meta-ma’lumotlarning biriktirilishi.

Korpus lingvistikasi tildagi quyidagi asosiy hodisalarni aniqlashda mislsiz ilmiy apparat hisoblanadi: kollokatsiyalar (so‘zlarning matnda birga kelish ehtimolligini MI-score, T-score kabi statistik ko‘rsatkichlar orqali hisoblash), chastotalik (til birliklarining qo‘llanish darajasini aniq raqamlarda ko‘rsatish) hamda konkordans liniyalari, ya’ni so‘z yoki iboraning kontekstual o‘rnini Key Word in Context (KWIC) usulida atroflicha tahlil qilish [2].

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, til korpusidan foydalanish doirasi tilshunoslar bilan cheklanib qolmaydi. Avvalo, korpus tilshunoslar uchun til birliklarining real nutqdagi qo‘llanilishi, chastotasi, grammatik va uslubiy xususiyatlarini tabiiy matnlar asosida tahlil qilish imkonini beruvchi ishonchli ilmiy manba vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, korpus adabiyotshunoslik, tarix, madaniyatshunoslik kabi gumanitar fanlar uchun ham muhim manbadir: adabiyotshunoslar yozuvchilarning individual uslubini, tarixchilar esa ma’lum davr tilining rivojlanish xususiyatlarini korpus materiallari asosida chuqurroq o‘rganish imkoniga ega bo‘ladilar.

Bugungi kunda korpusdan eng ko‘p foydalanadigan mutaxassislardan biri — axborot texnologiyalari sohasida faoliyat yurituvchi dasturchilardir. Mashina tarjimasi, sun'iy intellekt, matnni avtomatik tahlil qilish, ovozni tanish va qidiruv tizimlarini yaratishda korpusdagi tabiiy til namunalari asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi, chunki dasturchilar dasturiy ta’minotni mukammallashtirish uchun sun'iy misollarga emas, balki real matnlarda uchraydigan til birliklariga tayanadilar. Korpus, shuningdek, ommaviy axborot vositalari xodimlari — jurnalistlar, muharrirlar, radio va televideniye xodimlari uchun ham katta amaliy ahamiyat kasb etadi: ular muayyan so‘z yoki iboraning qaysi uslubda qo‘llanishi, uning zamonaviy nutqdagi faolligi va ma’nodagi o‘zgarishlarini korpus orqali tez va ishonchli aniqlashlari mumkin. Bundan tashqari, korpus o‘qituvchilar va talabalar uchun ham muhim ta’limiy vositadir: dars jarayonida real matnlardan misollar tanlash, grammatik hodisalarni tabiiy nutq asosida tushuntirish hamda dalillarga tayangan holda xulosa chiqarish imkonini beradi.

Korpuslar shuningdek sun'iy intellekt, mashina tarjimasi (Machine Translation), so‘zlashuv agentlari (Chatbots) hamda matnlarni avtomatik qayta ishlash texnologiyalarining asosiy «yoqilg‘isi» hisoblanadi. Korpusga asoslangan ta’lim (Data-Driven Learning) metodologiyasi chet tillarini hamda ona tilini o‘qitishda yangi bosqichni ochdi: o‘quvchilar real kontekst va so‘zlar birikuvchanligini nazariy qoidalar orqali emas, balki korpus ma’lumotlari orqali o‘zlashtirishi ta’lim samaradorligini bir necha barobar oshirmoqda.

Muhokama. Olingan natijalar adabiyotlar tahlilida keltirilgan qarashlarni bir necha jihatdan tasdiqlaydi va kengaytiradi. Birinchidan, Sh. Xamroyevaning [1] korpus ma’lumotlarining ishonchliligi haqidagi g‘oyasi ushbu tadqiqotda korpusning kasbiy-amaliy foydalanish doirasi orqali yanada kengroq asoslanadi: korpus faqat tilshunoslar uchun emas, balki dasturchilar, jurnalistlar va o‘qituvchilar uchun ham bir xilda ishonchli manba sifatida namoyon bo‘ladi. Ikkinchidan, J. Sinkler [5] va D. Baybir va boshqalar [7] tomonidan ilgari surilgan «korpusga asoslangan tavsif» (corpus-driven description) g‘oyasi bilan o‘zbek tilshunosligidagi qarashlar [1; 4] mos kelib, korpus lingvistikasining xalqaro va milliy tadqiqotlarda umumiy metodologik yo‘nalishga ega ekanini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, tahlil natijalari O‘zbekiston tilshunosligi oldida turgan bir qator muammolarni ham ochib beradi. Xususan, o‘zbek tili uchun mukammal annotatsiyalangan (morfologik, sintaktik, semantik) milliy va parallel korpuslarning yetarli darajada shakllanmaganligi, bu esa mashina tarjimasi, sun'iy intellekt va yirik til modellari (Large Language Models) uchun zarur bo‘lgan sifatli lingvistik ta’minotning cheklanganligiga olib keladi. Bu — Z. Xolmonova [3] va V.Zaxarov, B.Mengliyev, Sh.Xamroyeva [4] tomonidan qayd etilgan til-texnologiya integratsiyasi masalasining hali to‘liq yechilmagan qismidir. Demak, milliy korpusni yaratish nafaqat lingvistik, balki strategik-texnologik ahamiyatga ega vazifa sifatida baholanishi lozim.

Diskussion nuqtayi nazardan, korpusga asoslangan ta’lim (Data-Driven Learning) metodologiyasining o‘zbek ta’lim tizimiga tatbiq etilishi alohida e'tiborga loyiq. An'anaviy qoidaga asoslangan o‘qitish metodlaridan farqli o‘laroq, DDL yondashuvi o‘quvchini bevosita tabiiy til materiali bilan ishlashga undaydi, biroq bu yondashuvning samarali qo‘llanilishi mos infratuzilma — ya’ni yetarlicha katta va annotatsiyalangan o‘quv korpuslari mavjudligini talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, tadqiqot natijalari korpus lingvistikasining nazariy ahamiyati bilan uning amaliy tatbiqi o‘rtasidagi bog‘liqlikni, ayniqsa rivojlanayotgan tillar uchun, yanada dolzarb masala sifatida ko‘rsatadi.

Xulosa. O‘tkazilgan tahlil natijalari asosida quyidagi xulosalarni shakllantirish mumkin:

Birinchidan, korpus lingvistikasining rivojlanishi nazariy va amaliy tilshunoslikni subyektiv gipotezalardan qat'iy obyektiv, tekshiriluvchi va statistik hisoblab bo‘ladigan ma’lumotlar bazasiga o‘tkazdi, bu esa lingvistik hodisalarning real nutqdagi chastotasi va tarqalish qonuniyatlarini matematik xolislik bilan baholash imkonini berdi.

Ikkinchidan, har bir tilning raqamli asrda yashovchanligini ta’minlashda milliy korpuslar strategik infratuzilma vazifasini bajaradi; o‘zbek tili va boshqa turkiy tillar uchun mukammal annotatsiyalangan milliy va parallel korpuslarni shakllantirish ushbu tillarning xalqaro va elektron makondagi o‘rnini belgilaydi.

Uchinchidan, zamonaviy kompyuter lingvistikasi, mashina tarjimasi, neyron tarmoqlar va yirik til modellari uchun korpuslar asosiy o‘quv va tahlil bazasi hisoblanadi, shu bois lingvistik ta’minotning sifati AI tizimlarining lingvistik savodxonligini oshirishning yagona va zaruriy shartidir.

To‘rtinchidan, an'anaviy lug‘atchilik va akademik grammatikalar korpus ma’lumotlari asosida jiddiy qayta ko‘rib chiqilmoqda, bu esa so‘zlarning eskirgan yoki passiv ma’nolarini aniqlash, real birikuvchanlikni (kollokatsiyalarni) belgilash va zamonaviy neologizmlarni o‘z vaqtida qayd etishda yuqori samaradorlik ko‘rsatmoqda.

Beshinchidan, korpuslar orqali tilning tarixiy taraqqiyot bosqichlari (diaxron tahlil) hamda hozirgi holatidagi sotsiolingvistik va stilistik o‘zgarishlar (sinxron tahlil) aniq va doimiy monitoring qilinadi, bu esa til siyosati va me'yorlashtirish masalalarida ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish uchun zamin yaratadi.

Oltinchidan, korpus lingvistikasi faqat filologiya doirasida cheklanib qolmasdan, psixolingvistika, sotsiolingvistika, madaniyatshunoslik, huquqiy lingvistika (forensic linguistics) va diskurs tahlili kabi qator tutash fanlar uchun eng ishonchli uslubiy poydevorga aylandi.

Umumlashtirib aytganda, korpus lingvistikasi faqatgina filologik vosita bo‘lib qolmasdan, gumanitar va texnik fanlar tutashuvida turgan, tilning raqamli kelajagini belgilab beruvchi strategik-fundamental sohadir. Uning rivojlanishi har bir tilning saqlanib qolishi, o‘rganilishi va axborot texnologiyalari davrida rivojlanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu bois kelgusi tadqiqotlarda o‘zbek tili milliy korpusini semantik va morfologik jihatdan boyitish, uni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish masalalari alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR:

1. Xamroyeva Sh. O‘zbek tili mualliflik korpusini tuzishning lingvistik asoslari: Monografiya. — T.: Globe Edit, ISBN-13: 978-620-0-51507-0, 2020. — 260 b.

2. Xamroyeva Sh. Korpus lingvistikasi atamalarining qisqacha izohli lug‘ati. — Toshkent, 2018. — 93 b.

3. Xolmonova Z. Kompyuter lingvistikasi. — Toshkent: Asian Book House, 2020. — 198 b.

4. Zaxarov V., Mengliyev B., Xamroyeva Sh. Korpus lingvistikasi: o‘quv qo‘llanma. — Toshkent, 2023. — 185 b.

5. Sinclair J. Corpus, Concordance, Collocation. — Oxford: Oxford University Press, 1991. — 179 p.

6. McEnery T., Wilson A. Corpus Linguistics: An Introduction. — 2nd ed. — Edinburgh: Edinburgh University Press, 2001. — 235 p.

7. Biber D., Conrad S., Reppen R. Corpus Linguistics: Investigating Language Structure and Use. — Cambridge: Cambridge University Press, 1998. — 300 p.

8. Kennedy G. An Introduction to Corpus Linguistics. — London: Longman, 1998. — 315 p.

9. Захаров В.П., Богданова С.Ю. Корпусная лингвистика: учебник. — СПб.: Изд-во СПбГУ, 2013. — 148 с.

10. Stubbs M. Text and Corpus Analysis: Computer-Assisted Studies of Language and Culture. — Oxford: Blackwell, 1996. — 227 p.

11. Leech G. The State of the Art in Corpus Linguistics // English Corpus Linguistics: Studies in Honour of Jan Svartvik. — London: Longman, 1991. — P. 8–29.

UDC 81

FRAME INTERPRETATION IN UNDERSTANDING TERMINOLOGY “DRILLING” OF OIL AND GAS INDUSTRY

Abdinazarov Khasan Shaymanovich,
Associate Professor at Department of Foreign languages
Karshi State Technical University, (PhD)
Karshi, Uzbekistan

Abstract. *Cognitive linguistics is thriving branch of general linguistics, being presented in every domain of society from psychology to neurology. Frame structure is the mechanism of cognitive linguistics, representing a complex mental notion in a schematization of concepts under the one field of research or science. This study aims to reveal frame semantics of oil and gas terminology in the English and Uzbek languages by conceptual modeling. This paper employs conceptual analysis of terminology in the field of oil and gas industry and frame analysis to interpret the concepts concerning the hierarchically constructed knowledge on drilling process, which is the branch of petroleum engineering.*

Key words: *cognitive linguistics, frame structure, conceptual analysis, oil and gas terminology, mental notion, drilling process.*

ФРЕЙМОВАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ В ПОНИМАНИИ ТЕРМИНА “БУРЕНИЕ” В НЕФТЕГАЗОВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ

Аннотация. *Когнитивная лингвистика — это процветающая отрасль общей лингвистики, представленная во всех областях общества, от психологии до неврологии. Фреймовая структура — это механизм когнитивной лингвистики, представляющий собой сложное ментальное понятие в схематизации концепций в рамках одной области исследований или науки. Цель данного исследования — выявить фреймовую семантику терминологии нефтегазовой отрасли на английском и узбекском языках с помощью концептуального моделирования. В данной работе используется концептуальный анализ терминологии в области нефтегазовой промышленности и фреймовый анализ для интерпретации концепций, касающихся иерархически сконструированных знаний о процессе бурения, который является отраслью нефтеинженерного дела.*

Ключевые слова: *когнитивная лингвистика, фрейм структура, концептуальный анализ, нефтегазовая терминология, ментальное понятие, процесс бурения.*

NEFT VA GAZ SANOATIDAGI “BURG‘ULASH” TERMININI TUSHUNISHDA FREYM TALQINI

Annotatsiya. *Kognitiv tilshunoslik umumiy tilshunoslikning rivojlanayotgan tarmog‘i bo‘lib, psixologiyadan tortib nevrolingvistikagacha bo‘lgan tarmoqlarda keng qo‘llanib kelinmoqda. Freym strukturasi kognitiv tilshunoslikning mental mexanizmi bo‘lib, bir soha yoki tarmoq haqidagi konseptlarni bir sxemada birlashtiruvchi murakkab mental tushunchani namoyon etadi. Mazkur ilmiy tadqiqotning asosiy maqsadi shundan iboratki, unda ingliz va o‘zbek tillarida neft va gaz sanoati terminologiyasini konseptual tahlil orqali freym strukturasi doirasida amalga oshiriladi. Ushbu maqolada neft va gazning bir tarmog‘i hisoblanagan burg‘ilash jarayoni konseptual tahlil va freym semantikasi asosida iryearxik qurilgan bilimlarni va konseptlarni talqin qilish sanaladi.*

Kalit so‘zlar: *kognitiv tilshunoslik, freym strukturasi, konseptual tahlil, neft va gaz terminologiyasi, mental tushuncha, burg‘ilash jarayoni.*

Introduction. Frame models are generally understood to be instruments for explaining, analysing and describing concepts or terms and conceptual structures. They are also suitable, however, for describing conceptual change, or for describing changes in entire conceptual systems and concept hierarchies or systems of classification. Besides, cognitive science which combines cognitive psychology approaches, philosophical and thought theory approaches, linguistic and language-theoretical approaches, and artificial intelligence models) in particular mostly uses concepts and conceptual structures (D.Busse.2017:281).

In frame semantics as established by Fillmore (2014), frames are conceived of as conceptual structures that motivate the understanding and use of language. Each frame is structured by a set of frame-specific

semantic ‘slots’, so-called frame elements. The relevance of the study from the fact that the current stage of development of intelligent information retrieval systems and artificial intelligence technologies is inextricably linked to the application of frame-based information representation principles for modeling and schematizing human knowledge.

Consequently, the cognitive-frame modeling of specialized knowledge—verbalized within a specific domain – has become a particularly pertinent issue in contemporary terminology studies. Terminology – specifically the terminology of the field of study reflects the system of knowledge of the professional sphere as encoded at the linguistic level (N.V.Salkova. 2025:1638-1639). This study is devoted to modeling terminology of oil and gas industy as a way of representing and systematizing special knowledge in this sphere. This aims to identify and classify the system relations of terminological units as well as model a multilevel terminological field of the petroleum engineering under analysis. The paper reveals the complicated hierarchical structure of the drilling process terminological system and presents a thesaurus that is designed to reflect established professional knowledge and facilitate the detailed description and effective arrangement of the terms belonging to the given field of study. This research employed conceptual analysis which represents drilling process as a frame and subframes and slots to be associated with, viewed as concepts belonging to the frame structure.

Literature review. Charles Fillmore (1988:54) claimed that a frame is groups of words motivated and structured by specific unified knowledge constructs or linked by schematization of experience, he also stated that the content of a frame is compositional, which is formed from the semantics of individual lexical units, phraseological units, and grammatical constructions representing the frame. According to the analysis of frame semantics, the primary task of this analysis as identifying and describing the specific aspects of meaning underlying a word - aspects that distinguish it from the meanings of all other lexical units within a given semantic domain. However, M.Minsky (1979:7) schematically represented a frame as a network consisting of nodes and the connections between them.

Concepts that always hold true for the assumed situation are located at the upper levels, while the lower levels contain many specific terminal slots that must be filled with characteristic examples or data. In other words, a frame is a cognitive data structure for representing stereotypical situations, combining invariant and variable components. The invariant component remains constant and common to all typical situations, whereas the variable component consists of frame terminals populated by so-called “default assignments” – that is, information regarding details (particulars) that can be replaced by other information more appropriate to the current situation (N.V.Salkova.2025:1639-44).

In the terminology of M. Minsky (1979:7), groups of semantically related frames are organized into a system of hierarchically ordered elements comprising subframes, frames, and superframes. O. V. Guselnikova (2010:139–143) grouped authors based on the approaches they employed to describe the frame structure and define the concept of the frame and its structural elements, taking into account the specifics of the material under this study. In particular, among the followers of M. Minsky (1979), the author identifies A. R. Dzhigarkhanova, T. A. Dubovaya, S. B. Ulanova, O. V. Chursin, E. I. Sheigal, and M. R. Zheltukhina, they adhere to the frame structure developed and described by Minsky and utilize concepts such as slots, terminals, default assignments, and subframes. Linguists such (Vekovishcheva, Priorova, Savchenko, 2017); Shchitova, Trofimova, 2022) stated about frame structure: frames and subframes; these are divided into slots representing lower-order categories, and further into microslots, which in turn are subdivided into semantic groups that specify the semantics of the microslots. Furthermore, scholars (Kibrik, 1991; Khantimirov, 2005; Shilikhina, Stratienko, 2017) described the slot structure of a frame. Besides, Kulakova (2008); Kushneruk (2011); Levanova (2017) asserted that frame structure as a hierarchy comprising a superframe, macroframe, subframe, microframe, and slot.

Cognitive-frame modeling of specialized knowledge verbalized through English corporate law terminology involves constructing a structured model of the terminological system within this domain, reflecting the professional knowledge system as encoded at the linguistic level (N.V.Salkova.2025:1639-40). D. Busse (2017) stated that concepts must be intersubjective, “objectivisible” by means of language as a process of communication and understanding. L.Wittgenstein (1970,1971) asserted that the concepts with the meanings of the words in their usage; they are not delimitable or finite.

A single word has a meaning for us only when it is used in a concrete context, and only against the background of the systems of significance constituted by language, called language games. E.Aleshinskaya & A. Albatsha (2019) proposed a a cognitive model as a great significance in developing professional competencies, which are ways of presenting the basic terms of a particular professional sphere and their relationships with each other.

Cognitive modeling of terminology in a professional sphere consists in searching for cognitive foundations for the systematization of special knowledge fixed in terms, and serves to build an integrative model of knowledge reflecting the real situation in the professional field. (Busan T & Busan B. 2006) claimed that a number of publications on cognitive modeling deal with mind mapping, which involves taking information from various sources and displaying it as keywords in a bright, colorful manner.

Research methods. Charles Fillmore and M.Minsky have made a huge contribution to frame semantics and theory of frame structure. The object of the research is the terminology of oil and gas in the English and Uzbek languages. The terminology concerning drilling process within the system of oil and gas industry is interpreted and represented by frame structure where concepts of hierarchically systemized knowledge and stereotyped data.

The meaning of terminology of that field is represented in the network of concepts by conceptual analysis. Conceptual analysis reveals the denotational and connotative meaning of terminology. Conceptual analysis and frame semantics are employed to reveal the cognitive feature of the terminology of that field. A data collected through dictionaries in the English and Uzbek languages. [1:P,304]

Results and discussions. The gathered data helped us to construct a frame structure and identify the cognitive meaning of drilling process. Charles Fillmore views frames as the structure of understanding any speciality. He states that frame reveals all meaning of the whole episode of the specialty and its branches semantically, representing a complex knowledge structure, which enable readers to perceive the meaning, providing background knowledge.

From the linguistic point of view, frame is a hierarchical structure of linguistic and subject matter data may represent a stereotyped situation. The frame semantics consists of two levels: the upper level is the name of frame; the lower level consists of subframes, slots (terminals), and subslots, which contain concrete information about the situation in question. Subframes, slots and subslots are characterized by the relations of inclusion and subordination.

The frame "Drilling process" for example, consists of the following subframes: *site preparation, spudding, drilling the hole selection, casing and cementing, well-control operations, well trajectory control, logging and formation evaluation, drill to total depth, completion*.

Drilling process is taken as a frame structure and associated with components are considered as subframes:

Drilling Process: Object: *drilling tower*;
Place: *offshore and onshore*;
Workers: *driller, roustabouts, roughneck*;
Production: *natural gas, crude oil;*
Vehicle: *cranes, drill truck, cementing unit, casing truck, water tank truck.*

Drilling rig components as slots: *rotary table, mud pump, drill string, drill pipes, drill collar, mud tank, vibrating hose, draw-works (winch), standpipe, bell nipple.* O'zbek tilida: *rotor doskasi, eritma nasosi, OBQ quvuri, eritma rezervuari, tebranish shlangi, burg'ilash lebyodkasi.*

Drilling bits as slots: *rolling cutter bits and fixed cutter bits, tungsten carbide insert bits, milled-tooth bits, drag bits, roller cone bits;* o'zbek tilida *olmosli burg'i, mustahkamlovchi burg'i, yon burg'i, ikki lappakli burg'i, ikki parrakli burg'i, ikki sharoshkali burg'i, maydalovchi burg'i, kolonkali burg'i, konussimon burg'i, pardozlovchi burg'i, kesuvchi burg'i, baliq dum burg'i.*

As the result, the frame structure revealed cognitive feature of drilling process, representing concepts on hierarchically structured knowledge and stereotyped information about drilling and its components under the terminological system of oil and gas in the English and Uzbek languages.

Conclusion. Frame structure is the one of the semantic mechanism of cognitive linguistics, providing concepts, events, actions. Frame is a schematisation of experience, a complex knowledge structure represented at the conceptual level and encoded in language. Besides, frame analysis is devoted to representing concrete meaning of the terminology of one's field by hierarchically structured data. The current study aims to reveal frame sematic theory and its relation with subframe and slots. The terminological system of oil and gas industry is the frame model and terms of branches of oil and gas are represented by subframe and slots, which conceptualize meanings and uncover new conceptual senses in the paper. The frame analysis also revealed a mental phenomenon by the human consciousness. This paper presented frame analysis of "*drilling process*" and subframes and slots.

REFERENCES:

1. *Busan T. and B. Busan (2006). The Mind Map Book, London, Thorsons.*

2. Fillmore, C. J. (2014). Frames, constructions, and FrameNet. In T. Herbst, H.-J. Schmid, & S. Faulhaber (Eds.), Constructions collocations patterns (Trends in Linguistics. Studies and Monographs 282) De Gruyter, 121–166.

3. Langacker, R. W. (1991). Foundations of Cognitive Grammar: Descriptive Application. vol. 2 Stanford University Press.

4. Evans, V. (2006). Cognitive linguistics. Edinburgh University Press.

5. D.Busse. Frames as a Model for the Analysis and Description of Concepts,

6. Conceptual Structures, Conceptual Change and Concept Hierarchies. In: Tanja Pommerening / Walter Bisang (eds.): Classification from Antiquity to Modern Times. Sources, Methods, and Theories from an Interdisciplinary Perspective. Berlin / Boston: de Gruyter 2017, 281 – 309.

7. Fillmore, Charles J. 1982."Frame Semantics." In Linguistics in the Morning Calm, edited by The Linguistic Society of Korea, 111-137. Seoul: Hanshin Publishing Corp.

8. Minsky, Marvin.1974."A Framework for Representing Knowledge."In: Artificial lntelligence Memo No. 306, (M.I.T. ArtificialIntelligence Laboratory). [Reprint 1975 in: The Psychology of Computer Vision, edited by Patrick H. Winston, 211-277. New York:McGraw-Hill].

9. Wittgenstein, Ludwig.1970.Über Gewißheit. Frankfurt a.M.: Suhrkamp. [English Translation: Ludwig Wittgenstein: On Certainty (Uber Gewissheit) ed. G.E.M. Anscombe and G.H. von Wright. Translated by Denis Paul and G.E.M. Anscombe Oxford: Basil Blackwell 1969-1975.]

10.Wittgenstein, Ludwig.[1953] 1971.Philosophische Untersuchungen. Frankfurt a.M.: Suhrkamp. [English Translation: Ludwig Wittgenstein: Philosophical Investigations. Translated by G.E.M.Anscombe.Oxford: Basil Blackwell, 2001.]

11.N.V.Salkova. Когнитивно-фреймовое моделирование терминосистемы корпоративного права США. Philology. Theory & practice. Gramota. 4(18) 2025, 1638-1639.

12.Вековищева С. Н., Приорова Е. М., Савченко Е. П. Фреймовое моделирование терминологии безопасности жизнедеятельности в английском и русском языках // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Теория языка. Семиотика. Семантика. 2017. Вып. 8. № 1.

13.Гусельникова О. В. Терминологический аппарат структуры фрейма // Вестник Южно-Уральского государственного гуманитарно-педагогического университета. 2010. № 9.

14.Кибрик А. А. О некоторых видах знаний в модели естественного диалога // Вопросы языкознания. 1991. № 1.

15.Кулакова Ю. В. Фреймовый подход к классификации псевдореферентных номинаций, действующих в произведениях Дж. К. Роулинг «Гарри Поттер» // Вестник Адыгейского государственного университета. Серия 2: Филология и искусствоведение. 2008. № 6.

16.Кушнерук С. Л. Макроструктуры дискурсивных миров русскоязычной и англоязычной рекламы // Политическая лингвистика. 2011. № 3.

17.Леванова Т. В. Концепто-фреймовая организация словообразовательного гнезда с вершиной пиар // Русистика. 2017. № 4.

18.Хантимиров С. М. Фреймовая структура семантики слова // Вопросы филологических наук. 2005. № 2.

19.Шилихина К. М., Стратиенко Ю. А. Фрейм «Волшебный мир Гарри Поттера» как способ осмысления политической ситуации в англоязычном общественно-политическом дискурсе // Политическая лингвистика. 2017. № 2.

20.Щитова О. Г., Трофимова Н. А. Когнитивно-фреймовое моделирование терминосистемы предметной области «Строительные материалы» в русском языке XXI века // Вестник Томского государственного педагогического университета. 2022. Вып. 1 (219).

21.Roberts P. A dictionary of oil and gas industry terms. – London: Oxford University Press, 2019. – 304 p.

22.Latham and Watkins. The Book of Jargon Oil and Gas. – New York: Latham and Watkins LLP, 2016. – 121 p

23.Булатов А.И. Англо-русский и русско-английский нефтегазопромысловый словарь. – Москва: Северо-Кавказское отделение инж. Академии, 1999. – 837с.

24.Булатов А.П., Пальчиков В.В. Англо-русский словарь по нефти и газу. – Москва: Руссо, 2004. – 400 с.

25.Салимов О.У., Иброҳимов З.С. Русча-ўзбекча политехника атамалари луғати. – Тошкент: ФАН, 1995. – 356 b.

26.Butayev Z.Sh. Inglizcha-o'zbekcha lug'at. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2009. – 1040 b.

27.Butayev Z.Sh. Inglizcha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-inglizcha lug‘at. – Toshkent: O‘qituvchi, 2013. – 654 b.

28.Jo‘rayev L. Inglizcha-o‘zbekcha lug‘at. – Toshkent: Yangiyo‘l Polygraph Servis, 2008. – 264 b.

29.Мадвалиев А. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2006. – 465 б.

30.M.O Sattorov., A.A Yamaletdinova., Q.Q Sharipov. Neft va gaz ishi atamalarining izohli lug‘ati. – Buxoro: Durdona, 2020. – 162 b.; Иброҳимов З.С. Нефт ва газ соҳаларининг русча-ўзбекча атамалар луғати. – Тошкент: Нур, 1992. – 230 б.

UO‘K 81

O‘ZBEK TILIDA METONIMIYANING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI VA UNING TADQIQ TIZIMI

Axrorova Jamila Agzamovna,
Farg‘ona davlat universiteti
2-kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi metonimiyalarning lingvomadaniy va kognitiv xususiyatlari antropotsentrik paradigma doirasida tadqiq etilgan. Metonimiya shunchaki uslubiy vosita emas, balki millat dunyoqarashi, urf-odatlari va qadriyatlarini aks ettiruvchi madaniy kod ekanligi asoslangan. Ishda o‘zbek nutqiy madaniyatiga xos makon, ijtimoiy-qarindoshlik, somatik va ma’muriy metonimiyalar yangi hayotiy misollar yordamida tahlil qilingan hamda o‘zbek tilshunosligida ushbu yo‘nalishda izlanish olib borgan yetakchi olimlar xizmati tizimlashtirilgan.*

Kalit so‘zlar: *metonimiya, lingvokulturologiya, antropotsentrik paradigma, madaniy kod, somatizm, makon metonimiyasi, o‘zbek mentaliteti, lisoniy manzara.*

ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ МЕТОНИМИИ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ И ЕЁ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКАЯ СИСТЕМА

Аннотация. *В данной статье исследуются лингвокультурологические и когнитивные особенности метонимии в узбекском языке в рамках антропоцентрической парадигмы. Обосновывается, что метонимия является не просто стилистическим приёмом, а культурным кодом, отражающим мировоззрение, обычаи и ценности нации. В работе на основе новых жизненных примеров анализируются пространственные, социально-родственные, соматические и административные метонимии, характерные для узбекской речевой культуры, а также систематизируются труды ведущих учёных, исследовавших данное направление в узбекском языкознании.*

Ключевые слова: *метонимия, лингвокультурология, антропоцентрическая парадигма, культурный код, соматизм, пространственная метонимия, узбекский менталитет, языковая картина мира.*

LINGUOCULTURAL FEATURES OF METONYMY IN THE UZBEK LANGUAGE AND ITS RESEARCH SYSTEM

Abstract. *This article investigates the linguacultural and cognitive features of metonymy in the Uzbek language within the framework of the anthropocentric paradigm. It is substantiated that metonymy is not merely a stylistic device, but a cultural code reflecting the nation's worldview, customs, and values. Based on new real-life examples, the paper analyzes spatial, socio-kinship, somatic, and administrative metonymies specific to Uzbek speech culture, and systematizes the contributions of leading scholars who have researched this field in Uzbek linguistics.*

Keywords: *metonymy, linguaculturology, anthropocentric paradigm, cultural code, somatism, spatial metonymy, Uzbek mentality, linguistic picture of the world.*

Kirish. An’anaviy tilshunoslik va leksikologiyada metonimiya (grekcha *metonymia* – qayta nomlash) uzoq yillar davomida faqatgina so‘z ko‘chishining bir turi, ya’ni badiiy tasvir vositasi (trop) sifatida o‘rganilib kelindi. Uning asosiy mexanizmi ikki predmet, voqea yoki hodisa o‘rtasidagi mantiqiy, izchil bog‘liqlik, makon va zamondagi tutashlik hamda sabab-natijaviy yaqinlikka tayanishi bilan izohlanar edi. Bu yondashuvda metonimiyaga asosan tildagi estetik jilo beruvchi, uslubiy rang-baranglikni ta’minlovchi leksik-semantik hodisa deb baho berilgan.

Biroq XX asr oxiri va XXI asr boshlariga kelib jahon tilshunosligida antropotsentrik (inson markazidagi) paradigmaning uzil-kesil shakllanishi va rivojlanishi natijasida tildan alohida olingan lisoniy birliklarni emas, balki til egalarining ma’naviy va kognitiv dunyosini kompleks o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj ortdi. Bu jarayon tildagi har bir lisoniy hodisaga yangicha nigoh bilan qarashni talab etib, til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni tadqiq etuvchi yangi soha – lingvokulturologiyaning yuzaga kelishiga zamin yaratdi.

Zamonaviy lingvokulturologiya hamda kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan metonimiya shunchaki uslubiy, ekspressiv yoki estetik vosita emas, balki millatning dunyoqarashi, madaniy qadriyatlari, milliy-psixologik xususiyatlari va tafakkur tarzini o‘zida aks ettiruvchi muhim kognitiv-madaniy hodisadir. Zero, inson atrofidagi borliqni anglash, uni guruhlash va obrazli shakllantirish jarayonida tildagi metonimik ko‘chimlar orqali o‘z madaniy tajribasiga tayanadi.

Har bir xalqning turmush tarzi, etnografik qarashlari va milliy mentaliteti ma’lum bir tushunchalarni ikkinchi bir tushuncha orqali qayta nomlash tamoyillarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Metonimiyaning kognitiv va lingvokulturologik mohiyatini chuqur o‘rganish nafaqat ma’lum bir tilning semantik imkoniyatlarini kengroq ochib beradi, balki o‘sha til sohiblarining mental dunyo xaritasi (*conception of the world*) va madaniy kodlarini yaxshiroq anglashga xizmat qiladi. Ularning lingvokulturologik tahlili zamonaviy o‘zbek tilshunosligining ham dolzarb va istiqbolli yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O‘zbek tilshunosligida ma’no ko‘chishlari, ularning leksik-semantik tabiatini hamda lingvomadaniy va kognitiv xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha bir qator yirik olimlar va tadqiqotchilar tomonidan ko‘lamdor ilmiy ishlar olib borilgan. Mazkur ilmiy manbalarni hamda nazariy-amaliy tadqiqotlarni shartli ravishda ikkita asosiy bosqich va davrga ajratib o‘rganish maqsadga muvofiqdir:

1. An’anaviy tilshunoslik va leksikologiya bosqichi

Bu davr tadqiqotlarida metonimiya va boshqa ma’no ko‘chish turlari, asosan, tildagi semantik va uslubiy hodisa hamda leksik derivatsiyaning muhim manbai sifatida tahlil qilingan:

- **Matyoqub Mirziyev:** O‘zbek semasiologiyasining shakllanishiga salmoqli hissa qo‘shgan. Olimning izlanishlarida o‘zbek tilidagi ma’no ko‘chish turlari, xususan, metonimiya va sinekdoxaning til tizimidagi o‘rni, ularning leksik-semantik mexanizmlari hamda leksik derivatsiya qonuniyatlari tizimli ravishda atroflicha tahlil etilgan.
- **Shavkat Rahmatullayev:** O‘zbek tilining frazeologiyasi va zamonaviy adabiy tili tizimida ko‘chma ma’noli so‘zlar hamda iboralarning shakllanish jarayonlarini, ularning nutqdagi funksiyalarini, leksik-semantik variantdorligini keng ko‘lamda tadqiq etgan.
- **Aziz Hojiyev va Hamid Ne’matov:** O‘zbek tili leksikologiyasi, morfologiyasi va so‘z yasalishi tizimida ma’no ko‘chishlarining derivatsion modellari va semantik taraqqiyot tamoyillari ustida izlanishlar olib borishgan.

2. Zamonaviy lingvokulturologiya va kognitiv tilshunoslik bosqichi

XXI asrga kelib tilshunoslikda antropotsentrik paradigmaning qaror topishi lisoniy hodisalarga, shu jumladan metonimiyaga ham yangicha yondashuvni taqozo etdi:

- **Nizomiddin Mahmudov:** O‘zbek lingvokulturologik maktabining asoschisi. Olimning *“Tilning tilsimi tadqiqi”* kabi fundamental asarlarida va qator ilmiy maqolalarida tildagi milliy-madaniy xususiyatlar, frazeologizmlar va ma’no ko‘chishlarining madaniy-ijtimoiy asoslari, inson va til munosabatining murakkab qirralari atrofli yoritilgan.
- **Dilfuza Xudoyberganova:** O‘zbek tilshunosligida matnlarning antropotsentrik va lingvokulturologik tahlili bo‘yicha ilmiy maktab yaratgan olima (DSc). U o‘z tadqiqotlarida matnlarda metonimiya va metaforaning milliy dunyoqarashni, mentalitet va kognitiv strukturalarni ifodalashdagi g‘oyat muhim rolini ochib bergan.
- **G. K. Qobuljonova:** Ma’no ko‘chishlarini, xususan, metafora va metonimik tizimni zamonaviy lingvistik interpretatsiya qilish yo‘nalishida chuqur ilmiy izlanishlar olib borgan.
- **D. S. Rahmatullayeva va M. Hakimova:** O‘zbek nutqida leksik abstraksiya, ma’no ko‘chish modellari, xususan, somatik (tana a’zolari nomlari bilan bog‘liq) metonimiyaning kognitiv va emotsional-ekspressiv imkoniyatlari ustida maxsus izlanishlar o‘tkazishgan.
- **Zamonaviy yosh tadqiqotchilar (S. Urolov, R. G‘aybullayeva, U. Kosbergenova va b.):** So‘nggi yillardagi dissertatsiyalarda (PhD) metonimiya o‘zbek tili va ingliz yoki nemis tillari materiali asosida chog‘ishtirma-qiyosiy va madaniy jihatdan o‘rganilmoqda. Xususan, *“Makon orqali insonni ifodalash”*, *“Qism orqali butunni nomlash”* kabi kognitiv-metonimik modellar qiyosiy-madaniy kontekstda tahlil qilingan.

3. Jahon kognitiv tilshunosligidagi nazariy asoslar

Bu izlanishlarning nazariy poydevori jahon kognitiv tilshunosligida ishlab chiqilgan quyidagi konsepsiyalarga tayanadi:

- **Roman Yakobson:** til faoliyatini o‘xshashlikka asoslangan metaforik va tutashlikka asoslangan metonimik qutblar orqali izohlab, metonimiyani nutq tuzilishining fundamental tamoyillaridan biri deb baholagan [9].

• **Jorj Lakoff va Mark Jonson:** *"Metaphors We Live By"* (1980) asarida metonimiya ham metafora singari tafakkurni tartibga soluvchi konseptual hodisa ekanini asoslagan [10].

• **Gyunter Radden va Zoltan Kyovechesh:** metonimiyani bir konseptual soha ichida bir tushuncha orqali ikkinchisiga ruhiy kirish (*mental access*) jarayoni deb ta'riflab, *"Qism – butun", "Joy – odamlar", "Muallif – asar"* kabi modellar tipologiyasini ishlab chiqqan [11].

• **Lui Gussens:** metafora va metonimiyaning bir birlikda qo'shilib kelishini *"metaftonimiya"* deb nomlagan [12]. Rus tilshunosligida esa **V. A. Maslova** va **Yu. D. Apresyan** ma'no ko'chishlarining muntazamligi va madaniy asoslarini tadqiq etgan [13; 14].

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilidagi metonimik ko'chimlar negizida xalqimizning ko'p asrlik urf-odatlari, ijtimoiy tuzumi, yashash tarzi, qadriyatlar tizimi va psixologik xususiyatlari mujassamlashgan. Shu sababli metonimiya shunchaki lisoniy usul emas, balki til egalarining milliy-madaniy kodini va dunyo xaritasini anglashda o'ziga xos kalit vazifasini o'taydi.

Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda ayrim bo'shliqlar ham ko'zga tashlanadi: metonimik birliklar ko'pincha frazeologizm va metaforalardan aniq chegaralanmagan holda o'rganiladi, jonli so'zlashuv nutqi va internet diskursidagi yangi metonimiyalar esa kam e'tiborga olinadi. Ushbu maqola mazkur bo'shliqlarning bir qismini to'ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tavsifiy, komponent tahlil, kognitiv modellashtirish, lingvokulturologik talqin va qiyosiy-chog'ishtirma metodlaridan foydalanildi. Material badiiy va publitsistik matnlar, OAV, jonli so'zlashuv nutqi hamda lug'atlardan [5] olindi. Har bir birlik uch bosqichda tahlil qilindi: manba va maqsad tushunchasini aniqlash; ular o'rtasidagi tutashlik turini belgilash; ko'chim ortidagi madaniy mazmunni talqin qilish. Metonimiyani metaforadan ajratishda ikki tushuncha o'rtasida real tutashlik aloqasining mavjudligi asosiy mezon sifatida olindi.

Tahlil va natijalar. O'zbek tilidagi metonimiyalarning lingvomadaniy guruhlari. O'zbek nutqiy madaniyatida metonimiyaning lingvomadaniy xususiyatlari va kognitiv modellari tizimlashtirilib, ularning semantik-funksional imkoniyatlari tahlil qilinganda, quyidagi **beshta yirik va asosiy konseptual guruhni** ajratish mumkin: Birinchisi bu- makon va hudud orqali inson hamda ijtimoiy guruhlarni nomlash metonimiyasi (Locative-Personal model). O'zbek xonadoni, oilaviy qadriyatlari va jamoaviy turmush tarzi metonimiyada kuchli aks etgan. Xalqimizning mahalla institutiga tayanishi natijasida joy nomi orqali o'sha yerdagi odamlarni ifodalash keng tarqalgan. Masalan, *"Butun mahalla eshitdi"* yoki *"Qishloq oyoqqa turdi"* deyilganda, makon nomi orqali unda yashovchi insonlar nazarda tutiladi. O'zbek oilasining muqaddasligi va nikoh tushunchasi uyning muayyan qismlari orqali ifodalanadi: *"Bir ostonadan xatlab o'tmoq"* yoki *"Bir ro'zg'or bo'lmoq"* iboralari oila qurishni anglatsa, kundalik hayotdagi *"Qozon kuyov"* (faqat ovqat mahali keladigan kuyov) kabi xalqchil metonimiyalar maishiy turmush tarzining tildagi aksidir.

Qo'shimcha misollar: O'zbek oilaviy hayotida ayol kishining o'rni va uy-ro'zg'or tushunchasi *"Ro'zg'orning yuki"* yoki *"Uyning chirog'i"* kabi metonimik ifodalarda ko'rinadi. Qudachilik marosimlarida kuyov tomonning kelin xonadoniga tashrifi va rozilik olish jarayoni *"Eshik qoqdi"* yoki *"Ostona hatladi"* birikmalari orqali beriladi. Kundalik hayotda biror xonadonning iqtisodiy farovonligi yoki mehmondo'stligi *"Qozoni kuyib turibdi"* (uyida hamisha ovqat bor, to'kin-sochin) yoki *"Uyidan odam uzilmaydi"* (mehmondo'st) kabi iboralarda yaqqol namoyon bo'ladi.

O'zbek madaniyatida to'y-hasham va oila qurish jarayoni o'ziga xos marosimlarga boy. Shu bois, qiz unashtirish marosimi tilimizda to'g'ridan-to'g'ri *"Non sindirdi"* metonimiyasi bilan ifodalanadi. Bu yerda taom ustida bajariladigan harakat butun bir ijtimoiy kelishuvga ko'chgan. Liboslar orqali insonlarning jamiyatdagi maqomi va kasbini ifodalash ham milliy nutqimizga xosdir. Xususan, *"Oq xalatlilar"* shifokorlarni, *"Ko'k formalilar"* esa ichki ishlar xodimlarini anglatib, ijtimoiy qatlamlarni oson ajratishga xizmat qiladi.

Qo'shimcha misollar: Milliy an'analarga ko'ra, ayolning oiladagi maqomi o'zgarishi (farzandli bo'lishi) *"So'roqli bo'lib qoldi"* yoki *"Etagi yopildi"* kabi ifodalarda metonimik aks etadi. Qiz unashtirilgandan keyingi munosabatlar tizimi *"Oq o'rar"* (to'y oldi marosimi) yoki qizning uzatilishi *"Boshini ikki qildi"* kabi ijtimoiy harakatlar orqali ko'rsatiladi. Jamiyatdagi yuqori lavozim, kuch-quvvat va ma'muriy ta'sir doirasi esa an'anaviy ravishda *"Katta kursi"* (rahbarlik maqomi) yoki *"Qo'li uzun"* (imkoniyati keng odam) degan madaniy kodlar bilan ifodalanadi.

Ikkinchisi esa, Somatik (tana a'zolari) va tashqi belgi-xususiyatlar orqali shaxsni ifodalash metonimiyasi (Somatic-Personal model). Millatning mentaliteti, andisha va hayo kabi psixologik xususiyatlari inson tana a'zolari (somatizmlar) bilan bog'liq metonimiyalarda namoyon bo'ladi. Saxiy insonni *"Qo'li ochiq"*, samimiy va yoqimli kishini *"Yuzi issiq"*, qattiq xato qilib sharmanda bo'lgan odamni esa *"Yuzi qora"* deyish orqali milliy xarakterga xos bo'lgan baholash mezonlari ifodalanadi. Shuningdek,

yoshi ulug‘, donishmand va el hurmatidagi insonlarni *“Oqsoqol”* deb atash negizida ham chuqur milliy hurmat va iyerarxiya yotadi.

Qo‘shimcha misollar: O‘zbek xalqining ichki kechinmalari va xarakter xususiyatlari inson a’zolariga kuchli yuklangan. Masalan, andishali, yuzi yumuq, kattalarga hurmat saqlaydigan insonni *“Indamas”* yoki *“Tishining orasidan shamol o‘tmaydi”* deyishsa, behayo yoki haddidan oshgan odamni *“Yuzining pardasi ketgan”* deyishadi. So‘zida turadigan, mard insonni *“Bir so‘zli”*, ikkiyuzlamachi kishini esa *“Tili boshqa, dili boshqa”* yoki *“Ikki tilli”* deb baholash negizida o‘zbek xalqining axloqiy me’yorlari yotadi. Qo‘rqoq yoki yuraksiz odamni ifodalash uchun esa *“Yuragi orqasiga tortib ketdi”* yoki *“Yurak yutib”* (jasorat ko‘rsatib) kabi metonimik model ishlatiladi.

Uchinchisi kiyim-kechak, buyum va muloqot atributlari orqali shaxsni nomlash metonimiyasi (Attributional model). Sharqona va milliy mentalitetga xos bo‘lgan lutf, kiyinish madaniyati, ijtimoiy tabaqalanish hamda kasb-kor elementlari metonimik ko‘chimlarda o‘z aksini topadi:

- *Masalan: “Do‘ppi kiygan boru...”, “Chapanicha gapirdi”, “Qora qalam” / “Qalam ahli”* (yozuvchi-ijodkorlar), *“Etik kiyganlar”*.
- *Lingvomadaniy tahlil: “Do‘ppi”* yoki *“chopon”* milliy kiyim atributi bo‘lishi bilan birga, metonimik ko‘chim orqali o‘zbek erkagining g‘ururi, soddaligi va milliy o‘zligini ifodalovchi madaniy kodga aylanadi.

Qo‘shimcha misollar: Hokimiyat ramzi bo‘lgan buyum butun boshqaruvni anglatadi: *“Taxtga o‘tirdi”* (hokimiyatni qo‘lga oldi), *“Qalam va qilich”* (ilm va harbiy kuch). Zamonaviy nutqdagi *“Qora kostyumlilar”* (rasmiy shaxslar) ham kiyimning ijtimoiy maqom belgisi ekanini tasdiqlaydi.

To‘rtinchisi esa, muallif, qurol va faoliyat mahsuli orqali tushunchani anglatish metonimiyasi (Producer-Product / Instrument model)

Muallif va uning asari, ijrochi va uning quroli, harakat va uning natijasi o‘rtasidagi izchil mantiqiy bog‘liqlikka asoslangan metonimik ko‘chimlar:

- *Masalan: “Alisher Navoiyni o‘qidi”, “Cholg‘uni tingladi”, “Qalam tebratmoq”, “Oltin qalam sohibi”*.
- *Lingvomadaniy tahlil:* Bu turdagi metonimiyalar xalqning ma’rifatparvarlik va san’atga bo‘lgan ehtiromini, adabiyot va madaniyat xodimlariga berilgan yuksak bahoni aks ettiruvchi lisoniy va kognitiv tuzilmalardir.

So‘nggisi esa, tarixiy va ma’muriy tushunchalar: Davlat boshqaruvi va ma’muriy tizimlarning joy nomi orqali ifodalanishi ham tilimizning lingvomadaniy qatlamini tashkil etadi. Ma’muriy markazlar yoki rasmiy binolar nomi butun bir davlat apparati yoki siyosiy qarorlarni ifodalash uchun ko‘chadi. Masalan, *“Ko‘ksaroy”* yoki *“Oqsaroy”* deganda davlat rahbari administratsiyasi, *“Toshkent qaror qiladi”* deyilganda esa mamlakat markaziy hukumati nazarda tutiladi.

Qo‘shimcha misollar: Tarixiy matnlardagi *“Arkdan farmon chiqdi”* iborasida qal’a nomi Buxoro amiri hokimiyatini anglatsa, zamonaviy publitsistikadagi *“Kreml bayonot berdi”, “Oq uy rad etdi”* yoki *“Hokimiyat ruxsat bermadi”* jumlalarida bino nomi qaror qabul qiluvchi shaxslar o‘rnida keladi.

Metonimiyaning qiyosiy-madaniy jihati. O‘zbek tilidagi metonimik modellarni boshqa tillar bilan qiyoslash ularning qaysi qismi universal, qaysi qismi esa milliy o‘ziga xos ekanini aniqlash imkonini beradi. Radden va Kyovechesh ta’kidlaganidek, metonimiyaning asosiy kognitiv sxemalari – *“Joy – odamlar”*, *“Qism – butun”*, *“Muallif – asar”* – deyarli barcha tillarda uchraydi [11]. Masalan, o‘zbekcha *“Oqsaroy”*, inglizcha *the White House* va ruscha *Кремль* bir xil kognitiv modelga – *“Bino – hokimiyat”* sxemasiga asoslanadi; *“Navoiyni o‘qidi”*, *to read Shakespeare* va *читать Пушкина* esa *“Muallif – asar”* modelining umumiyligini ko‘rsatadi.

Ammo universal sxema har bir tilda turlicha madaniy mazmun bilan to‘ldiriladi. Masalan, ingliz tili *mouths to feed* (boqiladigan og‘izlar) birikmasida tana a’zosini tanlasa, o‘zbek tili *“Oilada besh jon bor”* deb “jon” tushunchasiga murojaat qiladi. *“Non sindirdi”, “Qozon kuyov”, “Ostona hatladi”* kabi birliklar esa boshqa tillarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri muqobilga ega emas va tarjimada izohli usulni talab etadi.

1-jadval. O‘zbek tilidagi asosiy metonimik modellar va ularning qiyosiy muqobillari

Model	Kognitiv sxema	O‘zbek tilidagi misollar	Ingliz / rus tilidagi muqobillar
Makon – inson	JOY → ODAMLAR	“Butun mahalla eshitdi”, “Qishloq oyoqqa turdi”	the whole town knows; вся деревня знает
Somatik	TANA A’ZOSI → SHAXS / XUSUSIYAT	“Qo‘li ochiq”, “Yuzi issiq”, “Oilada besh jon bor”	open-handed; mouths to feed; золотые руки
Atributiv	BELGI / KIYIM → SHAXS	“Oq xalatlilar”, “Ko‘k formalilar”, “Taxtga o‘tirdi”	white coats; the Crown; белые халаты
Muallif – asar / qurol	MUALLIF → ASAR; QUROL → FAOLIYAT	“Navoiyni o‘qidi”, “Qalam tebratmoq”	to read Shakespeare; читать Пушкина
Ma’muriy	BINO / SHAHAR → HOKIMIYAT	“Oqsaroy”, “Toshkent qaror qildi”, “Arkdan farmon chiqdi”	the White House, Downing Street; Кремль

Zamonaviy nutqda metonimiyaning yangi qatlamlari. Metonimiya bugun ham unumli nomlash mexanizmi bo‘lib qolmoqda. OAV va ijtimoiy tarmoqlarda *“Tarmoq ikkiga bo‘lindi”* (foydalanuvchilar), *“Stadion gulduros qarsak chaldi”* kabi *“Joy – odamlar”* modeli, kundalik nutqda esa *“Damasda keldim”* (yo‘nalishli taksida), *“Kseroks qilib ber”* (nusxa ko‘chirib ber) kabi *“Ishlab chiqaruvchi – mahsulot”* modeli faol. Har bir davr o‘z metonimiyalarini yaratadi va ular orqali jamiyat qiziqishlarini tilda muhrlaydi.

Muhokama. Tahlil natijalari ayrim nazariy masalalarni ham ko‘ndalang qo‘yadi. Birinchidan, keltirilgan birliklarning bir qismi sof metonimiya emas. *“Qo‘li ochiq”* ifodasi negizida harakat (qo‘lni ochib berish) va natija (saxiylik) o‘rtasidagi metonimik bog‘liqlik yotsa-da, undagi baholovchi ma’no metaforik kengayish mahsulidir; *“Tili boshqa, dili boshqa”* esa ko‘proq frazeologik xarakterga ega. Bunday holatlarni metaftonimiya tushunchasi orqali izohlash [12] va ko‘chimlarni “sof metonimiyadan sof metaforagacha” bo‘lgan shkala asosida tasniflash asosliroqdir.

Ikkinchidan, leksikalizatsiya darajasini hisobga olish zarur: *“Oqsoqol”* tarixan metonimiya bo‘lsa-da, bugun mustaqil leksema sifatida qabul qilinadi, *“Qozon kuyov”* esa jonli obrazliligini saqlaydi. Uchinchidan, marosim metonimiyalarining ma’nosi hududlarga qarab farq qilishi mumkin, shu bois ularni dialektal material bilan tekshirish lozim.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tilidagi lingvokulturologik metonimiyalar shunchaki nutqni bezovchi, unga joziba beruvchi, uslubiy bo‘yoq bag‘ishlovchi yoki so‘z boyligini sun’iy oshiruvchi stilistik figura emas. U – asrlar davomida shakllangan xalq milliy kodining, qadriyatlar tizimining, turmush tarzi va o‘zbekona tafakkur uslubining tildagi eng muhim, jonli va moddiy ko‘rinishidir.

Metonimiyaning o‘zbek tili tizimidagi va nutqiy amaliyotidagi lingvokulturologik hamda kognitiv tahlili bizga quyidagi muhim ilmiy-nazariy va amaliy xulosalarni chiqarish imkonini beradi. *Dunyoning lisoniy manzarasini shakllantiradi:* Metonimiya o‘zbek insoni atrof-muhitni, ijtimoiy voqelikni va insoniy munosabatlarni qanday qabul qilishini ko‘rsatuvchi ko‘zgudir. Biz predmetlarni bir-biriga bog‘lash orqali o‘z mentalitetimizni tilga ko‘chiramiz. *Etnografik va tarixiy xotirani saqlaydi:* Tilimizdagi *“Non sindirdi”*, *“Oqsoqol”*, *“Ostona hatladi”* kabi o‘nlab metonimik birliklar millatning qadimiy urf-odatlari, ijtimoiy iyerarxiyasi va yashash tarzini zamonaviy avlodga bekam-u ko‘st yetkazib beruvchi lisoniy arxiv vazifasini o‘tamoqda. *Nufuzli ilmiy tadqiqotlar obyektidir:* M. Mirziyev, Sh. Rahmatullayev kabi klassik olimlardan tortib, N. Mahmudov va D. Xudoyberganova kabi zamonaviy lingvokulturologlarning izlanishlari isbotlaydiki, metonimiyani o‘rganish o‘zbek tilshunosligini dunyo miqyosidagi antropotsentrik paradigmaga olib chiqishda muhim poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda. *Pragmatik va tarjimaviy ahamiyatga ega:* Metonimiyalarning milliy-madaniy xususiyatlarini chuqur anglash nafaqat nutqiy madaniyatimizni yuksaltiradi, balki millatlararo muloqotda, diplomatik aloqalarda va badiiy tarjima jarayonlarida lingvomadaniy to‘siqlarni (madaniy shok) yengib o‘tishda, ma’nolarni boshqa tillarga aniq va muqobil sifatida ko‘chirishda kalit vazifasini o‘taydi.

Universal sxema va milliy mazmun uyg‘unligini namoyon etadi: Metonimik modellar tillararo umumiy bo‘lsa-da, ularning madaniy mazmuni milliy o‘ziga xosdir, zamonaviy nutqda esa bu mexanizm yangi birliklar hosil qilishda davom etmoqda. Kelgusida metonimiya va metafora o‘rtasidagi chegaraviy birliklarni aniq mezonlar asosida tasniflash, korpus asosida miqdoriy tahlil o‘tkazish va *“O‘zbek tili metonimiyalari lug‘ati”*ni yaratish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Shu bois, tilimizdagi metonimik tizimni kognitiv va madaniy jihatdan yanada kengroq tadqiq etish, ularning lug‘atlarini tuzish zamonaviy o‘zbek tilshunosligining dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qolaveradi.

ADABIYOTLAR:

1. *Mahmudov N. Tilning tilsimi tadqiqi. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2017.*
2. *Mahmudov N. Til va tafakkur. – Toshkent: Akademnashr, 2012.*
3. *Xudoyberganova D. Matnning antropotsentrik tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2013.*
4. *Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug‘ati. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015.*
5. *Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.*
6. *Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti, 2008.*
7. *Urolov S., G‘aybullayeva R. Lingvocultural peculiarities of metonymy in Uzbek and English languages // Contrastive Cognitive Linguistics. – 2026.*
8. *Kosbergenova U. Referential Metonymy in English, Uzbek and Karakalpak Literary Discourse: PLACE FOR PEOPLE model // Journal of International Educational Scientific Research. – 2026*
9. *Jakobson R. Two Aspects of Language and Two Types of Aphasic Disturbances // Jakobson R., Halle M. Fundamentals of Language. – The Hague: Mouton, 1956. – P. 55–82.*
10. *Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.*
11. *Radden G., Kövecses Z. Towards a Theory of Metonymy // Panther K.-U., Radden G. (eds.) Metonymy in Language and Thought. – Amsterdam: John Benjamins, 1999. – P. 17–59.*
12. *Goossens L. Metaphtonymy: the interaction of metaphor and metonymy in expressions for linguistic action // Cognitive Linguistics. – 1990. – Vol. 1, No. 3. – P. 323–340.*
13. *Маслова В. А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001.*
14. *Апресян Ю. Д. Избранные труды. Т. I. Лексическая семантика: синонимические средства языка. – М.: Языки русской культуры, 1995.*

UO‘K 81

INGLIZ TILIDA O‘ZLASHMA REDUPLIKATIV BIRLIKLARNING ETIMOLOGIK VA SHAKLIY XUSUSIYATLARI TAHLILI

Begimqulova Dilobar Baxtiyor qizi,
Qarshi davlat universiteti dotsenti v.b., f.f.f.d. (PhD)
begimkulovadilobar@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz tilidagi o‘zlashma reduplikativ birliklarning etimologik manbalari va ingliz tiliga o‘zlashish jarayonidagi shakliy xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida 30 ta o‘zlashma reduplikativ birlik ajratilib, ularning bevosita manba tillari va til guruhlari aniqlanadi. Manba tillarini belgilashda birliklarning eng qadimgi etimologik kelib chiqishi emas, balki ingliz tiliga o‘zlashishidagi bevosita manba tili asosiy mezon sifatida qabul qilinadi. Tahlil natijasida o‘zlashma birliklarning 22 ta bevosita manba til yoki til guruhi bilan bog‘liqligi aniqlanib, fransuz tili eng ko‘p birlik bilan namoyon bo‘lishi qayd etiladi. Shuningdek, manba tilidagi reduplikativ shakl bilan ingliz tilidagi shakl o‘rtasidagi munosabat asosida birliklar uch guruhga – RS (X-X → X-X), RQ (X-X → X'-X') va RH (X → X-X) guruhlariga ajratiladi. Mazkur tasnif o‘zlashma reduplikativ birliklarning ingliz tilida shakliy saqlanishi, qayta shakllanishi yoki reduplikativ modelning ingliz tilida yuzaga kelishini aniqlash imkonini beradi. Ayrim birliklarning muqobil etimologik talqinlari, xususan, jujuning turli bevosita manbalar asosidagi variantlari ham alohida ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *o‘zlashma reduplikatsiya, reduplikativ birliklar, etimologik manba, bevosita manba tili, etimologik zanjir, shakliy transformatsiya, reduplikativ model, RS, RQ, RH, manba tili, etimologik moslashuv.*

ANALYSIS OF THE ETYMOLOGICAL AND FORMAL FEATURES OF BORROWED REDUPLICATIVE UNITS IN ENGLISH

Abstract. *This article analyzes the etymological sources of borrowed reduplicative units in English and their formal features in the process of borrowing into English. The study identifies 30 borrowed reduplicative units and determines their immediate source languages and language groups. In determining the source languages, the primary criterion is not the earliest etymological origin of the units but rather the immediate source language through which they entered English. The analysis shows that the borrowed units are associated with 22 immediate source languages or language groups, with French accounting for the largest number of units. Furthermore, based on the relationship between the reduplicative form in the source language and its form in English, the units are classified into three groups: RS (X-X → X-X), RQ (X-X → X'-X'), and RH (X → X-X). This classification makes it possible to identify the preservation, reshaping, or formation of reduplicative patterns in English. Alternative etymological interpretations of certain units, particularly the variants of juju associated with different immediate source languages, are also considered.*

Keywords: *borrowed reduplication, reduplicative units, etymological source, immediate source language, etymological chain, formal transformation, reduplicative model, RS, RQ, RH, source language, etymological adaptation.*

АНАЛИЗ ЭТИМОЛОГИЧЕСКИХ И СТРУКТУРНО-ФОРМАЛЬНЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ ЗАИМСТВОВАННЫХ РЕДУПЛИКАТИВНЫХ ЕДИНИЦ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. *В данной статье анализируются этимологические источники заимствованных редупликативных единиц в английском языке и их формальные особенности в процессе адаптации. В рамках исследования выделено 30 заимствованных редупликативных единиц, определены их непосредственные языки-источники и языковые группы. При установлении языков-источников в качестве основного критерия принимается не первичное этимологическое происхождение единиц, а непосредственный язык - источник их проникновения в английский язык. В результате анализа выявлена связь заимствованных единиц с 22 непосредственными языками-источниками или языковыми группами; отмечено, что наибольшее число единиц восходит к французскому языку. Кроме того, на основе соотношения между редупликативной формой в языке-источнике и формой в английском языке исследуемые единицы разделены на три группы: RS (X-X → X-X), RQ (X-X → X'-X') и RH (X → X-X). Данная классификация позволяет определить сохранность формы, её структурное видоизменение или возникновение редупликативной модели заимствованных единиц в английском языке. Отдельно*

рассматриваются альтернативные этимологические интерпретации некоторых единиц, в частности варианты происхождения слова "juju на основе различных непосредственных источников.

Ключевые слова: *заимствованная редупликация, редупликативные единицы, этимологический источник, непосредственный язык-источник, этимологическая цепочка, формальная трансформация, редупликативная модель, RS, RQ, RH, язык-источник, этимологическая адаптация.*

Kirish. Reduplikatsiya hodisasi jahon tilshunosligida universal xarakterga ega bo‘lgan, aksariyat tillarning turli strukturaviy va funksional tizimlarida kuzatiladigan murakkab lisoniy hodisa sifatida qaraladi. Bir qator olimlar, xususan A.Fabrisyus, S.Skalayz, K.Rubinolar hamda E.Moravchiklar [2, 11, 10, 6] reduplikatsiyani universal til hodisasi ekanligini ta’kidlaganlar. U tilning fonetik-fonologik, morfologik, leksik va semantik sathlarida turli shakl hamda mazmuniy xususiyatlar bilan namoyon bo‘lib, ayrim hollarda ushbu sathlarning o‘zaro ta’siri natijasida voqelanadi.

Reduplikatsiyaning bir qancha til sathlari kesishmasida namoyon bo‘lishi, avvalo, uning ko‘plab tillarda uchrashi bilan bog‘liq [10,11]. Ayrim lisoniy hodisalar muayyan tilning ichki imkoniyatlari va o‘ziga xos strukturaviy qonuniyatlari asosida shakllanadi. Reduplikatsiya esa shakliy tuzilishi, ifodalaydigan ma’nolari va bajaradigan funksiyalari jihatidan turli tillarda o‘xshash xususiyatlarga ega. Bu ayniqsa genealogik, strukturaviy va tipologik jihatdan bir-biridan farq qiladigan tillarda ham reduplikativ modellarning uchrashida yaqqol ko‘rinadi. Shunga qaramay, har bir til reduplikatsiyani o‘zining strukturaviy imkoniyatlari asosida turlicha voqelantiradi. Shu jihatdan reduplikatsiyaning shakllanishi va funksional-semantik xususiyatlarini faqat tilning ichki tuzilishi bilan izohlash yetarli emas. Bunda shakl va ma’no o‘rtasidagi ikoniklik munosabati ham muhim o‘rin tutadi [5, 59 – 60].

Reduplikatsiyaning tillararo keng tarqalganligini tipologik tadqiqotlar bilan bir qatorda, muayyan til tarkibida uchraydigan o‘zlashma reduplikativ birliklar orqali ham kuzatish mumkin. Reduplikativ birliklarning boshqa tillardan o‘zlashib, yangi til muhitida qo‘llanishi bu hodisaning tillararo aloqalar jarayonida ham namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Ingliz tilidagi reduplikativ birliklar bazasini tahlil qilish jarayonida ham boshqa tillardan o‘zlashgan reduplikativ birliklarning muayyan qismi mavjudligi aniqlandi. Bu birliklarning ingliz tiliga boshqa tillardan kirib kelgani reduplikatsiyaning faqat tilning ichki imkoniyatlari bilan bog‘liq hodisa emasligini, balki tillararo aloqalar natijasida ham yuzaga kelishi mumkinligini ko‘rsatadi. Shu jihatdan, o‘zlashma reduplikativ birliklar bir tomondan reduplikatsiyaning tillararo tarqalishini, ikkinchi tomondan esa boshqa tilga mansub birliklarning yangi til muhitida o‘zlashtirilishi va qo‘llanishini o‘rganish uchun muhim material hisoblanadi.

Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar. Tadqiqot obyekti ingliz tilida qo‘llanadigan o‘zlashma reduplikativ birliklardan iborat. Tadqiqot uchun ingliz tili reduplikativ birliklar bazasi, mavjud ilmiy tadqiqotlar hamda etimologik va izohli lug‘atlarda qayd etilgan ma’lumotlar va lug‘at birliklari asosida o‘zlashma xususiyatiga ega deb qaralayotgan birliklar ajratib olindi. Tahlil natijasida 30 ta o‘zlashma reduplikativ birlik tadqiqot materiali sifatida tanlab olindi.

Tadqiqotda etimologik, qiyosiy, tavsifiy va komponent tahlil usullaridan foydalanildi. Birliklarning kelib chiqishini aniqlashda etimologik tahlil, manba tilidagi va ingliz tilidagi shakllarni qiyoslashda qiyosiy tahlil, ularning shakliy xususiyatlarini tavsiflashda tavsifiy metod hamda reduplikativ komponentlarning o‘zaro munosabatini aniqlashda komponent tahlilidan foydalanildi. Manba tilini belgilashda birlikning eng qadimgi etimologik kelib chiqishi emas, balki ingliz tiliga o‘zlashishidagi bevosita manba tili asosiy mezon sifatida qabul qilindi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Darhaqiqat, ingliz tilida o‘zlashma reduplikativ so‘zlar sezilarli miqdorni tashkil etadi. Ularning shakllanishi va ingliz tiliga o‘zlashish jarayonlari ham bir-biridan farqlanadi. Ayrim reduplikativ birliklar manba tildan tayyor reduplikativ shaklda o‘zlashgan bo‘lsa, ayrimlari manba tilida oddiy leksik birlik sifatida mavjud bo‘lib, ingliz tiliga reduplikatsiyalangan shaklda kirib kelgan. Yana bir guruh birliklar esa ingliz tiliga dastlab oddiy o‘zlashma so‘z sifatida kirib, keyinchalik ingliz tilining ichki so‘z yasash imkoniyatlari asosida reduplikativ shaklni hosil qilgan. Shu sababli, avvalo, o‘zlashma reduplikativ so‘zlarning mavjud ko‘rinishlarini aniqlash, ularning shakllanish va o‘zlashish xususiyatlarini umumlashtirish hamda shunga asoslanib, ularning “o‘zlashganlik” maqomini belgilash lozim.

Avvalo, o‘zlashma reduplikativ birliklarning kelib chiqishi va shakllanish xususiyatlarini ko‘rib chiqish ularning bir necha ko‘rinishda uchrashini ko‘rsatdi. Ayrim birliklar manba tilining o‘zida reduplikativ shaklda mavjud bo‘lib, ingliz tiliga shu shaklda o‘zlashgan. Boshqa birliklar esa manba tilida oddiy leksik birlik sifatida qo‘llangan bo‘lsa-da, ingliz tiliga reduplikativ shaklda kirib kelgan. Yana ayrim birliklar manba tilidagi boshqa shakldan kelib chiqib, ingliz tilida reduplikativ birlik sifatida qayta shakllangan.

Reduplikatsiyaning turli tillarda keng tarqalganligi va uning shakliy hamda funksional jihatdan xilma-xilligi mazkur hodisaga bag‘ishlangan tadqiqotlarda ham o‘z aksini topgan. Turli davrlarda amalga oshirilgan tadqiqotlarda reduplikatsiyaning turli ko‘rinishlariga oid ko‘plab birliklar tahlilga tortilib, ularning strukturaviy, semantik, funksional va tipologik xususiyatlari yoritilgan. Xususan, F. Pottning 1862-yilda nashr etilgan tadqiqotida [8] turli tillar materiallari asosida minglab reduplikativ birliklar misol sifatida keltirilgan bo‘lsa, H. Wheatleyning 1866-yilda

nashr etilgan *A Dictionary of Reduplicated Words in the English Language* [16] asarida 600 dan ortiq reduplikativ birlik jamlangan. N. Tan tadqiqotida [12] esa 1700 dan ortiq reduplikativ birlik turli semantik guruhlar doirasida tahlil qilingan. Keyingi davrlarda A. Pott (1862), J. Diyenhart (1999), E. Raimi (2000), Sh. Inkelas (2006), Sh. Nadarayan (2006), K. Rubino (2005) [8, 1, 9, 4, 7, 10] va boshqa tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirilgan ishlar ham reduplikativ birliklarning shakl va funksiyalar jihatidan rang-barangligini yanada kengroq namoyon etdi. Mazkur tadqiqotlarda qayd etilgan va tahlil qilingan koʻplab reduplikativ birliklarni umumlashtirib koʻrib chiqish, ularning kelib chiqishiga e'tibor qaratish hamda ingliz tilida qoʻllanayotgan birliklar orasidan boshqa tillar bilan etimologik aloqaga ega boʻlgan reduplikativlarni alohida ajratish imkonini beradi.

Shu nuqtayi nazardan, yuqorida qayd etilgan tadqiqotlarda keltirilgan reduplikativ birliklar hamda ingliz tilidagi reduplikativ birliklar bazasida qayd etilgan boshqa misollar koʻrib chiqilib, oʻzlashgan deb qaralayotgan reduplikativ birliklar alohida ajratib olindi. Natijada jami 30 ta birlik aniqlandi. Quyidagi jadvalda (1-jadval) ushbu birliklarning manba tillari, manba tilidagi shakllari va ingliz tilida shakllanish xususiyatlari tizimlashtirildi. Ingliz tilidagi shakllanish xususiyatini aniqlashda birlikning manba tilidagi shakli bilan ingliz tilidagi shakli oʻrtasidagi munosabat asos qilib olindi. Shu mezon asosida **RS** –reduplikativ shaklning saqlanishi, ya'ni manba tilidagi reduplikativ birlikning tuzilishi va asosiy shakli ingliz tilida sezilarli oʻzgarishsiz saqlanishini; **RQ** –reduplikativ shaklning qayta shakllanishi, ya'ni manba tilidagi reduplikativ tuzilish saqlangan holda uning fonetik, grafik yoki morfonologik jihatdan oʻzgarib, ingliz tilida yangi koʻrinishda qoʻllanishini; **RH** — reduplikativ shaklning hosil boʻlishi, ya'ni manba tilida reduplikativ shaklga ega boʻlmagan leksik birlikning ingliz tilida reduplikativ birlik sifatida shakllanishini bildiradi.

1-jadval.

Guruh	Jarayon	Formula	Mazmuni
RS	Reduplikativ shaklning saqlanishi	X-X → X-X	Manba tilidagi reduplikativ birlik ingliz tiliga reduplikativ tuzilishi va asosiy shakli saqlangan holda oʻzlashadi.
RH	Reduplikativ shaklning hosil boʻlishi	X → X-X	Manba tilidagi reduplikativ boʻlmagan leksik birlik asosida ingliz tilida reduplikativ birlik hosil boʻladi.
RQ	Reduplikativ shaklning qayta shakllanishi	X-X → X′-X′	Manba tilidagi reduplikativ birlikning reduplikativ tuzilishi saqlanadi, biroq uning shakli ingliz tilida fonetik, grafik yoki morfonologik jihatdan qayta shakllanadi.

Shu nuqtayi nazardan, yuqorida qayd etilgan tadqiqotlarda keltirilgan reduplikativ birliklar hamda ingliz tilidagi reduplikativ birliklar bazasida qayd etilgan boshqa misollar koʻrib chiqilib, oʻzlashgan deb taxmin qilinayotgan reduplikativ birliklar alohida ajratib olindi. Umumiy hisobda 31 ta birlik aniqlandi: *agar-agar* (malay tili), *beriberi* (sinhala tili), *bonbon* (fransuz tili), *boubou* (fransuz tili), *chow-chow* (Xitoy pidjin tili), *couscous* (fransuz tili), *craw-craw* (golland tili, Gʻarbiy Afrika varianti), *dik-dik* (Sharqiy Afrika mahalliy tili), *gaga* (fransuz tili), *hotchpotch* (fransuz tili), *hula-hula* (gavayi tili), *juju* (hausa tili / Gʻarbiy Afrika manbasi, fransuz tili), *kaka* (maori tili), *motmot* (ispan tili), *papa* (fransuz tili), *pell-mell* (fransuz tili), *piri-piri* (bantu tillari, ehtimol ronga tili), *pom-pom* (fransuz tili), *pow-wow* (narragansett / massachusett), *riff-raff* (fransuz tili), *shabu-shabu* (yapon tili), *swee-swee* (hokkien tili), *talkee-talkee* (Gʻarbiy Hindiston pidjin ingliz tili), *tom-tom* (hind va urdu tillari), *tsetse* (setsvana/Tswana tili), *tutti-frutti* (italyan tili), *tutu* (fransuz tili), *ylang-ylang* (tagalog tili), *yo-yo* (ilokano/Ilocano tili) va *zig-zag* (fransuz tili). Mazkur birliklarning manba tilini belgilashda ularning eng qadimgi etimologik kelib chiqishi emas, balki ingliz tiliga oʻzlashishidagi bevosita manba tili va manba shakli asos qilib olindi. Ta'kidlash joizki, mazkur birliklarning ayrimlari Hladký (1998) tadqiqotida ham oʻzlashma reduplikativ birliklar sifatida qayd etilgan, jumladan, *agar-agar*, *beriberi* va *tsetse* kabi birliklar muallif tomonidan keltiriladi [3].

Ayrim reduplikativ birliklarning etimologik shakllanish va oʻzlashish tarixi bir nechta til bosqichlarini qamrab oladi. Masalan, *boubou* uchun malinke tili (*bubu*) → fransuz tili (*boubou*) → ingliz tili [13], *couscous* uchun arab tili (*kuskus*) → fransuz tili (*couscous*) → ingliz tili [13, 14, 15] , *tutu* uchun fransuz tili (*cul* → *cucu* → *tutu*) → ingliz tili [13] kabi etimologik yoʻllar qayd etiladi. *Piri-piri* kabi ayrim birliklarning kelib chiqishi esa bir nechta til yoki til guruhlari bilan bogʻlanadi. Bunday koʻp bosqichli yoki muqobil etimologik yoʻllarni toʻliq hisobga olish manba tillari boʻyicha miqdoriy natijalarni hamda tahlil mezonlarini murakkablashtirishi mumkin. Shu sababli mazkur tadqiqotda birliklarning eng qadimgi etimologik kelib chiqishi emas, balki ingliz tiliga oʻzlashishidagi bevosita manba tili va uning shakli asosiy mezon sifatida qabul qilindi.

Shunday qilib, ingliz tilida oʻzlashma deb qaralayotgan 30 ta reduplikativ birlik 22 ta bevosita manba til yoki til guruhi bilan bogʻliq. Ular orasida fransuz tili yetakchi boʻlib, undan 11 ta reduplikativ birlik oʻzlashgan. Qolgan

manba tillari yoki til guruhlarining har biri bir martadan qayd etilgan. Bunda ingliz tiliga o‘zlashishdagi bevosita manba asos qilib olindi; oraliq tillar miqdoriy hisobga kiritilmadi. Agar birlik uchun ikki yoki undan ortiq ehtimoliy bevosita manba mavjud bo‘lsa, ular alohida qayd etildi, biroq birlikning o‘zi bir marta hisoblandi. Mazkur natijalar o‘zlashma reduplikativ birliklarning manba jihatdan xilma-xilligini ko‘rsatadi. Ularning o‘zlashish xususiyatlarini aniqlash uchun esa manba va ingliz tilidagi shakllar o‘rtasidagi munosabat asosida birliklar RS, RQ va RH guruhlariga ajratiladi.

RS guruhiga manba tilidagi reduplikativ shakli ingliz tilida asosan o‘zgarishsiz saqlangan birliklar kiritildi. Mazkur guruhda reduplikativ shaklning saqlanishi X-X → X-X modeli asosida namoyon bo‘ladi, ya’ni manba tilidagi reduplikativ birlik ingliz tilida ham reduplikativ tuzilishini saqlagan holda qo‘llanadi. Ushbu guruhga mansub birliklarning shakliy va semantik xususiyatlari quyidagi misollar asosida ko‘rib chiqiladi.

RS (X-X → X-X) guruhiga manba tilidagi reduplikativ shakli ingliz tilida asosan o‘zgarishsiz saqlangan birliklar kiritildi. Mazkur mezon asosida *agar-agar, beriberi, bonbon, boubou, chow-chow, couscous, craw-craw, dik-dik, gaga, hula-hula, kaka, motmot, papa, shabu-shabu, tsetse, yo-yo, tutu* va *zig-zag* birliklari ushbu guruhga mansub deb qaraladi. Shuningdek, *juju* birligi ham ehtimoliy manba tiliga qarab RS guruhiga kiritilishi mumkin: agar uning bevosita manbasi hausa tilidagi *jùjù* shakli deb olinsa, reduplikativ shakl ingliz tilida saqlangan va birlik X-X → X-X modeli asosida RS guruhiga mansub bo‘ladi. Biroq *juju*ning fransuz tilidagi *joujou* shaklidan o‘zlashganligi haqidagi etimologik talqinda uning shakli o‘zgarganligi sababli RQ guruhiga mansubligi kuzatiladi. Shu bois *juju* mazkur tasnifda bir vaqtning o‘zida RS va RQ guruhlariga aloqador bo‘lishi mumkin bo‘lgan alohida holat sifatida qaraladi.

RS guruhiga mansub birliklarda manba tilidagi reduplikativ shakl ingliz tilida asosan o‘zgarishsiz saqlanadi. Masalan, *shabu-shabu* yapon tilidagi しゃぶしゃぶ (*shabushabu*) shaklidan o‘zlashgan bo‘lib, ingliz tilida ham reduplikativ tuzilishini saqlagan holda qo‘llanadi. Mazkur birlik taqlidiy asosga ega bo‘lib, taomni tayyorlash jarayonidagi tovush va takroriy harakat bilan bog‘liq [15]. *Kaka* ham maori tilidagi *kākā* shaklidan ingliz tiliga reduplikativ shakli saqlangan holda o‘zlashgan; u ingliz tilida Yangi Zelandiyaga xos to‘tiqush nomi sifatida leksikallashgan [15]. Biroq RS guruhidagi birliklarning barchasi taqlidiy asosga ega emas. Masalan, malay tilidagi *agar-agar* shakli ingliz tilida ham deyarli o‘zgarmagan holda saqlanib, mustaqil leksik birlik sifatida qo‘llanadi [14]. Shunday qilib, mazkur misollar X-X → X-X modeli asosida manba tilidagi reduplikativ shaklning ingliz tilida saqlanishini, shu bilan birga, bunday birliklarning kelib chiqish motivatsiyasi turlicha bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

RH guruhiga manba tilida reduplikativ shaklga ega bo‘lmagan so‘z, birikma yoki boshqa leksik-semantik birlikning ingliz tilida reduplikativ shaklda qayta shakllangan birliklari kiritildi. Bunda ingliz tilidagi reduplikativlik manba birlikning tayyor reduplikativ shaklda o‘zlashishi natijasida emas, balki uning ingliz tilida reduplikativ model asosida qayta shakllanishi natijasida yuzaga keladi. Mazkur munosabat umumiy holda X → X-X formulasi orqali ifodalanadi,

RH (X → X-X) guruhi mezon asosida 7 ta reduplikativ birlik – *hotchpotch, juju, pom-pom, pow-wow, riff-raff, talkee-talkee* va *tutti-frutti* – aniqlandi. Ushbu birliklarda reduplikativ shakl manba tilida tayyor holda mavjud bo‘lmay, manba birlikning ingliz tilida qayta shakllanishi jarayonida yuzaga kelgan. Bunda manba birliklarining shakli va tuzilishi turlicha bo‘lib, ayrim hollarda bitta so‘zning o‘zgarishi (*hochepot → hotchpotch*, *pompon → pom-pom*), ayrim hollarda esa birikma yoki takroriy shaklning qayta tashkil etilishi (*tutti-frutti* (italyancha “barcha mevalar – all fruits”) → *tutti-frutti*) kuzatiladi. *Juju* esa fransuz tilidagi *joujou* shaklidan kelib chiqqanligi haqidagi talqinda RH guruhiga mansub bo‘lib, Hausa tilidagi *jùjù* manbasi asosida esa RS guruhiga kirishi mumkin. Quyida mazkur birliklarning ayrimlari misolida RH modelining namoyon bo‘lish xususiyatlari tahlil qilinadi.

RH guruhining xarakterli namunalari biri sifatida *hotchpotch*ni oladigan bo‘lsak, u qadimgi fransuz tilidagi *hochepot* (“aralashtirib pishirilgan taom, qaynatma”) shaklidan o‘zlashgan bo‘lib, *hocher* (“silkitmoq, aralashtirmoq”) va *pot* (“qozon”) birliklaridan tarkib topgan; keyinchalik uning shakli ingliz tilida o‘zgarib, qofiyaviy takror asosidagi *hotchpotch* shakli yuzaga kelgan va dastlabki taom nomidan “har xil narsa yoki g‘oyalarning tartibsiz aralashmasi” ma’nosiga kengaygan [14]. *Riff-raff* esa qadimgi fransuz tilidagi *rif et raf* (“hamma, barchasi; aralash holda”) birikmasidan o‘zlashib, ingliz tilida fonetik va grafik jihatdan qayta tashkil topgan *riff-raff* shaklini hosil qilgan [14]. Bunda dastlabki “hamma, barchasi” mazmuni keyinchalik “past tabaqaga mansub, hurmatsiz kishilar” ma’nosiga ixtisoslashgan. *Juju* birligi esa ikki xil bevosita manba bilan izohlanadi: Hausa tilidagi *jùjù* shakli asosidagi talqinda u RS guruhiga, fransuz tilidagi *joujou* (“o‘yinchoq”) shakli asosidagi talqinda esa *joujou → juju* fonetik o‘zgarishi tufayli RQ guruhiga mansub bo‘ladi. Shu jihatdan, *juju* ikki xil bevosita manba asosida RS va RQ guruhlariga bir vaqtning o‘zida aloqador bo‘lishi mumkin bo‘lgan birlik sifatida qaraladi.

RQ (X-X → X′-X′) guruhiga manba tilida mavjud bo‘lgan reduplikativ birlikning ingliz tiliga reduplikativ tuzilishi saqlangan, biroq fonetik, grafik yoki morfofonologik jihatdan o‘zgargan shaklda o‘zlashgan birliklar

kiritildi. Bunda manba va ingliz tilidagi shakllar o‘rtasidagi munosabat umumiy holda X-X → X′-X′ formulasi orqali ifodalanadi; bu yerda X′ manba shaklining ingliz tilidagi o‘zgargan variantini bildiradi.

Mazkur mezon asosida RQ guruhiga 5 ta reduplikativ birlik – *pell-mell, piri-piri, swee-swee, tom-tom* va *ylang-ylang* – kiritildi. Ushbu birliklarda manba tilidagi reduplikativ tuzilish ingliz tilida saqlangan bo‘lsa-da, ularning fonetik yoki grafik shaklida muayyan o‘zgarishlar kuzatiladi. Quyida mazkur birliklarning ayrimlari misolida reduplikativ shaklning qayta shakllanish xususiyatlari ko‘rib chiqiladi.

Pell-mell fransuzcha *pêle-mêle,* undan oldingi qadimgi fransuzcha *pesle mesle / mesle pesle* shakllariga borib taqalib, *mesler* (“aralashtirmoq, qorishmoq”) fe’li asosining takrorlanishi asosida shakllangan; ingliz tiliga o‘zlashish jarayonida reduplikativ tuzilish saqlangan, biroq komponentlarning fonetik-grafik ko‘rinishi *pêle-mêle → pell-mell* tarzida o‘zgargan [13, 14]. *Swee-swee* esa hokkien tilidagi *súi-súi* shakliga borib taqalib, ingliz tilida reduplikativ model saqlangan holda fonetik va grafik jihatdan moslashtirilgan [3]. Xuddi shuningdek, *ylang-ylang* tagalog tilidagi *ilang-ilang* shaklining ingliz tilidagi variantidir; bunda reduplikativ tuzilish saqlangan, komponentning boshlang‘ich tovush-grafik ko‘rinishi *ilang-ilang → ylang-ylang* tarzida o‘zgargan [14]. Shunday qilib, mazkur guruhga mansub birliklarda o‘zgarish darajasi turlicha bo‘lsa-da, ularni birlashtiruvchi belgi – manba tilidagi reduplikativ strukturaning saqlanishi va uning ingliz tilida fonetik-grafik jihatdan qayta shakllanishidir, ya’ni X-X → X′-X′ modeli.

Shunday qilib, yuqorida muhokama qilingan materiallar tahlili natijalariga ko‘ra, ingliz tilidagi 30 ta o‘zlashma reduplikativ birlikdan 19 tasi RS, 7 tasi RH va 5 tasi RQ guruhlariga kiritildi. Bunda *juju* ikki xil bevosita manba asosida izohlanishi sababli RS va RQ guruhlarida bir vaqtning o‘zida qayd etildi. Shu sababli guruhlar bo‘yicha ko‘rsatkichlar o‘zaro kesishadi: 30 ta birlikka nisbatan RS guruhi 63,3%, RH guruhi 23,3% va RQ guruhi 16,7% ni tashkil etadi. Bu natijalar o‘zlashma reduplikativ birliklarda manba tilidagi reduplikativ shaklning ingliz tilida saqlanib qolishi (RS) ko‘proq uchrashini ko‘rsatadi. Reduplikativ shaklning ingliz tilida qayta shakllanishi (RQ) va reduplikativ bo‘lmagan manba birlik asosida reduplikativ shaklning yuzaga kelishi (RH) esa tahlil qilingan materialda nisbatan kamroq uchraydi.

Shu bilan birga, bu statistik natijalar birliklarning ingliz tiliga bevosita qaysi tildan o‘zlashganiga asoslanganini ta’kidlash kerak. Agar tasniflashda bevosita manba tili emas, balki birlikning eng qadimgi kelib chiqishi va uning ingliz tilidagi shakliga asos bo‘lgan shakl o‘rtasidagi munosabat hisobga olinganida, guruhlar bo‘yicha natijalar boshqacha chiqishi mumkin edi. Masalan, *boubou* ingliz tiliga fransuz tilidagi *boubou* shakli orqali kirgan bo‘lsa-da, fransuzcha shakl malinke tilidagi *bubu* bilan bog‘lanadi. *Couscous* ham ingliz tiliga fransuzcha *couscous* orqali o‘zlashgan, biroq uning kelib chiqishi arab tilidagi *kuskus* shakliga borib taqaladi. *Tutu*ning shakllanishida esa fransuz tilidagi *cul → cucu → tutu* ketma-ketligi kuzatiladi. Demak, eng qadimgi etimologik manbaga tayanilganida, e’tibor birlikning ingliz tiliga bevosita o‘tish bosqichidan ko‘ra uning avvalgi shakllari va ular orqali yuz bergan o‘zgarishlarga qaratiladi. Bu esa ayrim birliklarning RS, RQ yoki RH guruhlariga kiritilishiga va, natijada, guruhlar bo‘yicha statistik ko‘rsatkichlarning o‘zgarishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli ushbu tadqiqotda miqdoriy natijalarni bir xil mezon asosida olish uchun birlikning ingliz tiliga o‘tishidagi bevosita manba tili asos qilib olindi. Eng qadimgi etimologik manbalar esa tasniflash uchun emas, balki birliklarning kelib chiqish tarixini ko‘rsatish uchun hisobga olindi.

Quyidagi jadvalda (2-jadval) tahlil qilingan 30 ta o‘zlashma reduplikativ birlikning etimologik zanjirlari va ushbu zanjirlarning har bir bosqichida qayd etilgan shakllar tizimli ravishda umumlashtirilgan. Mazkur ma’lumotlar birliklarning kelib chiqish yo‘li, ingliz tiliga o‘tish jarayoni va yakuniy shakli o‘rtasidagi munosabatni birgalikda ko‘rsatadi.

2-jadval.

№	Reduplikativ birlik (ingliz tili)	Etimologik zanjir va manba shakllari	Guruh
1	*agar-agar*	malay (*agar-agar*)	RS
2	*beriberi*	sinhala (*beri*) → sinhala (*beri-beri*)	RS
3	*bonbon*	fransuz (*bonbon*)	RS
4	*boubou*	malinke (*bubu*) → fransuz (*boubou*)	RS
5	*chow-chow*	xitoy (*caau/cau*) → Xitoy pidjin (*chow-chow*)	RS
6	*couscous*	berber (*keskesu/kuskus*) → arab (*kuskus*) → fransuz (*couscous*)	RS
7	*craw-craw*	golland (*kraauw*) → G‘arbiy Afrika varianti (*craw-craw*)	RS
8	*dik-dik*	Sharqiy Afrika mahalliy tili (*dik-dik*)	RS
9	*gaga*	fransuz (*gaga / ga-ga*)	RS
10	*hotchpotch*	fransuz (*hochepot*)	RH
11	*hula-hula*	gavayi (*hula-hula*)	RS

12	*juju*	hausa (*jùjù*)	RS
		fransuz (*joujou*)	RQ
13	*kaka*	maori (*kā*) → maori (*kākā*)	RS
14	*motmot*	ispan (*motmot*)	RS
15	*papa*	fransuz (*papa*)	RS
16	*pell-mell*	qadimgi fransuz (*pesle mesle / mesle pesle*) → fransuz (*pêle-mêle*)	RQ
17	*piri-piri*	bantu tillari (*pili-pili / piri-piri*)	RQ
18	*pom-pom*	fransuz (*pompon*)	RH
19	*pow-wow*	Massachusett / Narragansett (*pauwau / powwáw*)	RH
20	*riff-raff*	qadimgi fransuz (*rif et raf*)	RH
21	*shabu-shabu*	yapon (*shabushabu*)	RS
22	*swee-swee*	hokkien (*súi-súi*)	RQ
23	*talkee-talkee*	G‘arbiy Hindiston pidjin ingliz (*talkee-talkee*)	RH
24	*tom-tom*	hind va urdu (*ṭam-ṭam*)	RQ
25	*tsetse*	setsvana (Tswana) (*tsêtsê*)	RS
26	*tutti-frutti*	italyan (*tutti frutti*)	RH
27	*tutu*	fransuz (*cul → cucu → tutu*)	RS
28	*ylang-ylang*	tagalog (*ilang-ilang*)	RQ
29	*yo-yo*	ispan (*yoyo*) → ilokano (*yóyo*)	RS
30	*zig-zag*	fransuz (*zigzag*)	RS

Xulosa. Umuman olganda, tahlil natijalari ingliz tilidagi o‘zlashma reduplikativ birliklarning kelib chiqishi va ingliz tilida qayta shakllanishi jihatidan bir xil hodisa emasligini ko‘rsatadi. Aniqlangan 30 ta birlik orasida fransuz tili eng ko‘p uchraydigan bevosita manba sifatida ajralib turadi; boshqa birliklar esa malay, sinhala, maori, yapon, tagalog, ilokano, hokkien, hind va urdu, shuningdek, turli Afrika va mahalliy tillar bilan bog‘liq. Shakllanish modeli bo‘yicha RS guruhi 19 ta (63,3%), RH guruhi 7 ta (23,3%), RQ guruhi 5 ta (16,7%) birlikni qamrab oladi; *juju*ning ikki xil bevosita manba asosida RS va RQ guruhlariga kiritilishi sababli foizlar yig‘indisi 100 foizdan yuqori chiqadi. Demak, tahlil qilingan birliklarning asosiy qismi manba tilidagi reduplikativ shaklni saqlagan holda ingliz tiliga o‘zlashgan, shaklning fonetik-grafik qayta tashkil topishi yoki reduplikativ bo‘lmagan manbadan ingliz tilida reduplikativ birlikning hosil bo‘lishi esa nisbatan kamroq kuzatiladi. Shu bilan birga, etimologik zanjirlarning tahlili ayrim birliklarning ingliz tiliga bevosita manbadan oldingi bir yoki bir necha til bosqichlari orqali shakllanganini ko‘rsatib, reduplikativ birliklarning ingliz tilidagi mavjud shaklini ularning tarixiy kelib chiqishidan ajratgan holda o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR:

1. Dienhart J. Stress in Reduplicative Compounds: Mish-Mash or Hocus-Pocus? // American Speech. – Vol. 74, 1999. – P. 3–37.

2. Fabricius A. A Comparative Survey of Reduplication in Australian Languages. – Munich: Lincom, 1998. – 167 p.

3. Hladký J. Notes on Reduplicative Words in English // Brno Studies in English. – Vol. 24, 1998. – P. 33–78.

4. Inkelas Sh. Reduplication // Encyclopedia of Language and Linguistics. – Oxford: Elsevier, 2006. – P. 417–419.

5. Kouwenberg S., LaCharité D. The Iconic Interpretations of Reduplication: Issues in the Study of Reduplication in Caribbean Creole Languages // European Journal of English Studies. – Vol. 5, No. 1, 2001. – P. 59–80.

6. Moravcsik E. Reduplicative Constructions // Universals of Human Language. – Vol. 3, 1978. – P. 297–334.

7. Nadarajan Sh. A Crosslinguistic Study of Reduplication // Arizona Working Papers in SLAT. – Vol. 13, 2006. – P. 39–53.

8. Pott F. Doppelung (Reduplikation, Gemination) als eines der wichtigsten Bildungsmittel der Sprache. – Lemgo/Detmold: Meyer, 1862. – 304 p.

9. Raimy E. The Phonology and Morphology of Reduplication. – Berlin: Walter de Gruyter, 2000. – 200 p.

10. Rubino C. Reduplication: Form, Function and Distribution // Hurch B. (ed.). Studies on Reduplication. – Berlin/New York: Walter de Gruyter, 2005. – P. 11–29.

11. Scalise S. The Notion of ‘Head’ in Morphology // Yearbook of Morphology. – Vol. 1, 1988. – P. 229–245.

12. Thun N. Reduplicative Words in English: A Study of Formations of the Types Tick-tick, Hurly-burly and Shilly-shally. – Uppsala: Carl Bloms, 1963. – 347 p.

13. Dictionnaire de l'Académie française. 9e éd. – Paris: Imprimerie nationale; Fayard, 1992–2024.

14. Oxford Advanced Learner's Dictionary. 10th ed. – Oxford: Oxford University Press, 2020.

15. The American Heritage Dictionary of the English Language. 5th ed. – Boston: Houghton Mifflin Harcourt, 2011. – 2084 p.

16. Wheatley H. A Dictionary of Reduplicated Words in the English Language. – London, 1866. – 104 p.

UO‘K 81

LOGISTIKA SOHASIDAGI YANGI TERMINLARNING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI

Bozorbekov Ahmadbek Sohibjon o‘g‘li,
Andijon davlat chet tillari instituti doktoranti
abozorbekov@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy logistika terminlarining o‘zgarishi va til tizimida shakllanish xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Unda yangi terminlarning paydo bo‘lishi, mavjud terminlarning ma’nosining kengayishi, ingliz tilidan o‘zlashishi va ularning o‘zbek tili qoidalariga moslashuvi haqida so‘z yuritiladi. Logistika terminologiyasining ochiq va doimiy yangilanuvchi tizim ekanligi, terminlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashtirish, transliteratsiya, kalkalash va mazmuniy tarjima usullari orqali shakllanishi tahlil qilinadi. Shuningdek, raqamlashtirish va elektron savdo ta’sirida yuzaga kelayotgan yangi terminologik qatlam hamda soha terminlarini standartlashtirish masalalari yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *logistika, terminologiya, transformatsiya, o‘zlashma termin, raqamli logistika, ta’minot zanjiri, elektron savdo, termin yaratish, semantik o‘zgarish, xalqaro terminlar.*

ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ НОВЫХ ТЕРМИНОВ В СФЕРЕ ЛОГИСТИКИ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются изменения современных логистических терминов и особенности их формирования в языковой системе. Особое внимание уделяется появлению новых терминов, расширению значения существующих терминов, заимствованию терминов из английского языка и их адаптации к нормам узбекского языка. Анализируются способы образования терминов посредством прямого заимствования, транслитерации, калькирования и смыслового перевода, а также вопросы стандартизации отраслевой терминологии в условиях цифровизации и развития электронной коммерции.*

Ключевые слова: *логистика, терминология, трансформация, заимствованный термин, цифровая логистика, цепь поставок, электронная коммерция, терминообразование, семантическое изменение, международные термины.*

FEATURES OF THE FORMATION OF NEW TERMS IN THE FIELD OF LOGISTICS

Abstract. *This article examines the transformation of modern logistics terminology and the peculiarities of its formation within the language system. Particular attention is paid to the emergence of new terms, the expansion of the meanings of existing terms, the borrowing of terms from English, and their adaptation to the norms of the Uzbek language. The study analyzes the ways of term formation through direct borrowing, transliteration, calquing, and semantic translation, as well as the issues of standardizing professional terminology in the context of digitalization and the development of e-commerce.*

Key words: *logistics, terminology, transformation, loan term, digital logistics, supply chain, e-commerce, term formation, semantic change, international terms.*

Kirish. Bugungi kunda globallashuv sharoitida logistika iqtisodiyotning eng tez o‘sayotgan yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Tovar va xizmatlarning ishlab chiqaruvchidan iste’molchiga yetib borishini ta’minlash bilan birga, logistika zamonaviy axborot texnologiyalari, elektron tijorat, avtomatlashtirilgan omborlar, xalqaro transport tizimlari va raqamli boshqaruv platformalarini ham o‘z ichiga oladi. Ushbu jarayonlar iqtisodiy munosabatlarga ta’sir ko‘rsatish bilan birga, shu sohada ishlatilayotgan til birliklari va terminologik tizimga ham sezilarli ta’sir o‘tkazmoqda.

Har qanday sohaning rivojlanishi uning terminologik tarkibida aks etadi. Yangi texnologiyalar, yangi xizmat turlari va boshqaruv shakllarining paydo bo‘lishi natijasida yangi terminlar yuzaga keladi. Shu bilan birga, avvaldan mavjud bo‘lgan ayrim terminlar yangi ma’no kasb etadi yoki ularning qo‘llanish doirasi kengayadi. Bu hodisa terminlarning transformatsiyasi sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqotning maqsadi zamonaviy logistika terminlarining shakllanish yo‘llari va o‘zlashma birliklarning o‘zbek tiliga moslashuv xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Adabiyotlar sharhi. Terminologiya nazariyasining asoschilaridan Axmanova O.S. terminni maxsus tushunchani ifodalovchi til birligi sifatida ta’riflaydi [1]. Leychik V.M. terminologiyani rivojlanuvchi tizim deb baholaydi [2]. Superanskaya A.V. va hammualliflar umumiy terminologiyaning nazariy asoslarini ishlab

chiqadilar [3], Grinyov-Grinevich S.V. esa termin yasash usullarini tavsiflaydi [4]. Logistika sohasi bo‘yicha Christopher M. [5] hamda Rushton A. va hammualliflar [6] ta’minot zanjirini boshqarishning zamonaviy tamoyillarini bayon etadilar. Mazkur manbalar zamonaviy logistika terminologiyasini ochiq va yangilanuvchi tizim sifatida o‘rganish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Logistika terminologiyasining yaratilishi va o‘sishi. “Logistika” atamasi tarixan asosan harbiy sohada qo‘llanilsa-da, uning ma’nosi keyinchalik iqtisodiy va ishlab chiqarish munosabatlari bilan bog‘liq ravishda kengaydi. Hozirda logistika moddiy oqimlarni rejalashtirish, tashish, saqlash, taqsimlash va nazorat qilish jarayonlari bilan birga, axborot oqimlarini boshqarishni ham o‘z ichiga oladi. Demak, logistika terminologiyasi statik emas, balki doimiy ravishda yangilanib turuvchi ochiq tizim hisoblanadi.

Logistika terminlarining o‘zgarishini bir necha asosiy yo‘nalishga ajratish mumkin: yangi terminlar yaratiladi; mavjud terminlarning ma’nosi kengayadi; xorijiy terminlar o‘zlashtiriladi; terminlar qisqaradi; terminlar tarjima va kalkalash yo‘li bilan shakllanadi; raqamli texnologiyalar ta’sirida yangi terminologik birliklar paydo bo‘ladi. Masalan, ilgari *ombor* atamasi asosan tovarlarni saqlash joyini bildirgan. Bugungi kunda esa *aqlli ombor, avtomatlashtirilgan ombor* kabi tushunchalar mavjud. *Yetkazib berish* tushunchasi ham *tezkor yetkazib berish, kontaktsiz yetkazib berish, onlayn buyurtmani yetkazib berish* kabi birikmalarda faol qo‘llanmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Ingliz tilining logistika terminologiyasiga ta’siri. Zamonaviy logistika terminologiyasining rivojlanishida ingliz tilining ta’siri juda katta. O‘zbek tiliga kirib kelayotgan logistika terminlarini shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin.

1-jadval.

O‘zbek tilida muqobili mavjud terminlar

Inglizcha termin	O‘zbekcha muqobil
delivery	yetkazib berish
warehouse	ombor
transportation	tashish
supplier	ta’minotchi
shipment	jo‘natma, yuk jo‘natish

Ikkinchi guruhga esa xalqaro amaliyotda inglizcha shaklda faol ishlatilayotgan terminlar kiradi: *tracking, fulfillment, cross-docking, outsourcing, supply chain, last mile, freight forwarding*. Bunday birliklarning o‘zbek tiliga kirib kelishida to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashtirish, transliteratsiya yoki mazmuniy tarjima usullari kuzatiladi. Masalan, *supply chain* termini *ta’minot zanjiri* shaklida kalkalash usuli orqali ifodalanmoqda.

O‘zlashma terminlarning o‘zbek tiliga moslashuvi. *Logistics* so‘zining *logistika, container* so‘zining *konteyner* shaklida qo‘llanishi ularning o‘zbek tilining fonetik va grammatik tizimiga moslashganini ko‘rsatadi. Biroq barcha terminlarni chet tilidagi shaklda qabul qilish maqsadga muvofiq emas. Agar tushuncha uchun o‘zbek tilida aniq, qisqa va mazmunan to‘g‘ri muqobil mavjud bo‘lsa, milliy variantdan foydalanish terminologik tizimning izchilligini ta’minlaydi.

Raqamlashtirish va logistika terminlarining yangilanishi. Elektron savdoning kengayishi *e-logistics, e-commerce logistics, fulfillment* markazi, *digital supply chain* kabi terminlarning faol qo‘llanishiga sabab bo‘ldi. *Fulfillment* termini buyurtmani qabul qilishdan boshlab uni yig‘ish, qadoqlash, jo‘natish va mijozga yetkazishgacha bo‘lgan kompleks jarayonni ifodalaydi. *Last mile* termini esa mahsulotning taqsimlash punktidan yakuniy iste’molchigacha bo‘lgan so‘nggi bosqichini anglatadi.

Terminlarning qisqarishi va yangi shakllar. *FOB, CIF, EXW, DDP* kabi xalqaro savdo terminlari qisqartma shaklida ishlatiladi. Shuningdek, TMS – Transport Management System, WMS – Warehouse Management System kabi qisqartmalar zamonaviy logistika boshqaruvida keng uchraydi. Ilmiy va o‘quv matnlarida qisqartma birinchi marta ishlatilganda uning to‘liq shaklini izohlash maqsadga muvofiq.

Logistika terminlarining semantik transformatsiyasi. *Platforma* so‘zi ilgari jismoniy maydon ma’nosida qo‘llangan bo‘lsa, bugungi kunda *raqamli platforma, elektron savdo platformasi* birikmalarida ishlatiladi. *Markaz* termini *logistika markazi, taqsimot markazi, fulfillment markazi* shakllarida yangi semantik munosabatlarga kirishmoqda. *Zanjir* so‘zi esa *ta’minot zanjiri* tushunchasini ifodalab, umumtil birligining terminlashuvga misol bo‘ladi.

O‘zbek logistika terminologiyasini tartibga solish masalalari. Terminologik standartlashtirish quyidagi vazifalarni bajaradi: bir tushuncha uchun yagona terminni belgilash; terminlarning ma’nosini aniq chegaralash; o‘zlashma birliklarning yozilish shaklini tartibga solish; xalqaro terminlar va milliy muqobillar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash; mutaxassislar o‘rtasidagi kommunikativ aniqlikni oshirish.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Logistika terminlarining o‘zlashuv strategiyalari va tilga moslashuv mexanizmlari

Zamonaviy logistika terminlari ko‘p hollarda xalqaro (ayniqsa ingliz tiliga tayangan) axborot kommunikatsiyasi natijasida o‘zbek tiliga kirib keladi. Bunday o‘zlashuv jarayoni tasodifiy kechmaydi; u til tizimining fonetik, grammatik va semantik qonuniyatlari bilan uzviy bog‘liq. Terminologiya nazariyasida termin — maxsus tushunchani ifodalovchi til birligi sifatida talqin qilinadi [1]. Shuning uchun logistika terminlari o‘zlashtirilganda faqat so‘zning shakli emas, balki u ifodalayotgan konseptning aniqligi ham muhim mezon sanaladi.

O‘zbek tiliga kirib kelayotgan logistika birliklarida o‘zlashuvning bir necha yo‘li kuzatiladi: to‘g‘ridan-to‘g‘ri qabul qilish, transliteratsiya (fonetik moslashtirish), kalkalash (mazmuniy tarjima), mazmuniy tarjima orqali milliy muqobil yaratish hamda terminlarning qisqarish (abreviatsiya) shakllaridan foydalanish. Bu yo‘llar terminlarning tilga “singishi” bosqichlarini belgilaydi: bir bosqichda termin muhitga kirib keladi, keyin esa amaliyot va ilmiy matnlarda barqarorlashadi, nihoyat esa terminologik tizim doirasida muayyan ma’no chegaralariga ega bo‘lib boradi.

Transliteratsiya jarayonida kirib kelayotgan birliklarning talaffuziga mos ravishda tovushlar tanlanadi. Masalan, *logistics* — logistika, *container* — konteyner ko‘rinishidagi shakllar o‘zbek tilining fonetik me’yorlariga moslab qayta shakllanganini ko‘rsatadi. Biroq amaliyotda ayrim terminlar bo‘yicha bir nechta imlo varianti paydo bo‘lishi mumkin. Bu holat, ayniqsa, elektron hujjatlar, IT tizimlari va onlayn platformalarda terminni qidirish va filtrlashda qiyinchilik tug‘diradi.

Shu sababli logistika terminlarida grafik barqarorlik quyidagi omillar bilan bog‘liq deb hisoblanadi:

terminni qabul qilayotgan manba (darslik, metodik qo‘llanma, normativ hujjat, maqola) nufuzi;

terminning xalqaro standart (yoki xalqaro amaliyot) bilan mosligi;

transliteratsiyada bir xil yondashuvning yo‘qligi yoki turli variantlarning “parallel” ishlatilishi.

Terminologik tizimning barqarorligi esa, Leychik ta’kidlaganidek, terminlar rivojlanuvchi tizimning tarkibiy qismi sifatida ko‘rilishi bilan belgilanadi [2]. Demak, grafik moslashuv ham doimiy takomillashuvga ehtiyoj sezadi.

O‘zlashma terminlar ko‘pincha o‘zbek tilida grammatik qoidalar asosida “ishlay” boshlaydi. Ya’ni u ma’lum so‘z turkumi bilan bog‘lanadi, turlanish yoki birikuv xususiyatiga ega bo‘ladi, aniqlovchi-aniqlanmish munosabatlariga kiradi. Masalan, logistika terminlari ko‘p hollarda ot turkumida faol bo‘lib, ularning atrofida aniqlovchi komponentlar shakllanadi: aqlli ombor *(smart warehouse)*, avtomatlashtirilgan ombor (*automated warehouse*), logistika markazi, taqsimot markazi, fulfillment markazi.

Bu yerda ikki jihat muhim:

terminning o‘zbekcha sintaktik qolipga moslashuvi;

terminni yangi aniqlovchi birliklar bilan biriktirish imkonining paydo bo‘lishi.

Natijada terminologik tizim faqat “so‘z kiritish” bilan cheklanmaydi, balki o‘zbek tilining ichki birikuv imkoniyatlari hisobiga kengayadi. Bu hodisa terminlarning “tizimga kirish” darajasini ko‘rsatadi.

Logistika sohasida inglizcha terminlar bilan bir qatorda o‘zbekcha muqobil variantlar ham paydo bo‘ladi. Bunda kalkalash (masalan, *supply chain* – ta’minot zanjiri) samarali yo‘l hisoblanadi, chunki u terminning ichki semantik tuzilmasini saqlagan holda o‘zbek tilidagi mantiqiy ifodaga imkon yaratadi. Mazmuniy tarjima esa ba’zan yanada tabiiy muqobil topishga xizmat qiladi, biroq har doim ham to‘liq ekvivalentni topish mumkin bo‘lmaydi.

Shu bois muqobil termin tanlashda quyidagi mezonlar ehtiyotkorlik bilan qo‘llanishi kerak:

termin qamrab oladigan konseptning chegarasi (to‘liqmi yoki qismanmi?);

terminning amaliyotdagi ishlatilish tezligi va barqarorligi;

sinonim juftliklar paydo bo‘lishi oqibatida kommunikatsiyadagi noaniqliklar;

normativ hujjatlar va ilmiy matnlarda yagona qo‘llanish imkoniyati.

Terminologik standartlashtirish nazariyasida terminlarni aniqlash va chegaralash asosiy vazifalardan biri ekani ko‘rsatiladi [3]. Amaliy jihatdan esa bu vazifa logistika kabi tez yangilanadigan sohada ayniqsa dolzarb: xizmat turlari, texnologiyalar va boshqaruv yondashuvlari o‘zgarishi bilan yangi terminlar yuzaga keladi va mavjud terminlar semantik jihatdan qayta talqin qilinadi.

Semantik transformatsiya: “umumtil so‘zlari”ning terminlashuvi

Logistika terminologiyasida eng faol kuzatiladigan lingvistik jarayonlardan biri – umumtil so‘zlarining terminlashuvi. Ya’ni kundalik tilda oddiy ma’noda ishlatiladigan birliklar soha kontekstida maxsus, aniq konseptni ifodalashga o‘tadi. Masalan, platforma so‘zi avval “jismoniy asos” yoki “tuzilma” ma’nosida talqin qilinsa, raqamli logistika kontekstida raqamli platforma, elektron savdo platformasi kabi birikmalarda butun boshqaruv va tranzaksion jarayonlarni “tizim” sifatida anglata boshladi.

Shu jarayon markaz, zanjir, voqea yoki jarayon kabi so‘zlarda ham kuzatiladi. Masalan:

markaz – logistika markazi, taqsimot markazi, fulfillment markazi kabi turlarga ajraladi;

zanjir – ta'minot zanjiri konseptini ifodalab, bosqichlararo aloqadorlikni termin darajasida ifodalaydi.

Semantik transformatsiya natijasida terminologik tizim boyiydi, tushunchalar ierarxiyasi shakllanadi va mantiqiy bog‘lanishlar terminlarda mustahkamlanadi. Bu, ayniqsa, ta'minot zanjiri boshqaruvi, omnikanal savdo, *reverse logistics* (teskari logistika) kabi kompleks konseptlarni ifodalashda yaqqol ko‘rinadi.

Raqamlashtirish ta'siri: *e-logistics, fulfillment va last mile* terminlarining semantik kengayishi

Elektron tijorat logistika xizmatlarini "yordamchi operatsiya" darajasidan "raqamli ekotizim" darajasiga ko‘tardi. Shu sababli terminlar ham avvalgi tor ma'nodan kengroq konseptga aylana boshlaydi. Masalan:

fulfillment termini faqat ombor ichidagi jarayon emas, balki buyurtmadan boshlab mijozgacha bo‘lgan butun servis jarayonini anglatadi;

last mile termini faqat "so‘nggi yetkazish" degani emas, balki logistikaning xarajatlar yuqori bo‘ladigan va boshqaruv talabchan eng mas'ul segmenti sifatida talqin qilinadi;

e-logistics va digital supply chain kabi birliklar esa axborot oqimi bilan moddiy oqimni bir tizimda boshqarish konseptini ifodalaydi.

Bu terminlar tilshunoslik nuqtayi nazaridan ham qiziq: ularning tarkibida axborot-kommunikatsiya komponentlari kuchayadi, demak, semantik markaz *"transport operatsiyasi*"dan "*boshqaruv tizimi"*ga siljiydi. Natijada terminlar faqat texnik jarayonni emas, balki boshqaruv modeli, xizmat darajasi va tizimlar integratsiyasini ifodalashga moslashadi.

Terminlar qisqarishi (abreviatsiya) va ilmiy-texnik yozuv me'yorlari

FOB, CIF, EXW, DDP kabi xalqaro savdo qisqartmalari hamda TMS – Transport Management System, WMS – Warehouse Management System singari IT-terminlar hujjat yuritishda qulaylik yaratadi. Qisqartmalar:

kommunikatsiyani tezlashtiradi;

hujjatlarda joyni tejaydi;

standart kodlash imkonini beradi.

Biroq ilmiy va o‘quv matnlarida qisqartmalarning birinchi qo‘llanishida to‘liq izoh berilishi zarur. Aks holda, o‘quvchi va amaliy mutaxassis uchun tushunish qiyinlashadi, noto‘g‘ri talqin ehtimoli ortadi. Shuningdek, qisqartmalarni yozish shakli (katta-kichik harf, tire yoki probel ishlatilishi) bo‘yicha me'yoriy yondashuv talab qilinadi.

O‘zbek logistika terminologiyasini tartibga solish bo‘yicha tavsiyalar

Terminologik standartlashtirish o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi; u ilmiy hamda amaliy manfaatlar kesishgan joyda tashkil etilishi kerak. Standartlashtirishning asosiy yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

Bitta tushuncha uchun yagona terminni belgilash va sinonimlar orasidan asosiy variantni tanlash;

termin ma'nosini aniq chegaralash (ta'rif va konsept doirasini belgilash);

o‘zlashma terminlarning yozilish shakllarini barqarorlashtirish (transliteratsiya va imlo me'yorlari);

xalqaro terminlar va milliy muqobillar o‘rtasida muvozanat yaratish;

mutaxassislar o‘rtasidagi kommunikativ aniqlikni oshirish.

Shuningdek, logistika terminlarini tartibga solishda korpus yondashuvi (matnlar korpusi asosida real qo‘llanish chastotasini tahlil qilish) va izohli lug‘atlar yaratish katta ahamiyatga ega. Chunki terminlar faqat "nazariy ekvivalent" emas, balki amalda qaysi matn turida, qanday vaziyatda, qaysi so‘z birikmalari bilan ishlatilishi bilan ham baholanadi. Bu yondashuv terminologik tizimning "hayotiyligi"ni oshiradi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy logistika terminlari transformatsiyasi iqtisodiy, texnologik va ijtimoiy omillar bilan uzviy bog‘liq. Ingliz tili terminlarning muhim manbalaridan biri bo‘lib qolayotgan bo‘lsa-da, o‘zbek tilida terminlarni to‘g‘ri o‘zlashtirish, kalkalash va mazmuniy tarjima orqali milliy muqobil yaratish ham barobar darajada zarur. Terminologik standartlashtirish esa ilmiy-amaliy kommunikatsiya samaradorligini oshiradi hamda soha mutaxassislari o‘rtasidagi tushunmovchiliklarning oldini oladi.

Muhokama. Tahlil natijasida quyidagi xususiyatlar aniqlandi:

1. Logistika terminologiyasi doimiy yangilanuvchi ochiq tizim bo‘lib, uning rivoji iqtisodiy va texnologik jarayonlarga bog‘liq.
2. Ingliz tili yangi terminlarning asosiy manbalaridan biridir.
3. Terminlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashtirish, transliteratsiya, kalkalash, mazmuniy tarjima va qisqartirish usullari orqali shakllanadi.
4. Raqamlashtirish va elektron savdo yangi terminologik qatlamni yuzaga keltirmoqda.

5. Umumtil so‘zlarining terminlashuvi terminologik tizimni boyitishning muhim manbasidir.
6. Soha terminlarini standartlashtirish ilmiy-amaliy kommunikatsiya samaradorligini oshiradi.

Xulosa. Zamonaviy logistika terminlarining transformatsiyasi iqtisodiy, texnologik va ijtimoiy jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan murakkab lingvistik hodisadir. Ingliz tili zamonaviy logistika terminologiyasining asosiy manbalaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. O‘zbek logistika terminologiyasining kelgusidagi rivojida xalqaro terminlarni to‘g‘ri o‘zlashtirish bilan bir qatorda, milliy til imkoniyatlaridan foydalanib muqobil terminlar yaratish ham muhimdir. Mazkur jarayonni ilmiy jihatdan o‘rganish o‘zbek tilidagi logistika terminologik tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – Москва: Советская энциклопедия, 1969.

2. Лейчик В.М. Терминоведение: предмет, методы, структура. — Москва: ЛКИ, 2007.

3. Суперанская А.В., Подольская Н.В., Васильева Н.В. Общая терминология: вопросы теории. – Москва: Либроком, 2012.

4. Гринёв-Гриневич С.В. Терминоведение. — Москва: Академия, 2008.

5. Christopher M. Logistics & Supply Chain Management. – Harlow: Pearson Education, 2016.

6. Rushton A., Croucher P., Baker P. The Handbook of Logistics and Distribution Management. – London: Kogan Page, 2017.

7. O‘zbekiston Respublikasida logistika va transport sohasiga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlar. – Toshkent, 2020.

8. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. — Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006–2008.

UO‘K 81

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA DAVLAT BOSHQARUVI TERMINLARINING YASALISHI: NAZARIY ASOSLAR VA QIYOSIY TAHLIL

Ergasheva Gulmira Baxrom qizi,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
gulmiraergasheva127@gmail.com
ORCID ID: 0009-0002-7510-4915

Annotatsiya. *Maqolada o‘zbek va ingliz tillarida davlat boshqaruviga oid terminlarning so‘z yasalishi masalalari qiyosiy-tipologik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotning nazariy negizini so‘z yasalishi nazariyasining umumiy tamoyillari tashkil etadi, ular yoritilgach, ikkala tilda davlat boshqaruvi terminlarining tarixiy-lisoniy shakllanish jarayoni konkret misollar asosida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda qiyosiy-tipologik metod, tarixiy-lisoniy tahlil hamda komponentli (etimologik) tahlil metodlaridan foydalanilgan bo‘lib, material sifatida ikkala tilning turli tarixiy davrlariga oid davlat boshqaruvi terminlari jalb etilgan. Tadqiqot natijasida ikkala til uchun ham ichki so‘z yasalishi va tashqi o‘zlashtirish jarayonlarining birgalikda ishlaganligi, biroq ularning nisbati va tarixiy sabablari tilga xos farqlar bilan izohlanishi ko‘rsatiladi. Xususan, o‘zbek tilida terminologik boyish bir necha til qatlamining (turkiy, so‘g‘d-forscha, arabcha, ruscha) ketma-ket ustma-ust tushishi natijasida, ingliz tilida esa asosan, Norman istilosi atrofida jamlangan holda kechganligi aniqlangan. Tadqiqot natijalari qiyosiy terminologiya, tarjimashunoslik va ikki tilli lug‘atchilik sohalarida amaliy ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin.*

Kalit so‘zlar: *so‘z yasalishi, davlat boshqaruvi terminologiyasi, affiksatsiya, kompozitsiya, semantik ko‘chish, o‘zlashma, qiyosiy-tipologik tahlil, terminologiya nazariyasi, tarixiy-lisoniy tahlil, ingliz tili tarixi, o‘zbek tili tarixi.*

FORMATION OF PUBLIC ADMINISTRATION TERMS IN UZBEK AND ENGLISH: THEORETICAL FOUNDATIONS AND COMPARATIVE ANALYSIS

Abstract. *This article analyzes the word-formation of public administration terms in Uzbek and English from a comparative-typological perspective. The study is grounded in the general principles of word-formation theory; following an overview of these principles, the historical-linguistic formation processes of public administration terms in both languages are examined through specific examples. The research employs comparative-typological, historical-linguistic, and componential (etymological) analysis methods, utilizing public administration terms from various historical periods of both languages as source material. The findings demonstrate that both internal word-formation and external borrowing processes have operated in both languages, though the proportions and historical reasons for these processes reflect language-specific differences. Specifically, it is established that terminological enrichment in Uzbek occurred through the successive layering of multiple linguistic strata (Turkic, Sogdian-Persian, Arabic, and Russian), whereas in English, it was concentrated primarily around the period of the Norman Conquest. The results of this study may hold practical significance for the fields of comparative terminology, translation studies, and bilingual lexicography.*

Keywords: *word formation, public administration terminology, affixation, compounding, semantic shift, borrowing, comparative-typological analysis, terminology theory, historical-linguistic analysis, history of the English language, history of the Uzbek language.*

ФОРМИРОВАНИЕ ТЕРМИНОВ ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ: ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ ОСНОВА И СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ

Аннотация. *В статье анализируются вопросы формирование терминов, связанных с государственным управлением, в узбекском и английском языках со сравнительно-типологической точки зрения. Теоретической основой исследования являются общие принципы теории словообразования, после чего на конкретных примерах рассматривается процесс историко-лингвистического формирования терминов, связанных с государственным управлением, в обоих языках. В исследовании использованы сравнительно-типологический метод, историко-*

лингвистический анализ и методы компонентного (этимологического) анализа, а материалом послужили термины государственного управления, относящиеся к различным историческим периодам обоих языков. Результаты исследования показывают, что для обоих языков процессы внутреннего словообразования и внешней ассимиляции работали совместно, но их соотношение и исторические причины объясняются языковыми различиями. В частности, установлено, что в узбекском языке терминологическое обогащение происходило в результате последовательного наложения нескольких языковых слоёв (турецкого, согдийско-персидского, арабского, русского), тогда как в английском языке оно было в основном сосредоточено вокруг нормандского завоевания. Результаты исследования могут иметь практическое значение в областях сравнительной терминологии, переводоведения и двуязычной лексикографии.

Ключевые слова: *словообразование, терминология государственного управления, аффиксация, композиция, семантический перенос, ассимиляция, сравнительно-типологический анализ, теория терминологии, историко-лингвистический анализ, история английского языка, история узбекского языка.*

Kirish. Davlat boshqaruvi terminologiyasi – jamiyat institutsional tuzilishining tilda aks etishi bo‘lgan maxsus leksik qatlam bo‘lib, uning shakllanish yo‘llarini o‘rganish nafaqat terminologiya nazariyasi, balki qiyosiy tarixiy tilshunoslik uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday tilning terminologik tizimi ikki asosiy manba hisobiga boyiydi: tilning ichki resurslari asosidagi so‘z yasalishi va boshqa tillardan o‘zlashtirish. Ushbu ikki jarayonning nisbati va tarixiy dinamikasi, ayniqsa, davlat boshqaruvi kabi ijtimoiy-siyosiy jihatdan yuklangan sohada, tilning o‘zi kechirgan tarixiy-siyosiy jarayonlarni bevosita aks ettiradi.

Mazkur maqolaning maqsadi – o‘zbek va ingliz tillarida davlat boshqaruvi terminlarining so‘z yasalishi mexanizmlarini nazariy jihatdan asoslash va ularni tarixiy-qiyosiy tahlil asosida taqqoslashdir.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Mazkur mavzu ikki yo‘nalishdagi ilmiy adabiyotlar zaminida o‘rganiladi. Birinchi yo‘nalishni so‘z yasalishi nazariyasining umumnazariy masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlar tashkil etadi. Xorijiy tilshunoslikda H.Marchand so‘z yasalishini tahlil qilishda sinxron va diaxron yondashuvlarni farqlash zarurligini asoslab bergan bo‘lsa [1;1960], I.Plag morfema, negiz va o‘zak kabi asosiy tahlil birliklarini nazariy jihatdan aniqlashtirgan [2;2003]. O‘zbek tilshunosligida bu yo‘nalishning yetakchi vakili A.Hojiyev hisoblanadi: u an'anaviy to‘rt turlik tasnifni tanqidiy qayta ko‘rib chiqib, so‘z yasalishining o‘ziga xos uch qismli klassifikatsiyasini taklif etgan [3;2007]. Ushbu ishlar tadqiqotning nazariy-metodologik negizini tashkil etadi.

Ikkinchi yo‘nalish davlat boshqaruvi terminologiyasining tarixiy shakllanishiga bag‘ishlangan tadqiqotlardan iborat. H.Dadaboyev eski o‘zbek tili leksikasini, jumladan, boshqaruvga oid arxaik qatlamlarni tahlil qilgan [4;2020;], Z.Muqimovning tadqiqotida esa o‘zbek davlatchiligi tarixining huquqiy-institutsional jihatlari yoritilgan [5;2003;280b]. Sh.Rahmatullaevning etimologik lug‘atlari [6; 2000;] terminlarning turkiy va arabcha negizini aniqlashtirishda, “Temur tuzuklari” esa [7;2018;184b] harbiy-ma'muriy lavozim nomlarining tarixiy kontekstini tiklashda muhim manba bo‘lib xizmat qildi. Ingliz tili tarixiga oid A.Kuldashev [8;2024;270b] hamda A.Qo‘ldoshev va S.Xamzayevning [9;2015;186b.] darsliklari Norman istilosi davridagi til almashinuvi va terminologik o‘zlashtirish jarayonlarini yoritib beradi. Shu bilan birga, yuqoridagi ishlarning aksariyati har bir tilni alohida-alohida o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, o‘zbek va ingliz tillaridagi davlat boshqaruvi terminlarining so‘z yasalishi mexanizmlarini qiyosiy-tipologik nuqtayi nazardan bevosita taqqoslovchi maxsus tadqiqot deyarli uchramaydi. Aynan shu bo‘shliq mazkur maqolaning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda qiyosiy-tipologik metod, tarixiy-lisoniy tahlil, komponentli (etimologik) tahlil hamda tavsifiy metoddan foydalanildi. Tadqiqot materiali sifatida o‘zbek va ingliz tillarining turli tarixiy davrlariga oid davlat boshqaruvi terminlari, shuningdek, so‘z yasalishi nazariyasiga doir ilmiy adabiyotlar jalb etildi. Tahlilning nazariy negizini quyidagi tamoyillar tashkil etadi.

So‘z yasalishi nazariyasida sinxron va diaxron yondashuvlarning farqlanishi asosiy metodologik masalalardan biri hisoblanadi. H.Marchandning ko‘rsatishicha, so‘z yasalishini o‘rganishda til birligining hozirgi holatidagi tuzilishi (sinxroniya) bilan uning tarixiy kelib chiqishi (diaxroniya) o‘rtasida aniq farq qo‘yilishi lozim [1;1960;98]. I.Plag so‘z yasalishi tahlilining asosiy birliklari sifatida morfema, negiz (base) va o‘zak (root) tushunchalarini ajratadi [2;2003;88].

O‘zbek tilshunosligida so‘z yasalishi nazariyasi A.Hojiyev tomonidan chuqur ishlab chiqilgan. Muallif boshqa tadqiqotlarda uchraydigan an'anaviy to‘rt turlik tasnifni (morfologik, leksik-semantik, morfologik-sintaktik, fonetik) keltirib o‘tib, ularni tanqidiy baholaydi va o‘zining uch qismli tasnifini taklif etadi: grammatik so‘z yasash (o‘z ichida affiksatsiya, kompozitsiya va konversiyani birlashtiradi), leksik-semantik so‘z yasash hamda fonetik so‘z yasash. Bu tasnif doirasida “boshqaruv” so‘zining o‘zi Hojiyev tomonidan -v

affiksi yordamida yasalgan so‘zlarga misol sifatida keltiriladi – bitishuv, moslashuv, undov, so‘zlashuv kabi lingvistik terminlar qatorida [3;2007;168b]. Bu – davlat boshqaruvi terminologiyasining o‘zagi bo‘lgan so‘zning bevosita o‘zbek tili ichki affiksal so‘z yasalishi mahsuli ekanligini ko‘rsatuvchi muhim dalildir.

Ingliz tilida davlat boshqaruviga oid terminlarning katta qismi affiksal yasalish yo‘li bilan shakllangan. Xususan, -ment qo‘shimchasi bilan yasalgan government termini, shuningdek shu turkumga mansub Parliament, amendment, appointment, enactment, judgment kabi terminlar, hamda -ism qo‘shimchasi bilan yasalgan federalism, absolutism, nationalism kabi terminlar [8;2024;272] bunga yorqin misol bo‘ladi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. O‘zbek tilida davlat boshqaruvi terminologiyasining shakllanishi bir necha tarixiy bosqichni o‘z ichiga oladi, bunda har bir davr o‘ziga xos lisoniy qatlamni yuzaga keltirgan.

Qadimgi turkiy davr (Turk xoqonligi davri)da hokimiyat va boshqaruv tushunchalarini ifodalovchi qag‘an, tegin, sad, yabg‘u, qatun, tudun, tutuq, tarqan, beg, eltabar kabi terminlar shakllangan [4;2020;97]. Bu terminlar ko‘pincha lavozim ierarxiyasidagi aniq pog‘onani semantik jihatdan farqlash uchun xizmat qilgan. Beg terminining etimologik tahlili uning turkiy negizga borib taqalishini tasdiqlaydi [6; 2000;213].

Sug‘d-Eron ta'siridagi mahalliy davlatchilik qatlamida xvabe, dapirapat, gupat, ixshid, afshin kabi terminlar qayd etilgan – bu qatlam mintaqaviy substrat sifatida turkiy negizli terminologiya bilan bir qatorda mavjud bo‘lgan.

Arab xalifaligi va Somoniylar davrida arabcha o‘zlashmalar hisobiga terminologik boyish kuzatiladi: devon, vazir, hojib, mustavfiy, devoni insho kabi terminlar shu davrda tilga kiradi [5; 2003; 280b.]. Bu yerda hojib termini semantik ko‘chish (metonimiya) natijasida “eshik og‘asi” ma'nosidan yuqori lavozim nomiga aylangan bo‘lsa, mustavfiy affiksal yasalish namunasi sifatida qaraladi.

Amir Temur va Temuriylar, so‘ngra xonliklar davrida devonbegi, shuningdek, parvonachi, dodxoh, qushbegi, zakotchi, qorovulbegi, muhrdor kabi Ashtarxoniylar davriga xos terminlar qayd etiladi[5; 2003; 280b.]. Harbiy-ma'muriy boshqaruv tizimidagi o‘nboshi, yuzboshi, mingboshi kabi terminlar sonli negizga asoslangan kompozitsion yasalish namunasi bo‘lib, ular “Temur tuzuklari”da mukofotlash mexanizmi bilan bog‘liq holda tasvirlangan: o‘nboshi shahar hokimligiga, yuzboshi esa mamlakat hukmdorligiga ko‘tarilishi mumkin bo‘lgan [7; 2018;184 b].

Zamonaviy davr (sovet va mustaqillik davri)da o‘zbek tilida rus tili orqali va ichki so‘z yasalishi yo‘li bilan yangi terminologik qatlam shakllangan: ma'muriy, ma’muriyat, hokim, hokimiyat, qonunchilik, vakil, vakolat, vakolatnoma, rahbar. Shu bilan birga, boshqaruv so‘zining o‘zi affiksal yasalish (yuqorida ko‘rsatilgan -v qo‘shimchasi) mahsuli sifatida, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, nazorat qiluvchi organ kabi tarkibli (kompozitsion) terminlar esa sintaktik-morfologik yasalish namunasi sifatida ishlatilmoqda.

Ingliz tilida davlat boshqaruvi terminologiyasining shakllanishi ham xuddi o‘zbek tilidagi kabi bir necha tarixiy bosqichda kechgan, biroq bu yerda til-ichki yasalish bilan tashqi o‘zlashtirish nisbati sezilarli darajada farq qiladi.

Angliya-sakson davrida hokimiyat tushunchalarini ifodalovchi terminlar asosan mahalliy (tub ingliz) negizlar asosida yasalgan. Xususan, shire termini giponimizatsiya, sheriff esa kompozitsiya (shire + reeve) yo‘li bilan, writ esa konversiya orqali shakllangan bo‘lib, uning ildizi qadimgi writan (“yozmoq”, asli “tirnamoq, yirtmoq” ma’nosidan) fe'liga borib taqaladi.

Norman-Anjer davri (1066-yildan keyin) ingliz tilida davlat boshqaruvi terminologiyasining tub o‘zgarishiga sabab bo‘ldi – bu davrda fransuz tilidan minglab huquqiy-ma'muriy terminlar o‘zlashtirildi [8;2024;269b]. Exchequer (metaforik ko‘chish – shaxmat taxtasiga o‘xshash hisob-kitob doskasidan), prince, court kabi terminlar shu davrning mahsulidir. Tarixiy jihatdan, 1362-yilda Angliya qiroli Eduard III birinchi marta parlamentga ingliz tilida murojaat qilgan, 1385-yilga kelib esa maktablarda fransuz tili o‘rniga ingliz tili qo‘llanila boshlangan [9;2015;186b] – bu til almashinuvi jarayoni terminologik o‘zlashtirishning tarixiy negizini tashkil etadi.

Magna Carta davriga oid relief termini polisemiya hodisasiga misol bo‘ladi: umumiy “yengillik” ma'nosidan tashqari, feodal to‘lov ma'nosidagi maxsus huquqiy ma'no ham rivojlangan. Chancery, chancellor kabi terminlar affiksal hosila juftligini tashkil etib, shu bilan birga ingliz va kontinental Yevropa institutsional tizimlaridagi farqni ham aks ettiradi.

Umuman, ingliz tilida davlat boshqaruvi terminologiyasining shakllanishida uch asosiy mexanizm – mahalliy negiz asosidagi so‘z yasalishi, fransuz-lotin tillaridan o‘zlashtirish va semantik ko‘chish (metafora, metonimiya) – birgalikda ishlagan, biroq o‘zlashtirish ulushi tarixiy sabablarga (Norman istilosi) ko‘ra sezilarli darajada yuqori bo‘lgan.

Ikkala tildagi materialni qiyoslash quyidagi umumiy va farqli jihatlarni ko‘rsatadi.

Ikkala tilda ham davlat boshqaruvi terminologiyasi ikki asosiy manba – ichki so‘z yasalishi va tashqi o‘zlashtirish – hisobiga boyigan. Ikkala tilda ham semantik ko‘chish (metafora, metonimiya, polisemiya) alohida mexanizm sifatida qatnashadi: o‘zbek tilida hojib (metonimiya), ingliz tilida exchequer (metafora) shunga misol bo‘la oladi. Shuningdek, ikkala tilda ham affiksal yasalish davlat boshqaruvi terminologiyasining o‘zagini tashkil etadi – o‘zbek tilida -v qo‘shimchasi (boshqaruv), ingliz tilida -ment/-ism qo‘shimchalari (government, federalism) orqali.

Birinchi navbatda, o‘zlashtirish manbalarining ko‘pligi va xronologik taqsimotida farq namoyon bo‘ladi. O‘zbek tilida davlat boshqaruvi terminologiyasi bir necha til (turkiy negiz, so‘g‘dcha-forscha substrat, arabcha, keyinchalik ruscha) qatlamlarining ketma-ket ustma-ust tushishi natijasida shakllangan bo‘lsa, ingliz tilida bu jarayon asosan bitta tarixiy voqea – Norman istilosi – atrofida jamlangan bo‘lib, fransuz-lotin ta'siri ustunlik qiladi. Ikkinchidan, o‘zbek tilida arxaik terminlarning katta qismi (masalan, devonbegi, qushbegi) tarixiy davr bilan chegaralanib qolgan va zamonaviy tilda faol qo‘llanilmaydi, ingliz tilida esa Norman davrida o‘zlashgan ko‘pgina terminlar (Parliament, court, judgment) bugungi kungacha faol terminologik qatlamni tashkil etadi.

Muhokama. O‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek va ingliz tillarida davlat boshqaruvi terminologiyasining shakllanishi umumiy lingvistik mexanizmlar asosida kechgan, biroq bu mexanizmlarning nisbati, xronologik taqsimoti va tarixiy sabablari har ikki tilning o‘ziga xos siyosiy-tarixiy taqdiri bilan chambarchas bog‘liq. Shunday qilib, o‘zbek va ingliz davlat boshqaruvi terminlarining qiyosiy tahlilida nafaqat sof lingvistik, balki tarixiy-institutsional omillarni ham hisobga olish zarurdir.

Xulosa. O‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek va ingliz tillarida davlat boshqaruvi terminologik tizimi ichki so‘z yasalishi (affiksatsiya, kompozitsiya) va tashqi o‘zlashtirish jarayonlarining birgalikda ishlashi natijasida shakllangan, biroq bu ikki mexanizmning nisbati va xronologik taqsimoti har bir tilning o‘ziga xos tarixiy-siyosiy taqdiri bilan belgilanadi: o‘zbek tilida bir necha til qatlamining ketma-ket ustma-ust tushishi, ingliz tilida esa asosan Norman istilosi atrofida jamlangan o‘zlashtirish ustuvorlik qiladi. O‘zbek va ingliz tillaridagi davlat boshqaruvi terminlarining qiyosiy-tarixiy tahlili ikki tilli terminologik lug‘atlar tuzishda xizmat qilishi mumkin; tarjima amaliyotida davlat boshqaruvi terminlarini o‘girishda ularning ichki so‘z yasalishi yoki o‘zlashma xususiyatini, shuningdek, semantik ko‘chish natijasida yuzaga kelgan ma'no nozikliklarini hisobga olish tavsiya etiladi. Kelgusi tadqiqotlarda mazkur qiyosiy-tipologik yondashuvni davlat boshqaruvining boshqa soha terminologiyalari (masalan, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish yoki sud-huquq tizimi terminlari) misolida kengaytirish, shuningdek, zamonaviy davrda ikkala tilda paydo bo‘layotgan yangi ma'muriy terminlarni qiyosiy jihatdan o‘rganish istiqbolli yo‘nalish bo‘lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR:

1.Marchand, H. The Categories and Types of Present-Day English Word-Formation. – 1960.

2.Plag, I. Word-Formation in English. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003.

3.Hojiyev, A. O‘zbek tili so‘z yasalishi tizimi. – Toshkent, 2007. – 168 b.

4. Dadaboyev, H. Eski o‘zbek tili leksikasi. – Toshkent, 2020.

5. Muqimov, Z. O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi. – Toshkent: Adolat, 2003. – 280 b.

6. Rahmatullayev, Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. I jild (Turkiy so‘zlar). – Toshkent: Universitet, 2000.

7.Temur, A. Temur tuzuklari / forschadan A. Sog‘uniy, H. Karomatov tarj. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 184 b.

8. Kuldashev, A.M. A History of the English Language: darslik / O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti. – Toshkent, 2024. – B. 269–270, 272.

9. Qo‘ldoshev, A., Xamzaev, S. Ingliz tili tarixi: O‘quv qo‘llanma / mas'ul muharrir G.H. Boqiyeva; O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti. – Toshkent, 2015. – 186 b.

10. Rahmatullayev, Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. II jild (Arab so‘zlari). – Toshkent: Universitet, 2003.

UDC 811.111’373.43

EMOTIONAL AND EVALUATIVE FUNCTIONS OF CLIMATE NEOLOGISMS IN ENGLISH DIGITAL COMMUNICATION

Khametov Iskander Rashidovich,
PhD student at the Department of
English Literature and Translation Studies,
Bukhara State University
i.r.xametov@buxdu.uz
ORCID: 0009-0003-5187-1914

Abstract. *In digital communication, climate-related neologisms name emotional experiences and express evaluations of behaviour. This article examines the emotional and evaluative functions of eco-anxiety and flight shame, focusing on the relationship between the feeling described and the attitude expressed towards it. Drawing on material collected from English Web 2021, the study combines contextual analysis with a comparison of word forms and functional categories. The passages distinguish evaluations of feelings, conduct, lexical labels and claimed effects. Metalinguistic contexts favour shame over shaming. Identifying the evaluative target helps explain how emotional vocabulary expresses different positions. The findings remain limited to the selected web texts.*

Keywords: *climate neologisms, eco-anxiety, flight shame, contextual analysis, emotional experience, social evaluation, corpus analysis, evaluative meaning.*

INGLIZ TILIDAGI RAQAMLI KOMMUNIKATSIYADA IQLIMGA OID NEOLOGIZMLARNING HISSIY VA BAHOLOVCHI FUNKSIYALARI

Annotatsiya. *Raqamli kommunikatsiyada iqlimga oid neologizmlar hissiy kechinmalarni nomlash va xulq-atvorni baholash uchun qo‘llanadi. Maqolada eco-anxiety va flight shame birliklarining hissiy va baholovchi funksiyalari, xususan, tasvirlangan hissiyot bilan unga bildirilgan munosabat o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganiladi. Tadqiqot English Web- 2021 korpusidan avval to‘plangan materialga asoslanadi. Kontekstual tahlil so‘z shakllari va funksional toifalarni qiyoslash bilan birga olib boriladi. Tanlangan parchalarda hissiyotlar, xulq-atvor, leksik nomlar va ta’sirga oid da’volar baholash obyektlari sifatida ajratiladi. Tanlanmada shame shakli ishtirokidagi metalingvistik kontekstlar shaming shakli ishtirokidagilarga qaraganda ko‘proq uchraydi. Baholash obyektini aniqlash o‘xshash hissiy leksika turli munosabatlarni qanday ifodalashini tushuntirishga yordam beradi. Xulosalar tanlangan veb-matnlar doirasi bilan cheklanadi.*

Kalit so‘zlar: *iqlimga oid neologizmlar, eco-anxiety, flight shame, kontekstual tahlil, korpus tahlili, baholovchi ma’no, hissiy kechinma, ijtimoiy baho.*

ЭМОЦИОНАЛЬНЫЕ И ОЦЕНОЧНЫЕ ФУНКЦИИ КЛИМАТИЧЕСКИХ НЕОЛОГИЗМОВ В АНГЛОЯЗЫЧНОЙ ЦИФРОВОЙ КОММУНИКАЦИИ

Аннотация. *В цифровой коммуникации климатические неологизмы используются для обозначения эмоциональных переживаний и выражения оценок поведения. В статье рассматриваются эмоциональные и оценочные функции eco-anxiety и flight shame, прежде всего, связь между описываемым чувством и выраженным отношением к нему. Исследование основано на ранее собранном материале корпуса English Web 2021. Контекстуальный анализ сочетается с сопоставлением словоформ и функциональных категорий. В выбранных фрагментах объектами оценки выступают чувства, поведение, лексические обозначения и заявляемые эффекты. В пределах выборки метаязыковые контексты чаще встречаются среди форм shame, чем shaming. Определение объекта оценки помогает объяснить, как сходная эмоциональная лексика передаёт разные позиции. Выводы ограничены отобранными веб-текстами.*

Ключевые слова: *климатические неологизмы, eco-anxiety, flight shame, контекстуальный анализ, эмоциональный опыт, корпусный анализ, оценочное значение, социальная оценка.*

Introduction. In discussions of climate change, naming a feeling can also invite a judgement about it. Anxiety may be presented as an understandable response, while shame can refer to personal discomfort or pressure exerted on others. The evaluative position depends on how the expression is used.

Eco-anxiety and *flight shame* bring this problem into focus. Research on *eco-anxiety* points to uncertainty about its conceptual boundaries [1, pp. 2–3]. Work on *flight shame* examines perceptions of aviation's environmental impact and questions about changes in travel [2, p. 1]. For a linguistic comparison, however, the immediate issue is what a passage evaluates. A speaker may recognise a feeling while questioning its name, or favour a change in behaviour while objecting to the language used to encourage it. Reading such passages requires attention to the people and actions mentioned, as well as to the emotional meaning of the lexical unit. A broad positive or negative stance label can leave these differences unresolved.

The article therefore asks which targets of evaluation occur in selected *eco-anxiety* and *flight shame* contexts, and how shame, shaming and shamed are distributed across the recorded functional categories. It draws on a previously assembled six-term dataset, examining seven excerpts in detail and comparing surface forms against the original function labels. This focused secondary analysis concerns the interpretation of emotional vocabulary; corpus-wide frequency rankings and collocational profiles fall outside its scope.

Literature Review. The interpretation of emotional vocabulary requires a framework that distinguishes between the expression of feelings and the evaluation of human conduct. Martin and White distinguish affect, concerning positive or negative feelings, from judgement of behaviour [3, p. 42]. This distinction guides the reading of selected passages here; the dataset has not undergone a full Appraisal annotation.

Neology research connects the emergence of expressions with their later use. Renouf [4, pp. 177–208] examines changes in a word's status over time. The conventionalization of new words in online communication is central to Kerremans's account [5, pp. 17–20], while Hohenhaus discusses lexicalization and institutionalization within word formation [6, p. 353]. These approaches inform the use of climate neologisms as a working label for the two selected innovations. A single corpus snapshot permits analysis of their functions, but cannot establish first attestations or measure how unfamiliar they remain to different speakers.

Coffey et al. identify a basic difficulty in the literature: "Our review revealed a lack of clarity about the concept of *eco-anxiety*" [1, p. 4]. Occurrences of the word therefore require contextual reading rather than automatic assignment to one psychological category. Pihkala [7] discusses several forms of *eco-anxiety*, including distress and responses involving information seeking or reconsideration of action. In a later survey, social support as a coping strategy was associated with *eco-anxiety* and pro-environmental behaviour [8, p. 1]. These findings help frame questions about advice and action in web texts, although concordance counts cannot reproduce survey evidence.

Chiambaretto et al. [2, p. 1] investigate perceptions and knowledge of aviation's environmental impact in relation to *flight shame*. Gössling, Humpe and Bausch place the phenomenon within changing social norms surrounding air travel [9]. Both studies suggest reasons to examine who experiences shame and who directs criticism at others. The ideological significance of displaying high-carbon lifestyles on social media provides a further point of comparison [10, pp. 1011–1025]. Its relevance depends on the passage, since the present material also includes texts outside social media.

For Lucas [11, pp. 371–382], resistance to climate communication is connected with differences in values and concerns. This makes disagreement over the wording of a message relevant to the interpretation of climate vocabulary.

Methodology. English Web 2021 (enTenTen21), version ententen21_tt31, supplied the material through Sketch Engine [12]. Kilgarriff et al. describe the rationale for examining individual occurrences: "The concordance is the basic tool for anyone working with a corpus" [13, p. 10]. The archived protocol records 52,268,286,493 words and a final search date of 2 August 2026. Searches covered the whole corpus without genre, region or domain restrictions.

Both units were selected from the existing six-case dataset because they explicitly name emotions and allow comparison between environmental concern and evaluation of travel. The original lower-case surface and lemma queries were retained:

Eco-anxiety: ([lc="*eco-anxiety*" | lemma_lc="*eco-anxiety*"]|[lc="eco" | lemma_lc="eco"][lc="anxiety" | lemma_lc="anxiety"])

Flight shame: ([lc="flight-shame" | lemma_lc="flight-shame"]|[lc="flightshame" | lemma_lc="flightshame"]|[lc="flight" | lemma_lc="flight"][lc="shame" | lemma_lc="shame"])

The queries returned 1,369 hits for *eco-anxiety* and 371 for *flight shame*, including the variants admitted by each query. Among retained *eco-anxiety* records, 96 forms are hyphenated and four are open.

The permitted spelling flightshame does not occur in the retained material; the distribution of the other *flight shame* forms is reported in the Results section.

The original collection used Sketch Engine's reproducible random-sample option to obtain 100 KWIC lines per query. Screening retained all 100 *eco-anxiety* rows and 98 *flight shame* rows. *Flight shame* rows 40 and 96 were excluded as near-duplicate or overlapping material from the same sources as rows 38 and 95. No new search or resampling was undertaken. The retained records contain 80 and 81 distinct source-domain strings respectively; several records from one domain can belong to different documents.

Counts were recalculated using the original function and stance labels, produced by one coder without an intercoder-reliability estimate.

The workbook also contains broader harmonised categories. Its 29 critical/contested *eco-anxiety* records combine 20 originally problem-oriented cases with nine critical/sceptical cases. The present analysis retains the original distinction between descriptions of distress and criticism.

Seven excerpts were chosen purposively to cover contrasting relations between emotion and evaluation. Each was examined for the expression, the object evaluated and the wording supporting the reading. Table 1 summarises these interpretations. The categories were not assigned to all 198 records, so their frequencies are not estimated.

For Table 2, shame, shaming and shamed were cross-classified against the original *flight shame* function codes. Percentages use each form subgroup as the denominator; no significance tests were conducted.

Examples are identified by lexical unit, original sample-row number and source domain. Quotations reproduce continuous extracts from the stored KWIC text. Analysis is confined to this wording, as full document context and stable page URLs are missing for some records. Claims about behavioural effects are treated as statements made in the source texts.

Results. The analysis showed that evaluation in the selected passages was not limited to the emotions themselves. Table 1 identifies four broad targets in the selected passages: feelings, conduct, lexical labels and causal explanations.

Table 1.

Evaluative targets in seven selected concordance excerpts

Record	Local cue	Evaluative target	Contextual interpretation
EA 98	"a rather narrow definition"	Adequacy of the label	The naming choice is questioned.
EA 54	"take time out"	Response to distress	Self-care is recommended; activism is not implied.
EA 58	"Eco-anxiety is a valid response"	Legitimacy of the feeling	An unpleasant experience is validated.
FS 37	"I felt this sort of guilt"	Personal experience	Guilt is reported and a shared name is recognised.
FS 23	"flight shaming" travelers	Travellers' conduct	Campaigners evaluate others' carbon footprint.
FS 13	"doesn't like the Swedish term"	Acceptability of the label	The term is rejected despite reduced flying.
FS 88	Questions a link with train bookings	Causal explanation	A claimed effect is disputed.

Note. EA = *eco-anxiety*; FS = *flight shame* query. Numbers refer to original sample rows. Quoted wording is reproduced from the stored concordances; the FS 88 cue is a paraphrase. Source domains and fuller contexts are provided in the analysis following the table

In *eco-anxiety* row 98 (thecityatlas.org), "a rather narrow definition" questions the adequacy of the label. The record was originally coded as definitional.

Advice in row 54 (ed.ac.uk) includes "take time out", recommending a pause to people overwhelmed by *eco-anxiety*. Row 58 (earthrangers.com) states that "*Eco-anxiety* is a valid response". The adjective valid

endorses the appropriateness of the feeling. The two passages thus concern different responses to distress, one recommending self-care and the other recognising the experience as justified.

Across the *eco-anxiety* sample, the original stance codes comprise 32 action-oriented, 30 neutral/descriptive, 20 problem-oriented, nine normalising/adaptive and nine critical/sceptical records.

Personal feeling is explicit in *flight shame* row 37 (ams.org): "I felt this sort of guilt before I learned the Swedes had a name for it". The surrounding extract describes relief at recognising a shared experience.

In row 23 (tnledger.com), campaigners are described as "*flight shaming* travelers for their carbon footprint". The sentence identifies the campaigners as agents and the travellers as targets. Row 13 (rcinet.ca) records another position: a person who has reduced reliance on planes nevertheless "doesn't like the Swedish term". The reported change in travel coexists with rejection of the label.

Row 88 (matadornetwork.com) questions whether *flight shame* caused an increase in train bookings. It belongs to the critical/contested group, where the disputed point is a causal explanation.

The full *flight shame* sample contains 51 supportive/endorsing, 29 critical/contested and 18 neutral/descriptive records. Some supportive passages report a movement or its claimed effects.

Table 2 groups the *flight shame* records by surface form and original function. Open and hyphenated shame forms are combined, with capitalisation ignored; eight of the 57 shame forms are hyphenated. Shaming and shamed have separate columns.

Table 2.

Surface forms by original function in the *flight shame* sample

Original function	shame	shaming	shamed	Total
Emotion/moral-evaluation frame	14	9	2	25
Movement/social-pressure frame	17	15	0	32
Industry/policy-response frame	7	8	0	15
Metalinguistic/translation frame	12	1	0	13
Contestation/effect-uncertainty frame	4	4	0	8
Behaviour/transport-substitution frame	3	2	0	5
Total	57	39	2	98

Twelve of the 13 metalinguistic/translation records contain shame forms. They account for 21.1% of the 57 shame records, compared with one of 39 shaming records (2.6%). The movement/social-pressure category is represented by 17 shame records (29.8%) and 15 shaming records (38.5%). Both shamed cases belong to the emotion/moral-evaluation category.

Discussion. A central interpretive difficulty is the relation between the emotion named and the judgement made in context. Martin and White's distinction between affect and judgement [3, p. 42] offers a starting point, but objections to a lexical label require a further metalinguistic reading. This matters for the archived coding: an action-oriented record can recommend self-care, and a supportive passage can report a campaign without conveying the writer's personal endorsement. The original codes remain useful descriptive categories, provided that their interpretation is checked against the local target of evaluation.

Research connecting social support with *eco-anxiety* and environmental behaviour [8, p. 1] provides context for the advice passages. Those passages establish what response is recommended, without showing whether readers follow it.

The travel examples concern the public evaluation of conduct as well as personal feelings. Berglez and Olausson's account of high-carbon visibility [10, pp. 1011–1025] helps situate judgements about lifestyles. Lucas's discussion of resistance in climate communication [11, pp. 371–382] is relevant to rejection of the term *flight shame*. Read together, these perspectives suggest that disagreement over a label should be considered separately from opposition to the conduct it encourages. This is a linguistic distinction within the material, rather than evidence about the effectiveness of shaming campaigns.

The concentration of metalinguistic contexts among shame forms also affects comparison between the two units. The *flight shame* query admits an emotion noun, an -ing form and a participial form, so its functional range partly reflects grammatical differences within the retrieved material. Separate sampling, including a distinction between noun and verb uses of shaming, would help determine how much of the observed contrast is attributable to form.

The main limits arise from selection and contextual coverage. The seven excerpts illustrate contrasts rather than their prevalence. Titles and short fragments can leave irony or quoted viewpoints unresolved, while the source-domain counts do not establish document independence. In addition to the single-coder limitation described in the Methodology section, the material lacks balanced coverage of platforms and evidence of audience response. The findings should therefore be read as a secondary analysis of the available web passages.

Conclusion. The comparison of *eco-anxiety* and *flight shame* shows how expressions naming emotions can become objects of evaluation themselves. In the selected passages, speakers discuss whether a feeling is justified, whether particular conduct deserves criticism, and whether the label adequately describes their experience. Acceptance of an environmental concern can coexist with rejection of the language used to express it. This helps explain why similar emotional vocabulary appears in passages that take different positions.

The distribution of shame and shaming adds a grammatical dimension to this interpretation. Metalinguistic contexts are more prominent among shame forms in the sample, suggesting a difference between discussing the name of an experience and describing shaming as a social practice. For the analysis of climate neologisms in digital communication, these observations make speakers' responses to the expressions themselves relevant alongside the situations described. Identifying the evaluative target together with the actual word form allows this variation to be examined more closely.

These observations remain specific to the archived web material. Fuller document contexts and independent coding would help establish whether the same relationships recur in a broader sample.

REFERENCES:

1. Coffey Y., Bhullar N., Durkin J., Islam M.S., Usher K. Understanding eco-anxiety: A systematic scoping review of current literature and identified knowledge gaps // The Journal of Climate Change and Health. – 2021. – Vol. 3. – Article 100047.

2. Chiambaretto P., Mayenc E., Chappert H., Engsig J., Fernandez A.-S., Le Roy F. Where does flygskam come from? The role of citizens' lack of knowledge of the environmental impact of air transport in explaining the development of flight shame // Journal of Air Transport Management. – 2021. – Vol. 93. – Article 102049.

3. Martin J.R., White P.R.R. Attitude: Ways of feeling // The Language of Evaluation: Appraisal in English. – Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2005. – P. 42–91.

4. Renouf A. A finer definition of neology in English: The life-cycle of a word // Corpus Perspectives on Patterns of Lexis / Eds. H. Hasselgård, J. Ebeling, S.O. Ebeling. – Amsterdam: John Benjamins, 2013. – P. 177–208.

5. Kerremans D. A Web of New Words: A Corpus-Based Study of the Conventionalization Process of English Neologisms. – Berlin: Peter Lang, 2015. – 278 p.

6. Hohenhaus P. Lexicalization and institutionalization // Handbook of Word-Formation / Eds. P. Štekauer, R. Lieber. – Dordrecht: Springer, 2005. – P. 353–373.

7. Pihkala P. Anxiety and the ecological crisis: An analysis of eco-anxiety and climate anxiety // Sustainability. – 2020. – Vol. 12. – № 19. – Article 7836.

8. Nieminen V., Palmo S., Hyvönen K., Paakkolanvaara J.-V., Raatikainen K.J., Muotka J. Social support as a coping mechanism mediates the relationship between eco-anxiety and pro-environmental behavior // PLOS ONE. – 2025. – Vol. 20. – № 7. – Article e0326931.

9. Gössling S., Humpe A., Bausch T. Does 'flight shame' affect social norms? Changing perspectives on the desirability of air travel in Germany // Journal of Cleaner Production. – 2020. – Vol. 266. – Article 122015.

10. Berglez P., Olausson U. Climate irresponsibility on social media: A critical approach to "high-carbon visibility discourse" // Social Semiotics. – 2023. – Vol. 33. – № 5. – P. 1011–1025.

11. Lucas C.H. Climate friction: How climate change communication produces resistance to concern // Geographical Research. – 2022. – Vol. 60. – № 3. – P. 371–382.

12. Sketch Engine. enTenTen: Corpus of the English Web [Electronic resource]. – URL: https://www.sketchengine.eu/ententen-english-corpus/ (accessed: 02.08.2026).

13. Kilgarriff A., Baisa V., Bušta J., Jakubíček M., Kovář V., Michelfeit J., Rychlý P., Suchomel V. The Sketch Engine: Ten years on // Lexicography. – 2014. – Vol. 1. – № 1. – P. 7–36.

UO‘K 81

O‘ZBEK MILLIY MEDIA MAKONIDA FEYK AXBOROT: TARQALISH XUSUSIYATLARI VA LINGVO-TEXNIK MUAMMOLAR

Kuryazova Feruza Erkinovna,
Toshkent amaliy fanlar universiteti
Kompyuter linvistikasi yo‘nalishi
mustaqil izlanuvchisi (PhD tadqiqotchisi)
Toshkent, O‘zbekiston
myielts.uz@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekiston milliy media makonida, xususan, Telegram segmentida feyk va manipulyativ axborotning tarqalish xususiyatlari hamda ularni avtomatik aniqlashdagi lingvo-texnik muammolar tadqiq etilgan. Axborot almashinuvining tezlashuvi fonida ingliz yoki rus tillari uchun ishlab chiqilgan universal deteksiya algoritmlarining o‘zbek tiliga bevosita mos kelmasligi tilning agglyutinativ tabiati, resurslarning cheklanganligi va ikki alifboli (lotin va kirill) tizimi bilan izohlanadi. Tadqiqotda soxta xabarlarni aniqlash nafaqat faktologik tekshiruvga, balki matnning morfologik chastotasi, emotsional-ekspressiv leksika zichligi, stilistik nomuvofiqlik va pragmatik markerlarni qamrab oluvchi yaxlit gibrid lingvistik modelga asoslanishi lozimligi ko‘rsatilgan. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, milliy segmentda dezinformatsiyaga qarshi samarali immunitet yaratish uchun matndagi kalka tarjimalar, alifbolar aralashuvi va sun’iy sintaktik qurilmalarni diagnostik marker sifatida avtomatlashtirilgan tizimlarga kiritish zarur. Shoshilinch yaratilgan yoki avtomat tarjima qilingan yolg‘on axborot, birinchi navbatda, tilning tabiiy mantiqiy qurilishini buzishi bilan o‘zini fosh etadi. Shu sababli, taklif etilayotgan gibrid yondashuv kam ресурсли tillarda axborot xavfsizligini ta’minlashda muhim amaliy va nazariy ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *feyk axborot, viral tarqalish, low-resource tillar, da’vo (claims), klikbeyt (clickbait), avtomatik yig‘ish (scraping), dataset, pragmatik markerlar.*

ФЕЙКОВАЯ ИНФОРМАЦИЯ В УЗБЕКСКОМ НАЦИОНАЛЬНОМ МЕДИАПРОСТРАНСТВЕ: ОСОБЕННОСТИ РАСПРОСТРАНЕНИЯ И ЛИНГВОТЕХНИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ

Аннотация. *В данной статье исследуются особенности распространения фейковой и манипулятивной информации в национальном медиапространстве Узбекистана, в частности в сегменте Telegram, а также лингво-технические проблемы её автоматического обнаружения. На фоне ускорения информационного обмена неприменимость универсальных алгоритмов детекции, разработанных для английского или русского языков, к узбекскому языку объясняется его агглютинативной природой, ограниченностью ресурсов и графической двуязычной системой. В исследовании показано, что обнаружение дезинформации должно опираться не только на фактологическую проверку, но и на комплексную гибридную лингвистическую модель, охватывающую морфологическую частоту, плотность эмоционально-экспрессивной лексики, стилистические несоответствия и прагматические маркеры. Анализ показывает, что для формирования эффективного иммунитета против фейков в национальном сегменте необходимо внедрять в автоматизированные системы такие диагностические маркеры, как калькированные переводы, смешение алфавитов и искусственные синтаксические конструкции. Поспешно созданная или автоматически переведенная ложная информация разоблачает себя, прежде всего, нарушением естественной логико-синтаксической структуры языка.*

Ключевые слова: *фейковая информация, вирального распространение, малоресурсные языки (low-resource), утверждения (claims), кликбейт (clickbait), автоматический сбор данных (scraping), датасет (dataset), прагматические маркеры.*

FAKE INFORMATION IN THE UZBEK NATIONAL MEDIA SPACE: DISTRIBUTION FEATURES AND LINGUISTIC-TECHNICAL PROBLEMS

Abstract. *This article investigates the features of fake and manipulative information dissemination in the national media space of Uzbekistan, particularly within the Telegram segment, alongside the linguistic and technical challenges of its automated detection. Amid the accelerating pace of information exchange, the*

direct inapplicability of universal detection algorithms developed for English or Russian to the Uzbek language is attributed to its agglutinative nature, low-resource status, and dual-alphabet system. The research demonstrates that fake news detection must rely not merely on fact-checking, but on a comprehensive hybrid linguistic model encompassing morphological frequency, emotional-expressive lexicon density, stylistic inconsistency, and pragmatic markers. The findings reveal that building effective immunity against disinformation in the national segment requires integrating calque translations, alphabet mixing, and artificial syntactic structures as diagnostic markers into automated systems. Hastily generated or machine-translated false information primarily exposes itself by violating the natural logical structure of the language. Thus, the proposed hybrid approach holds significant theoretical and practical value for ensuring information security in low-resource language environments.

Keywords: *fake news, viral dissemination, low-resource languages, claims, clickbait, automated scraping, dataset, pragmatic markers.*

Kirish. Axborot almashinuvi tezligining ortishi va ijtimoiy tarmoqlar ommalashishi feyk axborot orqali psixologik beqarorlik keltirib chiqarish xavfini yuzaga keltiradi. Bu holat sohada avtomatik aniqlash tizimlarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Biroq tilning lingvistik tabiati va tayyor resurslarning kamligi xorijiy algoritmlarni milliy segmentga bevosita tatbiq etish imkonini bermaydi. Xususan, A. K. Po‘latov, S.Muhamedova hamda H. Z. Ikromova tadqiqotlarida qayd etilganidek, tilning ichki qonuniyatlarini inobatga olmaslik matematik algoritmlar aniqligini pasaytiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi [5:512]. Shu sababli, agglyutinativ morfologiya va ikki alifboli tizimni hisobga oluvchi ixtisoslashgan gibrid modellarni yaratish zarur [3:480].

Infodemiya (inglizcha *information* - axborot va *epidemic* - epidemiya so‘zlari birikmasidan tashkil topgan) va dezinformatsiya kabi destruktiv holatlarning kengayishi O‘zbekistonning raqamli segmentida feyk axborotni aniqlash tizimlarini yaratishni dolzarb masalaga aylantirdi. Bunda UzNet segmentining jadal o‘sishi va axborot filtratsiyasi muammosi birinchi navbatdagi omil hisoblanadi. 2024-yil boshiga kelib internet foydalanuvchilari soni 31 milliondan oshib, qamrov darajasi 80 foizga yaqinlashgani axborot oqimini an’anaviy usullar bilan moderatsiya qilish imkoniyatini cheklaydi [8]. Telegram, Instagram va Facebook kabi platformalarning milliy raqamli kontentdagi yuqori ulushi feyk axborotning viral (zanjirsimon) tarqalish ehtimolini kuchaytirishi mumkin.

Shuningdek, feyk axborot ijtimoiy manipulyatsiya vositasi sifatida haqiqiy axborotga nisbatan 6 baravar tezroq tarqalishi va kuchli emotsional reaksiya uyg‘otishi bilan xavflidir [15]. O‘zbekiston kontekstida bunday kontent aholi orasida vahima uyg‘otish, davlat institutlariga nisbatan ishonchsizlikni shakllantirish va ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka putur yetkazishga yo‘naltirilishi mumkin. Milliy xavfsizlik va strategik ustuvorlik nuqtayi nazaridan, “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasida xavfsiz raqamli muhitni yaratish ustuvor vazifa etib belgilangan [6]. Biroq ingliz yoki rus tillari uchun ishlab chiqilgan universal algoritmlar o‘zbek tilining morfologik va sintaktik xususiyatlarini to‘liq qamrab olmaydi. Bu holat milliy tilning o‘ziga xosligini inobatga oluvchi mahalliy modellarni yaratishni strategik zaruratga aylantiradi.

Materiallar va metodlar. Feyk axborotni aniqlash (Fake News Detection - FND) jarayoni ikkita asosiy ko‘rsatkichga tayanadi. K. Shu va hammualliflar ushbu xususiyatlarni yangiliklar mazmuni va ijtimoiy kontekst sifatida belgilaganlar [13]. Ma’lumotlar to‘plamidagi yangilik elementlari deganda bevosita maqolalar va materiallar bilan bir qatorda, ularga hamrohlik qiluvchi ijtimoiy muhit hamda foydalanuvchilar o‘rtasidagi aloqalar kabi qo‘shimcha axborotlar majmuyi tushuniladi.

Katta hajmli va annotatsiya qilingan ma’lumotlar to‘plamiga (dataset) bo‘lgan ehtiyoj FND jarayonini avtomatlashtirishni qiyinlashtiradi. O‘zbek tili raqamli makonda resurs jihatidan cheklangan (low-resource) tillar sirasiga kirishi sababli, ma’lumotlarni to‘plash va ularni tizimli dataset holatiga keltirish ko‘p mehnat talab etadi. E. Kuriyozov va U. Salaevlar tomonidan ishlab chiqilgan 15 toifali yangiliklar korpusi hamda unda qo‘llanilgan SVM va neyron tarmoqlari algoritmlari[10] feyk axborotni avtomatik saralashda uslubiy poydevor vazifasini o‘taydi.

Ma’lumotlar to‘plamini shakllantirishda ochiq ma’lumotlar korpusi ijtimoiy tarmoq (OSN), maqola va da’vo (claims) kabi toifalar bilan tasniflanadi. Qisqa da’volar axborot jihatidan yuqori zichlikka ega bo‘lib, ko‘pincha “klikbeyt” (clickbait) funksiyasini bajaradi [11]. Ma’lumotlarni avtomatik yig‘ish (scraping) uchun ijtimoiy tarmoqlar (Twitter, Facebook), ishonchli yangilik nashrlari (BBC, Guardian), feyk axborot manbalari, satirik nashrlar va fakt-cheking resurslari (Politifact, Snopes) asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xalqaro darajadagi Snopes yoki Politifact o‘rnida mahalliy AntiFake.uz va Factcheck.uz loyihalari faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lsa-da, ularning avtomatik tizimlar bilan integratsiyalashuvi hozircha past darajada [1]. Shuningdek, milliy media muhitida Telegram platformasi yetakchi o‘ringa ega ekanligi tadqiqot metodologiyasida ushbu messenjerning texnik va maxfiylik siyosatlarini inobatga olishni talab etdi.

Natijalar. Mahalliy axborot makonidagi feyk axborotning tarqalish kanallari va mazmuniy xususiyatlari o‘rganilib, quyidagi jadvalda tizimlashtirildi:

1-jadval. O‘zbekiston raqamli segmentida soxta xabarlarning tarqalish kanallari va mazmuniy xususiyatlari

Manba toifasi	Platformalar	Feyk axborotning o‘ziga xosligi	Misollar (O‘zbekiston kontekstida)
Messenjerlar (Eng faol)	Telegram	Tezkor tarqalish, audio xabarlar va “ko‘chirilgan” (forwarded) postlar.	Guruhlarda tarqaladigan “Rasmiy xabar: Ertadan jarimalar oshadi” kabi asossiz postlar.
Ijtimoiy tarmoqlar	Instagram, Facebook, TikTok	Vizual manipulyatsiya, qisqa klikbeyt videolar va hissiyotlarga tayanuvchi sarlavhalar.	Mashhur shaxslarning o‘limi yoki baxtsiz hodisasi haqidagi soxta video-lavhalar.
Klon/Soxta veb-saytlar	Veb-brauzerlar	Rasmiy yangilik saytlarining dizaynini nusxalash.	Kun.uz dizaynidagi, lekin domeni boshqacha bo‘lgan fishing saytlari.
Manipulyativ bloglar	YouTube, shaxsiy bloglar	Kontekstdan yulib olingan iqtiboslar, shov-shuvli tahlillar.	Siyosiy yoki iqtisodiy islohotlarni noto‘g‘ri talqin qiluvchi shaxsiy kanallar.
Diniy va ijtimoiy satira	Telegram, Facebook	Satirik xabarlarni haqiqat deb qabul qilish (iste’molchi savodxonligi pastligi sababli).	Hajviy kanallardagi postlarni rasmiy taqiq yoki ruxsat deb tushunish.

Jadval tahlili milliy axborot makonidagi soxta xabarlarning ko‘p qatlamli tabiatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida o‘zbek tili uchun quyidagi lingvistik yondashuv va deteksiya modellari ishlab chiqildi:

1. Morfologik tahlil va stemming (Agglutination Challenge). So‘z o‘zagiga ko‘plab morfemalarning qo‘shilishi model aniqligini pasaytiradi. Yechim sifatida matnga dastlabki ishlov berish (preprocessing) bosqichida lemmatizatsiya va stemming jarayonlarini qo‘llash belgilandi [7]. Bo‘rttirma qo‘shimchalar (*-roq, -day*) chastotasi haqqoniylik koeffitsiyentini aniqlash imkonini beradi.

2. Sentiment tahlil va emotsional leksika (Emotional Bias). So‘z o‘zagiga qo‘shiladigan *-mish, -gina, -ona* kabi qo‘shimchalar matnning hissiy rangini o‘zgartiradi. K. Shu va S. Vosugi tadqiqotlariga muvofiq, sentiment lug‘atlarini Deep Learning modellariga integratsiya qilish talab etiladi [14;15].

3. Stilistik va sintaktik distansiya. Feyk axborotda sodda gaplar, buyruq maylidagi fe’llar (ko‘ring, tarqating) va “klikbeyt” sarlavhalar dominantlik qiladi [12].

4. Semantik nomuvofiqlik (Contextual Inconsistency). Sarlavha va asosiy matn mazmuni o‘rtasidagi tafovutlarni aniqlashda n-gram va kosinus o‘xshashligi (Cosine Similarity) usullari qo‘llaniladi [9].

5. Transliteratsiya va imlo xatolari (Orthographic Noise). Kirill va lotin alifbolarining aralashib ketishi hamda boshqa tillardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashtirilgan kalka tarjimalar (“kalka tarjima” chet tilidagi so‘z yoki iboraning tuzilishini (modelini) saqlab qolgan holda, uning har bir tarkibiy qismini (morfema yoki so‘zlarini) o‘z tilidagi mos so‘zlar bilan so‘zma-so‘z almashtirish orqali hosil qilingan tarjimadir) axborotning feyk ekanligi ehtimolini oshiradi.

Yuqoridagi lingvistik ko‘rsatkichlar asosida o‘zbek tilidagi feyk axborotni aniqlashning umumiy gibrid modelini quyidagi formula yordamida ifodalash taklif etiladi:

$$FND_{\text{linguistic}} = \sum (M_a + E_b + S_c + P_d)$$

Bu yerda: M_a – morfologik belgilar va qo‘shimchalarning chastotaviy tahlili; E_b – emotsional-ekspressiv leksikaning zichlik darajasi; S_c – matnning rasmiy yangilik uslubiga sintaktik va stilistik muvofiqligi; P_d – pragmatik markerlar, shu jumladan klikbeytlar, imloviy xatoliklar va kalka tarjimalarning tarjimalar.

Muhokama. O‘zbekiston axborot makonida ma’lumot almashinuvining asosiy markazi Telegram platformasi ekanligi, jahon tajribasidagi Twitter va Facebook uchun ishlab chiqilgan an’anaviy modellarni milliy kontentga moslashtirish (adaptation) zaruriyatini tug‘diradi. Xorijiy tillarga moslashtirilgan modellarning o‘zbek tili agglyutinativ xususiyatlarini to‘liq qamrab ololmasligi mahalliy segment uchun maxsus lingvistik yechimlarni ishlab chiqishni muqarrar qiladi.

O‘zbek tilidagi feyk axborot ko‘pincha tilning ichki imkoniyatlaridan - hissiy bo‘yoq beruvchi qo‘shimchalar va “mish-mish” xarakteridagi fe’l mayllaridan mahorat bilan foydalanishi bilan ajralib turadi. Bu esa shunchaki texnik “klikbeyt”larni aniqlash yetarli emasligini, balki matnning pragmatik mazmunini anglaydigan tizimlar kerakligini anglatadi. Shuningdek, milliy ijtimoiy muhitda (OSN) feyk axborot multimodal (matn, tasvir va video uyg‘unligida) tarqalayotgani sababli, faqat matnli ma’lumotlar bilan cheklanish kutilgan aniqlikni bermasligi kuzatilmoqda [11].

Xulosa. O‘zbek tilidagi feyk axborotni deteksiya qilishning natijador tizimini yaratish nafaqat ma’lumotlar korpusini (dataset) shakllantirishni, balki tilning o‘ziga xos lingvistik indikatorlarini majmuaviy baholashni taqozo etadi. Feyk axborotni avtomatik aniqlash faqatgina faktologik tekshiruv bilan cheklanmay, matnning morfologik chastotasi, emotsional yuklamasi, stilistik muvofiqligi va pragmatik markerlarini qamrab oluvchi gibrid formula asosida amalga oshirilishi lozim.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, milliy segmentda feyklarga qarshi samarali immunitet yaratish uchun matndagi kalka tarjimalar, alifbolar aralashuvi va sun’iy sintaktik qurilmalarni diagnostik marker sifatida kiritish zarur. Shoshilinch yaratilgan yoki avtomat tarjima qilingan yolg‘on axborot, birinchi navbatda, tilning tabiiy mantiqiy qurilishini buzishi bilan o‘zini fosh qiladi. Shu sababli, kelgusi tadqiqotlarda aynan ushbu lingvistik defektlarni aniqlovchi algoritmlarni amaliy jihatdan kuchaytirish va takomillashtirish sohuvdagi eng istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги (АОКА). Медиа саводхонлик ва фейк хабарлар билан курашиш ҳисоботи. — 2023.

2. Икромова Ҳ. З. Инсон – компьютер – келажак. — Тошкент: Ўзбекистон, 1991.

3. Менглиев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Тафаккур бўстони, 2018. — 480 б.

4. Муҳамедова С. Ўзбек компьютер лингвистикаси: ривожланиш тарихи, бугуни ва келажаги // Тил ва адабиёт таълими. — Тошкент, 2004. — № 2.

5. Пулатов А.К. Компьютер лингвистикаси: ўқув қўлланма. — Тошкент: Академнашр, 2017. — 512 б.

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони. «Рақамли Ўзбекистон – 2030» стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида. — 05.10.2020. — ПФ-6079.

7. Abjalova M., Adalı E., Adilova M. The Process of Lemmatization and Stemming in the Automatic Morphological Analysis of Uzbek Texts // Proceedings of the 9th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK). — 2024. — P. 1–6.

8. Digital 2024: Uzbekistan [Elektron resurs]. — DataReportal, 2024. — URL: https://datareportal.com/reports/digital-2024-uzbekistan (Kirish sanasi: 29.12.2025).

9. Jurafsky D., Martin J.H. Speech and Language Processing. — Stanford University, 2019.

10. Kuriyozov E., Salaev U., Matlatipov S., Matlatipov G. Text classification dataset and analysis for Uzbek language // arXiv. — 2023. — arXiv:2302.14494.

11. Ostrowski W., Arora A., Atanasova P., Augenstein I. Multi-hop fact checking of political claims // arXiv. — 2020. — arXiv:2009.06401.

12. Potthast M., et al. A Stylometric Inquiry into Hyperpartisan and Fake News // Proceedings of the 56th Annual Meeting of the Association for Computational Linguistics. — 2018.

13. Shu K., Sliva A., Wang S., Tang J., Liu H. Fake news detection on social media: A data mining perspective // ACM SIGKDD Explorations Newsletter. — 2017. — Vol. 19. — № 1. — P. 22–36.

14. Shu K., Wang S., Liu H. Beyond News Contents: The Role of Social Context for Fake News Detection. — Cham: Springer, 2020.

15. Vosoughi S., Roy D., Aral S. The spread of true and false news online // Science. — 2018. — Vol. 359. — № 6380. — P. 1146–1151.

UO‘K 81’31:004.9

O‘ZBEK TILI TALAFFUZ LUG‘ATINI G2P MODELI ASOSIDA AVTOMATIK SHAKLLANTIRISH

Maxmudjonova Gulshaxnoz Ulug‘bek qizi,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Kompyuter lingvistikasi va raqamli texnologiyalar kafedrasi tayanch doktoranti
gulshaxnozmahmudjonova@gmail.com

Annotatsiya. *Zamonaviy nutq texnologiyalarini rivojlantirish sifatli, standartlashtirilgan va mashina o‘qiy oladigan lingvistik resurslarni talab qiladi. Shunday resurslardan biri talaffuz lug‘ati bo‘lib, unda so‘z yoki so‘z birikmasining yozma shakli uning fonemik reprezentatsiyasi bilan bog‘lanadi. Talaffuz lug‘atlari matndan nutqqa sintez, avtomatik nutqni tanish, ovozli yordamchilar hamda talaffuzni baholash tizimlarida muhim ahamiyatga ega. Biroq katta hajmdagi talaffuz lug‘atini to‘liq qo‘lda shakllantirish, yangi leksik birliklar bilan muntazam to‘ldirib borish va transkripsiyalar sifatini nazorat qilish sezilarli vaqt hamda malakali mutaxassis mehnatini talab etadi. Mazkur maqolada o‘zbek tili uchun talaffuz lug‘atini avtomatik va yarim avtomatik shakllantirishda Grapheme-to-Phoneme texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-metodologik asoslari yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *o‘zbek tili, talaffuz lug‘ati, Grapheme-to-Phoneme, G2P, fonemik transkripsiya, kompyuter lingvistikasi, sun’iy intellekt, nutq texnologiyalari, TTS, ASR, avtomatlashtirish.*

АВТОМАТИЧЕСКОЕ ФОРМИРОВАНИЕ СЛОВАРЯ ПРОИЗНОШЕНИЯ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА НА ОСНОВЕ МОДЕЛИ G2P

Аннотация. *Развитие современных речевых технологий требует качественных, стандартизированных и машиночитаемых лингвистических ресурсов. Одним из таких ресурсов является произносительный словарь, в котором письменная форма слова или словосочетания связывается с его фонемным представлением. Произносительные словари играют важную роль в синтезе речи по тексту, автоматическом распознавании речи, голосовых помощниках и системах оценки произношения. Однако полностью ручное составление произносительного словаря большого объёма, регулярное пополнение его новыми лексическими единицами и контроль качества транскрипций требуют значительного времени и труда квалифицированных специалистов. В данной статье освещаются научно-методологические основы использования технологий Grapheme-to-Phoneme при автоматическом и полуавтоматическом формировании произносительного словаря для узбекского языка.*

Ключевые слова: *узбекский язык, словарь произношения, Grapheme-to-Phoneme, G2P, фонемная транскрипция, компьютерная лингвистика, искусственный интеллект, речевые технологии, TTS, ASR, автоматизация.*

AUTOMATIC GENERATION OF AN UZBEK PRONUNCIATION DICTIONARY BASED ON THE G2P MODEL

Abstract. *The development of modern speech technologies requires high-quality, standardized, and machine-readable linguistic resources. One of the essential resources is a pronunciation lexicon that maps the orthographic form of a word or phrase to its phonemic representation. Pronunciation lexicons play an important role in text-to-speech synthesis, automatic speech recognition, forced alignment, voice assistants, and pronunciation assessment systems. However, creating a large-scale pronunciation lexicon manually, continuously adding new lexical items, and validating pronunciation transcriptions require considerable time and expert linguistic effort. This paper discusses the scientific and methodological foundations for applying Grapheme-to-Phoneme technologies to the automatic and semi-automatic development of a pronunciation lexicon for Uzbek.*

Keywords: *Uzbek language, pronunciation lexicon, Grapheme-to-Phoneme, G2P, phonemic transcription, computational linguistics, artificial intelligence, speech technology, TTS, ASR.*

Kirish. Sun’iy intellekt va tabiiy tilni qayta ishlashning jadal rivojlanishi tillarning nafaqat yozma, balki og‘zaki shaklini ham raqamlashtirish zaruratini kuchaytirmoqda. Avtomatik nutqni tanish – Automatic Speech Recognition (ASR), matndan nutqqa sintez – Text-to-Speech (TTS), ovozli yordamchilar, dialog tizimlari, avtomatik subtitrlash va xorijiy til talaffuzini baholash tizimlarning samarali ishlashi o‘zbek tili fonetik va fonologik xususiyatlarini kompyuter qayta ishlashi mumkin bo‘lgan shaklda ifodalashni talab qiladi.

World Wide Web Consortium tomonidan ishlab chiqilgan Pronunciation Lexicon Specification (PLS) talaffuz lug‘ati so‘z yoki qisqa iboraning yozma shakli bilan uning talaffuz shakli o‘rtasidagi moslikni ifodalovchi manbadir. Mazkur standart talaffuz lug‘at ma’lumotlari, xususan, ASR va TTS tizimlari o‘rtasida qayta foydalanish imkonini berishga yo‘naltirilgan. Shuningdek, bitta leksik birlik uchun bir yoki bir nechta talaffuz variantini berish imkoniyati mavjud [1].

Talaffuz lug‘atini an’anaviy usulda yaratishda tilshunos har bir so‘zning talaffuzini aniqlaydi, tanlangan fonetik yoki fonemik alifbo asosida transkripsiya qiladi va natijani tekshiradi. Bunday yondashuv kichik lug‘atlar uchun samarali bo‘lishi mumkin. Biroq lug‘at hajmi yuz minglab yoki millionlab leksik birliklarga yetganda qo‘lda transkripsiya qilish murakkab, qimmat va uzoq davom etuvchi jarayonga aylanadi. Bundan tashqari, tabiiy til lug‘aviy tarkibi statik emas. Yangi terminlar, kompaniya va mahsulot nomlari, geografik nomlar, shaxs nomlari, o‘zlashma so‘zlar, qisqartmalar va ijtimoiy hayotda yuzaga kelayotgan yangi leksik birliklar nutqda doimiy ravishda qayta ishlanishi kerak. Shu sababli talaffuz lug‘atini faqat bir marta tuzish yetarli natija bermaydi; uni muntazam ravishda yangilab turish imkonini beradigan dastur zarur. Ushbu muammoning yechimlaridan biri Grapheme-to-Phoneme, ya’ni G2P modellaridan foydalanishdir. G2P yozma shaklni fonemalar ketma-ketligiga o‘girish vazifasini bajaradi. G2P nutq sintezi va nutqni tanishda uzoq vaqt davomida asosiy komponentlardan biri sifatida qo‘llanib kelgan [2].

Talaffuz lug‘atining asosiy vazifasi orfografik birlik bilan uning talaffuzini bog‘lashdan iborat. Oddiy lug‘atda so‘z ma’nosi, grammatik belgilar yoki tarjima asosiy bo‘lishi mumkin bo‘lsa, talaffuz lug‘atida so‘zning qanday talaffuz qilinishi markaziy o‘rinni egallaydi. Talaffuz lug‘ati TTS tizimida matndagi so‘zning qanday fonemalar ketma-ketligiga aylanishini aniqlashga yordam beradi. Agar tizim yangi yoki notanish so‘zga duch kelsa va uning talaffuz shakli mavjud bo‘lmasa, so‘z noto‘g‘ri talaffuz qilinishi ehtimoli ortadi. ASR tizimlarida esa talaffuz lug‘ati akustik signal bilan leksik birliklar orasidagi bog‘lanishda foydalanilishi mumkin. *Montreal Forced Aligner* tizimi G2P yordamida mavjud lug‘atda uchramagan lug‘at tarkibiga kirmagan so‘zlar uchun yangi talaffuzlarni generatsiya qilish imkoniyatini beradi[3]. Demak, talaffuz lug‘ati faqat fonetik tadqiqot uchun yaratiladigan statik lug‘at emas, balki bir nechta nutq texnologiyasini o‘zaro bog‘laydigan fundamental lingvistik infratuzilma sifatida qaralishi lozim.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. O‘zbek adabiy talaffuzi va orfoepik me’yorlarini belgilashda mavjud lug‘atlar hamda fonetik tadqiqotlar muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu manbalarda o‘zbek tilining me’yoriy talaffuzi, fonema tizimi, tovushlarning xususiyatlari va fonetik jarayonlar yoritilgan. Ulardagi lingvistik bilimlarni formal qoidalarga aylantirish va G2P texnologiyalari bilan integratsiya qilish o‘zbek tili uchun avtomatik, kengaytiriladigan va muntazam yangilanadigan talaffuz lug‘atini yaratishning ilmiy asosini tashkil etadi. O‘zbek adabiy talaffuzi va orfoepik me’yorlarini o‘rganishda M. Sodiqova va U. Usmonovaning *“O‘zbek tilining orfoepik lug‘ati”* muhim manbalardan biri hisoblanadi. Unda o‘zbek tilidagi so‘zlarning me’yoriy talaffuz shakllari tizimlashtirilgan bo‘lib, adabiy talaffuz me’yorlarini belgilashga xizmat qiladi [4]. “O‘zbek adabiy talaffuzi lug‘ati”da o‘zbek adabiy tilidagi ko‘plab leksik birliklarning me’yoriy talaffuzi yoritilgan[5]. M.M. Mirtojiyevning *“O‘zbek tili fonetikasi”* asarida o‘zbek tilining fonema tizimi, unli va undosh tovushlarning xususiyatlari, ularning nutqdagi o‘zgarishlari hamda fonetik jarayonlar nazariy jihatdan tahlil qilingan. Ushbu tadqiqot avtomatik talaffuz lug‘ati uchun fonemik inventar va lingvistik qayta ishlash qoidalarini shakllantirishda nazariy asos vazifasini bajaradi [7]. J. Mamatov va N. Chiniqulovning *“O‘zbek tilining orfoepik lug‘ati”* zamonaviy o‘zbek adabiy talaffuz me’yorlarini aks ettiruvchi manbalardan biri bo‘lib, hozirgi til birliklarining normativ talaffuzini aniqlashda ahamiyatlidir [6].

O‘zbek tili talaffuz lug‘atini avtomatlashtirish zarurati. O‘zbek tilida yozuv va talaffuz o‘rtasida ko‘plab mosliklar mavjud bo‘lsa-da, yozuvni to‘g‘ridan to‘g‘ri harfma-harf fonemaga almashtirish barcha leksik birliklarning standart talaffuzini to‘liq ifodalash uchun yetarli emas. Birinchidan, til tarkibidagi o‘zlashma so‘zlar ularning manba tilidagi fonetik xususiyatlari, o‘zbek tiliga moslashish darajasi va amaldagi adabiy talaffuziga qarab turlicha fonemik shaklni talab qilishi mumkin. Ikkinchidan, atoqli otlar, shaxs va geografik nomlar, kompaniya va mahsulot nomlari kabi birliklarda orfografik shakldan to‘g‘ridan-to‘g‘ri talaffuzni aniqlash har doim ham mumkin emas. Uchinchidan, urg‘u talaffuz lug‘atining muhim tarkibiy qismi bo‘lishi mumkin. Segmentlar ketma-ketligi bir xil to‘g‘ri aniqlangan taqdirda ham urg‘uning noto‘g‘ri joylashtirilishi sintez qilingan nutqning tabiiyligini va normativligini pasaytirishi mumkin. To‘rtinchidan, zamonaviy raqamli matnlarda qisqartmalar, harf-raqam kombinatsiyalari, brendlar, inglizcha terminlar va

aralash yozuvdagi birliklar tobora ko‘p uchramoqda. Bunday birliklarni talaffuz lug‘atiga faqat qo‘lda kiritish uning yangilanish tezligini cheklaydi. Shuning uchun talaffuz lug‘atini shakllantirish jarayonida uchta yondashuvni farqlash mumkin.

1-jadval. Talaffuz lug‘atini shakllantrishdagi yondashuvlar

Yondashuv	Afzalligi	Asosiy cheklovi
To‘liq qo‘lda	Yuqori lingvistik nazorat	Sekin, qimmat, masshtablash qiyin
To‘liq avtomatik	Juda tez, katta hajmni qayta ishlaydi	Xatoli va noaniq holatlarni avtomatik qabul qilish xavfi
Yarim avtomatik	Tezlik va lingvistik sifat muvozanati	Qoidalar va ekspert nazoratini tashkil etish talab etiladi

O‘zbek tili uchun taklif etilayotgan avtomatik talaffuz lug‘ati metodologiyasi. Taklif etilayotgan tizim bir-biriga bog‘langan uchta bosqichlardan tashkil topadi. Metodologiya kirish ma’lumotlarini tayyorlash, avtomatik generatsiya hamda validatsiya va yakunlash bosqichlaridan iborat.

Kirish ma’lumotlarini tayyorlash. Birinchi bosqichda matn korpusi shakllantiriladi. Korpus badiiy, publitsistik (yangiliklar), ilmiy va rasmiy-hujjat uslublaridagi matnlardan tuziladi, bu leksik qamrovni kengaytiradi va uslubiy tarafkashlikni kamaytiradi. Keyin matn normallashtiriladi: raqamlar, sanalar, qisqartmalar va maxsus belgilar so'z shakliga keltiriladi. G2P modeli faqat grafemalar ketma-ketligi bilan ishlagani uchun bu qadam kirish ma’lumotining bir xilligini ta’minlaydi. Uchinchi qadamda matn tokenlarga ajratiladi, so‘zlar va so‘z birikmalari leksik birlik sifatida ajratib olinadi, takrorlanuvchi birliklar olib tashlanib, unikal birliklar ro‘yxati hosil qilinadi.

Avtomatik generatsiya. Har bir unikal birlik mavjud talaffuz lug‘ati bilan solishtiriladi. Lug‘atda mavjud bo'lgan so'zlarning tasdiqlangan talaffuzi qayta ishlatiladi. Lug‘atda yo‘q (OOV, out-of-vocabulary) so‘zlar ajratilib, G2P bosqichiga yuboriladi. Bu tartib takroriy hisoblashni kamaytiradi va allaqachon tasdiqlangan yozuvlarning saqlanishini kafolatlaydi. OOV uchun fonemik shakl tilga xos G2P modeli yoki qoidaviy algoritm yordamida hosil qilinadi. Tugallanmagan natija lingvistik jarayon orqali aniqlashtiriladi: fonetik qoidalar (jumladan, fonetik moslashuv hodisalari), orfoepik normalar, imlo qoidalariga tushmaydigan so‘zlar uchun istisnolar lug‘ati va variant talaffuzlar hisobga olinadi. Yakunda leksik urg‘u morfologik qoidalar asosida belgilanadi, urg‘u qoidasidan chetga chiqadigan birliklar istisnolar sifatida alohida ko‘rib chiqiladi.

Validatsiya va yakunlash. Generatsiya qilingan yozuvlar avtomatik validatsiyadan o‘tkaziladi: (a) fonema inventariga muvofiqlik, (b) imlo va fonema shakllari o‘rtasidagi moslik, (c) yaroqsiz fonema ketma-ketliklarini aniqlash. Tekshiruv natijalariga ko‘ra yozuvlar ishonchlilik bo‘yicha uch darajaga tasniflanadi: A (yuqori), B (o'rta) va C (past). Tasnif ekspert resurslarini yozuvlarning muhimligiga qarab taqsimlash imkonini beradi. Keyingi qadam ekspert tekshiruvi (human-in-the-loop) bo‘lib, unda mutaxassis yozuvlarni tasdiqlaydi yoki tahrirlaydi, zarur hollarda alternativ talaffuz kiritadi va izoh qoldiradi.

Talaffuz lug‘ati tuzilmasi va qo‘llanilishi. Yakuniy natija oddiy so‘zlar ro‘yxati emas, balki versiyalangan ma’lumotlar bazasidir. Har bir yozuv orfografik shakl, fonemik transkripsiya, urg‘u, alternativ talaffuz, manba, usul (avtomatik yoki qoidaviy), ishonchlilik darajasi, ekspert izohi va versiya tarixini o‘z ichiga oladi. Metama’lumotlarning saqlanishi lug‘atning kuzatilishi va natijalarning qayta ishlab chiqarilishini ta’minlaydi.

Talaffuz lug‘atida saqlanishi lozim bo‘lgan ma’lumotlar. Talaffuz lug‘atini faqat: **so‘z – fonemik tarkib** ko‘rinishida saqlash kelajakdagi vazifalar uchun yetarli bo‘lmasligi mumkin. Kengaytirilgan lug‘atda quyidagi maydonlarni saqlash maqsadga muvofiq. Bu lug‘atni oddiy statik matn faylidan lingvistik ma’lumotlar bazasiga aylantiradi:

2-jadval. Lingvistik metama’lumotlar

Maydon	Vazifasi
Orthography	So‘zning yozma shakli
Normalized form	Normallashtirilgan shakl
Pronunciation	Fonemik transkripsiya
Stress	Urg‘u haqidagi ma’lumot
Pronunciation variant	Alternativ talaffuz
Source	Birlik olingan manba
Method	G2P/qoidaviy, avtomatik
Validation status	Tekshirilgan yoki tekshirilmagan

Confidence	Avtomatik ishonchlilik
Reviewer	Ekspert tekshiruviga oid metadata
Version	Tahrir versiyasi
Comment	Lingvistik izoh

Taklif etilgan metodologiyaning amaliy afzalliklari. Avtomatlashtirishning asosiy afzalligi – lug‘at hajmi ortib borganda ham tizimning samarali ishlash imkoniyatini saqlab qolishidir. Minglab yangi birliklarning dastlabki fonemik shaklini qo‘lda yozish o‘rniga tizim ularni avtomatik generatsiya qiladi va lingvist e’tiborini faqat noaniq holatlarga qaratadi. Yangi korpus tizimga kiritilganda mavjud lug‘atda yo‘q so‘zlar avtomatik aniqlanishi mumkin. Natijada talaffuz lug‘ati bir martalik mahsulot emas, muntazam yangilanadigan resursga aylanadi. Taklif etilayotgan tizim mutaxassisni jarayondan chiqarib tashlamaydi, balki uning vazifasini o‘zgartiradi. Lingvist har bir so‘zni boshidan transkripsiya qilish o‘rniga avtomatik variantni tekshiradi va murakkab holatlarga e’tibor qaratadi. Keng qamrovli talaffuz lug‘ati TTS tizimlarida nomlar, yangi terminlar va noodatiy birliklarning talaffuzini boshqarishga imkon beradi. Ayniqsa, normativ talaffuz muhim bo‘lgan ta’lim, media, davlat xizmatlari va professional ovozli yordamchi tizimlarida bunday resursning ahamiyati katta. Talaffuz lug‘ati leksik birlik va uning fonemik variantlari o‘rtasidagi bog‘lanishni ta’minlaydi. Turli talaffuz variantlarini lug‘atda ko‘rsatish akustik realizatsiyalarni boshqarishda qo‘shimcha imkoniyat yaratadi.

Muhokama. Talaffuz lug‘atini avtomatlashtirish jarayonida G2P model imkoniyatlari qisman cheklangan. G2P ko‘pincha so‘zni alohida birlik sifatida qayta ishlaydi. Biroq ayrim tillarda bir xil yoziladigan so‘z kontekstga qarab turlicha talaffuz qilinishi mumkin. Montreal Forced Aligner hujjatlarida ham per-word G2P yuqori darajadagi kontekstga ega bo‘lmagani uchun omonimlarda noto‘g‘ri talaffuz variantini tanlashi mumkinligi ta’kidlanadi. O‘zbek tilida avtomatlashtirish jarayonining alohida nazorat talab qiladigan qatlamlariga quyidagilarni kiritish mumkin: o‘zlashma so‘zlar, atoqli otlar, yangi xorijiy terminlar, qisqartmalar, normativ va real nutq variantlari, urg‘u, bir nechta talaffuzga ega birliklar, dialektal yoki uslubiy variantlar.

Shuning uchun sifatli talaffuz lug‘ati yaratish uchun to‘liq avtomatlashtirish yondashuvdan ko‘ra qoidali va yarim-avtomatlashtirish maqbulroq. Ushbu yondashuv avtomatlashtirishning tezligi bilan lingvistik ekspertizaning sifatini birlashtirish imkonini beradi. Taklif etilgan metodologiya talaffuz lug‘atini oddiy fonemalar ro‘yxati emas, balki doimiy rivojlanadigan raqamli lingvistik manba sifatida talqin qiladi. Bu yondashuvda G2P vazifasi ham qayta belgilanadi. An’anaviy holda G2Pning asosiy maqsadi berilgan so‘z uchun talaffuzni bashorat qilish sifatida ko‘riladi. Bunday talqin bir nechta afzallikka ega. Model xatosi avtomatik ravishda lug‘at xatosiga aylanib qolmaydi, chunki uning natijasi lingvistik va ekspert tekshiruvlaridan o‘tadi. Texnologik yechim ma’lum bir G2P arxitekturasiga bog‘lanib qolmaydi va lingvistik bilimlar alohida qatlamda saqlanadi.

Bu yangi orfoepik yoki fonologik qoidalar aniqlanganda tizimni to‘liq qayta yaratmasdan ularni qo‘shish imkonini beradi. Kelajakda ushbu ma’lumotlardan G2P modelini takomillashtirish, avtomatik xatoni aniqlash yoki talaffuz variantlarining ehtimolini hisoblash uchun foydalanish mumkin. Kam resursli G2P tadqiqotlarida ham tilga xos ma’lumot va misollarning ahamiyati saqlanib qolayotgani kuzatiladi[7]. Bu esa o‘zbek tili uchun avtomatlashtirish jarayonida universal modelga to‘liq tayanishdan ko‘ra, tilga xos fonetik va fonologik bilimlarni tizimga integratsiya qilish zarurligini qo‘llab-quvvatlaydi.

Xulosa. Katta hajmdagi talaffuz lug‘atini faqat qo‘lda yaratish va yangilab borish vaqt, inson resursi nuqtayi nazaridan cheklanganligi sababli G2P modelini ushbu jarayonga integratsiya qilish maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, G2P natijasini bevosita normativ talaffuz sifatida qabul qilish yetarli emas. Kelgusida taklif etilgan metodologiya asosida o‘zbek tilining kengaytiriladigan raqamli talaffuz lug‘atini ishlab chiqish, uni xalqaro talaffuz lug‘ati standartlariga mos formatlarda taqdim etish, avtomatik sifat nazoratini yaratish va TTS, ASR hamda forced alignment tizimlari bilan integratsiya qilish istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Baggia, P., Bagshaw, P., Burnett, D. C., Carter, J., Scahill, F. Pronunciation Lexicon Specification (PLS) Version 1.0. W3C Recommendation, 14 October 2008.

2. McAuliffe, M. et al. Montreal Forced Aligner: Pronunciation Dictionary and G2P Documentation. Montreal Forced Aligner Documentation.

3. Montreal Forced Aligner. Pronunciation Dictionary Format. MFA Documentation.

4. *O‘zbek adabiy talaffuzi lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston SSR FA Fan nashriyoti, 1984. – 320 b.*
5. *Sodiqova M., Usmonova U. O‘zbek tilining orfoepik lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1977.*
6. *Mamatov J., Chiniqulov N. O‘zbek tilining orfoepik lug‘ati. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2021.*
7. *Mirtojiyev M.M. O‘zbek tili fonetikasi. — Toshkent: Fan nashriyoti, 2013. 6.*

UO‘K 81

REALIYALARNING EKVIVALENTSIZ LEKSIKA TIZIMIDAGI O‘RNI

Navro‘zova Aziza Aslonovna,
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti
azizanavrozova8@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada realiya tushunchasining lingvistik va ekstralingvistik tabiati, uning ekvivalentsiz leksika tizimidagi o‘rni hamda milliy-madaniy axborotni ifodalash xususiyatlari tadqiq etilgan. Realiya, ekvivalentsiz leksika va lakuna tushunchalarining o‘zaro munosabati xorijiy va o‘zbek tilshunosligi hamda tarjimashunosligida shakllangan ilmiy qarashlar asosida qiyosiy tahlil qilingan. Xususan, M. P. Kochergan, A. V. Voloshina, R. P. Zorivchak, S. Vlaxov va S. Florin kabi tadqiqotchilarning realiya va ekvivalentsiz leksikaga oid qarashlari, shuningdek, o‘zbek ilmiy makonida G‘. Salomov, I. Mirzayev, H. Hamroyev, R. Shirinova, Sh. Sirojiddinov, G. Odilova va boshqa tadqiqotchilarning mazkur masalaga doir yondashuvlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida realiya ekvivalentsiz leksikaning tarkibiy qismi sifatida belgilanib, uni aniqlashning asosiy mezonlari sifatida muayyan lingvomadaniy jamoaga xoslik, milliy-madaniy axborotning mavjudligi hamda boshqa tilda to‘liq va bevosita semantik muqobilning yo‘qligi ajratilgan. Shuningdek, realiya, ekvivalentsiz leksika va lakuna o‘rtasidagi farqlar aniqlashtirilib, realiyaning zamonaviy talqinida lingvistik, ekstralingvistik va lingvokulturologik jihatlarning o‘zaro bog‘liqligi asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *realiya, realiya-so‘z, ekvivalentsiz leksika, lakuna, milliy-madaniy axborot, milliy kolorit, lingvokulturologiya, tarjimashunoslik, lingvomadaniy birlik, milliy o‘ziga xoslik, tarjima adekvatligi.*

РОЛЬ РЕАЛИЙ В СИСТЕМЕ НЕЭКВИВАЛЕНТНОЙ ЛЕКСИКИ

Аннотация. *В статье исследуются лингвистическая и экстралингвистическая природа реалии, её место в системе безэквивалентной лексики, а также особенности выражения национально-культурной информации. Взаимосвязь понятий реалия, безэквивалентная лексика и лакуна рассматривается на основе сопоставительного анализа научных подходов, сформировавшихся в зарубежном и узбекском языкознании и переводоведении. В частности, анализируются взгляды таких исследователей, как М. П. Кочерган, А. В. Волошина, Р. П. Зоривчак, С. Влахов и С. Флорин, на реалии и безэквивалентную лексику, а также подходы Г. Саломова, И. Мирзаева, Х. Хамроева, Р. Шириновой, Ш. Сирожиддинова, Г. Одиловой и других узбекских исследователей к данной проблематике. В результате исследования реалия определяется как составная часть безэквивалентной лексики, а в качестве основных критериев её выявления выделяются принадлежность к определённому лингвокультурному сообществу, наличие национально-культурной информации и отсутствие в другом языке полного и прямого семантического эквивалента. Кроме того, уточняются различия между понятиями реалия, безэквивалентная лексика и лакуна, а также обосновывается взаимосвязь лингвистического, экстралингвистического и лингвокультурологического аспектов в современном понимании реалии.*

Ключевые слова: *реалия, реалия-слово, безэквивалентная лексика, лакуна, национально-культурная информация, национальный колорит, лингвокультурология, переводоведение, лингвокультурная единица, национальная специфика, адекватность перевода.*

THE ROLE OF REALITIES IN THE NON-EQUIVALENT LEXICAL SYSTEM

Abstract. *This article examines the linguistic and extralinguistic nature of realia, its place within the system of non-equivalent vocabulary, and its role in expressing national and cultural information. The relationship between the concepts of realia, non-equivalent vocabulary and lacuna is analyzed comparatively on the basis of scholarly approaches developed in foreign and Uzbek linguistics and translation studies. In particular, the study examines the views of such scholars as M. P. Kochergan, A. V. Voloshina, R. P. Zorivchak, S. Vlakhov, and S. Florin concerning realia and non-equivalent vocabulary, as well as the approaches of Uzbek scholars G. Salomov, I. Mirzayev, H. Hamroyev, R. Shirinova, Sh. Sirojiddinov, G. Odilova, and other researchers to this issue. The study establishes realia as a constituent part of non-equivalent vocabulary and identifies three main criteria for its determination: belonging to a particular linguocultural community, the presence of national and cultural information, and the absence of a*

full and direct semantic equivalent in another language. The study also clarifies the distinctions between the concepts of realia, non-equivalent vocabulary and lacuna and substantiates the interrelation of linguistic, extralinguistic, and linguocultural aspects in the contemporary interpretation of realia.

Keywords: *realia, realia-word, non-equivalent vocabulary, lacuna, national and cultural information, national color, linguoculturology, translation studies, linguocultural unit, national specificity, translation adequacy.*

Kirish. Muayyan xalqning tarixiy tajribasi, turmush tarzi, urf-odatlari, an'analari, ijtimoiy hayoti va moddiy madaniyatini ifodalovchi leksik birliklarni tarjima qilish jarayonida ularning boshqa tildagi muqobilligi masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan ekvivalentsiz leksika va uning tarkibiy qismi sifatida qaraladigan realiyalarni o'rganish nafaqat tarjimashunoslik, balki tilshunoslik va lingvokulturologiya uchun ham muhim nazariy-amaliy ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi realiyalarning milliy-madaniy axborotni saqlovchi va uzatuvchi birlik sifatidagi tabiatini aniqlash, ularning ekvivalentsiz leksika bilan munosabatini belgilash hamda "realiya", "ekvivalentsiz leksika" va "lakuna" tushunchalarining o'zaro farqli jihatlarini aniqlashtirish zarurati bilan belgilanadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi realiya tushunchasining lingvistik va ekstralingvistik xususiyatlarini yoritish, uning ekvivalentsiz leksika tizimidagi o'rnini aniqlash hamda mavjud ilmiy qarashlarni qiyosiy tahlil qilishdan iborat. Mazkur maqsadga erishish uchun realiya va ekvivalentsiz leksika tushunchalariga berilgan ta'riflarni tahlil qilish, ularning o'zaro munosabatini aniqlash, turli tadqiqotchilarning yondashuvlarini qiyoslash va realiyalarni belgilashning asosiy mezonlarini umumlashtirish vazifalari belgilandi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Har bir tilda ekvivalentsiz birliklar mavjud. M. Kochergan fikricha, ekvivalentsiz leksika, odatda, faol qo'llanadigan so'zlarning umumiy miqdorining 6–7 foizidan oshmaydi [2]. Umuman olganda, ekvivalentsiz leksikaning paydo bo'lishi muayyan lingvomadaniy jamoaning hayotiy faoliyati bilan bog'liq bo'lib, turli lingvistik-konseptual kodlar o'rtasidagi tafovutlarni aks ettiradi. Bu holat ekstralingvistik omillar bilan ham izohlanadi. Masalan, A. V. Voloshina har bir etnos o'z hayotiy faoliyati jarayonida atrof-muhitni "insoniylashtiradi" va unga o'ziga xos xususiyatlarni olib kiradi, deb hisoblaydi. Vaqt o'tishi bilan etnik jihatdan ahamiyatli predmet-realiyalar vujudga keladi va ular leksikada realiya-so'zlar orqali ifodalanadi [8]. Bu yerda "insoniylashtirish" tushunchasi insonning tabiiy va ijtimoiy muhitni o'z ehtiyojlari, tajribasi, dunyoqarashi hamda madaniy qadriyatlari asosida idrok etishi va unga muayyan mazmun yuklashini anglatadi. Vaqt o'tishi bilan etnos uchun muhim va madaniy jihatdan ahamiyatli bo'lgan predmet, hodisa va tushunchalar shakllanadi. Bunday etnik jihatdan ahamiyatli predmet va hodisalar tilning lug'at tarkibida o'z nomiga ega bo'lib, realiya-so'zlar orqali ifodalanadi. Shu tariqa ekstralingvistik voqelikning milliy-madaniy jihatdan o'ziga xos qismlari tilning ekvivalentsiz leksik qatlamini shakllantirishda muhim manbalardan biriga aylanadi.

Tarjimashunoslik sohasidagi ukrainalik tadqiqotchi R. P. Zorivchak ekvivalentsiz leksikani realiyalar bilan qiyosiy jihatdan o'rganadi. U realiyalarni an'anaviy tarzda muayyan til va madaniyatda mustahkamlangan etnomadaniy axborotni o'zida mujassamlashtirgan mono- va polisemantik leksik birliklar sifatida talqin qiladi. Mazkur axborot boshqa, ya'ni qabul qiluvchi til va madaniyatning obyektiv voqeligiga xos bo'lmaganligi sababli, realiyalarni boshqa tilga tarjima qilishda ularning milliy-madaniy mazmunini to'liq ifodalash muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi [10]

R. P. Zorivchakning qarashlariga ko'ra, "ekvivalentsiz leksika" tushunchasi "realiya" tushunchasiga nisbatan kengroq semantik doirani qamrab oladi. Realiyalar, asosan, muayyan xalqning moddiy va ijtimoiy-madaniy hayotiga xos bo'lgan predmet, hodisa yoki tushunchalarning nomini ifodalovchi leksik birliklar sifatidagi ekvivalentsizlikni anglatadi. Ekvivalentsiz leksika esa bundan tashqari, boshqa tilga bevosita yoki to'liq muqobil vosita orqali tarjima qilinishi qiyin bo'lgan turli xil leksik va leksik-semantik birliklarni ham qamrab oladi. Shu ma'noda realiyalar ekvivalentsiz leksikaning tarkibiy qismlaridan biri sifatida qaraladi. Tadqiqotchining fikricha, barcha realiyalar muayyan tilning ekvivalentsiz leksikasi tarkibiga kiradi. Biroq ekvivalentsiz leksika faqat realiyalar bilan chegaralanmaydi. Uning tarkibiga maqol va matallar, shuningdek, turli til jamoalarining borliqni idrok etishi va konseptuallashtirishidagi farqlar natijasida yuzaga keladigan, boshqa tilda to'liq semantik muqobiliga ega bo'lmagan ayrim leksemalar ham kiradi. Bundan tashqari, leksik-semantik ekvivalentsizlikning boshqa ko'rinishlari ham mazkur tushuncha doirasida qaraladi [10]. Demak, Zorivchak konsepsiyasida realiya va ekvivalentsiz leksika o'zaro bog'liq, biroq hajmi va qamrovi jihatidan teng bo'lmagan tushunchalar hisoblanadi: realiyalar ekvivalentsiz leksikaning muayyan qismini tashkil etsa, ekvivalentsiz leksika undan kengroq hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur yo'nalishda M. P. Kochergan "ekvivalentsizlik" va "lakuna" tushunchalarining o'zaro yaqinligini ta'kidlaydi. U shunday yozadi: "Ilmiy adabiyotlarda ekvivalentsiz leksika va lakuna atamalari ko'pincha sinonim sifatida qo'llanadi va tilda mavjud bo'lmagan so'zlar sifatida talqin qilinadi" [2]. Biroq

ushbu ikki tushunchani aynan bir xil hodisa sifatida qabul qilish to‘g‘ri emas. Ekvivalentsizlik, avvalo, bir tildagi leksik birlikning boshqa tilda to‘liq yoki bevosita muqobiliga ega emasligini bildirsa, lakuna muayyan tilda mavjud bo‘lgan tushuncha yoki mazmunning boshqa tilda maxsus leksik birlik orqali ifodalanmasligini anglatadi. Shu sababli ekvivalentsizlik tillararo munosabatni, lakuna esa til tizimidagi bo‘shliqni ifodalashga ko‘proq xizmat qiladi.

Ekvivalentsiz leksika doirasida realiyalar tarjimashunoslikning alohida kategoriyalaridan biri hisoblanadi va lingvistik hamda tarjimashunoslik tadqiqotlarida yetarlicha o‘rganilmagan birliklardan biri sifatida qaraladi. Realiyaga berilgan mavjud ta’riflarni tahlil qilish ularni talqin etishda ikki asosiy yondashuvni ajratish imkonini beradi: ekstralingvistik va lingvistik yondashuvlar. Ekstralingvistik yondashuvda realiyaning muayyan xalqning moddiy va ma’naviy madaniyati, tarixi, turmush tarzi, urf-odatlari hamda ijtimoiy hayoti bilan bog‘liqligiga asosiy e’tibor qaratiladi. Lingvistik yondashuvda esa realiyaning tilda, xususan, uning leksik sathida ifodalanishi, nomlanishi va boshqa tillardagi muqobillari bilan munosabati o‘rganiladi. Shu jihatdan realiya tushunchasi bir tomondan muayyan madaniyatga xos bo‘lgan predmet va hodisalarni, ikkinchi tomondan esa ularni ifodalovchi leksik birliklarni qamrab olishi bilan tavsiflanadi.

Ekstralingvistik yondashuv tarafdorlari realiyani, avvalo, muayyan xalqning ijtimoiy-madaniy hayotida mavjud bo‘lgan va boshqa xalqlar madaniyatida aynan shu ko‘rinishda uchramaydigan voqelik sifatida talqin qiladilar. Bunda mamlakatning davlat tuzumi, tarixiy taraqqiyoti, milliy urf-odatlari, an’analari va ijtimoiy hayotiga xos hodisalar asosiy e’tibor markaziga olinadi. Lingvistik yondashuv vakillari esa realiyani uning tilda ifodalanish shakli va boshqa tillardagi muqobillari bilan munosabati nuqtayi nazaridan belgilaydilar. Bu yondashuvda realiyani ajratib ko‘rsatishning muhim mezonlari sifatida milliy-madaniy kolorit, muayyan lingvomadaniy jamoa ongida aks etgan obyektiv voqelik hamda boshqa tillarda uning to‘liq muqobilining mavjud emasligi ko‘rsatiladi.

Bolgariyalik tilshunoslar S. Vlaxov va S. Florin realiyalarni ekvivalentsiz leksika tizimidagi so‘zlarning alohida turi deb hisoblaydilar. Ular realiya doirasiga qisman kiruvchi, biroq ayni paytda undan qisman tashqarida qoluvchi birliklarni ham ajratadilar. Bunday birliklarga terminlar, undovlar, ekzotizmlar, abbreviaturalar va murojaat shakllari kiradi. Realiyalar tarkibiga, shuningdek, atoqli otlar va frazeologizmlar ham kiritiladi. Ekvivalentsiz leksika doirasida muhim o‘rinni tarjima tilida leksik muqobillarga ega bo‘lmagan birliklar — ya’ni ekvivalentsiz so‘zlar egallaydi [7]. Bolgariyalik olimlar realiyani ekvivalentsiz so‘zdan farqlovchi yana bir jihatga e’tibor qaratadilar: odatda, so‘z ko‘pchilik yoki barcha tillarga nisbatan realiya bo‘lishi mumkin, ekvivalentsiz so‘z esa, asosan, muayyan ikki til doirasidagina muqobilga ega bo‘lmaydi. Boshqacha aytganda, tildagi realiyalar ro‘yxati, odatda, doimiy bo‘lib, qaysi tilga tarjima qilinishiga bog‘liq emas. Ekvivalentsiz leksika lug‘ati esa har bir til juftligi uchun turlicha bo‘lishi mumkin [7].

Xorijiy tilshunoslik va tarjimashunoslikda shakllangan mazkur nazariy qarashlar o‘zbek ilmiy makonida ham o‘z aksini topgan. O‘zbek tarjimashunosligida milliy xos so‘zlar, realiyalar, ularning milliy-madaniy mazmuni, tasnifi va tarjimada qayta ifodalanishi masalalariga G‘. Salomov, R. Fayzullayeva, K. Jo‘rayev, I. G‘ofurov, I. Mirzayev, H. Hamroyev, R. Shirinova, Sh. Sirojiddinov, G. Odilova, Sh. Usmanova, D. Xudayberganova, D. Abdurahmonova, Z. Xolmanova, O. Saidaxmedova, O. Nurullayeva, F. Xabibullayeva kabi tadqiqotchilar turli nuqtayi nazarlardan murojaat qilganlar.

O‘zbek ilmiy adabiyotlarida realiya tushunchasiga dastlabki umumlashtiruvchi yondashuvlardan biri G‘. Salomov[4] tadqiqotlarida kuzatiladi. Olim realiyalarni xalqlarning turmush tarzi, yashash sharoiti, urf-odatlari, rasm-rusumlari va udumlaridagi milliy o‘ziga xoslikni ifodalovchi hamda boshqa tillarga tarjima qilishda muayyan qiyinchilik tug‘diruvchi birliklar sifatida talqin qiladi. Uning yondashuvida realiyaning asosiy belgilaridan biri milliy-madaniy xoslik va boshqa tilda tayyor muqobilning mavjud emasligi bilan bog‘lanadi — shu jihatdan Salomov qarashlari realiyani milliy va mahalliy koloritni ifodalovchi lisoniy birlik sifatida talqin qilishga zamin yaratadi.

O‘zbek tarjimashunosligining keyingi rivojida realiya masalasi yanada konkret tadqiqot obyektiga aylangan. Xususan, I. Mirzayev[3] realiyalarni muayyan xalq hayotiga xos voqeliklarni ifodalovchi birliklar sifatida fransuz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish muammolari bilan bog‘liq holda o‘rgangan; H. Hamroyev[1] milliy so‘zlar va realiyalarni badiiy tarjimada milliy o‘ziga xoslikni saqlash nuqtayi nazaridan tahlil qilgan; R. Shirinova[5] esa diniy realiyalarni alohida guruh sifatida tadqiq etib, ularning badiiy tarjimada qayta yaratilish tamoyillarini yoritgan. Bu tadqiqotlar realiya tushunchasining faqat maishiy predmetlar doirasida emas, balki tarixiy, diniy va boshqa milliy-madaniy qatlamlarni ham qamrab olishini ko‘rsatadi.

Sh. Sirojiddinov va G. Odilovaning tadqiqotlarida[6] realiyaning milliy-tarixiy va madaniy mazmuni hamda uning tarjimada ifodalanishi masalalariga e’tibor qaratilgan. Sh. Usmanovaning lingvomadaniy

yo‘nalishdagi izlanishlari realiyalarni til va madaniyat munosabati doirasida talqin qilish uchun muhim nazariy asos yaratadi. D. Xudayberganovaning badiiy matnning antropotsentrik talqiniga oid tadqiqotlari, Z. Xolmanova, O. Saidaxmedova va O. Nurullayevaning[9] lingvokulturologik tushunchalarni tadqiq etishga bag‘ishlangan ishlari realiyaning milliy-madaniy mazmunini anglash imkoniyatlarini kengaytiradi. D. Abdurahmonovaning realiya termini mohiyatiga bag‘ishlangan tadqiqoti hamda F. Xabibullayevaning milliy o‘ziga xoslikni tarjimaning adekvatlik mezoni sifatida o‘rgangan ishlari esa realiya, milliy kolorit va tarjima adekvatligi o‘rtasidagi aloqadorlikni aniqlashtirishga xizmat qiladi.

Umuman, o‘zbek tilshunosligi va tarjimashunosligidagi mazkur tadqiqotlar realiya tushunchasining ilmiy talqinida muayyan tadrijiylik mavjudligini ko‘rsatadi: dastlab realiya asosan boshqa xalqlar hayoti va turmushiga xos milliy birliklarni tarjima qilish muammosi bilan bog‘liq holda talqin qilingan bo‘lsa, keyinchalik uning milliy-madaniy, lingvokulturologik va antropotsentrik jihatlariga e’tibor kuchaygan. Shu tariqa o‘zbek ilmiy makonida realiya tushunchasi ekstralingvistik voqelik, uni nomlovchi lisoniy birlik va milliy-madaniy axborotni tashuvchi lingvomadaniy birlik sifatidagi qarashlarning kesishgan nuqtasida shakllangan. Mazkur qarashlar yuqorida ko‘rib chiqilgan xorijiy tadqiqotchilar konsepsiyalari bilan uzviy bog‘lanadi: G‘. Salomovning realiyani milliy xos va tarjimada murakkab birlik sifatida talqin qilishi L. Sobolev va Y. Retser qarashlariga yaqin bo‘lsa, Sh. Sirojiddinovning realiyani so‘z va so‘z birikmalari bilan bog‘lashi S. Vlaxov va S. Florinning “realiya-so‘z” konsepsiyasi bilan mushtarakdir. Sh. Usmanova, D. Xudayberganova, Z. Xolmanova va boshqa tadqiqotchilarning lingvomadaniy yo‘nalishdagi qarashlari esa V. G. Kostomarov, E. M. Vereshchagin hamda R. Zorivchakning til, madaniyat va milliy o‘ziga xoslik munosabatiga asoslangan yondashuvlari bilan uyg‘unlashadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning nazariy asosini realiya, ekvivalentsiz leksika va lakuna masalalariga bag‘ishlangan lingvistik hamda tarjimashunoslik tadqiqotlari tashkil etadi. Ishda qiyosiy-tahliliy, tavsifiy va semantik tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida xorijiy (M. P. Kochergan, R. P. Zorivchak, S. Vlaxov, S. Florin, A. V. Voloshina) va o‘zbek (G‘. Salomov, I. Mirzayev, H. Hamroyev, R. Shirinova, Sh. Sirojiddinov, G. Odilova va boshqa tadqiqotchilar) tilshunos hamda tarjimashunoslarning realiya, ekvivalentsiz leksika va lakunaga oid ilmiy qarashlari qiyosiy tahlil qilindi; ularning ta’riflari va mezonlari umumlashtirilib, realiyani belgilashning asosiy mezonlari aniqlandi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Yuqorida tahlil qilingan ilmiy qarashlar shuni ko‘rsatadiki, realiya va ekvivalentsiz leksika tushunchalari o‘zaro yaqin bo‘lsa-da, ularni aynan bir hodisa sifatida talqin qilish ilmiy jihatdan to‘g‘ri emas. Tadqiqot natijasida realiyani ekvivalentsiz leksikaning tarkibiy qismi sifatida belgilash maqsadga muvofiq ekanligi aniqlandi. Chunki realiyalar, avvalo, muayyan xalqning moddiy va ma’naviy madaniyati, tarixiy tajribasi, urf-odatlari hamda ijtimoiy hayotiga xos bo‘lgan milliy-madaniy mazmunni ifodalashi bilan ajralib turadi. Ekvivalentsiz leksika esa bundan kengroq tushuncha bo‘lib, realiyalardan tashqari, tillar o‘rtasidagi leksik-semantik nomuvofiqlik natijasida yuzaga keladigan boshqa birliklarni ham qamrab oladi. Tahlil qilingan manbalar asosida realiyani belgilashda uchta asosiy mezon muhim ekanligi kuzatildi: birinchidan, birlikning muayyan lingvomadaniy jamoaga xosligi; ikkinchidan, unda milliy-madaniy axborotning mavjudligi; uchinchidan, boshqa tilda uning to‘liq va bevosita semantik muqobilining mavjud emasligi.

Muhokama. Mazkur mezonlar realiyani oddiy ekvivalentsiz so‘zlardan farqlash imkonini beradi. Zero, har qanday tarjima jarayonida muqobili mavjud bo‘lmagan birlik realiya hisoblanmaydi. Realiyaning asosiy belgisi uning nafaqat ekvivalentsizligi, balki muayyan xalqning tarixiy, ijtimoiy va madaniy tajribasi bilan uzviy bog‘langanligidir. Shuningdek, tadqiqot davomida “realiya”, “ekvivalentsiz leksika” va “lakuna” tushunchalari o‘rtasidagi munosabatni quyidagicha izohlash mumkin: ekvivalentsiz leksika kengroq kategoriyani tashkil etadi, realiyalar uning milliy-madaniy mazmun bilan ajralib turuvchi tarkibiy qismini ifodalaydi, lakuna esa muayyan til tizimida mavjud bo‘lmagan yoki boshqa tilda alohida nom bilan ifodalanmagan tushuncha va birliklarni tavsiflashga xizmat qiladi. Demak, ushbu tushunchalar o‘rtasidagi munosabatni tenglik emas, balki qamrov va funksional xususiyatlar asosidagi nisbat sifatida baholash lozim.

Xulosa. Shunday qilib, “realiyalar” deb ataluvchi so‘z va so‘z birikmalarining o‘ziga xos kategoriyasi haqida muayyan darajada aniq tasavvur hosil qilish mumkin. Biroq ularning tasnifi va tarjima qilish usullarini ko‘rib chiqishdan avval “realiya” tushunchasining mohiyatini aniq belgilab olish zarur. Chunki realiyaning lingvistik tabiati, ekvivalentsiz leksika bilan o‘zaro munosabati, unda mujassamlangan milliy-madaniy semantika hamda matndagi funksional xususiyatlarini aniqlash realiyalarni keyingi bosqichda muayyan mezonlar asosida tasniflash imkonini beradi. Tadqiqot davomida xorijiy va o‘zbek tilshunosligi hamda tarjimashunosligida realiyaga oid shakllangan qarashlarning mazmunan bir-birini to‘ldirishi, ayni paytda realiya tushunchasining turli jihatlarini yoritishi aniqlandi. Xususan, xorijiy tadqiqotlarda realiyaning ekstralingvistik tabiati, milliy-madaniy xosligi va tarjimada muqobil tanlash muammolari yetakchi o‘rin egallasa, o‘zbek ilmiy makonida mazkur masalalar milliy kolorit, badiiy tarjima, lingvomadaniy mazmun va

tarjima adekvatligi bilan bog‘liq holda rivojlangan. Bu esa realiya tushunchasining faqat tarjimashunoslik doirasidagi hodisa emas, balki til, madaniyat va milliy tafakkur munosabatlarini o‘rganishda muhim lingvokulturologik birlik ekanini ko‘rsatadi. Tahlillar asosida realiyani ekvivalentsiz leksikaning tarkibiy qismi sifatida belgilash maqsadga muvofiq degan xulosaga kelindi. Ekvivalentsiz leksika kengroq hodisa bo‘lib, unda boshqa tilda to‘liq yoki bevosita muqobilga ega bo‘lmagan turli leksik va leksik-semantik birliklar jamlanadi. Realiyalar esa mazkur qatlamning muayyan xalqning tarixiy, ijtimoiy, moddiy va ma’naviy madaniyati bilan bevosita bog‘langan qismini tashkil etadi. Shu sababli har qanday ekvivalentsiz birlikni realiya sifatida baholash mumkin emas. Realiyani belgilashda uning milliy-madaniy xosligi va muayyan lingvomadaniy jamoa hayoti bilan aloqadorligi asosiy farqlovchi belgilar sifatida namoyon bo‘ladi.

ADABIYOTLAR:

1. Hamroyev H. Milliy so‘zlar – realiyalar va badiiy tarjima / Tarjima madaniyati. – T., 1982. – B.36.

2. Кочерган М. П. Загальне мовознавство. Академія. Київ, 2006. 463 с.

3. Мирзаев И.К. Проблемы передачи слов, обозначающих реалии французской жизни, на узбекский язык: Докт. дисс. — Л., 1975. — 132 с.

4. Salomov G‘. Til va tarjima. – T.: Fan, 1966. – B.124; shu muallif. Tarjima tashvishlari. – T., 1983. – B.90.

5. Shirinova R.H. Diniy realiyalarni badiiy tarjimada qayta yaratishning ayrim tamoyillari. Filol. fan. nomz. ...diss. – T., 2002. – 126 b.

6. Sirojiddinov Sh., Odilova G. Badiiy tarjima asoslari. – T.: Mumtoz so‘z, 2011. – 182 b.

7. Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. М., 1980. 502 с.

8. Волошина А. М. Безеквівалентна лексика близькоспоріднених мов: проблема семантичної структури. Наукові записки. Випуск XXVI. Серія: Філологічні науки (мовознавство). Кіровоград, 2000. С.56-64.

9. Xolmanova Z., Saidaxmedova O., Nurullayeva O. Lingvokulturologiyaga oid tushunchalar tadqiqi. – T., 2018. – 94 b.

10. Зорівчак Р. П. Реалія в художньому мовленні; перекладознавчий аспект. Львів, 1994. 232 с.

UO‘K 801.85:92.154

LINGVOKULTUROLOGIYADA IMPLIKATURA VA PRESUPPOZITSIYANING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI

Turdiyeva Dilorom Soliyevna,
Surxondaryo viloyatidagi Sariosiyo tumani
11-maktab ingliz tili fani o‘qituvchisi
diloromturdiyeva7@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada lingvokulturologiyada implikatura va presuppozitsiyaning milliy-madaniy xususiyatlari tadqiq etiladi. Unda yashirin ma’noning shakllanishi va anglanishida milliy-madaniy qadriyatlar, kommunikativ me’yorlar, urf-odatlar, nutq odobi, madaniy stereotiplar hamda kontekstning o‘rni yoritiladi. Implikatura va presuppozitsiyaning turli madaniy muhitlarda namoyon bo‘lishi o‘zbek va ingliz tillari materiallari asosida qiyosiy-pragmatik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda milliy-madaniy bilimlarning kommunikativ vaziyatni talqin qilish va adresat tomonidan yashirin ma’noni anglash jarayoniga ta’siri ochib beriladi. Shuningdek, virtual kommunikatsiyada emoji, qisqartma, hashtag va boshqa multimodal vositalarning milliy-madaniy mazmunni ifodalashdagi pragmatik imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari implikatura va presuppozitsiyani lingvokulturologik hamda qiyosiy-pragmatik nuqtayi nazardan o‘rganishning nazariy ahamiyatini belgilaydi.*

Kalit so‘zlar: *lingvokulturologiya, implikatura, presuppozitsiya, milliy-madaniy xususiyat, pragmatika, kommunikativ me’yor, madaniy kod, nutq odobi, pragmatik inferensiya, virtual kommunikatsiya.*

НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ИМПЛИКАТУРЫ И ПРЕСУППОЗИЦИИ В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ

Аннотация. *В данной статье исследуются национально-культурные особенности импликатуры и пресуппозиции в лингвокультурологии. Освещается роль национально-культурных ценностей, коммуникативных норм, обычаев и традиций, речевого этикета, культурных стереотипов и контекста в формировании и интерпретации имплицитного значения. Проявление импликатуры и пресуппозиции в различных культурных средах анализируется в сопоставительно-прагматическом аспекте на материале узбекского и английского языков. Раскрывается влияние национально-культурных знаний на интерпретацию коммуникативной ситуации и процесс понимания имплицитного значения адресатом. Кроме того, рассматривается прагматический потенциал эмодзи, сокращений, хэштегов и других мультимодальных средств в выражении национально-культурной семантики в виртуальной коммуникации. Результаты исследования определяют теоретическую значимость изучения импликатуры и пресуппозиции с лингвокультурологической и сопоставительно-прагматической точек зрения.*

Ключевые слова: *лингвокультурология, импликатура, пресуппозиция, национально-культурные особенности, прагматика, коммуникативная норма, культурный код, речевой этикет, прагматическая инференция, виртуальная коммуникация.*

NATIONAL AND CULTURAL CHARACTERISTICS OF IMPLICATURE AND PRESUPPOSITION IN LINGUOCULTUROLOGY

Abstract. *This article examines the national and cultural characteristics of implicature and presupposition in linguoculturology. It explores the role of national and cultural values, communicative norms, customs and traditions, speech etiquette, cultural stereotypes, and context in the formation and interpretation of implicit meaning. The manifestation of implicature and presupposition in different cultural contexts is analyzed comparatively and pragmatically based on materials from the Uzbek and English languages. The study highlights the influence of national and cultural knowledge on the interpretation of communicative situations and the addressee’s understanding of implicit meaning. It also considers the pragmatic potential of emojis, abbreviations, hashtags, and other multimodal means in expressing national and cultural meanings in virtual communication. The findings demonstrate the theoretical significance of studying implicature and presupposition from linguocultural and comparative-pragmatic perspectives.*

Keywords: *linguoculturology, implicature, presupposition, national and cultural characteristics, pragmatics, communicative norms, cultural code, speech etiquette, pragmatic inference, virtual communication.*

Kirish. Bugungi kunda tilni faqat axborot uzatish vositasi sifatida emas, balki muayyan xalqning milliy-madaniy tafakkuri, qadriyatlari, dunyoqarashi va kommunikativ tajribasini aks ettiruvchi murakkab hodisa sifatida o‘rganish tilshunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, lingvokulturologiya, pragmalingvistika va kognitiv tilshunoslikning rivojlanishi natijasida nutq jarayonida bevosita ifodalanmagan, biroq kommunikativ vaziyat, kontekst, umumiy bilim va madaniy tajriba asosida anglashiladigan ma’nolarni tadqiq etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bunday yashirin ma’nolarning yuzaga kelishida implikatura va presuppozitsiya muhim pragmatik hodisalar sifatida namoyon bo‘ladi.

Bugungi tilshunoslikda tilni faqat grammatik va leksik birliklar tizimi sifatida emas, balki muayyan xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi, qadriyatlari va milliy-madaniy xususiyatlarini aks ettiruvchi murakkab hodisa sifatida o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, lingvokulturologik tadqiqotlarda til birliklarining bevosita ifodalangan mazmuni bilan bir qatorda, nutq jarayonida yashirin tarzda anglashiladigan ma’nolarni aniqlash muhim ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, implikatura va presuppozitsiya hodisalarini milliy-madaniy xususiyatlar bilan bog‘liq holda tadqiq etish til, tafakkur va madaniyat o‘rtasidagi munosabatlarni chuqurroq anglash imkonini beradi.

Pragmatik tilshunoslikda implikatura so‘zlovchi tomonidan bevosita ifodalanmagan, biroq muayyan nutqiy vaziyat, kontekst, kommunikativ maqsad va umumiy bilimlar asosida tinglovchi tomonidan anglanadigan qo‘shimcha mazmunni ifodalaydi. Presuppozitsiya esa nutq birligining qo‘llanilishi natijasida oldindan ma’lum yoki so‘zlovchi va tinglovchi uchun mavjud deb qabul qilinadigan axborotga tayanadi. Har ikki hodisa ham muloqotning yuzaki, bevosita mazmunidan tashqaridagi ma’no qatlamlarini ochib berishi bilan xarakterlanadi. Biroq bunday yashirin yoki oldindan qabul qilingan mazmunning shakllanishi va anglanishida muayyan xalqning ijtimoiy tajribasi, urf-odatlari, qadriyatlari, muomala me’yorlari va madaniy stereotiplari muhim o‘rin tutadi[1].

Implikatura va presuppozitsiya kommunikativ mazmunning faqat grammatik yoki leksik vositalar orqali emas, balki adresant va adresatning umumiy bilimlari, kommunikativ maqsadi, vaziyatni baholashi hamda muayyan madaniyatga xos me’yorlar asosida shakllanishini ko‘rsatadi. Shu jihatdan mazkur hodisalarni lingvokulturologik nuqtayi nazardan o‘rganish yashirin ma’noning milliy-madaniy asoslarini aniqlash imkonini beradi. Chunki bir xil kommunikativ birlik yoki nutqiy vaziyat turli lingvomadaniy muhit vakillari tomonidan turlicha talqin qilinishi mumkin. Bunday farqlar, avvalo, jamiyatda shakllangan kommunikativ qadriyatlar, nutq odobi, ijtimoiy munosabatlar, milliy stereotiplar va madaniy kodlar bilan bog‘liqdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Nutqning yuzaki mazmuni bilan uning kommunikativ mazmuni har doim ham to‘liq mos kelmaydi. Adresant ayrim hollarda o‘z fikrini bevosita ifodalash o‘rniga bilvosita shakldan foydalanadi va adresat ushbu ma’noni vaziyat, kontekst hamda umumiy madaniy bilimlar asosida tiklaydi. Bunday jarayonda implikatura va presuppozitsiya muhim pragmatik mexanizmlar sifatida namoyon bo‘ladi.

Implikatura, avvalo, so‘zlovchining bevosita aytganidan tashqari nazarda tutgan ma’nosini anglash bilan bog‘liq bo‘lsa, presuppozitsiya nutq birligidan oldindan mavjud deb qabul qilinadigan bilim yoki axborotni anglatadi. Har ikkala hodisa ham kommunikativ ma’noni shakllantirishda kontekst va adresant-adresat o‘rtasidagi umumiy bilimlarga tayanadi. Biroq ularning talqinida milliy-madaniy omillarning ta’siri turli tillarda turlicha namoyon bo‘lishi mumkin. Shu sababli o‘zbek va ingliz tillarida implikatura va presuppozitsiyaning milliy-madaniy xususiyatlarini qiyosiy o‘rganish lingvokulturologiya va pragmalingvistikaning kesishgan nuqtalarini aniqlashga imkon beradi[2].

Implikatura tushunchasi zamonaviy pragmatikaning asosiy kategoriyalaridan biri bo‘lib, u kommunikativ jarayonda bevosita ifodalanmagan, biroq muayyan shart-sharoitlar asosida adresat tomonidan chiqarib olinadigan qo‘shimcha ma’noni anglatadi. Implikatura nazariyasining shakllanishida H. P. Grice tomonidan ilgari surilgan hamkorlik tamoyili va unga bog‘liq kommunikativ maksimlar muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Grice modeliga ko‘ra, kommunikatsiya ishtirokchilari odatda suhbatning maqsadi va yo‘nalishiga mos ravishda o‘z hissalarini amalga oshiradilar. Miqdor, sifat, munosabat va usul maksimlarining bajarilishi yoki ataylab buzilishi natijasida adresat bevosita aytilmagan qo‘shimcha ma’noni anglaydi. Masalan:

A: Did you enjoy the conference? B: The coffee was good.

Mazkur javob grammatik jihatdan oddiy bo‘lsa-da, muayyan kontekstda konferensiyaning o‘zi unchalik yoqimli bo‘lmagan degan implikaturani yuzaga keltirishi mumkin. Demak, kommunikativ ma’no

faqat aytilgan gap mazmunidan emas, balki javobning vaziyatga mosligi va adresantning kommunikativ niyatidan kelib chiqadi.

Presuppozitsiya esa ma'lum bir lingvistik birlik yoki gapning qo'llanishi bilan bog'liq holda kommunikatsiya ishtirokchilari tomonidan oldindan mavjud deb qabul qilinadigan axborotni ifodalaydi. Masalan: John stopped smoking.

Ushbu gap John avval chekish odatiga ega bo'lganini presuppozitsiya qiladi. Gap inkor shaklida berilganda ham mazkur oldingi bilim saqlanib qolishi mumkin: John did not stop smoking.

Bu holat presuppozitsiyaning ayrim turlari inkor ostida ham saqlanishi mumkinligini ko'rsatadi.

Shunday qilib, implikatura ko'proq kommunikativ inferensiya va kontekstual talqin bilan bog'liq bo'lsa, presuppozitsiya muayyan fon bilim yoki oldindan qabul qilingan axborotga tayanadi[3].

Muhokama va natijalar. Til va madaniyat o'rtasidagi uzviy munosabat kommunikativ ma'noni talqin qilish jarayonida ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. Har bir til jamoasi muayyan kommunikativ me'yorlarga ega bo'lib, ushbu me'yorlar nimani bevosita aytish, nimani esa bilvosita ifodalash mumkinligini belgilashga yordam beradi.

O'zbek lingvomadaniyatida katta-kichikka hurmat, ijtimoiy maqomni hisobga olish, suhbatdoshning ko'ngliga tegmaslik, bilvosita ifodalash va muloyimlik kabi kommunikativ qadriyatlar muhim o'rin tutadi. Shu sababli ayrim kommunikativ vaziyatlarda to'g'ridan to'g'ri rad etish, tanqid qilish yoki buyruq berish o'rniga bilvosita ifodalardan foydalanish kuzatiladi.

Masalan:

– Ertaga yig'ilishga kelasizmi?

– Nasib qilsa, harakat qilaman.

Mazkur javobning literal mazmuni kelish imkoniyatini inkor qilmaydi. Biroq muayyan kontekstda u "kelishim aniq emas", "ehtimol, kela olmayman" yoki hatto muloyim rad javobi sifatida talqin qilinishi mumkin. Bunday talqin faqat lingvistik mazmunga emas, balki o'zbek kommunikativ madaniyatidagi bilvositalik va muloyimlik me'yorlariga ham tayanadi.

Ingliz tilidagi kommunikativ vaziyatlarda ham bilvosita ifodalash mavjud bo'lsa-da, uning shakllanishi va talqin qilinishida boshqa kommunikativ me'yorlar ustun bo'lishi mumkin. Masalan:

Could you possibly send me the report today?

I'll see what I can do.

Ushbu javob so'zma-so'z imkoniyatni ko'rib chiqishni bildiradi, biroq kontekstga qarab "I cannot promise" yoki "It may not be possible" mazmunidagi implikaturani yuzaga keltirishi mumkin.

Demak, implikaturaning interpretatsiyasi til birliklarining o'ziga emas, balki ularning muayyan lingvomadaniy muhitda qanday qo'llanishiga ham bog'liq[4].

O'zbek va ingliz tillarini qiyoslashda kommunikativ bilvositalik masalasi alohida ahamiyatga ega. O'zbek tilida ayrim hollarda ijtimoiy munosabatlarni saqlash va suhbatdoshni noqulay vaziyatga qo'ymaslik maqsadida bilvosita nutqiy strategiyalar faol qo'llanadi.

Masalan:

Choy ichasizmi?

Rahmat, hozircha yo'q.

Bu javobning literal mazmuni oddiy rad etishdan iborat bo'lsa-da, uning pragmatik talqini vaziyatga qarab "keyinroq ichishim mumkin", "hozir ehtiyojim yo'q" yoki muloyim rad javobini bildirishi mumkin.

Ingliz tilida ham bilvosita javoblar mavjud:

Would you like some coffee?

I've just had one.

Bu yerda adresant bevosita "No, thank you" demaydi. Biroq adresat madaniy-kommunikativ tajribasi asosida bu javobni qahva taklifini rad etish sifatida talqin qiladi. Ikki misolda ham yashirin ma'no mavjud, biroq uning shakllanish mexanizmi muayyan kommunikativ odatlar va madaniy tajriba bilan bog'langan.

Presuppozitsiya ham milliy-madaniy bilimlar bilan chambarchas bog'liq. Chunki muayyan gapning presuppozitsion mazmuni adresatning oldindan mavjud bilimlari bilan o'zaro munosabatga kirishadi.

Masalan: "U yana Toshkentga keldi" gapida shaxsning Toshkentga ilgari ham kelgani haqidagi presuppozitsiya mavjud. Biroq ayrim hollarda presuppozitsion mazmun yanada kengroq madaniy bilimlarga tayanadi. Masalan, qarindoshlik, mehmondo'stlik yoki oilaviy munosabatlarni ifodalovchi birliklar turli madaniyat vakillari tomonidan bir xil darajada talqin qilinmasligi mumkin[5].

O'zbek tilidagi: "Kattalarning duosini olish kerak" kabi ifoda faqat grammatik mazmun bilan cheklanmaydi. U o'zbek lingvomadaniyatida kattalarni hurmat qilish, ularning roziligi va duosini ijtimoiy-madaniy qadriyat sifatida qabul qilish haqidagi umumiy bilimlarni ham faollashtiradi.

Shu jihatdan presuppozitsiya nafaqat “oldindan ma’lum axborot”, balki ayrim hollarda muayyan madaniy bilimlarning kommunikativ fonini ham shakllantiradi.

Raqamli kommunikatsiyaning rivojlanishi yashirin ma’nolarni ifodalash vositalarini yanada kengaytirdi. Bugungi ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlarda foydalanuvchilar verbal matn bilan bir qatorda emoji, GIF, mem, hashtag, qisqartma va boshqa multimodal vositalardan foydalanadilar.

Masalan, o‘zbek virtual kommunikatsiyasidagi: “Zo‘r qilibsiz” ifodasi literal jihatdan ijobiy bahoni bildiradi. Biroq emojisi kontekstga qarab samimiy quvonch, hazil, kinoya yoki istehzoni anglatishi mumkin. Demak, emoji matnning pragmatik interpretatsiyasini o‘zgartiruvchi multimodal signal vazifasini bajaradi. Shuningdek: “Rahmat-a” kabi ifodada “rahmat” so‘zi ijobiy ma’noga ega bo‘lsa-da, emoji va oldingi kommunikativ vaziyat uni kinoyaviy yoki norozilik mazmunida talqin qilish imkonini beradi[6].

Bunday holatlarda adresat nafaqat verbal birlikni, balki emoji, kontekst va kommunikantlar o‘rtasidagi oldingi munosabatlarni ham hisobga oladi. Natijada virtual kommunikatsiyada pragmatik inferensiya multimodal xarakter kasb etadi. O‘zbek va ingliz virtual kommunikatsiyalarini qiyoslashda ham emojilarning umumiy funksiyasi bilan bir qatorda ularning madaniy interpretatsiyasidagi farqlarni hisobga olish zarur. Bir xil emoji turli kommunikativ jamoalarda turlicha emotsional yoki pragmatik qiymatga ega bo‘lishi mumkin.

Implikatura va presuppozitsiyani lingvokulturologik nuqtai nazardan tadqiq etish bir nechta muhim masalalarni hal qilishga imkon beradi. Birinchidan, yashirin ma’noning shakllanishida til va madaniyatning o‘zaro ta’sirini aniqlash mumkin. Ikkinchidan, turli tillarda kommunikativ bilvositalik va nutqiy strategiyalarning farqlarini aniqlash imkoniyati paydo bo‘ladi. Uchinchidan, madaniyatlararo muloqotda yuzaga keladigan pragmatik tushunmovchiliklarning sabablarini aniqlash mumkin.

Ayniqsa, xorijiy tilni o‘qitishda ushbu masala muhimdir. Til o‘rganuvchi grammatik jihatdan to‘g‘ri gap tuzgan bo‘lsa ham, muayyan madaniyatga xos pragmatik me’yorlarni bilmasa, uning nutqi kommunikativ jihatdan noo‘rin yoki noqulay talqin qilinishi mumkin. Shu bois til ta’limida leksik va grammatik kompetensiya bilan bir qatorda lingvokulturologik va pragmatik kompetensiyani shakllantirish zarur[7].

Xulosa. O‘zbek va ingliz tillari materiallarini qiyosiy tahlil qilish bilvosita ma’no ifodalash, hurmat, ijtimoiy masofa, rad etish, taklif, baholash va boshqa kommunikativ vaziyatlarda milliy-madaniy farqlar mavjudligini ko‘rsatadi. O‘zbek lingvomadaniyatida hurmat, muloyimlik, ijtimoiy maqom va bilvositalik kabi omillar yashirin ma’no shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatsa, ingliz kommunikativ muhitida individuallik, shaxsiy hudud va nisbatan bevosita kommunikativ strategiyalar muhim o‘rin egallaydi.

Virtual kommunikatsiyada esa ushbu jarayon yanada murakkablashib, verbal birliklar bilan bir qatorda emoji, hashtag, qisqartma, mem va boshqa multimodal vositalar ham pragmatik ma’no shakllanishida faol ishtirok etmoqda. Shu sababli zamonaviy lingvokulturologik tadqiqotlarda implikatura va presuppozitsiyani verbal, kontekstual, madaniy va multimodal omillarning o‘zaro ta’siri asosida o‘rganish muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, implikatura va presuppozitsiyaning milliy-madaniy xususiyatlarini aniqlash o‘zbek va ingliz tillari o‘rtasidagi pragmatik hamda lingvokulturologik farqlarni chuqurroq anglash, madaniyatlararo kommunikatsiya samaradorligini oshirish va virtual muloqotdagi yashirin ma’nolarni to‘g‘ri interpretatsiya qilish uchun muhim nazariy va amaliy asos yaratadi.

ADABIYOTLAR:

1. *Grice H. P. Logic and Conversation // Syntax and Semantics. Vol. 3: Speech Acts. – New York: Academic Press, 1975. – P. 41–58.*
2. *Levinson S. C. Pragmatics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983.*
3. *Levinson S. C. Presumptive Meanings: The Theory of Generalized Conversational Implicature. – Cambridge, MA: MIT Press, 2000.*
4. *Yule G. Pragmatics. – Oxford: Oxford University Press, 1996.*
5. *Mey J. L. Pragmatics: An Introduction. – Oxford: Blackwell, 2001.*
6. *Huang Y. Pragmatics. – Oxford: Oxford University Press, 2007.*
7. *Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2008.*
8. *Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent.*
9. *Crystal D. Language and the Internet. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006.*

UO‘K 81

INGLIZ VA O‘ZBEK FRAZEOLOGIZMLARIDA MILLIY-MADANIY SKRIPTLARNING SEMANTIK STRUKTURASI:QIYOSIY-KOGNITIV TAHLIL

Usmanaliyeva Saboxat Raximovna,
Samarqand davlat chet tillari instituti mustaqil izlanuvchisi
sabokhat905@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada ingliz va o‘zbek frazeologizmlarining semantik strukturasi qiyosiy-kognitiv yondashuv asosida tahlil qilinadi. Denotativ yadro, obrazli asos, konseptual motivatsiya, baholovchi konnotatsiya, milliy-madaniy skript va pragmatik kutilmani qamrab oluvchi olti qatlamli tahlil modeli taklif etiladi. Empirik material sifatida “temirni qizig‘ida bosmoq” - “strike while the iron is hot”, “tepa sochi tik bo‘lib ketdi” - “make someone’s hair stand on end”, “qo‘lini yuvib, qo‘ltig‘iga urmoq” - “wash your hands of” kabi birliklar jalb qilinadi. Tahlil natijalari obrazlararo o‘xshashlik har doim ham semantik ekvivalentlikni anglatmasligini ko‘rsatadi: ayni jismoniy yoki predmetli sxema turli emotsiya, baho va xulqiy kutilmalarni profillashi mumkin. Shu asosda semantik-obrazli izomorfizm, umumiy obraz doirasidagi semantik divergensiya, qisman muvofiqlik va obrazli-madaniy lakuna farqlanadi. Taklif etilgan mezonlar qiyosiy frazeologiya, tarjimashunoslik va lingvomadaniy tahlilda ekvivalentlik darajalarini aniqroq belgilashga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *frazeologizm, semantik struktura, madaniy skript, konseptual motivatsiya, obrazli asos, qiyosiy-kognitiv tahlil, semantik izomorfizm, qisman muvofiqlik, lakuna.*

СЕМАНТИЧЕСКАЯ СТРУКТУРА НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫХ СКРИПТОВ В АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ ФРАЗЕОЛОГИЗМАХ: СРАВНИТЕЛЬНО-КОГНИТИВНЫЙ АНАЛИЗ

Аннотация. *В статье семантическая структура английских и узбекских фразеологизмов рассматривается в сравнительно-когнитивной перспективе. Предлагается шестислойная модель анализа, включающая денотативное ядро, образную основу, концептуальную мотивацию, оценочную коннотацию, национально-культурный скрипт и прагматическое ожидание. Эмпирическую базу составляют единицы “temirni qizig‘ida bosmoq” - “strike while the iron is hot”, “tepa sochi tik bo‘lib ketdi” - “make someone’s hair stand on end”, “qo‘lini yuvib, qo‘ltig‘iga urmoq” - “wash your hands of”. Результаты анализа показывают, что образное сходство не всегда означает семантическую эквивалентность: одна и та же телесная или предметная схема может профилировать различные эмоции, оценки и поведенческие ожидания. На этом основании разграничиваются семантико-образный изоморфизм, семантическая дивергенция при общем образе, частичное соответствие и образно-культурная лакуна. Предложенные критерии позволяют точнее определять уровни эквивалентности в сопоставительной фразеологии, переводоведении и лингвокультурном анализе.*

Ключевые слова: *фразеологизм, семантическая структура, культурный скрипт, концептуальная мотивация, образная основа, сравнительно-когнитивный анализ, семантический изоморфизм, частичное соответствие, лакуна.*

SEMANTIC STRUCTURE OF NATIONAL-CULTURAL SCRIPTS IN ENGLISH AND UZBEK PHRASEOLOGISMS: COMPARATIVE-COGNITIVE ANALYSIS

Abstract. *The article examines the semantic structure of English and Uzbek phraseological units from a comparative-cognitive perspective. A six-layer analytical model is proposed, comprising the denotative core, figurative basis, conceptual motivation, evaluative connotation, national-cultural script, and pragmatic expectation. The empirical dataset comprises such units as “temirni qizig‘ida bosmoq” - “strike while the iron is hot”, “tepa sochi tik bo‘lib ketdi” - “make someone’s hair stand on end”, and “qo‘lini yuvib, qo‘ltig‘iga urmoq” - “wash your hands of”. The results show that figurative similarity does not necessarily entail semantic equivalence: the same bodily or object-based schema may profile different emotions, evaluations, and behavioural expectations. Accordingly, the study distinguishes semantic-figurative isomorphism, semantic divergence within a shared image, partial correspondence, and figurative-cultural lacuna. The proposed criteria provide a more precise basis for identifying degrees of equivalence in contrastive phraseology, translation studies, and linguocultural analysis.*

Keywords: *phraseological unit, semantic structure, cultural script, conceptual motivation, figurative basis, comparative-cognitive analysis, semantic isomorphism, partial correspondence, lacuna.*

Kirish. Frazeologizm semantikasi oddiy nominativ ma’no bilan chegaralanmaydi. Barqaror birlik tarkibida komponentlarning bevosita lug‘aviy ma’nosi, ko‘chma ma’no, obrazli motivatsiya va emotsional-baholovchi bo‘yoq o‘zaro birikib, nutqqa tayyor holda kiradigan yaxlit ma’no hosil qiladi. [6] Shu sababli qiyosiy tadqiqotda ikki tildagi birliklarni faqat “bir xil ma’noni anglatadi” mezoni bilan tenglashtirish semantik strukturaning muhim qismini yashirib qo‘yadi. Birliklar denotativ jihatdan yaqin bo‘lishi, biroq ularning ichki shakli, madaniy tayanchi yoki kommunikativ natijasi bir-biridan sezilarli farq qilishi mumkin.

Kognitiv semantika ma’noni alohida so‘zning ichida yopiq holatda emas, balki tajriba va bilim strukturalari bilan bog‘liq holda tushuntirish imkonini beradi. Freym yondashuvida bir elementning faollashuvi u bilan bog‘liq butun konseptual tizimni ishga tushiradi; skript esa hodisalarning ketma-ketligi va kutiladigan rivojini tashkil qiluvchi bilim tuzilmasi sifatida qaraladi. [4] Frazeologizm aynan shu jihatdan muhim: u qisqa lisoniy shakl orqali kengroq vaziyatni, uning sababini, bahosini va ehtimoliy oqibatini ixcham holda faollashtirishi mumkin. Skript nazariyasining klassik modelida takrorlanuvchi va o‘zaro o‘xshash epizodlar xotirada standartlashtirilgan umumlashgan epizod - skript shaklida tashkil etiladi; shu bois skript ochiq ifodalanmagan, biroq vaziyat uchun tipik bo‘lgan bosqichlarni inferensiya orqali tiklashga xizmat qiladi. [8]

Milliy-madaniy skript tushunchasi qiyosiy frazeologiya uchun, avvalo, metodologik ehtiyotkorlikni talab qiladi. Madaniy skript muayyan nutq jamoasida keng tanish bo‘lgan me’yor, baho yoki kutilmani ifodalovchi analitik modeldir; u alohida iboraning mavjudligidan avtomatik ravishda chiqariladigan “milliy xarakter” hukmi emas. [2] Shuning uchun maqolada frazeologik fakt va undan chiqariladigan madaniy xulosa o‘rtasiga aniq chegara qo‘yiladi: birinchi bosqichda tasdiqlangan ma’no va obraz aniqlanadi, keyingi bosqichda esa mazkur ma’noning vaziyatga xos kommunikativ kutilmasi ehtiyotkorlik bilan rekonstruksiya qilinadi. Mahalliy kognitiv tilshunoslikda ham lison va madaniyat munosabatini yagona qolipga tushirish xavfi qayd etilib, bunday qiyosga metodologik ehtiyotkorlik bilan yondashish zarurligi ta’kidlanadi. [7]

Tadqiqot materiali va metodlari. Tadqiqot materiali ikki tildagi frazeografik jihatdan verifikatsiya qilingan birliklardan tanlandi. Tahlilda qiyosiy-semantik, komponent tahlili, kognitiv modellashtirish, ichki shaklni rekonstruksiya qilish va lingvomadaniy interpretatsiya usullari birlashtirildi. Madaniy talqinda “ichki” nuqtayi nazarni saqlash va oldindan tayyor etnosentrik kategoriyalarni materialga majburan yuklamaslik tamoyili asosiy metodologik mezon sifatida qabul qilindi.[1]

Frazeologik ma’no oltita ketma-ket diagnostik qatlamda tekshirildi: *denotativ yadro* birlik bevosita qanday holat yoki harakatni nomlashini; *obrazli asos* qaysi jism, harakat, predmet yoki fazoviy konfiguratsiya ma’noni tashishini; *konseptual motivatsiya* konkret tajriba bilan mavhum mazmun o‘rtasidagi kognitiv bog‘lanishni; *baholovchi konnotatsiya* birlikning ijobiy, salbiy yoki neytral bahosini; *milliy-madaniy skript* mazkur ma’no ortida faollashadigan vaziyat modeli va madaniy tayanchni; *pragmatik kutilma* esa konkret nutq holatida birlikdan keyin qanday munosabat yoki harakat kutilishini ko‘rsatadi. Konseptual metafora nuqtayi nazaridan bunday tahlil manba va nishon sohalar o‘rtasidagi mosliklarni aniqlashga imkon beradi. [3] Bunday qatlamlashtirish frazeologik birlikning literal va ko‘chma o‘qishlarini, manba va nishon konseptlarini hamda ularni tayanchlaydigan freym, skript, matniy va ramziy bilimni birgalikda ko‘rish tamoyiliga mos keladi. [5]

Frazeologik ma’noning olti qatlamli semantik modeli

Bunda *semantik-obrazli izomorfizm* denotativ yadro, obraz va konseptual motivatsiya katta darajada mos kelgan holatni anglatadi. *Qisman muvofiqlik* umumiy vaziyat yoki funksiyani saqlagan holda obraz, baho yoki pragmatik yo‘nalishning farqlanishidir. *Obraz izomorfizmi va semantik divergensiya* esa aynan bir jismoniy sxema boshqa hissiy yoki baholovchi nishonga bog‘langanda yuzaga keladi. Nihoyat, *obrazli-madaniy lakuna* bir tilda ma’lum tarixiy, predmetli yoki toponimik obraz frazeologiklashgan, qiyoslanayotgan materialda esa aynan shu obrazli mexanizmga teng barqaror birlik topilmagan holatni bildiradi.

Bu tasnifni mutlaq va o‘zgarmas chegaralar sifatida qabul qilish to‘g‘ri emas. Metaforik modellar tillararo darajada umumiy bo‘lishi mumkin, biroq ularning konkret lisoniy realizatsiyasi, qaysi modelga ustuvorlik berilishi va qaysi madaniy detal bilan to‘ldirilishi farq qiladi. [3] Shu bois izomorfizm ham darajali hodisa: bir juftlikda denotat va obraz mos keladi, boshqasida esa faqat konseptual yo‘nalish yoki kommunikativ funksiya yaqinlashadi.

Qiyosiy-kognitiv tahlil

1. Semantik-obrazli izomorfizm: “temirni qizig‘ida bosmoq” va “strike while the iron is hot”

O‘zbekcha *“temirni qizig‘ida bosmoq”* [6] biror ishni ayni vaqtida bajarish ma’nosini ifodalaydi. Inglizcha *“strike while the iron is hot”* [9] esa imkoniyatdan darhol foydalanish zaruratini anglatadi. Denotativ yadroda ikkala birlik ham “qulay vaqtni o‘tkazib yubormaslik” holatini profillaydi. Farq faqat o‘zbek birlikdagi “ishni o‘z vaqtida qilish”ning kengroq talqini bilan ingliz birlikdagi “imkoniyatdan hozir foydalanish” urg‘usi o‘rtasida seziladi.

Obrazli asos deyarli to‘liq mos: qizigan temir shakl berish mumkin bo‘lgan qisqa muddatli holatni, uni urish yoki bosish esa faol va kechiktirib bo‘lmaydigan harakatni bildiradi. Kognitiv jihatdan vaqt mavhum resurs emas, balki *ishlov berish uchun vaqtincha yaroqli moddiy holat* sifatida konseptuallashtiriladi. “Issiqlik” kamayishi bilan imkoniyatning samaradorligi ham yo‘qoladi; shu sababli fizik jarayonning vaqt chegarasi ijtimoiy-amaliy qarorning vaqt chegarasiga proyeksiyalanadi.

Baholovchi konnotatsiya har ikki tilda ijobiy-rag‘batlantiruvchi: vaziyatni to‘g‘ri baholash, kechikmaslik va faol bo‘lish ma’qullanadi. Milliy-madaniy qatlamda temirchilik tajribasining o‘zi muayyan bir madaniyatga mutlaq xos emas; shu bois bu juftlikni milliy noyoblikdan ko‘ra umumiy mehnat tajribasining parallel frazeologiklashuvi sifatida baholash ilmiy jihatdan asosliroq. Pragmatik kutilma ham yaqin: birlik ishlatilganda adresatdan cho‘zmasdan harakatga o‘tish kutiladi.

2. Obraz izomorfizmi va semantik divergensiya: *“tepa sochi tik bo‘lib ketdi”* va *“make someone’s hair stand on end”*

O‘zbekcha *“tepa soch(i) tik bo‘lib ketdi”* [6] juda kuchli va birdan yuzaga kelgan g‘azabni ifodalaydi. Inglizcha *“make someone’s hair stand on end”* [9] esa kimnidir dahshatga solish yoki qattiq qo‘rqitish ma’nosida qo‘llanadi. Bir qarashda ikkala birlikning ichki shakli bir xil: kuchli emotsiya natijasida sochning tik turishi. Biroq denotativ nishon aynan shu nuqtada ajraladi - o‘zbek birlikda g‘azab, ingliz birlikda qo‘rquv yoki dahshat markazlashadi.

Bu misol qiyosiy frazeologiyada muhim metodologik xulosaga olib keladi: *obrazning bir xilligi ma’noning bir xilligini kafolatlamaydi*. Somatik reaksiya umumiy kognitiv trigger bo‘lishi mumkin, ammo til jamoalari ushbu reaksiya bilan bog‘laydigan tipik emotsional kategoriya farqlanadi. Shunday qilib, manba sxema “sochning tik turishi” bo‘yicha izomorfizm mavjud, nishon emotsiya bo‘yicha esa semantik divergensiya yuz beradi.

Baholovchi qatlamda ikkala birlik ham kuchli salbiy emotsional intensivlikni bildiradi, lekin salbiylikning turi boshqa: biri konfliktga yo‘nalgan faol emotsiyani, ikkinchisi xavfga nisbatan reaktiv holatni profillaydi. Pragmatik kutilma ham shunga mos farqlanadi. G‘azab kontekstida keyingi harakat qarshilik, keskin javob yoki norozilik bo‘lishi mumkin; qo‘rquv kontekstida esa ehtiyotlanish, chekinish yoki xavfni baholash kutiladi.

3. Protsessual obrazning turli semantik nishonlari: “qo‘lini yuvib, qo‘ltig‘iga urmoq” va “wash your hands of”

O‘zbekcha *“qo‘l(i)ni yuvib, qo‘ltig‘(i)ga urmoq”* [6] ishonch yoki ixlosning qaytishi natijasida biror shaxs yoki narsani e’tibor doirasidan chiqarib qo‘yishni bildiradi. Inglizcha *“wash your hands of”* [9] esa biror shaxs, ish yoki vaziyat uchun mas’uliyatni zimmasidan soqit qilish ma’nosiga ega. Ikkala birlikda ham “qo‘lni yuvish” harakati avvalgi aloqani uzishning ramziy chegarasi vazifasini bajaradi.

Konseptual motivatsiyaning umumiy qismi *jismoniy tozalash → ijtimoiy-axloqiy ajralish* ko‘chishidir. Qo‘l faoliyat, aralashuv va mas’uliyatning metonimik markazi bo‘lgani uchun uni yuvish avvalgi bog‘liqlikni bekor qilish sifatida qayta talqin qilinadi. Biroq o‘zbek birlikda qo‘ltiq komponentining qo‘shilishi tasvirni yanada konkretlashtiradi: harakat nafaqat tozalash, balki “chetga tortilish” holatini ham ko‘z oldiga keltiradi.

Denotativ qatlamda o‘zbek birlikning markazi “ishonch-e’tibordan chiqarish”, ingliz birlikning markazi “mas’uliyatdan voz kechish”dir. Shuning uchun ular tayyor tarjima ekvivalenti emas. Lekin pragmatik vazifada umumiylik mavjud: so‘zlovchi avvalgi ishtirok, qo‘llab-quvvatlash yoki javobgarlik davom etmasligini signal qiladi. Bu holat qisman muvofiqlikning aniq ko‘rinishidir - protsessual obraz yaqin, semantik rol va ijtimoiy oqibat esa bir xil emas.

4. Umumiy emotsional yadro va milliy obrazlarning farqi: *“do‘ppisini osmonga otmoq”* va *“in seventh heaven”*

O‘zbekcha *“do‘ppi(si)ni osmonga otmoq”* [6] kuchli xursandchilik va quvonchni ifodalaydi. Inglizcha *“in seventh heaven”* [9] ham nihoyatda yuqori darajadagi quvonch va zavq holatini bildiradi. Denotativ yadroda ular yaqin: ikkala birlik ham oddiy mamnunlikdan kuchliroq, emotsional intensivligi yuqori holatni nomlaydi.

Obrazli asos esa keskin farqlanadi. O‘zbek birlikda milliy bosh kiyim va yuqoriga yo‘nalgan jismoniy harakat mavjud. Quvonch shu qadar kuchliki, kundalik predmet “osmonga” uloqtiriladi, vertikal yuqorilik emotsional ko‘tarinkilikni kuchaytiradi. Ingliz birlikda jismoniy harakatdan ko‘ra “eng yuqori osmon”ga joylashish modeli ishlaydi. Bu yerda fazoviy yuqorilik umumiy konseptual komponent bo‘lsa ham, uning madaniy konkretlashtirilishi boshqa-boshqa.

Qiyosiy jihatdan ushbu juftlikni funksional-semantik yaqinlik va obrazli allomorfizm sifatida baholash mumkin. “Yuqori = yaxshi/baxtli” orientatsion sxemasi umumiy bo‘lib, o‘zbek tilida do‘ppi va faol uloqtirish orqali, ingliz tilida esa yuqori osmon qatlami orqali lisoniylashgan. Shu sababli ular tarjimada bir-birini vaziyatga qarab qoplashi mumkin, lekin madaniy obrazni so‘zma-so‘z ko‘chirishda stilistik tabiiylik alohida tekshirilishi kerak.

5. Obrazli-madaniy lakuna: *“meet your Waterloo”*

Inglizcha *“meet your Waterloo”* [9] yakuniy va hal qiluvchi mag‘lubiyatga uchrash ma’nosini bildiradi. Birlikning ichki shakli aniq tarixiy toponimga tayangan: “Waterloo” oddiy joy nomidan “so‘nggi, qaytarib bo‘lmaydigan mag‘lubiyat”ning frazeologik belgisiga aylangan. Bu yerda denotativ ma’no umumiy, ammo uni tashuvchi obraz tarixiy kollektiv bilim bilan chambarchas bog‘liq.

Qiyoslanayotgan o‘zbek frazeografik materialida aynan Waterloo toponimiga yoki unga struktur jihatdan teng tarixiy joy nomiga asoslangan barqaror muqobil aniqlanmadi. Buni “o‘zbek tilida mag‘lubiyatni ifodalash vositasi yo‘q” degan mazmunda tushunish mumkin emas. Lakuna konseptual emas, *obrazli-madaniy*: “hal qiluvchi mag‘lubiyat” mazmuni erkin yoki boshqa frazeologik vositalar orqali berilishi mumkin, biroq ingliz birlikdagi ayni tarixiy kod qiyosiy korpusda takrorlanmaydi.

Bunday holat tarjimada ikki strategiyani talab qiladi: agar tarixiy obraz matnning stilistik vazifasi uchun muhim bo‘lsa, toponim saqlanib, kontekst orqali anglatilishi mumkin; agar asosiy maqsad tez va tabiiy mazmun uzatish bo‘lsa, nishon tildagi “hal qiluvchi mag‘lubiyat” mazmunini beradigan funksional vosita tanlanadi. Demak, lakuna tarjimasizlik emas, balki obraz darajasidagi nomuvofiqlikni bildiradi.

Natijalar va muhokama. Tahlil natijalari frazeologik ekvivalentlikning ko‘p qatlamli ekanini ko‘rsatdi. *“Temirni qizig‘ida bosmoq”* va *“strike while the iron is hot”*da deyarli barcha asosiy qatlamlar mos keladi. *“Tepa sochi tik bo‘lib ketdi”* va *“make someone’s hair stand on end”*da esa ayni somatik obraz ikki xil emotsional nishonni faollashtiradi. *“Qo‘lini yuvib, qo‘ltig‘iga urmoq”* va *“wash your hands of”* protsessual obrazni ulashadi, biroq ijtimoiy-semantik markazi farq qiladi. *“Do‘ppisini osmonga otmoq”* va *“in seventh heaven”*da denotativ yadro hamda vertikal yuqorilik sxemasi yaqin, milliy obraz esa boshqa. *“Meet your Waterloo”* esa tanlangan qiyosiy materialda obrazli-madaniy lakunani namoyon qiladi.

Bu natijalar semantik izomorfizmni faqat “bir xil tarjima” bilan belgilash noto‘g‘ri ekanini ko‘rsatadi. Qiyosiy maqomni aniqlashda kamida uchta savol birgalikda hal qilinishi zarur: birliklar *nimani* anglatadi, bu ma’no *qanday obraz orqali* motivatsiyalangan va konkret vaziyatda *nima qiladi*. Aynan uchinchi savol pragmatik qatlamni semantik tavsifga bog‘laydi. Natijada tarjima ekvivalenti bilan kognitiv ekvivalent bir xil tushuncha emasligi ayon bo‘ladi: ayrim birliklar tarjimada muvaffaqiyatli almashishi mumkin, lekin obraz va madaniy tayanchi turlicha qoladi.

1-jadval. Tahlil qilingan birliklarning qiyosiy-semantik profili

O‘zbek birligi	Ingliz birligi	Asosiy umumiylik	Asosiy farq	Qiyosiy maqom
temirni qizig‘ida bosmoq	*strike while the iron is hot*	qulay vaqt + qizigan temir obrazi	tilga xos shakliy realizatsiya	semantik-obrazli izomorfizm
tepa sochi tik bo‘lib ketdi	*make someone’s hair stand on end*	sochning tik turishi	g‘azab ↔ qo‘rquv/dahshat	obraz izomorfizmi, semantik divergensiya
qo‘lini yuvib, qo‘ltig‘iga urmoq	*wash your hands of*	qo‘l yuvish orqali ajralish	ishonch/e’tibor ↔ mas’uliyat	qisman muvofiqlik
do‘ppisini osmonga otmoq	*in seventh heaven*	kuchli quvonch + yuqorilik	do‘ppi obrazi ↔ diniy-kosmologik obraz	funksional-semantik yaqinlik

O‘zbek birligi	Ingliz birligi	Asosiy umumiylik	Asosiy farq	Qiyosiy maqom
bevosita obrazli ekvivalent aniqlanmadi	*meet your Waterloo*	hal qiluvchi mag‘lubiyat mazmuni	Waterloo tarixiy-toponimik kodi	obrazli-madaniy lakuna

Xulosa. Ingliz va o‘zbek frazeologizmlarini olti qatlamli semantik model asosida tahlil qilish qiyosiy muvofiqlikning oddiy tarjima tengligidan ancha murakkab ekanini ko‘rsatdi. Denotativ yadro birlikning nimani nomlashini belgilasa, obrazli asos va konseptual motivatsiya shu ma’noning qanday kognitiv yo‘l bilan tuzilganini ochadi; baholovchi konnotatsiya va pragmatik kutilma esa birlikning diskursdagi real funksiyasini aniqlashtiradi.

Birinchidan, *“temirni qizig‘ida bosmoq”* va *“strike while the iron is hot”* kabi juftliklarda denotat, obraz va pragmatik yo‘nalishning yuqori darajada mosligi semantik-obrazli izomorfizmni yuzaga keltiradi. Ikkinchidan, *“tepa sochi tik bo‘lib ketdi”* va *“make someone’s hair stand on end”* misoli bir xil somatik tasvir turli emotsional nishonni kodlashi mumkinligini isbotlaydi. Uchinchidan, *“qo‘lini yuvib, qo‘ltig‘iga urmoq”* va *“wash your hands of”* qisman muvofiqlikda umumiy protsessual obrazning turli ijtimoiy-semantik rollarga xizmat qilishini ko‘rsatadi.

To‘rtinchidan, kuchli quvonchni bildiruvchi *“do‘ppisini osmonga otmoq”* va *“in seventh heaven”* funksional jihatdan yaqin bo‘lsa-da, milliy rekvizit hamda obrazning konkret tuzilishi bilan farqlanadi. Beshinchidan, *“meet your Waterloo”* singari tarixiy-toponimik birliklarda konseptual mazmun boshqa tilda ifodalanishi mumkin, ammo ayni obrazning yo‘qligi obrazli-madaniy lakunani hosil qiladi.

Shunday qilib, frazeologik qiyoslash uchun eng maqbul tamoyil **“ma’no → obraz → motivatsiya → baho → skript → pragmatik kutilma”** ketma-ketligidir. Ushbu model qiyosiy frazeologiyada soxta ekvivalentlarni kamaytirish, tarjimada funksional tanlovni asoslash va madaniy talqinni empirik dalildan ajratmaslik imkonini beradi. Kelgusida modelni parallel korpus va autentik diskurs materialida sinash frazeologik skriptlarning kontekstga ko‘ra qaysi qatlamlari ko‘proq faollashishini statistik jihatdan aniqlash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Goddard C. Ethnopragmatics: A New Paradigm // Ethnopragmatics: Understanding Discourse in Cultural Context / ed. by C. Goddard. – Berlin; New York: Mouton de Gruyter, 2006. – P. 1–30.

2. Goddard C., Wierzbicka A. Cultural Scripts: What Are They and What Are They Good For? // Intercultural Pragmatics. – 2004. – Vol. 1, No. 2. – P. 153–166.

3. Kövecses Z. Metaphor and Culture // Acta Universitatis Sapientiae, Philologica. – 2010. – Vol. 2, No. 2. – P. 197–220.

4. Petruck M. R. L. Frame Semantics // Handbook of Pragmatics / ed. by J. Verschueren, J.-O. Östman, J. Blommaert, C. Bulcaen. – Philadelphia: John Benjamins, 1996. – P. 1–8.

5. Piirainen E. Figurative Phraseology and Culture // Phraseology: An Interdisciplinary Perspective / ed. by S. Granger, F. Meunier. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins, 2008. – P. 207–228.

6. Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Rixsiyeva K. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – 636 b.

7. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. – 92 b.

8. Schank R. C., Abelson R. P. Scripts, Plans, Goals, and Understanding: An Inquiry into Human Knowledge Structures. – Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 1977.

9. Siefring J. (ed.). The Oxford Dictionary of Idioms. – 2nd ed. – Oxford: Oxford University Press, 2004.

UO‘K 81

BOLALAR ADABIYOTI TARJIMASIDA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH: INSON VA GENERATIV SUN’IY INTELLEKT TARJIMA STRATEGIYALARINING QIYOSIY TAHLILI

Xamidova Mohinaxon Alisherovna,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
“Ingliz tili amaliy tarjima” kafedrasi dotsenti v.b. f.f.f.d (PhD)
nw70182@gmail.com

Annotatsiya. *So‘nggi yillarda generativ sun’iy intellekt (ChatGPT, Gemini kabi katta til modellari) tarjima amaliyotini jiddiy o‘zgartirmoqda. Biroq badiiy, xususan, bolalar adabiyoti tarjimasida ularning roli va sifati hali ilmiy munozarali masala bo‘lib qolmoqda. Ushbu maqola bolalar adabiyoti tarjimasida inson va generativ sun’iy intellekt strategiyalarini qiyosiy tahlil qilish orqali ularning afzalliklari va cheklovlarini aniqlashga qaratilgan. Maqola OAK talablariga muvofiq kirish, adabiyotlar tahlili, tadqiqot metodologiyasi, natijalar tahlili, muhokama va xulosa qismlaridan iborat holda qayta tuzilgan.*

Kalit so‘zlar: *bolalar adabiyoti tarjimasi, generativ sun’iy intellekt, inson tarjimasi, tarjima strategiyalari, madaniy moslashuv, lingvistik ekvivalentlik.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ПЕРЕВОДЕ ДЕТСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ СТРАТЕГИЙ ПЕРЕВОДА ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО И ГЕНЕРАТИВНОГО ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

Аннотация. *В последние годы генеративный искусственный интеллект (крупные языковые модели, такие как GPT, Gemini) существенно меняет практику перевода. Однако их роль и качество в художественном переводе, в частности в переводе детской литературы, остаются предметом научной дискуссии. Данная статья направлена на выявление преимуществ и ограничений человеческого и генеративного ИИ-перевода детской литературы посредством их сопоставительного анализа. Статья реструктурирована в соответствии с требованиями ВАК и состоит из введения, обзора литературы, методологии исследования, анализа результатов, обсуждения и заключения.*

Ключевые слова: *перевод детской литературы, генеративный искусственный интеллект, перевод человеком, стратегии перевода, культурная адаптация, лингвистическая эквивалентность.*

USE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE TRANSLATION OF CHILDREN'S LITERATURE: A COMPARATIVE ANALYSIS OF HUMAN AND GENERATIVE ARTIFICIAL INTELLIGENCE TRANSLATION STRATEGIES

Abstract. *In recent years, generative artificial intelligence (large language models such as GPT and Gemini) has significantly transformed translation practice. However, their role and quality in literary translation, particularly in the translation of children's literature, remain a matter of scholarly debate. This article aims to identify the advantages and limitations of human and generative AI translation of children's literature through a comparative analysis of their strategies. In accordance with the requirements of the Higher Attestation Commission, the article is restructured into introduction, literature review, research methodology, results and analysis, discussion, and conclusion.*

Keywords: *children's literature translation, generative artificial intelligence, human translation, translation strategies, cultural adaptation, linguistic equivalence.*

Kirish. So‘nggi yillarda sun’iy intellektning, xususan, generativ sun’iy intellekt texnologiyalarining (masalan, ChatGPT, Gemini va boshqa yirik til modellari) jadal rivojlanishi tarjima amaliyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu texnologiyalar turli sohalardagi matnlarni tezkor va nisbatan sifatli tarjima qilish imkonini berayotgan bo‘lsa-da, badiiy matnlar, ayniqsa bolalar adabiyotini tarjima qilishda ularning samaradorligi hali ham ilmiy bahs-munozaralarga sabab bo‘lmoqda.

Bolalar adabiyoti o‘ziga xos lingvistik, madaniy va pedagogik xususiyatlarga ega bo‘lib, unda madaniy realiyalar, milliy qadriyatlar, hazil, metaforalar, obrazli ifodalar, emotsional ohang hamda didaktik mazmun muhim o‘rin tutadi. Ushbu elementlarni tarjima qilish nafaqat til birliklarini almashtirishni, balki

ularning madaniy va estetik qiymatini saqlab qolishni ham talab etadi. Shu sababli bolalar adabiyoti tarjimasi tarjimondan yuqori darajadagi lingvistik, madaniy va ijodiy kompetensiyani talab qiladi.

Mavjud tadqiqotlarning aksariyati mashina tarjimasi yoki generativ sun’iy intellektning texnik, ilmiy va umumiy matnlarni tarjima qilishdagi imkoniyatlarini o‘rganishga qaratilgan. Bolalar adabiyotini, ayniqsa ingliz–o‘zbek til juftligida generativ sun’iy intellekt yordamida tarjima qilish sifati, qo‘llaniladigan tarjima strategiyalari hamda madaniy va emotsional mazmunning qay darajada saqlanishi masalalari esa yetarli darajada tadqiq etilmagan. Shu munosabat bilan ingliz tilidagi bolalar adabiyoti namunalarining inson tarjimasi va generativ sun’iy intellekt tomonidan yaratilgan tarjimalarini qiyosiy tahlil qilish, ularning lingvistik aniqligi, madaniy mosligi, uslubiy tabiiyligi hamda didaktik va emotsional mazmunni qay darajada saqlab qolishini aniqlash dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi — ingliz–o‘zbek bolalar adabiyoti tarjimasida inson va generativ sun’iy intellekt tarjimalarini qiyosiy tahlil qilish orqali ularning afzalliklari, cheklovlari hamda amaliy qo‘llanish imkoniyatlarini ilmiy asosda aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun tadqiqotda quyidagi vazifalar belgilandi: mavzuga oid nazariy va empirik adabiyotlarni tizimlashtirish; tadqiqot metodologiyasini (material, tahlil usuli, baholash mezonlari) ishlab chiqish; inson va generativ sun’iy intellekt tarjima strategiyalari o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlash; olingan natijalar asosida bolalar adabiyoti tarjimasida sun’iy intellektdan samarali foydalanish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Tarjimashunoslikning klassik nazariy asoslari J.C. Catfordning lingvistik tarjima nazariyasi [2], R. Jakobsonning tarjimaning lingvistik jihatlariga oid tadqiqoti [4], G. Touryning deskriptiv tarjimashunoslik konsepsiyasi [7] hamda L. Venutining tarjimonning "ko‘rinmasligi" nazariyasida [8] shakllangan. J. Mundayning tarjimashunoslik nazariyalari va amaliyotiga bag‘ishlangan umumlashtiruvchi tadqiqoti [26], A. Pymning tarjima nazariyalarini tizimli tahlil qiluvchi ishi [27], shuningdek B. Hatim va I. Masonning diskurs va tarjimon o‘rtasidagi munosabatni o‘rganuvchi tadqiqoti [33] mazkur tadqiqot uchun umumnazariy kontekstni shakllantiradi. A. Lefeverening tarjima, qayta yozish va adabiy shuhratni manipulyatsiya qilish konsepsiyasi [28] esa tarjimonning ijodiy va madaniy vositachi sifatidagi rolini asoslab beradi, bu ayniqsa bolalar adabiyoti tarjimasi kontekstida muhim ahamiyatga ega.

Tarjima strategiyalari sohasida J.-P. Vinay va J. Darbelnetning fransus va ingliz tillari qiyosiy stilistikasiga asoslangan usullari (so‘zma-so‘z tarjima, transpozitsiya, modulatsiya, ekvivalensiya, adaptatsiya) [9], P. Newmarkning semantik va kommunikativ tarjima nazariyasi [5], shuningdek E.A. Nida va C.R. Taberning dinamik ekvivalentlik konsepsiyasi [6] mazkur tadqiqot uchun asosiy nazariy poydevor bo‘lib xizmat qiladi. M. Bakerning ekvivalentlik darajalari va madaniy birliklarni tarjima qilish strategiyalari ham tahlil metodologiyasida muhim o‘rin tutadi [1], J. Housening tarjima sifatini baholash modeli esa [3] baholash mezonlarini ishlab chiqishga asos bo‘ldi.

Bolalar adabiyoti tarjimasi bo‘yicha maxsus adabiyotlarda R. Oittinenning bolalar uchun tarjima qilish nazariyasi [14], Z. Shavitning bolalar adabiyoti poetikasiga oid tadqiqoti [16], G. Latheyning bolalar adabiyoti tarjimasi bo‘yicha qo‘llanmasi [17], G. Klingbergning tarjimonlar qo‘lidagi bolalar adabiyoti tadqiqoti [18] hamda M. Nikolajevaning bolalar adabiyotini kognitiv jihatdan o‘rganishga bag‘ishlangan ishi [15] alohida ahamiyatga ega. T. Puurtinenning bolalar adabiyoti tarjimasidagi nazariy yondashuvlar va empirik tadqiqotlarni umumlashtiruvchi ishi [29] hamda E. O‘Sullivanning qiyosiy bolalar adabiyotiga bag‘ishlangan tadqiqoti [30] bolalar adabiyoti tarjimasining xalqaro va qiyosiy o‘lchamlarini yoritadi. Ushbu manbalar bolalar adabiyoti tarjimasining o‘ziga xos murakkabligini — madaniy realiyalar, hazil, metafora, emotsional ohang va didaktik mazmunni saqlab qolish zaruratini — asoslab beradi.

Zamonaviy mashina tarjimasi va generativ sun’iy intellekt yo‘nalishida A. Vaswani va hammualliflarining transformer arxitekturasiga oid asosiy ishi [19], OpenAI tomonidan e'lon qilingan GPT-4 texnik hisoboti [20], S. Bubeck va hammualliflarining GPT-4 imkoniyatlarini o‘rganuvchi tadqiqoti [21], T.B. Brown va hammualliflarining yirik til modellari bo‘yicha ishi [22] hamda M. Karpinska, M. Iyyer va boshqalarning yirik til modellari yordamida mashina tarjimasidagi so‘nggi yutuqlarga oid tadqiqoti [23] generativ sun’iy intellektning texnik salohiyatini ochib beradi. P. Koehnning neyron mashina tarjimasiga bag‘ishlangan monografiyasi [25], S. Dohertyning tarjima texnologiyalarining tarjima jarayoni va mahsulotiga ta’sirini o‘rganuvchi tadqiqoti [12], M. Popovichning mashina tarjimasi sifatini baholashda xatolar tasnifi bo‘yicha ishi [24], shuningdek M. O‘haganning [10] va D. Kennyning [11] tarjima texnologiyalari va foydalanuvchilar imkoniyatlariga oid tadqiqotlari, L. Bowker va J. Buitrago Cironing mashina tarjimasi savodxonligiga bag‘ishlangan ishi [13] mazkur sohaning amaliy-texnologik jihatlarini yoritadi. Mashina tarjimasi sifatini miqdoriy baholashning klassik usuli sifatida K. Papineni va hammualliflari tomonidan taklif etilgan BLEU metrikasi [31] keng qo‘llaniladi, biroq S. Castilho va hammualliflarining tadqiqoti [32] neyron mashina tarjimasi badiiy matnlar uchun hali ham yetarli sifatni ta’minlamasligini ko‘rsatadi, bu esa mazkur tadqiqotning dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, tadqiqotlarning asosiy qismi texnik, ilmiy, biznes va umumiy mazmundagi matnlar tarjimasiga qaratilgan boʻlib, badiiy tarjima, ayniqsa bolalar adabiyotini generativ sun'iy intellekt yordamida tarjima qilish masalalari nisbatan kam oʻrganilgan. Bundan tashqari, mavjud tadqiqotlarning aksariyati ingliz–fransuz, ingliz-ispan yoki ingliz-xitoy kabi resurslarga boy til juftliklariga bagʻishlangan, ingliz-oʻzbek kabi resurslari cheklangan til juftligida generativ sun'iy intellektning bolalar adabiyoti tarjimasidagi imkoniyatlari va cheklovlari esa yetarli darajada empirik tadqiq etilmagan. Inson tarjimonlari va generativ sun'iy intellekt tomonidan qoʻllaniladigan tarjima strategiyalarini qiyosiy tahlil qilishga, ularning madaniy birliklar, emotsional ifodalar, hazil va didaktik mazmunni qay darajada saqlab qolishini baholashga qaratilgan ilmiy izlanishlar esa deyarli mavjud emas. Mazkur maqola aynan shu ilmiy boʻshliqni toʻldirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot quyidagi ilmiy savollarga javob topishga qaratilgan: 1) generativ sun'iy intellekt ingliz tilidagi bolalar adabiyotini oʻzbek tiliga inson tarjimonlariga nisbatan qanchalik aniq tarjima qila oladi; 2) ingliz–oʻzbek bolalar adabiyoti tarjimasida generativ sun'iy intellekt va inson tarjimonlari qanday tarjima strategiyalaridan foydalanadi; 3) generativ sun'iy intellekt madaniy realiyalar, frazeologik birliklar va milliy-madaniy xususiyatlarni qay darajada saqlab qoladi; 4) generativ sun'iy intellekt hazil, metafora, obrazli ifodalar va emotsional mazmunni inson tarjimonlari bilan taqqoslaganda qanchalik samarali tarjima qiladi; 5) qaysi yondashuv — inson tarjimasi yoki generativ sun'iy intellekt yordamidagi tarjima — oʻzbek tilining tabiiyligi, ravonligi va madaniy mosligini yaxshiroq ta'minlaydi; 6) bolalar adabiyotini tarjima qilishda generativ sun'iy intellektdan foydalanishning asosiy afzalliklari, cheklovlari va amaliy istiqbollari nimalardan iborat.

Mazkur tadqiqot ingliz tilidan oʻzbek tiliga bolalar adabiyotini tarjima qilishda generativ sun'iy intellekt va inson tarjimonlari faoliyatini qiyosiy tahlil qilishga qaratilgan sifat (qualitative) tadqiqot dizayniga asoslanadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi tarjima strategiyalari, lingvistik aniqlik, madaniy moslashuv hamda uslubiy sifat jihatidan inson va sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan tarjimalar oʻrtasidagi oʻxshashlik va farqlarni aniqlashdan iborat.

Tadqiqot korpusi ingliz tilida yozilgan bolalar adabiyotining tanlangan klassik namunalaridan iborat boʻladi: Charlie and the Chocolate Factory (Roald Dahl), Matilda (Roald Dahl), The Gruffalo (Julia Donaldson), The Very Hungry Caterpillar (Eric Carle) va Winnie-the-Pooh (A. A. Milne). Ushbu asarlar madaniy realiyalar, hazil, metaforalar, obrazli ifodalar, emotsional ohang va didaktik mazmun kabi tarjima nuqtai nazaridan murakkab birliklarni oʻz ichiga olganligi, shuningdek xalqaro miqyosda keng oʻrganilganligi sababli qiyosiy tahlil uchun mos deb hisoblanadi. Har bir asar boʻyicha ikki xil tarjima varianti tahlil qilinadi: nashr etilgan yoki professional tarjimon tomonidan tayyorlangan inson tarjimasi hamda bir xil manba matn va bir xil koʻrsatmalar (promptlar) asosida ChatGPT, Gemini yoki boshqa generativ sun'iy intellekt tizimlari tomonidan yaratilgan oʻzbekcha tarjima.

Ma'lumotlarni tahlil qilishda qiyosiy sifat tahlili (comparative qualitative content analysis) usulidan foydalaniladi. Inson tarjimonlari va generativ sun'iy intellekt qoʻllagan tarjima strategiyalari Vinay va Darbelnetning tarjima usullari [9], Newmarkning semantik va kommunikativ tarjima nazariyasi [5] hamda Bakerning ekvivalentlik va madaniy birliklarni tarjima qilish strategiyalari [1] asosida tahlil qilinadi. Tarjimalar quyidagi mezonlar boʻyicha baholanadi: aniqlik (manba matn mazmunining toʻgʻri yetkazilgani), ravonlik (tarjimaning oʻzbek tilidagi tabiiyligi), madaniy moslashuv (madaniy birliklarning saqlanishi yoki moslashtirilishi), emotsional ohang (hissiy ta'sirning toʻgʻri aks ettirilishi) va uslub (bolalar adabiyotiga xos badiiy ifoda vositalarining saqlanishi). Sifat mezonlariga qoʻshimcha ravishda, zarur hollarda Papineni va hammualliflari taklif etgan BLEU kabi miqdoriy metrikalardan [31] yordamchi koʻrsatkich sifatida foydalanish koʻzda tutiladi, biroq badiiy matn xususiyatlarini hisobga olgan holda asosiy baholash sifat tahliliga asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta'minlash maqsadida barcha tarjimalar oldindan belgilangan tahlil mezonlari asosida baholanadi, zarur hollarda professional tarjimonlar yoki tarjimashunos olimlarning ekspert xulosalari jalb qilinadi. Mazkur tadqiqotda nashr etilgan adabiy asarlar hamda generativ sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan tarjimalar faqat ilmiy maqsadlarda tahlil qilinadi; barcha mualliflar, tarjimonlar va foydalanilgan manbalar xalqaro akademik va etik me'yorlarga muvofiq ravishda toʻliq koʻrsatiladi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Tadqiqot hozirgi bosqichda korpus tahlilining dastlabki, nazariy-tavsifiy natijalarini oʻz ichiga oladi; quyida keltirilgan xulosalar mavzuga oid adabiyotlar tahlili va tanlangan nazariy modellar asosida shakllantirilgan boʻlib, keyingi bosqichda empirik korpus tahlili orqali sinovdan oʻtkaziladi.

Adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, generativ sun'iy intellekt texnik jihatdan aniq va tezkor tarjima yaratishda samarali boʻlsa-da [20; 21; 22], badiiy matnlarda, xususan, bolalar adabiyotida madaniy

realiyalar, hazil, metafora va emotsional ohangni to‘liq uzatishda inson tarjimonlardan ortda qolishi kutilmoqda [14; 16; 17]. Bunga sabab, Vinay va Darbelnet [9] ta’kidlaganidek, madaniy va uslubiy moslashuv adaptatsiya va modulatsiya kabi ongli ijodiy tanlovlarni talab qiladi, generativ sun’iy intellekt esa ko‘proq literal (so‘zma-so‘z) va transpozitsiya usullariga tayanadi, bu esa matnning badiiy qiymatini pasaytirishi mumkin.

Ingliz–o‘zbek kabi resurslari cheklangan til juftliklarida generativ sun’iy intellekt xatolarga moyilligi kuzatiladi, xususan frazeologik birliklar va madaniy ifodalarni tarjima qilishda qiyinchiliklarga duch kelishi kutilmoqda [24; 25]. Bu, Popović [24] ko‘rsatganidek, mashina tarjimasi tizimlarining kam resursli til juftliklari uchun yetarli darajada o‘qitilmaganligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Tadqiqotning kutilayotgan ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat: birinchidan, ingliz–o‘zbek til juftligida bolalar adabiyotini tarjima qilishda generativ sun’iy intellektning tarjima sifati, aniqligi va samaradorligi ilk bor kompleks ravishda baholanadi; ikkinchidan, inson tarjimonlari va generativ sun’iy intellekt qo‘llaydigan tarjima strategiyalari qiyosiy tahlil qilinib, ularning o‘xshash va farqli jihatlari ilmiy asosda aniqlanadi; uchinchidan, madaniy realiyalar, hazil, metaforalar, emotsional ifodalar va didaktik mazmunning tarjimada saqlanish darajasini baholash uchun ilmiy mezonlar takomillashtiriladi hamda generativ sun’iy intellekt yordamida badiiy tarjimani baholashning konseptual modeli taklif etiladi; to‘rtinchidan, ingliz–o‘zbek bolalar adabiyoti tarjimasida generativ sun’iy intellektdan samarali foydalanish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Muhokama. Olingan dastlabki natijalar adabiyotlar tahlilida keltirilgan nazariy qarashlarni bir necha jihatdan tasdiqlaydi va kengaytiradi. Oittinen [14] va Shavit [16] tomonidan ilgari surilgan g‘oya — bolalar adabiyoti tarjimasi shunchaki lingvistik almashtirish emas, balki madaniy va pedagogik moslashtirish jarayoni ekanligi — ushbu tadqiqotda generativ sun’iy intellektning cheklovlarini tushuntirishning nazariy asosi sifatida xizmat qiladi: sun’iy intellekt tizimlari matn mazmunini aniq uzatishga qodir bo‘lsa-da, o‘quvchining yosh xususiyatlari, pedagogik maqsad va madaniy moslikni hisobga oluvchi ongli ijodiy qarorlar qabul qilishda inson tarjimoniga teng kela olmaydi. Bu xulosa Puurtinen [29] va O‘Sullivan [30] tomonidan ta’kidlangan — bolalar adabiyoti tarjimasi maqsadli auditoriyaning yosh va madaniy ehtiyojlarini hisobga oluvchi maxsus strategiyalarni talab qiladi, degan qarash bilan ham uyg‘unlashadi.

Shu bilan birga, Doherty [12] va Koehn [25] tomonidan qayd etilgan texnologik yutuqlar generativ sun’iy intellektning tezkorlik va dastlabki tarjima variantini tayyorlashdagi afzalliklarini ko‘rsatadi. Castilho va hammualliflarining tadqiqoti [32] shuni ko‘rsatadiki, neyron mashina tarjimasi umumiy matnlar uchun sezilarli yutuqlarga erishgan bo‘lsa-da, badiiy va adabiy matnlar tarjimasida hali ham inson tarjimasi darajasiga yetmagan — bu xulosa mazkur tadqiqotning bolalar adabiyoti bo‘yicha kutilayotgan natijalari bilan mos keladi. Shu nuqtayi nazardan, tadqiqot natijalari bolalar adabiyoti tarjimasida gibrid yondashuvni tavsiya qiladi: generativ sun’iy intellekt dastlabki tarjima variantini tayyorlashda ishtirok etadi, inson tarjimon esa tahrir, madaniy moslashtirish va badiiy sifatni ta’minlashda hal qiluvchi rolni o‘ynaydi. Bunday yondashuv Bowker va Buitrago Ciro [13] tomonidan tavsiya etilgan "mashina tarjimasi savodxonligi" kontseptsiyasi bilan ham uyg‘unlashadi — ya’ni tarjimon sun’iy intellekt natijasini tanqidiy baholay olishi va zarur o‘zgartirishlarni kiritishi lozim.

Diskussion nuqtai nazardan, ingliz–o‘zbek kabi kam resursli til juftligi uchun generativ sun’iy intellektning cheklangan samaradorligi alohida e'tiborga loyiq: bu, Karpinska va boshqalar [23] ta’kidlaganidek, yirik til modellarining o‘quv korpusidagi o‘zbek tili resurslarining nisbatan cheklanganligi bilan izohlanishi mumkin. Bu holat, o‘z navbatida, o‘zbek tili kabi resurslari cheklangan tillarda sun’iy intellekt asosidagi tarjima tizimlarini takomillashtirish bo‘yicha kelgusi tadqiqotlarning zarurligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Ushbu maqola bolalar adabiyoti tarjimasida inson va generativ sun’iy intellekt strategiyalarini qiyosiy tahlil qilish orqali ularning afzalliklari va cheklovlarini aniqlashga qaratilgan. O‘tkazilgan nazariy tahlil natijalari asosida quyidagi xulosalarni shakllantirish mumkin:

Birinchidan, generativ sun’iy intellekt texnik jihatdan aniq va tezkor tarjima yaratishda samarali bo‘lsa-da, badiiy matnlarda, xususan, bolalar adabiyotida madaniy realiyalar, hazil, metafora va emotsional ohangni to‘liq uzatishda inson tarjimonlardan ortda qolishi kuzatiladi.

Ikkinchidan, inson tarjimonlari Vinay va Darbelnetning adaptatsiya, modulatsiya va ekvivalensiya kabi strategiyalarini ongli ravishda qo‘llash orqali madaniy va uslubiy moslashuvni yaxshiroq ta’minlaydi [9]; generativ sun’iy intellekt esa ko‘proq literal va transpozitsiya usullariga tayanadi, bu esa ba’zan matnning badiiy qiymatini pasaytiradi.

Uchinchidan, ingliz–o‘zbek kabi resurslari cheklangan til juftliklarida generativ sun’iy intellekt hali ham xatolarga moyil bo‘lib, frazeologik birliklar va madaniy ifodalarni tarjima qilishda qiyinchiliklarga duch keladi [24].

To‘rtinchidan, tadqiqot bolalar adabiyoti tarjimasida gibrid yondashuvni tavsiya qiladi: generativ sun’iy intellekt dastlabki tarjima variantini tayyorlashda, inson tarjimon esa tahrir, madaniy moslashtirish va badiiy sifatni ta’minlashda ishtirok etadi.

Beshinchidan, mazkur tadqiqot tarjimashunoslik nazariyasiga quyidagi hissalarni qo‘shadi: (a) bolalar adabiyoti tarjimasida sun’iy intellekt baholashning konseptual modeli; (b) ingliz–o‘zbek til juftligi uchun empirik ma’lumotlar bazasi; (c) tarjima ta’limi va amaliyoti uchun metodik tavsiyalar.

Kelajakda ushbu yo‘nalishda keng ko‘lamli korpus asosida miqdoriy tadqiqotlar olib borish, shuningdek, turli generativ sun’iy intellekt modellari (GPT-4, Gemini, Claude va boshqalar) o‘rtasida qiyosiy tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR:

1. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. 3rd ed. — New York: Routledge, 2018. — 369 b.

2. Catford J.C. A Linguistic Theory of Translation. — Oxford: Oxford University Press, 1965.

3. House J. Translation Quality Assessment: Past and Present. — London: Routledge, 2015.

4. Jakobson R. On Linguistic Aspects of Translation // On Translation / Ed. by R.A. Brower. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 1959. — B. 232–239.

5. Newmark P. A Textbook of Translation. — New York: Prentice Hall, 1988.

6. Nida E.A., Taber C.R. The Theory and Practice of Translation. — Leiden: Brill, 1969.

7. Toury G. Descriptive Translation Studies and Beyond. Revised ed. — Amsterdam: John Benjamins, 2012.

8. Venuti L. The Translator’s Invisibility: A History of Translation. 3rd ed. — London: Routledge, 2018.

9. Vinay J.-P., Darbelnet J. Comparative Stylistics of French and English: A Methodology for Translation. — Amsterdam: John Benjamins, 1995. (Original work published 1958)

10. O‘Hagan M. Massively Open Translation: Unpacking the relationship between technology and Translation. — London: Routledge, 2016.

11. Kenny D. Machine Translation for Everyone: Empowering Users in the Age of Artificial Intelligence. — Berlin: Language Science Press, 2022.

12. Doherty S. The Impact of Translation Technologies on the Process and Product of Translation // International Journal of Communication. — 2017. — Vol. 11. — B. 947–969.

13. Bowker L., Buitrago Ciro J. Machine Translation and Global Research: Towards Improved Machine Translation Literacy in the Scholarly Community. — Bingley: Emerald Publishing, 2019.

14. Oittinen R. Translating for Children. — New York: Garland Publishing, 2000.

15. Nikolajeva M. Reading for Learning: Cognitive Approaches to Children’s Literature. — Amsterdam: John Benjamins, 2014.

16. Shavit Z. Poetics of Children’s Literature. — Athens: University of Georgia Press, 2009.

17. Lathey G. (Ed.). The Routledge Handbook of Translation and Children’s Literature. — London: Routledge, 2016.

18. Klingberg G. Children’s Fiction in the Hands of the Translators. — Lund: CWK Gleerup, 1986.

19. Vaswani A. et al. Attention Is All You Need // Advances in Neural Information Processing Systems (NeurIPS). — 2017.

20. OpenAI. GPT-4 Technical Report. — 2023.

21. Bubeck S. et al. Sparks of Artificial General Intelligence: Early Experiments with GPT-4. — 2023.

22. Brown T.B. et al. Language Models are Few-Shot Learners // Advances in Neural Information Processing Systems (NeurIPS). — 2020.

23. Karpinska M., Iyyer M. et al. Recent Advances in Large Language Models for Machine Translation // Computational Linguistics. — 2024.

24. Popović M. Error Classification and Error Analysis for Machine Translation Quality Assessment // Translation Quality Assessment: From Principles to Practice. — 2018.

25. Koehn P. Neural Machine Translation. — Cambridge: Cambridge University Press, 2020.

26. Munday J. Introducing Translation Studies: Theories and Applications. 4th ed. — London: Routledge, 2016.

27. Pym A. Exploring Translation Theories. 2nd ed. — London: Routledge, 2014.

28. Lefevere A. Translation, Rewriting, and the Manipulation of Literary Fame. — London: Routledge, 1992.

29. Puurtinen T. Translating Children's Literature: Theoretical Approaches and Empirical Studies // The Translation of Children's Literature: A Reader / Ed. by G. Lathey. — Bristol: Multilingual Matters, 2006. — B. 54–64.

30. O'Sullivan E. Comparative Children's Literature. — London: Routledge, 2005.

31. Papineni K., Roukos S., Ward T., Zhu W.-J. BLEU: A Method for Automatic Evaluation of Machine Translation // Proceedings of the 40th Annual Meeting of the Association for Computational Linguistics (ACL). — 2002. — B. 311–318.

32. Castilho S., Moorkens J., Gaspari F., Calixto I., Tinsley J., Way A. Is Neural Machine Translation the New State of the Art? // The Prague Bulletin of Mathematical Linguistics. — 2017. — № 108. — B. 109–120.

33. Hatim B., Mason I. Discourse and the Translator. — London: Longman, 1990.

UO‘K 81

FRAZEOLOGIZMLAR OLAMNI IDROK ETISH USULI SIFATIDA

Yuldasheva Dilorom Nigmatovna,
Buxoro davlat universiteti professori, f.f.d. (DSc)
yuldasheva21dilorom@gmail.com
Asadova Shahlo Akmal qizi,
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti
asadova90shakhlo@gmail.com

Annotatsiya. *Olamning lisoniy manzarasi deganda insonning borliqni til vositasida idrok etishi, anglash va tasvirlash usullarining majmuyi tushuniladi. Unda frazeologik birliklar (iboralar) alohida o‘rin egallaydi, chunki ular xalqning tarixiy tajribasi, milliy tafakkuri, qadriyatlari va hissiy munosabatlarini ixcham hamda obrazli tarzda ifodalaydi. Zotan, tilni o‘rganishda ishtirok etadigan har bir fanning tilga nisbatan o‘z munosabati borligi ma’lum. Bu munosabat muayyan ijtimoiy fanning tilning qaysi aspektini o‘rganishi bilan xarakterlanadi. Frazeologiya tilshunoslikning alohida sohasi sifatida nafaqat frazeologik birliklarning ma’no-mohiyatini, balki tahlil birliklariga xos psixofizik xususiyatlarni aniq formalarda tahlilga tortadi. Shu nuqtayi nazardan frazeologizmlarga olamni idrok etish usuli sifatida qarash o‘rinli.*

Kalit so‘zlar: *olamni til vositasida idrok etish, nutq, usul, frazema, ibora, frazemaga xos xususiyatlar.*

ФРАЗЕОЛОГИЗМЫ КАК СПОСОБ ВОСПРИЯТИЯ МИРА

Аннотация. *Под языковой картиной мира понимается совокупность способов, с помощью которых человек воспринимает, осмысляет и описывает действительность посредством языка. Особое место в этой системе занимают фразеологические единицы (идиомы), поскольку они в лаконичной и образной форме отражают исторический опыт народа, его национальный менталитет, ценности и эмоциональное отношение к миру. Действительно, общеизвестно, что каждая дисциплина, занимающаяся изучением языка, имеет свой особый взгляд на этот предмет. Данный подход определяется тем конкретным аспектом языка, который исследует соответствующая общественная наука. Будучи самостоятельной отраслью лингвистики, фразеология анализирует не только значение и сущность фразеологических единиц, но и присущие им психофизические характеристики, причём делает это посредством определённых форм. С этой точки зрения правомерно рассматривать фразеологизмы как способ восприятия мира.*

Ключевые слова*: восприятие мира через язык, речь, метод, фразему, выражение, характеристики фразем.*

PHRASEOLOGICAL UNITS AS A WAY OF PERCEIVING THE WORLD

Abstract. *The linguistic worldview is understood as the set of ways in which a person perceives, conceptualizes, and describes reality through language. Phraseological units (idioms) occupy a special place in this system, as they reflect–in a concise and figurative manner – a people's historical experience, national mentality, values, and emotional attitude toward the world. Indeed, it is well known that every discipline dedicated to the study of language holds its own distinct perspective on the subject. This approach is determined by the specific aspect of language investigated by the relevant social science. As an independent branch of linguistics, phraseology analyzes not only the meaning and essence of phraseological units but also their inherent psychophysical characteristics, doing so through specific forms. From this perspective, it is valid to view phraseological units as a way of perceiving the world.*

Key words*: perception of the world through language, speech, method, phraseme, expression, and characteristics of phrasemes.*

Kirish. Nutq jarayonida shunday vaziyatlar bo‘ladiki, leksikonimizda fikrlarimizni yetarli darajadagi mazmun va ifodalilikni ta’minlab beruvchi so‘zlar yetishmayotgandek tuyiladi. Odatda, nutqimiz to‘g‘ri va mantiqiy, aniq va ta’sirchan bo‘lishi uchun takrorlardan xoli bo‘lishini ta’minlashga harakat qilamiz.

Buning uchun so‘zlovchining so‘z zaxirasi boy bo‘lishi nihoyatda muhim. Aksariyat hollarda ortiqchalilikdan, takrorlardan xalos bo‘lish uchun olmoshlardan, sinonimik qatorlardan foydalanish ma’qul

ko‘riladi. Zotan, bu hamisha ham yetarli bo‘lmasligi, so‘zlovchining o‘zini qoniqtirmasligi mumkin. Bunday vaziyatlarda so‘zlovchi o‘ta samarali ifoda vositalariga murojaat qilishi kutilgan natijani berishi tayin. Darhaqiqat, kundalik nutqimizda iboralarni so‘zlar bilan, so‘z birikmalari bilan teng baravar qo‘llayveramiz. Jumladan, *bir og‘iz* (juda oz, jindak), *bir pul* (qadr-qiymatsiz), *basharasi sovuq* (yoqimsiz, badhazm), *jon kirmoq* (yayramoq), *kalavaning uchini yo‘qotmoq* (gangimoq), *ko‘ngli qattiq* (rahm-shafqatsiz) kabi. Bu bilan biz bir tushunchani bir necha tushunchalar yordamida ifodalash, uni to‘g‘ridan to‘g‘ri emas, balki bilvosita obrazli nomlash imkonini beruvchi lingvistik vositalardan foydalanamiz.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Zotan, inson borliq va uning turli-tuman voqeliklari, munosabat va tushunchalarini sezgi organlari vositasida, nutqiy muloqot orqali, his etish yoki idrokiy bilimlari natijasida anglaydiki, inson miyasi hamisha (inson o‘z-o‘zi bilan yakka qolganda, hatto uyquga yotganda ham) analiz, sintez holatida faoliyatda bo‘ladi. Rumiy hazratlari yozadilar: “Inson hamisha so‘zlab turadi”. Demak, inson boshqalar bilan muloqotda ma’lum darajada tashqi nutqdan foydalansa, ichki nutqi doimiy ravishda “so‘zlab turadi”. Soha mutaxassislari ta’kidlaganidek, “Insonning sukuti ham so‘zlaydi” [8]. Demak, inson hayotida nutq beqiyos ahamiyat kasb etadi, olamning lisoniy manzarasini hosil qilishda ishtirok etuvchi asosiy omil sanaladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Olamning lisoniy manzarasi, avvalo, tilning grammatik qatlamida namoyon bo‘lib, har bir tilning o‘ziga xos grammatik tuzilishi lisoniy manzaraning xilma-xil bo‘lishida asos vazifasini bajaradi. Masalan, sintaktik jihatdan o‘zbek tilida kesim gapning markazi ekanligi, ingliz yoki rus tili uchun gaplar ega hamda kesim bo‘laklarini taqozo etishi; morfologik jihatdan o‘zbek tilida holat va tovushga taqlidni ifodalovchi birliklar mustaqil so‘z turkumi darajasiga ko‘tarilishi; rus tilida esa, taqlidni ifodalovchi so‘zlar nihoyatda kamligi (M.Saidova tadqiqotida ular sakkizta ekanligi qayd etiladi) sababli ular turkum darajasiga ko‘tarila olmasligi va boshqalar. Bu turli tillarning dunyoni idrok etish usullarining farqini ochib beradi. Tilning so‘z boyligi va ma’nolarni ifodalash usullari dunyoni anglash hamda uning turli jihatlarini ta’riflash imkoniyatini kengaytiradi. Chunonchi, ba’zi tillarda ranglarni ifodalash uchun ko‘proq so‘zlar mavjud bo‘lib, bu ularning dunyoning ranglarini farqlash qobiliyatini aks ettiradi. Yoki hayvonlarga xos ovozlarning turli tillarda turlicha tadqiq etilishi xalqlarning olamni anglashdagi lisoniy qobiliyatiga asoslanadi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Tilning metaforik qurilishi va obrazli tasvirlarning vujudga kelishi ham bizning olamni idrok etishdagi tafakkurimiz va tasavvurimizni yoritishda muhim rol o‘ynaydi. Jumladan,

Yangi tong otmoqda*! Go‘zal beqiyos,*
Alvon shafaqlarga burkab osmonni!
Oppoq orzularim gullayver qiyg‘os,
Shodligim jarangi tutsin jahonni!

Birinchi misradagi *yangi tong otmoqda* metaforasi yangi hayot, yangi umidlarning boshlang‘ich nuqtasi o‘laroq tasvirlanmoqda. Unda yashashga ishtiyoq, ko‘tarinkilik ifodalansa, *oppoq orzularim* metaforasida yashash zavqi, orzularga berilishni, *shodligim jarangi* ko‘chimida baxtdan masrurlik hisini anglaymiz.

...sevgilim, axir,
ufqqa cho‘kmoqda qadimiy quyosh*.*
Sevish – og‘ir*,*
hijron *undan-da* ***og‘ir****,*
axir, nega kerak ***behuda ko‘z yosh****...*
Gul xazon bo‘ladi*, yemrilar tosh ham,*
So‘ngiga yetadi boshlangan har ish –
Tug‘ilgan – o‘ladi, boshlangan – tugar...(Karim Bahriyevdan)

Keltirilgan she’riy parchadagi *quyoshning ufqqa cho‘kishi, og‘ir sevish, og‘ir hijron, xazon bo‘lmoq* kabi metaforik birliklar orqali hayotning nihoyasiga yetishi, vaqti qazoning yaqinligi kabi tasvirlar yuzaga keltirilgan.

Yoki *oppoq tong* birligi poklikka ishora qilsa, *qop-qora chodirga o‘rangan zulmat* noxushlikdan darak beradi. Zotan, bu metaforik birliklar o‘quvchiga shunchaki xabar (axborot) yetkazmaydi: axborotni obrazli, o‘quvchining his-tuyg‘ulariga titroq, hayajon beradigan tarzda yetkazadi. Metaforalarga asoslangan obrazli birliklarda tiriklik go‘zal, o‘lim esa, undan-da go‘zalroq ifoda etiladi.

Olamning lisoniy manzarasini anglashda tilning madaniy jihatdan o‘ziga xosligiga e’tibor qaratiladi [6]. Zotan, madaniyatlar xilma-xil, qadriyatlar turlicha. Til madaniyatning ajralmas qismidirki, u elatning milliy tarixi, qadriyatlari, urf-odat-u an’analari, dunyoqarashini aks ettiradi. Ayni paytda, har qanday madaniyat, ma’naviyat, san’at, umuman, ijtimoiylik tilsiz o‘z qimmatini yo‘qotadi. Til madaniyatning

nafaqat ajralmas qismi, balki o‘sha madaniyatning o‘zi hamdir. (Bilamizki, til umumiy tushuncha bo‘lib, uning muayyanlashuvi lison hisoblanadi. Nutqiy qulaylik (nutqiy vaziyat taqozosiga ko‘ra) butunning o‘rnida qismni, qismning o‘rnida butunni atash amaliyotiga yo‘l beradi. Shuning uchun biz, odatda, til deganda ham lisonni atashimizni nazardan qochirmaslik kerak.) Lisoniy birliklar, jumladan, frazemalar va ularning nutqiy voqelanma(ibora)lari ham tilning boshqa tasvir vositalari kabi olamning lisoniy manzarasini anglashda asosiy birliklar sifatida xizmat qiladi.

Xususan, rus tilidagi mavjud frazemalar ham o‘zbek tilidagi kabi bir xilfunksiya bajaradi. Shaxs, predmet, harakat, tushuncha, muayyan voqelik, xarakter-xususiyat bilan bog‘liq birliklarning obrazli ifodasi sifatida qo‘llanuvchi frazemalardan nutqda ko‘chimni, inson hissiyotlarini aks ettirish, satira va yumor vazifasini namoyon etish, qo‘shimcha natija hosil qilish uchun foydalaniladi.

Nutqiy muloqotda frazemalarni qo‘llash orqali qo‘shimcha ma’lumot berish, leksema(so‘z)ning muqobil variantini hosil qilish mumkin. Jumladan, o‘zbek tilidagi *bir o‘q bilan ikki quyonni urmoq* iborasi epchil, uddaburon degan ma’nolarni ifodalasa, rus tilida ushbu birlik *убить двух зайцев одним выстрелом* shaklida qo‘llaniladi va mazmunan aynan o‘zbek tilidagi variantga teng keladi. Frazema – istalgan nutqiy muloqot ko‘rinishini takrorlardan, zerikishdan xalos qilishning ajoyib usuli. Zotan, frazema qo‘llash nutqni jonlantiradi, ta’sirchanlikni oshiradi, ba’zan nutqqa evfemik ruh beradi. Ayniqsa, frazemalar g‘arb mamlakatlarida juda mashhur. U yerda turli sabablarga ko‘ra sudga tez-tez murojaat qilish odat tusiga kirgan, soha vakillari, ko‘pincha, o‘z so‘zlariga ehtiyot bo‘lishlari kerakligi sababli, ular bajonidil frazemalardan foydalanishadi. Chunki iboralar kerakli ma’lumotni yetkazish imkonini beradi va shu bilan birga turli ayblovlarni keltirib chiqaradigan noxush vaziyatlarning oldini oladi. Bu ularning nutqini yumshatishga yordam berishi bilan birga nutqni maqsaddan ham uzoqlashtirmaydi.

Nutqiy muloqot frazemalarini qo‘llanilish xususiyatiga qarab ikki asosiy guruhga ajratish mumkin:

1) og‘zaki va yozma nutqda doimiy qo‘llaniluvchi frazemalar: *e’tibor bermoq* (diqqat bilan qarmoq), *eldan burun* (vaqtidan oldin, barvaqt), *ellik og‘iz* (juda ko‘p), *ko‘zi ilinmoq* (mizg‘imoq, uxlay boshlamoq), *ko‘ngli qora* (yomon niyatli, boshqalarga yaxshilikni ravo ko‘rmaydigan), *ko‘ngli to‘q* (o‘ta xotirjam), *joni uzilmoq* (o‘lmoq), *jon kuydirib* (tirishib, astoydil), *jonidan bezor bo‘loq* (ortiq toqat qilolmasligi tufayli o‘limiga ham rozi bo‘lmoq)va h.k.;

2) badiiy, ilmiy yoki publisistik uslublardagina qo‘llaniluvchi frazemalar: *aql-u hush kemasini g‘arq qilmoq* (xayolchanlik), *iymon xirmonini kuydirmoq* (iymonsizlanmoq), *ko‘zidagi tariqday kirni ko‘rmoq* (suhbatdoshning yomon niyatini sezmoq), *ko‘ngliga o‘rnashib olmoq* (sevmoq), *qonunni ro‘kach qilmoq* (bahona qilmoq), *shubha ostiga tutmoq* (ishonmaslik), *kaftida o‘stirmoq* (avaylamoq), *malomat yukini ko‘tarmoq/ tuhmat toshlari ostida qolmoq* (nohaq ayblanmoq) va h.k.

Nutqimizda yana shunday frazemalar borki, ularni, odatda, sintaktik jihatdan shakllantirib qo‘llaganimizda ham ma’nosi tinglovchi yoki o‘quvchiga tushunarli bo‘ladi, ya’ni ma’nosi suhbatdoshga tezda yetib boradi. Masalan, *Jonga tegdi* (zeriktirdi); *Alimsoqdan qolgan* (juda eski); *Quloq sol* (eshit); *Ishdan chiqardi* (buzdi; yaroqsiz holatga keltirdi); *Imoni komil* (juda ishonadi); *Baxti qaro* (baxtsiz); *Yuragi tosh* (rahmsiz) [5] va h. Bu kabi obrazli ifodalarni kishi tez fahmlaydi, gap nima yoki kim haqida borayotganini bilib turadi.

Muhokama. Nutqimizda matniy frazemalar ham mavjudki, ularning ma’nosini faqat o‘zi qatnashib kelayotgan kontekst ichidagina anglash mumkin bo‘ladi. Masalan, **gap tegmoq** (*Majlisda Xadichaxonga gap tegdi* (*gapirishga imkon berildi*), (*Majlisda Xadichaxonga gap tegdi* (*tanbeh eshitdi*); **et-etidan o‘tib ketmoq/jon-jonidan o‘tib ketmoq** (*Qishning izg‘irini ayolning et-etidan o‘tib ketdi* (jismiga chuqur ta’sir qildi), (*Raisning gapi ayolning jon-jonidan o‘tib ketdi* (ruhiga chuqur ta’sir qildi); **esi og‘moq** (*Zebidan keyin Qurvonbibining esi og‘di* (*jinni bo‘lib qoldi*), (*Parizodning husni halovatini ko‘rgan yigitning esi og‘di* (*mahliyo bo‘lib qoldi*). Bu kabi misollarni ko‘plab keltirish mumkin.

Tilshunos olim Yorqinjon Odilov to‘g‘ri ta’kidlaganidek: “Tilimizdagi *ko‘z ochib ko‘rgan, yetti pusht, hunar ko‘rsatdi, ish ko‘rsatdi, oq kiydi, ostona hatladi, ko‘zi yondi, ichagi uzildi* kabi iboralar ham ikki qarama-qarshi ma'noni ifodalay oladi” [9].

Nomi chiqqan/ nom chiqargan/ dong‘i ketgan/ dong‘i chiqqan/ dong taratgan/ nomi mashhur. Variantlilik qatorini hosil qilgan mazkur iboralar hozirgi kunda “yaxshi ishlari, fazilatlari bilan mashhur bo‘lgan” va “nojo‘ya qilig‘i bilan yomonotliq bo‘lgan” ma’nolarini bildiradi. Demak, yaxshi ishlari bilan tanilgan insonning xalq orasida nomi ko‘p tilga olinishi, el orasida nomi ko‘p eslanishi o‘sha kishini mashhurlik shohsupasiga olib chiqadi. Masalan, *Tadbirda nomlari mashhur san’atkorlar ishtirok etishdi*.; *Bolamni shaharda nomi chiqqan repitetorlarda o‘qitaman, deb o‘ylardi Gulbahor*.; *Buxoroning dong‘i ketgan minoralari bor*.

Ba’zi kishilar (ayrim hollarda makon, zamon) yomon ishi, nojo‘ya qilig‘i bilan ham el og‘ziga tushishi, bo‘lmag‘ur ishlar qilib yuradigan kishining ismi “falonchiga o‘xshab”, “pistonchi ham shunaqa

qilgan edi” tarzida har yerda tilga olinaveradi. Ana shu holat nomi chiqqan iborasida “bo‘lmag‘ur ishi, nojo‘ya qilig‘i bilan yomonotliq bo‘lgan” ma’nosini yuzaga keltirgan. Quyidagi misollarda shu ma’noda qo‘llangan: *U plenumda uchinchi sekretarlikka tavsiya qilingan, rayonda suyuqoyoqligi bilan nom chiqargan ayolga qarshi ovoz bergan* (Said Ahmad, Umrim bayoni) *Deylik, aft-angori o‘z zamonasida yoshlarga qarshi tish-tirnog‘i bilan kurashib, “adabiyotning jallodi” sifatida nom chiqargan bir oqsoqolimizga o‘xshasa, loqaydgina, behafsala qo‘l silkib qo‘yishi esa, yana bir dovdirroq ustozimizni yodga solardi* (Erkin A’zam, Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati).

Qisqasi, inson yaxshi ishi bilan ham, yomon qilig'i bilan ham el aro nomi chiqishi, og‘izga tushishi mumkin ekan [9].

Ta’kidlash joizki, nutqda frazemalardan me’yordan ortiq foydalanish kishining aqliy faoliyatga nojo‘ya ta’sir qilishi ham mumkin. Soha mutaxassislari bu borada bir yoki ikkita tavsiflovchi ibora yetarli deb hisoblashadi. Shuningdek, ulardan yonma-yon foydalanmaslik tavsiya etiladi. Frazema biror narsani to‘g‘ridan to‘g‘ri ifodalash o‘rniga aylanma yoki bilvosita ifodalash usulidan foydalanadi. Tabiiyki, bu oddiy tushunchani tasvirlash uchun zarur bo‘lgandan ko‘ra ko‘proq so‘zlardan foydalanishni taqozo etadi. Ulardan foydalanish yozuvchilarga yanada murakkab va nozik ma’no yaratishlariga yoki o‘z yozuvlarida “chuqurlik” hamda mantiqiylikni yetkazishlariga ko‘maklashadi. Jumladan, ayrim obyektlarning shaxs lisoniy olamida idrok etilish holatini kuzataylik:

“*Dunyoni suv bossa, to‘pig‘iga chiqmaydigan*” – frazeologik jihatdan tarkibi bir nechta so‘zlardan iborat bo‘lgan bu turg‘un birikma “o‘ta beg‘am, beparvo” ma’nolarini bildiradiki, uni tushunish uchun tinglovchi (o‘quvchi) “suv bosish”, “to‘piq” birliklarining ma’nosini to‘g‘ri anglashi kerak. Ayni paytda, o‘zbek tilida fikrlaydigan kishining tafakkurida “Dunyoni suv bossa, o‘rdakka ne g‘am”, “O‘z dardi bilan yashaydigan”, “O‘zidan boshqani ko‘zi ko‘rmaydigan” kabi birliklar assotsiatsiyalanishi zarur.

“*Chuchvarani xom sanabsan*” – “xomtama bo‘lma” ma’nosini bildiruvchi mazkur frazema sof ko‘chma ma’noga asoslangan bo‘lib, uni aslo to‘g‘ri ma’noda qo‘llab bo‘lmaydi (odatda, chuchvara (taom nomi) pishirilganda ham, xomligida ham sanalmaydi, demak, bu ibora muayyan mazmunni murakkab tavsiflovchi birliklar sirasiga kiradi.

O‘zbek tilidagi *to‘nini teskari kiymoq* (achchiqlanmoq), *dumi xurjunda* (chala), *anqoning urug‘i (*topilishi qiyin, kamyob narsa)*; arpasini xom o‘rmoq* (nimadir yomonlik qilmoq); *bog‘dan kelsa, tog‘dan kelmoq* (suhbatdoshining gapiga hech aloqasi yo‘q gap-so‘z aytmoq); *puch yong‘oq bilan qo‘ynini to‘ldirmoq* (yolg‘on va’dalar bilan aldamoq); *yer tagida ilon qimirlasa bilmoq* (nihoyatda ziyrak, sezgir) kabi frazeologik birliklar ham muayyan mazmunni murakkab tavsiflovchi birliklar qatorini davom ettiradi.

Frazema obyektning o‘ziga xos xususiyatlarini uzoq eslab qolishga yordam beradi. Muayyan hodisa, tushuncha, narsa, harakat, munosabat kabilarni obrazli tarzda ifodalab, ularning ayrim o‘ziga xos xususiyatlarini bo‘rttirib, tasvirlanayotgan birlik mohiyatini aniqlashni osonlashtiradi [7]. Yozuvchi obyekt yoki hodisa nomini ongimizda hayotning yorqin manzarasini yaratuvchi muhim belgilarning tavsifi bilan almashtirib frazemadan foydalanadi. Masalan,

*Mingboshining **boshiga ne qora kunlar kelmadi**! Yaxshi advokatlar tomonidan bitilgan g‘alati arizalar qanday tergovchilarni keltirmadi! Qanday zo‘r to‘ralar chaqirib so‘ramadilar! Hokim necha martalab g‘azab bilan chaqirtirmadi! Unday vaqtlarda mingboshi Miryoqubning ta’limi bilan hamma savollarga “bilmayman”, deb javob berar yoki biror ayb-isnod qilinsa, tonib tura berardi. Rasmiy so‘roqlar bu xilda borganda, orqadan Miryoqub g‘ayrirasmiy yo‘llar bilan so‘roq berar, bir-ikki kun shaharda qolib, qishloqqa qaytganida, mingboshining **ustidan** har qanday **og‘ir tog‘** ham **ag‘anagan** bo‘lardi*.

(Cho‘lpon. Kecha va kunduz)

Ijodkor “*Mingboshi qiynaldi”* o‘rnida frazemali, jumladan, foydalanishni afzal biladi: “*Mingboshining **boshiga ne qora kunlar kelmadi**!*” yoki ham qo‘li, oyog‘i, ham boshi bo‘lgan Miryoqub qaytganda “…*mingboshining **ustidan** har qanday **og‘ir tog‘** ham **ag‘anagan** bo‘lardi*”. Tabiiyki, frazemali jumla kitobxon(o‘quvchi)ga kuchli ta’sir ko‘rsatadi va tasvirlangan voqelikning kitobxon (o‘quvchi) xotirasida uzoq saqlanib qolishini ta’minlaydi.

Ko‘chma ifoda tushuncha yoki hodisaning ma’nosini saqlab, boshqa narsa haqida gapiradi. Bu o‘rinda yuqorida muayyan mazmunni murakkab tavsiflovchi birliklar qatoriga kiritilgan frazemalar nazarda tutiladi, ya’ni ibora ifodalagan ma’noga uning tarkibidagi birorta ham leksik birlik ishora qilmaydi. Masalan, *po‘sti go‘shtiga kirmoq* (juda yaqin bo‘lmoq), *terisiga somon tiqmoq* (ayamaslik), *sichqonning ini ming tanga bo‘lmoq* (besaranjom bo‘lmoq)*; terisiga sig‘maslik* (nihoyatda xursandlik); *qo‘ltig‘iga suv purkamoq* (xushomad qilmoq); *boshi osmonda* (xursand); *burni ko‘tarilgan* (kekkaygan) kabi frazeologik birliklar va h.k.

Tilda frazemalardan unumli foydalanish ekspressivlikning kuchayishi, nutqning jonli, hissiyotli bo‘lishini ta’minlab beruvchi omil hisoblanadi. Masalan, oddiy nutqda qo‘llanuvchi “Bola juda erkatoy”

jumlasi ushbu tilda majoziylik va hissiylikni ta’minlash maqsadida “Bolaginaning sirkasi suv ko‘tarmaydi” tasviriy ifodasi orqali tasvirlansa, mazmun yanada chuqurlashadi. Obyekt, hodisa, xarakter, xususiyat yoki holatga xos ma’lum sifatni ham ta’kidlab ko‘rsatish uchun iboralardan foydalanish maqsadga muvofiq. Masalan, “aravani quruq olib qochadigan” iborasi “ko‘p yolg‘on ishlatadigan odam” tavsifiga nisbatan ma’no jihatidan kuchliroq. Frazemaning mohiyati obyekt, hodisa, xarakter, xususiyat, holat yoki munosabat ifodasini obrazlilik, hissiy-ta’siriy bo‘yoqda berishida ko‘rinadi. Iboralar nutqimizga shu qadar singib ketganki, ba’zan ishlatayotgan birligimizning ibora ekanligi yodimizga ham kelmaydi. Chunki nutqimizda qo‘llagan frazeologik birliklar ma’nosi suhbatdosh yoki o‘quvchiga so‘zdan-da tezroq yetib boradi. Zotan, u yoki bu muallif tomonidan ishlatiladigan iboralarning ma’nosini yaxshi anglaymiz. Muayyan asar muallifi, ko‘pincha, yangi, o‘z frazemalarini yaratadi va ushbu xususiyatni ta’kidlash chizig‘i bo‘ylab quradi. Azal-azaldan ijodkorlar frazemalarga tez-tez murojaat qilganlarki, ular buni eng ta’sirchan ifoda usullaridan sermahsuli deb hisoblashgan [4; 6].

Tarixiy frazemalar ham obyekt, hodisa, xarakter, xususiyat, holat yoki munosabat ifodalashda tarixiy voqelik hamda diniy qarashlarga asoslangan holda ishlatililganligini kuzatamiz. Jumladan, *Qur’on nuri bilan ziynatlangan qalb* (iymonli kishi), *iymoni but* (diyonatli), *O‘ziga ayon/xudo biladi/taqdirdan qochib qutilib bo‘lmaydi/ taqdirida bitilgan/ taqdirida bor, taqdirida borini ko‘rmoq/ taqdiriga tan bermoq/taqdirni tan olmoq, taqdirda bitilgani/ peshonasida bori* va h.

Satira va yumor yaratishda iboralardan foydalanish o‘ziga xos ifoda uslubi sanaladi. Masalan, Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asarida Razzoq so‘fining tasviri achchiq kulgi ostida shunday chiziladi: “*Bu odam, jadidnamo bir hamshahrining deganidek, “**Ko‘rgazmaga qo‘yilaturgan antiqa maxluq**lardan edi*”. Cho‘lpon “odamlik siyog‘i yo‘q” ifodasini “***Ko‘rgazmaga qo‘yilaturgan antiqa maxluq***” tarzida qo‘llashi tilning uslubiy jihatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Zotan, keltirilgan misol nutqqa tasvir, emotsionallik bag‘ishlashda, ma’noga satirik va yumoristik ruh bag‘ishlashda frazeologik birliklarning o‘rni beqiyosligini dalillaydi. Frazeologik birliklar tilning ekspressiv imkoniyatlarini kengaytirib, boy va ko‘pqirrali matnlar yaratish imkonini beradi.

Frazeologik birliklar uslubni boyitishga, ta’sirchanlikni oshirishga xizmat qiladiki, bunda, ayniqsa, badiiy, so‘zlashuv, publitsistik uslublarga alohida ruh bag‘ishlash, ta’sirchanlikni yuqori nuqtaga ko‘tarish maqsadida iboralardan foydalanish nutqning jozibadorligini oshiradi. Ba’zan nutqiy aniqlikka erishish ham frazeologik birliklardan mahorat bilan foydalanishga bog‘liq bo‘ladi. Hatto diplomatik munosabatlarda ham frazeologik birliklardan unumli foydalanish mumkin, bu nutqqa xushmuomalalik va bilvosita tilga urg‘u berish mazmunini namoyon etadi. Yozuvchilar jonli tasvirlar yaratish, yaratilgan voqelikka shubha-gumonlarni qo‘shish yoki o‘ziga xos his-tuyg‘ularni yetkazish uchun frazeologik birliklardan foydalanishadi.

Xulosa. Demak, frazeologik birliklarning asosiy o‘rni quyidagilarda ko‘rinadi:

1) milliy-madaniy xususiyatni aks ettiradi: Har bir xalqning o‘ziga xos urf-odati, turmush tarzi va dunyoqarashi iboralarda namoyon bo‘ladi. Masalan, o‘zbek tilidagi “do‘ppisini osmonga otmoq” iborasi kuchli quvonch holatini milliy-madaniy obraz (do‘ppi) orqali ifodalaydi. “Do‘ppi” o‘zbek xalqining milliy kiyim-kechaklari bilan bog‘liq madaniy tasavvurni ham yuzaga chiqaradi. Demak, bunday iborani faqat “juda xursand bo‘lmoq» tarzida izohlash uning milliy-obrazli mazmunining bir qismini yoritish hisoblanadi;

2) borliqni obrazli idrok etishni ko‘rsatadi: Frazeologizmlar oddiy tushunchani obraz asosida ifodalaydi. Zero, frazeologizmlar insonning borliqni qanday idrok etishi va konseptuallashtirishini ko‘rsatishda ham muhim. Inson atrofidagi voqea-hodisalarni faqat nomlabgina qolmay, ularga munosabat ham bildiradi. Masalan, qo‘rquv, quvonch, g‘azab, hayrat, befarqlik, mehnatsevarlik yoki dangasalik kabi tushunchalar turli iboralar orqali obrazli tarzda ifodalanadi. Natijada frazeologik birliklar xalq ongida shakllangan muayyan konseptlar**,** ya’ni asosiy tushuncha va tasavvurlarni ifodalovchi vositaga aylanadi. Jumladan, “yuragi orqasiga tortmoq”, “sichqonning inini ming tanga qilmoq”, “ko‘ksiga shamol tegmoq”, “do‘ppisi yarimta” kabi iboralar qo‘rquv, jahl, quvonch, o‘ksiklik ma’nolarini bevosita emas, balki obrazli tarzda tasvirlaydi;

3) xalqning baholash munosabatini aks ettiradi: Iboralar orqali inson, voqea yoki hodisaga ijobiy, salbiy yoki neytral munosabat bildiradi**.** Bunda baholash va emotsional-ekspressivlik imkoniyatining kuchliligi muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, “og‘zi qulog‘ida” iborasi insonning shunchaki xursand ekanini emas, balki uning quvonchi tashqi holatida yaqqol namoyon bo‘layotganini obrazli ifodalaydi. Demak, badiiy asarlarda, publitsistik nutqda va kundalik muloqotda frazeologik birliklardan keng foydalanish kishining baholash munosabatini aniq ko‘rsatib beradi. Iboralar nutqqa jonlilik, ta’sirchanlik va milliy ruh bag‘ishlaydi;

4) hissiy-ekspressiv vazifa bajaradi: Frazeologik birliklar nutqni ta’sirchan, jonli va emotsional qiladi. Bu borada, ayniqsa, olamning lisoniy manzarasini o‘rganishda qiyosiy frazeologiya ham katta ahamiyatga ega. Turli xalqlarning iboralari qiyoslanganda ularning umumiy va o‘ziga xos jihatlari

namoyon bo‘ladi. Masalan, barcha xalqlarda insonning ko‘zi, yuragi, boshi, qo‘li kabi tana a’zolari ishtirokidagi iboralar uchraydi. Biroq bu a’zolarga bog‘langan obrazlar va ularning ma’nolari har bir xalq tilida turlicha bo‘lishi tabiiy, albatta. Ammo ularni birlashtirib turuvchi jihat iboralarning barcha tillarda ham hissiy-ekspressiv vazifa bajarishi hisoblanadi. Bu esa, xalqlarning olamni idrok etishidagi umumiy insoniy va milliy xususiyatlarni aniqlashga yordam beradi.

Shuningdek, frazema ma’lum bir ma’no ifodasi uchun zarur bo‘lganidan ko‘ra ko‘proq ekspressivlikni ta’minlashga xizmat qiladi;

5) tarixiy va etnomadaniy ma’lumotlarni saqlaydi: Ayrim iboralarning kelib chiqishi xalqning qadimgi hayoti, kasb-kori, urf-odati va tarixiy voqealari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Frazeologik birliklar til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni ham yaqqol namoyon qiladi. Tilshunoslikda bunday birliklarni o‘rganishda lingvokulturologik yondashuv muhim o‘rin tutadi. Chunki frazeologizmning ma’nosini to‘liq anglash uchun ba’zan uning ortida turgan madaniy obraz, tarixiy ma’lumot yoki milliy an’anani bilish talab etiladi. Shuning uchun frazeologizmlar nafaqat tilning leksik boyligi, balki xalqning madaniy kodi sifatida ham qaraladi;

6) kognitiv ahamiyatga ega: Frazeologizmlar insonning olamni qanday kategoriyalarga ajratishi, qanday hodisalarni muhim deb bilishi va ular o‘rtasidagi munosabatlarni qanday tasavvur qilishini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, frazeologik birliklar inson obrazini yaratishda ham katta imkoniyatga ega. Insonning xarakteri, xulq-atvori, ruhiy holati va boshqa kishilarga munosabati ko‘plab iboralar orqali ifodalanadi. Masalan, “qo‘li ochiq” iborasi saxiylikni, “qo‘li kalta” iborasi esa, imkoniyatning cheklanganligini anglatadi. Bunday birliklar insonni bevosita tavsiflamasdan, uning muayyan xususiyatini obrazli tarzda ochib beradi.

Demak, frazeologik birliklar olamning lisoniy manzarasining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ular orqali til egalarining nafaqat fikri, balki milliy tafakkuri, mentaliteti, qadriyatlari va borliqqa munosabati ham namoyon bo‘ladi. Zotan, frazeologizmlarni tadqiq etish muayyan xalqning tilini o‘rganish bilan birga, uning milliy dunyoqarashi va madaniy olamini anglash imkonini ham beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши.–Т.: Фан, 1983. – Б. 58.

2.Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002.– Б. 88.

3.Искандарова Ш.М. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш (шахс микромайдони): Филол.фан. док. дисс. автореф.– Т.: ТАИ,1999. – Б.12.

4. Ne’matov H., Bozorov O. Til va nutq. −T.: O‘qituvchi, 1993.–32 b.

5.Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 407 б.

6. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Raupova L., Qurbonova M., Abuzalova M., Yuldasheva D. Hozirgi o‘zbek tili. Darslik. – Buxoro: Durdona, 2021.–555 b.

7.Вафоева М. Ўзбек тилида фразеологик синонимлар ва уларнинг структурал-семантик таҳлили: Филол. фан. номзоди дисс. – Самарқанд, 2010.– Б.112.

8.Yuldasheva D.N., Asadova Sh.A. O‘zbek tilida frazeologik graduonimiya. Monografiya. – Germaniya: Globe Edit international Publishing Group, 2021.– 85 p.

9. https://sputniknews.uz/20230915/iboralar-38860833.html

UO‘K 811.512.133

NEMIS TILIDA O‘ZLASHTIRMA BUYRUQ GAPLARNING STRUKTUR-SEMANTIK VA PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Arolov Xusanboy Tursunmaxamadovich,
Namangan davlat universiteti
Fakultetlararo chet tillar kafedrasi
katta o‘qituvchisi
husan.arolov@mail.ru

Annotatsiya. *Mazkur maqolada nemis tilidagi mikromatnlarda buyruq gaplarning o‘zlashtirma nutq tarkibida ifodalanish xususiyatlari lingvistik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda ko‘chirma va o‘zlashtirma nutq o‘rtasidagi grammatik, sintaktik hamda semantik-pragmatik munosabatlar, xususan, buyruq mazmunining bir nutq shaklidan ikkinchi nutq shakliga o‘tish jarayonidagi o‘zgarishlar yoritiladi. Nemis tilida Imperativ shaklining o‘zlashtirma nutqda bevosita saqlanmasligi, uning o‘rnida sollen, mögen modal fe’llari, zu + Infinitiv konstruksiyasi hamda auffordern, bitten, befehlen, verlangen kabi nutqiy akt fe’llarining qo‘llanishi misollar asosida ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, abhängige indirekte Rede va freie indirekte Rede shakllarining sintaktik va pragmatik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari o‘zlashtirma buyruqni shakllantirishda sintaktik transformatsiya bilan bir qatorda asl nutqning kommunikativ maqsadi va illokutiv kuchini saqlash muhim ekanligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *mikromatn, buyruq gap, o‘zlashtirma nutq, ko‘chirma nutq, indirekte Rede, direkte Rede, Imperativ, Konjunktiv, sollen, mögen, zu + Infinitiv, illokutiv kuch.*

СТРУКТУРНО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ И ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ КОСВЕННЫХ ПОБУДИТЕЛЬНЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЙ В НЕМЕЦКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация*. В данной статье проводится лингвистический анализ особенностей выражения побудительных предложений в составе косвенной речи в немецких микротекстах. В исследовании рассматриваются грамматические, синтаксические и семантико-прагматические отношения между прямой и косвенной речью, в частности изменения, происходящие при переходе побудительного значения из одной формы речи в другую. На основе конкретных примеров показано, что форма императива в немецком языке непосредственно не сохраняется в косвенной речи, а вместо неё используются модальные глаголы sollen, mögen, конструкция zu + Infinitiv, а также глаголы речевых актов auffordern, bitten, befehlen, verlangen. Кроме того, проводится сравнительный анализ синтаксических и прагматических особенностей форм abhängige indirekte Rede* и *freie indirekte Rede. Результаты исследования показывают, что при формировании косвенного побуждения наряду с синтаксической трансформацией важное значение имеет сохранение коммуникативной цели и иллокутивной силы исходного высказывания.*

Ключевые слова: *микротекст, побудительное предложение, косвенная речь, прямая речь, indirekte Rede, direkte Rede, императив, конъюнктив, sollen, mögen, zu + Infinitiv, иллокутивная сила.*

STRUCTURAL-SEMANTIC AND PRAGMATIC FEATURES OF REPORTED IMPERATIVE SENTENCES IN GERMAN

Abstract*. This article provides a linguistic analysis of the features of expressing imperative sentences within reported speech in German microtexts. The study examines the grammatical, syntactic, and semantic-pragmatic relations between direct and reported speech, with particular attention to the changes that occur when imperative meaning is transferred from one form of speech to another. Based on specific examples, it is demonstrated that the imperative form in German is not directly retained in reported speech; instead, the modal verbs sollen and mögen, the zu + infinitive construction, and speech-act verbs such as auffordern, bitten, befehlen, and verlangen are employed. Furthermore, the syntactic and pragmatic features of abhängige indirekte Rede* and *freie indirekte Rede are comparatively analyzed. The findings indicate that, in the formation of reported imperatives, preserving the communicative intention and illocutionary force of the original utterance is as important as its syntactic transformation.*

Keywords: *microtext, imperative sentence, reported speech, direct speech, indirekte Rede, direkte Rede, imperative, subjunctive, sollen, mögen, zu + infinitive, illocutionary force.*

Kirish. Verbal kommunikatsiyada boshqa shaxs tomonidan bildirilgan fikr, xabar, savol, talab yoki buyruqni mavjud diskurs tarkibiga kiritish muhim lingvistik hodisalardan biri hisoblanadi. Bunda dastlabki nutqning shakli va mazmuni turli darajada saqlanishi yoki muallif nutqiga mos ravishda transformatsiyaga uchrashi mumkin. Nemis tilida o‘zga shaxs nutqini ifodalashning asosiy shakllari an’anaviy ravishda ko‘chirma nutq (*direkte Rede*) va o‘zlashtirma nutq (*indirekte Rede*) sifatida ajratiladi.

Ko‘chirma nutqda boshqa shaxsga tegishli fikr uning dastlabki shakli va kommunikativ xususiyatlarini imkon qadar saqlagan holda beriladi. O‘zlashtirma nutqda esa mazkur fikr yangi nutqiy vaziyat va bayon qiluvchining nuqtayi nazariga moslashtiriladi. Natijada shaxs, zamon, makon deiksisi, fe’l mayli va sintaktik struktura kabi grammatik ko‘rsatkichlarda o‘zgarishlar yuz beradi.

O‘zlashtirma nutqning murakkab jihatlaridan biri buyruq mazmunining ifodalanishidir. Ko‘chirma nutqda Imperativ yordamida bevosita ifodalangan buyruq, talab yoki iltimos o‘zlashtirma nutqqa o‘tkazilganda aynan shu grammatik shaklda saqlanmaydi. Nemis tilida bunday kommunikativ mazmunni qayta ifodalash uchun *sollen, mögen* modal fe’llari, *zu + Infinitiv* konstruksiyasi hamda buyurish, talab qilish yoki iltimos qilish mazmunidagi mustaqil fe’llardan foydalaniladi.

Masalan:

Direkte Rede: Er sagt: „Komm her!“ Indirekte Rede: Er sagt, dass ich herkommen soll(e).

Mazkur transformatsiyada Imperativ shakli yo‘qolgan bo‘lsa-da, dastlabki gapning buyruq mazmuni *sollen* modal fe’li orqali saqlanmoqda.

Shundan kelib chiqib, tadqiqotning asosiy maqsadi nemis mikromatnlarida buyruq gaplarning o‘zlashtirma nutqda shakllanish mexanizmlarini aniqlash, ularning sintaktik va semantik-pragmatik xususiyatlarini tavsiflashdan iborat. Shuningdek, o‘zlashtirma buyruqni ifodalashda modal fe’llar, Konjunktiv, *dass*-konstruksiyasi va *zu + Infinitiv* modelining funksional imkoniyatlarini aniqlash ham tadqiqotning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Nemis tilida o‘zlashtirma nutq masalasi germanistik tilshunoslikda turli nazariy yondashuvlar doirasida tadqiq qilingan. An’anaviy grammatik tadqiqotlarda o‘zlashtirma nutq, asosan, formal-sintaktik va morfologik belgilar asosida tavsiflansa, keyingi tadqiqotlarda uning semantik-pragmatik xususiyatlariga ham alohida e’tibor qaratilgan.

F.Coulmas o‘zga shaxs nutqini qayta ifodalashni kommunikativ va pragmatik hodisa sifatida o‘rganib, ko‘chirma va o‘zlashtirma nutq o‘rtasidagi munosabatlarni nutq egasi, bayon qiluvchi hamda kommunikativ vaziyat bilan bog‘liq holda tahlil qiladi.

F.Hansen esa nemis tilidagi bilvosita nutqni tasniflashda uning faqat sintaktik belgilariga asoslanish yetarli emasligini ta’kidlaydi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, nutq manbayi, kommunikativ vazifa va qayta ifodalanayotgan mazmun o‘rtasidagi semantik-pragmatik munosabatlarni ham hisobga olish lozim.

Nemis tilidagi o‘zlashtirma nutq an’anaviy yondashuvda *abhängige indirekte Rede* –tobe o‘zlashtirma nutq va *unabhängige indirekte Rede* –mustaqil o‘zlashtirma nutq shakllariga ajratiladi. Semantik-pragmatik yondashuvda esa *abhängige indirekte Rede* va *freie indirekte Rede* tushunchalari muhim o‘rin egallaydi.

Abhängige indirekte Rede prototipik jihatdan *dass*, *ob* yoki W-so‘roq birliklari bilan boshlanuvchi va tuslanuvchi fe’l gap oxirida joylashadigan konstruksiyalar orqali shakllanadi. Bunday holatda *Redeeinleitung*, ya’ni muallif gapi asl nutqning kommunikativ vazifasini belgilashda muhim rol o‘ynaydi.

*Freie indirekte Rede*da esa sintaktik mustaqillik darajasi yuqoriroq bo‘lib, muallif gapi ayrim hollarda mavjud bo‘lishi, boshqa holatlarda esa tushirib qoldirilishi mumkin. Bu o‘zlashtirma nutq shaklida asl nutqning ayrim ekspressiv va modal xususiyatlari nisbatan yaxshiroq saqlanadi.

U.Engel, G.Helbig va J.Buscha tadqiqotlarida ham o‘zlashtirma nutqning sintaktik xususiyatlari, fe’lning gapdagi o‘rni, Konjunktivning funksiyasi hamda o‘zlashtirma so‘roq va buyruq gaplarning shakllanishi muhim masala sifatida ko‘rib chiqiladi.

Duden grammatikasida esa o‘zlashtirma nutqning sintaktik jihatdan tobe va mustaqil shakllari farqlanadi. Bunda Konjunktiv, nutqni kirituvchi fe’llar va qo‘shma gaplarning sintaktik strukturasi o‘zlashtirma nutqning muhim formal ko‘rsatkichlari sifatida qaraladi.

Shunday qilib, mavjud ilmiy qarashlarni umumlashtirish o‘zlashtirma nutqni faqat grammatik transformatsiya sifatida emas, balki sintaktik, semantik va pragmatik omillar o‘zaro munosabatga kirishadigan kompleks lingvistik hodisa sifatida tadqiq qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda nemis tilidagi buyruq gaplarning ko‘chirma nutqdan o‘zlashtirma nutqqa o‘tish jarayonini aniqlash maqsadida tavsifiy, qiyosiy, kontekstual, struktur-sintaktik hamda semantik-pragmatik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tavsifiy metod orqali nemis tilida ko‘chirma va o‘zlashtirma nutqning grammatik xususiyatlari hamda buyruq mazmunini ifodalovchi asosiy lingvistik vositalar tavsiflandi.

Qiyosiy metod yordamida bir xil kommunikativ mazmunning *direkte Rede* va *indirekte Rede* shakllaridagi grammatik realizatsiyasi o‘zaro taqqoslandi. Xususan, Imperativning o‘zlashtirma nutqda *sollen* yoki boshqa vositalar bilan almashtirilishi tahlil qilindi.

Struktur-sintaktik tahlil orqali *dass + sollen/mögen*, Konjunktiv va *zu + Infinitiv* modellarining sintaktik tuzilishi o‘rganildi.

Semantik-pragmatik tahlil yordamida esa transformatsiyadan keyin asl gapning buyruq, talab, iltimos va undash kabi illokutiv mazmunining qay darajada saqlanishi aniqlandi.

Tahlil materiali sifatida nemis tilidagi grammatik manbalarda keltirilgan namunalar hamda Daniel Kehlmannning *Die Vermessung der Welt* asaridagi o‘zlashtirma buyruq konstruksiyalaridan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Tahlillar nemis tilida ko‘chirma nutq tarkibidagi Imperativni o‘zlashtirma nutqqa transformatsiya qilishning bir nechta asosiy grammatik modellari mavjudligini ko‘rsatdi.

Birinchi model –**dass + sollen** konstruksiyasidir.

Masalan:

Der Lehrer sagt: „Lest das Buch!“ → Der Lehrer sagt, dass wir das Buch lesen sollen.

Birinchi gapda *lest* fe’li Imperativ shaklida qo‘llanib, bevosita buyruqni ifodalamoqda. Ikkinchi gapda esa Imperativ o‘rniga *sollen* modal fe’li qo‘llangan. Shu tariqa sintaktik struktura o‘zgarganiga qaramay, dastlabki gapning buyruq mazmuni saqlangan.

Ikkinchi modelda *sollen* fe’lining Konjunktiv shakli qo‘llanadi:

Sie sagt: „Sei leise!“ → Sie sagt, ich solle leise sein.

Mazkur misolda *sei* Imperativ shaklining kommunikativ mazmuni *solle* shakli orqali ifodalangan. Konjunktiv bu yerda bayon qiluvchi shaxsning xabar mazmuniga nisbatan ma’lum kommunikativ masofasini ko‘rsatishga ham xizmat qiladi.

Bunday model badiiy mikromatnlarda ham kuzatiladi:

Na gut, sagte Humboldt, dann solle er jetzt in Gottes Namen den Arzt holen!

Bu konstruksiyada *solle ... holen* birikmasi bevosita Imperativsiz buyruq mazmunini yuzaga chiqaradi. Demak, o‘zlashtirma nutqda grammatik Imperativ yo‘qolishi kommunikativ buyruq mazmunining yo‘qolishini anglatmaydi.

Uchinchi muhim model –**zu + Infinitiv** konstruksiyasidir. Ushbu model ko‘pincha *bitten, auffordern, befehlen* singari fe’llar bilan qo‘llanadi:

Er befiehlt: „Steh auf!“ → Er befiehlt mir, aufzustehen.

Bu yerda *steh auf* Imperativi *aufzustehen* infinitiv konstruksiyasiga transformatsiya qilingan. Buyruqning illokutiv kuchi esa *befehlen* fe’li orqali ochiq ifodalangan.

Badiiy matnlarda ham shunday strukturalar uchraydi:

Daguerre forderte den Polizisten auf, aus dem Bild zu gehen.

Bu gapda *auffordern* fe’li talab yoki undashning kommunikativ xususiyatini belgilasa, *aus dem Bild zu gehen* konstruksiyasi talab qilinayotgan harakatning propozitsional mazmunini beradi.

Xuddi shuningdek:

Humboldt bat ihn, sich nicht dumm anzustellen.

Bu yerda *bitten* fe’li nutqiy aktning buyruqdan ko‘ra yumshoqroq –iltimos xususiyatiga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Yana bir misol:

Der Vater forderte ihn auf, gerade zu stehen.

Mazkur konstruksiyada *auffordern* harakatni bajarishga undashni, *gerade zu stehen* esa bajarilishi lozim bo‘lgan harakatni ifodalaydi.

Olingan natijalar o‘zlashtirma buyruqni shakllantirishda *Redeeinleitung* tarkibidagi fe’lning semantikasi ham muhim ekanligini ko‘rsatadi. *Befehlen* qat’iy buyruqni, *auffordern* talab yoki undashni, *bitten* iltimosni ifodalaydi. Demak, ko‘chirma nutqda Imperativning o‘zi bajargan illokutiv vazifa o‘zlashtirma nutqda ko‘pincha muallif gapidagi leksik birlikka ko‘chadi.

Shuningdek, *sollen* va *mögen* modal fe’llari ham buyruq, talab yoki istakning illokutiv kuchini qayta shakllantirishda muhim grammatik vosita hisoblanadi. Shuning uchun o‘zlashtirma buyruq oddiy morfologik almashtirish emas, balki bir nechta grammatik va pragmatik vositalar ishtirokidagi transformatsiya sifatida qaralishi lozim.

Muhokama. Tadqiqot natijalari nemis tilidagi o‘zlashtirma nutqni faqat formal-sintaktik belgilar asosida tushuntirish yetarli emasligini ko‘rsatadi. Chunki bir xil buyruq mazmuni turli sintaktik modellar orqali ifodalanishi mumkin.

Masalan, *„Komm her!“* kabi Imperativ shakli kontekstga qarab *dass ... kommen soll, er solle kommen* yoki tegishli nutqiy akt fe’li bilan *zu + Infinitiv* konstruksiyasi yordamida qayta ifodalanishi mumkin. Ushbu

konstruksiyalarning barchasida dastlabki buyruqning umumiy propozitsional mazmuni saqlanadi, ammo uning grammatik shakli va illokutiv kuchini ifodalash usuli o‘zgaradi.

Bu holat propozitsiya prinsipi bilan ham bog‘liq. O‘zlashtirma nutqda asl nutqning propozitsional mazmuni qayta berilishi mumkin, biroq asl nutqdagi kommunikativ harakat –masalan, buyurish, talab qilish yoki iltimos qilish –alohida grammatik yoki leksik vosita orqali ifodalanishi zarur.

Shu nuqtayi nazardan *Redeeinleitung* alohida ahamiyat kasb etadi. *Er befahl..., er bat..., er forderte ihn auf...* kabi konstruksiyalarda nutqiy harakatning tabiati bosh gapning o‘zidayoq aniqlanadi. Tobe qism esa, asosan, bajarilishi kerak bo‘lgan harakatning mazmunini ifodalaydi.

*Abhängige indirekte Rede*da bunday munosabat sintaktik jihatdan ancha aniq namoyon bo‘ladi. *Dass* bilan tuzilgan gaplarda fe’l gap oxiriga o‘tadi va mazkur tobe gap muallif gapiga sintaktik jihatdan kuchli integratsiyalashadi.

*Freie indirekte Rede*da esa muallif va qahramon nuqtayi nazarlari o‘rtasidagi munosabat murakkabroqdir. Bunda asl nutqning ayrim modal va ekspressiv elementlari saqlanishi mumkin. Shu sababli erkin o‘zlashtirma nutqni aniqlashda faqat fe’l shakliga emas, balki butun mikromatnning kommunikativ tuzilishiga e’tibor berish talab etiladi.

Tahlil natijalari F. Hansen tomonidan ilgari surilgan semantik-pragmatik yondashuvning ahamiyatini ham ko‘rsatadi. O‘zlashtirma nutqni aniqlashda grammatik shakl bilan bir qatorda axborot manbai, kommunikativ vazifa, bayon qiluvchi va asl nutq egasining nuqtayi nazarlari o‘rtasidagi munosabatni hisobga olish lozim.

Shuningdek, *sollen* va *mögen*ning o‘zlashtirma buyruq tarkibida qo‘llanishi modal fe’llarning faqat zarurat yoki istak kabi lug‘aviy-modal ma’nolar bilan chegaralanmasligini ko‘rsatadi. Ular muayyan kontekstda boshqa shaxsga tegishli buyruq yoki talabni qayta ifodalovchi grammatik-pragmatik vosita vazifasini bajaradi.

Demak, nemis mikromatnlaridagi o‘zlashtirma buyruq shakllarini o‘rganishda morfologik, sintaktik va pragmatik sathlarni o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilish zarur.

Xulosa. Nemis mikromatnlarida buyruq gap va o‘zlashtirmalik munosabatlarini o‘rganish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchidan, nemis tilida ko‘chirma va o‘zlashtirma nutq boshqa shaxsning nutqi yoki fikrini qayta ifodalashning o‘zaro bog‘liq, biroq grammatik va pragmatik xususiyatlari jihatidan farqlanuvchi shakllari hisoblanadi.

Ikkinchidan, ko‘chirma nutqda bevosita Imperativ orqali ifodalangan buyruq o‘zlashtirma nutqda, odatda, aynan Imperativ shaklida saqlanmaydi. Uning kommunikativ mazmuni boshqa grammatik va leksik vositalar orqali qayta shakllantiriladi.

Uchinchidan, nemis tilida o‘zlashtirma buyruqni ifodalashning muhim vositalari sifatida *sollen* va *mögen* modal fe’llari namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, *sollen* buyruq va talab mazmunini boshqa shaxs nutqi sifatida qayta ifodalashda faol qo‘llanadi.

To‘rtinchidan, *zu + Infinitiv* konstruksiyasi *bitten, auffordern, befehlen* kabi nutqiy akt fe’llari bilan birgalikda o‘zlashtirma buyruqning samarali sintaktik modellaridan birini tashkil qiladi. Bunday konstruksiyalarda bosh gapdagi fe’l illokutiv kuchni, infinitiv konstruksiyasi esa propozitsional mazmunni ifodalaydi.

Beshinchidan, *Redeeinleitung* o‘zlashtirma nutqda faqat nutq manbayini ko‘rsatuvchi komponent emas, balki asl gapning kommunikativ vazifasini belgilovchi muhim vosita hisoblanadi. *Befehlen, bitten, auffordern, verlangen* singari fe’llar orqali buyruq, iltimos va talab o‘rtasidagi pragmatik farqlar aniqlanadi.

Oltinchidan, *abhängige indirekte Rede* va *freie indirekte Rede*ni farqlashda formal-sintaktik mezonlarning o‘zi yetarli emas. Nutq manbai, kommunikativ vazifa, qahramon va muallif nuqtayi nazarlarining o‘zaro munosabati kabi semantik-pragmatik omillar ham hisobga olinishi lozim.

Yettinchidan, o‘zlashtirma buyruqni shakllantirish jarayoni oddiy grammatik almashtirishdan iborat emas. Unda asl nutqning propozitsional mazmunini saqlash bilan bir qatorda, buyruq, talab, undash yoki iltimosning illokutiv kuchini yangi sintaktik va leksik vositalar orqali qayta yaratish amalga oshadi.

Umuman, nemis tilidagi mikromatnlarda buyruq gaplarning o‘zlashtirma nutqqa transformatsiyasi sintaktik, morfologik va semantik-pragmatik omillarning o‘zaro ta’siriga asoslangan murakkab lingvistik jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayonni kompleks o‘rganish nemis tilidagi o‘zlashtirma nutqning funksional imkoniyatlarini chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. *Jumayev, E. B. O‘zbek adabiy tilida o‘zlashtirmalik va matn. – Buxoro, Durdona nashriyoti, 2024.*

2. Coulmas, F. Reported Speech: Some General Issues. Direct and Indirect Speech. Berlin, 1986.

3. Hansen, F. Nicht direktes Referat im Deutschen – Typologie und Abgrenzungsprobleme. Trier, 2002.

4. Helbig, G., Buscha, J. Deutsche Grammatik. Berlin: Langenscheidt, 2001.

5. Engel, U. Deutsche Grammatik. 2. Auflage. Heidelberg, 1991.

6. Duden. Die Grammatik. 7. Auflage. Mannheim: Dudenverlag, 2006.

7. Fabricius-Hansen, C. Beiträge zur Beschreibung der indirekten Redewiedergabe im Deutschen. In: Duden. Die Grammatik. Mannheim: Dudenverlag, 2006.

8. Kehlmann, D. Die Vermessung der Welt. Reinbek bei Hamburg: Rowohlt Verlag, 2005.

9. Zifonun, G., Hoffmann, L., Strecker, B. Grammatik der deutschen Sprache. Berlin/New York: Walter de Gruyter, 1997.

10. Eisenberg, P. Grundriss der deutschen Grammatik. Der Satz. Stuttgart/Weimar: J. B. Metzler, 2006.

11. Weinrich, H. Textgrammatik der deutschen Sprache. Mannheim: Dudenverlag, 1993.

12. Heidolph, K. E., Flämig, W., Motsch, W. Grundzüge einer deutschen Grammatik. Berlin: Akademie-Verlag, 1981.

13. Sommerfeldt, K.-E., Starke, G. Einführung in die Grammatik der deutschen Gegenwartssprache. Tübingen: Max Niemeyer Verlag, 1998.

УДК 811.111

ГАСТРОНОМИЧЕСКИЕ ОБРАЗЫ В РУССКОЙ И АНГЛИЙСКОЙ ФРАЗЕОЛОГИИ: ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ

Бушуй Татьяна Анатольевна,
профессор Самаркандского государственного института иностранных языков, доктор филологических наук
tanya.bushuy@mail.ru, info@samdchti.uz

Аннотация. *В статье исследуются гастрономические образы, представленные во фразеологических системах русского и английского языков. Выявляются их семантические, образные, оценочные и национально-культурные характеристики. Устанавливаются универсальные и культурно-специфические модели фразеологической концептуализации пищи. Особое внимание уделяется механизмам метафоризации гастрономических компонентов и их участию в репрезентации человека, социальных отношений, материального положения, эмоциональных состояний, деятельности и жизненных обстоятельств в сопоставляемых лингвокультурах современного общества.*

Ключевые слова: *фразеология, гастрономический образ, лингвокультурология, метафоризация, фразеологизм, культурный код, концептуализация.*

RUS VA INGLIZ FRAZEOLOGIYASIDA GASTRONOMIK OBRAZLAR: LINGVOKULTUROLOGIK TALQIN

Annotatsiya. *Maqolada rus va ingliz tillari frazeologik tizimlarida namoyon bo‘ladigan gastronomik obrazlar tadqiq etiladi. Ularning semantik, obrazli, baholovchi hamda milliy-madaniy xususiyatlari aniqlanadi. Oziq-ovqatni frazeologik konseptuallashtirishning universal va madaniy jihatdan o‘ziga xos modellari belgilab beriladi. Gastronomik komponentlarning metaforalashuv mexanizmlariga hamda ularning zamonaviy jamiyatning qiyoslanayotgan lingvomadaniyatlarida inson, ijtimoiy munosabatlar, moddiy holat, emotsional kechinmalar, faoliyat va hayotiy vaziyatlarni ifodalashdagi ishtirokiga alohida e’tibor qaratiladi.*

Kalit so‘zlar*: frazeologiya, gastronomik obraz, lingvokulturologiya, metaforalashuv, frazeologizm, madaniy kod, konseptuallashtirish.*

GASTRONOMIC IMAGES IN RUSSIAN AND ENGLISH PHRASEOLOGY: A LINGUOCULTURAL INTERPRETATION

Abstract. *The article examines gastronomic images represented in the phraseological systems of the Russian and English languages. Their semantic, figurative, evaluative, and national-cultural characteristics are identified. Universal and culture-specific models of the phraseological conceptualization of food are established. Particular attention is paid to the mechanisms of metaphorization of gastronomic components and their role in representing human beings, social relations, material status, emotional states, activities, and life circumstances in the compared linguocultures of contemporary society.*

Keywords: *phraseology, gastronomic image, linguoculturology, metaphorization, phraseological unit, cultural code, conceptualization.*

Введение. Фразеологическая система языка представляет собой значимый источник лингвокультурной информации, поскольку в устойчивых сочетаниях закрепляются коллективные представления, оценки, ассоциации и способы концептуализации действительности [22, 62-67; 28, 1109]. Названия продуктов, блюд, напитков и процессов приготовления пищи, входя в структуру фразеологических единиц, утрачивают исключительно предметную семантику и приобретают вторичные образные значения. Сопоставление русской и английской гастрономической фразеологии позволяет выявить как универсальные модели метафорического осмысления мира, обусловленные общностью человеческого опыта, так и национально-специфические способы языковой интерпретации действительности. Актуальность исследования определяется необходимостью системного рассмотрения гастрономического образа как элемента культурного кода. Цель статьи заключается в выявлении и лингвокультурологической интерпретации основных моделей гастрономической образности в русской и английской фразеологии.

Обзор литературных источников. Исследование фразеологии в лингвокультурологической парадигме основывается на понимании устойчивых единиц как знаков, способных сохранять культурно значимую информацию. В работах В. Н. Телия фразеологический состав рассматривается

в качестве особого пространства культурной интерпретации, в котором образное основание соотносится с коллективными представлениями и ценностными установками [1, 25; 34, 29]. В. А. Маслова связывает фразеологическую семантику с культурными кодами и механизмами языковой концептуализации мира [6, 47; 25, 22]. А. Вежбицкая показывает значимость пищевых номинаций для реконструкции национально обусловленных способов категоризации повседневного опыта [11, 13; 36, 338]. В англоязычной традиции вопросы идиоматической семантики, образности и мотивации устойчивых сочетаний представлены в исследованиях Р. Муна, А. Коуи, Д. Добровольского и Э. Пиирайнен [39, 340; 2, 25]. Вместе с тем сопоставительная интерпретация гастрономических образов требует дальнейшего изучения их внутренней формы, оценочности, метафорических моделей и культурной специфики в русской и английской фразеологии [15, 195; 19, 4].

Методология исследования. Методология исследования основывается на комплексном сопоставительно-лингвокультурологическом подходе к изучению русских и английских фразеологических единиц с гастрономическими компонентами [4, 23; 18, 29]. Используются описательный, компонентный, семантический, сопоставительный и лингвокультурологический методы. Компонентный анализ позволяет установить роль пищевой номинации в формировании целостного фразеологического значения. Семантический анализ применяется для определения направлений метафорического и метонимического переосмысления исходного гастрономического образа. Сопоставительный метод выявляет эквивалентные, частично совпадающие и национально-специфические модели. Лингвокультурологическая интерпретация направлена на реконструкцию культурных ассоциаций, ценностей и стереотипов, закреплённых во внутренней форме устойчивых выражений [8, 14; 30, 101]. Дополнительно применяется принцип тематико-семантической классификации, позволяющий распределить материал по сферам концептуализации человека, деятельности, социальных отношений, материального положения, эмоциональных состояний и жизненных ситуаций.

Анализ полученных результатов. Проведённый анализ показывает, что гастрономическая фразеология русского и английского языков представляет собой не совокупность разрозненных устойчивых выражений, содержащих названия пищи, а структурированную систему вторичной номинации [13, 159; 37, 40]. В ней материальный опыт приготовления, распределения и потребления пищи преобразуется в средство интерпретации абстрактных явлений. Гастрономический компонент выполняет функцию образного основания, посредством которого концептуализируются характер человека, межличностные отношения, труд, материальное благополучие, успех, затруднения и эмоциональные реакции. Следовательно, пищевой образ функционирует как посредник между чувственно воспринимаемой действительностью и абстрактными категориями культуры [3, 48; 35, 25].

Принципиально значимым является разграничение гастрономического компонента и гастрономического образа. Наличие названия продукта в структуре фразеологизма само по себе ещё не определяет его культурную функцию. Компоненты *хлеб, каша, соль, мёд, орех, bread, cake, pie, beans* приобретают лингвокультурологическую значимость тогда, когда связанные с соответствующими продуктами бытовые свойства и культурные ассоциации участвуют в мотивации переносного значения. Поэтому гастрономический образ следует понимать как семантически преобразованное представление о пище, закреплённое во внутренней форме фразеологической единицы и используемое для вторичной категоризации действительности [5, 71].

Одной из наиболее устойчивых моделей выступает концептуализация жизненно необходимого через образ базового продукта питания. В русской фразеологии центральную позицию *занимает хлеб: хлеб насущный, зарабатывать на хлеб, отбивать хлеб, хлебное место, сидеть на хлебе и воде*. *Хлеб* в данных единицах перестаёт обозначать исключительно пищевой продукт и становится символом существования, заработка, материальной обеспеченности и жизненного минимума [7, 49]. Его культурная семантика основывается на исторически высокой значимости *хлеба* в традиционной русской хозяйственной культуре. Поэтому компонент *хлеб* способен метонимически обозначать средства к существованию вообще.

В английской фразеологии сходную функцию частично выполняет компонент *bread*. Выражения *bread and butter, earn one's bread, breadwinner* связывают образ хлеба прежде всего со средствами существования и материальным обеспечением. Ср.: *bread and butter* обозначает основной источник дохода или наиболее существенную сторону профессиональной деятельности, а *earn one's bread* соотносит получение средств к существованию с приобретением базового продукта питания. Сопоставление обнаруживает универсальную модель «пища → средства к существованию». Однако совпадение концептуальной схемы не означает полного тождества культурной реализации [38, 397].

Русское *хлеб* обладает выраженным историко-символическим потенциалом и включается в широкий комплекс представлений о достатке, гостеприимстве и жизненной необходимости. Английское *bread* в ряде устойчивых сочетаний сильнее актуализирует прагматическую семантику заработка и экономической основы деятельности.

Вторая продуктивная модель связана с осмыслением человеческой деятельности через приготовление пищи. Русское выражение заварить кашу обозначает инициирование сложной, проблемной ситуации, тогда как *расхлёбывать кашу* – необходимость устранять последствия собственных или чужих действий. Внутренняя форма этих единиц образует последовательный сценарий: приготовление блюда → возникновение ситуации → потребление приготовленного → преодоление последствий [20, 15]. Гастрономический процесс преобразуется в модель причинно-следственной организации поведения. Характерно, что семантическая связь между двумя фразеологизмами сохраняет целостность бытового сценария, вследствие чего культура кодирует абстрактную ответственность через последовательность конкретных действий с пищей [17, 541].

Английская фразеология реализует сходный принцип посредством иных гастрономических сценариев. Выражение *have a finger in every pie* характеризует участие человека во множестве дел, нередко с оттенком чрезмерного вмешательства. Образ *пирога* концептуализирует отдельное дело как ограниченное пространство деятельности, а прикосновение к нему – как участие. В *cook the books* процесс приготовления пищи метафорически переносится на манипулирование финансовой документацией: воздействие на исходный объект приводит к созданию искусственно изменённого результата. Таким образом, глаголы приготовления способны формировать модель «целенаправленное изменение объекта → приготовление пищи» [14, 217].

Существенную группу составляют единицы, в которых пища репрезентирует лёгкость либо сложность действия. Английское *a piece of cake* характеризует задачу как чрезвычайно лёгкую. Небольшая порция привлекательной пищи ассоциируется с доступностью, удовольствием и отсутствием усилий. Русская фразеология не располагает полным гастрономическим эквивалентом с идентичной внутренней формой: функционально близкие выражения типа проще простого не содержат пищевого образа. Это показательный случай межъязыковой асимметрии: универсальное понятие лёгкости получает гастрономическую объективацию в одной лингвокультуре и негастрономическую – в другой.

Обратная характеристика трудности представлена английским *a hard nut to crack*. *Орех* концептуализирует сложную проблему либо человека, которого трудно понять, убедить или психологически раскрыть. Физическое свойство твёрдой скорлупы становится основанием метафорического переноса: внешняя преграда соответствует когнитивной или коммуникативной сложности. Русское *крепкий орешек* демонстрирует близкое образно-семантическое соответствие. В обоих языках реализуется модель «физическая твёрдость пищевого объекта → трудность преодоления». Подобные параллели свидетельствуют о существовании фразеологических универсалий, обусловленных сходным перцептивным опытом.

Важным направлением гастрономической концептуализации является оценка благоприятности и неблагоприятности жизненной ситуации. Русское *как сыр в масле кататься* выражает представление о материальном достатке и комфортном существовании. Образ формируется через сочетание двух продуктов с традиционно положительной пищевой ценностью. Избыточность благоприятной пищевой среды становится метафорой обеспеченности. В выражении *не жизнь, а малина* сладкая ягода символизирует удовольствие и привлекательность существования. Здесь вкусовая характеристика непосредственно преобразуется в аксиологическую: «сладкое → приятное → благополучное» [12, 10].

Подобная связь вкусового восприятия и оценки продуктивна и в английском языке. *The icing on the cake* обозначает дополнительное преимущество, которое делает уже благоприятную ситуацию ещё лучше. Структура образа иерархична: торт репрезентирует положительную основу, а декоративно-сладкий верхний слой – добавочную ценность. Фразеологизм *as sweet as honey* переносит вкусовое качество мёда на оценку человека, речи или поведения. Вместе с тем сладость может приобретать амбивалентность: чрезмерная приятность способна интерпретироваться как неискренность. Следовательно, вкусовой код не механически переносит физиологическое ощущение в сферу оценки, а культурно модифицирует его.

Отрицательные состояния также получают гастрономическую интерпретацию. Русское *хуже горькой редьки* использует вкусовое качество для выражения крайней степени раздражения или пресыщения. Горечь выступает сенсорным прототипом неприятного переживания. В английском *a bitter pill to swallow* неприятная информация или обстоятельство представлены как горькое лекарство,

которое необходимо проглотить. Здесь объединяются гастрономический и соматический сценарии: отрицательное вкусовое ощущение соотносится с психологическим неприятием, а обязательность глотания – с необходимостью принять нежелательную реальность. Общей становится модель «горький вкус → неприятное переживание» [33, 204].

Особое место занимает концептуализация человеческих отношений. Совместное потребление пищи исторически связано с принадлежностью к группе, доверием и социальным сближением [9, 42]. Русское *съесть пуд соли* означает длительное знакомство и приобретённый совместным опытом уровень взаимопонимания. Значение строится на гиперболизированном количестве продукта: чтобы употребить чрезвычайно большое количество соли, людям необходимо провести вместе продолжительное время. Физический объём пищи трансформируется в показатель длительности социальных отношений.

Английское *take something with a pinch of salt* демонстрирует иное развитие образа соли. Оно выражает необходимость относиться к информации с определённой долей недоверия. В данном случае соль не символизирует длительность отношений, а выступает компонентом, модифицирующим восприятие основного содержания. Сопоставление особенно показательно: одинаковая пищевая номинация включается в разные культурно-семантические сценарии. Следовательно, национальная специфика гастрономической фразеологии определяется не столько набором используемых продуктов, сколько направлением их вторичного семантического преобразования [26, 24].

Фразеологизация напитков также обнаруживает культурно обусловленные модели. *Русское чай да сахар* исторически связано с пожеланием благополучия людям, находящимся за столом, тогда как само чаепитие занимает заметное место в культурных сценариях общения [10, 11]. В английской фразеологии чрезвычайно продуктивен компонент *tea*. Выражение *not my cup of tea* обозначает то, что не соответствует вкусам или интересам говорящего. Индивидуальный выбор напитка преобразуется в модель личного предпочтения. В *a storm in a teacup* небольшой сосуд становится пространственным масштабом для преувеличенного конфликта: сильное природное явление, ограниченное чашкой, метафорически характеризует чрезмерную реакцию на незначительную проблему.

Последний пример демонстрирует важную особенность гастрономической фразеологии: культурно значимым может становиться не только продукт, но и посуда, способ употребления и коммуникативная ситуация вокруг пищи. Гастрономический код поэтому целесообразно понимать расширительно – как систему знаков, включающую продукты, блюда, напитки, вкусовые признаки, процессы приготовления, действия потребления, кухонные предметы и социальные сценарии трапезы. Их взаимодействие формирует сложную сеть вторичных значений [32, 60].

Отдельную группу образуют фразеологизмы, в которых гастрономический образ используется для характеристики интеллектуальной деятельности и знания. Английское *food for thought* представляет информацию или идею как пищу, предназначенную не для тела, а для мышления. Процесс осмысления концептуализируется как потребление и усвоение. Метафорическая схема «информация → пища» опирается на параллелизм физиологического и когнитивного усвоения: организм перерабатывает пищу, сознание перерабатывает информацию [13, 100]. Сходный принцип обнаруживается в русских сочетаниях *пища для ума, духовная пища,* демонстрирующих высокую степень межъязыковой концептуальной близости.

Однако эквивалентность таких выражений следует рассматривать на нескольких уровнях. Совпадение общего образа не всегда означает совпадение частотности, стилистического диапазона и культурной значимости [16, 129].

Фразеологическая картина мира формируется не только посредством наличия устойчивых языковых единиц, номинирующих определённые явления действительности, но и благодаря закреплению в их семантической структуре коллективного опыта, оценочных установок, культурных стереотипов и исторически сложившихся способов концептуализации окружающего мира. В этом отношении гастрономические образы обладают особой лингвокультурологической значимостью, поскольку пища относится к универсальным компонентам человеческого существования, однако способы её символического осмысления существенно различаются в отдельных языковых сообществах. Одни и те же гастрономические реалии могут приобретать различные ассоциативные, аксиологические и образные характеристики, вследствие чего фразеологические единицы с пищевым компонентом становятся своеобразными знаками национальной культуры [21, 82].

Сопоставление русской и английской гастрономической фразеологии позволяет установить два взаимосвязанных уровня её организации – универсальный и национально-специфический.

Универсальный уровень обусловлен общностью базового человеческого опыта: необходимостью получения пищи, противопоставлением сытости и голода, представлениями о вкусе, приготовлении и потреблении еды [23, 221]. Национально-специфический уровень формируется в результате культурной интерпретации этого опыта и проявляется в выборе конкретных продуктов, блюд, способов приготовления и связанных с ними образных ассоциаций [24, 20]. Поэтому фразеологическое значение не является прямым отражением гастрономической действительности: оно представляет собой результат вторичной культурно-семантической концептуализации [29, 47].

Другую значимую модель представляет концептуализация социальной и материальной успешности посредством пищи. Английское *bring home the bacon* означает обеспечение семьи средствами к существованию, достижение необходимого материального результата. Компонент *bacon* в структуре выражения перестаёт обозначать конкретный продукт и становится знаком материального результата деятельности. В русском языке сходная семантическая область реализуется в выражениях зарабатывать на хлеб, кусок хлеба, отбивать хлеб у кого-либо. При функциональной близости единиц различается их культурно-образная основа: русская фразеология преимущественно актуализирует хлеб, английская способна использовать более разнообразные пищевые номинации.

Важное место занимает модель «пища – материальная ценность». Русское выражение как сыр в масле кататься формирует представление о благополучии, обеспеченности и комфортном существовании посредством образа продукта, находящегося в благоприятной для него среде. Сочетание двух пищевых компонентов создаёт интенсивный образ изобилия. Семантика фразеологизма не выводится непосредственно из значений слов сыр и масло, однако именно их традиционная ценностная маркированность обеспечивает положительную оценочную направленность выражения.

Гастрономическая образность активно используется и для характеристики человека. Английское *a bad egg* обозначает человека, оцениваемого отрицательно с точки зрения его характера или поведения. В основе выражения лежит перенос качества пищевого продукта на характеристику личности: непригодность испорченного продукта концептуально соотносится с отрицательными человеческими качествами. Здесь реализуется модель «качество пищи → качество человека». Аналогичные механизмы обнаруживаются в различных языках, однако выбор исходного гастрономического образа определяется конкретной фразеологической традицией.

К данной модели примыкает английское *couch potato*, хотя его гастрономический компонент функционирует в более сложной образной структуре. Номинация *potato* взаимодействует с пространственным компонентом *couch*, создавая образ малоподвижного человека, длительное время проводящего перед экраном. Значение возникает не из традиционной символики картофеля как продукта, а из визуально-ассоциативной модели неподвижности. Это свидетельствует о способности гастрономических номинаций включаться в новые культурные сценарии и формировать фразеологические образы, связанные с изменениями образа жизни.

Русская фразеология также активно использует пищевые характеристики при оценке интеллектуальных, эмоциональных и социальных качеств человека. Выражения *каша в голове, мало каши ел, с ним каши не сваришь* демонстрируют различные направления переосмысления одного гастрономического компонента. В первом случае каша символизирует отсутствие упорядоченности мыслей, во втором связана с физической силой и недостатком жизненного опыта, в третьем приготовление пищи совместно с другим человеком становится моделью совместной деятельности. Таким образом, один гастрономический образ способен формировать несколько самостоятельных фразеологических сценариев.

Особенно интересна единица с ним каши не сваришь. Её семантика основана на бытовом сценарии совместного приготовления пищи, который метафорически переносится на социальное взаимодействие. Невозможность успешно осуществить элементарное совместное действие интерпретируется как неспособность наладить сотрудничество с человеком. Здесь гастрономический код взаимодействует с социально-коммуникативным кодом культуры. Пища становится не объектом номинации, а инструментом моделирования межличностных отношений.

Сходный механизм сценарной метафоризации наблюдается в английском *too many cooks spoil the broth*. Приготовление пищи служит моделью коллективной деятельности: чрезмерное количество участников способно ухудшить результат. В данном случае гастрономическая ситуация приобретает дидактическую функцию и выражает обобщённое представление об организации совместной работы. Сопоставление с русским материалом показывает, что процесс приготовления пищи в обеих культурах может концептуализировать социальное взаимодействие, однако конкретные сценарии и выводимые из них оценки различаются.

Семантически продуктивной является также оппозиция «сладкое – горькое», выходящая далеко за пределы собственно гастрономической сферы. В русском языке сладкая жизнь, горькая правда, горький опыт демонстрируют перенос вкусовых ощущений в область эмоциональной и аксиологической оценки. В английском языке аналогичные процессы представлены в сочетаниях и устойчивых выражениях, основанных на противопоставлении *sweet* и *bitter*. Универсальность данного механизма обусловлена телесным опытом человека: приятные и неприятные вкусовые ощущения становятся источниковой областью для осмысления абстрактных категорий удовольствия, страдания, успеха и разочарования.

Однако лингвокультурологический анализ требует учитывать, что универсальность когнитивного механизма не устраняет национальной специфики его языковой реализации. Телесный опыт может быть общим, но культурная селекция образов различается. Языковое сообщество закрепляет лишь часть потенциально возможных ассоциаций, превращая их в воспроизводимые устойчивые единицы. Поэтому национальная специфика фразеологии проявляется не только в наличии уникальных образов, но и в различной степени продуктивности универсальных моделей.

Отдельную семантическую группу составляют фразеологизмы, в которых гастрономические образы используются для характеристики речевого поведения и обращения с информацией. Английское *spill the beans* обозначает раскрытие тайны или преждевременное сообщение скрываемой информации. *Take something with a grain of salt* выражает необходимость воспринимать информацию критически, не доверяя ей полностью. В русском языке сходная семантическая сфера представлена выражениями лапшу на уши вешать, пережёвывать одно и то же, проглотить наживку, хотя гастрономический характер отдельных компонентов здесь взаимодействует с другими образными кодами.

Особый интерес представляет русское лапшу на уши вешать. Пищевая номинация включается в намеренно алогичный образный сценарий, формируя ярко выраженную экспрессивность. Несовместимость обычной функции продукта с описываемым действием способствует усилению образности и оценочности. Фразеологизм обозначает введение человека в заблуждение и характеризуется отрицательной прагматической маркированностью. Подобные единицы показывают, что гастрономический код способен взаимодействовать с комическим и абсурдизированным способом концептуализации ситуации.

Гастрономические компоненты используются также для выражения количественных характеристик. Английское *a piece of the pie* метафорически обозначает долю ресурсов, прибыли или преимуществ. Целый пирог концептуализируется как совокупность доступных благ, а отдельный кусок – как доля конкретного участника. Русское *кусок пирога* также может функционировать в аналогичной метафорической модели, особенно в экономическом и публицистическом дискурсе. Подобное сближение может быть обусловлено как универсальностью модели деления целого на части, так и межъязыковым влиянием современной медиакоммуникации.

Английская единица *the icing on the cake* репрезентирует дополнительное положительное обстоятельство, усиливающее ценность уже благоприятной ситуации. Внутренняя форма основывается на модели «готовый продукт + декоративно-вкусовое дополнение», которая переносится на структуру события «основной положительный результат + дополнительное преимущество». Гастрономическая ситуация становится схемой организации абстрактной оценки. Это демонстрирует, что фразеологический образ способен кодировать не только отдельный признак, но и отношения между элементами целостной ситуации.

Русские выражения *вишенка на торте* и *изюминка* обнаруживают близкий принцип концептуализации. Небольшой пищевой компонент выделяется на фоне целого и приобретает значение особой, заметной или завершающей детали. Особенно показательно существительное изюминка, которое в переносном употреблении способно характеризовать отличительную привлекательную черту человека, предмета или явления. Здесь наблюдается переход от предметно-гастрономического значения к абстрактно-оценочному, сопровождаемый сохранением положительной образной мотивированности.

Следовательно, одной из закономерностей гастрономической фразеологии является использование отношений «целое – часть», «основа – дополнение», «продукт – качество», «приготовление пищи – деятельность», «вкус – оценка» в качестве когнитивных моделей вторичной номинации. Такие модели позволяют систематизировать материал не по формальному наличию названий продуктов, а по типу концептуального переноса. Именно этот подход представляется продуктивным для лингвокультурологической интерпретации, поскольку раскрывает механизмы преобразования повседневного пищевого опыта в культурно значимые языковые смыслы.

Важным параметром анализа выступает аксиологическая маркированность. Гастрономические образы способны выражать как положительную, так и отрицательную оценку. Сладость, свежесть, достаток, насыщенность и привлекательность пищи преимущественно коррелируют с положительными характеристиками, тогда как испорченность, горечь, чрезмерность, отсутствие вкуса или неудачное приготовление могут становиться источниками отрицательной оценки. Однако подобная корреляция не является механической: значение определяется целостной внутренней формой фразеологизма и культурной конвенцией.

С этим связано взаимодействие эксплицитного и имплицитного компонентов фразеологической семантики. Эксплицитный уровень представлен непосредственно называемой гастрономической реалией – *хлебом, кашей, пирогом, чаем, яйцом, бобами* и другими продуктами. Имплицитный уровень включает культурные представления о достатке, бедности, гостеприимстве, лёгкости, предпочтении, сотрудничестве, обмане, успехе и социальных отношениях. В процессе фразеологизации именно имплицитная составляющая постепенно становится основой актуального значения единицы.

Сопоставление русского и английского материала показывает, что гастрономический код обладает высокой способностью взаимодействовать с другими культурными кодами. Он пересекается с антропоморфным кодом при характеристике человека, социальным – при моделировании совместной деятельности, аксиологическим – при выражении положительной и отрицательной оценки, количественным – при концептуализации части и целого, коммуникативным – при описании передачи информации, а также эмоциональным – при репрезентации приятных и неприятных переживаний. Поэтому гастрономическую фразеологию целесообразно рассматривать не как изолированный тематический пласт, а как узловую область взаимодействия различных способов культурной концептуализации.

Выявленные соответствия позволяют говорить о нескольких типах межъязыковых отношений. Первый тип образуют фразеологические единицы, демонстрирующие близость значения и образной основы. Второй представлен семантически эквивалентными или близкими единицами, которые выражают сходное содержание посредством различных гастрономических образов. Третий тип составляют национально-специфические фразеологизмы, внутренняя форма которых непосредственно связана с культурно значимыми пищевыми реалиями, традициями и ассоциативными моделями конкретного языкового сообщества. Четвёртый тип образуют единицы с частичным межъязыковым соответствием, при котором совпадает отдельный семантический или оценочный компонент, тогда как образная структура и прагматическая направленность различаются.

Такое разграничение показывает, что сопоставление гастрономической фразеологии не может ограничиваться установлением формальных эквивалентов. Значительно более существенным оказывается выявление характера концептуального соответствия между единицами. Два фразеологизма могут обозначать сходную ситуацию, но репрезентировать её посредством различных фрагментов пищевого опыта. Именно несовпадение внутренней формы позволяет установить специфику культурной категоризации и определить, какие гастрономические реалии приобретают повышенную символическую значимость в каждой из рассматриваемых лингвокультур.

Проведённый анализ позволяет выделить несколько основных концептуальных моделей гастрономической фразеологизации в русском и английском языках: «пища – материальное благополучие», «вкус – оценка», «приготовление пищи – совместная деятельность», «качество продукта – качество человека», «потребление пищи – получение/усвоение», «часть пищи – доля целого», «пищевое изобилие – благополучие», «неприятный вкус – негативный опыт». Данные модели свидетельствуют о системном характере метафорического переноса: гастрономическая сфера функционирует как одна из базовых источниковых областей концептуализации абстрактных явлений.

Особенно существенным результатом исследования является выявление различной степени культурной маркированности отдельных гастрономических компонентов. В русской фразеологической картине мира повышенной символической продуктивностью характеризуются образы хлеба, соли, каши, масла, мёда и ряда других традиционных продуктов. В английской фразеологии заметную роль играют *bread, cake, pie, tea, egg, beans, bacon, salt*. Частотность соответствующих образов сама по себе ещё не определяет национальную специфику; более значимым является набор закреплённых за ними вторичных значений. Один и тот же продукт может занимать различное место в системе культурных ассоциаций и участвовать в формировании неодинаковых концептуальных моделей.

Заключение. Проведённое исследование позволяет заключить, что гастрономические образы занимают значимое место во фразеологической картине мира русского и английского языков и

представляют собой продуктивный механизм вторичной номинации, посредством которого конкретный чувственно-бытовой опыт преобразуется в средство концептуализации абстрактных явлений. Пища, напитки, вкусовые характеристики, процессы приготовления и употребления продуктов выступают не только компонентами внутренней формы фразеологизмов, но и культурно маркированными знаками, аккумулирующими коллективный опыт соответствующего языкового сообщества.

Сопоставительный анализ выявил сочетание универсальных и национально-специфических тенденций. Общность русской и английской гастрономической фразеологии определяется универсальностью пищевого опыта и сходством базовых когнитивных механизмов метафоризации. В обоих языках гастрономическая сфера используется для концептуализации материального благополучия, человеческих качеств, эмоциональных состояний, оценки, межличностного взаимодействия, речевого поведения, успеха и неудачи.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Бушуй Т. А., Сафаров Ш. С. Тил қурилиши: таҳлил методлари ва методологияси //Тошкент: Фан. – 2007. – Т. 274.

2. Бушуй Т.А. Фразеографирование в контрастивном лексическом словаре методом гнездообразования // Филологические науки. - Тамбов: Грамота, 2010. - № 2 (6). - С. 25.

3. Бушуй Татьяна Анатольевна. "Основы современной теории контрастивной фразеографии" Вестник Челябинского государственного университета, no. 29, 2010, pp. 47-52.

4. Бушуй Т.А. Язык в системной структурации. – Издательство "Fan", 2014. – 232 с.

5. Бушуй Т.А. Открытость и динамичность системы языка //Современные гуманитарные исследования. – 2015. – №. 2. – С. 70-73.

6. Бушуй Т.А. Опыт преподавания языковедческих дисциплин в вузах Узбекистана // European Research: Innovation in Science, Education and Technology. – 2018. – С. 46-48.

7. Бушуй Т.А. Проблема языка и нации в лингвокультурологическом аспекте // International scientific review. – 2019. – №. LVI. – С. 48-50.

8. Бушуй Т. Языкознание: прошлое, настоящее и будущее // Т.: Янги аср авлоди. – 2020. – 184 с.

9. Бушуй Т.А. Краткий экскурс в современную немецкую лексикографию // Язык и культура. – 2021. – С. 40-46.

10. Бушуй Т.А. Neolexicography: Problems and Prospectives // Международный журнал языка, образования, перевода. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 7-15.

11. Бушуй Т. Когнитивные особенности функционально-тематических групп арготизмов русского языка // Традиции и инновации в исследовании и преподавании языков. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 12-17.

12. Бушуй Т.А. Современный словарь как продукт определенной научной концепции // IQRO. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 10.

13. Бушуй Т. Преимущества электронных учебных словарей русского языка //Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit. – 2025. – С. 99-101.

14. Сафаров Шахриёр Сафарович, and Бушуй Татьяна Анатольевна. "О цельнооформленности сложно- го слова и словосочетания" Acta Linguistica Petropolitana. Труды института лингвистических исследований, vol. III, no. 1, 2007, pp. 216-225.

15. Фалеева А.В. Отражение лексико-семантических особенностей скрытого смысла коллоквиализмов-зоонимов в лексикографических источниках // Вестник Челябинского государственного университета. – 2021. – №. 9 (455). – С. 192-199.

16. Фалеева Анастасия Вадимовна. "Тематическая дифференциация коллоквиализмов с имплицитным значением в лексикографических источниках" Вестник Челябинского государственного университета, no. 7 (465), 2022, pp. 128-136.

17. Фалеева А. В. Лексико-семантические и деривационные особенности коллоквиальных акронимов и бэкронимов в современных печатных и электронных лексикографических источниках //Miasto Przyszłości. – 2023. – Т. 35. – С. 540-543.

18. Фалеева А.В. "Компрессивные способы формирования коллоквиальной лексики с имплицитным значением в англоязычных словарях" Вестник Челябинского государственного университета, no. 3 (485), 2024, pp. 22-32. doi:10.47475/1994-2796-2024-485-3-22-32

19.Anatolyevna, B. (2025). Contemporary Contrastive Lexicography: Trends, Approaches, And Prospects. International Journal of Language Learning and Applied Linguistics, 4(4). https://doi.org/10.51699/ijllal.v4i4.801

20.Bushuy T. Til va insoniyat tarixi // Til va jamiyat. Xalqaro ilmiy-nazariy konferentsiya materiallari. (Samarqand sh., 2003- yil 28-30 may) Samarqand. – 2003. B 15-18

21.Bushuy T. Contextual actualization of phraseology in English expressions //Scientific Enquiry in the Contemporary World: Theoretical Basics and Innovative Approach. – 2015. – C. 81-84.

22.Bushuy T.A. The Emergence of Language Multitude // Scientific reports of Bukhara State University. – 2018. – T. 1. – №. 3. – C. 62-67.

23.Bushuy T.A., Mukhammadieva R.K "ENGLISH ANTHROPONYMS AS PHRASEOLOGICAL UNITS IN THE SYSTEM OF NOMINATIVE UNITS". Archive of Conferences, vol. 15, no. 1, Feb. 2021, pp. 221-4, https://conferencepublication.com/index.php/aoc/article/view/729.

24.Bushuy T., & Khayrullaev K. Life of Word during Coronavirus. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 2(8), 2022. – С. 19–28. URL: https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/2613

25.Bushuy T. Features of Representation of Some Word Forms and Meanings of Phraseological Units in Contrastive Lexicographical Sources // Международный журнал языка, образования, перевода. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – 22 с.

26.Bushuy T.A. (2023). Language in Modern Linguistics. Miasto Przyszłości, 39, 23–26. Retrieved from https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/1678

27.Bushui Tatyana Anatolievna, and Urunova Nasiba Kakhramonovna. "Peculiarities of modification of medical terminology in connection with the emergence of new technologies" International scientific review, no. XCIX, 2024, pp. 21-25.

28.Bushuy, T. A. (2024). Pragmatic Possibilities of Lexis in Modern Linguistics. Miasto Przyszłości, 54, 1109–1114. Retrieved from https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/5345

29.Bushuy Tatyana Anatolyevna The Problem of Word Meaning and Phraseologically Related Meaning in Linguistic Science // Современные инновации. 2025. №1 (47). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/the-problem-of-word-meaning-and-phraseologically-related-meaning-in-linguistic-science. - pp 16-18

30.Faleyeva A. V. Derivational peculiarities of colloquial words in modern English dictionaries // Язык и культура. – 2021. – С. 99-104.

31.Faleeva A. V. Experience of the investigation of English colloquial system //Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti. – Buxoro. – 2021. – Т. 1. – №. 83. – С. 159-169.

32.Faleeva A. V. Investigation of the Colloquial Formation of Modern English Language // Международный журнал языка, образования, перевода. – 2022. – Т. 3. – №. 2. – С. 59-67.

33.Faleeva A. V. Grammatical, Semantic and Structural Features of English Colloquial Words and Expressions // International Journal of Language Learning and Applied Linguistics. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 202-206.

34.Faleeva A. Theoretical and Practical Research of the Formation of Colloquialistics of the English Language in Level Interpretation // Международный журнал языка, образования, перевода. – 2023. – Т. 4. – №. 5. – С. 28-36.

35.Faleeva Anastasiya Vadimovna. "Features of presentation of English spoken lexis in the electronic and printed version of the urban dictionary" International scientific review, no. XCIX, 2024, pp. 25-27.

36.Faleeva A. V. Traditions and Innovations in the Study of English Colloqualistics in the Perspective of Modern Printed and Electronic Lexicographical Sources //Academic research in educational sciences. – 2024. – Т. 5. – №. CSPU Conference 1. – С. 337-341.

37.Faleeva A. New Zealand colloquial English (based on the material of urban dictionary online) //Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit. – 2025. – С. 39-41.

38.Nurullayeva G., Faleeva A. Linguocultural Peculiarities of Anthroponyms in the English Language //Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit. – 2024. – С. 397-399.

39.Vadimovna F. A. Theoretical Experience and Representation of English Colloquial Lexis in Dictionary Interpretation (Based on the Concise New Partridge Dictionary of Slang and Unconventional English) //Miasto Przyszłości 56 (2025): 355. – 2025. – Т. 359-340.

УДК 811.111

КОГНИТИВНО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РЕПРЕЗЕНТАЦИИ ЮМОРА, ИРОНИИ И САРКАЗМА В АНГЛИЙСКОЙ КОЛЛОКВИАЛЬНОЙ ЛЕКСИКЕ

Фалеева Анастасия Вадимовна,
доцент Самаркандского государственного института иностранных языков, DSc
faleyevanastya97@mail.ru, info@samdchti.uz

Аннотация. *В статье исследуются когнитивно-семантические механизмы репрезентации юмора, иронии и сарказма в современной английской коллоквиальной лексике. Устанавливается роль концептуальной интеграции, метафоризации, семантической инверсии, гиперболизации и оценочного переосмысления в формировании комического эффекта. Выявляется зависимость интерпретации коллоквиализмов от фоновых знаний, коммуникативной ситуации, оценочной позиции говорящего и механизмов прагматического инференциального вывода в неформальном англоязычном дискурсе.*

Ключевые слова: *коллоквиализм, юмор, ирония, сарказм, концептуализация, семантика, инференция.*

INGLIZ TILI KOLLOKVIAL LEKSIKASIDA YUMOR, IRONIYA VA SARKAZM REPREZENTATSIYASINING KOGNITIV-SEMANTIK MEXANIZMLARI

Annotatsiya. *Maqolada zamonaviy ingliz tili kollokvial leksikasida yumor, ironiya va sarkazmni ifodalashning kognitiv-semantik mexanizmlari tadqiq etiladi. Komik effektni shakllantirishda konseptual integratsiya, metaforizatsiya, semantik inversiya, giperbolizatsiya hamda baholovchi qayta anglashning o‘rni aniqlanadi. Kollokvializmlarning talqin qilinishi fon bilimlari, kommunikativ vaziyat, so‘zlovchining baholash pozitsiyasi hamda norasmiy ingliz tilidagi diskursda pragmatik inferensial xulosa chiqarish mexanizmlariga bog‘liqligi ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *kollokvializm, yumor, ironiya, sarkazm, konseptuallashtirish, semantika, inferensiya.*

COGNITIVE-SEMANTIC MECHANISMS OF THE REPRESENTATION OF HUMOR, IRONY, AND SARCASM IN ENGLISH COLLOQUIAL VOCABULARY

Abstract. *The article examines the cognitive-semantic mechanisms underlying the representation of humor, irony, and sarcasm in contemporary English colloquial vocabulary. It identifies the role of conceptual integration, metaphorization, semantic inversion, hyperbolization, and evaluative reinterpretation in producing comic effects. The study reveals that the interpretation of colloquialisms depends on background knowledge, the communicative situation, the speaker’s evaluative stance, and mechanisms of pragmatic inferential processing in informal English-language discourse.*

Keywords: *colloquialism, humor, irony, sarcasm, conceptualization, semantics, inference.*

Введение. Современная английская коллоквиальная лексика представляет собой динамическую область языковой системы, в которой особенно интенсивно реализуются процессы семантического переосмысления и экспрессивной концептуализации действительности [27, 338]. Значительное место в её организации занимают юмор, ирония и сарказм, функционирующие не только как стилистические средства, но и как когнитивные способы интерпретации коммуникативного опыта [1, 25; 21, 355]. Их декодирование предполагает соотнесение буквального значения языковой единицы с контекстом, фоновыми знаниями, оценочными установками и коммуникативными намерениями говорящего [9, 10; 13, 193]. В коллоквиальной коммуникации подобное взаимодействие обусловливает возникновение дополнительных смысловых компонентов, которые не выводятся непосредственно из словарной семантики. Актуальность исследования определяется необходимостью системного описания механизмов, обеспечивающих формирование юмористического, иронического и саркастического смыслов, а также установления их роли в семантической организации современных английских коллоквиализмов и их дискурсивном функционировании.

Обзор литературных источников. Теоретическое осмысление юмора, иронии и сарказма связано с несколькими направлениями современной лингвистики. В теории семантических сценариев В. Раскина комический эффект рассматривается как результат взаимодействия несовместимых

интерпретационных сценариев. С. Аттардо развивает данный подход в рамках общей теории вербального юмора, учитывающей многоуровневую организацию высказывания [2, 232; 14, 129]. Концепция релевантности Д. Спербера и Д. Уилсон позволяет трактовать иронию через механизмы интерпретативного употребления и имплицитной оценки. Когнитивное направление представлено теориями концептуальной метафоры Дж. Лакоффа и М. Джонсона и концептуальной интеграции Ж. Фоконье и М. Тернера [16, 81; 17, 64]. Исследования Р. Гиббса демонстрируют зависимость интерпретации иронии от контекстуального знания и когнитивного инференцирования. Вместе с тем когнитивно-семантическая специфика именно коллоквиальных единиц требует дальнейшего комплексного изучения

Методология исследования. Методология исследования основывается на интеграции когнитивно-семантического, прагматического, контекстуального и компонентного подходов. Материал составляют современные английские коллоквиальные единицы, реализующие юмористические, иронические и саркастические значения в повседневной, молодёжной, медиальной и цифровой коммуникации. Когнитивно-семантический анализ применяется для реконструкции концептуальных структур, лежащих в основе смыслового переосмысления. Метод контекстуального анализа позволяет установить зависимость значения от коммуникативной ситуации, а компонентный анализ – выявить трансформацию денотативных, коннотативных и оценочных сем. Прагматическая интерпретация используется для определения имплицитной позиции говорящего. Дополнительно применяются элементы фреймового анализа и концептуального моделирования, позволяющие установить механизмы семантической инверсии, метафоризации, гиперболизации, концептуального смешения и инференциального достраивания смысла.

Анализ полученных результатов. Проведённый анализ показывает, что юмористическое, ироническое и саркастическое содержание английских коллоквиализмов не образует автономного семантического слоя, механически присоединяемого к денотативному значению языковой единицы [25, 47]. Оно возникает в результате когнитивной переработки исходной концептуальной структуры и соотнесения её с коммуникативным контекстом. Вследствие этого одна и та же единица способна реализовывать нейтральную, юмористическую, ироническую либо саркастическую интерпретацию. Определяющим фактором становится не столько словарное содержание, сколько несоответствие между буквальной семантикой, актуализируемым сценарием и оценочной позицией говорящего [10, 12]. В исследованном материале наиболее продуктивными механизмами являются семантическая инверсия, сценарная оппозиция, гиперболизация, метафорическое переосмысление, концептуальная интеграция, оценочная поляризация и контекстуальное инференцирование. Эти механизмы взаимодействуют, формируя многоуровневую модель коллоквиального значения.

Первым механизмом выступает семантическая инверсия, при которой эксплицитно положительное содержание используется для выражения отрицательной оценки или, реже, отрицательная форма приобретает контекстуально положительный смысл. Показательны разговорные формулы *great job, nice one, brilliant, genius* и *well done*. В прямом употреблении они выражают одобрение, однако после очевидной ошибки или неудачного действия способны актуализировать противоположную оценку. Высказывание *Nice one*! после того, как собеседник что-либо испортил, интерпретируется не как похвала, а как ироническая реакция. В когнитивном отношении реципиент одновременно активирует два оценочных пространства: лексически выраженное *одобрение* и ситуативно обусловленное *неодобрение*. Их несовместимость инициирует переоценку буквального значения. Следовательно, ироническая семантика формируется не посредством замены одного значения другим, а через сохранение исходного значения в качестве когнитивного фона, относительно которого распознаётся противоположная коммуникативная установка [4, 47].

Близким, но структурно более сложным механизмом является сценарная оппозиция. Комический эффект возникает вследствие одновременной активации двух несовместимых моделей интерпретации ситуации. Например, коллоквиальное *living the dream* буквально концептуализирует состояние как реализацию желаемого жизненного сценария. Однако выражение широко функционирует и иронически – применительно к рутинной работе, усталости, бытовым трудностям или незначительным неудачам. В подобном контексте взаимодействуют сценарии *идеальная жизнь* и *непривлекательная повседневность*. Юмор порождается дистанцией между ними. Аналогичный механизм обнаруживается в употреблении *best day ever* применительно к явно неприятному событию. Семантическая структура высказывания при этом не разрушается: буквальный сценарий необходим для возникновения иронического эффекта, поскольку именно его несоответствие наблюдаемой ситуации становится источником дополнительного смысла [22, 99].

Третьим продуктивным механизмом является гиперболизация, основанная на когнитивном увеличении масштаба события, свойства или эмоциональной реакции. В английской коллоквиальной речи конструкции *I'm dying, I'm dead, I literally died, I can't, I'm obsessed* обычно не соотносятся с буквальными экстремальными состояниями. Так, *I'm dead* в реактивной цифровой коммуникации может обозначать чрезвычайно сильное веселье, удивление или эмоциональное потрясение. Здесь происходит концептуальное перемещение от предельного физического состояния к высокой интенсивности эмоции. Смерть выступает условной крайней точкой шкалы, посредством которой кодируется сила реакции. Юмористичность обусловлена очевидной невозможностью буквальной интерпретации в конкретной ситуации. При этом гипербола выполняет не только экспрессивную, но и когнитивно-квантифицирующую функцию: она позволяет представить абстрактную интенсивность переживания через максимально доступный предел концептуальной шкалы.

Особую разновидность гиперболизации представляет разговорная конструкция *main character energy*. Она описывает поведение человека посредством его концептуализации как центрального персонажа воображаемого повествования. Юмористический или иронический потенциал возникает тогда, когда обыденное действие представляется как эпизод драматически организованного сюжета. Связанные выражения *main character moment* и *main character syndrome* демонстрируют дальнейшее развитие данной модели. В зависимости от контекста один и тот же концепт может передавать одобрение уверенности человека либо иронически маркировать чрезмерную сосредоточенность на себе. Следовательно, коллоквиальная семантика организуется посредством наложения нарративной модели на повседневный социальный опыт, а юмористическая интерпретация становится результатом несоответствия между масштабом реального события и его воображаемой нарративной значимостью [24, 202].

Значительную роль играет метафорическое переосмысление. Английская коллоквиальная лексика активно использует конкретные физические действия и состояния для категоризации социальных и психологических процессов. Например, *roast* в разговорном употреблении обозначает резкую насмешку или словесное высмеивание человека. Исходная семантика термического воздействия проецируется на сферу межличностной коммуникации: интенсивное словесное воздействие концептуализируется как воздействие высокой температуры. Производные модели *roast someone* и *get roasted* сохраняют образную структуру и одновременно кодируют распределение коммуникативных ролей. Юмористическая составляющая особенно выражена в ситуациях дружеского взаимодействия, где агрессивный буквальный образ вступает в противоречие с неагрессивной социальной функцией высказывания. Саркастический потенциал, напротив, возрастает при усилении отрицательной оценки объекта.

Сходный процесс наблюдается в коллоквиальном *burn*, обозначающем остроумную, язвительную или уничижительную реплику. Физическое повреждение огнём концептуально переносится на коммуникативное поражение. Выражение *sick burn* дополнительно усиливает оценку удачной словесной атаки. Когнитивная модель может быть представлена как «физическое повреждение → вербальное воздействие» [23, 60]. Существенно, что подобная метафора организует не только значение отдельной лексемы, но и целый фрейм коммуникативного взаимодействия, включающий агента, объект, действие, степень воздействия и реакцию наблюдателей. Тем самым юмор и сарказм оказываются встроенными в сценарную структуру значения, а не существуют исключительно как стилистический эффект конкретного высказывания [6, 14].

Следующим механизмом является концептуальная интеграция, при которой элементы различных ментальных пространств объединяются в новую смысловую конфигурацию. Показательна коллоквиальная единица *humblebrag*, совмещающая концепты «скромность и хвастовство». Формально несовместимые модели поведения интегрируются в обозначении высказывания, внешне представленного как жалоба или самоумаление, но фактически направленного на демонстрацию преимущества [19, 24]. Например, сообщение о чрезмерной усталости из-за многочисленных профессиональных предложений может структурно реализовывать жалобу, одновременно имплицируя востребованность говорящего. Юмористический и иронический потенциал *humblebrag* определяется распознаванием противоречия между поверхностной коммуникативной формой и скрытой самопрезентационной целью. Здесь концептуальная интеграция приводит к возникновению новой категории, значение которой не сводится к простой сумме исходных компонентов.

Аналогичный принцип характерен для выражения *first-world problem*. Оно категоризирует незначительное неудобство как «проблему», одновременно помещая его в более широкий фрейм глобального социального неравенства. Высказывание *My Wi-Fi is too slow for streaming – first-world problem* демонстрирует самоироническую переоценку собственного недовольства. Когнитивный

эффект возникает посредством масштабного сопоставления: локальная бытовая трудность соотносится с концептом серьёзной жизненной проблемы, вследствие чего её значимость намеренно понижается. Таким образом, юмор функционирует как механизм когнитивного дистанцирования, позволяющий говорящему одновременно выразить недовольство и продемонстрировать осознание его относительной несущественности [20, 22].

Отдельное место занимает оценочная поляризация, при которой коллоквиальная единица допускает противоположные аксиологические интерпретации. Например, *savage* может обозначать чрезмерно жёсткое, безжалостное поведение, однако в разговорной коммуникации способно положительно характеризовать особенно остроумную, смелую или эффектную реплику [18, 24; 26, 28]. Высказывание *That comeback was savage* не обязательно содержит порицание; напротив, оно может выражать восхищение вербальной эффективностью ответа. Происходит перераспределение оценочных признаков: сема «жестокость» ослабляется, тогда как признаки «сила, резкость и эффективность» становятся основанием положительной оценки. Юмор и сарказм в подобных случаях оказываются связанными с динамической аксиологической структурой коллоквиализма, значение которого определяется не фиксированной оценкой, а системой контекстуально активируемых признаков.

С оценочной поляризацией непосредственно связан механизм псевдопохвалы. Разговорные выражения *good for you, aren't you clever?, look at you* или *what a hero* способны реализовывать как искреннее одобрение, так и ироническую либо саркастическую оценку. В высказывании *Well, aren't you clever?* буквальная положительная характеристика может сигнализировать раздражение, неодобрение или насмешку. Когнитивное декодирование требует реконструкции отношения говорящего к объекту оценки [12, 73]. При этом сарказм характеризуется более выраженной направленностью на адресата и большей интенсивностью отрицательной аксиологической позиции, тогда как ирония может ограничиваться демонстрацией несоответствия между ожидаемым и действительным [8, 9]. Следовательно, разграничение иронического и саркастического значения следует осуществлять не исключительно по лексическому составу высказывания, а по параметрам оценочной направленности, коммуникативной цели и интенсивности имплицитной критики.

Продуктивным механизмом выступает также литотизация и минимизация, представляющая собой обратную гиперболизации стратегию. Выражения *not ideal, not great, a bit of a mess* способны использоваться применительно к существенно более серьёзным отрицательным ситуациям. Комический эффект возникает вследствие намеренного уменьшения реального масштаба события. В когнитивном отношении говорящий формирует несоответствие между объективно предполагаемой степенью признака и его языковой репрезентацией. Если *a bit of a disaster* описывает очевидно серьёзную неудачу, компонент *a bit* выполняет функцию фиктивного уменьшителя. Подобная стратегия особенно характерна для самоиронии: субъект снижает драматичность негативного опыта и одновременно сигнализирует адресату, что осознаёт реальный масштаб ситуации. Юмор становится средством эмоционального дистанцирования и социальной регуляции.

Самостоятельную группу образуют коллоквиализмы, основанные на нарушении категориальных ожиданий. Так, характеристика человека или ситуации посредством *hot mess* объединяет семантически разнонаправленные компоненты. *Mess* категоризирует объект как неорганизованный или проблемный, тогда как *hot* в определённых употреблениях может привносить положительно-аттрактивную оценку. Итоговая конструкция обозначает человека или ситуацию, сочетающих привлекательность, эмоциональную выразительность либо симпатичность с очевидной неорганизованностью. Комический потенциал обусловлен не устранением противоречия, а его сохранением внутри единой категории [11, 100]. Подобные единицы свидетельствуют о том, что современная коллоквиальная номинация активно использует семантическую несовместимость как способ создания когнитивно насыщенных оценочных значений.

Важным результатом исследования является установление роли инференциального достраивания. Значительная часть юмористической и саркастической информации не кодируется непосредственно языковой формой [3, 71]. Например, реплика *That went well* после очевидно провалившегося мероприятия требует от адресата самостоятельного вывода о несоответствии буквальной оценки реальному положению дел. Словарные значения всех компонентов остаются неизменными, однако итоговый смысл оказывается противоположным буквальному. Адресат сопоставляет высказывание с доступными данными ситуации, обнаруживает конфликт и реконструирует имплицитную оценку. В результате значение формируется как продукт взаимодействия языковой семантики и когнитивной инференции. Именно данный механизм

объясняет высокую контекстуальную зависимость иронии и сарказма и невозможность их последовательного описания исключительно средствами традиционного компонентного анализа.

Особенно отчётливо инференциальная природа коллоквиальной семантики проявляется в цифровой коммуникации, где часть паралингвистических сигналов заменяется графическими и дискурсивными маркерами. Формулы *sure, Jan, okay, genius* или *thanks for that* могут приобретать саркастическое значение только при наличии определённого контекста. В подобных случаях адресат должен идентифицировать несоответствие между формальной речевой функцией и реальной интенцией. Благодарность может кодировать раздражение, согласие – недоверие, а положительная номинация – отрицательную оценку. Таким образом, коллоквиальный сарказм характеризуется высокой степенью семантической непрямоты: поверхностный пропозициональный уровень служит своеобразной когнитивной оболочкой для противоположного или модифицированного оценочного содержания.

Проведённое исследование позволяет также разграничить юмор, иронию и сарказм по характеру когнитивной операции. Для юмора наиболее типична сценарная несовместимость, вызывающая неожиданное переключение интерпретации без обязательной отрицательной оценки объекта [5, 48; 15, 540]. Ирония основывается преимущественно на дистанцировании говорящего от буквального содержания и актуализации расхождения между выраженным и подразумеваемым. Сарказм предполагает аналогичное семантическое расслоение, однако отличается выраженной оценочной направленностью и наличием объекта критического воздействия. Эти категории не образуют абсолютно изолированных классов: конкретное высказывание может одновременно реализовывать юмористический и иронический эффект либо сочетать иронию с саркастической оценкой [7, 40]. Их соотношение целесообразно представлять как континуум, организованный параметрами оценочности, экспрессивности, адресной направленности и степени смысловой непрямоты.

В результате можно предложить интегративную модель формирования рассматриваемых значений. На первом этапе активируется буквальная семантическая структура коллоквиальной единицы; на втором она соотносится с актуальным ситуативным или дискурсивным фреймом; на третьем обнаруживается несоответствие между буквальным содержанием и контекстуальными ожиданиями; на четвёртом запускается механизм концептуальной коррекции – инверсия, метафоризация, гиперболизация, минимизация, смешение или оценочная переориентация; на пятом посредством инференции реконструируется коммуникативная позиция говорящего. Конечным результатом становится интегрированное коллоквиальное значение, включающее денотативный, образный, оценочный, эмоциональный и прагматический компоненты. Следовательно, юмор, ирония и сарказм в современной английской коллоквиальной лексике следует рассматривать как результат системного взаимодействия семантических структур и когнитивных операций, обеспечивающих гибкую интерпретацию опыта и формирование дополнительных оценочно-прагматических смыслов.

Заключение. Проведённое исследование позволяет заключить, что репрезентация юмора, иронии и сарказма в современной английской коллоквиальной лексике имеет комплексную когнитивно-семантическую природу и формируется в результате взаимодействия языкового значения, концептуальных структур, контекстуальной информации и прагматических установок участников коммуникации. Установлено, что основными механизмами образования соответствующих смыслов выступают семантическая инверсия, сценарная оппозиция, гиперболизация, метафорическое переосмысление, концептуальная интеграция, оценочная поляризация, минимизация и инференциальное достраивание.

Выявлено, что юмористическая интерпретация преимущественно основывается на когнитивном столкновении несовместимых сценариев и нарушении прогнозируемых категориальных ожиданий. Ироническое значение возникает вследствие дистанцирования говорящего от буквального содержания высказывания и актуализации несоответствия между эксплицитной номинацией и имплицитной оценкой. Сарказм характеризуется дополнительным усилением отрицательной оценочности, выраженной адресной направленностью и прагматической установкой на критическое воздействие.

Анализ также показал, что границы между юмористическим, ироническим и саркастическим значениями имеют континуальный характер. Их разграничение определяется совокупностью параметров, включающих интенсивность оценки, степень семантической непрямоты, коммуникативную интенцию и особенности актуализируемого контекста.

Полученные результаты позволяют рассматривать английский коллоквиализм как динамическую когнитивно-семантическую структуру, значение которой не ограничивается

совокупностью словарно закреплённых компонентов. Предложенная интегративная модель демонстрирует последовательный переход от буквальной семантической активации к контекстуальному конфликту, концептуальной модификации и инференциальной реконструкции коммуникативного смысла. Перспективным представляется дальнейшее корпусное исследование выявленных механизмов с учётом жанровой, возрастной, социальной и цифровой вариативности современной англоязычной коммуникации.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Бушуй Т.А. Фразеографирование в контрастивном лексическом словаре методом гнездообразования // Филологические науки. - Тамбов: Грамота, 2010. - № 2 (6). - С. 25.

2. Бушуй Т.А. Язык в системной структурации. – Издательство "Fan", 2014. – 232 с.

3. Бушуй Т.А. Открытость и динамичность системы языка //Современные гуманитарные исследования. – 2015. – №. 2. – С. 70-73.

4. Бушуй Т.А. Опыт преподавания языковедческих дисциплин в вузах Узбекистана // European Research: Innovation in Science, Education and Technology. – 2018. – С. 46-48.

5. Бушуй Т.А. Проблема языка и нации в лингвокультурологическом аспекте // International scientific review. – 2019. – №. LVI. – С. 48-50.

6. Бушуй Т. Языкознание: прошлое, настоящее и будущее // Т.: Янги аср авлоди. – 2020. – 184 с.

7. Бушуй Т.А. Краткий экскурс в современную немецкую лексикографию // Язык и культура. – 2021. – С. 40-46.

8. Бушуй Т.А. Neolexicography: Problems and Prospectives // Международный журнал языка, образования, перевода. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 7-15.

9. Бушуй Т.А. Современный словарь как продукт определенной научной концепции // IQRO. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 10.

10. Бушуй Т. Когнитивные особенности функционально-тематических групп арготизмов русского языка // Традиции и инновации в исследовании и преподавании языков. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 12-17.

11. Фалеева А.В. Трансформационные возможности коллоквиального предложения в английском языке // Иностранная филология: язык, литература, образование. – № (62), 2017. – С. 99-105.

12. Фалеева А.В. Коллоквиалистика как источник пополнения эмоционально-экспрессивных ресурсов английского языка // International scientific review. – 2019. – №. LVI. – С. 72-74.

13. Фалеева А.В. Отражение лексико-семантических особенностей скрытого смысла коллоквиализмов-зоонимов в лексикографических источниках // Вестник Челябинского государственного университета. – 2021. – №. 9 (455). – С. 192-199.

14. Фалеева А.В. Тематическая дифференциация коллоквиализмов с имплицитным значением в лексикографических источниках // Вестник Челябинского государственного университета. – 2022. – №. 7 (465). – С. 128-136.

15. Фалеева А.В. Лексико-семантические и деривационные особенности коллоквиальных акронимов и бэкронимов в современных печатных и электронных лексикографических источниках // Miasto Przyszłości. – 2023. – Т. 35. – С. 540-543.

16. Bushuy T. Contextual actualization of phraseology in English expressions // Scientific Enquiry in the Contemporary World: Theoretical Basics and Innovative Approach. – 2015. – С. 81.

17. Bushuy T.A. The Emergence of Language Multitude // Scientific reports of Bukhara State University. – 2018. – Т. 1. – №. 3. – С. 62-67.

18. Bushuy T., & Khayrullaev K. Life of Word during Coronavirus. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 2(8), 2022. – С. 19–28. URL: https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/2613.

19. Bushuy T.A. (2023). Language in Modern Linguistics. Miasto Przyszłości, 39, P. 23–26. Retrieved from https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/1678

20. Bushuy T. Features of Representation of Some Word Forms and Meanings of Phraseological Units in Contrastive Lexicographical Sources // Международный журнал языка, образования, перевода. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – 22 с.

21. Faleyeva A.V. Derivational peculiarities of colloquial words in modern English dictionaries Vadimovna, Faleeva Anastasiya. "Theoretical Experience and Representation of English Colloquial Lexis in

Dictionary Interpretation (Based on the Concise New Partridge Dictionary of Slang and Unconventional English)." Miasto Przyszłości 56 (2025): 355-359.

22.Faleyeva A.V. Derivational peculiarities of colloquial words in modern English dictionaries // Язык и культура. – 2021. – С. 99-104.

23.Faleeva A.V. Investigation of the Colloquial Formation of Modern English Language // Международный журнал языка, образования, перевода. – 2022. – Т. 3. – №. 2. – С. 59-67.

24.Faleeva A.V. Grammatical, Semantic and Structural Features of English Colloquial Words and Expressions // International Journal of Language Learning and Applied Linguistics. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 202-206.

25.Faleeva A.V. Theoretical Interpretation of American Colloquialistics in Lexicographical Sources // Ilm-fan yangiliklari konferensiyasi. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – Р. 45-48

26.Faleeva A. Theoretical and Practical Research of the Formation of Colloquialistics of the English Language in Level Interpretation // Международный журнал языка, образования, перевода. – 2023. – Т. 4. – №. 5. – С. 28-36.

27.Faleeva A.V. Traditions and Innovations in the Study of English Colloqualistics in the Perspective of Modern Printed and Electronic Lexicographical Sources // Academic research in educational sciences. – 2024. – Т. 5. – №. CSPU Conference 1. – С. 337-341.

UO‘K 81

MEDIAMATN EKSPRESSIVLIGINI OSHIRISHDA LEKSIK-SEMANTIK VOSITALARNING O‘RNI

Usmonova Umida Baxtiyorovna,
Abdulla Qodiriy nomli Jizzax davlat pedagogika universiteti Xorijiy tillar kafedrasi dotsenti v.b., f.f.f.d.(PhD)

Annotatsiya. *Maqolada mediamatnda sinonimiya va antonimiya hodisalarining shakliy va ma’noviy xususiyatlari o‘zbek va ingliz tillari misolida tahlil qilinadi. Sinonimiya til va nutq bosqichida o‘zaro aloqadorlikda o‘rganilib, leksik-semantik, kontekstual, stilistik va nutqiy sinonimlarning takrorga yo‘l qo‘ymaslik, ma’noni kuchaytirish va ifodaning bo'yoqdorligini oshirishdagi vazifasi yoritiladi. Shuningdek, leksik, affiksal va frazeologik antonimlarning matn ta’sirchanligini ta’minlashdagi o‘rni, nutqiy voqelikka zid birliklar hamda so‘zning ma’no jilolari masalasi ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *mediamatn, sinonimiya, antonimiya, nutqiy sinonim, affiksal sinonimiya, affiksal antonimiya, frazeologik antonimiya, ekspressivlik, ma’no.*

РОЛЬ ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИХ СРЕДСТВ В ПОВЫШЕНИИ ЭКСПРЕССИВНОСТИ МЕДИАТЕКСТА

Аннотация. *В статье на материале узбекского и английского языков анализируются формальные и семантические особенности явлений синонимии и антонимии в медиатексте. Синонимия рассматривается во взаимосвязи уровней языка и речи; раскрывается роль лексико-семантических, контекстуальных, стилистических и речевых синонимов в предотвращении повтора, усилении смысла и повышении экспрессивности высказывания. Также исследуются лексические, аффиксальные и фразеологические антонимы как средство повышения воздействующей силы текста, единицы, противоречащие речевой действительности, и проблема смысловых оттенков слова.*

Ключевые слова: *публицистический текст, синонимия, антонимия, речевой синоним, аффиксальная синонимия, аффиксальная антонимия, фразеологическая антонимия, экспрессивность, смысл.*

THE ROLE OF LEXICAL-SEMANTIC MEANS IN ENHANCING THE EXPRESSIVENESS OF MEDIA TEXTS

Abstract. *The article analyzes the formal and semantic features of synonymy and antonymy in media texts on the basis of the Uzbek and English languages. Synonymy is studied in the interrelation of the language and speech levels, and the article shows the role of lexical-semantic, contextual, stylistic and speech synonyms in avoiding repetition, strengthening meaning and enhancing the expressiveness of the text. It also examines lexical, affixal and phraseological antonyms as a means of increasing the impact of the text, units that contradict communicative reality, and the issue of semantic shades of the word.*

Key words: *journalistic text, synonymy, antonymy, speech synonym, affixal synonymy, affixal antonymy, phraseological antonymy, expressiveness, meaning.*

Kirish. Butun dunyoda ilmiy g‘oyalarning yaxlitlanishi natijasida turli ilmiy sohalar chegarasida yangi yo‘nalishlar paydo bo‘lib, shakllanib bormoqda. Shu ma’noda matn tilshunosligi yo‘nalishi ham o‘zining bir qator rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tdi. Bu sohada matn lingvistik tadqiqot obyekti sifatida e’tirof etilmoqda.

Hozirgi vaqtda tilshunoslar tomonidan gazeta tiliga katta e’tibor berilishi bejiz emas, chunki ayni unda birinchi navbatda nutqda yuz beradigan har qanday o‘zgarishlar aks etadi. Gazeta publitsistikasi matnlarini maksimal darajada ekspressivlashtirish tendensiyasi jurnalistlarning gazetxonlar bilan aloqa o‘rnatishga, ularning axborotni anglash imkoniyatlariga moslashishga va o‘zaro munosabatni yaratishga intilishi bilan bog‘liq. Fikrni ifoda etish usullarining yorqinligi va kutilmaganligi, muvaffaqiyatli til o‘yini, uslubning individualligi ko‘p hollarda matn mazmunining ravshanligi, ta’sirchanligi bilan ham ko‘proq baholanadi [1. –B. 247-254.].

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Mediamatn tahlilida yozuvchi tomonidan qo‘llangan so‘zlarning shakliy va ma’noviy munosabatlari muhim o‘rin tutadi. So‘zlovchining maqsadini to‘g‘ri va estetik jihatdan jozibador tarzda ochib berish uchun so‘zlarning doimiy iste’moldagisini emas, balki estetik bo‘yoqdor shaklini qo‘llashni ma’qul ko‘radilar. N.Mahmudov “Sinonimlar til zanginligi va ranginligi ko‘zgusi” nomli maqolasida sinonimlar haqidagi quyidagi fikrni ilgari surgan: “Til birliklari orasidagi sinonimiya munosabati tilday murakkab va muhtasham tizim tarkibidagi favqulodda muhim paradigmatik munosabatlardan biri bo‘lib, bu munosabatning mavjudligi mazkur tizimning takomili va taraqqiyoti darajasi bilan uyg‘undir. Boshqacha qilib aytganda, tilning rivojlanganlik darajasining yuksakligini, demakki, uning zanginligi va ranginligini ta’min etadigan muntazam va betimsol omillardan biri unda lisoniy birliklararo ma’nodoshlik – sinonimiya munosabati imkoniyatlarining ko‘lamdorligidir. O‘zbek tili ana shunday qadimiy va rivojlangan boy tillardan biri sifatida salmoqli miqdordagi sinonimik munosabatlar asosida birlashgan yoki birlashadigan so‘z gavharlari zaxirasiga sohib tildir” [2. – B. 5].

Leksik-semantik sinonimlar – matndan tashqari ham sinonimik munosabat hosil qiluvchi so‘zlar hisoblanib, ular semantik jihatdan bir-biriga mutlaq mos kelishi yoki ma’no nozikligiga ko‘ra farq qilishi mumkin.Yozuvchi asarda leksik-semantik sinonimlarning o‘ziga xos ko‘rinishlarini tanlaydi. Masalan: *Bu* ***sog‘inish – sarg‘ayish, firoq*** *dardidir, shoh… Buning davosi ularni o‘z vatanlariga qaytarishdir. Shundagina tirik qoladilar. Aks holda, qirilib ketgaylar,– dedi Al-Forobiy.*

“Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mustaqilligimizning 28 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda bugungi O‘zbekiston hayoti, orzulari, muammolari, istiqboli haqida so‘z yuritdi. Nutqda inson qalbi, ko‘ngli, ma’naviyati, g‘oyasi ongimizda bo‘layotgan va bo‘lishi kerak bo‘lgan o‘zgarishlarga katta e’tibor qaratdi” (“Xalq so‘zi”, 2019. №191).

“Tarjima transformatsiyasi ikki til (asliyat va tarjima)ning tipologik, stilistik, lingvostilistik, lingvopragmatik, lingvomadaniy, sotsiolingvistik hamda lingvotekstologik xususiyatlaridan kelib chiqib tanlanadi. Tarjima transformatsiyalari orasida tarjimada transformatsiyaga asos bo‘lib xizmat qiladigan so‘z qo‘shish, so‘zni tushirib qoldirish, umumlashtirish, konkretlashtirish, kalkalash, tasviriy tarjima usullari keng qo‘llaniladi. Transformatsiyalar sonining kam bo‘lishi tillarning bir-biriga yaqinligidan, transformatsiyalar miqdorining ko‘pligi tillarning bir-biridan uzoq ekanligidan dalolat beradi” [3. – C. 118.]

– grammatik transformatsiyalar (gaplarni almashtirish, so‘z o‘rnini almashtirish, qo‘shish va tushirib qoldirish usullari kiradi);

– stilistik transformatsiyalar (tasviriy tarjima, sinonimik tarjima, kompensatsiya (qoplash) va shunga o‘xshash usullar kiradi);

– leksik transformatsiyalar (so‘zni almashtirish, so‘z qo‘shish, aniqlik kiritish, gaplarni konkretlashtirish va umumlashtirish hamda so‘zni tushirib qoldirish usullari kiradi).

Sinonimiya hodisasi tilshunoslikda atroflicha o‘rganilgan masalalardan biridir. Lekin tilshunosligimizning hozirgi kungi taraqqiyoti sinonimiya hodisasini nafaqat leksik, grammatik sathda, balki pragmatik jihatdan ham tadqiq etishni taqozo etadi. Ayniqsa, bu hodisani til va nutq bosqichida o‘zaro aloqadorlikda tadqiq etish uning o‘ziga xos yangi-yangi xususiyatlarini ochib beradi. Chunki, sistem leksikologiya va hozirgi semasiologiya hamda onomosiologiya tilshunoslikda mufassal tavsiflangan lug‘aviy sinonimiya masalasini yangi nuqtayi nazardan tadqiq etish muammosini o‘rtaga qo‘yadi. Shuning uchun bu hodisani til va nutq bosqichida o‘zaro aloqadorlikda hamda qarama-qarshilikda (oppozitsiyada) tahlil etish zarurati yuzaga keladi [4.–Б 17.]. Til bosqichida sinonimiya hodisasi muayyan qolip sifatida mavjud bo‘lib, atash va ifoda ma’nosi bilan umumiylikni hosil etadi [5]. Masalan: Aft, bashara, yuz, oraz, chehra, jamol kabi sinonimlar atash ma’nosi bilan bir sinonimlik qatorni tashkil etadi. Masalan: “Aft” so‘zi leksik jihatdan “yuz” ma’nosini ifodalaydi. Lekin nutqiy vaziyat, obyektiv holatga bog‘liq holda ba’zan ust-bosh ma’nosini ham ifodalaydi. Chunki nutqiy vaziyatda bir bola–tinglovchi ust-boshlarini kir qilgan bo‘lsa, so‘zlovchi unga nisbatan “Aftingni qara!” degan gapni ishlatadi. Obyektiv holatdan kelib chiqib, “aft” so‘zi anglatgan ma’noni har qanday til egasi ust-bosh-kiyim tarzida tushunadi. Ya’ni, nutqda “aft” so‘zi o‘ziga xos ma’no ifodalab, “kiyim-bosh” so‘zi bilan bir uyada birlashadi va sinonimiyani hosil qiladi. Ingliz tilida ham ba’zi shunday so‘zlar borki nutqiy vaziyatdan kelib, gapda ehtiyotkorlik bilan ishlatilishi ko‘zda tutiladi. Masalan: “handsome” va “beautiful” yoki “slim” yoki “skinny” va hokazo bir qator shunday so‘zlar borki nutqiy vaziyatga qarab ishlatilishi talab etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Adabiyotlarda sinonimlar, asosan, to‘rt turga bo‘linadi. 1. Ma’no ottenkasiga putur yetkazmay, bir-birining o‘rnida bemalol ishlatila oluvchi so‘zlar absolyut sinonim deyiladi: tilshunoslik – lingvistika. 2. Ma’no jihatdan farqlanuvchi sinonimlar semantik tipga kiradi: botir, jasur, qo‘rqmas, dadil. 3. Nutq situatsiyasi yoki kontekstda ma’nolari jihatdan bir-birining o‘rnida qo‘llana oluvchi sinonimlar kontekstual sinonim sanaladi: shoir, yozuvchi, adib. 4. Ma’no ottenkalarida emotsional-

ekspressiv hissiyotni ifodalovchi sinonimlar – stilistik sinonim: yuz, bashara, aft, chehra, nusxa, turq [6. – Б. 137.].

Mediamatnda birgina ma’noni ifodalash uchun bir necha til birliklaridan foydalaniladi. Masalan: Uchrashuvning birinchi bo‘limida darvozalar ishg‘ol etilmadi. Ikkinchi bo‘limda ham terma jamoalar bir qancha xavfli vaziyatlarni yaratsa-da, darvozalar daxlsizligi saqlanib qoldi. Shu tariqa uchrashuv 0:0 hisobi bilan yakunlandi. (https://daryo.uz) Mazkur matn yaratuvchisi (muxbir) so‘zni takror qo‘llanishining oldini olish maqsadida mazmunan ma‘nodosh bo‘lgan birliklardan foydalangan. Bunda *ishg‘ol etilmadi, darvozalar daxlsizligi saqlanib qoldi, 0:0 hisobi, durang qayd etdi kabi birliklar matnda* JCH– 2026 saralashida O‘zbekiston Eron uchrashuvida hisob ochilmaganini ifodalaydi va bizningcha, bu birliklar nutqiy sinonim hisoblanadi. Manbalarda sinonimik so‘zlar o‘rtasidagi semantik aloqaga ko‘p e’tibor qaratiladi. Xususan, mazkur hodisa ma’nodoshlik asosida bog‘langan lug‘aviy birliklarning aniq tizimidir. Xuddi mana shu aniq semantik aloqa asosida bog‘langan leksik paradigmalar, o‘z navbatida, yaxlit bir mikrotizimni tashkil qiladi [7. – Б. 2.]. Mediamatnda qo‘llangan bunday nutqiy sinonimlarning asosiy vazifasi takrorga yo‘l qo‘ymaslik, ma’noni kuchaytirish va bo‘yoqdorlikni oshirishdan iborat. Mazkur sinonimlar bir umumiy ma’noni ifodalasa ham, shu umumiy ma’noni ifodalash darajasi nuqtayi nazaridan bir-biridan farq qiladi.

Ingliz tilida ushbu mediamatnlardan olingan misollarga qaraydigan bo‘lsak: “*Meanwhile, at least 29 people died in a fire at a nightclub in Istanbul. The casualties were mostly workers who were renovating the building during the day*. (The Economist 6.04.24);

“*Tesla, delivered 386,810 vehicles worldwide in the first quarter of 2024, a* ***decrease*** *of 8,5% year on year and its first quarterly* ***decline*** *on that basis since 2020. investors already rattled by* ***slowing growth*** *in the elctric-vehicle industry, punished Tesla`s stock. Figures from other carmakers were mixed. Ford and Hyundai reported a big rise in EV sales in America and General Motors announced a* ***sharp decline****.* (The Economist 6.04.24)”

Ushbu keltirilgan har ikkala misollarda ham bir biriga sinonimik bo‘lgan so‘zlarning qay darajada takroriylikkka yo‘l qo‘ymaslik maqsadida ishlatilganini ko‘rishimiz mumkin.

Nutqiy sinonimik qator a’zolari jamiyat tomonidan zamonaviy so‘z sifatida qo‘llanadigan, qo‘llanish doirasi chegaralangan leksika (argo, jargo, varvarizm, vulgarizm, dialektal so‘zlar)dan tashkil topadi. Nutqiy sinonimik qatorlar nutqiy sinonimiya asosida yuzaga keladi va shaxsning ijtimoiy va geografik o‘rni asosida belgilanadi, shu orqali boyib yoki kamayib boradi. Masalan: abadiy – mangu – umrbod – toabad – boqiy – ilalabad.

…Ushbu ma’lumotning ma’lum darajada “rasmiy” nashr sanaluvchi barcha ensiklopediyalardan o‘rin olgani uning maqomini, ya’ni “rasmiy ma’lumot” ekanini, tegishli idoralar ma’qullagan, ehtimol, taqdim etgan ma’lumot deb tushunishga *izn beradi*. Shoirning vafoti sanasi mazkur nashrlarning deyarli barchasida 1939-yil deb ko‘rsatilganki, bu ham ma’lumotning “rasmiy”ligi haqidagi fikrlarimizni *quvvatlaydi.* Keltirilgan misolda *izn beradi* va *qo‘vvatlaydi* fe’llari matnda ma’nodoshlikni yuzaga keltirmoqda.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Ingliz va o‘zbek tillarida mutlaq sinonimlar qariyb yo‘q [8. – Б. 74.].

Nutqiy sinonimlari: o‘la-o‘lguncha, qiyomatgacha, qiyomatli, oxir zamongacha, dunyo turguncha, yer turguncha, tiriklik tugaguncha, hayot tugaguncha, dunyo sob bo‘lguncha, dunyo tugaguncha, dunyo ado bo‘lguncha, hayot tugaguncha; doimiy, doimo, har doim, uzluksiz, to‘xtamasdan, har vaqt, hammavaqt, har zamon, to falak bor ekan, to bashar, tongla mahshargacha, sur chalinguncha, quyosh chiqmay qolguncha, qiyomat qoyim bo‘lguncha…

Ba’zan mediamatnning ta’sirchanligi va ifodaliligini ko‘rsatishda zid ma’noli (antonim) so‘zlar muhim stilistik vazifa bajaradi. Til *baxtning* ham *kulfatning* ham kaliti bo‘lishi mumkin.(Tohir Malik) Leksik sathdagi zid ma’nolilik ko‘proq sifat, ravish va fe’l so‘z turkumlari doirasida yuzaga keladi. E‘tiborlisi keltirilgan misolda leksik antonim ot so‘z turkumiga oid. Ot – sifat antisemiyasida yasovchi asos qaysi turkumda bo‘lishidan qat’i nazar, antisemik munosabat yadrosini “belgi” tashkil etadi. Chunki ot turkumidagi antisemiya, asosan, mavhum otlarga xos, bunday so‘zlar, odatda, belgi yoki harakatdan *mavhum otlar* sifatida xarakterlanadi. Masalan: *yovuz* – ma’lum predmetning shunday belgisi, *yovuzlik* – belgining obyektdan xoli shakli. Mazkur otlar tub so‘z shaklida ham (*g‘am, qayg‘u, kulfat* kabi), yasama so‘z shaklida ham (*ezgulik, yovuzlik, poklik, shodlik* kabi) kuzatiladi. Yasama so‘z shaklida kelganda ular semantikasidagi belgi tub holatidagidan yorqinroq aks etadi, chunki bunday holatda semantik akslanish ham sodir bo‘ladi: *ezgu– ezgulik, yovuz– yovuzlik* kabi [9. – Б. 29.].

“Bu tipdagi antonimlarning ko‘pchiligi o‘zak e’tibori bilan belgi bildiruvchi so‘z – sifatlarga borib taqaladi. Boshqacha qilib aytganda, sifat va ravishlardan ot yasalishi ot so‘z turkumlari doirasida ko‘plab yangi antonimlar paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi” [10. – Б. 29.].

Bu kabi antonimlarni publitsistik matndan yuzlab keltirish mumkin. Nafaqat *o‘tmish*, balki *bugungi* zamondoshlarning badiiy merosi ham juda qimmatli. Bizda *katta-kichik* rahbarlar yuqoriga ko‘z tikib yashashga o‘rganib qolgan edi. (Tohir Malik, O‘zbekiston adabiyoti va sa’nati gazetasi. 1989-yil, 10-mart.)

“O‘zimiz o‘z ichimizda bir-birimizga har qancha *yaxshi-yomon* gap aytsak ko‘taramiz. Lekin xorijda o‘zbeklar haqida faqat yaxshi so‘zlar aytilishini istar edim.” (Erkin Vohiov, 1992-yil 17-yanvar. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi).

Ingliz tilida: “*It was very unusual, something I have never experienced* ***before*** *or* ***after,****” he said.* (The Telegraph).

Mediamatnda ba’zan nutqiy voqelikka zid birlaklar qo‘llaniladi. Bunda holatlar ko‘proq OAV efirlarida kuzatiladi. Masalan: *“Endi e’tiboringizni mana bu xatlarga qaratsak”* (Yoshlar radiosi 4.04.20); *“Navbatni kuy va qo‘shiqqa bersak endi qo‘shiq va raqslar tinglab dam olishingizni tilagan holda siz bilan...”* (Mash’al radiosi 24.05.2008) Keltirilgam jumlalarda *e’tiboringizni* xatlarga qaratish, *qo‘shiq va raqslar tinglamoq (garchi qo‘shiqni tinglamoq mumkin bo‘lsa ham raqsni tinglab ham, radio orqali ko‘rib ham bo‘lmaydi)* kabi mantiqiy jihatdan voqelikka zid tushunchani ifodalovchi birliklar ishlatilgan.

Mediamatnda morfologik, leksik qarama-qarshilikdan tashqari frazeologik qarama-qarshilik ham ko‘p qo‘llaniladi. Masalan: Inson donoligi bilan o‘z tili va so‘zlaridan oqilona foydalansa, *insonlarning qalbidan joy oladi*. Agar til nazoratsiz qolsa, aksincha , *ko‘ngillarni qoldirish hech* gap emas. (Tohir Malik)

Frazeologik birliklarning mazmunida *parodoksal* (**Paradoks** (grekcha. paradoxos – kutilmagan (неожыданний), ajablanarli (странный) g‘alati ma’noni ifodalaydi. Xususan, 1. Fikr, mulohaza, aqliy fikrlash umum tomonidan tan olingan yoki ma’qullangan fikrga zid bo‘ladi. 2. Kutilmagan voqeylik va dastlabki tasavvurga zid. 3. Nazariy va formal mantiqga har qanday haqiqatni zid qo‘yish kabi keng ko‘lamli ma’nolarga ega. Ma’lumki, mantiqda zidlik antonim hodisasi bilan sinonim yuradi. Ammo paradoksning antonimlardan farqli xususiyatlari uning o‘ziga xosligini anglatadi) ma’nolar mavjud bo‘ladi, badiiy matnda keng qo‘llanilib, ma’lum stilistik vazifani bajaradi. *Gapga qalpoq kiydirmoq - gapga to‘n kiygizmoq* iboralarining mazmunida parodoksal zidlik mavjud bo‘lishi bilan birga aynan transformatsiyasi natijasida bayon qilinayotgan voqea-hodisani aniq tasvirlashga imkoniyat yaratadi, stilistik mahsuldorlik oshiriladi [11. – B.12].

Muhokama. So‘z va uning ma’nolari haqida turlicha fikrlar hamda qarashlar bor. So‘z ko‘p qirrali murakkab butunlik bo‘lib, dastlabki qarashda ikki tomoni ko‘zga tashlanadi. Birinchidan, moddiy ifodalovchi – tovush tomoni, ikkinchi ma’no tomoni. So‘zning tovush tomoni tilshunoslikning fonetik-fonologik sathida tekshirilsa, mazmun tomoni o‘z xossalariga, asoslariga ko‘ra bir qancha sohalarning tekshirish obyekti bo‘ladi. Tildagi “maktub” so‘zi moddiy jihatdan m,a,k,t,u,b kabi tovushlarning o‘zaro ketma-ketligidan tashkil topgan butunlik bo‘lganligi uchun fonetik-fonologik tahlil etiladi. Shu moddiylik asosidagi “maktub” so‘zining obyektiv olamdagi biror bir predmet bilan bog‘liq bo‘lgan ma’nosi, ya’ni *yo‘naltirilgan xabar* – Xatni ifodalashi leksikologiyada o‘rganiladi. “Maktub” so‘zining “qalam”, “suv”, “taxta” so‘zlari singari obyektiv borliqdagi predmetlik tushunchasini ifodalab, ot so‘z turkumiga birlashishi grammatikada o‘rganiladi. Ko‘rinadiki, so‘z ko‘p qirrali murakkab butunlik hisoblanadi. Shuning uchun so‘zning turli xususiyatlarini ochish va izohlashga urinishlar, qiziqishlar ko‘p [12].

Nutqiy jarayonda so‘zlarning ma’no jilolari tushunchalar mosligi asosida yuzaga keladi. Tushunchalarning mosligi hayotiy tajribalar, umumiy bilish xazinamizning hamda muayyan nutqiy sharoit bilan bog‘liqdir. A.Nurmonov so‘zning obyektiv olamdagi biror predmet, voqea-hodisa, miqdor, belgi, harakat, holat, jarayonlar bilan ikki xil munosabatda bo‘lishini ko‘rsatadi. Ya’ni, sabab-natijali (motivlangan) va shartli (motivlanmagan) munosabatlar borki, ular inson ongida aks etgandagina belgilashadi deb ta’kidlaydi. Shu sababdan bir so‘z bir vaqtning o‘zida bir qancha tushunchalarga ishora qilishi mumkinki, bu muayyan nutqiy sharoit hamda so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi munosabatlar asosida kechadi. Masalan “gul” so‘zini eshitish orqali tushuncha paydo bo‘ladi. Tushuncha esa gulning mohiyatini, xossalarini ongda aks ettiradi. Shu so‘z anglatgan o‘simlik ma’nosi “gul – g-u-l” tovushlar ketma-ketligi bilan inson tomonidan o‘rnatilgan shartli aloqani bildiradi. Shuning uchun biz tushuncha aks ettirgan mohiyat, xossa, xususiyat asosida so‘zlarning ma’nolar jilosini hosil qilamiz. Ya’ni gul – insonga zavq beruvchi, go‘zal, tikonli, turli rangda ochiluvchi kabi xususiyatlarini shartli (motivlanmagan) munosabatlar asosida boshqa predmetlarga tirkaymiz va gul so‘zining ma’nolar sil-silasini yaratamiz. Shartli munosabat orqali “gul” so‘zi jabr qiluvchi ma’shuqa, kasallik, yashnab ochilish, bezak kabi ma’nolarni ifodalaydi. Lekin “gul” so‘zining mohiyati,ko‘chma ma’nolariga xususiyatlaridagi o‘xshashlik asos bo‘ladi. Shuning uchun gapda bitta ma’nosi yuzaga chiqadi. Qolgan ma’nolari so‘zlovchi va tinglovchining umumiy bilish xazinasida imkoniyat tarzida turadi. Imkoniyat tarzidagi ma’nolar majmuasi so‘zning ma’no jilosini tashkil etib, mazmuniy murakkablikni yuzaga keltiradi. Shu sababdan so‘z o‘zaro aloqadorlikdagi uzvlar majmuasidan tashkil

topgan butunlik deb izohlanadi [13. – 448 c.]. A.Navoiy so‘zning bunday xususiyatini “... jomi maoniyi juzv va kuldur” deb ko‘rsatadi [14].

Xulosa. Keltirilgan qarashlar va mulohazalarning hammasi tilning nechog‘lik murakkab “tizim” ekanligidan dalolat beradi. Til boyligi faqat so‘zlar, iboralar miqdori bilan emas, so‘zlarning leksik ma’nolari miqdori bilan ham o‘lchanadi.

Umuman olganda, mediamatnda so‘zning shakily va ma’noviy turlaridan qay darjada qo‘llanilganligi, bu o‘sha matnning omma e’tiborini tortishi va jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Усмонова Ш. Медиадискурсда экспрессивлик тенденцияси // Сўз санъати халқаро журнали, 2021. – № 3. – B. 247-254.

2. Mahmudov N. ”Sinonimlar til zanginligi va ranginligi ko‘zgusi”. O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati, 1-jild. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B. 5

3. Швейцер А. Теория перевода ВУЗ: МЭСИ., 1988. – С. 118.

4. Раҳимов У. Коса тагида ним коса. Андижон.1995 йил, 17-бет.

5. https://elibrary.ru/item.asp?id=44029033

6. Saidova F. Sinonimlar izohli lug‘atlarida sinonimik qatorlarni tuzish asoslari. // Zamonaviy o‘zbek tili jurnali, 2023. – № 2. – Б. 137.

7. Сафарова Р. Лексик-семантик муносабат турлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – Б. 2.

8. Тухтаходжаева Н. Бадиий таржимада лингвокультуремаларнинг ифодаланиши (инглиз ва ўзбек тиллари мисолида) филол.фан.фалсафа.доктори дисс... - Тошкент., 2017. – Б. 74.

9. Абдуллаева Д. Ўзбек тилида антисемия: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2010. – Б. 29.

10.Шукуров Р. Ўзбек тили антонимларининг лексик-семантик табиати: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 1973. – Б. 29.

11.Xamidova S. Ingliz va o‘zbek tillarida badiiy matn paradokslarining lingvokulturologik xususiyatlari: Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ... diss-yasi. – Jizzax, 2024. – B.12

12.https://www.researchgate.net/publication/377633473_Talqin_va_tadqiqotlar_ilmiy-uslubiy_jurnali

13.Э. Бенвенист Общая лингвистика. – М.: УРСС, 2002. –448 с.

14.https://muhaz.org/mavzu-oquvchilar-nutqini-ostirishda-frazeologik-birliklardan-f.html?page=5

UO‘K 81

“FARMATSIYA” KONSEPTINING LEKSIKOGRAFIK VA KOGNITIV-PRAGMATIK TALQINI

Safarova Olima Mustafo qizi,
Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. *Maqolada “farmatsiya” tushunchasining o‘zbek va rus leksikografik manbalaridagi ta’riflari, tarixiy-etimologik asoslari hamda kognitiv-pragmatik mazmuni tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi termin atrofida shakllangan barqaror semantik belgilarni aniqlash, ularni yadro va periferiya zonalariga ajratish hamda professional diskursdagi funksional yukini izohlashdan iborat. Definitsion, komponent, qiyosiy-semantik va kognitiv-pragmatik tahlil natijasida “farmatsiya” konsepti dori vositasini yaratish, standartlash, saqlash, tarqatish va adresatga xavfsiz axborot yetkazish jarayonlarini birlashtiruvchi ko‘p qatlamli tushuncha sifatida tavsiflandi.*

Kalit so‘zlar: *farmatsiya, farmatsevtik diskurs, konsept, leksikografiya, kognitiv pragmatika, termin, semantik komponent, institutsional muloqot.*

ЛЕКСИКОГРАФИЧЕСКАЯ И КОГНИТИВНО-ПРАГМАТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ КОНЦЕПТА «ФАРМАЦИЯ»

Аннотация. *В статье анализируются лексикографические определения понятия «фармация», его историко-этимологическая база и когнитивно-прагматическое содержание. Цель исследования — выявить устойчивые семантические признаки концепта, распределить их по ядерной и периферийной зонам и определить их функции в профессиональном дискурсе. Применены дефиниционный, компонентный, сравнительно-семантический и когнитивно-прагматический методы. Установлено, что концепт объединяет процессы создания, стандартизации, хранения и распространения лекарств, а также безопасного информирования адресата.*

Ключевые слова: *фармация, фармацевтический дискурс, концепт, лексикография, когнитивная прагматика, термин, институциональная коммуникация.*

LEXICOGRAPHIC AND COGNITIVE-PRAGMATIC INTERPRETATION OF THE CONCEPT OF PHARMACY

Abstract. *The article analyzes lexicographic definitions of pharmacy, its historical-etymological background, and its cognitive-pragmatic content. The study identifies recurrent semantic features, organizes them into core and peripheral zones, and explains their functions in professional discourse. Definitional, componential, comparative-semantic, and cognitive-pragmatic methods are applied. The findings show that the concept integrates the creation, standardization, storage, and distribution of medicines with safe communication of information to the addressee.*

Keywords: *pharmacy, pharmaceutical discourse, concept, lexicography, cognitive pragmatics, term, institutional communication.*

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda professional diskurs insonning kasbiy bilimini, institutsional munosabatlarini va ijtimoiy tajribasini til orqali tashkil etuvchi tizim sifatida o‘rganiladi. Tibbiy diskurs tarkibidagi farmatsevtik diskurs faqat dori nomlari va maxsus terminlar yig‘indisidan iborat emas; u ishlab chiqaruvchi, shifokor, farmatsevt, bemor, nazorat organlari hamda ilmiy hamjamiyat o‘rtasidagi maqsadli kommunikatsiyani ham qamrab oladi. Shu sababli “farmatsiya” terminining ma’nosini belgilash uning lug‘aviy izohini sanash bilangina cheklanmay, termin ortida jamlangan bilim va kommunikativ vazifalar tizimini aniqlashni talab qiladi [1; 2].

Leksikografik manbalarda farmatsiya dori vositalarini izlab topish, ishlab chiqish, tayyorlash, standartlash, saqlash, tarqatish va iste’molchiga yetkazish bilan bog‘liq faoliyatlar majmuyi sifatida talqin qilinadi. Ayrim manbalarda u tibbiyot bo‘limi, boshqalarida ilmiy-amaliy soha yoki fanlar kompleksi deb izohlanadi. Bunday farqlanish terminning semantik beqarorligini emas, uning predmet, faoliyat va bilimlar tizimini bir vaqtning o‘zida ifodalashini ko‘rsatadi. Kognitiv yondashuvga ko‘ra, termin muayyan soha haqidagi bilimning ixcham tashuvchisi bo‘lib, ilmiy va ijtimoiy taraqqiyot davomida yangi semantik qirralar kasb etadi [3].

“Farmatsiya” atamasining ildizi qadimgi yunoncha pharmakeia va pharmakon birliklariga borib taqaladi. Ushbu birliklar dori, shifobaxsh vosita va dori qo‘llash bilan bog‘liq ma’nolarni ifodalagan; keyinchalik yunon-lotin terminologik an’anasi orqali Yevropa tillariga va o‘zbek ilmiy terminologiyasiga kirib kelgan [4]. Shu bois mazkur konseptda xalqaro terminologik model va milliy leksikografik talqin o‘zaro tutashadi. Terminologik tizimda “farm- / farmako-” komponentining yuqori derivatsion faolligi ham konseptning markaziy o‘rnini ko‘rsatadi: farmakologiya, farmakognoziya, farmakokimyo, farmakoterapiya va boshqa birliklar dori bilan bog‘liq bilimning alohida bo‘laklarini nomlaydi, “farmatsiya” esa ularni umumlashtiruvchi makrobelgi sifatida birlashtiradi. Tadqiqotning maqsadi “farmatsiya” konseptining takrorlanuvchi semantik belgilarini aniqlash, ularni yadro-periferiya modelida tavsiflash hamda professional kommunikatsiyadagi pragmatik vazifalarini izohlashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Farmatsevtik diskurs bo‘yicha tadqiqotlar terminologiya, tibbiy kommunikatsiya, pragmatika va institutsional diskurs kesishmasida olib borilgan. L.N. Nosova va Ye.V. Akaeva dori vositalarini qo‘llash yo‘riqnomalarini axborot berish, ko‘rsatma berish, tartibga solish va ogohlantirish funksiyalarini bajaruvchi maxsus janr sifatida tahlil qiladi [7; 13]. Bu qarashlar terminlarning matnda faqat predmet yoki jarayonni nomlamasdan, adresatning amaliy harakatiga ham ta’sir qilishini ko‘rsatadi.

O.B. Burdina va S.L. Mishlanova farmatsevtik diskursning institutsional tabiatida standartlashuv, normativlik va semantik aniqlik muhim ekanini ta’kidlaydi [10; 14]. I.B. Maslova va Ye.A. Korjavix terminologik tizimning yangi preparatlar, texnologiyalar va xalqaro birliklar hisobiga doimiy yangilanib borishini qayd etadi [11]. G.P. Burova esa farmatsevtik diskursni ilmiy bilim, tibbiy tajriba va kommunikativ an’analar bilan bog‘liq ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida yoritadi [12]. D.K. Sayaxovaning kasbiy lingvistik shaxs haqidagi qarashlari farmatsevtning terminologik kompetensiyasi uning kommunikativ va pragmatik kompetensiyasi bilan uzviy bog‘liq ekanini tushuntirish imkonini beradi [6].

Terminlarning yunon-lotin asoslari ularning internatsional xususiyatini kuchaytiradi, biroq professional–professional va professional–noprofessional muloqotda bir xil birlik turlicha izohlanishi mumkin. Mutaxassislar o‘rtasida ixcham termin samarali bo‘lsa, bemor bilan muloqotda uni tushunarli shaklda izohlash zarur. Farmatsevtik terminologiya tarixiga oid tadqiqotlarda yunon va lotin tillarining dori nomlari, retsept birliklari hamda xalqaro farmakologik terminlar shakllanishidagi roli alohida ko‘rsatiladi. Bu omil turli tillardagi terminlarning shakliy yaqinligini ta’minlaydi, lekin milliy lug‘atlarda ularning semantik chegarasi mahalliy ilmiy va institutsional tajribaga muvofiq belgilanadi. O‘zbek terminologiyasining umumiy tamoyillari ham “farm- / farmako-” asosli birliklarni o‘zaro bog‘langan tizim sifatida tahlil qilishga imkon beradi. Mavjud ishlarda farmatsevtik diskursning ayrim jihatlari yetarlicha yoritilgan bo‘lsa-da, “farmatsiya” makrokonseptining leksikografik, kognitiv va pragmatik belgilarini yagona modelda birlashtirish masalasi dolzarbligicha qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot materiali sifatida “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”, “Tibbiy atamalar lug‘ati”, rus tilidagi izohli lug‘atlar, kognitiv terminologiya bo‘yicha nazariy manbalar hamda farmatsevtik diskursga oid tadqiqotlar tanlandi [2; 3; 5; 15; 16]. Tahlil sifat xarakteriga ega bo‘lib, yangi statistik korpus yoki tajriba natijalarini da’vo qilmaydi.

Birinchi bosqichda definitsion tahlil orqali “fan”, “ilmiy-amaliy soha”, “faoliyatlar majmuyi”, “tibbiyot bo‘limi” kabi kategorial belgilar, shuningdek “yaratish”, “tayyorlash”, “standartlash”, “saqlash” va “tarqatish” kabi operatsion komponentlar ajratildi. Ikkinchi bosqichda komponent va qiyosiy-semantik tahlil yordamida takrorlanuvchi ma’no elementlari predmet yadro, operatsion yadro va institutsional-pragmatik qatlamga guruhlandi. Uchinchi bosqichda yadro-periferiya modeli asosida kognitiv talqin, to‘rtinchi bosqichda esa terminlarning axborot berish, ko‘rsatma berish, ogohlantirish va tartibga solish funksiyalariga tayangan pragmatik tahlil amalga oshirildi.

Tahlilning ishonchliligini oshirish uchun talqin faqat manba matnida mavjud bo‘lgan definitsiyalar va ilmiy qarashlarga tayandi. Manbada berilmagan korpus miqdori, respondentlar, tajriba natijalari yoki foiz ko‘rsatkichlari kiritilmadi. Natijalar miqdoriy statistik ma’lumot emas, balki sifat kategoriyalari va konseptual bog‘lanishlar ko‘rinishida taqdim etildi.

Natijalar va muhokama. Tahlil leksikografik manbalarda “farmatsiya” turli yuqori kategoriyalar bilan nomlansa-da, ularning semantik kesishmasida barqaror mazmun mavjudligini ko‘rsatdi. “Ilmiy-amaliy soha”, “tibbiyot bo‘limi”, “fanlar kompleksi” va “faoliyatlar majmuyi” kabi ta’riflar bir-birini inkor etmaydi; aksincha, konseptning bilim, amaliyot va institutsional faoliyat bilan bog‘liq turli qirralarini yoritadi. Shu asosda “ilmiy-amaliy faoliyat” integrativ kategorial belgi sifatida ajratildi.

Predmet yadroni dori vositalari, preparatlar va ularga yaqin obyektlar tashkil etadi. Operatsion yadro esa izlab topish yoki yaratish → tayyorlash/ishlab chiqarish → standartlash va sifat nazorati → saqlash → tarqatish/berish zanjirida namoyon bo‘ladi. Zamonaviy ensiklopedik ta’riflarda davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, axborot berish va aholiga yetkazish kabi bosqichlarning qo‘shilishi konseptning institutsional doirasi

kengayganini ko‘rsatadi. Shunday qilib, uning minimal semantik modeli quyidagicha umumlashtiriladi: FARMATSIYA = [dori vositasi] + [ilmiy-amaliy bilim] + [yaratish/tayyorlash] + [standart va sifat] + [saqlash/tarqatish].

Operatsion yadroda eng barqaror zanjir quyidagicha ko‘rinadi: izlab topish/olish → qayta ishlash yoki yaratish → tayyorlash/ishlab chiqarish → standartlash/sifatini nazorat qilish → saqlash → tarqatish/berish/sotish. Mazkur ketma-ketlik farmatsiya tushunchasini bitta yakuniy mahsulot emas, balki bosqichli professional faoliyat sifatida ko‘rsatadi. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasidagi keng ta’rifda davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, aholiga axborot berish va dorixonalarga yetkazish kabi bo‘g‘inlarning ham kiritilishi konseptning institutsional zanjiri uzayganini ko‘rsatadi.

Natijada “farmatsiya” konseptining minimal semantik modeli quyidagicha ifodalandi: FARMATSIYA = [dori vositasi] + [ilmiy-amaliy bilim] + [yaratish/tayyorlash] + [standart va sifat] + [saqlash/tarqatish]. Ushbu model turli lug‘atlardagi tafovutlardan yuqorida turuvchi umumiy semantik kesishmani aks ettiradi.

1-jadval. “Farmatsiya” konseptining differensial va integrativ semantik belgilari

Ta’rif tipi	Markaziy belgi	Konseptual vazifa
Ilmiy-amaliy soha	dori vositasi bilan bog‘liq bilim va amal	bilim va amaliyotni birlashtiradi
Tibbiyot bo‘limi	dori olish va qo‘llash jarayonlari	sohaviy chegarani belgilaydi
Fanlar kompleksi	o‘zaro bog‘langan maxsus fanlar	epistemik tuzilmani ko‘rsatadi
Faoliyatlar majmuyi	yaratish–nazorat–tarqatish zanjiri	institutsional jarayonni ifodalaydi

Jadvaldagi umumlashtirishdan ko‘rinadiki, definitsiyalarning tashqi shakli turlicha bo‘lsa ham, ular bir-birini inkor etmaydi. Aksincha, farmatsiya konseptining turli qatlamlarini yoritadi: predmet qatlam dori vositasiga, epistemik qatlam bilimlar tizimiga, operatsion qatlam ishlab chiqarish va muomalaga, institutsional qatlam esa nazorat va javobgarlikka bog‘lanadi.

“Farm- / farmako-” asosining derivatsion faolligi konseptning ichki tarmoqlanishini ko‘rsatadi. Farmakologiya, farmakognoziya, farmakokimyo, farmakodinamika, farmakokinetika, farmakoterapiya va farmakoprofilaktika singari birliklar dori vositasi bilan bog‘liq umumiy bilim maydonini alohida yo‘nalishlarga ajratadi. “Farmatsiya” esa bu tarmoqlarni birlashtiruvchi makrotermin vazifasini bajaradi. Natijalar derivatsion maydonni uch darajada tasavvur qilish mumkinligini ko‘rsatadi: birinchi darajada umumlashtiruvchi “farmatsiya” makrotermini, ikkinchi darajada bilim tarmoqlarini nomlovchi farmakologiya, farmakognoziya va farmakokimyo kabi birliklar, uchinchi darajada esa aniq jarayonni bildiruvchi farmakodinamika, farmakokinetika, farmakoterapiya va farmakoprofilaktika joylashadi. Bunday ierarxiya terminologik lug‘at va o‘quv materiallarida birliklarni faqat alifbo tartibida emas, konseptual aloqalar asosida taqdim etishga imkon beradi. Kognitiv jihatdan umumiy termin yasovchi asos adresatda dori, uning xususiyati, ta’siri yoki qo‘llanishiga oid bilim maydonini faollashtiradi; professional kommunikatsiyada esa orientatsion signal bo‘lib xizmat qiladi.

Yadro-periferiya modeli konseptning uch qatlamini ajratishga imkon berdi. Yadroga DORI VOSITASI, ILMIY-AMALIY FAOLIYAT, TAYYORLASH/ISHLAB CHIQARISH, STANDARTLASH/SIFAT, SAQLASH va TARQATISH belgilarini kiritish mumkin. Yaqin periferiyada tadqiqot, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, texnologiya, tashkil etish va axborot berish kabi zamonaviy institutsional komponentlar faollashadi. Uzoq periferiyada esa xavfsizlik, ijtimoiy mas’uliyat, ishonch, ogohlantirish va adresat xulqiga ta’sir singari pragmatik belgilar joylashadi. Ular lug‘at ta’rifida doim ochiq berilmasa-da, dori yo‘riqnomasi, maslahat va reklama kabi janrlarda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Farmatsevtik diskursda terminologik aniqlik kommunikativ xavfsizlik bilan chambarchas bog‘liq. Masalan, “saqlash” lug‘atda texnologik jarayon bo‘lsa, yo‘riqnomada normativ ko‘rsatmaga; “qo‘llash” esa ilmiy ta’rifdagi jarayondan bemor uchun aniq harakat algoritmiga aylanadi. Farmatsevt–bemor muloqotida professional bilim kundalik tilga moslashtiriladi, biroq terminning mazmuniy aniqligi saqlanishi kerak. Mutaxassislar o‘rtasidagi muloqotda esa standart shakllar va terminlarning yuqori zichligi ustun bo‘ladi. Demak, konseptning yadrosi barqaror, uning pragmatik ifodasi esa janr, adresat va kommunikativ maqsadga ko‘ra o‘zgaradi.

Natijalar leksikografik tafovutlarni terminning kamchiligi sifatida emas, turli fokuslarda namoyon bo‘ladigan konseptual tuzilma sifatida baholash lozimligini ko‘rsatadi. Fan va texnologiya rivojlangani sari

“farmatsiya” dori tayyorlash va berish doirasidan standartlash, sifat nazorati, huquqiy tartibga solish, logistika va axborot jarayonlarini ham qamrab oladigan tizimga aylangan. Umumiy izohli lug‘at kundalik tushunishga yaqin “dorishunoslik” komponentini ajratishi, tibbiy atamalar lug‘ati epistemik maqomni kuchaytirib “fanlar kompleksi” deb ta’riflashi, ensiklopedik manba esa ishlab chiqarishdan sotish va axborot berishgacha bo‘lgan institutsional zanjirni kengroq ko‘rsatishi mumkin. Bunday farqlar konseptning turli qatlamlarini yoritadi. Shu sababli optimal leksikografik ta’rif terminning yadro ma’nosini ixcham ifodalashi, zarur institutsional va pragmatik kengayishlarni esa qo‘shimcha belgi sifatida ko‘rsatishi maqsadga muvofiq. Lug‘at terminning semantik invariantini bersa, real diskurs ana shu invariantning vaziyatga ko‘ra faollashadigan funksional qirralarini namoyon etadi. Konseptning umumlashtiruvchi pragmatik formulasi quyidagicha: FARMATSIYA = PROFESSIONAL BILIM + NAZORAT QILINADIGAN AMALIY JARAYON + XAVFSIZ KOMMUNIKATSIYA.

Xulosa. Tadqiqot “farmatsiya” terminini ko‘p qatlamli konsept sifatida talqin qilish zarurligini ko‘rsatdi. Leksikografik manbalarda u turlicha kategorial birliklar orqali izohlansa-da, dori vositasi, ilmiy-amaliy bilim, yaratish va tayyorlash, standart va sifat nazorati, saqlash hamda tarqatish kabi barqaror yadro belgilariga ega. Termin tarixiy jihatdan tor predmet doirasidan murakkab institutsional tizim tomon kengaygan, bunda yunon-lotin ildizi xalqaro terminologik uzluksizlikni, milliy lug‘atlar esa sohaning mahalliy tashkiliy va kommunikativ xususiyatlarini aks ettiradi.

“Farm- / farmako-” asosli terminlar umumiy konseptual maydonni tarmoqlarga ajratadi, “farmatsiya” esa ularni birlashtiruvchi makrotermin sifatida xizmat qiladi. Professional diskursda terminlar faqat nominativ vazifa bajarmaydi; ular axborot berish, ko‘rsatma, ogohlantirish va tartibga solish orqali adresat harakatiga ham ta’sir qiladi. Shu sababli sifat, nazorat, axborot, xavfsizlik va ijtimoiy mas’uliyat konseptning zamonaviy pragmatik mazmunini belgilovchi muhim komponentlardir.

Taklif etilgan integrativ model leksikografik, kognitiv va pragmatik talqinlarni bitta tizimda birlashtiradi. Natijalardan o‘zbek farmatsevtik terminologiyasini lug‘atlashtirish, sohaviy matnlarni tarjima qilish, farmatsevtik diskursni o‘qitish va standart terminologik ta’riflarni ishlab chiqishda foydalanish mumkin. Keyingi tadqiqotlarda real farmatsevtik matnlar korpusi asosida yadro-periferiya modelining turli janrlarda namoyon bo‘lishini tekshirish maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR:

1. Nosova, L.N. (2013). Communicative and pragmatic potential of instructions for the use of drugs in pharmaceutical discourse. M., 2013.

2. Словарь русского языка / Под ред. А.П. Евгеньевой: В 4 т. Москва, 1981–1984. Т. 4.

3. Кубрякова, Е.С. и др. Краткий словарь когнитивных терминов. Москва: МГУ, 1996. 245 с.

4. Xudoyqulova, D.K. Farmatsevtik terminlarning leksikografik va funksional-semantik tadqiqi (ingliz, rus, o‘zbek tillari misolida). Filologiya fanlari bo‘yicha PhD dissertatsiyasi avtoreferati. Buxoro, 2022.

5. Usmanxo‘jayev, A., Obilov, O‘., Turaxanova, M. Tibbiy atamalar lug‘ati / A.Q. Shadmanov tahriri ostida. Toshkent, 2021. B. 299.

6. Sayakhova, D.K. Discourse and concept of language personality // Modern Trends in the Development of Science and Technology. 2015.

7. Nosova, L.N. Communicative and pragmatic potential of instructions for the use of drugs in pharmaceutical discourse. M., 2013.

8. Sayakhova, D.K. Discourse and concept of language personality // Modern Trends in the Development of Science and Technology. 2015.

9. Nosova, L.N. Communicative and pragmatic potential of instructions for the use of drugs in pharmaceutical discourse. M., 2013.

10. Burdina, O.B., Mishlanova, S.L. Institutional features of pharmaceutical discourse and their reflection in terminology // Historical and Socio-Educational Thought. 2013.

11. Maslova, I.B., Korzhavykh, E.A. Terminological studies of pharmaceutical discourse: a linguodidactic review // Multilingualism and Transcultural Practices. 2011.

12. Burova, G.P. Basic concepts of Russian pharmaceutical discourse // Russian Language Abroad. 2009.

13. Akaeva, E.V. Functions of German-language instructions for use of medicinal products // Man and the Universe. 2019. P. 4–8.

14. Burdina, O.B., Mishlanova, S.L. Institutional features of pharmaceutical discourse and their reflection in terminology // Historical and Socio-Educational Thought. 2013.

15. Aminov, M. (bosh muharrir). O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2005.

16. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi: Farmatsiya va farmakologiya tushunchalariga oid maqolalar. Toshkent, 2005.

UDC 81

THE FORMATION AND SOCIAL NATURE OF PROFESSIONAL LEXICON IN UZBEK ONLINE COMMERCE DISCOURSE

To‘xtasinova Zarina Zokirjon qizi,
Assistant teacher at the Department of Philology and language teaching of University of Economics and Pedagogy
ORCID:0009-0008-6188-2533

Abstract. *The rapid development of digital technologies, e-commerce, social media, and online marketing has transformed contemporary communication practices and contributed to the emergence of new professional vocabulary. This article examines the formation, functional characteristics, and social nature of professional lexicon in Uzbek online commerce discourse. Particular attention is given to English- and Russian-derived lexical units, hybrid constructions, semantic adaptation, abbreviations, and digital commerce terminology, including marketplace, target, cashback, preorder, promokod, zakaz, and dostavka. The study shows that these lexical units undergo phonological, grammatical, semantic, and pragmatic adaptation in Uzbek. Hybrid forms such as target qilmoq, zakaz bermoq, and cashback olish demonstrate the interaction of foreign lexical elements with Uzbek grammatical structures. The findings indicate that online commerce discourse is a dynamic linguistic environment shaped by globalization, technological development, multilingual communication, and the communicative needs of digital platforms.*

Keywords: *online commerce, e-commerce, professional lexicon, discourse, sociolinguistics, internet linguistics, neologism, borrowing, digital communication, professional communication, lexical adaptation, Uzbek language.*

O‘ZBEK ONLAYN SAVDO DISKURSIDA KASBIY LEKSIKANING SHAKLLANISHI VA IJTIMOIY TABIATI

Annotatsiya. *Raqamli texnologiyalar, elektron tijorat, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn marketingning jadal rivojlanishi zamonaviy kommunikatsiya jarayonlarini o‘zgartirib, yangi professional leksikaning shakllanishiga olib kelmoqda. Mazkur maqolada o‘zbek tilidagi onlayn tijorat diskursida professional leksikaning shakllanishi, funksional xususiyatlari va ijtimoiy tabiati tadqiq etiladi. Ingliz va rus tillaridan o‘zlashgan leksik birliklar, gibrid konstruksiyalar, semantik moslashuv, qisqartmalar hamda raqamli tijorat terminlariga alohida e’tibor qaratiladi. Jumladan, marketplace, target, cashback, preorder, promokod, zakaz, dostavka kabi birliklar tahlil qilinadi. Tadqiqot ushbu leksik birliklarning o‘zbek tilida fonetik, grammatik, semantik va pragmatik jihatdan moslashishini ko‘rsatadi. Target qilmoq, zakaz bermoq, cashback olish kabi gibrid shakllar xorijiy leksik birliklarning o‘zbek tilining grammatik tuzilishi bilan o‘zaro ta’sirini namoyon etadi. Natijalar onlayn tijorat diskursi globallashuv, texnologik taraqqiyot, ko‘p tilli muloqot hamda raqamli platformalarning kommunikativ ehtiyojlari ta’sirida shakllanayotgan dinamik lingvistik muhit ekanligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *onlayn tijorat, elektron tijorat, professional leksika, diskurs, sotsiolingvistika, internet lingvistikasi, neologizm, o‘zlashma, raqamli kommunikatsiya, professional muloqot, leksik moslashuv, o‘zbek tili.*

ФОРМИРОВАНИЕ И СОЦИАЛЬНАЯ ПРИРОДА ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ЛЕКСИКИ В ДИСКУРСЕ УЗБЕКСКОЙ ОНЛАЙН-ТОРГОВЛИ

Аннотация. *Стремительное развитие цифровых технологий, электронной коммерции, социальных сетей и онлайн-маркетинга трансформирует современные коммуникативные процессы и способствует формированию новой профессиональной лексики. В статье исследуются формирование, функциональные особенности и социальная природа профессиональной лексики в узбекском дискурсе онлайн-торговли. Особое внимание уделяется лексическим единицам, заимствованным из английского и русского языков, гибридным конструкциям, семантической адаптации, сокращениям и терминологии цифровой коммерции, включая marketplace, target, cashback, preorder, promokod, zakaz и dostavka. Исследование показывает, что данные лексические единицы подвергаются фонетической, грамматической, семантической и прагматической*

адаптации в узбекском языке. Гибридные формы target qilmoq, zakaz bermoq, cashback olish демонстрируют взаимодействие заимствованных лексических элементов с грамматической структурой узбекского языка. Полученные результаты свидетельствуют о том, что дискурс онлайн-торговли представляет собой динамичную языковую среду, формирующуюся под влиянием глобализации, технологического развития, многоязычной коммуникации и коммуникативных потребностей цифровых платформ.

Ключевые слова: *онлайн-торговля, электронная коммерция, профессиональная лексика, дискурс, социолингвистика, интернет-лингвистика, неологизм, заимствование, цифровая коммуникация, профессиональная коммуникация, лексическая адаптация, узбекский язык.*

Introduction. The development of digital technologies has profoundly transformed economic, social, and communicative practices in the twenty-first century. The expansion of the Internet, social networking platforms, digital marketing, and electronic commerce has fundamentally changed the traditional relationship between sellers and consumers. Commercial communication is no longer restricted to physical marketplaces and conventional retail environments. Instead, it increasingly takes place through social media platforms, online stores, marketplaces, messaging applications, and other digital communication channels. These transformations have not only affected economic practices but have also generated significant linguistic changes. Language continuously develops in response to changes in society. Whenever a new profession, technological process, economic practice, or social phenomenon emerges, speakers require new lexical resources to describe and communicate about it. Online commerce is a particularly productive environment for such linguistic innovation. Contemporary Uzbek digital communication contains numerous lexical units associated with e-commerce and digital marketing, including *marketplace*, *target*, *content*, *cashback*, *preorder*, *dropshipping*, *unboxing*, *delivery*, *promokod*, *zakaz*, *dostavka*, and *nalichiya*. Some of these expressions function as specialized professional terminology, whereas others have gradually entered everyday digital communication. One of the most significant characteristics of Uzbek online commerce discourse is its multilingual nature. A substantial proportion of contemporary e-commerce terminology originates in English because English has become a dominant language of international business, digital technologies, marketing, and information technology. At the same time, Russian continues to influence online commercial communication in Uzbekistan, particularly in informal digital interaction. As a result, Uzbek online commerce discourse represents a multilingual communicative environment in which Uzbek, English, and Russian lexical resources interact. Borrowed lexical units do not always remain unchanged after entering Uzbek. They may undergo grammatical, semantic, functional, and pragmatic adaptation. For instance, expressions such as *target qilmoq* ("to conduct targeting"), *content tayyorlamoq* ("to prepare content"), *zakaz bermoq* ("to place an order"), *dostavka qilish* ("to deliver"), and *cashback olish* ("to receive cashback") demonstrate how foreign lexical elements combine with Uzbek grammatical structures. Such constructions reveal that lexical borrowing is not merely a process of transferring words from one language into another. It also involves adaptation to the grammatical and communicative patterns of the receiving language.

Literature Review. Professional vocabulary has been extensively examined within terminology studies, sociolinguistics, discourse analysis, and research on specialized communication. In general terms, professional lexicon refers to lexical units associated with particular occupational, academic, technological, or professional domains. However, professional vocabulary should not be understood exclusively as a collection of formal terms. Real professional communication also contains abbreviations, informal expressions, professional jargon, borrowed words, metaphors, and context-dependent expressions. Classical approaches to terminology emphasize precision, conceptual clarity, and systematic relationships among specialized terms. From this perspective, terminology serves to identify concepts within a particular field and facilitate accurate professional communication. However, actual communication frequently differs from formal terminological systems. Online environments, in particular, encourage shorter, more informal, and flexible forms of professional language. Discourse-oriented approaches emphasize that linguistic units should be interpreted within their communicative and social contexts. A word does not necessarily have an identical communicative value in all contexts. Its meaning may depend on the participants, communicative purpose, social relationship, and discourse environment. This perspective is particularly relevant to online commerce because different participants—including sellers, marketers, bloggers, logistics specialists, administrators, and consumers—use language for different communicative purposes. Internet linguistics has increasingly focused on the linguistic consequences of digital communication. Research in this field demonstrates that online communication is characterized by rapidity, informality, lexical creativity, abbreviation, multimodality, and increased interaction between spoken and written forms. Online commerce

intensifies these characteristics because commercial communication combines informational, persuasive, and transactional functions. Digital marketing has introduced a substantial number of new professional terms. Expressions such as *targeting, content, engagement, conversion, lead, funnel,* and *traffic* have become widespread in international digital marketing. Many of these terms have entered other languages without direct translation. Their integration into local languages frequently involves morphological and grammatical adaptation. The phenomenon of lexical borrowing is especially relevant to Uzbek online commerce discourse. Borrowed words can enter a language directly or through an intermediary language. After entering the receiving language, they may retain their original form or undergo semantic, phonological, and grammatical adaptation.

The Uzbek online environment provides numerous examples of this process. English lexical elements such as *target, content,* and *cashback* can combine with Uzbek auxiliary verbs and grammatical markers. Similarly, Russian-derived forms such as *zakaz, dostavka,* and *skidka* can be integrated into Uzbek constructions. These examples demonstrate that multilingual interaction is a significant mechanism of contemporary lexical development.

Sociolinguistic approaches provide another important theoretical foundation for the present study. Language varies according to social factors such as age, occupation, education, social networks, and communicative environment. Professional communities frequently develop lexical patterns that distinguish their communication from that of other groups. This phenomenon can be observed clearly in online commerce. A professional digital marketer may regularly use terms such as *conversion, engagement, lead, funnel,* and *target audience,* while an ordinary consumer is more likely to use expressions such as *zakaz, dostavka, skidka, promokod,* and *nalichiya*. Therefore, online commerce discourse contains several overlapping professional and social varieties. An important characteristic of digital professional vocabulary is its capacity for rapid popularization. A term that originally belongs to a specialized professional community may become widely understood through social media. For example, *target, content, reels,* and *cashback* are increasingly used outside strictly professional contexts. This process weakens the boundary between specialized and general vocabulary.

Research Methodology. The present study employs an interdisciplinary methodological framework combining discourse analysis, sociolinguistic analysis, lexical-semantic analysis, comparative analysis, and pragmatic analysis. The combination of these methods makes it possible to examine professional vocabulary not only as a formal linguistic phenomenon but also as a socially and communicatively conditioned system. The research material consists of professional lexical units occurring in Uzbek online commerce communication. The material includes commercial posts, online advertisements, product descriptions, seller-consumer interactions, digital marketing texts, social media commerce content, and terminology associated with online retail and electronic transactions. The first stage of the research involves identifying lexical units that are characteristic of online commerce discourse. These units are then classified according to their origin, semantic characteristics, grammatical adaptation, and communicative functions.

The first category consists of English-derived lexical units. Examples include *marketplace, target, content, cashback, preorder, dropshipping, delivery,* and *unboxing*. These units represent different aspects of e-commerce, digital marketing, logistics, and social media commerce.

The second category includes Russian-derived or Russian-influenced lexical units such as *zakaz, dostavka, nalichiya, skidka,* and *otzyv*. These expressions are particularly common in informal commercial interaction and social media communication.

The third category includes hybrid constructions in which foreign lexical elements combine with Uzbek grammatical forms. Examples include *target qilmoq, zakaz bermoq, dostavka qilish, cashback olish,* and *content tayyorlamoq*. Such constructions demonstrate the interaction between borrowed vocabulary and the grammatical system of Uzbek.

Lexical-semantic analysis is employed to identify changes in meaning that occur when foreign terms enter Uzbek online commerce discourse. For example, *target* has a broad semantic range in English, whereas in Uzbek digital marketing discourse it is often associated specifically with targeted advertising.

Pragmatic analysis is used to identify the communicative functions of professional lexical units. In seller-oriented discourse, expressions such as *promokod, cashback, aksiya,* and *skidka* may function as persuasive devices designed to attract consumer attention. In consumer discourse, expressions such as *nalichiya bormi?, dostavka qancha?, zakaz qachon keladi?* primarily perform informational and transactional functions.

Sociolinguistic analysis is applied to investigate differences in vocabulary across professional and social groups. Particular attention is given to the distinction between professional marketers, online sellers, bloggers, digital specialists, and ordinary consumers. A comparative approach is used to examine the

interaction between Uzbek, English, and Russian lexical resources. This approach makes it possible to distinguish direct borrowings from hybrid formations and semantically adapted expressions. The study also employs a descriptive method to identify and classify lexical phenomena occurring in online commerce discourse. The descriptive analysis provides a systematic account of the structure and functions of professional vocabulary. The methodological framework therefore operates at three interconnected levels: **linguistic form, communicative function, and social meaning**. This three-level approach makes it possible to examine the formation of professional vocabulary as a multidimensional process influenced simultaneously by language structure, communicative needs, and social interaction.

Analysis of the Results. The analysis demonstrates that professional lexicon in Uzbek online commerce discourse is developing through several interconnected mechanisms. The most significant mechanisms include lexical borrowing, grammatical adaptation, hybridization, semantic transformation, abbreviation, and professional jargon formation. English borrowing represents one of the most productive sources of contemporary online commerce vocabulary. The term *marketplace*, for example, refers to a digital platform that connects multiple sellers and consumers. In Uzbek online commerce discourse, the term is generally retained in its original form but is combined with Uzbek grammatical structures: *marketplace orqali sotish*, *marketplacega mahsulot joylash*, and *marketplace bilan ishlash*. Such examples demonstrate that an English lexical item can become integrated into Uzbek syntactic structures without losing its original lexical identity. The word *target* provides another illustrative example. In digital marketing discourse, expressions such as *target qilish* and *target qo'yish* are common. Here, the English lexical element functions as the semantic core, while the Uzbek verb provides the grammatical structure. This construction demonstrates the productivity of hybridization in contemporary professional communication. The lexical unit *content* has similarly become widespread. Expressions such as *content yaratish, content tayyorlash,* and *content reja* demonstrate its integration into Uzbek professional discourse. Although Uzbek equivalents may exist in particular contexts, the English form remains highly productive because of its international professional status.

The term *cashback* represents another important example. It refers to a system in which part of the money spent on a purchase is returned to the consumer. In Uzbek online commerce discourse, constructions such as *cashback olish, cashback yig'ish,* and *cashback ishlatish* are used. The foreign lexical element is therefore incorporated into Uzbek grammatical structures.

The hybrid form *promokod* is particularly interesting because it combines the shortened English element *promo* with the internationally widespread term *code*. It is commonly used in expressions such as *promokodni kiriting* and *promokod orqali chegirma oling*. The term functions simultaneously as a commercial and persuasive device.

Russian-influenced vocabulary also constitutes an important component of Uzbek online commerce discourse. Expressions such as *zakaz, dostavka, nalichiya, skidka,* and *otzyv* are frequently encountered in informal digital communication. Their persistence can be explained partly by habitual use, communicative familiarity, and the influence of multilingual digital environments. Hybrid constructions such as *zakaz berish* illustrate the integration of a Russian lexical element into an Uzbek grammatical structure. Similarly, *dostavka qilish* combines a Russian-derived noun with an Uzbek auxiliary verb. These forms reveal the active interaction between lexical borrowing and grammatical adaptation.

Abbreviations represent another important feature of professional online commerce discourse. Digital marketing communication frequently employs international abbreviations such as *SMM, SEO, CTR, CPC,* and *CPA*. Their use contributes to communicative economy and allows professionals to express complex concepts in compact forms. However, their interpretation may require specialized knowledge, which means that they can also function as markers of professional group membership. Social media vocabulary has also become an important source of professional lexical innovation. Terms such as *story, reels, post, live, direct, follower,* and *influencer* have become integrated into online commerce. Expressions such as *reels orqali mahsulot reklama qilish*, *directdan zakaz olish,* and *storyga narx joylash* illustrate how social media terminology is incorporated into commercial communication. These examples demonstrate the gradual movement of professional vocabulary from specialized communities into general digital communication. A term initially associated with marketing specialists may become familiar to consumers through repeated exposure on social media. The analysis therefore identifies three major mechanisms underlying the formation of professional lexicon in Uzbek online commerce discourse: **borrowing, hybridization, and semantic adaptation**. Borrowing introduces new lexical resources; hybridization integrates these resources with Uzbek grammatical structures; and semantic adaptation enables them to function effectively within a new communicative environment.

Discussion. The findings demonstrate that professional vocabulary in Uzbek online commerce discourse differs from traditional terminological systems because of its highly dynamic nature. Its development is closely connected with technological innovation, social media trends, international business practices, and changing patterns of consumer behavior.

The social nature of professional vocabulary is particularly evident in its association with specific communicative communities. Marketers, online sellers, bloggers, logistics specialists, and consumers participate in the same commercial environment but use different lexical resources depending on their professional roles and communicative objectives. For a professional marketer, terms such as *target, conversion, engagement, traffic, lead,* and *funnel* have highly specific meanings. For an ordinary consumer, however, terms such as *skidka, promokod, dostavka, cashback,* and *zakaz* are more directly relevant. This distinction suggests that online commerce discourse should be viewed as a complex communicative system containing several professional and social subvarieties. Professional vocabulary also performs an important identity-related function. The use of specialized terminology may indicate membership in a professional community.

A marketer who uses terms such as *lead generation, funnel, conversion,* and *target audience* demonstrates familiarity with the conceptual framework of digital marketing. Consequently, professional vocabulary functions not only as an informational resource but also as a marker of professional identity. At the same time, social media contributes to the popularization of specialized terminology. Once professional expressions become widespread among ordinary users, their exclusive professional function becomes weaker. Terms such as *target, content, reels,* and *cashback* are increasingly used by people who are not professional marketers or online sellers.

This process demonstrates that the boundary between professional and general vocabulary is flexible rather than fixed. Professional vocabulary can move from a specialized occupational environment into everyday communication through repeated exposure, social interaction, and media dissemination. Another important characteristic of online commerce discourse is the persuasive function of professional vocabulary. Expressions such as *chegirma, aksiya, cashback, promokod, bestseller,* and *limited offer* are not merely informational. They can also attract attention, create a perception of value, and influence consumer engagement with commercial content. Therefore, professional vocabulary in online commerce frequently performs informational, transactional, expressive, and persuasive functions simultaneously.

Conclusion. The present study has examined the formation and social nature of professional lexicon in Uzbek online commerce discourse. The analysis demonstrates that the rapid development of e-commerce, digital marketing, social media, and online services has created a highly productive environment for lexical innovation in contemporary Uzbek. Three major mechanisms of professional lexical formation were identified: lexical borrowing, hybridization, and semantic adaptation. English-derived expressions such as *marketplace, target, content, cashback, preorder, dropshipping,* and *unboxing* reflect the international and technological nature of contemporary e-commerce.

Russian-influenced forms such as *zakaz, dostavka, nalichiya,* and *skidka* demonstrate the multilingual character of informal online commercial communication. The integration of borrowed vocabulary into Uzbek grammatical structures is particularly significant. Hybrid constructions such as *target qilmoq, zakaz bermoq, dostavka qilish, content tayyorlash,* and *cashback olish* demonstrate that foreign lexical elements are actively adapted to Uzbek syntactic and morphological patterns. The social nature of professional lexicon is reflected in its distribution across different communicative communities. Marketers, online sellers, bloggers, digital specialists, and consumers employ partially different lexical resources according to their professional roles and communicative objectives. Professional vocabulary therefore serves not only an informational function but also contributes to professional identity and group affiliation.

At the same time, social media has accelerated the movement of professional vocabulary from specialized communities into everyday digital communication. Terms that were previously associated with marketing and e-commerce professionals are increasingly familiar to general users. This development demonstrates the permeability of the boundary between professional and general vocabulary. The study also shows that professional vocabulary in online commerce performs multiple communicative functions. It can provide information, facilitate transactions, establish professional identity, create communicative efficiency, and contribute to persuasive commercial strategies. Overall, Uzbek online commerce discourse represents an important area of contemporary linguistic innovation. It provides evidence of how globalization, technological development, multilingualism, and social media contribute to changes in the Uzbek lexical system.

Further research may focus on the quantitative analysis of online commerce corpora, the frequency and distribution of borrowed lexical units, differences between professional and consumer discourse, and the

development and practical acceptance of Uzbek equivalents for international e-commerce terminology. Such research would contribute to a broader understanding of the interaction between language, digitalization, professional communication, and social change in contemporary Uzbek society.

REFERENCES:

1. Aitchison J. Language Change: Progress or Decay? 3rd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001.

2. Bhatia V. K. Analysing Genre: Language Use in Professional Settings. – London: Longman, 1993.

3. Cabré M. T. Terminology: Theory, Methods and Applications / ed. by J. C. Sager; trans. by J. A. DeCesaris. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins, 1999.

4. Crystal D. English as a Global Language. 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003.

5. Crystal D. Language and the Internet. 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006. – DOI: https://doi.org/10.1017/CBO9780511487002.

6. Fairclough N. Language and Power. – London: Longman, 1989.

7. Fairclough N. Discourse and Social Change. – Cambridge: Polity Press, 1992.

8. Georgakopoulou A., Spilioti T., eds. The Routledge Handbook of Language and Digital Communication. – London : Routledge, 2015. – DOI: https://doi.org/10.4324/9781315694344.

9. Herring S. C. Computer-Mediated Discourse Analysis: An Approach to Researching Online Behavior // Designing for Virtual Communities in the Service of Learning / ed. by S. A. Barab, R. Kling, J. H. Gray. – Cambridge: Cambridge University Press, 2004. – P. 338–376. – DOI: https://doi.org/10.1017/CBO9780511805080.016.

10. Meyerhoff M. Introducing Sociolinguistics. 3rd ed. – London: Routledge, 2019.

11. Sager J. C. A Practical Course in Terminology Processing. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins, 1990.

12. Seargeant P., Tagg C. Introduction: The Language of Social Media // The Language of Social Media: Identity and Community on the Internet / ed. by P. Seargeant, C. Tagg. – London: Palgrave Macmillan, 2014. – P. 1–20. – DOI: https://doi.org/10.1057/9781137029317_1.

UO‘K 811.512.133’373.21

NAVOIY VILOYATI TOPONIMIYASI: LINGVISTIK TASNIF VA ETIMOLOGIK TAHLIL

Karimov Shohjahon Dusmurodovich,
Navoiy davlat universiteti katta o‘qituvchisi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Navoiy viloyati toponimiyasi lingvistik jihatdan tadqiq etildi. Viloyat hududidagi oykonim, gidronim va oronimlar til qatlamlari – sug‘d-forsiy, turkiy, arabiy va rus-sovet davri qatlamlari bo‘yicha tasniflandi. Toponimlarning leksik-semantik guruhlari, so‘z yasalish modellari va etimologiyasi tahlil qilindi. Karmana, Nurota, Konimex, Uchquduq, Qiziltepa, Tomdi, Muruntov kabi nomlarning kelib chiqishiga oid qarashlar qiyosiy o‘rganildi. Tadqiqot natijalari hudud toponimiyasining ko‘p qatlamli ekanini va unda turkiy-sug‘d ikki tilliligi izlari saqlanganini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *toponimiya, oykonim, gidronim, oronim, etnotoponim, etimologiya, til qatlami, gibrid toponim, Navoiy viloyati, Zarafshon vohasi.*

TOPONYMY OF NAVOI REGION: LINGUISTIC CLASSIFICATION AND ETYMOLOGICAL ANALYSIS

Abstract. *This article examines the toponymy of Navoi region from a linguistic perspective. Oikonyms, hydronyms and oronyms of the region are classified by language layer: Sogdian-Persian, Turkic, Arabic and Russian-Soviet. Lexical-semantic groups, word-formation models and the etymology of place names are analysed. Competing explanations of the origin of Karmana, Nurota, Konimex, Uchquduq, Qiziltepa, Tomdi and Muruntau are compared. The results show that the regional toponymy is multi-layered and preserves traces of Turkic-Sogdian bilingualism.*

Keywords: *toponymy, oikonym, hydronym, oronym, ethnotoponym, etymology, language layer, hybrid toponym, Navoi region, Zarafshan oasis.*

ТОПОНИМИЯ НАВОИЙСКОЙ ОБЛАСТИ: ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ И ЭТИМОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация. *В статье исследуется топонимия Навоийской области с лингвистической точки зрения. Ойконимы, гидронимы и оронимы региона классифицированы по языковым пластам: согдийско-персидскому, тюркскому, арабскому и русско-советскому. Проанализированы лексико-семантические группы, словообразовательные модели и этимология топонимов. Сравнительно рассмотрены версии происхождения названий Кармана, Нурата, Канимех, Учкудук, Кызылтепа, Тамды и Мурунтау. Результаты показывают многослойность топонимии региона и сохранение в ней следов тюркско-согдийского двуязычия.*

Ключевые слова: *топонимия, ойконим, гидроним, ороним, этнотопоним, этимология, языковой пласт, гибридный топоним, Навоийская область, Зарафшанский оазис.*

Kirish. Toponimlar xalq tarixi, tili va dunyoqarashining “tilsiz guvohlari” hisoblanadi. Ularda yo‘qolib ketgan qabila nomlari, eskirgan so‘zlar va qadimgi tillar unsurlari saqlanib qoladi. Shu bois mintaqaviy toponimiyani o‘rganish o‘zbek tilining tarixiy leksikologiyasi va dialektologiyasi uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Joy nomlari faqat geografik obyektni atash vositasi emas. Ular muayyan hududda yashagan aholining xo‘jalik faoliyati, etnik tarkibi, diniy qarashlari va tabiiy muhitga munosabatini ham aks ettiradi. Shu sababli toponimlarni tilshunoslik, tarix, etnografiya va geografiya kesishmasida kompleks o‘rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Navoiy viloyati bu jihatdan alohida qiziqish uyg‘otadi. Viloyat hududi Zarafshon vohasining quyi qismi, Nurota tog‘ tizmasi va Qizilqum cho‘lini o‘z ichiga oladi. Bu yerda azaldan o‘troq dehqon va ko‘chmanchi chorvador aholi yonma-yon yashagan. Natijada viloyat toponimiyasida sug‘d-forsiy va turkiy qatlamlar o‘zaro qorishgan, keyinchalik arabiy hamda rus-sovet davri nomlari qo‘shilgan.

Ushbu tadqiqotning maqsadi Navoiy viloyati toponimlarini til qatlamlari, leksik-semantik va struktur jihatdan tasniflash hamda asosiy nomlarning etimologiyasini qiyosiy tahlil qilishdan iborat. Shu maqsadda quyidagi vazifalar belgilandi: viloyat toponimlarini turlari bo‘yicha to‘plash va tizimlashtirish; ularning til

qatlamlarini aniqlash; nomlarni leksik-semantik guruhlarga ajratish va yasalish modellarini belgilash; munozarali nomlar etimologiyasiga oid qarashlarni qiyoslash.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O‘zbekiston toponimiyasini o‘rganish tilshunoslik va tarixiy geografiya kesishmasida shakllangan ilmiy yo‘nalishdir. Mavzuga oid tadqiqotlarni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin: toponimiyaning umumnazariy masalalariga bag‘ishlangan ishlar, O‘zbekiston joy nomlarining umumiy tavsifi va lug‘atlari hamda muayyan hudud toponimiyasiga oid tadqiqotlar.

Toponimiyaning nazariy asoslari A.V.Superanskaya va E.M.Murzayev ishlarida ishlab chiqilgan [5; 6]. A.V.Superanskaya atoqli otlarning tizimli tasnifini taklif qilgan bo‘lsa, E.M.Murzayevning xalq geografik terminlari lug‘ati turkiy va eroniy geografik terminlar etimologiyasini aniqlashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbek toponimikasining shakllanishida H.Hasanov, S.Qorayev, T.Nafasov, Z.Do‘simov kabi olimlarning xizmati katta [1; 2; 3; 7; 11]. S.Qorayevning “Toponimika” asarida toponimlarning tasnifi va o‘rganish metodlari tizimli bayon etilgan. T.Nafasovning izohli lug‘ati esa O‘zbekiston toponimlarining etimologiyasiga oid boy material beradi. E.Begmatov va N.Uluqov onomastik terminlarni tartibga solgan [4].

Tarixiy manbalar orasida Narshaxiyning “Buxoro tarixi” va V.V.Bartoldning tarixiy-geografik tadqiqotlari Zarafshon vohasi shaharlari nomlarining qadimgi shakllarini aniqlashda alohida ahamiyatga ega [8; 10]. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari turkiy geografik terminlarning qadimgi ma’nolarini tiklash imkonini beradi [9].

Biroq Navoiy viloyati toponimiyasi yaxlit tizim sifatida, uning tog‘, voha va cho‘l mintaqalari kesimida yetarli darajada o‘rganilmagan. Mavjud ishlarda asosan alohida nomlar etimologiyasiga to‘xtalinadi. Bu esa mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot materiali sifatida viloyatning ma’muriy-hududiy bo‘linishiga oid rasmiy ro‘yxatlar, topografik xaritalar, toponimik lug‘atlar [2; 7] va tarixiy manbalar olindi. Shuningdek, nashr etilgan o‘lkashunoslik manbalarida qayd etilgan xalq rivoyatlari va mahalliy talaffuz shakllari hisobga olindi.

Tahlilda tavsifiy, struktur-semantik, qiyosiy-tarixiy, etimologik va areal metodlardan foydalanildi. Tavsifiy metod orqali toponimlar to‘plandi va turlarga ajratildi. Struktur-semantik tahlil nomlarning tarkibiy qismlari va ma’no guruhlarini aniqlash imkonini berdi. Qiyosiy-tarixiy metod yordamida nomlarning qadimgi yozma shakllari hozirgisi bilan solishtirildi. Areal tahlil nomlarning tog‘, voha va cho‘l mintaqalari bo‘yicha tarqalishini kuzatishga xizmat qildi. Xalq etimologiyasi ilmiy talqindan alohida ko‘rsatildi.

Tahlil va natijalar. Tahlil Navoiy viloyati toponimiyasida to‘rt asosiy til qatlami mavjudligini ko‘rsatdi. Ularning tarqalishi hududning tabiiy-geografik tuzilishi bilan bog‘liq: sug‘d-forsiy nomlar ko‘proq Zarafshon vohasi va Nurota tog‘ oldi hududlarida, turkiy nomlar esa Qizilqum va tog‘ yaylovlarida ustunlik qiladi (1-jadval).

1-jadval.

Navoiy viloyati toponimlarining til qatlamlari bo‘yicha taqsimlanishi

№	Til qatlami	Misollar	Asosiy tarqalish hududi
1	Sug‘d-forsiy	Karmana, Konimex, Navbahor, Zarafshon, Sarmish	Zarafshon vohasi, Nurota tog‘ oldi
2	Turkiy	Uchquduq, Qiziltepa, Tomdi, Muruntov, Qoratog‘, Oqtog‘, Aydarko‘l	Qizilqum, tog‘ yaylovlari
3	Arabiy	Nurota (nur), Malikrabot (malik, ribot), Xatirchi (xotir, munozarali)	Voha va qadimiy karvon yo‘llari
4	Rus-sovet davri	Navoiy, Zarafshon (shahar), Yangiobod, Ittifoq tipidagi nomlar	Sanoat shaharlari, yangi o‘zlashtirilgan yerlar

Alohida e’tiborga molik hodisa – gibrid toponimlardir. Ularda turli til unsurlari bir nomda birikkan: *Nurota* (arab. *nur* + turk. *ota*), *Malikrabot* (arab. *malik* + arab. *ribot*, fors-tojikcha talaffuzda), *Qiziltepa* (turk. *qizil* + fors. *tepa* < *tappa*). Bunday nomlar hududda uzoq davom etgan turkiy-sug‘d ikki tilliligining bevosita izidir.

Toponimlar ma’no asosiga ko‘ra yetti leksik-semantik guruhga ajratildi (2-jadval). Relyefni ifodalovchi nomlarda rang bildiruvchi so‘zlar (*qora, oq, qizil*) ko‘pincha jismoniy rangni emas, “yirik”, “baland” yoki tomon ma’nolarini ham anglatadi. Cho‘l sharoitida quduq va buloq hayot manbai bo‘lgani uchun suv manbalari bilan bog‘liq nomlar Qizilqumda eng serunum guruh hisoblanadi.

2-jadval.

Navoiy viloyati toponimlarining leksik-semantik guruhlari

№	Guruh	Misollar	Izoh
1	Relyef va landshaft nomlari	Qiziltepa, Oqtepa, Qoratog‘, Oqtog‘, Bo‘kantog‘, Tomditog‘	Rang so‘zlari ko‘chma ma’noda ham qo‘llanadi
2	Suv manbalari nomlari	Uchquduq, Qorabuloq, Chashma, Sarmishsoy, Aydarko‘l, Tuzkon	Qizilqumda eng serunum guruh
3	Qazilma va mashg‘ulot nomlari	Konimex, Muruntov, Tuzkon, G‘ozg‘on	Kon va hunarmandchilik tarixini aks ettiradi
4	Etnotoponimlar	Qipchoq, Nayman, Qo‘ng‘irot, Mang‘it, Saroy, Qarluq, Kenagas	Turkiy qabilalarning o‘troqlashuvi izlari
5	Diniy va muqaddas joy nomlari	Nurota, Hazrati Bashir, “ota”, “bobo”, “mozor” komponentli nomlar	Ziyoratgohlar atrofida shakllangan
6	Tarixiy-ijtimoiy nomlar	Malikrabot, Rabot, Qo‘rg‘on, Qal’a komponentli nomlar	Karvon yo‘llari va mudofaa inshootlari
7	Memorial va g‘oyaviy nomlar	Navoiy, Navbahor, Zarafshon, Yangiobod	Asosan XX asrda qo‘yilgan

Tuzilishiga ko‘ra viloyat toponimlari sodda (*Karmana*, *Tomdi*, *Sarmish*), qo‘shma (*Uchquduq*, *Qiziltepa*, *Nurota*, *Muruntov*) va birikma shaklidagi (*Hazrati Bashir*) nomlarga bo‘linadi. Eng mahsuldor yasalish modeli “sifat/son + geografik termin” hisoblanadi: *Uchquduq*, *Oqtepa*, *Qorabuloq*, *Qizilqum*. Ikkinchi o‘rinda “ot + geografik termin” modeli turadi: *Muruntov*, *Sarmishsoy*, *Aydarko‘l*. Toponim yasovchi affikslardan turkiy *-li/-lik*, *-chi* va fors-tojikcha *-on*, *-obod*, *-zor* faol qo‘llangan.

Endi viloyatning asosiy toponimlari etimologiyasiga to‘xtalamiz.

Karmana. Shahar arab manbalarida *Karmina* shaklida qayd etilgan; Narshaxiy uni Buxoro viloyatining yirik shaharlaridan biri sifatida tilga oladi [8]. XIX asr rus manbalarida *Kermine* shakli tarqalgan. Nom sug‘d tiliga mansub deb hisoblanadi. Bir talqinga ko‘ra, u “qo‘rg‘onli qishloq”, “obod joy” ma’nosiga ega; xalq etimologiyasi esa uni *karam* (“saxovat”) so‘zi bilan bog‘laydi. Yozma shaklning qadimiyligi xalq etimologiyasi keyinroq paydo bo‘lganini ko‘rsatadi.

Nurota. Shahar o‘rnida qadimda *Nur* qal’asi bo‘lgan; Narshaxiy uni muqaddas ziyoratgoh sifatida eslaydi [8]. Ilmiy adabiyotda nomning ikki talqini mavjud: arabcha *nur* – “yorug‘lik” hamda qadimiy mahalliy nom bilan bog‘liq talqin. Keyinchalik ziyoratgoh nomiga turkiy *ota* qo‘shilib, *Nurota* shakli qaror topgan. Demak, nom ko‘p qatlamli gibrid toponimdir.

Konimex. Nom fors-tojikcha *kon* – “kon, qazilma joyi” va *mex* – “mix” so‘zlaridan iborat bo‘lib, “mix (temir) koni” ma’nosini beradi. Mahalliy talaffuzda *Kenimex* shakli ham uchraydi. Nom hududda qadimdan temirchilik va kon ishlari bo‘lganiga ishora qiladi.

Uchquduq. Turkiy *uch* (son) va *quduq* so‘zlaridan yasalgan, “uchta qudug‘i bor joy” ma’nosini beradi. Bu cho‘l toponimiyasiga xos tipik model bo‘lib, aholi punkti suv manbasiga qarab nomlangan.

Qiziltepa. Turkiy *qizil* va fors-tojikcha *tepa* (< *tappa*) birikuvidan hosil bo‘lgan. Nom qizg‘ish tuproqli tepalik yoki qadimiy qo‘rg‘on xarobasini ifodalagan bo‘lishi mumkin. O‘rta Osiyoda *tepa* komponentli nomlarning ko‘pchiligi arxeologik yodgorliklar bilan bog‘liq.

Tomdi. Nom turkiy *tam* – “somon-loydan qurilgan uy, qishlov joyi” so‘zi va *-di/-li* qo‘shimchasidan yasalgan, “imorati bor joy” deb talqin qilinadi. Qozoq tilida *tamdy* shakli shu ma’noni beradi. Ko‘chmanchi chorvadorlar uchun doimiy qishlov joyining borligi muhim belgi bo‘lgan.

Muruntov. Turkiy *murun* (< *burun*) – “burun; tog‘ tizmasining chiqib turgan qismi” va *tov* (< *tog‘*) so‘zlaridan iborat. *b* > *m* almashinuvi qipchoq lahjalariga xos. Nom relyefning tashqi ko‘rinishi asosida qo‘yilgan metaforik oronimdir.

Navbahor. Fors-tojikcha *nav* – “yangi” va *bahor* so‘zlaridan iborat. O‘rta Osiyoda *Navbahor* nomi qadimda buddaviy ibodatxona (sanskr. *nava vihāra* – “yangi monastir”) nomi bilan ham bog‘lanadi. Biroq hozirgi tuman nomi XX asrda memorial-poetik nom sifatida qo‘yilgan, shu bois bu ikki talqinni farqlash lozim.

Zarafshon. Fors-tojikcha *zar* – “oltin” va *afshon* – “sochuvchi” so‘zlaridan iborat bo‘lib, “oltin sochuvchi” ma’nosini beradi. Daryoning qadimgi nomlari antik manbalarda *Politimet*, o‘rta asr manbalarida esa *Namik* shaklida uchraydi. Muruntov oltin koni yonida qurilgan shaharga ham shu nom berilgan; bu gidronimdan oykonim yasalishining yorqin namunasidir.

Malikrabot. Karmana yaqinidagi karvonsaroy nomi XI asrda qoraxoniy hukmdor Shams ul-Mulk tomonidan qurilgan *Rabot-i Malik* (“podshoh raboti”) bilan bog‘liq. Nom arabcha *malik* – “podshoh” va *ribot* – “karvonsaroy, chegara qo‘rg‘oni” so‘zlaridan iborat.

Xatirchi. Nom etimologiyasi munozarali. Birinchi talqin uni arabcha *xotir* – “yodgorlik, xotira” so‘zi bilan bog‘laydi. Ikkinchi talqinga ko‘ra, nom shu hududda yashagan urug‘ nomidan kelib chiqqan etnotoponimdir. Bu masala qo‘shimcha arxiv va dala tadqiqotlarini talab etadi.

Toponimlarning areal tahlili uch mintaqani ajratish imkonini beradi. Zarafshon vohasida (Karmana, Navbahor, Qiziltepa, Xatirchi) qadimiy sug‘d-forsiy nomlar, *-obod, rabot, qo‘rg‘on* komponentli tarixiy nomlar va etnotoponimlar ko‘p. Nurota tog‘larida diniy-muqaddas joy nomlari, oronim va gidronimlar (*buloq, soy, chashma*) zich joylashgan. Qizilqumda (Tomdi, Uchquduq, Konimex) esa turkiy-qipchoqcha nomlar, quduq va qum relyefiga oid nomlar hamda XX asr sanoat nomlari ustunlik qiladi. Bu taqsimot hudud aholisining tarixiy xo‘jalik turlari – dehqonchilik, tog‘ chorvachiligi va cho‘l chorvachiligi bilan mos keladi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari Navoiy viloyati toponimiyasi ko‘p qatlamli tizim ekanini ko‘rsatdi. Unda sug‘d-forsiy, turkiy, arabiy va rus-sovet davri qatlamlari mavjud bo‘lib, eng qadimiy nomlar Zarafshon vohasi va Nurota tog‘ oldida saqlangan.

Gibrid toponimlar (*Nurota, Qiziltepa, Malikrabot*) hududda uzoq davom etgan turkiy-sug‘d ikki tilliligining lingvistik dalilidir. Leksik-semantik jihatdan relyef, suv manbalari va etnonimlar asosidagi nomlar ustunlik qiladi. Eng mahsuldor yasalish modeli – “sifat/son + geografik termin”. Toponimlarning areal taqsimoti aholining tarixiy xo‘jalik turlari bilan mos keladi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagilar taklif etiladi: Navoiy viloyatining izohli toponimik lug‘atini yaratish; *Karmana, Xatirchi, Navbahor* kabi munozarali nomlar etimologiyasini arxiv va dala materiallari asosida chuqurroq o‘rganish; viloyat toponimlarining raqamli toponimik xaritasini ishlab chiqish va undan maktab hamda oliy ta’limda o‘lkashunoslik materiali sifatida foydalanish.

ADABIYOTLAR:

1. Qorayev S. Toponimika. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006. 320 b.
2. Nafasov T. O‘zbekiston toponimlarining izohli lug‘ati. – T.: O‘qituvchi, 1988. 288 b.
3. Hasanov H. O‘rta Osiyo joy nomlari tarixidan. – T.: Fan, 1965.
4. Begmatov E., Uluqov N. O‘zbek onomastikasi terminlarining izohli lug‘ati. – Namangan, 2006.
5. Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. – М.: Наука, 1973. 366 с.
6. Мурзаев Э.М. Словарь народных географических терминов. – М.: Мысль, 1984. 653 с.
7. Qorayev S. Geografik nomlar ma’nosini bilasizmi? – T.: O‘zbekiston, 1978.
8. Narshaxiy Abu Bakr Muhammad. Buxoro tarixi. – T.: Kamalak, 1991.
9. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. 3 jildlik. – T.: Fan, 1960–1963.
10. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия // Сочинения. Т. I. – М., 1963.
11. Do‘simov Z., Egamov X. Joy nomlarining qisqacha izohli lug‘ati. – T.: O‘qituvchi, 1977.

UO‘K 811.512.133’373.46:7

INGLIZ VA O‘ZBEK SAN’ATSHUNOSLIK TERMINLARINING KORPUSGA ASOSLANGAN CHASTOTAVIY TAHLILI

Ochilova Mexriniso Razokovna,
Buxoro davlat universiteti professori
ochilova.2021@list.ru

Annotatsiya. *Maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi san’atshunoslik terminlarining qo‘llanilish chastotasi korpus tahlili asosida qiyosiy o‘rganiladi. Tadqiqotda ikki tilli maxsus korpus, mutlaq va nisbiy (1 million so‘zga nisbatan) chastota hamda Dunning log-likelihood ko‘rsatkichi qo‘llanildi. Terminlar mavzuviy maydonlar (rang, kompozitsiya, texnika, uslub va janr, milliy-madaniy atamalar) bo‘yicha guruhlanib, chastota taqsimoti, polisemantik terminlar ulushi va ikki til terminologik yadrolarining o‘zaro mos kelishi aniqlandi. Natijalar ikki tilli san’atshunoslik lug‘atida bosh so‘zlarni tanlash va terminlarni tartiblash uchun empirik asos bo‘lib xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *san’atshunoslik terminologiyasi, korpus tahlili, chastota, log-likelihood, ikki tilli leksikografiya, terminologik yadro.*

CORPUS-BASED FREQUENCY ANALYSIS OF ENGLISH AND UZBEK ART STUDIES TERMS

Abstract. *The article presents a corpus-based comparative analysis of the frequency of art-studies terms in English and Uzbek. A specialised bilingual corpus, raw and normalised (per million words) frequencies, and Dunning’s log-likelihood statistic were used. The terms were grouped into thematic fields (colour, composition, technique, style and genre, national-cultural terms) in order to identify frequency distribution, the share of polysemous terms, and the overlap between the terminological cores of the two languages. The findings provide an empirical basis for headword selection and ranking in a bilingual art-studies dictionary.*

Keywords: *art-studies terminology, corpus analysis, frequency, log-likelihood, bilingual lexicography, terminological core.*

ЧАСТОТНЫЙ АНАЛИЗ АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ ТЕРМИНОВ ИСКУССТВОВЕДЕНИЯ НА ОСНОВЕ КОРПУСА

Аннотация. *В статье проводится сравнительный корпусный анализ частотности искусствоведческих терминов в английском и узбекском языках. Использованы специализированный двуязычный корпус, абсолютная и относительная (на 1 млн. словоупотреблений) частоты и статистика логарифмического правдоподобия Даннинга. Термины сгруппированы по тематическим полям (цвет, композиция, техника, стиль и жанр, национально-культурные термины), определены распределение частот, доля полисемичных терминов и пересечение терминологических ядер двух языков. Результаты служат эмпирической основой для отбора и ранжирования заглавных слов в двуязычном искусствоведческом словаре.*

Ключевые слова: *искусствоведческая терминология, корпусный анализ, частотность, логарифмическое правдоподобие, двуязычная лексикография, терминологическое ядро.*

Kirish. Zamonaviy terminologiya fanida terminning nazariy ta’rifidan uning real qo‘llanilishini o‘rganishga o‘tish tendensiyasi kuchaymoqda. Klassik yondashuv terminni mono-semantik, uslubiy betaraf birlik sifatida talqin etgan bo‘lsa [1; 2], sotsiokognitiv va kommunikativ nazariyalar terminlarning haqiqiy nutqda ko‘p ma’noli, o‘zgaruvchan va kontekstga bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi [3; 4]. Shu sababli terminologik tizimni tavsiflashda intuitiv ro‘yxatlar o‘rniga korpus ma’lumotlariga tayanish metodologik jihatdan zarur bo‘lib qolmoqda [5; 6].

San’atshunoslik terminologiyasi bu jihatdan alohida qiziqish uyg‘otadi: u estetika, tarix, texnologiya va lingvistika kesishmasida shakllanadi, umumiy tildan ko‘chirilgan (metaforik) birliklarga boy va milliy-madaniy atamalarni o‘z ichiga oladi. O‘zbek tilida bu terminologiyaning ikki tilli leksikografik tavsifi hali yetarli emas: mavjud lug‘atlarda bosh so‘zlar asosan muallif tanlovi bilan belgilanadi, ularning haqiqiy

qo‘llanilish chastotasi esa ko‘rsatilmaydi. Bu maqolaning muammosi: ingliz va o‘zbek san’atshunoslik terminlaridan qaysilari korpusda yuqori chastotali, ular qanday mavzuviy maydonlarda to‘planadi va ikki tilning terminologik yadrolari qay darajada mos keladi.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o‘zbek san’atshunoslik terminlarining chastotaviy xususiyatlarini korpus asosida aniqlash va olingan natijalarni ikki tilli lug‘at uchun bosh so‘zlarni tanlash mezoni sifatida asoslashdan iborat. Quyidagi farazlar ilgari surildi: har ikki tilda terminlarning chastotasi tengsiz taqsimlangan – kichik yadro yuqori chastotali, ko‘pchilik termin past chastotali;yuqori chastotali terminlarning ulushi polisemantik birliklarga to‘g‘ri keladi; o‘zbek tilida xalqaro (internatsional) terminlar bilan bir qatorda milliy-madaniy atamalar ham yadroning muhim qismini tashkil etadi, ingliz tilida esa bunday milliy qatlam kamroq ifodalanadi.Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat: ingliz va o‘zbek tillaridagi san’atshunoslik matnlaridan ikki tilli terminologik korpus shakllantirish tamoyillarini belgilash; korpusdan terminlarni ajratib olib, har bir til uchun chastota ro‘yxatini tuzish; chastotaning taqsimlanish xarakterini aniqlash va farazni tekshirish; yuqori chastotali terminlar orasida ko‘p ma’noli birliklarning ulushini baholash ; ikki tilning terminologik yadrolarini mavzuviy maydonlar bo‘yicha qiyoslab, milliy-madaniy atamalarning o‘rnini aniqlash ; natijalar asosida ikki tilli lug‘at uchun bosh so‘zlarni tanlash mezonini taklif etish.

Tadqiqot obyekti – ingliz va o‘zbek tillaridagi san’atshunoslik matnlari; predmeti – shu matnlardagi terminlarning chastotaviy xususiyatlari, mavzuviy taqsimoti va tillararo muvofiqligi. Tahlil korpus lingvistikasining miqdoriy usullariga (chastota ro‘yxati, nisbiy chastota, taqsimlanish ko‘rsatkichlari), shuningdek terminlarni mavzuviy tasniflash va qiyosiy-tipologik tavsif usullariga tayanadi. Korpusning hajmi, manbalari va terminlarni ajratib olish tartibi keyingi bo‘limda alohida beriladi.

Ingliz va o‘zbek san’atshunoslik terminlari birinchi marta yagona chastotaviy metodika bilan qiyosiy o‘rganilib, ularning terminologik yadrosi miqdoriy asosda aniqlanadi. Bu intuitiv tanlovga emas, tekshirib ko‘rish mumkin bo‘lgan ko‘rsatkichlarga tayangan tavsifni taklif etadi. Olingan chastota ro‘yxatlari va terminologik yadro ikki tilli san’atshunoslik lug‘atida bosh so‘zlarni tanlashda, tarjima va o‘qitish materiallarini tayyorlashda hamda terminologik me’yorlashtirishda ishlatilishi mumkin.

Nazariy asos va adabiyotlar tahlili. Terminologik standartlashtirish nazariyasining asoschisi E.Vyuster terminni tushunchalar tizimidagi o‘rnini egallovchi bir ma’noli birlik deb hisobladi [1]; V.M.Leychik terminning tizimlilik va nominativ-definitiv tabiatini ta’kidladi [2]. Biroq M.T.Kabre va R.Temmerman terminlarning kommunikativ vaziyatdagi haqiqiy xulqini o‘rganish zarurligini asosladilar [3; 4]. Ikkinchi yondashuv korpus metodlari bilan uyg‘un: J.Sinkler tilni real matnlardagi qo‘llanilish orqali o‘rganishni [7], T. MakEneri va A. Xardi korpus lingvistikasining metodologik asoslarini [8], D.Biber va hamkasblari korpus asosida til tuzilishi va qo‘llanilishini tadqiq etish tamoyillarini [9] bayon etgan. Maxsus tilni korpus bilan o‘rganishga oid amaliy yondashuv L.Bouker va J.Pirson [5], J.Pirson [6] asarlarida ishlab chiqilgan.

1-jadval. Nazariy yondashuvlar va tadqiqot farazlari

Yondashuv	Terminga qarash	Korpusga munosabati	Maqoladagi roli
Klassik (Vena, Moskva)	Bir ma’noli, betaraf birlik	Zaruriy emas	Qiyoslash asosi
Kommunikativ	Variantli, kontekstga bog‘liq	Real nutq dalili sifatida	Chastota va variantlilik
Sotsiokognitiv	Prototipik, ko‘p ma’noli	Ma’no xilma-xilligini ko‘rsatadi	Ko‘p ma’nolilik tahlili
Korpus metodologiyasi	Qo‘llanish birligi	Asosiy empirik vosita	Chastotaviy yadro

Chastota terminning muhimligini o‘lchashning yagona ko‘rsatkichi emas: mutlaq chastota korpus hajmiga bog‘liq bo‘lgani uchun tillararo taqqoslashda 1 million so‘zga normallashtirilgan nisbiy chastota qo‘llanadi [8]. Terminning sohaga xosligini (keyness) baholash uchun esa terminning maxsus korpusdagi chastotasi umumiy til korpusidagi chastotasi bilan T.Dunning taklif etgan log-likelihood ko‘rsatkichi orqali solishtiriladi [10; 11; 12]. Kognitiv nuqtai nazardan, san’atshunoslik terminlarining katta qismi kontseptual metafora modellariga asoslanadi [13] va tegishli bilim tuzilmalari (freymlar) doirasida ma’no kasb etadi [14]; bu holat chastotaviy tahlilni faqat miqdoriy emas, mazmuniy talqin bilan to‘ldirishni talab qiladi.

Material va metodlar. Korpus dizayni. Tadqiqot uchun ikki qismli maxsus korpus tuzildi: ingliz tili qismi va o‘zbek tili qismidan iborat. Korpusga quyidagi janrlar kiritildi: San’at tanqidi va san’atshunoslikka

oid ilmiy maqolalar; muzey va ko‘rgazma kataloglari; san’at ta’limiga oid darslik va o‘quv qo‘llanmalar; ensiklopedik va izohli lug‘atlar . Ikkala til qismi janr tarkibi bo‘yicha imkon qadar muvozanatlashtirildi. Umumiy tilga xoslikni baholash uchun ingliz tili bo‘yicha o‘zbek tili bo‘yicha taqqoslash korpusi sifatida ishlatildi [15; 16].

Terminlar ro‘yxati. Boshlang‘ich ro‘yxat maxsus lug‘atlar va Getty AAT tezaurusi [17] asosida tuzilib, termin (bir va ko‘p so‘zli) qamrab olindi. Terminlar besh mavzuviy maydonga ajratildi: rang, kompozitsiya va fazo, texnika va materiallar, uslub va janr, milliy-madaniy atamalar. Ro‘yxat ikki tilda mos (ekvivalent) juftliklar va mos kelmaydigan (ekvivalentsiz) birliklarni ajratib ko‘rsatadigan tarzda shakllantirildi.

Matnni qayta ishlash. Matnlar kichik harflarga o‘tkazilib, tutuq belgilarining turlicha yozilishi (‘ ’ ‘ ’) yagona shaklga keltirildi. Ingliz tilida terminlar aniq shakl bo‘yicha (lemmatizatsiya bilan) hisoblandi. O‘zbek tili agglyutinativ bo‘lgani uchun terminning qo‘shimchali shakllari (masalan, naqsh – naqshlar, naqshning) o‘zak bo‘yicha birlashtirildi; bu taxminiy usul bo‘lgani sababli, homonim o‘zaklar (masalan, rang – ‘tus’ va ‘rang-barang’ tarkibidagi shakllar) konkordans asosida qo‘lda tekshirildi. Statistik ko‘rsatkichlar. Har bir termin uchun mutlaq chastota, 1 million so‘zga nisbiy chastota (ipm) va taqqoslash korpusiga nisbatan hisoblandi. Ikki til terminologik yadrolarining mosligi yadroga kirgan ekvivalent juftliklar ulushi bilan baholandi.

Natijalar va muhokama. Chastotaning umumiy taqsimoti. Ingliz tili korpusida terminlar ro‘yxatining umumiy chastotasini tashkil etdi; o‘zbek tili korpusida bu ko‘rsatkich mos ravishda bo‘ldi.

Amaliy xulosa: lug‘at uchun bosh so‘zlarni tanlash. Chastota, keyness va mavzuviy maydon ko‘rsatkichlarini birlashtirish lug‘at bosh so‘zlarini uch darajaga ajratish imkonini beradi: Yadro terminlar – yuqori chastotali, sohaga xos va ikki tilda ekvivalentga ega birliklar; periferik terminlar – past chastotali, biroq sohaga xos birliklar; ekvivalentsiz (asosan milliy-madaniy) birliklar – izohli ensiklopedik maqolani talab qiladi. Bu tasnif ikki tilli lug‘atning hajmi va tuzilmasini empirik asosda belgilash uchun mezon vazifasini bajaradi.

Tadqiqotning cheklovlari. Natijalar korpus hajmi va janr tarkibiga bog‘liq; o‘zbek tilidagi agglyutinatsiya sababli chastota o‘zak bo‘yicha taxminiy hisoblangan; korpus bilan cheklangan. Kelgusida lemmatizatsiya sifatini oshirish va korpusni kengaytirish rejalashtirilgan.

Xulosa. Tadqiqot ingliz va o‘zbek san’atshunoslik terminlarini korpus asosida o‘rganishning metodik modelini (korpus dizayni, terminlar ro‘yxati, normalizatsiya, f/ipm/G2 ko‘rsatkichlari, mavzuviy maydonlar tahlili) taklif etdi. Chastotaviy taqsimot, polisemantik terminlar ulushi va ikki til yadrolarining mosligi bo‘yicha olingan natijalar. Ushbu natijalar ikki tilli san’atshunoslik lug‘atida bosh so‘zlarni tanlash, ularni darajalash va ekvivalentsiz birliklarni ajratish uchun empirik asos yaratadi hamda terminologik standartlashtirish jarayonini real qo‘llanilishga tayantirish imkonini beradi.Tadqiqotda ingliz va o‘zbek san’atshunoslik terminlarining chastotaviy xususiyatlari korpus asosida o‘rganildi. Natijalar ko‘rsatdiki, terminologik tizimni faqat nazariy ta’riflar yoki muallif tanlovi bilan tavsiflash yetarli emas: terminning amaldagi o‘rni uning korpusdagi chastotasi, mavzuviy joylashuvi va ma’no xilma-xilligi bilan birgalikda baholanishi kerak.Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundaki, san’atshunoslik terminologiyasi ikki tilda yagona chastotaviy metodika bilan qiyosiy tavsiflandi va terminologik yadro tushunchasi miqdoriy asosga qo‘yildi. Amaliy ahamiyati esa olingan chastota ro‘yxatlari ikki tilli lug‘at uchun bosh so‘zlarni tanlash mezoni sifatida, shuningdek, tarjima, o‘qitish va terminologik me’yorlashtirishda ishlatilishi mumkinligidadir.

Korpus hajmi va uning janr tarkibi natijalarni san’atshunoslikning barcha tarmoqlariga to‘liq umumlashtirishga imkon bermaydi. Shuningdek, chastota faqat qo‘llanish darajasini ko‘rsatadi, terminning “to‘g‘riligi” yoki standartga mosligini bildirmaydi. Kelgusi izlanishlarda korpusni kengaytirish, kollokatsion va diaxronik tahlilni qo‘shish, shuningdek san’atning alohida tarmoqlari (tasviriy san’at, me’morchilik, musiqa) bo‘yicha alohida yadrolarni aniqlash maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR:

1. Wüster E. Einführung in die allgemeine Terminologielehre und terminologische Lexikographie. – Wien; New York: Springer, 1979.

2. Лейчик В.М. Терминоведение: предмет, методы, структура. – М.: Либроком, 2006.

3. Temmerman R. Towards New Ways of Terminology Description: The Sociocognitive Approach. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins, 2000.

4. Cabré M.T. Terminology: Theory, Methods and Applications. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins, 1999.

5. Bowker L., Pearson J. Working with Specialized Language: A Practical Guide to Using Corpora. – London: Routledge, 2002.

6. Pearson J. Terms in Context. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins, 1998.

7. Sinclair J. Corpus, Concordance, Collocation. – Oxford: Oxford University Press, 1991.

8. McEnery T., Hardie A. Corpus Linguistics: Method, Theory and Practice. – Cambridge: Cambridge University Press, 2012.

9. Biber D., Conrad S., Reppen R. Corpus Linguistics: Investigating Language Structure and Use. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998.

10. Dunning T. Accurate methods for the statistics of surprise and coincidence // Computational Linguistics. – 1993. – Vol. 19, No. 1. – P. 61–74.

11. Rayson P., Garside R. Comparing corpora using frequency profiling // Proceedings of the Workshop on Comparing Corpora. – Hong Kong: ACL, 2000. – P. 1–6.

12. Kilgarriff A. Simple maths for keywords // Proceedings of the Corpus Linguistics Conference. – Liverpool, 2009.

13. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.

14. Fillmore Ch.J. Frame Semantics // Linguistics in the Morning Calm. – Seoul: Hanshin, 1982. – P. 111–137.

15. The British National Corpus, version 3 (BNC XML Edition). – Oxford: Bodleian Libraries, 2007.

16. Davies M. The Corpus of Contemporary American English (COCA). – [onlayn resurs]: https://www.english-corpora.org/coca/.

17. Getty Research Institute. Art & Architecture Thesaurus (AAT). – Los Angeles: J. Paul Getty Trust. – [online resource].

UO‘K 81

AYOLLIKNI TIL VA OBRAZ ORQALI IFODALASHNING LINGVOPOETIK MEXANIZMLARI – NOMINATSIYA, SOMATIK DETAL VA SUKUT POETIKASI (PERL BAK ROMANLARI MISOLIDA)

Pirmatova Xulkar Djaxangirovna,
Toshkent davlat transport universiteti assistenti
justhulkar@gmail.com
Orcid: https://orcid.org/0009-0009-9065-465X

Annotatsiya. *Maqolada ayollik kategoriyasining badiiy matnda til vositalari orqali voqelanish mexanizmlari lingvopoetik nuqtayi nazardan tadqiq etiladi. Tadqiqot materiali sifatida Perl Bakning “Sharq shamoli, G‘arb shamoli” (1930), “Muborak zamin” (1931), “Ona” (1934) va “Ayollar qasri” (1946) romanlari olingan. Muallif ayollikning badiiy ifodasi uchta asosiy lingvopoetik daraja – nominatsiya, somatik portret detali va nutq xarakteristikasi orqali shakllanishini asoslaydi. Nominatsiya tahlili qahramonning nomlanish usuli uning matndagi subyektlik darajasiga to‘g‘ridan to‘g‘ri mutanosib ekanini ko‘rsatadi. Somatik detal, xususan oyoq bog‘lash motivi, ayollikning estetik obyekt va mehnat subyekti sifatidagi ikki qarama-qarshi talqinini bir vaqtda ifodalovchi kalit belgi sifatida tavsiflanadi. Sukut poetikasi esa nutqning yo‘qligi belgili hodisa bo‘lib, u ijtimoiy ovozsizlikning grammatik ekvivalenti sifatida ishlashi isbotlanadi. Tadqiqot natijalari asosida ayollikni ifodalovchi lingvopoetik vositalarning tizimli tasnifi taklif qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *lingvopoetika, ayollik kategoriyasi, nominatsiya, somatik detal, sukut poetikasi, portret, gender lingvistikasi, Perl Bak.*

ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ВЫРАЖЕНИЯ ЖЕНСТВЕННОСТИ ЧЕРЕЗ ЯЗЫК И ОБРАЗ - НОМИНАЦИЯ, СОМАТИЧЕСКАЯ ДЕТАЛЬ И ПОЭТИКА МОЛЧАНИЯ (НА ПРИМЕРЕ РОМАНОВ ПЕРЛ БАК)

Аннотация. *В статье с лингвопоэтических позиций исследуются механизмы воплощения категории женственности в художественном тексте посредством языка. Материалом послужили романы Перл Бак «Восточный ветер, западный ветер» (1930), «Земля» (1931), «Мать» (1934) и «Павильон женщин» (1946). Автор обосновывает, что художественное выражение женственности формируется на трёх основных лингвопоэтических уровнях – номинации, соматической портретной детали и речевой характеристики. Анализ номинации показывает, что способ именования героини прямо пропорционален степени её субъектности в тексте. Соматическая деталь, в частности мотив бинтования ног, описывается как ключевой знак, одновременно выражающий две противоположные трактовки женственности – как эстетического объекта и как трудового субъекта. Поэтика молчания трактуется как маркированное явление, при котором отсутствие речи функционирует в качестве грамматического эквивалента социальной безголосости. На основе результатов исследования предлагается системная классификация лингвопоэтических средств выражения женственности.*

Ключевые слова: *лингвопоэтика, категория женственности, номинация, соматическая деталь, поэтика молчания, портрет, гендерная лингвистика, Перл Бак.*

LINGUOPOETIC MECHANISMS OF EXPRESSING FEMININITY THROUGH LANGUAGE AND IMAGERY: NOMINATION, SOMATIC DETAIL, AND THE POETICS OF SILENCE (BASED ON THE NOVELS OF PEARL S. BUCK)

Abstract. *The article examines, from a linguopoetic perspective, the mechanisms by which the category of femininity is realised in the literary text through linguistic means. The material of the study comprises Pearl Buck’s novels East Wind, West Wind (1930), The Good Earth (1931), The Mother (1934) and Pavilion of Women (1946). The author argues that the artistic expression of femininity is formed on three principal linguopoetic levels, namely nomination, the somatic portrait detail and speech characterisation. The analysis of nomination shows that the way a heroine is named is directly proportional to the degree of her subjecthood within the text. The somatic detail, in particular the motif of foot binding, is described as a key sign that simultaneously conveys two opposing interpretations of femininity, that of the*

aesthetic object and that of the labouring subject. The poetics of silence is treated as a marked phenomenon in which the absence of speech functions as the grammatical equivalent of social voicelessness. On the basis of the results, a systematic classification of the linguopoetic means of expressing femininity is proposed.

Key words: *linguopoetics, category of femininity, nomination, somatic detail, poetics of silence, portrait, gender linguistics, Pearl Buck.*

Kirish. Badiiy matnda ayol obrazini o‘rganish an’anasi uzoq tarixga ega bo‘lsa-da, tadqiqotlarning katta qismi obrazning mazmuni bilan, ya’ni qahramonning ijtimoiy mavqeyi, xarakteri va taqdiri bilan cheklanadi. Holbuki obraz o‘quvchi ongida til vositalari orqali quriladi. Qahramon qanday nomlanishi, uning tashqi qiyofasidan qaysi detal tanlanishi, unga qancha nutq berilishi – bularning barchasi muallif tanlovi bo‘lib, ular obrazning mazmunidan oldin turadi va uni belgilaydi. Shu sababli ayollikni badiiy ifodalash masalasi adabiyotshunoslik va tilshunoslik kesishgan nuqtada, ya’ni lingvopoetika doirasida o‘rganilishi maqsadga muvofiq.

Lingvopoetika til birligining badiiy matndagi estetik vazifasini tekshiradi va shu bilan sof stilistikadan farqlanadi. A.A.Lipgart ta’kidlaganidek, tahlil uch bosqichda amalga oshiriladi, ya’ni avval til birligining semantik mazmuni, so‘ng uning matndagi qo‘shimcha estetik yuklamasi, nihoyat asarning umumiy g‘oyaviy tuzilishidagi o‘rni aniqlanadi [12, 15]. Bu yondashuv ayollik kabi mavhum kategoriyani tekshirish uchun ayniqsa qulay, chunki u tadqiqotchini umumiy mulohazadan aniq til faktiga qaytaradi. Shu o‘rinda ikki tushunchani ajratish zarur. Ayol obrazi konkret personajni bildiradi, ayollik esa matnda shakllanadigan semantik kategoriya bo‘lib, u bir necha personaj, muallif bahosi va matn tuzilishining o‘zaro munosabatidan hosil bo‘ladi. Aynan shu farq tadqiqotning yo‘nalishini belgilaydi, ya’ni maqsad ayrim qahramonni tavsiflash emas, ayollik ma’nosining qanday til mexanizmlari orqali hosil qilinishini aniqlashdir.

Perl Bak nasri bu vazifa uchun qulay material beradi. Yozuvchi ijodida ayol qahramon deyarli barcha yirik asarlarning markazida turadi, ammo bu qahramonlar ijtimoiy mavqei, nutq imkoniyati va tasvirlanish usuli bo‘yicha keskin farqlanadi. Shu sababli uning romanlari ayollikni ifodalovchi turli lingvopoetik modellarni qiyoslash imkonini beradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili Lingvopoetika metodologiyasi V.V.Vinogradov ishlarida asoslangan bo‘lib, unda badiiy asar tili alohida tizim sifatida qaraladi [13]. Keyinchalik bu yo‘nalish A.A.Lipgart tomonidan aniq tahlil bosqichlariga aylantirildi [12]. Nominatsiya nazariyasi V.G.Gak tadqiqotlarida ishlab chiqilgan bo‘lib, unda nomlash aktining tanlovga asoslangani va shu tanlov orqali baho ifodalanishi ko‘rsatilgan [14, 234]. Portret va detal masalasi V.Y. Xalizev tomonidan badiiy tasvirning tejamkorlik prinsipi doirasida yoritilgan [16]. O‘zbek tilshunosligida badiiy matn lingvopoetikasi masalalari M.Yo‘ldoshev ishlarida tizimli tarzda o‘rganilgan [17]. Gender jihati bo‘yicha R.Lakoffning ayol nutqining o‘ziga xos belgilarini ajratgan tadqiqoti asos bo‘lib qoldi [6], D.Tannen esa muloqotdagi gender farqlarini tavsifladi [7]. A.V.Kirilina gender lingvistikasining tushunchaviy apparatini umumlashtirdi [15]. Adabiy matnga nisbatan qo‘llanadigan yondashuv S.Lanser ishlarida shakllangan bo‘lib, unda ayol ovozining matndagi mavqei alohida tahlil obyekti sifatida ajratiladi [8]. E.Shouolter ayol yozuvining o‘ziga xos an’anasi haqidagi kontseptsiyani ilgari surdi [9]. Ovozsizlik masalasida G.Ch.Spivakning bo‘ysundirilgan subyekt gapira oladimi degan savolni qo‘ygan ishi [10] va T.Olsenning adabiy sukut haqidagi tadqiqoti [11] muhim nazariy tayanch beradi. Perl Bak ijodiga oid ilmiy adabiyotda P.Konnning madaniy biografiyasi asosiy manba hisoblanadi [5]. Unda yozuvchining Xitoydagi hayoti va uning asarlaridagi ayol obrazlari o‘rtasidagi bog‘liqlik ochib berilgan. Ammo mazkur ishlarda ayollikning til darajasidagi ifodasi maxsus tahlil qilinmagan. Shu bo‘shliq mazkur maqolaning ilmiy vazifasini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi tadqiqotda lingvopoetik tahlilning uch bosqichli modeli qo‘llanildi. Birinchi bosqichda tanlangan til birliklarining lug‘aviy ma’nosi aniqlandi, ikkinchi bosqichda ularning matndagi qo‘shimcha estetik vazifasi belgilandi, uchinchi bosqichda esa bu vazifaning asar umumiy mazmuniga qo‘shgan hissasi baholandi. Bundan tashqari nominatsiya birliklarini ajratishda komponent tahlil, portret detallarini o‘rganishda kontekstual tahlil, personajlar nutqini o‘lchashda esa qiyosiy-statistik kuzatuv usulidan foydalanildi. Tahlil birligi sifatida qahramonga nisbatan qo‘llangan nomlovchi birlik, portret detali va nutq akti olindi.

Tahlil va natijalar. Nominatsiya darajasi – nom va subyektlik o‘rtasidagi bog‘liqlik Perl Bak romanlarida ayol qahramonni nomlashning bir necha usuli mavjud va ular tasodifiy taqsimlanmagan. Nomlash usuli qahramonning matndagi subyektlik darajasi bilan izchil bog‘liq.

Eng chekka holat “Ona” romanida kuzatiladi. Unda bosh qahramon butun asar davomida shaxs nomi bilan atalmaydi, u faqat munosabat bildiruvchi nomlanish orqali, ya’ni ona sifatida beriladi. Xuddi shu tamoyil boshqa personajlarga ham tatbiq etiladi. Bu holat individual belgining yo‘qolishini emas, ijtimoiy rolning shaxsni butunlay qoplab qo‘yishini ifodalaydi. Nominatsiya nazariyasi nuqtayi nazaridan bu

relyatsion nomlanishning mutlaqlashtirilgan ko‘rinishi bo‘lib, unda qahramon o‘ziga xos xususiyati bilan emas, boshqalarga bo‘lgan vazifasi bilan mavjud [14, 234].

“Muborak zamin” romanida boshqa model ishlaydi. Bosh ayol qahramonning nomi mavjud, ammo u qullik davridan qolgan nom bo‘lib, uning kelib chiqishini eslatib turadi. Ayni paytda romandagi boshqa ayollar tabiat olamiga oid nomlar bilan ataladi, ya’ni ular gul va qush nomlariga bog‘lanadi. Bu qarama-qarshilik lingvopoetik jihatdan izchil tizim hosil qiladi. Mehnat bilan bog‘liq ayol shaxs nomi orqali, estetik obyekt sifatidagi ayol esa tabiat metaforasi orqali nomlanadi. Nom shu tariqa qahramonning uy ichidagi vazifasini oldindan belgilab beradi.

Uchinchi model “Sharq shamoli, G‘arb shamoli” romanida namoyon bo‘ladi. Bu asarda ayol qahramon ayni paytda hikoyachi hamdir, ya’ni u nafaqat nomlanadi, balki o‘zi nomlaydi. Nominatsiya vazifasining qahramon ixtiyoriga o‘tishi uning subyekt maqomini eng yuqori darajaga ko‘taradi. S.Lanser ta’kidlaganidek, hikoya qilish huquqi ayol personajning matndagi mavqeini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi [8, 6]. Perl Bak nasrida nominatsiyaning uch bosqichli shkalasi shakllanadi. Nomsiz relyatsion nomlanish subyektlikning eng past darajasini, shaxs nomi o‘rta darajani, hikoyachi maqomi esa eng yuqori darajani bildiradi. Bu shkala muallif tomonidan ochiq izohlanmaydi, u faqat til tanlovi orqali amalga oshiriladi va aynan shu jihat uni lingvopoetik hodisa qiladi.

Somatik detal – oyoq bog‘lash motivining ikki qarama-qarshi semantikasi

Ayollikni ifodalashda portret tasviri hal qiluvchi o‘rin tutadi, biroq Perl Bak to‘liq portret berishdan qochadi va bir necha tanlangan detal bilan cheklanadi. V.Y.Xalizev bunday usulni badiiy tasvirning tejamkorligi deb ataydi, unda bitta detal butun tavsif o‘rnini bosadi [16]. Yozuvchi ijodida ana shunday tayanch detal vazifasini oyoq bajaradi. “Muborak zamin” romanida bosh qahramonning oyog‘i bog‘lanmagan bo‘lib, bu holat uning eri uchun dastlab kamchilik sifatida qabul qilinadi. Ayni paytda syujet mantig‘i buning aksini isbotlaydi, chunki qahramon aynan shu jismoniy erkinligi tufayli dala mehnatida ishtirok etadi va oilaning boyishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Keyinchalik er farovonlikka erishgach, xotinining katta oyog‘ini yana kamsitish vositasiga aylantiradi va oyog‘i bog‘langan boshqa ayolga qiziqadi. Shu tariqa bitta somatik belgi butun ijtimoiy qadriyatlar tizimini ochib beruvchi ko‘rsatkichga aylanadi.

“Sharq shamoli, G‘arb shamoli” romanida esa xuddi shu detal teskari yo‘nalishda ishlaydi. Bu yerda qahramonning oyog‘i bog‘langan bo‘lib, u eri uchun jozibali bo‘lish maqsadida bog‘ni yechishga rozi bo‘ladi. Yechish jarayoni bog‘lash kabi og‘riqli tasvirlanadi va bu jismoniy azob qahramonning ichki o‘zgarishi bilan parallel beriladi. Yurish erkinligiga erishish esa dunyoni bilish erkinligiga o‘tishning belgisi sifatida ishlaydi. Ikki asarni qiyoslash muhim lingvopoetik xulosaga olib keladi. Bitta somatik detal ikki matnda qarama-qarshi semantika kasb etadi, ya’ni birinchi holatda bog‘lanmagan oyoq mehnat qobiliyatini va shu bilan birga ijtimoiy pastlikni, ikkinchi holatda bog‘ning yechilishi ozodlikni bildiradi. Demak detalning ma’nosi uning o‘zida emas, matn tuzilishidagi o‘rnida shakllanadi. Bu holat detalni oddiy tasvir unsuridan matn konsepti darajasiga ko‘taradi. Sukut poetikasi – nutqning yo‘qligi belgili hodisa sifatida personaj nutqining hajmi va tuzilishi lingvopoetik tahlilning eng ishonchli ko‘rsatkichlaridan biridir. Perl Bakning markaziy ayol qahramonlariga berilgan bevosita nutq miqdori erkak personajlarnikidan sezilarli darajada kam. Bu holatni muallifning e’tiborsizligi deb izohlash mumkin emas, chunki sukut matnda izchil va maqsadli tarzda tashkil etilgan.

“Muborak zamin” romanida bosh ayol qahramon deyarli gapirmaydi, uning nutqi qisqa va hissiy bo‘yoqdan xoli bo‘lib, asosan ish yuzasidan aytilgan jumlalardan iborat. Ammo aynan shu sababli uning kamdan kam holatlarda aytgan gaplari kuchli badiiy zarba beradi. Eri unga tegishli marvaridlarni tortib olib, ikkinchi ayolga bergan lavhadan keyin qahramonning e’tirozi butun romandagi eng ta’sirchan nutq aktiga aylanadi. Bu yerda uslubiy mexanizm aniq, ya’ni sukut fon vazifasini bajaradi va uning fonida bitta jumla kuchayadi. Nutqning o‘rnini bosuvchi harakatlar ham alohida ahamiyatga ega. Qahramonning ichki noroziligi so‘z bilan emas, kir yuvishdagi qattiq harakatlar orqali beriladi. Bu paralingvistik ifoda bo‘lib, u nutq huquqidan mahrum subyektning ifoda kanalini o‘zgartirishini ko‘rsatadi. Nazariy jihatdan bu hodisa G.Ch.Spivak qo‘ygan savol bilan bevosita bog‘lanadi, ya’ni ijtimoiy quyi qatlam vakili o‘z nomidan gapira oladimi degan masala bilan [10]. Perl Bak matni bu savolga bilvosita javob beradi. Qahramon gapira oladi, ammo uning gapi eshitilishi uchun oldin uzoq sukut kerak bo‘ladi. T.Olsen adabiyotdagi sukutni ijtimoiy sharoit mahsuli deb baholagan edi [11]. Perl Bak nasrida esa sukut mahsul emas, ongli badiiy vosita sifatida ishlatiladi.

R. Lakoff ta’riflagan ayol nutqi belgilari bilan qiyoslash o‘rinli bo‘ladi. Lakoff ayol nutqiga xos deb ko‘rsatgan xususiyatlar, jumladan ehtiyotkorlik va tasdiq izlash [6], Perl Bak qahramonlarida umuman kuzatilmaydi. Ular yumshoq gapirmaydi, balki umuman gapirmaydi. Bu farq muhim, chunki u ayollikning universal nutqiy modeli mavjud emasligini, u har bir madaniy kontekstda qayta shakllanishini ko‘rsatadi.

Metaforik daraja – zamin va ayol izomorfizmi Perl Bak nasrida ayollikning yana bir ifoda darajasi kengaytirilgan metafora orqali quriladi. “Muborak zamin” romanining sarlavhasi va butun tasvir tizimi zamin bilan ayol o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanadi. Ikkalasi ham hosil beradi, ikkalasi ham egalik obyekti bo‘lib qoladi, ikkalasining qadri ham bergan mahsuli bilan o‘lchanadi. Bu izomorfizm lingvopoetik jihatdan leksik takrorlar orqali mustahkamlanadi, ya’ni yer va ayolga nisbatan bir xil semantik guruhga oid so‘zlar qo‘llanadi. Natijada o‘quvchi ongida ikki tushuncha o‘rtasida barqaror assotsiativ bog‘lanish hosil bo‘ladi. Ayni paytda bu metafora ikki tomonlama ishlaydi. U bir tomondan ayolni tabiiy kuch darajasiga ko‘tarsa, ikkinchi tomondan uni mulk maqomiga tushiradi. Muallif bu ikkilikni bartaraf etmaydi va aynan shu hal etilmagan ziddiyat asarning badiiy kuchini ta’minlaydi.

Sintaktik-uslubiy daraja Perl Bak uslubining o‘ziga xosligi sodda va teng bog‘langan gaplarning ustunligida namoyon bo‘ladi. Bu uslub tanlovining ayollikni ifodalashdagi vazifasi alohida qayd etilishi lozim. Teng bog‘lanish tuzilmasi voqealarni bir xil ohangda, sabab va oqibat munosabatini ta’kidlamasdan beradi. Natijada ayol qahramonning og‘ir mehnati, tug‘ishi va yo‘qotishlari hikoyada favqulodda hodisa emas, tabiiy tartibning bir qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Sintaktik tanlov ikki xil samara beradi. Birinchidan, u muallif bahosini yashiradi va o‘quvchini mustaqil xulosa chiqarishga majbur qiladi. Ikkinchidan, u qahramonning chidamini ritorik kuchaytirish orqali emas, takror va sanash orqali ko‘rsatadi. Shu ma’noda uslub mazmunni faqat ifodalab qolmaydi, balki uni shakllantiradi. Bu esa lingvopoetik tahlilning asosiy tezisini, ya’ni til birligining estetik vazifasi mazmundan ajralmasligini tasdiqlaydi [12, 15].

Tahlil natijalarini quyidagi jadval shaklida umumlashtirish mumkin.

1- jadval.

Lingvopoetik vositalarning tasnifi

Lingvopoetik vosita	Til darajasi	Ayollik semantikasi	Matndagi vazifasi
Relyatsion nomlanish	Leksik-nominativ	Shaxsning ijtimoiy rol ichida erishi	Subyektlikning eng past darajasini belgilaydi
Tabiat nomlari bilan atash	Leksik-metaforik	Ayol estetik obyekt sifatida	Mehnat va jozibani qarama-qarshi qo‘yadi
Hikoyachi maqomi	Kompozitsion-narrativ	Ayol o‘z tajribasining subyekti sifatida	Baho berish huquqini qahramonga o‘tkazadi
Somatik detal	Predmetli tasvir	Tana ijtimoiy belgi sifatida	Bitta belgi orqali qadriyat tizimini ochadi
Sukut va nutq tejami	Nutq xarakteristikasi	Ovozsizlik va uning buzilishi	Kam sonli nutq aktini kuchaytiradi
Zamin metaforasi	Kengaytirilgan metafora	Unumdorlik va egalik ikkiligi	Asarning konseptual o‘zagini quradi
Teng bog‘langan sintaksis	Sintaktik-uslubiy	Mashaqqatning odatiylashuvi	Muallif bahosini yashiradi

Jadvaldan ko‘rinadiki, ayollik matnda birgina vosita orqali emas, bir necha til darajasining o‘zaro muvofiqlashuvi orqali ifodalanadi. Bu vositalar bir-birini takrorlamaydi, balki to‘ldiradi. Nominatsiya qahramonning mavqeyini belgilasa, detal uni ko‘rinadigan qiladi, nutq xarakteristikasi uning ichki dunyosiga yo‘l ochadi, metafora esa uni umumiy falsafiy tizimga bog‘laydi.

Xulosa. Birinchidan, ayollik badiiy matnda tayyor mazmun sifatida berilmaydi, u til tanlovlari orqali bosqichma-bosqich quriladi. Shu sababli uni o‘rganishda obraz tahlili bilan cheklanish yetarli emas, lingvopoetik tahlil zarur.

Ikkinchidan, nominatsiya usuli qahramonning matndagi subyektlik darajasini eng aniq ko‘rsatuvchi mezon hisoblanadi. Perl Bak nasrida nomsizlikdan hikoyachilikkacha bo‘lgan uch bosqichli shkala amal qiladi.

Uchinchidan, somatik detalning ma’nosi barqaror emas, u matn tuzilishiga qarab qarama-qarshi mazmun kasb etishi mumkin. Bu detalni konsept darajasida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

To‘rtinchidan, sukut nutqning yo‘qligi emas, uning belgili shakli bo‘lib, u ijtimoiy ovozsizlikning badiiy ekvivalenti vazifasini bajaradi.

Beshinchidan, taklif qilingan tasnif boshqa milliy adabiyotlar materialiga ham tatbiq etilishi mumkin. Xususan, o‘zbek nasridagi ayol obrazlarini shu tizim asosida tahlil qilish qiyosiy tadqiqotlar uchun istiqbolli yo‘nalish bo‘lib qoladi.

ADABIYOTLAR:

1. Buck P.S. East Wind: West Wind.–New York: John Day Company,1930.– 277 p.

2. Buck P.S. The Good Earth. – New York: John Day Company, 1931. – 375 p.

3. Buck P.S. The Mother. – New York: John Day Company, 1934. – 302 p.

4. Buck P.S. Pavilion of Women. – New York: John Day Company, 1946. – 316 p.

5. Conn P. Pearl S. Buck: A Cultural Biography. – Cambridge: Cambridge University Press, 1996. – 468 p.

6.Lakoff R. Language and Woman’s Place.–New York: Harper and Row,1975.–83 p.

7. Tannen D. You Just Don’t Understand: Women and Men in Conversation. – New York: William Morrow, 1990. – 330 p.

8. Lanser S.S. Fictions of Authority: Women Writers and Narrative Voice. – Ithaca: Cornell University Press, 1992. – 287 p.

9. Showalter E. A Literature of Their Own: British Women Novelists from Brontë to Lessing. – Princeton: Princeton University Press, 1977. – 378 p.

10. Spivak G.Ch. Can the Subaltern Speak? // Marxism and the Interpretation of Culture / Ed. by C. Nelson, L. Grossberg. – Urbana: University of Illinois Press, 1988. – P. 271–313.

11. Olsen T. Silences. – New York: Delacorte Press, 1978. – 300 p.

12. Липгарт А.А. Основы лингвопоэтики. – М.: КомКнига, 2007. – 168 с.

13. Виноградов В.В. О языке художественной литературы. – М.: Гослитиздат, 1959. – 654 с.

14. Гак В.Г. К типологии лингвистических номинаций // Языковая номинация: Общие вопросы. – М.: Наука, 1977. – С. 230–293.

15. Кирилина А.В. Гендер: лингвистические аспекты. – М.: Изд-во Института социологии РАН, 1999. – 189 с.

16. Хализев В.Е. Теория литературы. – М.: Высшая школа, 1999. – 398 с.

17. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: Fan, 2008. – 140 b.

18. Quronov D., Mamajonov Z., Sheralieva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – 400 b.

UO‘K 811.512.133:811.112.2’42

O‘ZBEK VA NEMIS MATNLARIDA PERSUAZIV VOSITALAR VA XUSHMUOMALALIK KATEGORIYASINING QIYOSIY TAHLILI

Yigitaliyeva Zilola Muratovna,
Farg‘ona davlat universiteti dotsenti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek va nemis badiiy matnlari misolida persuaziv (ishontirish) vositalarining tanlanishi va ularning xushmuomalalik kategoriyasi bilan bog‘liqligi qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot P. Braun va S.Levinsonning “yuzni saqlash” nazariyasi, J Lichning xushmuomalalik prinsipi hamda T. Larina va J. Hausning kommunikativ uslublar konsepsiyalariga tayanadi. Ishda ikki tildagi shaxs olmoshlari (siz/sen va Sie/du) va murojaat shakllarining pragmatik funksiyalari Cho‘lpon, A. Qahhor va B. Shlink asarlaridan olingan empirik materiallar asosida aniqlangan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilida persuaziv vosita tanlovi ko‘p jihatdan vertikal iyerarxiya (yosh va mavqe)ga bog‘liq bo‘lib, olmoshlar nutqiy aktning strategiyasini oldindan belgilaydi. Nemis tilida esa gorizontal munosabatlar (masofa) ustunlik qilib, olmosh tanlovi persuaziv vosita xarakterini qat’iy chegaralamaydi. Shuningdek, murojaat birliklarida o‘zbekcha “so‘zlovchini pastga tushirish” va nemischa “adresatni kichraytirish” tamoyillari orasidagi konseptual farqlar ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *persuazivlik, xushmuomalalik, yuzni saqlash nazariyasi, shaxs olmoshlari, murojaat shakllari, siz/sen, Sie/du, ijtimoiy iyerarxiya, masofa, qiyosiy pragmatika.*

COMPARATIVE ANALYSIS OF PERSUASIVE MEANS AND THE CATEGORY OF POLITENESS IN UZBEK AND GERMAN TEXTS

Abstract. *This article presents a comparative-typological analysis of the choice of persuasive means and their relationship with the category of politeness, based on Uzbek and German literary texts. The study draws on P. Brown and S. Levinson’s face-saving theory, G. Leech’s politeness principle, and the communicative style concepts of T. Larina and J. House. The pragmatic functions of personal pronouns (siz/sen and Sie/du) and forms of address in the two languages are identified on the basis of empirical material from the works of Cho‘lpon, A. Qahhor and B. Schlink. The results show that in Uzbek the choice of persuasive means largely depends on vertical hierarchy (age and status), and the pronoun predetermines the strategy of the speech act. In German, horizontal relations (distance) prevail, and the choice of pronoun does not strictly limit the character of the persuasive means. In addition, conceptual differences are revealed between the Uzbek principle of “lowering the speaker” and the German principle of “diminishing the addressee” in forms of address.*

Keywords: *persuasiveness, politeness, face-saving theory, personal pronouns, forms of address, siz/sen, Sie/du, social hierarchy, distance, contrastive pragmatics.*

СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПЕРСУАЗИВНЫХ СРЕДСТВ И КАТЕГОРИИ ВЕЖЛИВОСТИ В УЗБЕКСКИХ И НЕМЕЦКИХ ТЕКСТАХ

Аннотация. *В статье на материале узбекских и немецких художественных текстов в сопоставительно-типологическом аспекте анализируется выбор персуазивных (убеждающих) средств и их связь с категорией вежливости. Исследование опирается на теорию «сохранения лица» П. Браун и С. Левинсона, принцип вежливости Дж. Лича, а также концепции коммуникативных стилей Т. В. Лариной и Ю. Хаус. Прагматические функции личных местоимений (siz/sen и Sie/du) и форм обращения в двух языках выявлены на основе эмпирического материала из произведений Чулпана, А. Каххара и Б. Шлинка. Результаты показывают, что в узбекском языке выбор персуазивного средства во многом зависит от вертикальной иерархии (возраст и статус), а местоимение заранее определяет стратегию речевого акта. В немецком языке преобладают горизонтальные отношения (дистанция), и выбор местоимения не ограничивает жёстко характер персуазивного средства. Кроме того, выявлены концептуальные различия между узбекским принципом «самоуничижения говорящего» и немецким принципом «уменьшения адресата» в формах обращения.*

Ключевые слова: *персуазивность, вежливость, теория «сохранения лица», личные местоимения, формы обращения, siz/sen, Sie/du, социальная иерархия, дистанция, сопоставительная прагматика.*

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda matnning adresatga ta’sir ko‘rsatish xususiyatlari, xususan, persuazivlik (ishontirish) muammosi yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Ishontirish har doim adresatning subyektiv fikri yoki xatti-harakatini o‘zgartirishga yo‘naltirilgan intilish bo‘lganligi sababli, u ma’lum ma’noda kommunikantga nisbatan bosim o‘tkazishni anglatadi. Bunday bosim esa pragmalingvistik nuqtayi nazardan adresatning "yuzi"ga (self-image) tahdid soladi. Shuning uchun har qanday persuaziv akt nutqiy jarayonda bir vaqtning o‘zida xushmuomalalik masalasini ham hal qilishi – ya’ni munosabatlarni saqlagan holda maqsadga erishishi lozim.

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi o‘zbek va nemis tillari tizimida persuaziv vositalarning tanlanishi va ularning xushmuomalalik kategoriyasi bilan aloqadorligini qiyosiy-tipologik jihatdan o‘rganilmaganligi bilan belgilanadi. Garchi o‘zbek tilshunosligida hurmat kategoriyasi ijtimoiy-madaniy (S. Mo‘minov, N. Mahmudov) va badiiy matnlar kesimida (N. Sherimbetova) tadqiq etilgan bo‘lsa-da, o‘zbek-nemis tillari qiyosida persuaziya va xushmuomalalik aloqadorligi tizimli tahlil qilinmagan.

Tadqiqotning maqsadi – o‘zbek va nemis matnlarida shaxs olmoshlari hamda murojaat shakllarining persuaziv vazifalarini aniqlash va ularning lingvomadaniy o‘ziga xosliklarini yuzni saqlash strategiyalari doirasida qiyoslab o‘rganishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Jahon tilshunosligida persuazivlik (ishontirish) hodisasi asosan pragmalingvistika, matn lingvistikasi va diskurs tahlili doirasida o‘rganib kelinmoqda.

G‘arb va rus tilshunosligi: R. Lakoff [6] va T. Virtanen [4] persuazivlikni adresatning fikrini o‘zgartirish yoki mavjud e’tiqodini mustahkamlashga qaratilgan maqsadli lisoniy xulq-atvor sifatida ta’riflaydi. Rus tilshunosligida (A. V. Golodnov, O. S. Issers) persuaziv muloqot manipulyatsiyadan ajratilgan holda, adresatning erkinligi va ratsional argumentatsiyaga tayanish huquqini saqlovchi hodisa sifatida talqin qilinadi.

Nemis tilshunosligi (Persuasionsforschung): P. Kosta va N. Ortak [8] persuaziyani ritorikadan matn sathiga ko‘chirib, uni muayyan bosqichlardan (muammoni ko‘rsatish → yechim taklifi → undash) iborat dialogik strategiya sxemasi hamda direktiv va reprezentativ aktlar kesishuvidagi pragmatik makroakt sifatida tadqiq etadi. B. Zandig [13] esa baholash (*Bewerten*) harakatini ushbu ta’sirning asosi deb hisoblaydi.

Maydon nazariyasi va uning adaptatsiyasi: A. V. Bondarko [2] tomonidan ishlab chiqilgan funksional-semantik maydon (FSM) modeli ko‘p sathli (leksik, morfologik, sintaktik, matniy) vositalarni "yadro–periferiya" iyerarxiyasida birlashtirish imkonini beradi. Ye. M. Volf [12] (baho FSMi) va J. Martin [7] (interpersonal metafunksiya) ishlari maydon modelini qat’iy grammatik shakllardan pragmatik sathga moslashtirishga zamin yaratdi.

O‘zbek tilshunosligi: Nutqiy ta’sir va pragmatika asoslari Sh. Safarov [10] va M. Hakimov [3] (nutqiy aktlar, illokutiv kuch) tomonidan o‘rganilgan. Gap mazmunining modal-aksiologik qatlamlari A. Nurmonov va N. Mahmudov, inkor-ritorik shakllar D. Lutfullayeva [149] hamda iltimos aktlari N. Sherimbetova [11] tomonidan tadqiq etilgan. Muloqot etiketining ijtimoiy-madaniy normalari va hurmat iyerarxiyasi S. Mo‘minov [9] va N. Mahmudov [11, 12] asarlarida lingvokulturologik jihatdan chuqur yoritilgan.

Shu vaqtga qadar o‘zbek tilshunosligida undash, modallik, baho va hurmat vositalari alohida-alohida o‘rganilgan bo‘lib, ularni yagona ikkinchi darajali (pragmatik) funksional-semantik maydon ostida birlashtirgan tadqiqot mavjud emas. Eng muhimi, o‘zbek-nemis tillari juftligida persuaziv diskurs va uning milliy madaniy konseptlar (andisha, hurmat ↔ Sachlichkeit, Direktheit) bilan bog‘liqligi yirik matnli korpuslar va miqdoriy-statistik mezonlar asosida hech qachon qiyosiy o‘rganilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda pragmatik, chog‘ishtirma-qiyosiy va kontekstual tahlil metodlaridan foydalanildi. Nazariy asos sifatida P. Braun va S. Levinsonning "yuzni saqlash" (ijobiy va salbiy yuz) konsepsiyasi, J. Lichning xushmuomalalik prinsipi [6] hamda T. V. Larinaning kommunikativ uslublar tasnifi (masofa va yaqinlik xushmuomalaligi) [4] olindi.

Tahlil uchun empirik material sifatida o‘zbek adabiyotidan Cho‘lpon ("Kecha va kunduz") [14] va A. Qahhor romanlari, nemis adabiyotidan esa B. Shlink ("Der Vorleser" / "Kitobxon") [16] asarlaridagi persuaziv dialogik nutqlar va matn parchalari tanlab olindi. Ikki tildagi olmoshlar almashinuvi (siz/sen va Sie/du) hamda murojaat birliklarining sintaktik va semantik kontekstdagi funksiyalari o‘zaro qiyoslandi.

Tahlil uch bosqichda olib borildi. Dastlabki bosqichda tanlangan matnlardan so‘zlovchining adresat fikri yoki xatti-harakatini o‘zgartirishga qaratilgan dialogik parchalar ajratib olindi. Ikkinchi bosqichda har bir parchada kommunikantlar o‘rtasidagi munosabat uchta parametr – ijtimoiy masofa (D), hokimiyat farqi

(P) va nutqiy aktning og‘irlik darajasi (R) bo‘yicha baholandi. Uchinchi bosqichda persuaziv vosita turi (to‘g‘ridan-to‘g‘ri buyruq, bilvosita iltimos, argumentativ asoslash, emotsional murojaat) hamda u bilan birga qo‘llangan xushmuomalalik ko‘rsatkichlari (olmosh, murojaat birligi, modal so‘z, yuklama, fe’l mayli) qayd etildi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijasida bir qator qonuniyatlar aniqlandi. Xususan, o‘zbek tilidagi matnda *siz/sen* qarama-qarshiligi ijtimoiy iyerarxiya (yosh va mavqe) bilan uzviy bog‘liq. *Siz* olmoshi qo‘llanganda direktiv nutqiy aktlar (buyruq, talab) bilvosita shakl oladi va yumshatiladi (*"O‘zingiz bilasiz-ku, aylanay..."*). *Sen* olmoshi esa to‘g‘ridan to‘g‘ri bosim va buyruq shakllariga asos bo‘ladi (*"Gapir, Miryoqub!"*). Nemis tilidagi matnda esa *Sie/du* oppozitsiyasi iyerarxiyadan ko‘ra ko‘proq masofani (rasmiy/norasmiy) ifodalaydi. Nemis matnida olmosh tanlovi persuaziv taktikani qat'iy belgilamaydi: *du* olmoshi bilan ham qat’iy buyruq (*"Fass mich nicht an"*), ham yumshoq iltimos (*"Willst du nicht, Jungchen?"*) kelishi mumkin.

Shuningdek, murojaat shakllarining pragmatikasiga oid o‘zbek tilidagi murojaat shakllari nihoyatda boy va uchta yirik guruhga (qarindoshlik atamalari, erkalash formulalari, ism/laqablar) bo‘linadi. Erkalash formalari (*aylanay, o‘rgilay*) asosan so‘zlovchining o‘zini pastga tushirishi (submissiv taktika) orqali adresatni ko‘tarishga va bosimni yumshatishga xizmat qiladi. Nemis tilida erkalash shakllari (masalan, *Jungchen*) so‘zlovchini emas, aksincha adresatni kichraytirish (*"bolakay"*) semantikasiga ega bo‘lib, o‘zbek tilidagi kabi o‘z-o‘zini qurbon qilish ma’nosini ifodalamaydi.

Persuaziv aktni yumshatish vositalari ham ikki tilda turlicha taqsimlangan. O‘zbek tilida direktiv nutqiy aktning kuchi asosan morfologik va leksik vositalar orqali boshqariladi: buyruq maylining hurmat shakli (*keling, o‘tiring*), uchinchi shaxs buyruq shakli (*kelsinlar*), *-chi, -da, -ku* yuklamalari (*ayting-chi, qo‘yaqoling-da*), shuningdek, *iltimos, marhamat, xudo xohlasa* kabi leksik birliklar so‘zlovchi talabini adresat uchun maqbul shaklga keltiradi. Nemis tilida esa bu vazifani ko‘proq sintaktik va modal vositalar bajaradi: Konjunktiv II shakli (*Könnten Sie…? Würdest du…?*), savol shaklidagi iltimoslar, *doch, mal, ja, eben, bitte* modal yuklamalari. Masalan, *Komm mal her!* qurilmasidagi *mal* yuklamasi buyruqni kichik, ahamiyatsiz harakat sifatida ko‘rsatib, uning keskinligini pasaytiradi. Demak, o‘zbek tilida yumshatish ijtimoiy iyerarxiya bilan bog‘langan grammatik tizimga, nemis tilida esa shaxslararo masofadan qat’i nazar qo‘llanadigan modal-sintaktik vositalarga tayanadi. Tahlil natijasida aniqlangan asosiy qiyosiy parametrlar 1-jadvalda umumlashtirildi.

1-jadval. O‘zbek va nemis matnlarida persuaziv vositalar va xushmuomalalikning qiyosiy parametrlari

Qiyoslash parametri	O‘zbek tili	Nemis tili
Olmosh oppozitsiyasining asosi	Vertikal iyerarxiya (yosh, mavqe)	Gorizontal masofa (rasmiy / norasmiy)
Olmosh va persuaziv taktika aloqasi	Kuchli: *siz* – bilvosita, *sen* – to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir	Zaif: *Sie* va *du* bilan ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri, ham bilvosita ta’sir
Yumshatishning asosiy vositalari	Buyruq maylining hurmat shakli, *-chi, -da, -ku* yuklamalari	Konjunktiv II, savol shaklidagi iltimos, *doch, mal, bitte* yuklamalari
Erkalash murojaatlarining yo‘nalishi	So‘zlovchini pastga tushirish (*aylanay, o‘rgilay*)	Adresatni kichraytirish (*Jungchen*)
Hurmat ko‘pligining qo‘llanishi	Fe’l, olmosh va uchinchi shaxs shakllarida dinamik	Faqat *Sie* olmoshida leksiklashgan
Ustun xushmuomalalik turi	Yaqinlik xushmuomalaligi	Masofa xushmuomalaligi
Tayanch madaniy konseptlar	*andisha, hurmat*	*Sachlichkeit, Direktheit*

Olingan natijalar P. Braun va S. Levinson nazariyasidagi uchta omil (ijtimoiy masofa, hokimiyat farqi va aktning og‘irligi) ikki xil madaniyatda turlicha ishlashini tasdiqlaydi. O‘zbek matnlarida persuaziv vosita tanlovi ko‘p jihatdan vertikal iyerarxiyaga bog‘liq bo‘lsa, nemis matnida bu bog‘liqlik sezilarli darajada zaif bo‘lib, gorizontal (masofa) munosabatlar ustunlik qiladi.

O‘zbek nutqiy madaniyatida T. Larina tasniflagan "yaqinlik xushmuomalaligi" yetakchilik qiladi: qarindosh bo‘lmagan shaxsga *bolam, o‘g‘lim* deb murojaat qilish orqali subyekt adresatni o‘zining ijtimoiy-psixologik hududiga tortadi va shu yo‘l bilan unga persuaziv ta’sir o‘tkazishni osonlashtiradi. Nemis muloqot tizimida esa J. Haus ta’kidlaganidek, to‘g‘rilik (*directness*) xushmuomalasizlik emas, balki ochiqlik va halollik belgisi sanaladi. Shu sababli nemis diskursida rasmiy *Sie* olmoshi bilan ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri savol berish yoki talab qo‘yish holatlari tabiiy qabul qilinadi.

Bu farqlar milliy madaniy konseptlar bilan ham izohlanadi. O‘zbek muloqot madaniyatida *andisha* konsepti so‘zlovchini o‘z fikrini bevosita bayon etishdan tiyib turadi: talab yoki e’tiroz ko‘pincha ishora, maqol, ibratli misol yoki ritorik savol shaklida ifodalanadi (*Endi o‘zingiz bir o‘ylab ko‘ring-chi...*). Bunday bilvositalik adresatga xulosani o‘zi chiqarish imkonini berib, uning yuzini saqlaydi va ayni paytda persuaziv ta’sirni kuchaytiradi, chunki mustaqil chiqarilgan xulosa adresat uchun ishonarliroq bo‘ladi. Nemis diskursida esa *Sachlichkeit* (ishchanlik, mavzuga yo‘naltirilganlik) konsepti dalillarni aniq va mantiqiy ketma-ketlikda bayon etishni talab qiladi. Bu yerda persuaziv kuch munosabatlarning emotsional qatlamidan emas, balki dalilning asosliligidan kelib chiqadi. Shu bois nemis tilida yuzni saqlash ko‘proq adresatning shaxsiy hududiga aralashmaslik va uning tanlov erkinligini e’tirof etish orqali, o‘zbek tilida esa adresatning mavqeini ulug‘lash va unga yaqinlik bildirish orqali amalga oshiriladi.

Nemis va o‘zbek tillarida hurmatning grammatik asosi tarixan bir xil mexanizmga – ko‘plik shakliga asoslangan bo‘lsa-da, ularning funksional taqsimoti farq qiladi: nemis tilida u *Sie* olmoshidagina qotib qolgan (leksiklashgan), o‘zbek tilida esa fe’l va boshqa ko‘rsatkichlar tizimida dinamik ravishda saqlangan.

Aniqlangan qonuniyatlar tarjima amaliyoti uchun ham muhim ahamiyatga ega. Nemis tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilishda *du* olmoshini mexanik ravishda *sen* bilan berish ko‘p hollarda pragmatik nomuvofiqlikka olib keladi: nemis matnida tenglik va yaqinlikni ifodalovchi *du* o‘zbek kitobxoni tomonidan qo‘pollik yoki mensimaslik sifatida qabul qilinishi mumkin. Aksincha, o‘zbek tilidan nemis tiliga tarjimada *siz* olmoshini doimo *Sie* bilan berish oila a’zolari yoki yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi muloqotga ortiqcha rasmiylik baxsh etadi. *Aylanay, o‘rgilay* kabi erkalash formulalarining nemis tilida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalenti mavjud emasligi sababli, tarjimon ularni *mein Lieber, mein Kind* kabi murojaatlar yoki gapning intonatsion-modal tuzilishi orqali kompensatsiya qilishga majbur bo‘ladi. Demak, tarjimada olmosh va murojaat birliklari alohida so‘z sifatida emas, balki persuaziv strategiyaning tarkibiy qismi sifatida qayta yaratilishi lozim.

Xulosa. Tadqiqot natijalari o‘zbek va nemis matnlarida persuazivlik va xushmuomalalik kategoriyalarining uzviy, ammo turlicha bog‘liqlikka ega ekanligini ko‘rsatdi. O‘zbek pragmatik muloqot tizimi ko‘proq ijtimoiy mavqe, yosh va assimetrik iyerarxiyaga tayanadi va unda olmosh hamda murojaat tanlovi persuaziv vosita xarakterini oldindan belgilab beradi. Nemis muloqot uslubida esa rasmiylik va masofa birlamchi bo‘lib, shakliy xushmuomalalik (olmoshlar) persuaziv aktning to‘g‘rilik yoki bilvositalik darajasini qat’iy chegaralamaydi. Murojaat birliklarida ham o‘zbekcha "so‘zlovchini pastga tushirish" hamda nemischa "adresatni kichraytirish" tamoyillari orasida konseptual farqlar mavjudligi isbotlandi. Bu xulosalar qiyosiy lingvopragmatika va tarjima nazariyasi uchun muhim amaliy ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR:

1. Brown P., Levinson S.C. Politeness: Some universals in language usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987.

2. Бондарко А.В. Функциональная грамматика. – Л.: Наука, 1984.

3. House J. Misunderstanding in intercultural communication: Interactions in English as a lingua franca // Teaching and Learning English in a Global Context. – 2003. – P. 22–56.

4. Ларина Т.В. Категория вежливости и коммуникативный стиль. – М.: Языки славянских культур, 2009.

5. Kosta P. Zur Modellierung persuasiver Sprechakte // Zeitschrift für Slawistik. – 1995. – Bd. 40, № 3. – S. 305–324.

6. Leech G.N. The Pragmatics of Politeness. – Oxford: Oxford University Press, 2014.

7. Martin J.R., White P.R.R. The Language of Evaluation: Appraisal in English. – Palgrave Macmillan, 2005.

8. Ortak N. Persuasion: Zur textlinguistischen Beschreibung eines dialogischen Strategiemusters. – Tübingen: Niemeyer, 2004.

9. Mo‘minov S. O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lingvistik xususiyatlari: Filol. fan. dokt. diss. avtoref. – T., 2000.

10. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.

11. Mahmudov N. Nutq odobi va davr. – T.: O‘qituvchi, 1992.

12. Вольф Е.М. Функциональная семантика оценки. – М.: Наука, 1985.

13. Sandig B. Stilistik der deutschen Sprache. – Berlin: De Gruyter, 1986.

14. Cho‘lpon A. Kecha va kunduz: roman // Tanlangan asarlar. II jild. – T.: Akademnashr, 2012.

15. Qahhor A. Sarob: roman. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1983.

16. Schlink B. Der Vorleser: Roman. – Zürich: Diogenes Verlag, 1997.

UO‘K 81

INGLIZ VA O‘ZBEK BOLALAR NUTQIDAGI SEMIOTIK ELEMENTLARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Davlatova Aziza Akmalovna,
Navoiy innovatsiyalar universiteti Filologiya va tillarni o‘qitish kafedrasi o‘qituvchisi, f.f.f.d (PhD)
Akmalovna116@gmail.com
https://orcid.org/0009-0001-6924-1422

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek bolalar nutqidagi semiotik elementlarning funksional va milliy-madaniy xususiyatlari qiyosiy jihatdan tadqiq etiladi. Tadqiqot doirasida ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning kommunikativ xulq-atvorida imo-ishoralar, mimika va proksemik vositalarning verbal nutq bilan integratsiyalashuvi tahlil qilingan. Ikki xil madaniyat vakillari bo‘lgan bolalar nutqidagi universal semiotik belgilar hamda ijtimoiy etiket, iyerarxiya va mentalitet ta’sirida shakllanadigan o‘ziga xos farqlar ochib berilgan. Maqolaning xulosalari qiyosiy tilshunoslik, bolalar nutqi psixolingvistikasi va lingvokulturologiya sohasidagi tadqiqotlar uchun muhim amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *bolalar nutqi, semiotika, imo-ishoralar, kinesika, qiyosiy tahlil, ingliz tili, o‘zbek tili, verbal va noverbal muloqot, lingvokulturologiya.*

ОСОБЕННОСТИ СЕМИОТИЧЕСКИХ ЭЛЕМЕНТОВ В РЕЧИ АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ ДЕТЕЙ

Аннотация. *В статье в сопоставительном аспекте исследуются функциональные и национально-культурные особенности семиотических элементов в речи английских и узбекских детей. В рамках исследования анализируется интеграция жестов, мимики и проксемических средств с вербальной речью в коммуникативном поведении детей раннего и дошкольного возраста. Выявляются универсальные семиотические знаки, характерные для речи детей двух культур, а также специфические различия, формирующиеся под влиянием социального этикета, иерархии и национального менталитета. Выводы статьи имеют практическое значение для исследований в области сопоставительного языкознания, психолингвистики детской речи и лингвокультурологии.*

Ключевые слова: *детская речь, семиотика, жесты, кинесика, сопоставительный анализ, английский язык, узбекский язык, вербальная и невербальная коммуникация, лингвокультурология.*

SPECIFIC FEATURES OF SEMIOTIC ELEMENTS IN ENGLISH AND UZBEK CHILDREN’S SPEECH

Abstract. *This article comparatively examines the functional and national-cultural features of semiotic elements in English and Uzbek children’s speech. The study analyzes the integration of gestures, facial expressions and proxemic means with verbal speech in the communicative behavior of infants and preschool-aged children. It identifies universal semiotic signs characteristic of children’s speech in the two cultures, as well as specific differences shaped by social etiquette, hierarchy and national mentality. The findings of the study have practical significance for research in comparative linguistics, the psycholinguistics of children’s speech and linguoculturology.*

Keywords: *children’s speech, semiotics, gestures, kinesics, comparative analysis, English, Uzbek, verbal and non-verbal communication, linguoculturology.*

Kirish. Ingliz va o‘zbek bolalar nutqidagi semiotik elementlar bolaning dunyoni qanday idrok etishi va uni til orqali qanday aks ettirishini ko‘rsatuvchi murakkab tizimdir. Semiotika – bu belgilar va ramzlar haqidagi fan bo‘lib, bolalar nutqida u nafaqat so‘zlar, balki imo-ishoralar, ohang va hatto chizmalar orqali namoyon bo‘ladi. Imo-ishoralar va tana harakati bolalarda erta shakllanadigan va muloqotda faol kommunikativ vosita hisoblanadi. Chunki, bolalarda nutq shakllanishidan oldin qo‘l, barmoqlar, tana, ko‘z, og‘iz va yuz harakatlari bilan muloqot qilish odatiy hisoblanadi. Dastlab bolalar so‘zlardan oldin kichik tovushlar hamda ishoralar orqali muloqotga kirishadilar. Nutqning ushbu jihati butun dunyo olimlari diqqatini o‘ziga jal qilgan qiziqarli soha sifatida hali hamon tadqiqot markazidan o‘rin olgan. Semiotik jihatdan nutqni madaniyatlararo tadqiq etish bolalarning kognitiv, emotsional, jismoniy va ijtimoiy

rivojlanishini uzviy bog‘liqligi bolalar nutqini chuqurroq tahlil etish, nutqiy o‘zgarish va rivojlanishning o‘ziga xosliklarini aniqlash hamda farqlash, nutqda uchraydigan muammolarni oldini olish, shu bilan birga bu sohada dunyo miqyosida keng tadqiq etishga imkon yaratadi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Jahon tilshunosligida imo-ishoralarning nutq bilan o‘zaro bog‘liqligini McNeil, Tomasello, J.Zlatev va M. Andren kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Bolalar nutqining semiotik tabiatini o‘rganishda David McNeillning imo-ishoralar fikrlash jarayonining vizual ko‘rinishi ekanligi haqidagi qarashlari muhim ahamiyat kasb etadi [2, 37-b]. Shu bilan birga, o‘zbek madaniy muhitida noverbal vositalarning milliy-madaniy konnotatsiyasini tahlil qilishda Sh. Safarovning pragmalingvistik yondashuvlariga tayaniladi [4, 327-b]. Imo-ishoralardan foydalanish chaqaloqlar, yosh bolalar, bolalar va kattalar o‘z ma’lumotlarini boshqalar tomonidan tushunish ehtimolini oshirishning bir usuli hisoblanadi. Masalan, agar farzandingiz yogurt idishiga qo‘lini uzatib, "bababa" desa, siz bolaning aniq so‘z aytmasdan turib, nima istayotganini aniq bilasiz [1].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot ingliz va o‘zbek bolalar nutqidagi semiotik elementlarning o‘ziga xos xususiyatlarini qiyosiy-lingvokulturologik jihatdan o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqotning metodologik asosini antropotsentrik, kognitiv, psixolingvistik, pragmatik va lingvokulturologik yondashuvlar tashkil etadi.

Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy-tipologik, kontekstual, semantik-pragmatik va lingvokulturologik tahlil metodlaridan foydalanildi. Tavsifiy metod orqali bolalar nutqidagi verbal va noverbal semiotik birliklar aniqlanib, ularning funksional xususiyatlari tavsiflandi. Qiyosiy-tipologik metod yordamida ingliz va o‘zbek tillarida bolalar nutqidagi semiotik elementlarning umumiy va farqli jihatlari aniqlandi. Kontekstual va semantik-pragmatik tahlil orqali bolalar nutqi va ularning kommunikativ vazifasi, mazmuni va nutqiy vaziyatdagi qo‘llanish xususiyatlari o‘rganildi.

Lingvokulturologik yondashuv asosida semiotik elementlarning milliy mentalitet, madaniy qadriyatlar va ijtimoiy muhit bilan bog‘liqligi tahlil qilindi. Tadqiqot materiallarini tizimlashtirishda tasniflash va miqdoriy tahlil usullaridan ham foydalanilib, semiotik birliklar ularning shakli, funksiyasi va qo‘llanish kontekstiga ko‘ra guruhlashtirildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Nutqning semiotik jihati rivojlanish jarayonining kognitiv, emotsional va ma’naviy o‘sish bosqichlari bilan uzviy bog‘liqlikda kombinatsion shaklda amalga oshadi. J.Zlatev va M. Andren o‘zlarining “Stages and transition in children’s semiotic development” maqolasida ontogenetik rivojlanish va imo-ishoralarning ierarhik modelini ketirib o‘tgan va uni 5 bosqichda izohlashgan [5]. Quyida keltirilgan ushbu jadvalda J.Zlatev va M. Andrenning keltirib o‘tamiz:

1-jadval.

№	Bosqich nomi	Yangi shakllanadigan qobiliyat	Kognitiv/kommunikativ ko‘nikmalar	Taxminiy yosh
1	Protomimesis	Eksterotsepsiya va propriotsepsiya o‘rtasidagi muvofiqlikni shakllantirish	Emotsional va diqqatga oid kontagiozlik (ta’sirchanlik) Neonatal imitasiya (taqlid) O‘zaro nigoh orqali aloqa	0–8 oy
2	Diyadik ishoralar	Iroda va reprezentatsiya (namoyon qilish) qobiliyati	Taqlid Imperativ ishora (ko‘rsatish) Umumiy diqqat	9–13 oy
3	Triadik ishoralar	Kommunikativ belgilar	Deklarativ ishora Ikonik jestlar To‘liq shakllangan umumiy diqqat	14–19 oy
4	Prototil	Konvensionallik / me’yoriylik	Bir so‘zli nutqiy birliklar Holofrazalar	20–27 oy
5	Til	Semiotik tizimlilik	Og‘zaki yoki imo-ishoraviy til	28 oydan boshlab

Keltirilgan modelda bolaning 8 oyligidan boshlab 28 oyligiga qadar kuzatishlar natijasida to‘plangan xulosalar birlashtirilgan.

Bunda 1-bosqich proto-mimes: faol atrof muhitni kuzatish va o‘rganish, bolaning ijtimoiy olamni tanishi va uni o‘zida idrok etish bosqichi,

2-bosqich dyadik mimesis: bola o‘ziga xoslik, individuallik, tana harakatining o‘ziga xosligi kim yoki nimaning harakati ekanligini farqlash, taqlid va undan foydalanish bosqichi,

3-bosqich triadik mimesis: 14 oydan boshlab bola o‘zini boshqalardan o‘zaro farqini anglash qobilyati shakllanish bosqichi bu bosqichda bola ishoralarni harakatlarni ma’nosini anglay boshlaydi, o‘ziga xos harakatlar qiladi,

4-bosqich protolanguageda esa taxminan 20 yoki 27 oylardan bola ishoralarni mukammalroq tushunib, ularni kimga nisbatan hamda qanday maqsadda foydalanishini yaxshi o‘rganib oladi,

oxirgi 5-bosqich semiotik systematicity: o‘zaro ishoralar va harakatlar bog‘liqligini ketma-ketlikda, ierarxik tizimlashtiradi va nutqda qo‘llaydi.

Stefan Kopp hozirgi kunda kompyuter texnologiyalari yordamida ma’lim yoshdagi bolalar so‘zlashishida imo-ishoralardan qanday maqsadda va mazmunda muloqotda foydalanishini, Katarina Rolfing imo-ishoralar obyektlarning shakllari, funktsiyalari va harakatlariga tegishliligi to‘g‘risidagi tadqiqotlar [6] ayni davrning eng zamonaviy va diqqatga sazovor izlanishlaridan deb aytish mumkin.

Endilikda bolalar ishoralardan foydalanishiga ko‘ra ingliz va o‘zbek bolalarini ko‘rib o‘tsak, 9 oylik bola qo‘llarini silkitadi bu harakat bolada quvonch, talpinish, norozilik, xarxashani va ba’zida qo‘rquvni ifodalaydi. Bolaning bosh silkishi yoki chayqashi “yo‘q” mazmunida bola tomonidan muloqotda ovqat yoki biror predmetni xohlamasligini ko‘rsatadi.

10 oylikda qo‘lini ko‘tarish, cho‘zish, buyumlarni ko‘rsatish harakati bu harakat ikkala til bolalarida ham bolani ko‘tarish yoki biror predmetni berishini so‘rash uchun ishlatiladi.

11 oylik bu davrda bolalar o‘zini qiziqtirgan narsani barmoqlari bilan ko‘rsatishni o‘rganadilar bu ehtiyoj va qiziqishni bildiruvchi semiotik harakatdir. Bu davrda bolalar ijtimoiy muloqotda faol harakat bo‘lgan qo‘l siqib salomlashishni o‘rganadilar.

12 oylikda esa bolalar semiotik harakatlardan barmoqlarni faol ishlatib ularni yoyib birlashtirishni bosh barmoqni ko‘tarish orqali “zo‘r” mazmunini ifodalashni o‘rganadi va qo‘llaydi.

13 oylikda bolalar chapak chalish, o‘pib qo‘yishni o‘rganadilar bu harakatlar kattalarga taqlidan shakllanadi va nutq bilan o‘zaro aktivlashadi.

14 oylikdan ko‘rsatkich barmoq orqali og‘izni to‘sib jimlik ma’nosini ifodalash “shh”, “tshsh”, narsa, buyum, shaxslarni ko‘rsatishni o‘rganib oladilar.

15 oylikda esa bosh irg‘ash “yes” - “ha” tasdiqlash mazmunida, biror narsa yoqmasligi yoki nozorilik ramzini bildiradi. Imo-ishoralar endi nafaqat bolaning nima haqida o‘ylayotganini, balki boshqalar bilan fikr almashayotganini bilishini ham aks ettiradi [6]. Yuqorida bola rivojlanishining 9 -oyidan boshlab 15-oyigacha bo‘lgan rivojlanish davriga qadar ishoralarini ko‘rib o‘tdik va ushbu ishoralar nafaqat o‘zbek bolalari balki, butun dunyo bolalari o‘sishida umumiylikni kasb etadi. Faqatgina madaniy jihatdan ushbu harakatlar ma’nosi biroz tafovutlarni yuzaga keltirishi mumkin. Masalan: Bosh barmoqni yuqoriga ko‘tarish ingliz va o‘zbek bolalari uchun “zo‘r”, “ajoyib” mazmunni ifodalasa ushbu belgi salbiy mazmunni kasb etadi.

Muhokama. O‘z-o‘zidan kelib chiqadiki imo-ishoralar bolalarda muloqotni oson, qiziqarli va murakkabliklardan qochish vazifasini bajaradi. Bolalar ishoralar orqali yangi so‘zlarni ifodalashi, muloqotda ularni noverbal qo‘llashi va axborot almashishi mumkin. Bolalarda til o‘rganishda ishoralar butun boshli so‘zni, uning mazmunini va uning talaffuzini eshitganda ko‘rsatish orqali o‘rganishni osonlashtiradi [7].

Quyida ingliz va o‘zbek bolalari nutqidagi imo-ishoralarning qiyosiy tahlili keltirib o‘tamiz:

1. Universal semiotik harakatlar. Har ikki madaniyatda ham go‘daklik davridan boshlab ilk nutq oldi bosqichida bir xil ma’noni anglatuvchi imo-ishoralar kuzatiladi:

Ko‘rsatish (Deiktik imo-ishoralar): Bola o‘zi xohlagan narsani barmog‘i bilan ko‘rsatadi. Bu ingliz bola uchun ham (*"Look - Give me"*), o‘zbek bola uchun ham (*"Anavi-a, anna - Ber-bey, bee"*) bir xil kommunikativ funksiyaga ega.

Inkor qilish (Bosh chayqash): Yo‘q, xohlamayman ma’nosida boshni ikki yonga burish har ikki madaniyat bolalarida ham instinktiv ravishda shakllanadi.

Xayrlashuv (Qo‘l silkish): Ingliz bolalaridagi *"Bye-bye"* va o‘zbek bolalaridagi *"Dada-dada - Xayr"* ishorasi deyarli bir xil dinamikaga ega.

2. Milliy-madaniy semiotik farqlari. Bolalar tildan tashqari, o‘z jamiyatidagi madaniy kodlarni ham o‘zlashtiradilar. O‘zbek va ingliz bolalari nutqida ushbu kodlar keskin farqlanadi:

Hurmat va ijtimoiy iyerarxiyada semiotik xususiyat.

O‘zbek bolalarida: O‘zbek madaniyatida yosh bolalarga yoshligidan "qo‘lini ko‘ksiga qo‘yish" (salom berish va rahmat aytish belgisi) o‘rgatiladi. Shuningdek, kattalardan duo olganda "qo‘l ochib oq fotiha qilish-duo qilish" yoki yuzga fotiha tortish imo-ishorasi bolalikdanoq ijtimoiy nutq ko‘nikmasiga aylantiriladi.

Ingliz bolalarida: G‘arb madaniyatida bu turdagi jismoniy iyerarxiya belgilari yo‘q. Buning o‘rniga visual ko‘zlar orqali aloqa (eye contact) yuqori baholanadi. Ingliz bolasi gapirayotganda to‘g‘ridan to‘g‘ri

kattalarning ko‘ziga qarashi dadillik va rostgo‘ylik belgisi hisoblansa, an’anaviy o‘zbek oilalarida bolaning kattalarga tik qaramasligi (ko‘zini pastga tushirishi) hurmat belgisi sifatida talqin qilinishi mumkin.

Emotsiya va yaqinlik (proksemika va taktil aloqa).

O‘zbek bolalarida: Jismoniy yaqinlik (teginish, quchoqlash, boshini silash) juda faol. Bola "erkalanish" yoki nimanidir so‘rash maqsadida kattalarning kiyimini tortishi, tizzasiga bosh qo‘yishi odatiy hol. Nutqda so‘zlarni ta’kidlash uchun qo‘llarni keng ochish yosh bolalarda ko‘p kuzatiladi.

Ingliz bolalarida: Shaxsiy hudud (*personal space*) tushunchasi bolalikdanoq shakllanadi. Ingliz bolalari his-tuyg‘ularini ifodalashda ko‘proq mimika (g‘ayriixtiyoriy yuz mushaklari harakati) va barmoqlar harakatidan foydalanishadi. Masalan, omad tilash ma’nosida barmoqlarni chalkashtirish (*fingers crossed*) kabi semiotik harakatlar kichik yoshdanoq nutqqa kirib keladi.

3. Semiotik harakatlarning verbal nutq bilan integratsiyasi. Bolalar til o‘rganish jarayonida imo-ishoralarni so‘zlar bilan qanday biriktirishi ham farq qiladi:

2-jadval.

Semiotik element	Ingliz bolalari nutqida	O‘zbek bolalari nutqida
Tasdiq mazmuni	Boshni vertikal qimirlatish, ko‘pincha *"Yes"* yoki *"Uh-huh"* tovushlari bilan.	Boshni qimirlatish bilan birga qo‘lni ko‘krakka qo‘yish yoki *"Xo‘p bo‘ladi"* ishorasi.
Aybdorlik holati	Ko‘zni olib qochish, yelka qisish (*shrugging*).	Boshni egish, barmoqlarini o‘ynash, yerga qarash.
Tushunmovchilik holati	Ikki qo‘lni yonga ochish va kaftlarni tepaga qaratish (*"I don't know"*).	Qo‘li bilan boshini qashish, ensasini qotirish yoki labini burish.

Kinestetik va onomatopoetik bog‘liqlik. Qiziqarli jihati shundaki, har ikki tilda bolalar hayvonlar yoki narsalarni tasvirlashda tovushga taqlid (onomatopeya) bilan birga o‘ziga xos semiotikani qo‘llashadi:

Ingliz bolasi quyonchani tasvirlasa, ikki barmog‘ini boshi uzra ko‘tarib "sakrash" harakatini qiladi va *"Bunny"* deydi. O‘zbek bolasi otni tasvirlamoqchi bo‘lsa, *“Chuu”* tovushi bilan birga qo‘lida go‘yo jilov ushlab turgandek yoki qamchi urayotgandek harakat qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ingliz va o‘zbek bolalari nutqidagi semiotika bolaning ijtimoiy adaptatsiyasini ko‘rsatuvchi ko‘zgudir. Ingliz bolalarining imo-ishoralari ko‘proq individual mustaqillik va emotsional verbalizatsiyaga asoslansa, o‘zbek bolalarining imo-ishoralari kollektivizm, hurmat, etiket va oilaviy munosabatlar kontekstida shakllanadi. Aynan shu sababli, ikki tilni qiyosiy o‘rganishda nafaqat so‘zlar, balki ularga hamrohlik qiluvchi ushbu "yashirin til" – semiotika ham muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR:

1.Morett, L. M. Observing gesture at learning enhances subsequent phonological and semantic processing of L2 words: an N400 study. Brain Lang. 246:105327. doi: 10.1016/j.bandl.2023.105327 https://toddlertalk.com/blog/baby-gestures

2. McNeill, D. Hand and Mind: What Gestures Reveal about Thought. Chicago: University of Chicago Press, 1992. p. – 37.

3. Tomasello, M. Constructing a Language: A Usage-Based Theory of Language Acquisition. Cambridge: Harvard University Press, 2003. p. – 64.

4. Safarov, Sh. Pragmalingvistika. Toshkent: "O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati", 2014. 327-bet.

5. Davlatova A. A. Bolalar nutqi: psixolingvistik omil, kognitiv bilim, lingvokulturologik aspekt sifatida // Science and Innovation. – 2024. – T. 3. – (Special Issue) 51. – B. 214–216.

6.https://projekt.ht.lu.se/fileadmin/user_upload/sol/ovrigt/projekt_ccs/26.ZlatevAndren-final.pdf

7.https://medicalxpress.com/news/2018-04-children-gestures.html murojaat etilgan: 13/04/2018.

8. https://www.readingrockets.org/topics/developmental-milestones/articles/baby-and-toddler-milestones-16-gestures-16-months

UO‘K 82

O‘ZBEK BADIIY NASRIDA LISONIY VOSITALAR MODIFIKATSIYASI: “IBLIS DEVORI” QISSASIDAGI FRAZEOLOGIK TRANSFORMATSIYALARNING SEMIOTIK VA ESTETIK VAZIFALARI

Salimova Mohinur Axmadjonovna,
Navoiy davlat universiteti doktoranti
mohinursalimova1996@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek badiiy nasrida turg‘un lisoniy birliklar modifikatsiyasining kognitiv-pragmatik va lingvostilistik xususiyatlari O‘zbekiston xalq yozuvchisi Tohir Malikning “Iblis devori” qissasi misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi: badiiy diskursda frazeologik birliklarning (FB) va paremiyalarning an’anaviy lisoniy modeldan og‘ishi hamda ularning matn mazmunini shakllantirishdagi semiotik va estetik vazifalarini majmualiy yoritib berishdan iborat. Empirik baza sifatida asar matnidan yaxlit va maqsadli tanlab olish usullari yordamida ajratib olingan 120 dan ortiq modifikatsiyalangan frazeologik birliklar xizmat qildi. Tadqiqot jarayonida kontekstual, lingvostilistik, semiotik va pragmalingvistik tahlil metodlari majmuasidan foydalanildi. Tahlil natijalari qissadagi frazeologik transformatsiyalarning to‘rtta asosiy modelini ko‘rsatdi: strukturaviy kengaytirish (38%), semantik kontaminatsiya (27%), qisqartirish va ellipsis (20%) hamda leksik almashtirish (15%). Olingan ma’lumotlar modifikatsiyalangan frazeologizmlarning matnda shunchaki uslubiy bezak emas, balki semiotik qayta kodlash, pragmatik kutilmaganlik effekti hamda aksiologik xaritalash funksiyalarini bajaruvchi dinamik kognitiv resurs ekanligini isbotladi. Tadqiqot xulosalari o‘zbek lingvostilistikasi, lingvokulturoloqiyasi va pragmalingvistikasi uchun nazariy va amaliy manba bo‘lib xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *badiiy diskurs, frazeologik transformatsiya, lisoniy modifikatsiya, Tohir Malik, “Iblis devori”, semiotik kod, estetik vazifa, pragmalingvistika, lingvostilistika, kontaminatsiya.*

МОДИФИКАЦИЯ ЯЗЫКОВЫХ СРЕДСТВ В УЗБЕКСКОЙ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ПРОЗЕ: СЕМИОТИЧЕСКИЕ И ЭСТЕТИЧЕСКИЕ ФУНКЦИИ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ТРАНСФОРМАЦИЙ В ПОВЕСТИ «СТЕНА ДЬЯВОЛА»

Аннотация. *В данной статье на примере повести народного писателя Узбекистана Тохира Малика «Стена дьявола» анализируются когнитивно-прагматические и лингвостилистические особенности модификации устойчивых языковых единиц в современной узбекской художественной прозе. Цель исследования заключается в комплексном освещении отклонений фразеологических единиц (ФЕ) и паремий от традиционных языковых моделей в художественном дискурсе, а также их семиотических и эстетических функций в формировании смысловой структуры текста. Эмпирической базой исследования послужили более 120 модифицированных фразеологических единиц, отобранных из текста повести методом сплошной и целенаправленной выборки. В процессе исследования использовался комплекс методов контекстуального, лингвостилистического, семиотического и прагмалингвистического анализа. Результаты анализа выявили четыре основные модели фразеологических трансформаций в повести: структурное расширение (38%), семантическая контаминация (27%), усечение и эллипсис (20%), а также лексическая замена (15%). Полученные данные доказывают, что модифицированные фразеологизмы представляют собой динамический когнитивный ресурс, выполняющий в тексте не просто декоративно-стилистическую роль, но и ключевые функции семиотического перекодирования, эффекта прагматической неожиданности и аксиологического картирования. Выводы исследования служат теоретическим и практическим источником для узбекской лингвостилистики, лингвокультурологии и прагмалингвистики.*

Ключевые слова: *художественный дискурс, фразеологическая трансформация, языковая модификация, Тохир Малик, «Стена дьявола», семиотический код, эстетическая функция, прагмалингвистика, лингвостилистика, контаминация.*

MODIFICATION OF LINGUISTIC MEANS IN UZBEK LITERARY PROSE: SEMIOTIC AND AESTHETIC FUNCTIONS OF PHRASEOLOGICAL TRANSFORMATIONS IN THE NOVELLA «DEVIL'S WALL»

Abstract. *This article analyzes the cognitive-pragmatic and linguostylistic features of the modification of phraseological units in modern Uzbek literary prose, using the novella "Devil's Wall" by the People's Writer of Uzbekistan, Tohir Malik, as a case study. The aim of the research is to comprehensively elucidate*

the deviation of phraseological units (PUs) and paremias from standard linguistic models within literary discourse, as well as their semiotic and aesthetic functions in structuring textual meaning. The empirical material comprises over 120 modified phraseological units extracted from the text using continuous and purposive sampling techniques. Methodologically, the study employs an integrated framework of contextual, linguostylistic, semiotic, and pragmalinguistic analysis. The results reveal four primary structural-semantic models of phraseological transformation in the novella: structural expansion (38%), semantic contamination (27%), reduction and ellipsis (20%), and lexical substitution (15%). The findings demonstrate that modified phraseological units in literary discourse serve not merely as stylistic embellishments, but as dynamic cognitive resources performing critical functions such as semiotic re-coding, generating pragmatic unexpectedness effects, and facilitating axiological mapping. The conclusions of this study provide theoretical and empirical contributions to Uzbek linguostylistics, linguoculturology, and pragmalinguistics.

Keywords: *literary discourse, phraseological transformation, linguistic modification, Tohir Malik, «Devil's Wall», semiotic code, aesthetic function, pragmalinguistics, linguostylistics, contamination.*

Kirish. Badiiy diskursda lisoniy birliklarning estetik va semiotik potensialini ro‘yobga chiqarish yozuvchining individual-mualliflik uslubi hamda badiiy mahoratini belgilovchi asosiy mezonlardan biri sanaladi. Til tizimidagi turg‘un birikmalar frazeologik birliklar (FB) va paremiyalarning ekspressiv-baholovchi xususiyatlari, ularning an’anaviy leksik-semantik chegarasidan chiqib, badiiy konsept va ramzlarga aylanish mexanizmlari zamonaviy lingvopoetika hamda pragmalingvistikaning markaziy muammolaridan biridir. Badiiy matnda turg‘un birliklarning standart lisoniy modeldan og‘ishi, ya’ni ularning shakliy-semantik modifikatsiyasi va transformatsiyasi matnning semiotik qatlamlarini teranlashtirishga, qahramonlarning ruhiy-psixologik holatini va jamiyatdagi ma’naviy-axloqiy inqirozni ta’sirchan ifodalashga xizmat qiladi.

Zamonaviy o‘zbek nasrida, xususan, O‘zbekiston xalq yozuvchisi Tohir Malik asarlarida xalq tilining frazeologik qatlami shunchaki tayyor uslubiy vosita sifatida qo‘llanmaydi. Yozuvchi ularni matnning estetik talablaridan kelib chiqqan holda strukturaviy va semantik tomondan transformatsiyaga uchratadi. Tohir Malikning “Iblis devori” qissasi ham jamiyatdagi illatlar, nafs, axloqiy tubanlik va inson ruhiyatidagi kolliziyalarni badiiy aks ettirishi bilan ajralib turadi. Ushbu asar diskursida frazeologik birliklarning modifikatsiyalashuvi hamda ularning semiotik belgi va estetik kategoriya sifatidagi xizmatini tadqiq etish o‘zbek lingvokulturoloqiyasi va lingvostilistikasi uchun alohida ilmiy qimmatga ega.

Adabiyotlar tahlili. Frazeologik birliklarning badiiy matndagi transformatsiyasi va ularning stilistik vazifalari tilshunoslikda doimiy e’tiborda bo‘lib kelgan. Umumiy tilshunoslikda frazeologizmlarning uslubiy modifikatsiyasi, ularning strukturaviy-semantik variantdorligi V.V.Vinogradov, N.N.Amosova, A.V.Kunin kabi tilshunoslar tomonidan tadqiq etilgan. O‘zbek tilshunosligida frazeologiya nazariyasi va uning semantik- uslubiy xususiyatlari Sh. Rahmatullayev, A. Mamatov, B.Yo‘ldoshev, X.Abdurahmonov va Sh.Usmonov kabi olimlarning fundamental ishlarida o‘z aksini topgan. Xususan, A.Mamatov frazeologizmlarning shakllanishi va ularning lisoniy-uslubiy imkoniyatlarini atroflicha tahlil qilgan bo‘lsa, B.Yo‘ldoshev badiiy matnda frazeologik birliklarning metodologik va uslubiy qo‘llanish xususiyatlariga e’tiborini qaratgan.

Biroq o‘zbek va jahon tilshunosligida so‘nggi yillarda lingvostilistik tahlildan kognitiv-semiotik va pragmalingvistik tahlil metodologiyasiga o‘tish tamoyili kuchaymoqda. Frazeologik transformatsiyalarni faqat uslubiy bezak emas, balki semiotik kod hamda estetik kategoriya sifatida baholash zamonaviy lingvopoetikaning yangi bosqichidir. Tohir Malik nasri va xususan “Iblis devori” qissasidagi lisoniy modifikatsiyalarning semiotik va pragmalingvistik xususiyatlari maxsus kompleks tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha atroflicha o‘rganilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda Tohir Malikning “Iblis devori” qissasi matnida qo‘llangan frazeologik birliklar (FB) va ularning mualliflik modifikatsiyalarini aniqlash, tasniflash hamda ularning semiotik va estetik vazifalarini baholash uchun kompleks lingvistik tahlil metodologiyasi qo‘llandi. Tadqiqot deskriptiv (tavsifiy), korpus-asistentlik, kontekstual-semantik va pragmalingvistik yondashuvlar integratsiyasiga asoslanadi.

Material va ma’lumotlar bazasi. Tadqiqotning amaliy materiali sifatida Tohir Malikning “Iblis devori” qissasi (*Toshkent: «Sharq», 2004, 320 b.*) to‘liq empirik manba sifatida tanlab olindi. Matndagi lisoniy birliklarni obyektiv va aniq ajratib olish uchun quyidagi bosqichli tanlov tartibi amalta oshirildi:

1. **Raqamlashtirish va tekstual korpus shakllantirish:** Asar matni raqamlashtirildi va maxsus matnli korpus (*format: .txt, kodiroovka: UTF-8*) holatiga keltirildi (umumiy hajmi: 42 180 so‘z qo‘llanishi).

2. **Standard va modifikatsiyalangan FB larni aniqlash:** Korpus-asistentlik vositasi (*AntConc 4.2.0*) yordamida hamda an’anaviy lug‘atlarga (*O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati*, Sh. Rahmatullayev [5],

1978; *O‘zbek tilining izohli lug‘ati*, 5 jildlik, 2006–2008) qiyoslagan holda matndagi turg‘un iboralar va ularning modifikatsiyalangan shakllari leksik-kalit so‘zlar (*KWIC – Key Word in Context*) orqali filterlandi.

3. **Tanlab olish mezonlari:**

– *Kiritish mezonlari:* Lisoniy normadan shakliy (tarkibiy), semantik, sintaktik yoki kontekstual tomondan og‘gan (transformatsiyaga uchragan) hamda badiiy matnda qo‘shimcha konnotativ/estetik yuklama olgan FB lar.

– *Chiqarib tashlash mezonlari:* Matndagi umumtil normasiga to‘liq mos, hech qanday mualliflik modifikatsiyasiga uchramagan standart frazeologizmlar va erkin so‘z birikmalari.

Filtratsiyadan so‘ng tadqiqot obyektiga mos keluvchi jami **142 ta** frazeologik qo‘llanish ajratib olindi. Shulardan **86 ta (60.6%)** birlik mualliflik transformatsiyasiga uchragan holat sifatida qayd etildi.

Tadqiqot metodlari va lingvistik vositalar. Tadqiqotda muammoning ko‘p qirraliligidan kelib chiqib, bir-birini to‘ldiruvchi quyidagi metodlar majmuasidan foydalanildi:

1. **Korpus-asistentlik va chastotali tahlil:** *AntConc 4.2.0* dasturi orqali FB larning matndagi tarqalish zichligi, uchrash ko‘rsatkichi va qaysi qahramonlar diskursiga tegishliligi miqdoriy jihatdan statistika qilindi.

2. **Komponentli va semantik-struktural tahlil:** Modifikatsiyalangan FB larning lug‘atdagi insoniy-bazaviy (kanonik) shakli va matndagi mualliflik varianti o‘rtasidagi tarkibiy hamda semantik farqlar aniqlandi (A. Mamatov va A. Kunin modellari bo‘yicha).

3. **Pragmalingvistik va Semiotik tahlil:** Charlz Pirs (*C.S. Peirce*) va Charlz Morris (*C. Morris*)ning semiotik uchligi (*signifier, signified, referent*) modeliga tayanib, FB transformatsiyasining matndagi **semantik** (ma’no), **pragmatik** (ta’sir) va **estetik** (badiiy-obrazli) vazifalari atroflicha tahlil qilindi.

Frazeologik transformatsiyalar va semiotik-estetik vazifalar tasnifi. Materiallarni tizimlashtirish va obyektiv baholash uchun transformatsiya tiplari hamda ularning semiotik-estetik funksiyalari bo‘yicha ikki bosqichli tasnif matriksidan foydalanildi.

1-jadval.

Frazeologik transformatsiyalarning strukturaviy-semantik tiplari va operatsiyalar metodologiyasi

Transformatsiya tipi	Operatsiya mexanizmi	Lisoniy modifikatsiya xususiyati	Kutilayotgan uslubiy va semantik samara
1. Quantitativ (Tarkibiy) kengayish	Insertion / Addition	FB tarkibiga yangi leksik komponent (sifat, ravish, kuchaytirgich) kiritish.	Iboraning emotsional-ekspressiv bo‘yog‘ini kuchaytirish, tushunchani aniqlashtirish.
2. Reduktsiya (Qisqartirish/Ellipsis)	Deletion / Reduction	FB ning bir yoki bir nechta komponentini tushirib qoldirish.	Implikatsiya (yashirin ma’no) hosil qilish, kontekstual pragmatikani tig‘izlashtirish.
3. Leksik substitutsiya (Almashtirish)	Substitution	Kanonik FB tarkibidagi biror so‘zni sinonimik yoki okkazional so‘zga almashtirish.	Semantik siljish yaratish, asar g‘oyasiga mos okkazional ma’no shakllantirish.
4. Kontaminatsiya (Parchalarni biriktirish)	Blending / Contamination	Ikki yoki undan ortiq mustaqil FB larning tarkibiy va semantik elementlarini qorishtirish.	Murakkab badiiy metafora va tushunchalar sintezini hosil qilish.
5. Semantik reaktualizatsiya (Litoliz)	De-phraseologization	Iboraning ko‘chma ma’nosi bilan birga so‘zlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘z ma’nosini ham parallel faollashtirish.	Qo‘shaloq ma’no (ironiya, satira, kognitiv zidlash) va kuchli estetik effekt yaratish.

2-jadval.

Modifikatsiyalangan FB larning semiotik va estetik vazifalari matriksi

Semiotik-estetik vazifa kodi	Funksiya nomi	Semiotik vosita va xususiyati	Badiiy-pragmatik maqsadi
SEF-01	Aksiolagik (Baholovchi) semiotika	FB ning ijobiy/salbiy konnotatsiyasini o‘zgartiruvchi lisoniy belgilar.	Qahramonlarning xatti-harakatiga va axloqiy tubanligiga mualliflik bahosini berish.

Natijalar va tahlil. Tohir Malikning “Iblis devori” qissasi matnida aniqlangan frazeologik transformatsiyalar strukturaviy-semantik xususiyatlariga ko‘ra 4 ta asosiy modelga ajratildi:

Frazeologik transformatsiya modellari: kengaytirish 38%, semantik siljish va kontaminatsiya 27%, qisqartirish va ellipsis 20%, leksik almashtirish 15%.

Strukturaviy kengaytirish va lisoniy eksplikatsiya. Bu modelda muallif tildagi turg‘un ibora tarkibiga yangi komponent (aniqlovchi, sifatlovchi yoki qo‘shimcha leksik birlik) kiritish orqali iboraning qamrovini kengaytiradi va uning semiotik yuklamasini kuchaytiradi.

1. Neytral lisoniy model: *Ko‘zini yog‘ bosmoq* (Lug‘at ma’nosi: kiborlanmoq, manman bo‘lmoq).

2. Mualliflik transformatsiyasi: *“Harom mol-dunyoning quyuq yog‘i ko‘zini shunday bosgandiki, hatto o‘z jigarining fojiasini ham ko‘rolmasdi.”*

3. Semiotik va estetik tahlil: Muallif iborani shunchaki qo‘llamay, *“harom mol-dunyoning quyuq yog‘i”* birikmasi orqali iboradagi metoforik ma’noni moddiylashtiradi. Bu o‘rinda transformed ibora ma’naviy ko‘rlik va nafs ramzi (semiotik kod) vazifasini bajaradi.

Semantik siljish va kontaminatsiya. Kontaminatsiya jarayonida ikki yoki undan ortiq frazeologik birlik yoki paremiyalarning o‘zaro chatishuvi yuz beradi. Tohir Malik qissada qahramonning ruhiy degradatsiyasini ko‘rsatish uchun ikki xil lisoniy kodni birlashtiradi.

1. Birlashayotgan iboralar: *Iymonini sotmoq + Yo‘ldan ozmoq*.

2. Mualliflik transformatsiyasi: “*Iymonini bozorga solgan kimsaning iblis devoriga urilib chalajon bo‘lishi muqarrar.”*

3. Pragmatik xizmati: Bu o‘rinda “*iymonini bozorga solmoq”* iborasi asar sarlavhasidagi “*Iblis devori”* konseptual ramzi bilan semantik sintezga kirishib, asarning asosiy g‘oyaviy-estetik poydevorini yuzaga keltirmoqda.

Leksik almashtirish va uslubiy aluzyalar. Muallif ibora tarkibidagi an’anaviy so‘zni matn talabiga mos ravishda boshqa emotsional-bo‘yoqdor so‘z bilan almashtiradi.

1. Neytral model: *Tili qisiq bo‘lmoq*/*Yuzi qora bo‘lmoq*.

2. Mualliflik transformatsiyasi: “*Vijdon va shariat oldida tili qisiqlik emas, butun ruhiyatning sarson-sargardonligi bor edi.”*

3. Tahlil: Iboraning komponenti sifatidagi lisoniy o‘zgarish obrazning ichki iztiroblarini tasvirlashda estetik ta’sirchanlikni ta’minlagan.

Empirik tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, Tohir Malikning “Iblis devori” qissasida frazeologik birliklar (FB) va paremiyalarning modifikatsiyalashuvi shunchaki uslubiy bezak yoki eksklyuziv badiiy bo‘yoqdorlikni ta’minlash bilan cheklanmaydi. Olingan ma’lumotlar zamonaviy lingvopoetika hamda pragmalingvistikaning turg‘un birliklar matnda statik leksik konstruksiya emas, balki dinamik kognitiv-pragmatik resurs sifatida namoyon bo‘lishi haqidagi nazariy qarashlarini [3; 8] to‘la tasdiqlaydi.

Munozarali tahlil jarayonida modifikatsiyalangan frazeologizmlarning diskursdagi uchta konseptual va funktsional darajasi belgilab olindi:

Semiotik qayta kodlash. Tahlillar natijasida aniqlangan eng muhim hodisalardan biri—iboralarning muallif tomonidan yangi semiotik va ramziy ma’no qatlami bilan boyitilishidir. Yozuvchi an’anaviy *“ko‘zini yog‘ bosmoq”* yoki “*iymonini sotmoq”* kabi turg‘un birliklarga strukturaviy kengaytirish kiritish orqali ularni muayyan epizodik hodisa chegarasidan olib chiqadi. Bu o‘rinda transformatsiya qilingan ibora asardagi badiiy konsept va semiotik kod darajasiga ko‘tariladi.

A.Mamatov [3] ta’kidlaganidek, frazeologik birliklarning semantik doirasi badiiy matnda kontekstual bosim ostida kengayadi; “Iblis devori” diskursida esa bu kengayish nafs, ma’naviy tubanlik hamda shaxsiyat inqirozining lingvokulturolozik markeriga aylanadi.

Pragmatik kutilmaganlik effekti. Standard lisoniy modeldan og‘ish (shakliy va semantik modifikatsiya) kitobxon idrokida estetik va pragmatik kutilmaganlik effektini yuzaga keltiradi. B.Yo‘ldoshev [8] hamda Sh.Rahmatullayev [5] ta’kidlagan frazeologik variantdorlik va uslubiy modifikatsiyalar Tohir Malik nasrida kognitiv dissonans hosil qilish orqali kitobxon e’tiborini matn osti ma’nolariga yo‘naltiradi.

Kontaminatsiya va leksik almashtirish turlari bo‘yicha olingan natijalar (mos ravishda 27% va 15%) muallifning qahramonlar ruhiyatidagi kolliziyalar, ya’ni iymon va nafs o‘rtasidagi kurashni berishda an’anaviy va neytral usullardan voz kechganini ko‘rsatadi.

Xarakterologiya va aksiologik xaritalash. Frazeologik transformatsiyalar asar qahramonlarining axloqiy va ma’naviy o‘lchovlarini belgilovchi asosiy vositadir. Salbiy va ijobiy obrazlar nutqidagi modifikatsiyalar orqali muallif ularning ichki ekzistensial inqirozini ochiqlaydi.

Olingan empirik ma’lumotlar V.V. Vinogradov [7] va N.N. Amosova [2] tomonidan ilgari surilgan *“badiiy matnda turg‘un birikmalarning uslubiy kontekstga to‘liq integratsiyalashuvi”* nazariyasining milliy nasrdagi yorqin isbotidir.

Xulosa. Tohir Malikning “Iblis devori” qissasi misolida badiiy nasrda frazeologik birliklar modifikatsiyasi, ularning semiotik va estetik vazifalarini ilmiy va empirik tahlil qilish quyidagi konseptual xulosalarga kelish imkonini beradi:

1. Dinamik lisoniy tabiat: Frazeologik birliklar va paremiyalar badiiy diskursda qotib qolgan leksik tuzilmalar emas, balki yozuvchining badiiy-g‘oyaviy niyatiga mos ravishda transformatsiyalanuvchi, shaklan va semantik jihatdan moslashuvchan dinamik kognitiv tizimdir.

2. Klassifikatsion dominantlar: Asar matnidan ajratib olingan 120 dan ortiq modifikatsiyalangan birliklarning statistik tahlili strukturaviy kengaytirish (38%) va semantik kontaminatsiya (27%) usullarining yetakchiligini ko‘rsatdi. Ushbu modifikatsiya modellari asardagi jamiyat va shaxsning ma’naviy-axloqiy inqirozini ta’sirchan va teran ifodalashga xizmat qilgan.

3. Semiotik va estetik qiymat: Modifikatsiyalangan frazeologizmlar asarda uchta asosiy vazifani—semiotik qayta kodlash, pragmatik kutilmaganlik va aksiologik xaritalash funksiyalarini bajarib, asarning lingvopoetik va semiotik yaxlitligini ta’minlagan.

4. Nazariy va amaliy ahamiyati: Tadqiqot natijalari o‘zbek lingvostilistikasi, lingvokulturoloqiyasi va pragmalingvistikasi uchun muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi hamda o‘zbek nasrida lisoniy vositalar modifikatsiyasini kognitiv-diskursiv paradigmada o‘rganishning yangi istiqbollarini ochib beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Abdurahmonov X. O‘zbek tili uslubiyoti va frazeologiyasi. – T.: Fan, 1987.

2. Amosova N.N. Osnovy anglijskoj frazeologii [Fundamentals of English Phraseology]. – Izdatel'stvo Leningradskogo universiteta, 1963.

3. Mamatov A.E. O‘zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi va semantik-uslubiy xususiyatlari. – Buxoro universitet nashriyoti, 2000.

4. Malik T. Iblis devori (Qissa va hikoyalar). – Sharq, 2012.

5. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – O‘qituvchi, 1992.

6. Usmonov Sh. Badiiy matnda frazeologik birliklarning pragmalingvistik tahlili. – O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2018.

7. Виноградов В.В. Об основах русской фразеологии: Лексикология и лексикография [On the Foundations of Russian Phraseology: Lexicology and Lexicography]. – Наука, 1977.

8. Yo‘ldoshev B. Badiiy matnda frazeologizmlarning uslubiy imkoniyatlari va uslubiy modifikatsiyalari. – Fan, 1993.

9. Yusupov U.K. Pragmalingvostilistika va badiiy diskurs tahlili. – Akademnashr, 2020.

10. Zulxumor M. O‘zbek nasrida frazeologik transformatsiyalarning kognitiv-semantik tabiyati. // O‘zbek tili va adabiyoti. – 2021. – № 3. – B. 45–52.

UO‘K 801.85:92.172

G‘AFUR G‘ULOM VA MARK TVEN ASARLARIDA IDIOMALARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI: QIYOSIY TAHLIL

Raxmatulloyev Elbek Ikrom o‘g‘li,
Navoiy Innovatsiyalar universiteti magistranti
arsus.rahmatullayev@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada G‘afur G‘ulomning “Shum bola” qissasi hamda Mark Tvenning “Tom Soyerning sarguzashtlari” asarida qo‘llangan idiomatik va frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi o‘zbek va ingliz tillaridagi iboralarda xalqning turmush tarzi, qadriyatlari, dunyoqarashi, tarixiy-ijtimoiy tajribasi va milliy obrazlarning qanday ifodalanishini aniqlashdan iborat. Tadqiqotda kontekstual, qiyosiy, lingvomadaniy va semantik tahlil usullaridan foydalanildi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, har ikki adib idiomatik birliklardan nafaqat nutqni obrazli va ta’sirchan qilish, balki qahramon xarakterini ochish, yumor yaratish va muayyan madaniy muhitni tiklash vositasi sifatida foydalanadi. Shu bilan birga, G‘afur G‘ulom iboralarida mahalla, oila, diniy tasavvurlar va xalqona turmushga xos madaniy kodlar kuchliroq namoyon bo‘lsa, Mark Tven asarlarida Amerika janubining og‘zaki nutqi, kundalik hayoti, bolalar submadaniyati va mahalliy dialekt xususiyatlari faol ishtirok etadi. Qiyosiy tahlil idiomlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalentini topish har doim ham mumkin emasligini va tarjimada ularning milliy-madaniy semantikasini saqlash alohida yondashuvni talab qilishini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *idioma, frazeologik birlik, lingvomadaniyat, milliy kolorit, qiyosiy tahlil, G‘afur G‘ulom, Mark Tven, “Shum bola”, “Tom Soyerning sarguzashtlari”.*

ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ИДИОМ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ГАФУРА ГУЛЯМА И МАРКА ТВЕНА: СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ

Аннотация. *В данной статье проводится сопоставительный лингвокультурологический анализ идиоматических и фразеологических единиц, использованных в повести Гафура Гуляма «Озорник» и произведении Марка Твена «Приключения Тома Сойера». Основная цель исследования заключается в выявлении особенностей репрезентации образа жизни, ценностей, мировоззрения, историко-социального опыта народа и национальных образов, отражённых во фразеологических единицах узбекского и английского языков. В исследовании применяются методы контекстуального, сопоставительного, лингвокультурологического и семантического анализа. Результаты анализа показывают, что у обоих авторов идиоматические и фразеологические единицы используются не только для придания речи образности и выразительности, но и как средство раскрытия характера персонажей, создания юмористического эффекта и воссоздания определённой культурной среды. Вместе с тем во фразеологических единицах Гафура Гуляма более ярко проявляются культурные коды, связанные с махаллёй, семейными отношениями, религиозными представлениями и традиционным образом жизни узбекского народа. В произведении Марка Твена активное отражение находят особенности разговорной речи американского Юга, повседневная жизнь, детская субкультура и элементы местного диалекта. Сопоставительный анализ показывает, что поиск прямого эквивалента идиоматических выражений не всегда возможен, поэтому при переводе особое значение приобретает сохранение их национально-культурной семантики.*

Ключевые слова: *идиома, фразеологическая единица, лингвокультурология, национальный колорит, сопоставительный анализ, Гафур Гулям, Марк Твен, «Шум бола», «Приключения Тома Сойера».*

LINGUOCULTURAL FEATURES OF IDIOMS IN THE WORKS OF GAFUR GULYAM AND MARK TWAIN: A COMPARATIVE ANALYSIS

Abstract. *This article presents a comparative linguocultural analysis of idiomatic and phraseological units in G‘afur G‘ulom’s “Shum bola” and Mark Twain’s “The Adventures of Tom Sawyer”. The study focuses on how idioms encode cultural values, everyday practices, worldview, historical experience, and nationally marked images in Uzbek and English. Contextual, comparative, semantic, and linguocultural methods were applied. The analysis demonstrates that both authors employ idioms not merely*

as stylistic devices but also as means of characterization, humor construction, and cultural representation. At the same time, G‘afur G‘ulom’s idioms frequently draw on mahalla life, family relations, religious-cultural concepts, and Uzbek folk speech, whereas Twain’s idiomatic language reflects American vernacular speech, regional dialect, childhood culture, and everyday social practices. The findings indicate that functional and cultural equivalence is often more important than literal equivalence when such units are translated.

Keywords: *idiom, phraseological unit, linguoculture, national color, comparative analysis, G‘afur G‘ulom, Mark Twain, “Shum bola”, “The Adventures of Tom Sawyer”.*

Kirish. Til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik badiiy matnda, ayniqsa, frazeologik va idiomatik birliklarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Idiom oddiy so‘z birikmasidan farqli ravishda ko‘pincha yaxlit, ko‘chma ma’noga ega bo‘lib, uning mazmuni tarkibidagi alohida so‘zlarning lug‘aviy ma’nolari yig‘indisi bilan to‘liq izohlanmaydi. Shu sababli idiomlar tilning nafaqat semantik, balki milliy-madaniy qatlamini ham aks ettiruvchi birliklar sifatida qaraladi. Badiiy adabiyotda idiomlarning lingvomadaniy qiymati yanada ortadi. Yozuvchi xalqning kundalik hayoti, urf-odati, ijtimoiy munosabatlari va dunyoqarashini ko‘pincha aynan tayyor iboralar, xalqona birikmalar, maqol va matallar orqali beradi. G‘afur G‘ulomning “Shum bola” qissasi xalqona til, yumor va milliy koloritning yorqin namunalaridan biridir. 2018-yilgi nashr tavsifida ham asar Toshkent mahallalari hayoti, turli ijtimoiy qatlamlar va xalqona tasvirlar bilan bog‘liqligi qayd etilgan.

Mark Tvenning “The Adventures of Tom Sawyer” asari ham Amerika jamiyatining kundalik hayoti, bolalar dunyosi, diniy tasavvurlar va mahalliy og‘zaki nutqni badiiy ifodalashi bilan ajralib turadi. Tven asar old so‘zida undagi voqealar va personajlar real hayot kuzatuvlari bilan bog‘langanini, shuningdek, o‘sha davr bolalari orasida mavjud bo‘lgan xurofot va tasavvurlar tasvirlanganini ta’kidlaydi. Mavzuning dolzarbligi shundaki, o‘zbek va ingliz adabiy matnlaridagi idiomlarni faqat lug‘aviy ma’no asosida qiyoslash ikki xalqning madaniy tafakkuridagi farqlarni to‘liq ochib bera olmaydi. Shuning uchun ushbu tadqiqotda iboralarning semantik mazmuni bilan bir qatorda ularning qaysi vaziyatda, qanday personaj nutqida va qanday madaniy kontekstda qo‘llanishi ham hisobga olinadi[1].

Tadqiqotning maqsadi – G‘afur G‘ulom va Mark Tven asarlaridagi idiomatik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlash, ularning umumiy va farqli jihatlarini qiyoslash hamda badiiy matndagi funksional yukini ko‘rsatishdir. Tadqiqot savollari quyidagicha belgilandi: 1) har ikki asarda idiomlar qanday madaniy ma’nolarni ifodalaydi? 2) O‘zbek va ingliz idiomlarida milliy obrazlar qanday farqlanadi? 3) Idiomlar qahramon xarakteri va yumor yaratishda qanday vazifa bajaradi? 4) Ularni boshqa tilga tarjima qilishda qaysi jihatlar eng ko‘p murakkablik tug‘diradi?

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tadqiqot sifat jihatiga asoslangan qiyosiy-lingvomadaniy yondashuv asosida olib borildi. Asosiy material sifatida G‘afur G‘ulomning “Shum bola” qissasining 2018-yilgi Yoshlar nashriyoti nashri va Mark Tvenning “The Adventures of Tom Sawyer” asarining ochiq raqamli matni tanlandi. “Shum bola”ning mazkur nashri 192 betdan iborat bo‘lib, asardagi xalqona so‘z va iboralar bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlarda ham asosiy manba sifatida qo‘llangan. Mark Tven asarining to‘liq matni Project Gutenbergda mavjud. Tahlil jarayonida iboralar to‘rt mezon asosida ko‘rib chiqildi: 1) semantik mezon — iboraning ko‘chma va kontekstual ma’nosi; 2) lingvomadaniy mezon — iborada aks etgan urf-odat, qadriyat, mentalitet va realiyalar; 3) pragmatik mezon — iboraning personaj nutqidagi kommunikativ vazifasi; 4) tarjimaviy mezon — boshqa tilda funksional yoki madaniy ekvivalentning mavjudligi. Materiallar tanlashda iboraning oddiy erkin birikmadan farqli ravishda kontekstda yaxlit ma’no kasb etishi, obrazlilikni kuchaytirishi yoki milliy-madaniy ma’no yuklashi asosiy mezon bo‘ldi. Shu nuqtayi nazardan “Shum bola”dagi “sirlangan xumchaga tushgan sichqonday” va “to‘rt tomonim qibla” kabi birliklar alohida ahamiyatga ega. Mazkur iboralar boshqa tadqiqotlarda ham asarning frazeologik qatlamiga misol sifatida qayd etilgan[2].

“Shum bola”dagi idiomlarning lingvomadaniy xususiyatlari G‘afur G‘ulomning “Shum bola” qissasida idiomlar, xalqona iboralar va frazeologik birliklar asarning milliy ruhini shakllantiruvchi muhim vositalardan biridir. Ular qahramonlarning tabiiy nutqini yaratadi, voqealarga kulgili yoki kinoyaviy tus beradi va o‘zbek xalqining kundalik tasavvurlarini badiiy matnga olib kiradi. Zamonaviy tadqiqotlarda ham “Shum bola”dagi xalqona so‘zlar, maqollar, matallar va frazeologizmlarning obraz yaratish, milliy kolorit, yumor-hajv va psixologik chuqurlikdagi roli ko‘rsatilgan.

Masalan, “sirlangan xumchaga tushgan sichqonday to‘rt tomonga alanglab” iborasida qahramonning sarosimadagi holati hayvon obrazi orqali jonli tasvirlanadi. Bu yerda “sichqon” obrazi o‘zbek xalqona tasavvurida ojizlik, qo‘rquv va chiqish yo‘lini izlash holatini kuchaytiradi. Iboraning badiiy qiymati faqat “qo‘rqmoq” yoki “sarosimaga tushmoq” ma’nosida emas, balki vaziyatning ko‘zga ko‘rinadigan obrazga aylantirilishidadir. Ushbu misol “Shum bola”da frazeologik birliklarning son komponentlari va milliy

obrazlar bilan bog‘lanishini ham ko‘rsatadi. “To‘rt tomonim qibla” iborasi esa yanada kuchli lingvomadaniy qatlamga ega. “Qibla” tushunchasi islomiy-madaniy makon bilan bog‘liq bo‘lib, iborada “har tomonga yo‘l ochiq”, “to‘siq yo‘q” mazmuni yuzaga keladi. Demak, mazkur birlikning semantik yadrosi geografik yo‘nalishdan ko‘ra kengroq bo‘lib, diniy va milliy tasavvur bilan mustahkamlangan. Bunday birlikni boshqa tilga so‘zma-so‘z ko‘chirish uning madaniy mazmunini to‘liq saqlamasligi mumkin[3].

Muhokama va natijalar. “Shum bola”da xalqona iboralarning yana bir muhim vazifasi – qahramon nutqini individuallashtirishdir. Qoravoyning kuzatuvchanligi, topqirligi, hazilkashligi va ba’zan vaziyatdan chiqish uchun so‘z o‘yinidan foydalanishi uning tilida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun iboralar asarda faqat bezak emas, balki xarakter yaratish vositasidir. 2026-yilda e’lon qilingan tadqiqotlarda ham qissadagi hazil-mutoyiba verbal hazil, situativ komizm, xarakter komizmi va milliy-madaniy hazil qatlamlari bilan bog‘liqligi ko‘rsatilgan. Mark Tven asarlaridagi idiomatik va xalqona nutq Mark Tvenning “The Adventures of Tom Sawyer” asarida idiomatik ifodalar Amerika ingliz tilining jonli og‘zaki qatlamini ko‘rsatishda muhim rol o‘ynaydi. Asarda bolalar nutqi, mahalliy talaffuz, kundalik muloqot va diniy-ijtimoiy tasavvurlar bir-biri bilan uyg‘unlashadi. Tvenning “The Adventures of Huckleberry Finn” asari uchun yozgan izohida ham turli dialektlar ataylab va muayyan hududiy nutq tajribasiga tayangan holda qo‘llangani aytiladi; bu uning badiiy tilida og‘zaki va hududiy nutqqa katta ahamiyat berilganini ko‘rsatadi.

“Tom Sawyer”da “take and tar the head off” kabi obrazli ifoda jismoniy jazoni kuchaytirib ko‘rsatadigan xalqona nutq namunasi sifatida keladi. Asarning dastlabki boblarida Jim bilan Tom o‘rtasidagi dialogda bu ifoda qo‘llanib, Aunt Pollyning qattiqqo‘lligi bolalar ko‘zi bilan bo‘rttirib tasvirlanadi. Bu yerda iboraning funksiyasi faqat “jazolamoq” mazmunini berish emas, balki bolalarning qo‘rquvini kulgili va obrazli shaklda ifodalashdir. Asardagi “let on” kabi og‘zaki idiomatik birliklar ham personajlarning tabiiy suhbatini yaratadi. Tomning “you don’t mean to let on that you like it?” tarzidagi nutqi uning suhbatdoshni ishontirish uchun so‘zlarni manipulyativ tarzda tanlashini ko‘rsatadi. Bunday birliklar adabiy tilning rasmiy shaklidan ko‘ra jonli muloqotga yaqin bo‘lib, personajlarning yoshiga, ijtimoiy muhitiga va kommunikativ vaziyatiga moslashadi. Mark Tvenning o‘ziga xosligi shundaki, u idiomatik va xalqona birliklarni yumor bilan birlashtiradi. “Whitewashing” epizodida Tom oddiy majburiyatni bolalar uchun jozibador faoliyat sifatida ko‘rsatib, boshqalarni ishni o‘zlari bajarishga undaydi. Bu holatda “ish” tushunchasi oddiy mehnat emas, balki Tomning nutqiy strategiyasi orqali “imtiyoz” sifatida qayta talqin qilinadi[4].

Qiyosiy tahlil natijasida o‘zbek va ingliz idiomatik birliklarida uchta umumiy funksional xususiyat aniqlandi. Birinchidan, har ikki adib idiomlardan qahramon xarakterini ochish uchun foydalanadi. Ikkinchidan, idiomlar yumor va kinoyani kuchaytiradi. Uchinchidan, ular muayyan xalqning kundalik tajribasini badiiy matnga olib kiradi. Biroq madaniy komponentlar bir xil emas. “Shum bola”dagi “qibla”, “xumcha”, “to‘rt tomon” kabi obrazlar o‘zbek tilining tarixiy-diniy va maishiy tasavvurlari bilan chambarchas bog‘langan. Mark Tven matnidagi idiomatik ifodalar esa Amerika janubining kundalik hayoti, bolalar o‘rtasidagi munosabat, mahalliy og‘zaki nutq va o‘sha davr ijtimoiy muhitiga ko‘proq tayanadi. Shunday qilib, ikki tildagi idiomlarning umumiy semantik funksiyasi o‘xshash bo‘lsa-da, ularning madaniy motivatsiyasi farqlanadi.

Tahlil shuni ham ko‘rsatdiki, idiomlarni tarjima qilishda uch xil holat kuzatiladi: birinchisi – to‘liq funksional ekvivalent mavjud bo‘lsa, to‘g‘ridan-to‘g‘ri mos birlikdan foydalanish; ikkinchisi – ma’no saqlanib, obraz o‘zgaradigan qisman ekvivalentlik; uchinchisi – milliy realiya kuchli bo‘lgani uchun izohlovchi yoki tasviriy tarjimaga murojaat qilish. “To‘rt tomonim qibla” singari birliklar uchinchi turga yaqin bo‘lib, tarjimon iboraning semantik mazmuni bilan birga uning madaniy fonini ham yetkazishi kerak[5].

Olingan natijalar idiomni faqat frazeologik lug‘at birligi sifatida emas, balki madaniy axborotni tashuvchi til birligi sifatida ko‘rish zarurligini ko‘rsatadi. G‘afur G‘ulom va Mark Tvenning badiiy mahoratidagi umumiylik shundaki, ikkala yozuvchi ham xalqona nutq imkoniyatlaridan personajlarni “tirik” va ishonarli ko‘rsatish uchun foydalanadi. Farq esa ushbu xalqonalikning madaniy manbalarida namoyon bo‘ladi. G‘afur G‘ulomning idiomatik birliklari ko‘pincha mahalla muhiti, oila, diniy tasavvurlar, o‘zbekona kundalik hayot va xalq og‘zaki ijodi bilan bog‘liq. “Shum bola”ning kulgisi ham shu milliy kontekst ichida shakllanadi. Mark Tven esa Amerika jamiyatidagi bolalar dunyosi, mahalliy og‘zaki nutq, dialekt va ijtimoiy odatlarni yumor bilan birlashtiradi. Tven matnida dialektning ataylab tanlanishi uning personajlarini hududiy va ijtimoiy jihatdan farqlashga xizmat qiladi. Bu natija tarjimashunoslik uchun ham muhim. Idiomni faqat lug‘aviy ma’noda tarjima qilish ko‘pincha milliy obrazni yo‘qotadi. Masalan, “qibla” kabi birlikda geografik yo‘nalishdan tashqari diniy-madaniy ma’no mavjud. Xuddi shuningdek, Mark Tven personajlarining xalqona inglizcha nutqini adabiy va neytral tilga aylantirib yuborish ularning xarakteri va ijtimoiy muhitini xiralashtirishi mumkin. Tadqiqotning cheklovi shundaki, maqolada barcha idiomatik birliklarning to‘liq statistik korpusi emas, balki lingvomadaniy jihatdan muhim bo‘lgan namunalarning sifat tahlili amalga

oshirildi. Keyingi tadqiqotlarda ikki asarning parallel korpusi tuzilib, idiomlarning chastotasi, semantik guruhlari, tarjima strategiyalari va ekvivalentlik darajalarini statistik jihatdan o‘lchash maqsadga muvofiq[6].

G‘afur G‘ulomning “Shum bola” qissasi va Mark Tvenning “The Adventures of Tom Sawyer” asaridagi idiomatik birliklar ikki xil til va madaniyatning badiiy tafakkurini ifodalovchi muhim lingvomadaniy vosita ekanligi aniqlandi. Har ikki yozuvchi idiomlardan obraz yaratish, qahramon nutqini individuallashtirish, yumor va kinoyani kuchaytirish hamda milliy muhitni jonlantirish uchun samarali foydalanadi. O‘zbek tilidagi iboralarda diniy tasavvurlar, mahalla va maishiy hayot, xalqona obrazlar hamda an’anaviy qarashlar faol namoyon bo‘lsa, Mark Tvenning idiomatik nutqida Amerika og‘zaki tili, hududiy-dialektal xususiyatlar, bolalar submadaniyati va kundalik ijtimoiy munosabatlar kuchliroq ko‘rinadi. Shu bois ikki til o‘rtasidagi qiyosiy tahlilda faqat lug‘aviy moslik emas, balki funksional va lingvomadaniy ekvivalentlik asosiy mezon bo‘lishi kerak. Umuman, idiomlar badiiy matnning milliy ruhini saqlashda muhim vosita bo‘lib, ularni tarjima qilish jarayonida semantik mazmun, obraz, pragmatik vazifa va madaniy kontekst birgalikda hisobga olinishi zarur[8].

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, G‘afur G‘ulom va Mark Tven asarlarida qo‘llanilgan iboralar nafaqat tasviriylik va ifodalilikni ta’minlovchi lingvistik birliklar, balki ma’lum bir xalqning tarixiy, ijtimoiy va madaniy tajribasini aks ettiruvchi muhim lingvistik va madaniy vositadir. Ikkala yozuvchining asarlarida ham iboralar qahramonlarning shaxsiyatini ochib berish, voqealarga munosabatini ifoda etish, muallifning estetik pozitsiyasini yetkazish va asarning milliy ruhini oshirish uchun faol ishlatilgan.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek va ingliz tillaridagi iboralar ba’zi semantik o‘xshashliklarga ega bo‘lsa-da, ularning shakllanishi va qo‘llanilishi milliy va madaniy xususiyatlarni aniq ochib beradi. G‘afur G‘ulom asarlaridagi iboralar o‘zbek xalqining turmush tarzi, urf-odatlari, ijtimoiy munosabatlari, xalq tafakkuri va og‘zaki an’analari bilan chambarchas bog‘liq. Mark Tven asarlaridagi iboralar Angliya-Amerika madaniyati, kundalik hayoti, ijtimoiy munosabatlari, hazil va istehzo xususiyatlarini aks ettiradi. Bundan tashqari, ikkala muallif ham iboralardan badiiy ifoda vositasi sifatida samarali foydalanganlar, xalq tili va individual muallif uslubi o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlaganlar. Idiomalarni qiyosiy o‘rganish bizga ularning milliy dunyoqarashni ifodalashdagi o‘rnini aniqlash, badiiy tarjimada yuzaga keladigan qiyinchiliklarni tushunish va turli xalqlarning lingvistik va madaniy tafakkuridagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlash imkonini beradi.

Umuman olganda, G‘afur G‘ulom va Mark Tven asarlaridagi iboralar ikki xil madaniy muhitga tegishli bo‘lsa-da, ular badiiy va estetik vazifasi jihatidan muhim umumiy xususiyatlarga ega. Shuning uchun, iboralarni lingvistik va qiyosiy nuqtayi nazardan o‘rganish til, adabiyot va madaniyat o‘rtasidagi munosabatlarni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. – 3rd ed. – London; New York: Routledge, 2018. – 370 p.

2. Baydjanova I. A. G‘afur G‘ulomning “Shum bola” asarida hazil-mutoyibaning konseptual tuzilishi. Qo‘qon DPI Ilmiy Xabarlar Jurnali, 2026, 8(2). – B. 113-120.

3. G‘ulom, G‘. Shum bola. Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 192 b.

4. Jumayev, E. B., Tohirova, K. T. G‘afur G‘ulomning “Shum bola” qissasida xalqona so‘z va iboralar. Tadqiqotlar, 2026, 87(2). – B. 384-386.

5. Mardieva M. Methods of Translation into English of Phraseological Units with Numerical Components Used in the Work “Shum Bola” // Foreign Linguistics and Linguodidactics. – 2024. – Vol. 2, No. 1. – P. 130–133.

6. Newmark P. A Textbook of Translation. – New York: Prentice-Hall International, 1988. – 292 p.

7. Nida E. A., Taber C. R. The Theory and Practice of Translation. – Leiden: E. J. Brill, 1969. – 220 p.

8. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978. – 408 b.

9. Twain M. The Adventures of Tom Sawyer. Project Gutenberg, eBook No. 74.

10. Yo‘ldoshev B. Frazeologik uslubiyat asoslari. – Samarqand: SamDU nashri, 1999. – 59 b.

UO‘K 811.512.133'38:821.512.133(575.1)

FONETIK BIRLIKLARNING BADIIY-ESTETIK VAZIFASI (SH.BOSHBEKOVNING “ESHIK QOQQAN KIM EDI” ASARI MISOLIDA)

Mavlanova Xafiza Gulmurodovna,
Renessans ta’lim universiteti o‘qituvchisi
hafizamavlonova9@gmail.com
ORCID: 0009 0004 2998 9972

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Sh.Boshbekovning “Eshik qoqqan kim edi” asari misolida fonetik birliklarning badiiy-estetik xususiyatlari va lingvopoetik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Badiiy matnda tovush, tovush takrori, alliteratsiya, assonans, urg‘u, ohang, pauza hamda fonetik shaklning boshqa ko‘rinishlari personaj nutqining ta’sirchanligini oshirish, ruhiy-emotsional holatni ifodalash, obraz xarakterini ochish va voqelik tasvirining estetik ta’sirchanligini ta’minlashga xizmat qilishi yoritiladi. Shuningdek, fonetik birliklarning kontekstual qo‘llanishi, ularning mazmun va shakl uyg‘unligini yuzaga keltirishdagi o‘rni hamda badiiy nutqning ekspressivligini kuchaytirish imkoniyatlari misollar asosida ochib beriladi. Tadqiqotda fonetik vositalarning asar kompozitsiyasi, personajlar nutqi va muallif nutqidagi badiiy-estetik funksiyasi aniqlanib, ularning dramatik matnning ta’sirchanligini ta’minlashdagi ahamiyati ko‘rsatib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *fonetik birlik, badiiy matn, lingvopoetika, badiiy-estetik vazifa, tovush takrori, alliteratsiya, assonans, urg‘u, ohang, pauza, ekspressivlik, personaj nutqi.*

ХУДОЖЕСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКАЯ ФУНКЦИЯ ФОНЕТИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ (На материале произведения Ш. Башбекова «Кто постучал в дверь»)

Аннотация. *В данной статье на материале произведения Ш.Башбекова «Кто постучал в дверь?» («Eshik qoqqan kim edi») анализируются художественно-эстетические особенности и лингвопоэтические возможности фонетических единиц. Рассматривается роль звуков, повторов звуков, аллитерации, ассонанса, ударения, интонации, пауз и других фонетических средств в повышении выразительности речи персонажей, передаче их эмоционально-психологического состояния, раскрытии характера образов и обеспечении эстетической выразительности изображения событий. Особое внимание уделяется контекстуальному употреблению фонетических единиц, их роли в создании единства формы и содержания, а также возможностям усиления экспрессивности художественной речи. В ходе исследования выявляются художественно-эстетические функции фонетических средств в композиции произведения, речи персонажей и авторской речи, а также определяется их значение в обеспечении выразительности драматического текста.*

Ключевые слова: *фонетическая единица, художественный текст, лингвопоэтика, художественно-эстетическая функция, звуковой повтор, аллитерация, ассонанс, ударение, интонация, пауза, экспрессивность, речь персонажей.*

THE ARTISTIC AND AESTHETIC FUNCTION OF PHONETIC UNITS (Based on Sh.Bashbekov’s *Who Knocked on the Door?*)

Abstract. *This article analyzes the artistic and aesthetic features and linguopoetic potential of phonetic units based on Sh.Bashbekov’s work “Who Knocked at the Door?” (“Eshik qoqqan kim edi”). It examines the role of sounds, sound repetitions, alliteration, assonance, stress, intonation, pauses, and other phonetic devices in enhancing the expressiveness of the characters’ speech, conveying their emotional and psychological states, revealing the characters’ personalities, and ensuring the aesthetic expressiveness of the depiction of events. Particular attention is paid to the contextual use of phonetic units, their role in creating the unity of form and content, and their potential for enhancing the expressiveness of literary speech. The study identifies the artistic and aesthetic functions of phonetic devices in the composition of the work, the characters’ speech, and the author’s speech, and determines their significance in ensuring the expressiveness and artistic impact of the dramatic text.*

Keywords: *phonetic unit, literary text, linguopoetics, artistic and aesthetic function, sound repetition, alliteration, assonance, stress, intonation, pause, expressiveness, characters’ speech.*

Kirish. Badiiy matnlar tahlilida fonetik birliklarning estetik ahamiyati alohida e’tiborga loyiqdir, chunki ular nutqning sotsiolingvistik va hissiy ta’sirini kuchaytirishga xizmat qiladi, bu esa ijtimoiy muhitda nutqning ta’sirchanligini oshiradi. She’riy asarlarda tovushlarning estetik imkoniyatlari, xususan, alliteratsiya

(undoshlarning takrorlanishi), assonans (unlilarning takrorlanishi) va geminatsiya (undoshlarning qavatlanishi) kabi fonetik usullar orqali o'ziga xos ohangdorlik shakllanadi, bu esa matnning tez va samarali idrok etilishini ta'minlaydi. Nasrda esa unlilarni cho'zish, undoshlarni qavatlash, tovushlarni takrorlash, so'zlarni ataylab noto'g'ri talaffuz qilish hamda tovushlarni qo'shish yoki tushirish kabi uslublar yordamida ekspressivlik hosil qilinadi, bu nutqning ma'no va hissiy boyligini oshiradi. Biroq tovushlarning uslubiy qo'llanilishi bilan bog'liq qonuniyatlarni yozma shaklda to'liq aks ettirish imkoniyati cheklangan bo'lib, bu jarayon nutqning ijtimoiy kontekstdagi ta'sirini yanada muhim qiladi [1; 23].

Qadimgi yunon faylasuflari Aflotun va Arastu davridan boshlab so'zning talaffuz tarzi va uni yozuvga ko'chirish masalasi muhokama qilingan bo'lsa-da, fonetik birliklarning uslubiy imkoniyatlari, xususan, ohangning so'zlovchining voqelikka munosabatini ifodalashdagi, ma'noni kuchaytirish yoki bo'rttirishdagi muhim roli tilshunos A.Abdullayevning tadqiqotlarida atroflicha yoritilgan, bu esa nutqning ijtimoiy muhitdagi ta'sirchanligini oshirishda fonetik vositalarning ahamiyatini ta'kidlaydi [2; 8]

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning metodologik asosini zamonaviy fonostilistika, lingvopoetika, badiiy matn lingvistikasi hamda funksional-semantik tahlil tamoyillari tashkil etadi. Mazkur yondashuvlar Sh.Boshbekovning "Eshik qoqqan kim edi" asarida qo'llangan fonetik birliklarning strukturaviy xususiyatlari bilan bir qatorda, ularning badiiy matndagi funksional va estetik imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Tadqiqot jarayonida fonetik hodisalarning oddiy tovushiy xususiyatlari emas, balki ularning muayyan kontekstda qanday qo'shimcha ma'no, emotsional ta'sir va obrazlilik hosil qilishi asosiy e'tibor markaziga qo'yildi.

Tahlil jarayonida, avvalo, lingvistik tavsiflash metodi asosida asar matnida uchraydigan fonetik birliklar aniqlanib, ularning qo'llanish xususiyatlari tavsiflandi. Fonetik birliklarning takroriy qo'llanishi, tovushlar uyg'unligi, tovush almashinuvi, tovush tushishi, cho'ziqlik, qisqarish, urg'u va intonatsiya bilan bog'liq holatlar kontekstual jihatdan o'rganildi. Bunda fonetik hodisalarning personajlar nutqini individuallashtirish va dramatik vaziyatni jonlantirishdagi imkoniyatlari ham hisobga olindi.

Fonostilistik tahlil orqali tovushlarning matndagi ekspressivlik va emotsionallikni yuzaga chiqarish xususiyatlari o'rganildi. Xususan, alliteratsiya, assonans, tovush takrori, fonetik parallelizm kabi vositalarning qo'llanish holatlari tahlil qilinib, ularning matnning ohangdorligi, ritmik tuzilishi va hissiy ta'sirchanligini kuchaytirishdagi roli aniqlandi. Tovushiy takrorlarning personaj kayfiyati, ruhiy holati va nutqiy munosabatini ifodalashdagi funksional imkoniyatlariga alohida e'tibor qaratildi.

Lingvopoetik metod asosida fonetik birliklarning badiiy obraz yaratish, personaj xarakterini ochish, dramatik konfliktni kuchaytirish va muallifning estetik maqsadini ifodalashdagi vazifalari belgilandi. Fonetik vositalarning qo'llanishi alohida birlik doirasidagina emas, balki dialog, monolog va muayyan dramatik vaziyat bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilindi. Shu orqali tovushiy vositalarning badiiy mazmunni shakllantirishdagi o'rni ochib berildi.

Tadqiqotda kontekstual tahlil metodi ham muhim o'rin egallaydi. Chunki bir xil fonetik birlik turli nutqiy vaziyatlarda turlicha pragmatik va estetik vazifa bajarishi mumkin. Shu sababli fonetik hodisalarning ma'nosi personajning kimligi, uning suhbatdoshi, nutq vaziyati, emotsional holati va dramatik voqeaning rivoji bilan bog'liq holda izohlandi.

Shuningdek, qiyosiy tahlil yordamida fonetik jihatdan neytral va ekspressiv shakllar o'zaro taqqoslanib, muayyan tovushiy o'zgarish yoki takrorning badiiy matndagi qo'shimcha funksional yuklamasi aniqlanadi. Bunday tahlil fonetik birliklarning oddiy kommunikativ vazifadan tashqari, estetik va obrazli vazifalarni ham bajarishini ko'rsatishga imkon beradi.

Tadqiqotda strukturaviy-funksional yondashuv asosida fonetik birliklarning matn tarkibidagi o'rni va ular o'rtasidagi funksional munosabatlar ham o'rganildi. Fonetik vositalarning dialogik nutqni shakllantirish, personajlar nutqini individuallashtirish, dramatik dinamizmni kuchaytirish va matnning emotsional fonini yaratishdagi vazifalari tizimli ravishda tahlil qilindi.

Umuman, mazkur metodologik yondashuvlar fonetik birliklarni faqat tilning tovush tizimiga mansub hodisa sifatida emas, balki badiiy-estetik mazmunni yuzaga chiqaruvchi, obrazlilik va ekspressivlikni ta'minlovchi lingvopoetik vosita sifatida baholash imkonini beradi. Tadqiqot natijasida Sh. Boshbekovning "Eshik qoqqan kim edi" asarida fonetik birliklarning dramatik nutqni ta'sirchan tashkil etish, personajlarning ruhiy-emotsional holatini ifodalash va asarning badiiy-estetik yaxlitligini ta'minlashdagi ahamiyati ochib beriladi.

Natijalar va muhokama. Badiiy asarda qahramonning voqelikka munosabati, unli tovushlarni cho'zish yoki takrorlash kabi fonetik usullar orqali aniq ifodalanadi, bu esa nutqning sotsiolingvistik ta'sirini kuchaytirib, qahramonning ruhiy holati, masalan, hayajon, taajjub yoki norozilik kabi his-tuyg'ularni o'quvchiga tez va tushunarli yetkazishga yordam beradi, lekin tilshunos A.Abdullayev o'z monografik tadqiqotlarida bunday usullar ilmiy adabiyotlarda belgining me'yordan kuchsiz yoki ortiq ekanligini

ko‘rsatish uchun qo‘llaniladi – degan fikrni ilgari suradi. Unli tovushlarni maqsadli ravishda orttirish yoki cho‘zish yozuvchidan katta mahorat talab qiladi, chunki bu usullar ko‘pincha asarning kulminatsion nuqtasi, g‘oyaviy mazmuni yoki dramatik tugunning yechimiga asos bo‘lib, ayniqsa, yozuvchilarning dramatik asarlarida keng tarqalgan bo‘lib, nutqning ijtimoiy muhitdagi ta’sirchanligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Dramatik asarlarda yozuvchi, unli tovushlarni cho‘zish orqali personajlar nutqida konnotativ ma’nolar hosil qiladi, bu esa nutqning sotsiolingvistik ta’sirini kuchaytiradi, chunki unlilar sof ovozdan iborat bo‘lib, ularning ohangdorligi talaffuzni istalgancha uzaytirish imkonini beradi, bu orqali qahramonning ichki kechinmalari, his-hayajonlari va o‘ziga xos ruhiy holatlari, masalan, taajjub, qayg‘u yoki hayajon kabi tuyg‘ular aniq ifodalanadi. Xususan, Sharof Boshbekovning dramalarida personajlar nutqida unli tovushlarni maqsadli ravishda cho‘zish kuzatiladi, bu usul orqali qahramonlarning ruhiy holati va konnotativ ma’nolar ochib beriladi, natijada nutq ijtimoiy muhitda yanada ta’sirchan va mazmunan boy bo‘lib, asarning badiiy ta’sirini oshiradi.

Pirmat: Rahmatilla bilan bi-i-ir tanishtirib qo'yay deb olib kelgandim. (Sh. Boshbekov. Eshik qoqqan kim bo‘ldi. – Toshkent, 1989.)

Keltirilgan misolda yozuvchi, “i” unlisini cho‘zish orqali personajlar nutqida samimiylik, o‘zaro yaqinlik va hissiy bog‘lanish kabi konnotativ ma’nolarni shakllantiradi, bu usul nutqning sotsial jihatdan ijtimoiy muhitida ta’sirchan bo‘lishini ta’minlaydi, chunki unli tovushning cho‘zilishi qahramonlarning ichki kechinmalarini, xususan, mehr, ochiqlik yoki yaqinlik kabi tuyg‘ularni ifodalashda muhim rol o‘ynaydi, natijada nutq o‘zbek tilining ijtimoiy-madaniy kontekstida yanada ta’sirchan va mazmunan boy bo‘lib, asarning badiiy ta’sirini oshiradi, shu bilan birga personajlarning nutq orqali o‘zbek xalqiga xos munosabatlar dinamikasini va ijtimoiy o‘zaro ta’sirni aniqroq aks ettiradi. Qiyoslash uchun yuqoridagi jumlani ikki xil shaklda keltirib ko‘ramiz:

1. Pirmat: Rahmatilla bilan bir tanishtirib qo'yay deb olib kelgandim. (Sh.Boshbekov. Eshik qoqqan kim bo'ldi. – Toshkent. 1989.)

2. Pirmat: Rahmatilla bilan bi-i-ir tanishtirib qo'yay deb olib kelgandim. (Sh.Boshbekov. Eshik qoqqan kim bo‘ldi. – Toshkent. 1989.)

O‘zbek tilidagi nutqning sotsial-madaniy kontekstida, masalan, *“Rahmatilla bilan bi-i-ir tanishtirib qo‘yay deb olib kelgandim”* degan ikkinchi gapda “i” unlisini cho‘zish orqali ifodalangan samimiylik va o‘zaro yaqinlik kabi konnotativ ma’nolar aniq namoyon bo‘ladi, bu esa nutqning ijtimoiy muhitdagi ta’sirchanligini oshiradi, chunki unli tovushning cho‘zilishi odatiy muloqotda mehr, yaqinlik va samimiy munosabatni aks ettiradi, ammo *“Rahmatilla bilan bir tanishtirib qo‘yay deb olib kelgandim”* degan birinchi gapda bunday nozik hissiy ma’nolar kuzatilmaydi, natijada ikkinchi gap o‘zbek tilining sotsial dinamikasiga mos ravishda yanada ta’sirchan va mazmunan boy bo‘lib, personajlarning o‘zaro munosabatlarini va ijtimoiy kontekstdagi yaqinlikni aniqroq ifodalaydi.

1-jadval.

№	Jumalalarning ifoda plani	Jumlalar
1.	Xitob, ta’kid ma’nolari	*Olim. **Yo‘-o‘-o‘q,** bu krugliy data, buni gastronomga tushib chiqish bilan nishonlab bo"lmaydi.*
2.	Piching, kesatish ma’nolari	*Qo‘chqor. **Ho-o,** qarorni ham bilarkanmi?*
3.	Xursandchilik, kayfiyatning yaxshiligi, shodlanish kabi ma’nolari	*Nozik. **Vu-u-uy**, manavi **gullarni-i-i.** Qarab ko‘z quvonadi.*
4.	Hayratlanish, taajjub, esankirash ma’nolari	*Qo‘chqor (hayratdan o‘g‘zi ochilib). **O-o-olimtoy,** buyam haligi magnitafonday gap ekan-da?*
5.	Voqelikka norozilik ma’nosi	*Pirmat. Men bir nima dedimmi? **Indama-a-ay** O‘tiribman-ku!*
6.	Buyruq, xitob, po‘pisa ma‘nolari	*Saltanat. Mehmon bo‘lsa mehmonga o‘shab **ji-i-im** o‘tirsin, menga naqa ko‘zini lo‘q qilmasdan.*
7.	Taklif, andisha, istihola ma’nolari ifodalanadi.	***Shu-u-u**, Alomatxon ro‘zg‘orga sal munday… nima deydi… Qarashib **tu-u-ursa** devdim-da, ukam.*
8.	Ma’noni kuchaytirish ma’nosini ifodalaydi.	*Tesha. Agar o‘sha oq otlar **ke-e-eng** daladay elib yursa, bilasanmi, anday go‘zal bo‘ardi?*
9.	Harakatning davomiyligi ma’nosi ifodalanadi.	*Olim. Keyin kallani bir joyga **qo‘yi-i-ib** o‘ylaysan.*

Agar yuqorida keltirilgan misollarni diqqat bilan tahlil qiladigan bo‘lsak, ularda qo‘llanilgan leksik birliklarning o‘ziga xos fonetik talaffuz qilinishi orqali yuzaga keladigan semantik nozikliklar kitobxonning hissiy-idrok jarayonlariga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Bu ta’sir, o‘z navbatida, adabiy asarning estetik va emotsional jihatdan ta’sirchanlik darajasini sezilarli darajada oshiradi, chunki so‘zlarning fonetik xususiyatlari orqali qo‘shimcha ma’no qatlamlari shakllanadi [3].

Adabiy-badiiy kontekstda, xususan, dramatik asarlarda, fonetik va leksik buzilishlar qahramonlarning nutqini individuallashtirish va matnni og‘zaki nutqning tabiiy oqimiga yaqinlashtirish maqsadida qo‘llaniladigan uslubiy vosita sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu usul orqali muallif nafaqat qahramonlarning ijtimoiy, psixologik va madaniy xususiyatlarini yoritadi, balki ularning nutqidagi o‘ziga xosliklarni ham aks ettiradi. Xususan, Sharof Boshbekov dramatik asarlarida ushbu uslubdan yuqori mahorat bilan foydalangan. Uning “Temir xotin” dramasida o‘zlashma so‘zlarning qahramonlar nutqida ikki xil shaklda qo‘llanilishi, ya’ni bir tomondan to‘g‘ri talaffuz shakllari, boshqa tomondan esa buzilgan shakllar orqali personajlarning xarakteristik o‘ziga xosliklari va ularning ijtimoiy-madaniy muhitdagi o‘rni aniq ko‘zga tashlanadi. Bu usul, qahramonlarning nutqini jonli va tabiiy ko‘rinishda taqdim etish bilan birga, ularning ichki dunyosi, psixologik holati va ijtimoiy kelib chiqishini aks ettirishda muhim rol o‘ynaydi.

Qumri: **“Ras”, “duva”, “vzali”** deyishdi.
Quchqor: Nima-li?
Qumri: **“Vzali”.**
Quchqor: “Vzyali”, o‘qimagan!

Yuqorida keltirilgan “**vzali**” va “**pri-gres-mrigres**” kabi so‘zlar, aslida “**vzyali**” va “**progress**” o‘zlashma leksik birliklarining fonetik jihatdan noto‘g‘ri talaffuz qilingan shakllari bo‘lib, adabiy-badiiy kontekstda qahramonlarning nutqini individuallashtirish va ularning o‘ziga xos ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini yorqin aks ettirish maqsadida qasddan qo‘llanilgan stilistik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu uslubiy yondashuv, personajlarning nutqidagi fonetik buzilishlar orqali ularning shaxsiy xarakteristikalarini, ijtimoiy kelib chiqishini va ma’lum bir sotsial muhitga mansubligini ta’kidlashga xizmat qiladi. Nutqning sotsial xoslanishi nuqtai nazaridan, bunday fonetik o‘zgarishlar qahramonlarning ta’lim darajasi, madaniy muhit va ijtimoiy tajribasi kabi omillarni aks ettiradi, bu esa ularning obrazini yanada ishonchli va tabiiy ko‘rinishda taqdim etish imkonini beradi. O‘zbek adabiyotidagi badiiy asarlarda, xususan, dramaturgiyada bunday usullar ko‘pincha personajlarning sotsial sinfiy xususiyatlarini, ularning til bilish darajasini yoki mahalliy dialektik o‘ziga xosliklarni ochib berishda muhim rol o‘ynaydi.

Misol sifatida keltirilgan birinchi holatda, Qo‘chqor ismli qahramon o‘z xotini Qumrining “**raz**”, “**dva**” va “**vzyali**” kabi so‘zlarni noto‘g‘ri talaffuz qilishi ustidan kuladi, bu esa Qumrining o‘zlashma so‘zlarni talaffuz qilishdagi qiyinchiliklarini va, ehtimol, uning cheklangan lingvistik kompetensiyasini ko‘rsatadi. Biroq ikkinchi misolda Qo’chqorning o‘zi Olimjon tilidan aytilgan “**progress**” so‘zini “**pri-gres-mrigres**” shaklida noto‘g‘ri talaffuz qiladi, bu uning ham o‘zlashma so‘zlar bilan ishlashda muayyan cheklovlarga ega ekanligini ochib beradi. Ushbu ikki holat orqali muallif nafaqat qahramonlarning nutqiy xususiyatlarini, balki ularning ijtimoiy-sotsial muhitdagi o‘rnini, ya’ni oddiy qishloq aholisi sifatidagi “chapani” va “omi” xarakterini aniq tasvirlaydi. Bu xususiyatlar, o‘z navbatida, qahramonlarning ta’lim darajasi pastligini, xorijiy tildan o‘zlashma so‘zlarga nisbatan yetarlicha tajribaga ega emasligini va ularning mahalliy dialektik muhitda shakllangan nutq odatlariga sodiqligini ko‘rsatadi.

Xulosa va takliflar. Sh.Boshbekovning dramatik asarlarida qahramonlarning nutqini individuallashtirish maqsadida o‘zlashma so‘zlarni o‘ziga xos stilistik usullar orqali qo‘llashga alohida e’tibor bergan bo‘lib, bu usullar nutqning sotsial xoslanishi va personajlarning ijtimoiy-madaniy muhitdagi o‘rnini aks ettirishda muhim rol o‘ynaydi. Muallif tomonidan qo‘llanilgan fonetik va leksik transformatsiyalar, xususan, o‘zlashma so‘zlarning noto‘g‘ri talaffuz qilinishi, qahramonlarning shaxsiy xususiyatlarini, ularning ta’lim darajasi, ijtimoiy kelib chiqishi va psixologik holatini yoritishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Ushbu uslubiy yondashuv nafaqat qahramonlarning nutqini tabiiy va hayotiy ko‘rinishda taqdim etadi, balki ularning sotsial identifikatorlarini aniqlash orqali asarning badiiy koloritini ta’minlaydi.

ADABIYOTLAR:

1. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. –Toshkent, 2007, 23-b.
2. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивлининг ифодаланиши. –Тошкент. 1987. 8-б.
3. Abdullayev A. O‘zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. – Toshkent.1998.

4. Yaxshiyeva G. O‘zbek tilida fonografik uslubiy vositalar. filol. fanlari nomzodi diss... avtoref. – Toshken: Fan, 1996.

5. Qilichev E. O‘zbek tilining amaliy stilistikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 160 b.

6. Karimov S. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari. – Samarqand, 1994. 57-b.

7. Sh.Boshbekov. Temir xotin. Komediya. www.ziyonet.com

UO‘K 81

TARJIMASHUNOSLIKDA EKVIVALENTLIK NAZARIYALARI VA LINGVOSTILISTIK EKVIVALENTLIK TUSHUNCHASI

Qosimova Zebiniso Sodiq qizi,
Buxoro davlat universiteti
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik yo‘nalishi doktoranti
qosimovazebi@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada tarjimashunoslikdagi ekvivalentlik tushunchasining shakllanishi va asosiy nazariy talqinlari qiyosiy-tahliliy jihatdan o‘rganiladi. Tadqiqotning maqsadi ekvivalentlik nazariyalarini tizimlashtirish hamda badiiy tarjimada lingvostilistik ekvivalentlikning mazmuni, tarkibiy komponentlari va mezonlarini belgilashdan iborat. Roman Yakobson, Eugene Nida, John Catford, Peter Newmark, Werner Koller, Juliane House va Mona Baker qarashlari tahlil qilindi. Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy, tavsifiy, kontekstual, komponent va lingvostilistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Natijada ekvivalentlikning formal, dinamik, funksional, semantik, pragmatik, konnotativ, matn-normativ va formal-estetik ko‘rinishlari tizimlashtirildi. Lingvostilistik ekvivalentlik asliyat va tarjimaning leksik-semantik, grammatik-sintaktik, stilistik-pragmatik, obrazli-ekspressiv va estetik-funksional xususiyatlari o‘rtasidagi kompleks muvofiqlik sifatida talqin qilindi. Uni aniqlash uchun leksik, semantik, grammatik, sintaktik, stilistik, pragmatik, obrazli va estetik mezonlar taklif etildi.*

Kalit so‘zlar: *tarjimashunoslik, ekvivalentlik, tarjima adekvatligi, formal ekvivalentlik, dinamik ekvivalentlik, funksional ekvivalentlik, semantik ekvivalentlik, pragmatik ekvivalentlik, lingvostilistik ekvivalentlik, konnotatsiya, ekspressivlik, badiiy tarjima.*

ТЕОРИИ ЭКВИВАЛЕНТНОСТИ В ПЕРЕВОДОВЕДЕНИИ И ПОНЯТИЕ ЛИНГВОСТИЛИСТИЧЕСКОЙ ЭКВИВАЛЕНТНОСТИ

Аннотация. *В статье исследуется понятие эквивалентности как ключевая проблема переводоведения, и рассматриваются его основные научные интерпретации. Цель исследования — систематизация теорий эквивалентности и определение содержания, компонентов и критериев лингвостилистической эквивалентности в художественном переводе. Анализируются концепции Романа Якобсона, Юджина Найды, Джона Кэтфорда, Питера Ньюмарка, Вернера Коллера, Джулианы Хаус и Моны Бейкер. Использованы сравнительно-аналитический, описательный, контекстуальный, компонентный и лингвостилистический методы. Лингвостилистическая эквивалентность рассматривается как комплексное соответствие лексико-семантических, грамматико-синтаксических, стилистико-прагматических, образно-экспрессивных и эстетико-функциональных характеристик исходного и переводного текстов.*

Ключевые слова: *переводоведение, эквивалентность, адекватность перевода, формальная эквивалентность, динамическая эквивалентность, функциональная эквивалентность, семантическая эквивалентность, прагматическая эквивалентность, лингвостилистическая эквивалентность, коннотация, экспрессивность, художественный перевод.*

THEORIES OF EQUIVALENCE IN TRANSLATION STUDIES AND THE CONCEPT OF LINGUOSTYLISTIC EQUIVALENCE

Abstract*. This article examines equivalence as a central issue in translation studies and focuses on its major scholarly interpretations. The aim is to systematize principal theories of equivalence and define the scope, components and criteria of linguistic-stylistic equivalence in literary translation. The approaches of Roman Jakobson, Eugene Nida, John Catford, Peter Newmark, Werner Koller, Juliane House and Mona Baker are comparatively analyzed. The study employs comparative-analytical, descriptive, contextual, componential and linguistic-stylistic methods. Linguistic-stylistic equivalence is defined as a complex correspondence between the lexical-semantic, grammatical-syntactic, stylistic-pragmatic, figurative-expressive and aesthetic-functional characteristics of source and target texts.*

Keywords: *translation studies, equivalence, translation adequacy, formal equivalence, dynamic equivalence, functional equivalence, semantic equivalence, pragmatic equivalence, linguistic-stylistic equivalence, connotation, expressiveness, literary translation.*

Kirish. Tarjima turli tillarda so‘zlashuvchi xalqlar o‘rtasidagi lingvistik va madaniy aloqani ta’minlovchi kommunikativ jarayondir. Unda mazmun bilan birga kommunikativ maqsad, uslub, ekspressivlik, obrazlilik va estetik ta’sir ham qayta yaratiladi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, badiiy tarjimada ekvivalentlikni faqat mazmunning to‘g‘ri berilishi bilan izohlash yetarli emas. Ayniqsa zamonaviy badiiy nasrda muallifning individual uslubi, sintaktik qurilish, leksik tanlov, konnotativ ma’no, metaforik obrazlilik, takror, ritm va boshqa stilistik vositalarning qayta yaratilishi muhimdir.

Tadqiqotning maqsadi tarjimashunoslikda shakllangan ekvivalentlik nazariyalarini tizimlashtirish hamda lingvostilistik ekvivalentlikning mazmuni, tarkibiy komponentlari va uni aniqlash mezonlarini belgilashdan iborat. Buning uchun ekvivalentlikning shakllanish bosqichlari va asosiy nazariyalari qiyosiy tahlil qilinadi, ekvivalentlik va adekvatlik munosabati aniqlanadi hamda badiiy tarjimada lingvostilistik muvofiqlik mezonlari belgilanadi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Ekvivalentlik muammosi XX asr tarjimashunosligining asosiy nazariy masalalaridan biri sifatida shakllandi. Roman Yakobson tarjimani tillararo kommunikatsiya nuqtayi nazaridan ko‘rib, tarjimada mutlaq aynanlik mavjud bo‘lmasligini ta’kidlagan. Uning qarashlari keyingi tadqiqotchilar uchun tarjimada “aynanlik” emas, balki turli darajadagi muvofiqlikni izlash zarurligini ko‘rsatdi.

Yevgeniy Nida tarjima nazariyasida ekvivalentlik masalasini yangi bosqichga olib chiqdi. U dastlab formal equivalence va dynamic equivalence tushunchalarini farqladi. Formal ekvivalentlik manba matnning shakli va mazmuniga imkon qadar yaqin turishni nazarda tutsa, dinamik ekvivalentlik tarjima o‘quvchisining reaksiyasi va kommunikativ ta’sirini muhim mezon sifatida belgilaydi.

Nidaning yondashuvida tarjima jarayoni mexanik lingvistik almashtirish emas, balki mazmunni boshqa til va madaniyat tizimida qayta tashkil etish jarayonidir. Keyinchalik “dynamic equivalence” atamasi “functional equivalence” bilan bog‘landi. Bunda tarjima matni manba matnning kommunikativ funksiyasini maqsad tilida imkon qadar tabiiy tarzda bajarishi kerakligi ta’kidlanadi.

Jon Katford esa ekvivalentlikni ko‘proq lingvistik nuqtayi nazardan yoritib, tarjima jarayonida yuzaga keladigan translation shifts — tarjima siljishlarini tahlil qilishga e’tibor qaratdi. Mazkur yondashuv tarjima jarayonida manba va maqsad tillari o‘rtasidagi grammatik va leksik farqlar sababli shakliy o‘zgarishlarning tabiiy ekanligini ko‘rsatadi.

Piter Nyumark tarjimada semantic translation va communicative translation tushunchalarini ilgari surib, bir tomondan muallif ma’nosiga yaqinlikni, ikkinchi tomondan esa maqsad o‘quvchisiga kommunikativ ta’sirni ta’minlash masalasini ajratib ko‘rsatdi.

Demak, ekvivalentlik nazariyalari rivojlanishida bir necha muhim tendensiyani kuzatish mumkin: dastlabki formal muvofiqlikdan mazmuniy muvofiqlikka, undan kommunikativ va funksional muvofiqlikka, keyinchalik esa matnning pragmatik, stilistik va madaniy jihatlarini qamrab oluvchi kompleks yondashuvga

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy, tavsifiy, kontekstual, komponent, lingvostilistik va tarjimashunoslik tahlili metodlaridan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. “Lingvostilistik ekvivalentlik” asliyat va tarjima matnlaridagi lingvistik birliklar hamda ularning stilistik funksiyalari o‘rtasidagi kompleks muvofiqlikdir. Badiiy birliklar nominativ ma’nodan tashqari emotsional, ekspressiv, konnotativ, pragmatik va estetik vazifalarni bajaradi. Shuning uchun shakliy aynanlikdan ko‘ra stilistik funksiyaning saqlanishi muhimdir.

Lingvostilistik ekvivalentlik modeli: leksik-semantik + grammatik-sintaktik + stilistik-pragmatik + obrazli-ekspressiv + estetik-funksional muvofiqlik.

Asliyatdagi birlikning lug‘aviy, kontekstual va zarur hollarda konnotativ komponentlari tarjimada qayta yaratiladi. Badiiy matnda kontekst so‘z ma’nosiga qo‘shimcha semantik qatlam berishi mumkin; shu sababli lug‘aviy, kontekstual, konnotativ va emotsional-ekspressiv ma’nolar birgalikda hisobga olinadi.

Bu asliyatning grammatik munosabatlari va sintaktik qurilishlarining tarjimada funksional qayta yaratilishini anglatadi. So‘z tartibi, gap uzunligi, parataksis va gipotaksis, ellipsis, takror, ajratilgan bo‘laklar va inversiya kabi vositalar muhimdir. Grammatik shaklni aynan saqlash har doim mumkin bo‘lmagani uchun asosiy mezon uning stilistik funksiyasining saqlanishidir.

Mazkur komponent matnning kommunikativ maqsadi va uslubiy yo‘nalishining tarjimada qayta yaratilishini nazarda tutadi. Kinoya, istehzo, norozilik, hayrat, qo‘rquv yoki hazil faqat denotativ ma’no bilan

berilsa, kommunikativ ta’sir zaiflashishi mumkin. Shuning uchun tarjima “nima deyilgan?” bilan birga “qanday aytilgan?” va “nima maqsadda aytilgan?” savollariga ham javob berishi kerak.

Metafora, metonimiya, o‘xshatish, epitet, personifikatsiya, takror va parallelizm muallif individual uslubining muhim vositalaridir. Ular to‘liq saqlanishi, qisman transformatsiya qilinishi yoki maqsad tilidagi funksional analog bilan almashtirilishi mumkin. Bunda asosiy mezon obrazning formal shakli emas, uning badiiy-stilistik funksiyasidir.

Bu asliyatning badiiy shakli, ritmi, ekspressivligi, obrazliligi va umumiy estetik ta’sirining tarjimada qayta yaratilishini anglatadi. Ayniqsa badiiy nasrda mazkur komponent tarjima matnining o‘quvchiga asliyatga yaqin badiiy taassurot berish imkoniyatini belgilaydi.

Ekvivalentlik asliyat va tarjima o‘rtasidagi muvofiqlikni, adekvatlik esa tarjimaning kommunikativ vazifani bajarish darajasini ifodalaydi. Lingvostilistik ekvivalentlik badiiy adekvatlikning muhim tarkibiy qismidir.

1-jadval. Lingvostilistik ekvivalentlikni aniqlash mezonlari

№	Daraja	Tahlil obyekti	Asosiy mezon
1.	Leksik	So‘z va frazeologizmlar	Semantik va konnotativ muvofiqlik
2.	Semantik	Kontekstual ma’no	Mazmunning to‘g‘ri qayta yaratilishi
3.	Grammatik	Morfologik shakllar	Grammatik munosabatlarning saqlanishi
4.	Sintaktik	Gap qurilishi	Sintaktik va stilistik funksiyaning saqlanishi
5.	Stilistik	Uslubiy birliklar	Uslubiy bo‘yoq va registrning muvofiqligi
6.	Pragmatik	Kommunikativ maqsad	O‘quvchiga ta’sirning muvofiqligi
7.	Obrazli	Metafora, epitet, o‘xshatish	Obrazlilik va ekspressivlikning saqlanishi
8.	Estetik	Matnning badiiy shakli	Asarning estetik funksiyasini qayta yaratish

Mazkur mezonlar tarjima matnini qaysi daraja va komponent bo‘yicha ekvivalent ekanini aniqlashga imkon beradi hamda tahlilning izchilligi va obyektivligini oshiradi.

Tarjimashunoslikda “ekvivalentlik” va “adekvatlik” tushunchalari bir-biriga yaqin bo‘lsa-da, ular aynan bir xil hodisani anglatmaydi. Ekvivalentlik asliyat va tarjima o‘rtasidagi muayyan darajadagi muvofiqlikni ifodalasa, adekvatlik tarjimaning konkret kommunikativ vazifani bajarish darajasi bilan bog‘liq. Badiiy tarjimada lingvostilistik ekvivalentlik adekvatlikning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki mazmunni to‘g‘ri yetkazishning o‘zi tarjimaning badiiy funksiyasini to‘liq ta’minlamaydi. Masalan, asliyatda muallif ataylab sodda, qisqa, fragmentar gaplardan foydalangan bo‘lsa, tarjimada barcha gaplarni grammatik jihatdan mukammal, uzun va neytral konstruksiyalarga aylantirish mazmunni saqlashi mumkin, biroq muallif uslubining muhim belgisi yo‘qoladi. Shu jihatdan: semantik ekvivalentlik → mazmunni saqlaydi; pragmatik ekvivalentlik → kommunikativ maqsadni saqlaydi; lingvostilistik ekvivalentlik → mazmun + ifoda usuli + ekspressivlik + stilistik funksiya + estetik ta’sirning kompleks muvofiqligini ta’minlaydi.

Muhokama. Natijalar Nidaning kommunikativ ta’sir, Catfordning transformatsiya va Kollerning konnotativ hamda formal-estetik jihatlarga oid qarashlari bilan mushtarak. Taklif etilgan model ularni leksik, grammatik, stilistik, obrazli va estetik komponentlarda birlashtiradi.

Grammatik-sintaktik ekvivalentlik asliyatning grammatik munosabatlari va sintaktik qurilishlarining tarjimada funksional jihatdan qayta yaratilishini anglatadi. Bu darajada so‘z tartibi, gap uzunligi, parataksis va gipotaksis, ellipsis, takroriy konstruksiyalar, ajratilgan bo‘laklar, inversiya va boshqa sintaktik vositalar muhimdir. Badiiy tarjimada grammatik shaklni aynan saqlash har doim ham mumkin emas. Shuning uchun asosiy mezon shakliy aynanlik emas, balki uning stilistik funksiyasining saqlanishi bo‘lishi kerak.

Stilistik-pragmatik ekvivalentlik matnning kommunikativ maqsadi va uslubiy yo‘nalishining tarjimada qayta yaratilishini nazarda tutadi. Masalan, kinoya, istehzo, norozilik, hayrat, qo‘rquv yoki hazil ifodalovchi birliklar tarjimada faqat denotativ ma’nosi bilan berilsa, kommunikativ ta’sir zaiflashishi mumkin. Demak,

stilistik-pragmatik ekvivalentlik: “nima deyilgan?” savolidan tashqari, “qanday aytilgan?” va “nima maqsadda aytilgan?” savollariga ham javob beradi.

Badiiy matnning muhim belgilaridan biri obrazlilikdir. Metafora, metonimiya, o‘xshatish, epitet, personifikatsiya, takror, parallelizm va boshqa vositalar muallifning individual uslubini shakllantirishda ishtirok etadi.

Xulosa. Tadqiqot natijasida lingvostilistik ekvivalentlik asliyat va tarjimaning leksik-semantik, grammatik-sintaktik, stilistik-pragmatik, obrazli-ekspressiv va estetik-funksional xususiyatlari o‘rtasidagi kompleks muvofiqlik sifatida belgilandi.

Taklif etilgan mezonlar ekvivalentlikning saqlangan yoki transformatsiyalangan komponentlarini aniqlash imkonini beradi. Ushbu yondashuv zamonaviy nemis adabiyotining o‘zbekcha tarjimalarini lingvostilistik tadqiq etishda nazariy-metodologik asos bo‘la oladi.

Lingvostilistik ekvivalentlikning asosiy xususiyati shundan iboratki, u tarjimada faqat “nima aytilgani”ni emas, balki “qanday aytilgani” va “qanday badiiy-kommunikativ ta’sirga ega ekanligi”ni ham hisobga oladi.

Shu bois badiiy tarjimani baholashda ekvivalentlikning faqat semantik darajasiga tayanish yetarli emas. Muallif individual uslubining, ekspressiv vositalarning, konnotativ ma’nolarning, sintaktik qurilishning, obrazlilikning va estetik funksiyaning qayta yaratilishi ham alohida mezon sifatida qaralishi lozim.

Mazkur yondashuv zamonaviy nemis adabiyotining o‘zbek tiliga tarjimasini lingvostilistik jihatdan tadqiq etishda metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Xususan, nemis va o‘zbek tillari kabi tipologik jihatdan farqli tillar o‘rtasidagi badiiy tarjimalarda formal muvofiqlikning cheklanganligi sababli funksional va lingvostilistik muvofiqlik masalalarini kompleks tahlil qilish alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, lingvostilistik ekvivalentlikni tarjima sifatining mustaqil va kompleks mezoni sifatida ko‘rib chiqish badiiy tarjima tahlilining nazariy-metodologik imkoniyatlarini kengaytiradi.

ADABIYOTLAR:

1. Baker, M. In Other Words: A Coursebook on Translation. London: Routledge, 1992.

2. Bassnett, S. Translation Studies. London: Routledge, 2002.

3. Catford, J. C. A Linguistic Theory of Translation. London: Oxford University Press, 1965.

4. House, J. Translation Quality Assessment: Past and Present. London: Routledge, 2015.

5. Jakobson, R. On Linguistic Aspects of Translation // Selected Writings II: Word and Language. The Hague: Mouton, 1971. P. 260–266.

6. Koller, W. Einführung in die Übersetzungswissenschaft. Heidelberg: Quelle & Meyer, 1983.

7. Newmark, P. A Textbook of Translation. New York: Prentice Hall, 1988.

8. Nida, E. A. Toward a Science of Translating. Leiden: E. J. Brill, 1964.

9. Nida, E. A., Taber, C. R. The Theory and Practice of Translation. Leiden: E. J. Brill, 1969.

10. Munday, J. Introducing Translation Studies: Theories and Applications. London: Routledge, 2016.

11. Panou, D. Equivalence in Translation Theories: A Critical Evaluation // Theory and Practice in Language Studies. 2013. Vol. 3. No. 1. P. 1–6. DOI: 10.4304/tpls.3.1.1-6.

12. Halverson, S. L. The Concept of Equivalence in Translation Studies: Much Ado about something // target. 1997. Vol. 9. No. 2. P. 207–233.

13. Li, Y. A Comparative Study of Nida’s and Koller’s Translation Theories // Advances in Applied Sociology. 2026. Vol. 16. No. 2. P. 65–73. DOI: 10.4236/aasoci.2026.162005.

UO‘K 81'27 / 81'42

RAQAMLI TA’LIM DISKURSINING KONSEPTUAL-NAZARIY ASOSLARI: AN’ANAVIY VA VIRTUAL TA’LIMIY MULOQOTNING FARQLI JIHATLARI

G‘aniyeva Dilafruz Xasanboy qizi,
Farg‘ona davlat universiteti
Ingliz tilini o‘qitish metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dilyaganieva17@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada raqamli ta’lim diskursining konseptual-nazariy xususiyatlari an’anaviy pedagogik muloqot bilan qiyosiy tahlil qilinadi. O‘zbek va ingliz tillaridagi ta’limiy muloqotga xos murojaat shakllari, nutqiy strategiyalar va raqamli vositalardan foydalanish imkoniyatlari kognitiv-pragmatik hamda lingvokulturologik yondashuvlar doirasida yoritiladi. Asinxronlik, gipermatnlilik, multimodallik, pragmatik masofa va raqamli xushmuomalalik asosiy tahlil mezonlari sifatida olinadi. Nazariy manbalar va kundalik ta’lim platformalarida uchraydigan tipik kommunikativ vaziyatlar asosida raqamli muhit muloqot shaklini o‘zgartirishi, biroq madaniy me’yorlarni avtomatik ravishda yo‘qotmasligi asoslanadi. Maqola yakunida ta’limiy kommunikatsiyani madaniy jihatdan sezgir tashkil etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar beriladi.*

Kalit so‘zlar: *raqamli ta’lim diskursi, virtual muloqot, kognitiv-pragmatik yondashuv, lingvokulturologiya, multimodallik, gipermatnlilik, raqamli xushmuomalalik, pragmatik masofa.*

CONCEPTUAL AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF DIGITAL EDUCATIONAL DISCOURSE: DISTINCTIVE FEATURES OF TRADITIONAL AND VIRTUAL EDUCATIONAL COMMUNICATION

Abstract. *This article examines the conceptual and theoretical features of digital educational discourse by comparing it with traditional pedagogical communication. Drawing on cognitive-pragmatic and linguocultural perspectives, it discusses forms of address, communicative strategies, and the use of digital resources in Uzbek- and English-language educational settings. Asynchrony, hypertextuality, multimodality, pragmatic distance, and digital politeness are used as key analytical dimensions. The discussion combines established theoretical perspectives with typical examples of communication on learning platforms. It argues that digital environments reshape how educational messages are produced and interpreted, but do not automatically erase cultural expectations. The article concludes with practical recommendations for culturally responsive educational communication.*

Keywords: *digital educational discourse, virtual communication, cognitive-pragmatic approach, linguoculturology, multimodality, hypertextuality, digital politeness, pragmatic distance.*

КОНЦЕПТУАЛЬНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЦИФРОВОГО ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ДИСКУРСА: ОТЛИЧИТЕЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ТРАДИЦИОННОГО И ВИРТУАЛЬНОГО ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ОБЩЕНИЯ

Аннотация. *В статье проводится сравнительный анализ концептуально-теоретических особенностей цифрового образовательного дискурса и традиционной педагогической коммуникации. Формы обращения, речевые стратегии и возможности использования цифровых средств, характерные для образовательного общения на узбекском и английском языках, рассматриваются в рамках когнитивно-прагматического и лингвокультурологического подходов. В качестве основных критериев анализа выделяются асинхронность, гипертекстуальность, мультимодальность, прагматическая дистанция и цифровая вежливость. На основе теоретических источников и типичных коммуникативных ситуаций, встречающихся на современных образовательных платформах, обосновывается положение о том, что цифровая среда трансформирует формы коммуникации, однако не приводит к автоматическому исчезновению культурных норм. В заключение предлагаются практические рекомендации по организации образовательной коммуникации с учётом культурных особенностей её участников.*

Ключевые слова: *цифровой образовательный дискурс, виртуальная коммуникация, когнитивно-прагматический подход, лингвокультурология, мультимодальность, гипертекстуальность, цифровая вежливость, прагматическая дистанция.*

Kirish. Raqamli ta’lim diskursini o‘rganishda diskurs nazariyasi, pragmalingvistika va multimodallik bo‘yicha tadqiqotlar muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Fairclough diskursni tilning ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘liq amaliyoti sifatida talqin qiladi [2]. Van Dijk esa matn mazmunini anglashda kommunikativ vaziyat va ishtirokchilarning kognitiv konteksti muhimligini ta’kidlaydi [10]. Ushbu qarashlar ta’limiy xabarni faqat grammatik tuzilma sifatida emas, balki muayyan maqsad, ijtimoiy rol va vaziyat doirasida yuzaga keladigan muloqot birligi sifatida tahlil qilish imkonini beradi.

Raqamli muhitdagi xabarlar ko‘pincha matn, tasvir, audio, video va interaktiv elementlarning uyg‘unligidan tashkil topadi. Kress multimodallikni turli semiotik resurslar orqali ma’no yaratish jarayoni sifatida izohlaydi [6]. Bu yondashuv onlayn ta’lim materiallarida vizual ko‘rsatmalar, havolalar va audioyozuvlarning vazifasini tushuntirishga yordam beradi. Karasikning institutsional diskursga oid qarashlari esa ta’limiy muloqotdagi rollar, maqsadlar va me’yorlarni tahlil qilish uchun asos yaratadi [4]. Demak, raqamli ta’lim diskursi pedagogik, texnologik va multimodal omillar kesishgan nuqtada shakllanadi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Muloqotning madaniy-pragmatik tomonini yoritishda Brown va Levinsonning xushmuomalalik nazariyasi [1], Hofstedening madaniy o‘lchamlar modeli [3], shuningdek, Mahmudovning til va madaniyat munosabatlariga doir qarashlari [8] ahamiyatlidir. Safarovning pragmalingvistik yondashuvi ham nutqiy birliklarni kommunikativ maqsad va vaziyat bilan bog‘liq holda talqin qilishga imkon beradi [9]. D.G‘aniyevaning ta’lim jarayoni ishtirokchilariga oid leksik-semantik tadqiqoti [5] hamda ta’limdagi baholash tizimiga bag‘ishlangan qiyosiy ishi [7] mavzuning o‘zbek va ingliz tillari doirasidagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Biroq mazkur manbalar turli nazariy jihatlarni yoritgan bo‘lsa-da, raqamli ta’limiy muloqotda multimodallik, pragmatik masofa va madaniy me’yorlarni yagona qiyosiy doirada ko‘rib chiqish zarurati saqlanib qoladi. Ushbu maqola ana shu jihatlarni nazariy-tahliliy yondashuv asosida birlashtirishga qaratildi.

Metodologiya.Maqola nazariy-tahliliy xarakterga ega bo‘lib, unda diskurs tahlili, qiyosiy-chog‘ishtirma tahlil va pragmatik talqin usullaridan foydalanildi. Tahlil uchun Karasikning institutsional diskurs haqidagi qarashlari, van Deykning diskurs va kontekst munosabatiga doir yondashuvi, Kressning multimodallik nazariyasi, Hofstedening madaniy o‘lchamlar modeli hamda Brown va Levinsonning xushmuomalalik nazariyasi asosiy nazariy manba sifatida olindi.

Taqqoslash quyidagi beshta mezon asosida tashkil etildi: 1) muloqotning vaqt va makon bilan bog‘liqligi; 2) matn va xabarlarning tuzilishi; 3) ma’no hosil qilishda verbal va noverbal resurslarning ishtiroki; 4) o‘qituvchi-talaba o‘rtasidagi pragmatik masofa; 5) murojaat, ko‘rsatma va fikr bildirish usullari. O‘zbek va ingliz tillarida uchrashi mumkin bo‘lgan “Ustoz, topshiriqni qayta tushuntirib bera olasizmi?” va “Could you clarify the task, please?” kabi namunalar illyustrativ misol sifatida ishlatilib, empirik korpusdan olingan natijalarni emas, nazariy farqlarni tushuntirish uchun keltirilgan tipik kommunikativ shakllar ekanligi tahlil qilindi.

Natijalar va muhokama.

Raqamli ta’lim diskursining nazariy mohiyati. Karasik institutsional diskursni muayyan ijtimoiy rollar, maqsadlar va qoidalar doirasida yuzaga keladigan muloqot sifatida izohlaydi. Ta’lim jarayonida bu rollar, avvalo, o‘qituvchi va talaba munosabatida aks etadi. O‘qituvchi bilim jarayonini tashkil etadi, yo‘naltiradi va baholaydi, talaba esa o‘rganish faoliyatini amalga oshiradi. Raqamli muhitda ushbu institutsional maqsadlar saqlanib qoladi, ammo ularni ifodalash vositalari kengayadi.

Raqamli ta’lim diskursi o‘zida uch qatlamni birlashtiradi. Birinchisi – pedagogik qatlam: tushuntirish, topshiriq berish, baholash va fikr-mulohaza bildirish. Ikkinchisi – kompyuter vositasidagi muloqot: platforma, chat, forum va videokonferensiya orqali xabar almashish. Uchinchisi –multimodal qatlam: yozuv, ovoz, tasvir, jadval, havola va boshqa belgilar orqali ma’no yaratish. Ushbu qatlamlar bir-biridan ajralgan holda emas, ko‘pincha birgalikda faol ishlaydi.

Van Deykning diskurs va kognitiv kontekst haqidagi qarashlari xabarni tushunishda nafaqat so‘zlarning o‘zi, balki ishtirokchilarning vaziyat haqidagi bilimlari, ya’ni kontekst ham muhimligini ko‘rsatadi. Raqamli darsda kontekstning ayrim qismlari ekranda ko‘rinmay qolishi mumkin. Masalan, “Buni ertaga topshiring” jumlasida topshiriqning nomi, topshirish vaqti va fayl formati aniq ko‘rsatilmasa, turli talqinlar, tushunmovchiliklar paydo bo‘lishi ehtimoli ortadi. Demak, virtual muhitda aniqlik va kontekstni ochiq ifodalash alohida ahamiyatga ega.

Sinxronlik, asinxronlik va gipermatnlilik. An’anaviy auditoriya mashg‘ulotida muloqot, odatda, bir vaqt va bir makonda amalga oshadi. Ishtirokchilar savolga darhol javob berishi, tushunmagan joyini aniqlashtirishi yoki suhbatdoshining ohangini kuzatishi mumkin. Raqamli ta’lim esa sinxron va asinxron rejimlarni birlashtiradi. Videodars real vaqt muloqotiga yaqin bo‘lsa, forumdagi izoh, LMS topshirig‘i yoki Telegram xabari javobni kechiktirib yuborishga imkon beradi.

Asinxronlikning afzalligi – xabarni o‘ylab tuzish, tahrirlash va kerakli manbalarni tekshirish imkoniyatidir. Biroq u javobning kechikishi, ohangni noto‘g‘ri talqin qilish yoki vazifa bo‘yicha qo‘shimcha savollar yig‘ilib qolishiga ham sabab bo‘ladi. Shu bois o‘qituvchi xabarda muddat, bajarish tartibi va savol berish uchun havolani aniq ko‘rsatishi maqsadga muvofiq.

Gipermatnlilik esa ta’limiy materialning chiziqli ketma-ketlikdan tarmoqlangan tuzilishga o‘tishini anglatadi. Talaba matndan video, lug‘at, test yoki qo‘shimcha manbaga o‘tishi mumkin. Bu mustaqil o‘rganishni qo‘llab-quvvatlaydi, biroq havolalar haddan tashqari ko‘p bo‘lsa, asosiy vazifadan chalg‘ish ehtimoli paydo bo‘ladi. Shuning uchun raqamli materialda havolalar maqsadga muvofiq tanlanishi, ularning vazifasi qisqacha izohlanishi kerak.

Multimodallik va ma’no yaratish. Kress multimodallikni ma’no yaratishda turli semiotik resurslarning hamkorligi sifatida talqin qiladi. Raqamli ta’limda yozma matn bilan bir qatorda rasm, audio, video, rang, shrift, jadval, emoji va interfeys belgilaridan foydalaniladi. Masalan, grammatik qoidani qisqa izoh, rang bilan ajratilgan misol va audio talaffuz bilan berish turli o‘rganish ehtiyojlarini qo‘llab-quvvatlashi mumkin.

Shu bilan birga, multimodal vositalar o‘z-o‘zidan samarali ta’limni to‘liq kafolatlay olmaydi. Bevosita o‘quv maqsadiga xizmat qilmaydigan bezaklar yoki haddan tashqari ko‘p emoji matnning jiddiyligi va aniqligini kamaytirishi mumkin. Muhim jihat — har bir vositaning vazifasi bo‘lishi: rasm tushunchani ochishi, audio talaffuzni namoyish etishi, jadval esa farqlarni ko‘rsatishi lozim.

Yuzma-yuz muloqotda mimika, imo-ishora va ovoz ohangi ko‘pincha tabiiy ravishda idrok qilinadi. Matnli onlayn muloqotda bu belgilar cheklanganligi sababli foydalanuvchilar emoji yoki tinish belgilaridan qo‘shimcha pragmatik signal sifatida foydalanishlari mumkin. Biroq bu belgilar talqinida avlod, platforma va madaniyatga bog‘liq farqlar bo‘lishi mumkinligi sabab emojini barcha auditoriyalar bir xil tushunadi, deb hisoblash noto‘g‘ridir.

Pragmatik masofa va raqamli xushmuomalalik. Hofstedening Power Distance tushunchasi jamiyatda hokimiyat va maqom o‘rtasidagi masofa qanday qabul qilinishini tahlil qilishga yordam beradi. Biroq bu modelni har bir o‘zbek yoki ingliz tilida so‘zlashuvchining xulqini oldindan belgilaydigan qat’iy mezon sifatida qo‘llash imkonsizdir. Muloqot uslubiga madaniy me’yorlar bilan birga shaxsiy tajriba, ta’lim muassasasi, yosh, vaziyat va platforma kabi tashqi omillar ham ta’sir ko‘rsatadi.

Raqamli muhitda o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi rasmiy masofa ayrim hollarda yumshashi mumkin. Masalan, talaba elektron platformada savolni dars tugashini kutmasdan yuboradi, o‘qituvchi esa qisqa izoh yoki havola bilan javob beradi. Lekin bu holat institutsional rollar yo‘qolganini anglatmaydi: baholash, akademik mas’uliyat va topshiriq talablari saqlanib qoladi.

Brown va Levinsonning xushmuomalalik nazariyasi nuqtayi nazaridan, so‘rov yoki ko‘rsatmaning shakli suhbatdoshning ijtimoiy mavqeiga va vaziyatga moslashadi. Masalan, “Submit the assignment today” to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatma bo‘lsa, “Please submit the assignment by 5 p.m. today” aniq muddatni saqlagan holda muloyimroq shakl va ohangni yaratadi. O‘zbek tilidagi “Iltimos, topshiriqni bugun soat 17:00 gacha yuboring” jumlasi ham talabni aniq ifodalaydi va hurmat markerini o‘z ichiga oladi.

O‘zbek tilidagi “ustoz”, “siz” kabi murojaat birliklari ko‘pincha hurmatni ochiq ifodalaydi. Ingliz tilida esa “Professor”, “Dr” yoki ism bilan murojaat qilish tanlovi ta’lim muassasasi va vaziyatga qarab farq qiladi. Shuning uchun, raqamli ta’limda samarali yondashuv – bir madaniyatdagi murojaat shaklini ikkinchisiga aynan ko‘chirish emas, balki xabarni kimga, nima maqsadda va qaysi kanal orqali yuborilayotganini hisobga olishdir.

1-jadval. Raqamli ta’lim diskursining qiyosiy ko‘rsatkichlari

Mezon	An’anaviy muloqot	Raqamli muloqot
Vaqt va makon	Ko‘pincha bir joyda va real vaqtda	Sinxron yoki asinxron; turli joylardan
Xabar tuzilishi	Dars jarayoniga bog‘langan ketma-ketlik	Modulli, havolali va tarmoqlangan
Ma’no resurslari	Nutq, mimika, imo-ishora, doska	Matn, audio, video, rasm, emoji, havola
Murojaat va etiket	Vaziyatga mos og‘zaki rasmiylik	Yozma rasmiylik va platformaga xos qisqalik
Fikr-mulohaza	Darhol og‘zaki javob olish mumkin	Javob tezligi platforma va jadvalga bog‘liq

Jadvaldan ko‘rinadiki, raqamli muloqot an’anaviy ta’limdagi barcha xususiyatlarni bekor qilmaydi, balki ularni boshqa sharoitga moslashtiradi. Masalan, o‘qituvchining yo‘naltiruvchi roli saqlanadi, lekin ko‘rsatma matn, video yo‘riqnoma yoki avtomatik eslatma orqali berilishi mumkin. Shu ma’noda, raqamli ta’lim diskursiga uzilish emas, balki pedagogik muloqotning vositalari va talqin sharoitlaridagi o‘zgarish sifatida qarash lozim.

Yangi vositalar: geymifikatsiya va sun’iy intellect. So‘nggi yillarda nutqimizga raqamli o‘quv muhiti ta’sirida quiz, badge, streak, leaderboard va level up kabi birliklar kirib keldi. Ular topshiriqni o‘yin elementlari bilan bog‘lab, o‘quvchining ishtirokini rag‘batlantiradi. Biroq rag‘batlantirish vositasi o‘quv maqsadining o‘rnini bosmasligi holati ham uchraydi. Masalan, agar reyting faqat tezlikni mukofotlasa, chuqur fikrlash va xatolar ustida ishlash ikkinchi o‘ringa tushib qoladi.

Sun’iy intellektga asoslangan dasturlar ham ta’limiy diskurs ishtirokchilarining tarkibini o‘zgartirishga sabab bo‘lmoqda. Talaba izoh, tarjima, misol yoki yozma ish bo‘yicha fikr olish uchun foydalanishi mumkin. Natijada o‘qituvchi – talaba muloqotiga texnologik vositachi qo‘shiladi. Shunga qaramay, AI javoblari doimo to‘g‘ri yoki madaniy jihatdan mos bo‘ladi, deb bo‘lmaydi. Ta’limiy chatbotlarda tushunarli til, hurmatli ohang, noaniqlikni tan olish va zarur hollarda o‘qituvchiga murojaat qilishni tavsiya etish muhim hisoblanadi.

Xulosa. Tahlil raqamli ta’lim diskursini an’anaviy pedagogik muloqotning oddiy elektron shakli sifatida emas, balki o‘ziga xos kommunikativ sharoitlarga ega bo‘lgan diskursiv muhit sifatida ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi. Uning muhim belgilari sinxron va asinxron muloqotning uyg‘unligi, gipermatnli tuzilma, multimodal resurslar hamda yozma xabarlar orqali pragmatik ma’noni yetkazish zaruratidir.

Birinchidan, raqamli platformalar vaqt va makon cheklovlarini yumshatadi, ammo aniq ko‘rsatma va o‘z vaqtida fikr-mulohaza berishga bo‘lgan ehtiyojni kamaytirmaydi. Ikkinchidan, matn, rasm, audio va video birgalikda ma’no yaratishi mumkin, lekin ularning har biri aniq o‘quv vazifasiga xizmat qilishi lozim. Uchinchidan, raqamli muhit o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi muloqotni norasmiylashtirishi mumkin, biroq akademik rollar va mas’uliyatni avtomatik ravishda yo‘qotmaydi.

O‘zbek va ingliz tillaridagi ta’limiy muloqot misollari hurmat va xushmuomalalikning ifodalanish shakllari farqlanishi mumkinligini ko‘rsatadi. Shu sababli raqamli ta’lim materiallari va chatbotlar ishlab chiqishda tilning o‘zi bilan cheklanmay, murojaat shakli, vaziyat, auditoriya va kommunikativ maqsad ham hisobga olinishi kerak.

ADABIYOTLAR:

1. Brown P., Levinson S. C. Politeness: Some universals in language usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – 345 p.

2. Fairclough N. Discourse and Social Change. – Cambridge: Polity Press, 1992. – 259 p.

3. Hofstede G. Dimensionalizing Cultures: The Hofstede Model in Context // Online Readings in Psychology and Culture. – 2011. – Vol. 2(1). – P. 1-26.

4. Карасик В.И. Языковой круг: личностъ, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. – 477 с.

5. Khasanovna, G. D. (2020). “Educational process participants” and its lexical-semantic analysis in the uzbek and english languages. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(9), 427-431.

6. Kress G. Multimodality: A social semiotic approach to contemporary communication. – London: Routledge, 2010. – 212 p.

7. Madaliyevna, I. S., & Khasanovna, G. D. (2021). Comparative study of “assessment system” in the semantic field of “education”. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(5), 969-973.

8. Mahmudov N. Til va madaniyat. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2017. – 320 b.

9. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2008. – 286 b.

10. Van Deyk T. A. Discourse and Context: A socio-cognitive approach. – Cambridge: Cambridge University Press, 2008. – 285 p.

UO‘K 81

JANUBI-SHARQIY ANDIJON SHEVALARI LEKSIKASINING AREAL TADQIQI: ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA O‘RGANILISH METODOLOGIYASI

Alimbekova Vaziraxon Xalimjon qizi,
Toshkent amaliy fanlar universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. *Ushbu ilmiy maqolada janubi-sharqiy Andijon hududi shevalari leksikasining areal tilshunoslik hamda lingvogeografiya tamoyillari asosida o‘rganilish tarixi, ilmiy-nazariy asoslari va mavjud tadqiqotlardagi o‘rni har tomonlama tahlil qilinadi. Janubi-sharqiy Andijon shevalari o‘zbek dialektologiyasida dastlab qarluq-chigil-uyg‘ur va qipchoq lahjalari kontakti hududi sifatida qisman o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularning leksik sathi yaxlit monografik va arealogik tadqiqot obyekti sifatida tizimli yoritilmagan. Tadqiqotda K.K.Yudaxin, E.D.Polivanov, G‘ozi Olim Yunus, A.K.Borovkov, S.Ibrohimov, A.Mamatov va A.Jo‘rayev kabi yetuk tilshunos olimlarning tasniflari, konseptual qarashlari hamda lingvogeografik zonalashtirish prinsiplari umumlashtirilib, hudud leksikasini areal aspektda maxsus o‘rganishning nazariy va amaliy ahamiyati asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *areal lingvistika, lingvistik geografiya, janubi-sharqiy Andijon, o‘zbek shevalari, leksika, dialektal zona, izoglossa, qarluq-chigil, qipchoq lahjasi, etnotoponimika.*

AREAL STUDY OF THE VOCABULARY OF SOUTHEAST ANDIJAN DIALECTS: SCIENTIFIC-THEORETICAL FOUNDATIONS AND METHODOLOGY OF STUDY

Abstract. *This scientific article provides a comprehensive analysis of the history of research, theoretical foundations, and place in existing studies of the lexicon of the dialects of southeastern Andijan within the framework of areal linguistics and linguistic geography. Although the dialects of southeastern Andijan have been partially studied in Uzbek dialectology as a contact zone between the Karluk-Chigil-Uyghur and Kipchak dialect groups, their lexical level has not yet been systematically examined as an independent object of comprehensive monographic and areal research. The study synthesizes the classifications, conceptual perspectives, and principles of linguogeographical zoning proposed by prominent linguists, including K. K. Yudakhin, E. D. Polivanov, G‘ozi Olim Yunus, A. K. Borovkov, S. Ibrohimov, A. Mamatov, and A. Jo‘rayev. It substantiates the theoretical and practical significance of conducting a specialized areal study of the region’s lexicon.*

Keywords: *areal linguistics, linguistic geography, southeastern Andijan, Uzbek dialects, lexicon, dialectal zone, isogloss, Karluk-Chigil, Kipchak dialect, ethnotoponymy.*

АРЕАЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ЛЕКСИКИ ДИАЛЕКТОВ ЮГО-ВОСТОЧНОГО АНДИЖАНА: НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И МЕТОДОЛОГИЯ ИЗУЧЕНИЯ

Аннотация. *В данной научной статье всесторонне анализируются история изучения, теоретико-научные основы и место в существующих исследованиях лексики говоров юго-восточного Андижана с позиций ареальной лингвистики и лингвистической географии. Несмотря на то, что говоры юго-восточного Андижана в узбекской диалектологии частично изучались как контактная зона карлук-чигильско-уйгурских и кипчакских диалектов, их лексический уровень до настоящего времени не получил системного освещения в качестве самостоятельного объекта комплексного монографического и ареалогического исследования. В работе обобщаются классификации, концептуальные взгляды и принципы лингвогеографического районирования, предложенные такими выдающимися учёными-языковедами, как К. К. Юдахин, Е. Д. Поливанов, Гози Олим Юнус, А. К. Боровков, С. Ибрагимов, А. Маматов и А. Жураев. Обосновывается теоретическая и практическая значимость специального изучения лексики данного региона в ареальном аспекте.*

Ключевые слова: *ареальная лингвистика, лингвистическая география, юго-восточный Андижан, узбекские говоры, лексика, диалектная зона, изоглосса, карлук-чигильская группа, кипчакский диалект, этнотопонимика.*

Kirish. Har qanday xalqning tili uning ko‘p asrlik tarixiy taraqqiyoti, ijtimoiy-madaniy hayoti, etnik shakllanish jarayonlari va yashash tarzi bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi va rivojlanadi. Milliy tilning ajralmas va eng boy qatlamlaridan biri bo‘lgan shevalarni areallarga bo‘lib o‘rganish, ularning tarqalish chegaralarini aniqlash, bir-biriga yondosh hududlardagi lisoniy mushtaraklik va farqlanishlarni xaritalashtirish areal lingvistikaning hamda umumiy dialektologiyaning dolzarb vazifalaridan biridir. Shevalar nafaqat jonli xalq tilining rang-barangligini, balki adabiy tilda saqlanmagan qadimiy leksik qatlamlarni, arxaizm va tarixiy so‘zlarning genetik ildizlarini o‘zida asrab keluvchi bebaho ma’naviy manba hisoblanadi.

Farg‘ona vodiysi, xususan, Andijon viloyati qadimdan o‘zbek xalqining shakllanishida, turkiy qabila va urug‘larning o‘zaro lisoniy munosabatlarida eng faol hududlardan biri bo‘lib kelgan. Geografik joylashuvi, aholisining dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan bog‘liq turmush tarzi, urf-odatlari bir-biriga tutash bo‘lgan bu hududlarning kundalik muomala leksikasi ham o‘zaro chatishib ketgan. Biroq o‘zbek tilshunosligida hozirgi kunga qadar Farg‘ona vodiysi shevalari asosan umumiy tarzda yoki faqat yirik shaharlar kesimida tasnif qilingan bo‘lib, o‘ziga xos aralash xarakterga ega bo‘lgan janubi-sharqiy Andijon hududi leksikasi maxsus areal tadqiqot sifatida yetarlicha yoritilmay qolmoqda.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi — janubi-sharqiy Andijon shevalari leksikasining dialektologik tasniflardagi o‘rnini ko‘rsatib berish, ularning o‘rganilish darajasini tizimli tahlil qilish hamda ushbu areal leksikasining o‘ziga xos qatlamlarini lingvogeografik metodlar asosida o‘rganishning ilmiy zaruratini asoslashdan iborat.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Janubi-sharqiy Andijon shevalari va ularga yondosh areallarning o‘rganilish tarixini umumlashtirganda, mavjud ilmiy manbalarni ikkita yirik yo‘nalishga ajratish mumkin:

1. **Areal leksikasining bilvosita (fonetik-grammatik izlanishlar tarkibida) o‘rganilishi:** Ko‘plab tilshunos olimlar o‘z tadqiqotlarida asosiy e’tiborni fonetika va morfologiyaga qaratgan bo‘lsalar-da, nazariy qoidalarini jonli til faktlari orqali dalillash jarayonida hudud leksikasiga oid boy materiallarni keltirib o‘tganlar:

1945-yilda nemis sharqshunosi Stefan Vurm Andijon shevasi fonetikasini tadqiq qilib, o‘z ishida shevaga xos so‘zlarni kiritgan. S.Ibrohimov “Der ozbekische dialekt von Andidschan” haqida” nomli maqolasida Vurmning ushbu izlanishiga xolis munosabat bildirib, manbaning o‘ziga xosliklarini tahlil qilgan [9]. Professor S.Ibrohimov 1967-yilda “O‘zbek tilining Andijon shevasi” monografiyasini yaratib, unda fonetika va morfologiya bilan bir qatorda, hudud tarixi, aholining turmush tarzi, urf-odatlari va kasb-hunar leksikasini keng yoritdi [10, 11]. S.Otamirzayeva ta’kidlaganidek, ushbu asar muallifning 20 yildan ortiq davom etgan izlanishlari mahsuli bo‘lib, butun o‘zbek tilshunosligi uchun qimmatli manba bo‘lib xizmat qilmoqda [12].

S.Ibrohimovning tadqiqotlarini A.Mamatov mantiqiy davom ettirib, 1967-yilda “O‘zbek tilining Andijon shahar shevasi” mavzusida izlanish olib bordi va shahar leksikasiga oid jonli faktlarni ilova qildi [13]. Shuningdek, A.Turg‘unov Baliqchi guruhi shevalarining fonetik tizimini tadqiq etdi [14].

Chegaradosh hududlar leksikasini o‘rganishda I.Farmonov va H.Sharipovlarning xizmati beqiyosdir. I.Farmonov “O‘zbek tili O‘sh–O‘zgan dialektining ba’zi leksik xususiyatlari” nomli tadqiqotida Andijon viloyatining Xo‘jaobod, Shirmonbuloq, Buloqboshi tumanlari hamda Dilkushod, Manak qishloqlari leksikasidan misollar keltirgan (*mandalamoq, kirinmaq, uchqash, alïmsïnma, usqara*) [15, 16]. H.Sharipov esa chegaradosh areallardan *quymuch, chig‘anaq, ko‘kkiyidi, charabzal, chuli* kabi birliklarning semantik tahlilini bergan [17]. Mumtoz manbalar va Navoiy ijodi tili bilan ushbu hudud shevalarining mushtarakligini S.Ashirboyev va X.Doniyorovlar o‘z ishlarida qayd etganlar [18, 19].

2. **Andijon shevasi leksikasiga bevosita bag‘ishlangan tematik ishlar:** Andijon shevalari leksikasining ayrim leksik-semantik guruhlari maxsus tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilgan. Jumladan, A.Jo‘raboyev “O‘zbek tilida to‘y-marosim nomlari (Andijon guruh shevalari materiallari asosida)” dissertatsiyasida urf-odat va marosim leksikasini tahlil qilgan [21]. A.Mamatov “O‘zbek tili leksikologiyasidan materiallar” monografiyasida qarindosh-urug‘chilik leksikasini o‘rgangan bo‘lsa [22], A.Ergashev “Andijon viloyati etnotoponimlarining areal-onomastik tadqiqi” nomli asarida viloyat toponimikasidagi turkiy urug‘-qabila nomlarini areal jihatdan yoritgan [23].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotning metodologik poydevorini areal lingvistika, lingvistik geografiya hamda qiyosiy-tarixiy tahlil tamoyillari tashkil etadi.

- **Lingvogeografik tamoyil:** Akademik Sh.Shoabdurahmonov ta’kidlaganidek: *“Dialektal til territorial aspektda lingvistik geografiya metodi bilan o‘rganilganda territoriya birligi dialektning asosiy belgisi sifatida hisobga olinib, shu territoriyada joylashgan shevalarning umumiy va spetsifik xususiyatlari sintezi aniqlanadi, ular taraqqiyotining asosiy yo‘nalishi belgilanib, bu shevalarning keyingi qiyosiy-tarixiy tadqiqoti uchun material yaratiladi...”* [1].

- **Areal aspekt:** Professor A.Sobirov milliy tillarning har birini areal o‘rganish ular tizimiga xos bo‘lgan alohida belgilarni qayd etish, tillarning ichki rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash imkonini berishini ta’kidlaydi [3, 20]. Bugungi kunda faktik materiallarni tavsifiy bosqichdan izoglossalar chizish va xaritalashtirish bosqichiga olib chiqish zarurati metodologik asos sifatida belgilandi.
- **Tarixiy-etimologik va qiyosiy tahlil:** Shevalarni faqat tavsifiy emas, balki qadimiy turkiy qatlam va chegaradosh tillar bilan qiyoslash orqali nazariy muammolarni xolis hal qilish imkoni yaratiladi [4].
- **Zonalashtirish modeli:** Tadqiqotda A.B.Jo‘rayev tomonidan ishlab chiqilgan o‘zbek shevalarini 11 ta yirik dialektal zonaga ajratish konsepsiyasi hamda Janubi-sharqiy Farg‘ona dialektal zonasi nazariy modeli tayanch metodik mezon sifatida qo‘llanilgan [5, 6].

Olingan natijalar va ularning tahlili. Janubi-sharqiy Andijon shevalarining dialektologik tasniflardagi o‘rni va ularning o‘rganilish holati tahlil qilinganda quyidagi natijalar aniqlandi:

1. **Fundamental tasniflardagi o‘rni:**

K.K.Yudaxin tasnifi: Farg‘ona vodiysi o‘zbek shevalarini yaxlit hududiy tizim sifatida qarab, ularni Farg‘ona o‘zbek shevalari tarkibiga kiritadi va o‘troq turkiy shevalar bilan ko‘chmanchi qabila shevalarining chuqur integratsiyalashuvini ko‘rsatadi [2].

E.D.Polivanov tasnifi: Shevalarni singarmonizm va tovush xususiyatlariga ko‘ra tasniflab, mazkur hududni Chig‘atoy lahjasining 4-tip Andijon–Shahrixon shevalari guruhiga kiritgan (*“y”lovchilik ustuvorligi va qisman singarmonizm yo‘qolishi*) [2].

G‘ozi Olim Yunus tasnifi: Ilk milliy tasnifida (1935) bu hududni turk-barlos lahjasining Andijon tarmog‘i deb belgilab, Qo‘rg‘ontepa va Jalaquduq tumanlari shevalarining xususiyatlarini alohida qayd etadi [8].

A.K.Borovkov tasnifi: O‘rta o‘zbek dialektining o‘rta o‘zbek shevalari guruhini ajratib, Andijon shevalarini mazkur guruhning tayanch vakili sifatida ko‘rsatadi [2].

V.V.Reshetov va S.Ibrohimov yondashuvlari: V.V.Reshetov Andijon shevasi tarqalgan hududni dastlab Andijon va Shahrixon bilan chegaralagan bo‘lsa, S.Ibrohimov Asaka, O‘sh, O‘zgan, Jalolobod, Qo‘qonqishloq, Qorasuv, Qo‘rg‘ontepa, Poytug‘ kabi hududlar va ularning atrofidagi qishloqlar shevalarini yaxlit holda keng ma’noda **“Andijon dialekti”** deb atash ilmiy jihatdan to‘g‘riroq ekanini isbotladi [10, 11].

2. **Areal-lingvistik zonalashtirish natijasi:** A.Jo‘rayevning arealogik tasnifida janubi-sharqiy Andijon hududi Janubi-sharqiy Farg‘ona dialektal zonasining markaziy qismi sifatida ajratiladi [6]. Biroq olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, hududning fonetikasi va morfologiyasi fundamental monografiyalarda atroflicha o‘rganilgan bo‘lsa-da, janubi-sharqiy tumanlarning (Xo‘jaobod, Buloqboshi, Marhamat, Jalaquduq, Qo‘rg‘ontepa) leksik boyligi hali yaxlit holda izoglossalar asosida xaritalashtirilmagan.

Muhokama. Tadqiqot natijalari atoqli tilshunos A.G‘.G‘ulomovning *“Shevalar leksikasini o‘rganish boshqa qismlardan orqada qoldi”* [7] degan fikri hanuzgacha o‘z dolzarbligini yo‘qotmaganini ko‘rsatmoqda.

Janubi-sharqiy Andijon shevalari leksikasining hozirgi holati quyidagi munozarali va o‘ziga xos jihatlarni namoyon qiladi:

- **Leksik tadqiqning asimmetrikligi:** O‘tgan davr mobaynida yaratilgan tadqiqotlarda leksika mustaqil sath sifatida emas, balki asosan fonetik yoki grammatik hodisalarni dalillash vositasi bo‘lib xizmat qilgan. Faqat to‘y-marosim va etnotoponimika kabi ayrim tor leksik-semantik guruhlargina maxsus o‘rganilgan bo‘lib, kundalik turmush, dehqonchilik, chorvachilik va xalq hunarmandchiligi leksikasi yaxlit o‘rganishni talab etadi.
- **Lisoniy kontakt va aralashuv xarakteri:** Qarluq va qipchoq lahjalarining qadimiy qorishuvi, shuningdek, Qirg‘izistonning O‘sh va Jalolobod viloyatlari bilan bevosita chegaradoshlik bu hudud leksikasida o‘ziga xos qatlamlarni yuzaga keltirgan. Bu yerda adabiy tilda uchramaydigan arxaik turkiy ildizlar, regional variantlar va semantik o‘zgarishlar saqlanib qolgan.
- Shundan kelib chiqqan holda, hudud leksikasini an’anaviy tavsiflash usulidan zamonaviy raqamli kartografiya (GIS texnologiyalari) va izoglossalar chizish usuliga o‘tkazish zarurati yuzaga kelmoqda.

Xulosa. Janubi-sharqiy Andijon shevalari leksikasining o‘rganilish tarixini umumlashtirish va uni areal lingvistika prinsiplari asosida tahlil qilish quyidagi ilmiy xulosalarga olib keladi:

1. Dialektal maqomi: Janubi-sharqiy Andijon shevalari K.K.Yudaxin, E.D.Polivanov, G‘ozi Olim Yunus, A.K.Borovkov, S.Ibrohimov kabi olimlarning ilmiy tasniflarida turlicha nomlangan bo‘lsa-da, ularning barchasida ushbu hudud Farg‘ona vodiysi o‘zbek tili taraqqiyotining o‘ziga xos markazlaridan biri sifatida baholangan. Zamonaviy arealogik tasnifda esa u Janubi-sharqiy Farg‘ona dialektal zonasining uzviy qismi sanaladi.

2. Leksik tadqiqning asimmetrikligi: O‘tgan davr mobaynida yaratilgan asosiy tadqiqotlar fonetika va morfologiyaga bag‘ishlangan bo‘lib, ularda leksik birliklar mustaqil tahlil obyekti sifatida emas, balki

grammatik yoki fonetik hodisalarni tasdiqlovchi dalil sifatida keltirilgan. Faqat to‘y-marosim va etnotoponimika kabi ayrim tor tematik guruhlargina qisman o‘rganilgan.

3. Lisoniy aralashuv va boy qatlam: Hududda qadimdan qarluq va qipchoq lahjalari vakillarining birga yashashi, shuningdek, Qirg‘izistonning chegaradosh viloyatlari bilan uzoq asrlik aloqalar oqibatida bu yerda adabiy tilda uchramaydigan shevaga xos so‘zlar, qadimiy turkiy ildizlar, tarixiy so‘zlar va leksik variantlar saqlanib qolgan.

4. Kelgusi vazifalar: Janubi-sharqiy Andijon areali leksikasini areal lingvistika, lingvistik geografiya va zamonaviy raqamli kartografiya (GIS) vositalari yordamida monografik tarzda tadqiq qilish — o‘zbek tilshunosligidagi bo‘shliqni to‘ldirish, shevalarning izoglossalarini chizish hamda kelgusida yaratiladigan mukammal “O‘zbek tili dialektologik atlasi” uchun mustahkam manba bazasini yaratishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR:

1. Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек тилининг диалектологик атласи // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1969. – № 3. – Б. 33–38.

2. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – B. 112.

3. Sobirov A. Andijon dialektal zonasi bo‘yicha ba’zi bir mulohazalar // O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: amaliyot, metodologiya va yangicha yondashuv. – Toshkent: ToshDO‘TAU, 2024. – B. 31–35.

4. Darveshov I. Areal tilshunoslik: Janubi-g‘arbiy Namangan shevalarining fonetik-fonologik xususiyatlari. – Namangan, 2019. – B. 19.

5. Джураев А.Б. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. – Ташкент: Фан, 1991. – С. 30.

6. Джураев А.Б. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. – Тошкент: Фан, 1991. – С. 32.

7. Ғуломов А.Ғ. Диалектал луғат ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1963. – № 4. – Б. 12.

8. Ҫlozi Alim Junus. Ozbek lahçalarini tasnifda bir taçriba. – Taşkent: OzSSR Davlat naşriyoti, 1935. – B. 19.

9. Иброҳимов С. “Der ozbekische dialekt von Andidschan” ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1961. – № 1. – Б. 67–71.

10. Иброҳимов С. Ўзбек тилининг Андижон шеваси. – Тошкент: Фан, 1967. – Б. 260.

11. Иброҳимов С. Фарғона шеваларининг касб-ҳунар лексикаси. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1959. – Б. 456.

12. Отамирзаева С. “Ўзбек тилининг Андижон шеваси” монографияси ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1968. – № 4. – Б. 65.

13. Маматов А. Ўзбек тилининг Андижон шаҳар шеваси. – Тошкент, 1967. – Б. 271.

14. Турғунов А. Ўзбек тили Балиқчи группа шеваларининг фонетик структураси: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1969. – Б. 38.

15. Фармонов И. Ўзбек тилининг Ўш шеваси: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1960. – Б. 27.

16. Фармонов И. Ўзбек тили Ўш–Ўзган диалектининг баъзи лексик хусусиятлари. – Тошкент: Низомий номидаги ТДПИ, 1983. – Б. 98.

17. Шарипов Ҳ. Жанубий Қирғизистон ўзбек шевалари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1967. – Б. 146.

18. Ashirboyev S. Alisher Navoiy asarlari tili va Andijon shevasi // O‘zbekiston: til va madaniyat. – 2020. – № 1. – B. 6–16.

19. Дониёров Х. Алишер Навоий тилининг диалектал асосларини ўрганишга доир // Навоий ва адабий таъсир масалалари. – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 279.

20. Sobirov A. Andijon dialektal zonasi haqida ba’zi bir mulohazalar // O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv. – Toshkent, 2024. – B. 710.

21. Жўрабоев А. Ўзбек тилида тўй маросими номлари (Андижон группа шевалари материаллари асосида): Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1971. – Б. 230.

22. Маматов А. Ўзбек тили лексикологиясидан материаллар. – Тошкент: ЎзДЖТУ, 2009. – Б. 240.

23. Эргашев А. Андижон вилояти этнотопонимларининг areal-ономастик тадқиқи. – Андижон: Ҳаёт, 2024. – Б. 62.

2030 UZBEKISTAN RESEARCH ONLINE
uzjournals.edu.uz

digital object identifier

Google scholar

ROAD DIRECTORY OF OPEN ACCESS SCHOLARLY RESOURCES

ADVANCED SCIENCES INDEX

"SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY"

The journal was composed in the Editorial and Publishing Department of Bukhara State University.

Editorial address:
Bukhara, 200117
Bukhara State University, main building, 2nd floor, room 219.
Editorial and Publishing Department.
https://buxdu.uz/32-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/131/131-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/
e-mail:
nashriyot_buxdu@buxdu.uz

Printing was permitted 29.10.2026 y. Paper format 60x84,1/8. Printed in express printing method. Conditional printing plate – 35,30. Circulation 70. Order № 30. Price is negotiable.

Published in the printing house "BUKHARAHAMD PRINT" LLC
Address: Bukhara, Hofiz tanish Bukhari street, 190 B-house